ISSN 2181-8258
DOI prefiksi: 10.69691
ResearchBib IMPAKT FACTOR: 9,347

# Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

# TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

2026-yil
4-son I qism (79)

**TAMADDUN NURI jurnali**
Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy,
adabiy-badiiy jurnal
**MUASSISLAR:** Beruniy tuman hokimligi
"Tafakkur-Tamaddun" OOO
"Beruniy avlodlari" jamoat fondi
**HAMKORLARIMIZ:**
O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi
Qoraqalpoq davlat universiteti
Urganch davlat universiteti
**TAHRIR HAY'ATI:**
**BOSH MUHARRIR:**
Munavvara KURBANBAYEVA
**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
Anvar ALLAMBERGENOV, fil.f.f.d (PhD)
**TEXNIK MUHARRIR:**
Islombek ABDIKHAKIMOV, y.f.f.d (PhD)
**BO'LIM MUHARRIRI:**
Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.
Qahramon QURONBOYEV, s.f.d.,prof.
Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)
Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD), (Hindiston)
Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD), (AQSH)
Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)
Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)
Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)
Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, t. f.d, prof., (Ozarbayjon)
Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.
Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.
Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD),k.i.x.
Shoira NURULLAYEVA, t.f.n., dots.
Indira JOLLIBEKOVA, t.f.d., (PhD)
Mamlakat JUMANIYAZOVA, t.f.n., dots.
Konul Bunyadzoda, fəlsəfə fanlari doktoru, (Ozarbayjon)
Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.
Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.
Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)
Mangubek O'RAZMETOV, fal.f.d., (PhD)
Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.
Olmos ULVI Binnatova , fil.f.d., prof., (Ozarbayjon)
Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.
Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n., (Rossiya Federatsiyasi)
Shukurjon Norbayeva, fil.f.d., (DSc)
Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n., dots., (PhD)
Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d., (PhD)
Vahob RAHMONOV, fil.f.n., dots.
Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)
Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)
Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d.,prof.
Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)
Masharib ABDULLAYEV, s.f.d., (DSc), k.i.x.
Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)
Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)
Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)
Dilafruz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**
Sirojiddin SAYYID
Muhammad ALI
Kengesboy KARIMOV
Iqbol MIRZO
Qurbon SHONIYOZOV
O'rozboy ABDURAHMONOV
Murotboy JUMANOV
**Adabiy maslahatchi:**
Guliston MATYOQUBOVA
**Rassom:**
Alibek ABDURAHMONOV
**Sahifalovchi-bezovchi:** G'iyosiddin O'NAROV
**Manzilimiz:** Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Beruniy tumani
Web-sayt: https://jurnal.tamaddunnuri.uz
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.
Telegram kanali: https://t.me/tamaddunnuri
Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.
Qog'oz bichimi 60x84 ⅛. Nashriyot hisob tabog'i 28.
Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.
Bosishga 2026-yil 30-aprelda ruxsat etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor ko`chasi, 28-uy.
2026-yil, 4-son 1-qism (79).
**Ushbu son** "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №35.
Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri"dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.

**10.69691 DOI**

**ISSN-2181-8258**

**Impakt faktor-9.347**

**SLIB.UZ**

BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:

**journal** THE LIGHT OF CIVILIZATION
Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine
**Founders:** Beruniy District Municipality
"Tafakkur-Tamaddun" OOO
Public Foundation “Descendants of Berunius"
**Our colleagues**: Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division
Karakalpak State University, Urgench State University

**EDITORIAL BOARD:**
**EDITOR-IN-CHIEF:**
Munavvara KURBANBAEVA
**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
Anvar ALLAMBERGENOV
**TECHNICAL EDITOR:**
Islombek ABDIKHAKIMOV
**SECTION EDITOR:**
Mukaddas KURBANBAEVA

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.
Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.
Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)
Roman GOPAL, phil.sc.n., (PhD) (India)
Azizulloh AROL, phil.sc.n., (PhD) (USA)
Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)
Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)
Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)
Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, ist. sc.d, prof. (Ozarbayjon)
Anvar ABDULLAEV, ist.sc.d, dots.
Makset KARLIBAEV, t.f.d., k.i.x.
Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.
Shoira NURULLAEVA, c. of h. sciences, Assoc. Prof.
Indira JOLLIBEKOVA, Doctor of Philosophy (PhD) in History
Mamlakat JUMANIYAZOVA, c. of h. sciences, Assoc. Prof.
Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy,
(AMEA) Corresponding Member (Ozarbayjon)
Bakhtiyar KARIMOV, phiosl.sc.d., prof.
Marat NIYOZIMBETOV, philos.sc.d.
Odilbek RADJAPOV, philos.sc..d., (PhD)
Mangubek URAZMETOV, philos.sc.d., (PhD)
Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.
Olmos ULVI Binnatova , Phil. f.sc.d., prof. (Ozarbayjon)
Azamat PRIMOV, Phil. sc.d., (DSc), professor
Nasibullina Nurida Shaydullovna, can. of phil ( Russiya)
Shukurjon Norbayeva, Phil. sc.d., (DSc)
Bekposhsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)
Qabil MAMBETOV, phil.sc.n. (PhD)
Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.
Doniyor YULDASHEV, Phil. sc.d., (DSc)
Farrux Abbas oglu Rüstamov, p.sc.d, prof., (Ozarbayjon)
Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.
Qakhraman IBADULLAEV, p.sc.d., (DSc)
Masharib ABDULLAEV, of art.sc.c., (DSc), k.i.x.
Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)
Rana Hamid qızı Qadirova, Psychol.sc.d., prof.(Ozarbayjon)
Nargis ATABAEVA, Psychol.sc.d., (DSc)
Dilafruz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)

**COMMUNITY COUNCIL:**
Sirojiddin SAYID
Muhammad Ali
Kengesboy KARIMOV
Iqbal MIRZA
Kurban SHONIAZOV
Orozboy ABDURAHMANOV
Muratboy JUMANOV
**Literary Advisor:**
Gulistan MATYOQUBOVA
**Painter:**
Alibek ABDURAHMANOV
**Page editor**:
Ghiyaziddin O'NAROV

Our address: Republic of Karakalpakstan,
Beruni district.
Website: https://tamaddunnuri.uz
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com
Telegram channel: https://t.me/tamaddunnuri
Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40
The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number.
Paper size 60x84 ⅛. Publisher's scoreboard 28. The index is 960.
It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.
Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2026, No.4 (79).
This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #35. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.

“Tamaddun nuri " magazine is indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale.
Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal "Tamaddun nuri".

**Crossref DOI-10.69691**

**ISSN-2181-8258**

**Impakt faktor-9.347**

**SLIB.UZ**

BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK:008.314.316.7.120

# UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA FONETIKA BO‘LIMINI O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI

*Rajapova Kumush, Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti*

# METHODOLOGICAL BASIS OF TEACHING PHONETICS IN SECONDARY SCHOOLS

*Rajapova Kumush, associate professor of Karakalpak State University*

# МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ РАЗДЕЛУ ФОНЕТИКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*Ражапова Кумуш, доцент Каракалпакского государственного университета*

*https://orcid.org/0009-0008-3596-2708*

*e-mail:*

*rajapovakumush71@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fonetika bo‘limini o‘qitishning metodik asoslari va o‘quvchilar nutqiy kompetensiyasini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Unda tovush va harf munosabati, urg‘u, bo‘g‘in hamda tutuq belgisining qo‘llanilishiga doir amaliy topshiriqlar va fanlararo integratsiyadan foydalanish usullari yoritilgan. Maqola o‘quvchilarning imlo savodxonligi va og‘zaki nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Imlo savodxonligi, nutq a’zolari, so‘z boyligi, tutuq belgisi, urg‘u, qorishiq, fanlararo integratsiya, bo‘g‘in ko‘chirish.*

***Abstract:*** *This article analyzes the methodological foundations of teaching phonetics in secondary schools and its significance in developing students' communicative competence. It explores methods of interdisciplinary integration and practical assignments regarding sound-letter relationships, accentuation, syllabification, and the use of the apostrophe. The article aims to enhance students' orthographic literacy and oral speech culture.*

***Keywords****: Orthographic literacy, speech organs, vocabulary, apostrophe, stress, affricate, interdisciplinary integration, syllabification.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются методические основы преподавания раздела фонетики в общеобразовательных школах и её значение в формировании речевой компетенции учащихся. Рассматриваются методы использования межпредметных связей, а также практические задания по изучению соотношения звука и буквы, ударения, слогов и употребления разделительного знака. Статья служит повышению грамотности и культуры устной речи учащихся.*

***Ключевые слова:*** *Орфографическая грамотность, органы речи, словарный запас, разделительный знак, ударение, аффриката, межпредметная интеграция, перенос слогов.*

**Kirish.** Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan fonetika va grafika bo‘limlarini uzviy bog‘liqlikda o‘qitish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda tovushlarning hosil bo‘lishi, ularning akustik va fiziologik xususiyatlari, tovush va harf munosabati, imlo me’yorlari izchil o‘rgatiladi. Mazkur bilimlar o‘quvchilarning to‘g‘ri talaffuz qilish va savodli yozish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, fanlararo integratsiya asosida biologiya va fizika bilan bog‘lab o‘qitish samaradorlikni oshiradi. Maqolaning maqsadi fonetika o‘qitishning metodik asoslarini tahlil qilish va samarali usullarni aniqlashdir.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Ushbu tadqiqot jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-6-sinflari uchun nashr etilgan yangi avlod darsliklari (Mavlonova K. va b., 2022, 2024) hamda mavjud metodik qo‘llanmalarning qiyosiy-tahliliy metodidan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodik asosi

sifatida A. G‘ulomov va B. To‘xliyevlarning ona tili o‘qitish tamoyillari, shuningdek, G‘. Hamroyevning fonetikani o‘qitishda o‘quv-metodik ta’minotni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy qarashlari tanlab olindi.

**Natijalar va muhokama**

Ko‘pchilik o‘quvchilar a va o unlilarining talaffuzi va imlosida qiynalib qolishadi. Shuning uchun mana shu unlilarning aytilishi, yozilishini o‘rganishda ko‘proq amaliy mashqlar va topshiriqlardan foydalangan ma’qul. Masalan:

1-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga a yoki o harflaridan mosini qo‘yib ko‘chiring va so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini bilib oling.

Sav...b, z...mon, fonetika, konfet, ijobat, jahon, koridor, davron, bakovul, zavod, bepayon, agrotexnika, bekinmachoq, davomat, advokat, ideologiya, zavq, ajabtovur, do‘lana, diplomat, aeroport, garmon.

2-topshiriq. Shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari hosil qiling.

Unlilar imlosi va talaffuzi ustida ishlashni quyidagi ijodiy topshiriqlar orqali ham amalga oshirish mumkin.

1-topshiriq. Berilgan so‘zlar ma’nosini sharhlang. So‘zdagi undosh tovushni almashtirib, yangi so‘zlar hosil qiling: ol, o‘n, tosh.

ol – on, os, osh, oq, ot, oz...;

o‘n – o‘z, o‘ch, o‘s, o‘r, o‘q, o‘t...;

tosh – qosh, dosh, bosh, mosh, fosh...

2-topshiriq. a unlisi bilan boshlanuvchi bir bo‘g‘inli so‘zlar qatorini tuzing va ma’nolarini sharhlang: asl, adl, amr, asr, avj, azm...

Undosh tovushlarni o‘rganishda ham ko‘proq ularning aytilishi va yozilishi ustida amaliy ish olib borish lozim. Ayniqsa, lotin alifbosiga asoslangan yangi o‘zbek alifbosida undosh tovushlar bilan undosh harflarning teng emasligi, ya’ni 24 ta undosh tovush, 23 ta undosh harf borligini, j harfi ikki xil talaffuz qilinishi, lekin bir harf bilan ifoda etilishini tushuntirib berish lozim. Ma’lumki, bu undosh tovushining qo‘llanishi quyidagicha bo‘ladi:

1. jon, jahon, jiyda, tijorat, rivoj, vaj kabi so‘zlarda til oldi, jarangli, qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;
2. jurnal, projektor, gijda, ajdar, garaj, tiraj kabi o‘zlashma so‘zlarda til oldi, jarangli, sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Mana shu qoida misollar yordamida tushuntirilgandan keyin j undoshi bo‘yicha "Imlo lug‘ati"dan shu harfga tegishli so‘zlar ichidan qorishiq j va sirg‘aluvchi j tovushining har biriga beshtadan misol topish topshiriladi:

| Qorishiq | Sirg‘aluvchi |
|---|---|
| *javon* | *jeton* |
| *jadal* | *jurnal* |
| *jadval* | *jyuri* |
| *jazira* | *janr* |
| *jazm* | *jandarm* |

Undoshlarning jarangli va jarangsiz juftlari, ularning talaffuzi va imlosi ustida ishlash lozim. Masalan, jarangli undoshlar ko‘pincha so‘z oxirida kelganda, talaffuzda jarangsizlanadi hamda boshqa ma’nodagi so‘zlarni yuzaga keltiradi:

*Tub — tag, asos, biror joyning eng pastki qismi.*

*Tup — bir dona o‘simlik yoki daraxt ko‘chati. Bir tup olma.*

*Bod — revmatizm, kasallik.*

*Bot — tez, tez-tez; ko‘p vaqt o‘tmay.*

*Yod — xotir, xotira, es. Yodda saqlamoq, yod olmoq.*

*Yot — begona, o‘zga.*

*Xat — yozilgan narsa, maktub kabilar.*

*Had — chegara, me’yor, haddidan oshmoq.*

Bunday so‘zlarni o‘zaro qiyoslash va farqlash, ularning ma’nosini sharhlash topshiriqlari o‘quvchilarda imlo savodxonligini mustahkamlash bilan birga so‘z boyligini hamda nutqiy mahoratini oshiradi. Mana shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari va kichik ijodiy matn yaratish ham mumkin.

Shuningdek, o‘quvchilarning ko‘pchiligida tutuq belgisi bilan bog‘liq bo‘lgan xatoliklar kuzatiladi. Asosan, tutuq belgisining o‘rnini almashtirib yuborish yoki tushirib qoldirish hollari ko‘p uchraydi. Shuning uchun o‘qituvchi bu narsaga alohida e’tibor qaratishi lozim. Tutuq belgisi ustida amaliy ish olib borishdan oldin u bilan bog‘liq bo‘lgan qoidalarni nazariy va amaliy jihatdan tushuntirib berish kerak. Bilamizki, tutuq belgisi:

1. a’lo, ma’yus, ta’zim, ra’y, ta’b, e’tibor, e’tiqod, me’mor, ma’lumot, ne’mat, she’r, fe’l, Nu’mon, shu’la kabi o‘zlashma so‘zlarda unlidan keyin kelib, shu unli tovushning cho‘ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo‘yiladi; mo‘jiza, mo‘tadil, mo‘tabar kabi so‘zlarda o‘ unlisi cho‘ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo‘yilmaydi;
2. in’om, qat’iy, mas’ul kabi o‘zlashma so‘zlarda unlidan oldin kelib, shu unlining oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo‘yiladi.

Mana shu qoida tushuntirilgandan keyin "Imlo lug‘ati"dan tutuq belgisining ikki holatda

qo‘llanishiga doir so‘zlar topish, ular yordamida gaplar tuzish topshiriladi.

O‘quvchilar ba’zan an’ana, san’at, jur’at, ma’naviyat, e’lon, me’mor so‘zlarini tanlab daftarlariga ko‘chiradilar. Keyin ular ishtirokida gaplar tuzdiriladi. O‘quvchilar quyidagi ko‘rinishdagi gaplarni tuzishi mumkin:

1. Biz an’anaviy bayramimiz bo‘lgan Navro‘zni juda xursandchilik bilan o‘tkazamiz.
2. Ma’naviyatli inson yolg‘onchilikdan yiroq bo‘ladi.
3. San’atni sevgan kishining qalbida g‘ubor bo‘lmaydi.

Bunday mashqlarni sinfda bajartirish ham, uyga vazifa qilib berish ham mumkin. Shu hodisalar bilan birga harfiy birikmalar ustida ham ish olib borish lozim. Ng harflar birikmasi bitta til orqa undoshini ifodalaydi. Bu harfiy birikmani ikkita alohida n va g undoshlarini ifodalovchi harflarning yonma-yon kelishidan farqlash lozim. Ng harfiy birikmasi bir bo‘g‘in tarkibida, n va g harflari esa boshqa-boshqa bo‘g‘inlar tarkibida keladi. Solishtiring: *ko‘-ngil, si-ngil, men-ga, osmon-ga, kon-gress, shtan-ga*. Rus-yevropa so‘zlarida har doim alohida tovushlarni anglatadi: *kon-gress, shtan-ga*.

Sh harfiy birikmasi bitta til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz undoshni ifodalaydi. *Eslatma:* S va h yonma-yon kelib, alohida tovushlarni ifodalaganda, ular orasiga tutuq belgisi (’) qo‘yiladi: *is’hoq, as’hob*.

Ch harfiy birikmasi bitta til oldi, portlovchi, jarangsiz undoshni ifodalaydi. Bu harfiy birikmalar bo‘g‘in ko‘chirishda doim birgalikda yoziladi: *ko-shona, pu-chuq, de-ngiz* kabi.

Fonetika darslarida ko‘proq amaliy ishlar yordam beradi. Shuningdek, “Imlo lug‘ati” ustida ishlash ham tovushlarning aytilishi va yozilishi bilan bog‘liq bo‘lgan qoidalarni oson o‘rgatishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Urg‘u hodisasini o‘rganish. Fonetika darslarida urg‘u haqida ham atroflicha bilim berish zarur. O‘qituvchi urg‘u haqida bilim berish jarayonida, avvalo, o‘zbek tilida urg‘u ikkiga bo‘linishi hamda so‘z urg‘usi, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘inidagi unli tovushga tushishini aytishi lozim. So‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushmaydigan so‘zlar ham borligini aytib o‘tish kerak. Masalan, tilimizga boshqa tildan kirgan so‘zlarda urg‘u oxirgi bo‘g‘inga emas, boshqa bo‘g‘inlarga ham tushishi mumkin. Bu hodisani o‘rgatishda dóim, hózir, albátta, fizika, ámmo, lékin, bá’zan, bá’zi kabi so‘zlarni taxtaga yozib, o‘quvchilarga urg‘usini joyiga qo‘yib o‘qish topshiriladi. Keyin birgalikda tahlil qilinadi. O‘zbek tilida so‘z urg‘usining o‘rni o‘zgarsa so‘z ma’nosida ham o‘zgarish sodir bo‘ladigan olmá (meva) – ólma (fe’l), tugmá–túgma, súzma–suzmá, súrma–surmá, átlas–atlás, ko‘zlár–kó‘zlar, yigítcha (kichkina bola ma’nosida) – yigitchá (yigitdek ma’nosida) kabi so‘zlar ham mavjud. O‘qituvchi bu so‘zlarni juftlari bilan taxtaga yozib, ulardagi urg‘ularning o‘rinlarini almashtirish yo‘li bilan so‘zning ma’nosi o‘zgarayotganligini izohlab ketsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuningdek, tilimizda so‘z urg‘usi olmaydigan bir guruh qo‘shimchalar: fe’llardagi shaxs-son (*borársan, kélarsan*); sonning ma’noviy turini hosil qiluvchi -ta, -tacha (*béshta, sakkízta, o‘ntacha*); ravish yasovchi -cha, -dek, -day (*yigítcha, ótdek, o‘tday*); fe’lning bo‘lishsiz shakli -ma (*o‘qíma, bórma, kétma*); ba’zi yuklamalar: -u(yu), -ku, -mi, -chi, -oq(yoq), -da, -gina kabilarning mavjudligini misollar yordamida tushuntirib berish lozim. O‘qituvchi so‘z urg‘usi ustida mukammal ish olib borishi kerak, chunki bu urg‘uni noto‘g‘ri qo‘yish ko‘pincha orfoepik xatoliklarga olib keladi. Shuning uchun so‘z urg‘usiga doir mashqlar yuqori sinflarda ham davom ettirilishi kerak. So‘z urg‘usi ustida quyidagi amaliy ishlarni bajarish mumkin:

So‘zlar: *tugma, tortma, matematik, akademik, suzma, bog‘lar, etik, qo‘llar, olma, surma, ko‘zlar, yangi, gullar, hozir, atlas, tortma, kesma, qaynatma, yigitcha, qishloqcha.*

1-topshiriq. Yuqoridagi so‘zlarga urg‘uni to‘g‘ri qo‘yib chiqing va urg‘uga e’tibor berib o‘qing.

2-topshiriq. So‘z urg‘ularining o‘rnini almashtirib ko‘ring. So‘zlar ma’nosidagi o‘zgarishlarni ayting.

3-topshiriq. Shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari hosil qiling.

O‘zbek tilida gap urg‘usi ma’noviy urg‘u, logik urg‘u, mantiqiy urg‘u nomlari bilan ham yuritiladi. Gapning ichidagi ma’lum bir so‘zning boshqalariga qaraganda kuchli ohang bilan aytilishi gap urg‘usi hisoblanadi. Odatda, gap urg‘usi kesimdan oldingi bo‘lakka tushadi. Gap urg‘usi ustida ishlashda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan gaplarni taxtaga yozib, o‘quvchilar bilan birga tahlil qilish yaxshi natija beradi. Masalan, *Men O‘zbekistonni jonimday sevaman* ("jonimday" so‘ziga urg‘u tushgan). Endi o‘quvchilar bilan birgalikda "men", "O‘zbekiston" so‘zlariga urg‘u tushirib o‘qiladi. Uyga vazifa sifatida matn berib, matndagi so‘zlarning urg‘usini qo‘yish topshiriladi.

Bo‘g‘in ustida ishlash. Bo‘g‘in hodisasi ustida ishlash jarayonida ham amaliy mashqlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Avvalo, bo‘g‘inning o‘ziga xos xususiyatlari va turlari haqida ma’lumot beriladi. So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lib o‘rgatishda, albatta, bo‘g‘inning amaliy ahamiyatini nazarda tutish lozim. Ma’lumki, bo‘g‘in bir satrga sig‘magan so‘zni boshqa satrga ko‘chirish uchun xizmat qilish bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga savod o‘rgatish va she’riy qatorlarni vaznga keltirishga ham xizmat qiladi.

O‘quvchilarning ko‘pchiligi bo‘g‘in ko‘chirishda xatoga yo‘l qo‘yadilar. Mana shu xatolarning oldini olish uchun bo‘g‘in ko‘chirish bilan bog‘liq bo‘lgan qoidalar ustida ishlash lozim. Bu bilan bog‘liq asosiy qoidalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

-Ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi: *to‘q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor, paxta-kor* kabi.

-Tutuq belgisi oldingi bo‘g‘inda qoldiriladi: *va’-da, ma’-rifat, mash’-al, in’-om* kabi.

-Bir tovushni ko‘rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko‘chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

Keyin shu qoidalar ustida amaliy ish olib borish mumkin. Bo‘g‘in mavzusi tilshunoslikning orfografiya va orfoepiya bo‘limlari bilan uzviy bog‘liqdir. Bo‘g‘in tuzilishi va bo‘g‘in ko‘chirish mavzulari yuzasidan yozma mashqlar o‘tkazilganda, quyidagi so‘zlar ustida to‘xtalish tavsiya etiladi: *a-ka, o-na, shtan-ga, kon-gress, ko‘-ngil, do‘st, tosh, past, soz, barg, sport* kabi. Mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi mashqdan foydalanish mumkin:

*Non, past, barg, soz, qosh, sport, ko‘z, dars, asir, avj, start, asr, disk, naql, so‘z, ust, tosh, ark, do‘st, gramm, bank, xol, ko‘p, zavq, go‘sht, tez, nutq, tank.*

1-topshiriq. Yuqoridagi so‘zlarni uch ustunga ajrating: birinchi ustunga bir unli va ikki undoshdan iborat bo‘g‘inli so‘zlarni, ikkinchi ustunga bir unli va uch undoshdan iborat bo‘g‘inli so‘zlarni, uchinchi ustunga bir unli va to‘rt undoshdan iborat bo‘g‘inli so‘zlarni joylashtiring.

2-topshiriq. Bir unli va bir undoshdan iborat bo‘lgan so‘zlar qatorini tuzing.

3-topshiriq. Yuqoridagi so‘zlar yordamida so‘z birikmalari hosil qiling.

Grammatik tahlilni DTS talablariga xizmat qildirish uchun til bo‘limlarini o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish, uni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jarayonda ona tili ta’limining bo‘limlararo hamda fanlararo aloqasi natijasi yaqqol ko‘zga tashlanadi va tilni tizimiy o‘rganishning amaliyotga ijobiy ta’siri samarasi seziladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabda fonetika bo‘limini o‘rgatish o‘quvchilarning nutqini to‘g‘ri shakllantirish, savodxonligini oshirish va umumiy ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki fonetika — til o‘rganishning ilk bosqichi bo‘lib, u barcha keyingi bilimlar uchun mustahkam asos yaratadi. Shuning uchun maktab ta’limida fonetikaga alohida e’tibor qaratish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 380 b.
2. Hamroyev G‘. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fonetikaga doir o‘quv metodik ta’minotni takomillashtirish: Ped. fan. fal. d-ri (PhD) diss. – Samarqand, 2019. – 180 b.
3. Husanboyeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. diss. – Toshkent: TDPU, 2006. – 262 b.
4. Mavlonova K. va boshqalar. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 1-qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 144 b.
5. Mavlonova K. va boshqalar. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
6. Mukarramov M. va boshqalar. Imlo qoidalari yuzasidan mashqlar to‘plami. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 88 b.
7. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent:Yangiyo‘l Poligraf Servis, 2010. –160 b.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.03.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK:811.512.133'373.7

# "XAMSA" MATNIDAGI HARAKAT BILDIRUVCHI FRAZEMALAR XUSUSIYATI

***O'razova Iqbol Abdikarimovna,***
***Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.,***
***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat***
***o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti***

# CHARACTERISTICS OF MOTION-DENOTING PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE TEXT OF "KHAMSA"

***Urazova Iqbol Abdikarimovna,***
***Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Acting Associate Professor,***
***Doctoral candidate at Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature***

# ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ СО ЗНАЧЕНИЕМ ДВИЖЕНИЯ В ТЕКСТЕ "ХАМСА"

***Уразова Икбол Абдикаримовна,***
***Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, и.о. доцента, докторант Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои***

***https://orcid.org/0000-0003 2729-0856***

***e-mail: iqbolorazova@gmail.com***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada "Xamsa" dostonlarida qo'llangan harakat bildiruvchi frazemalar semantik jihatdan tahlil qilinadi. Harakat bildiruvchi frazemalarning konnotativ ma'no hosil qilishdagi o'rni, obrazlilik darajasi hamda badiiy matn dinamikasini ta'minlashdagi ahamiyati alohida yoritiladi. Fikrlar dostonlardan olingan misollar yordamida asoslanib, Navoiyning so'z qo'llash mahorati ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *"Xamsa", frazema, leksema, badiiy til, mikromaydon, semema, sema, integral sema, "harakat" semasi.*

***Abstract:*** *This article provides a semantic analysis of motion-denoting phraseological units used in the epics of "Khamsa". Particular attention is paid to the role of such phraseological units in generating connotative meaning, their degree of imagery, and their significance in ensuring the dynamism of the literary text. The arguments are substantiated with examples drawn from the epics, revealing Navoi's mastery in the use of words.*

***Key words:*** *"Khamsa", phraseological unit (phraseme), lexeme, literary language, microfield, sememe, seme, integral seme, the seme of "movement".*


***Аннотация:*** *В данной статье проводится семантический анализ фразеологических единиц со значением движения, употребляемых в поэмах Хамса. Особое внимание уделяется роли данных фразем в формировании коннотативного значения, степени их образности, а также их значению в обеспечении динамики художественного текста. Выводы обосновываются примерами из поэм, что позволяет раскрыть мастерство Навои в употреблении слова.*

***Ключевые слова:*** *"Хамса", фразема, лексема, художественный язык, микрополе, семема, сема, интегральная сема, сема "движение".*

**KIRISH.** Harakat bildiruvchi frazemalar fe'l leksemalardan obrazliligi, badiiy jihatdan boyligi va semantik jihatdan kengligi bilan ajralib turadi. Har bir ijodkorning fraeologik birliklarni qo'llash mahorati turlicha bo'lib, bu uning badiiy tili bilan bog'liqdir. Shu nutqayi nazardan olsak, Navoiyning frazemalardan foydalanish mahorati ham ijodkorning badiiy niyati, so'z boyligi va tildan foydalanish malakasi bilan aloqador.

**ASOSIY QISM.** "Xamsa"ning besh dostonida "harakat" semali 343 ta frazema mavjud bo'lib, frazemalar badiiy ifodaning obrazliligi,

semantik kengligi bilan ajralib turadi. Dostonlarda harakat bildiruvchi frazemalarni semantik jihatdan “boshlanish” semali, “yurish” semali, “ko‘tarish” semali, “tanavvul” semali “qatl” semali, “jang” semali mikromaydonlarga birlashtirgan holda tahlil qilish mumkin.




Ammo bu guruhga oid frazemalarning semantik tarkibi aynan bir emas, ularni bir-biri bilan bog‘lab turuvchi integral semalar bilan birga differansial semalar ham mavjud. Ayni ana shu farqlovchi frazema frazemani boshqa birliklardan ajratib turadi, semantik qiymatini baholashga yordam beradi.

Harakat bildiruvchi frazemalar mikromaydoniga oid frazemalar orasida sinonimlik va variativlik hodisasi faol bo‘lib, komponent almashinuvi yoki arab va fors tillariga yarim kalka asosida yuzaga kelgan. Masalan, *ko‘nglini garm qil=* frazemasi “ishtiyoqini oshirmoq” ma’nosini bildiradi: *Qilib ko‘p va’da birla ko‘nglini garm, Qo‘pub ul yo‘lg‘a tushti, qilmay ozarm* [Navoiy, Farhod va Shirin, 2020: 437]. Shu birlikning komponent almashinuvidan hosil bo‘lgan *ko‘ngli aro otash yoq=* frazemasi “ishtiyoqi kuchaymoq” ma’nosini bildiradi va gradatsion sema bilan farqlanib turadi. Bu jarayon uch til – turkiy, arabiy va forsiy tillarning o‘zaro ta’siri natijasida Navoiy tilida frazeologik boylikning kengayishiga xizmat qilgan: *fig‘on-u vovaylo chek=* (“nadomatli oh qilmoq”), *fig‘on-u zorin chek=* (“kuchli nola qilmoq”), *fig‘on-u xuro‘sh chek=* (“faryod qilmoq”).

Harakatning belgisini bildiruvchi frazemalar shakllanishida somatizmlar ancha faol. Kishilar real harakatlarning belgisini unga bog‘liq bo‘lgan jarayonlar bilan nomlashga erishgan. Bu kabi frazemalarda tilga mentayondashuv bo‘rtib turadi. Harakat bildiruvchi frazemalar fe’l leksemalardan obrazliligi, badiiy jihatdan boyligi va semantik jihatdan kengligi bilan ajralib turadi. Har bir ijodkorning frazeologik birliklarni qo‘llash mahorati turlicha bo‘lib, bu uning badiiy tili bilan bog‘liqdir. Shu nutqayi nazardan olsak, Navoiyning frazemalardan foydalanish mahorati ham ijodkorning badiiy niyati, so‘z boyligi va tildan foydalanish malakasi bilan bog‘liq. Harakat bildiruvchi frazemalar orasida sinonimlik va variativlik juda faoldir. Variativlik aksar holda komponent almashinuvi asosida yuzaga kelgan. Sinonim frazemalar esa turkiy frazemalarning arab va fors tiliga yarim kalka orali o‘zgartirilishidan hosil bo‘lgan. Shu nutqayi nazardan olsak, Navoiy uch til imkoniyatidan foydalangan holda turkiy til frazeologiyasini boyitishga xizmat qilgan.

Harakat bildiruvchi frazemalar yozuvchining maqsadini aniq, obrazli va real chizishga xizmat qilgani bilan qimmatlidir. Ushbu frazemalar dostonlarda “harakat” semali leksemalar bilan sinonimlikni hosil qilsa-da, ammo semantik tarkibining kengligi bilan ajralib turadi. Harakat bildiruvchi frazemalar shunday ma’noni ifodalagan leksemalardan farqli ravishda ushbu harakatni ifodali, qo‘shimcha tafsilotlar bilan boyitgan holda ifodalaydi. Aksar harakat bildiruvchi frazemalar ma’lum harakatning amalga oshganini bildirish bilan birga bu harakat tasodifan yuz berganini ham ifodalaydi. Masalan: *guzor tush=* (avvaldan reja qilmay o‘z-o‘zicha o‘tmoq; tasodifan o‘tmoq) frazemasi “o‘tmoq” ma’nosini bildiradi. Shu bilan birga bu tashrif avvaldan reja qilinmaganini, kutilmaganda bu tomonga kelib qolganini ham bildiradi: *Bu dashtqakim tushub guzori Kim, ko‘kka yetib fig‘on-u zori* [Navoiy, Layli va Majnun, 2020: 157]. Bu frazema hozirgi kunda *yo‘li tushmoq* shaklida qo‘llanadi.

Odatda nutqda fe’l leksemalarda bu sema ko‘makchi fe’llar yordamida hosil qilinadi. Ammo harakat bildiruvchi frazemalarning aksariyati tarkibida ushbu ma’no mavjud bo‘ladi. Masalan, *javlon ur=* frazemasi “hamla qilmoq” ma’nosi bilan birga ish harakatning boshlanishinini ham bildiradi: *Ish kuni bu*

TAMADDUN NURI

*raxsh uza javlon urub, Yuz tuman a'do cherigin sindurub* [Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020: 70].

Baytdagi *qiziq* leksemasi sifat turkumiga mansub bo‘lib “qizigan, isigan, issiq” [ANATIL, IV: 48] ma’nolariga ega. Dostonda *qiziq* leksemasi ayni ma’nosi bilan mustaqil holda ham uchraydi: *Tāğdïn kišikim tiläb nišānï, Bir tödä qïziğ kül äŋläb ānï* [Navoiy, Layli va Majnun, 2020: 170]. Ushbu baytda ham *qizig‘* leksemasi “issiq, qo‘rli” ma’nosini ifodalamoqda. *Qiziq* leksemasining bu ma’nosi nutqda faol qo‘llanmagani bois mustaqil birlik sifatida iste’moldan chiqish arafasida bo‘lsa-da, ammo shevadagi frazemalar tarkibida semantik yadro sifatida saqlanib kelmoqda. Masalan, nutqimizda *qiziq ustida* frazemasi qo‘llanib, “qizishib turgan paytda” [O‘TIL, IV, 2022: 185] semalarini ifodalaydi. Bilamizki, jahl chiqqanda inson tanasida qon aylanishi tezlashadi, natijada tana qiziydi (Bu holat shevalarda *miyaga chiqmoq* frazemasi bilan ifodalanadi.) va ayrim kishilar o‘z-o‘zini nazorat qila olmay qoladi. Frazema jahlni nazorat qila olmaslik natijasida sodir qilingan xatti-harakatni tanadagi ichki o‘zgarish holati bilan tasvirlashdan hosil qilingan. *Qizig‘ida bosmoq, qizi-qizi bermoq* frazemalari ham ayni sema asosida shakllangan va *qiziq* leksemasi semantik yadro vazifasini bajarmoqda. *Qiziq ustida* frazemasida *qiziq* semantik yadrosi “holat” semasini ifodalasa, *qizig‘ida bosmoq* frazemasida “payt” ma’nosini anglatmoqda. *Qizi(q)-qizi(q) bermoq* frazemasida esa “nutqiy jarayon” semasini aks ettirmoqda. Bu ma’nolarning shakllanishi leksemani ko‘chma ma’noda qo‘llash va semantik bog‘liqlikni hosil qilish natijasi yuz bergan.

*O‘rga chiq=* frazemasi “balandlamoq, yuksalmoq”, “ko‘tarilmoq” ma’nolarini ifodalab, frazema Husayn Bayqoroning tulporiga nisbatan qo‘llangan: *Xiromi o‘rga chiqmoqta tutundek, Egarmak vaqti dasht uzra quyundek* [Navoiy, Farhod va Shirin, 2020: 55]. Frazema tarkibidagi *o‘r* leksemasi “yuqorilik”, “balandlik” [ANATIL, III: 611] ma’nolari bilan yadro sifatida frazemaning semantik shakllanishiga asos bo‘lmoqda. Frazema hozirgi kunda *tepaga chiqmoq* shaklini olib, shaxslarga nisbatan ham qo‘llanadi va mansab pog‘onalaridan ko‘tarilishni ifodalaydi: *Odam tepaga chiqqan sari qo‘rqoq va mute bo‘lib boraveradi, chunki yo‘qotadigan narsasi ko‘payadi* [So‘zlashuv uslubi].

Harakat bildiruvchi frazemalar holat bildiruvchi frazemalarga juda yaqin turadi. Masalan, dostonda qo‘llangan *joni shavq o‘tig‘a tush=* frazemasi “ishtiyoqmand bo‘lmoq, yoqtirmoq” ma’nolarini ifodalab, Ibn Salomning Laylini ko‘rgandagi ruhiy holatini ochib berishga xizmat qilgan: *Chun Ibni Salom ko‘rdi oni, Shavq o‘tig‘a tushti xasta joni* [Navoiy, Layli va Majnun, 2020: 131]. Frazema tarkibida qo‘llangan *shavq* leksemasi Ibn Salomning tuyg‘ulariga ishora qilib, uning muhabbati chin sevgi emasligi, aksincha barchaning tiliga tushgan go‘zalga erishish uning asl niyati ekaniga ishora qilmoqda. Navoiy bu obrazga nisbatan Majnunga qo‘llagan frazemalarni qo‘llashni ma’qul topmagani ularning Layliga bo‘lgan tuyg‘ularining farqli ekanini aks ettirish edi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, harakatning belgisini ifodalovchi frazemalar tarkibida somatizmlar muhim rol o‘ynab, insonning real harakat tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Bunday birliklarda borliqni idrok etishning mental modeli yaqqol aks etadi. Harakat bildiruvchi frazemalar oddiy fe’l leksemalardan obrazlilik, badiiy boylik va semantik kenglik jihatidan ustun turadi. Shu bilan birga, frazeologik birliklardan foydalanish darajasi har bir ijodkorning individual uslubini belgilaydi. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida frazemalarning qo‘llanishi uning badiiy niyati, keng so‘z boyligi hamda tildan mahorat bilan foydalanish qobiliyatini yorqin namoyon etadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.– Тошкент: Фан, 1982-1984.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.– Тошкент: Фан, 1984. 3-том.
3. Navoiy A. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020.
4. Navoiy A. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020.
5. Navoiy A. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020.
6. Navoiy A. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020.
7. Кошғарий М. Девону луғати-т-турк. Нашрга тайёрловчи: Қ.Содиқов. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK:008.314.316.7.129

# GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA “YASHIL MAKON” MILLIY DASTURINING AHAMIYATI

***Rahmatov Nizomiddin Ashur o‘g‘li,***
***Shahrisabz davlat pedagogika instituti Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i***



***https://orcid.org/0009-0008-0405-5478***
***nizomiddin0894@gmail.com***

# THE IMPORTANCE OF THE NATIONAL PROGRAM “GREEN SPACE” IN SOLVING GLOBAL ECOLOGICAL PROBLEMS

***Rahmatov Nizomiddin Ashur ogli,***
***Shahrisabz State Pedagogical Institute, Head of the Department for the Organization of Scientific Research Activities of Gifted Students***

# ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРОГРАММЫ «ЗЕЛЁНЫЕ ПРОСТРАНСТВА» В РЕШЕНИИ ГЛОБАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ

***Рахматов Низомиддин Ашур углы,***
***Шахрисабзский государственный педагогический институт, Начальник отдела организации научно-исследовательской деятельности одарённых студентов***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada global ekologik muammolarni kamaytirishda “Yashil makon” milliy dasturining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda atrof-muhitni muhofaza qilish, hududlarni ko‘kalamzorlashtirish hamda ekologik holatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, daraxt ekish va yashil hududlar maydonini kengaytirish iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish hamda atmosfera ifloslanishini kamaytirishda muhim omil ekanligi asoslangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *global ekologik muammolar, ekologik barqarorlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, ko‘kalamzorlashtirish, yashil hududlar, iqlim o‘zgarishi.*

***Abstract:*** *This article highlights the role and importance of the national program “Yashil makon” in reducing global environmental problems.The study examined measures aimed at protecting the environment, greening areas, and improving the ecological situation.It is also based on the fact that planting trees and expanding green areas is an important factor in reducing climate change, desertification, and atmospheric pollution.*

***Keywords:*** *global environmental problems, ecological sustainability, environmental protection, greening, green areas, climate change.*

***Аннотация:*** *В данной статье освещается роль и значение национальной программы «Яшил макон» в сокращении глобальных экологических проблем. В исследовании рассматривались меры, направленные на защиту окружающей среды, озеленение территорий и улучшение экологической ситуации. В основе этого подхода также лежит тот факт, что посадка деревьев и расширение зеленых зон являются важным фактором в снижении изменения климата, опустынивания и загрязнения атмосферы.*

***Ключевые слова:*** *глобальные экологические проблемы, экологическая устойчивость, охрана окружающей среды, озеленение, зеленые зоны, изменение климата.*

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Hozirgi davrda global ekologik muammolar insoniyat taraqqiyoti uchun jiddiy tahdid solayotgan eng muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Iqlim o‘zgarishi, atmosferaning ifloslanishi, cho‘llanish jarayonining kuchayishi hamda biologik xilma-xillikning qisqarishi tabiiy muhitning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ekologik tizimlarning izchil faoliyat yuritishini murakkablashtirmoqda. Mazkur jarayonlar nafaqat atrof-muhit holatiga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir etib, insonlarning turmush sifati hamda yashash sharoitining o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois global ekologik muammolarni bartaraf etish va ekologik barqarorlikni ta’minlash zamonaviy ilmiy tadqiqotlar hamda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

**ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Global ekologik muammolar va ularni bartaraf etish masalalari ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda muhim yo‘nalish sifatida o‘rganib kelinmoqda. Xorijiy olimlar ekologik muammolarning asosiy sabablarini sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish hamda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi bilan izohlaydilar. Jumladan, ekologiya sohasidagi yetuk olimlardan biri bo‘lgan E. Odum ekologik tizimlarning barqarorligi inson faoliyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlab, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ekologik muvozanatni saqlashning muhim sharti ekanligini asoslab beradi [3]. Shuningdek, N. Stern tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda iqlim o‘zgarishi global iqtisodiyot va ekologik tizimlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilib, ushbu jarayonlarni kamaytirishda ekologik siyosat va iqtisodiy mexanizmlarning ahamiyati alohida ko‘rsatib o‘tilgan [4]. J. Sachs esa barqaror rivojlanish konsepsiyasini ekologik muammolarni hal etishning muhim nazariy asoslaridan biri sifatida talqin qilib, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida ekologik muvozanatni saqlash zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5].


Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda ham atrof-muhitni muhofaza qilish, cho‘llanish jarayonining oldini olish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash masalalari keng yoritilgan. Xususan, A.N. Xodjimatov, N.R. Alimqulov, Sh.A. Xolmurodov va M.E. Djurayevlarning ilmiy tadqiqotlarida ekologik muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda ekologik muvozanatni saqlash masalalari tizimli yondashuv asosida o‘rganilgan [6]. Mazkur tadqiqotlarda daraxtzorlar va yashil hududlarning ekologik muhitni yaxshilashdagi o‘rni alohida ta’kidlanib, ularning atmosferadagi zararli gazlar miqdorini kamaytirish, tuproq eroziyasining oldini olish hamda hududlarning mikroiqlimini barqarorlashtirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ekologik muammolarni kamaytirishga qaratilgan davlat siyosati va ekologik dasturlar ham ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, mamlakatda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi hududlarni ko‘kalamzorlashtirish, yashil hududlar maydonini kengaytirish hamda ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan muhim tashabbus sifatida baholanadi [1]. Mazkur tashabbus davlatning ekologik siyosati hamda barqaror rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rilib, jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish va tabiiy muhitni muhofaza qilishga xizmat qilishi qayd etiladi [2].

Mazkur tadqiqotda global ekologik muammolarni kamaytirishda **“Yashil makon” umummilliy loyihasining** ahamiyatini o‘rganish maqsadida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ekologik muammolarning kelib chiqish omillari, ularning tabiiy muhitga ta’siri hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan siyosiy va institutsional choralar ilmiy manbalar asosida o‘rganildi.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Tadqiqot natijalari global ekologik muammolarni kamaytirishda ko‘kalamzorlashtirish ishlari muhim ekologik omil ekanligini ko‘rsatdi. Atmosferaning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi hamda cho‘llanish jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda yashil hududlarni kengaytirish tabiiy muhit holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda daraxt va butalar atmosferadagi karbonat angidrid hamda boshqa zararli gazlarni yutib, havoning tabiiy tozalanish jarayonida muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi [3]. Shu bilan birga, yashil hududlar tuproq eroziyasining oldini olish, biologik xilma-xillikni saqlash hamda hududlarning

mikroiqlimini barqarorlashtirishga yordam berishi ilmiy adabiyotlarda ham qayd etilgan [6]. Ko‘kalamzorlashtirish jarayonining global ekologik muammolarni kamaytirishdagi asosiy ekologik ta’siri va natijalari quyidagi rasmda aks ettirilgan.

**1-rasm.**




***Manba:*** *muallif tomonidan tuzilgan.*

Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, ko‘kalamzorlashtirish ishlari global ekologik muammolarni kamaytirishda muhim ekologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, yashil hududlar mikroiqlimni barqarorlashtirish, tuproq eroziyasining oldini olish hamda biologik xilma-xillikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” milliy dasturi mamlakat hududlarida ko‘kalamzorlashtirish ishlarini kengaytirishga qaratilgan muhim ekologik tashabbus hisoblanadi. Mazkur dastur doirasida turli hududlarda daraxt va buta ko‘chatlari ekilib, yashil hududlar maydoni kengayib bormoqda. Ushbu jarayon atrof-muhit holatini yaxshilash, aholi yashash hududlarida qulay ekologik sharoitni shakllantirish hamda tabiiy landshaftlarni saqlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ekologik siyosatning ushbu yo‘nalishi barqaror rivojlanish tamoyillariga mos ravishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni mustahkamlashga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir [5].

Shu bilan birga, ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari cho‘llanish jarayonlarini sekinlashtirish hamda tuproq degradatsiyasini kamaytirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Yashil hududlarning kengayishi shamol va suv eroziyasi jarayonlarini kamaytirib, hududlarning ekologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladiXalqaro tashkilotlar tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda ham ko‘kalamzorlashtirish va yashil hududlarni kengaytirish ekologik muammolarni kamaytirishda muhim strategik yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan [7].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Olib borilgan tadqiqot natijalari global ekologik muammolarni kamaytirishda ekologik siyosat hamda milliy tashabbuslarning muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Iqlim o‘zgarishi, atmosferaning ifloslanishi va cho‘llanish kabi jarayonlar tabiiy muhit barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ekologik tizimlarning izchil faoliyat yuritishini murakkablashtirmoqda. Bunday muammolarni kamaytirishda yashil hududlarni kengaytirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlarini rivojlantirish hamda tabiiy landshaftlarni saqlash muhim ekologik choralar qatoriga kiradi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” milliy dasturi atrof-muhitni muhofaza qilish, hududlarni ko‘kalamzorlashtirish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilayotgan muhim tashabbus ekanligini ko‘rsatdi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Odum E. Fundamentals of Ecology**.** – Philadelphia: Saunders, 2005.
4. Stern N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007.
5. Sachs J.D. The Age of Sustainable Development. – New York: Columbia University Press, 2015.
6. Xodjimatov A.N., Alimqulov N.R., Xolmurodov Sh.A., Djurayev M.E. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. – Toshkent: 2020. – 228 b.
7. United Nations Environment Programme (UNEP). Emissions Gap Report 2022. – Nairobi: UNEP, 2022.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 378.147:687.01.001.7694 697 67 54

# TA’LIM SIFATI MENEJMENTIGA INNOVATSION YONDASHUV

*Normurodova Bibinor Abduvohidovna, Toshkent Amaliy fanlar universiteti “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi*

# INNOVATIVE APPROACHES TO EDUCATIONAL QUALITY MANAGEMENT

*Normurodova Bibinor Abduvohidovna, Lecturer of the Department of Pedagogy,Tashkent University of A pplied Sciences*

# ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ

*Нормуродова Бибинор Абдувохидовна, преподаватель кафедры “Педагогика”, Ташкентский университет прикладных наук*



*https://orcid.org/0009-0001-6385-5191*
*e-mail: normurodovabibinor@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola yildan yilga sifatli ta’lim olishni xohlovchilar sonining keskin oshib borayotganligi, ta’lim oluvchilarning o‘qish ehtiyojlari kengayib borishi, yangi mutaxassisliklarning paydo bo‘lishidan kelib chiqqan holda oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini boshqarish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishning ayrim masalalariga bag‘ishlangan. Mazkur maqolada ta’lim sifatini boshqarish jarayonida innovatsion yondashuvlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, sifat menejmenti tizimlari va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish masalalari yoritiladi. Tadqiqot davomida innovatsion boshqaruv usullarining ta’lim sifati ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganildi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim sifati, ta’lim sifatini boshqarish, zamonaviy tendensiyalar, kadr, xodim, mutaxassis, intellectual, dastur.*

***Abstract:*** *This article is devoted to some issues of education quality management and improving competitive training in the higher education system due to the fact that the number of people wishing to receive a high-quality education is growing rapidly from year to year, the educational needs of students are expanding, and new specialties are emerging. The article analyzes the role and importance of innovative approaches in education quality management. In the modern education system, the issues of using digital technologies, competence-based approach, quality management systems and data-based management mechanisms are considered. The study examined the impact of innovative management methods on the quality of education and developed practical recommendations.*

***Keywords:*** *quality of education, quality management of education, current trends, personnel, employee, specialist, intellectual, program.*

***Аннотация:*** *данная статья посвящена некоторым вопросам совершенствования управления качеством образования и подготовки конкурентоспособных кадров в системе высшего образования в связи с тем, что из года в год стремительно растет число желающих получить качественное образование, расширяются учебные потребности обучающихся, появляются новые специальности. В статье анализируется роль и значение инновационных подходов в управлении качеством*

*образования. В ходе исследования изучалось влияние инновационных методов управления на показатели качества образования и были разработаны практические рекомендации и механизмов управления на основе данных. В ходе исследования изучалось влияние инновационных методов управления на показатели качества образования и были разработаны практические рекомендации.*

***Ключевые слова:*** *качество образования, управление качеством образования, современные тенденции, кадры, сотрудник, специалист, интеллектуальный, программа.*

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Har qanday mamlakatning kuch-qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta’lim sifatiga bog‘liq. Jamiyat va ta’lim yaxlit bir tizimni tashkil etadi. Jamiyatda kechayotgan har qanday global jarayonlar, ta’lim holatida o‘z aksini topadi. Uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga qaratilayotgan e’tibor, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ta’lim sifatini oshirishdagi mavjud muammolarning yechimini topish, ta’lim mazmunini takomillashtirish bilan bir qatorda, uning sifatini ilmiy asosda boshqarishni ham taqozo etmoqda. “Sifat” tushunchasi pedagogika fanida: bir predmet yoki hodisani boshqasidan farqlovchi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan belgilar, xususiyatlar, o‘ziga xosliklar, shuningdek, u yoki bu xususiyatlarning mukammal darajaga o‘sishini ko‘rsatuvchi jarayon, ma’naviy-ma’rifiy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Ta’lim sifati so‘z birikmasi mamlakatimizda ilk bor 1997-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ta’lim sifati ustidan davlat nazoratiga bag‘ishlangan modda va bo‘limlarida rasmiy ravishda qayd etildi. Bu esa o‘z navbatida mazkur sifatni ta’minlashga doir qator amaliyotlar va nazariy konsepsiyalarning yaratilishiga turtki bo‘ldi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS).** Ta’lim sifati deganda faqatgina tahsil oluvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarining davlat ta’lim standartlariga mos kelishi tushunilmasdan balki har bir pedagog va rahbarning mazkur yo‘nalishda sifatli ta’lim xizmatini ta’minlashi, ya’ni ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli ravishda faoliyat olib borishi tushuniladi. Ta’lim sifati – bu shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga muvofiq boshlang‘ich, umumiy, kasbiy va qo‘shimcha ta’lim tizimi tomonidan (turli yoshdagi, jinsdagi, jismoniy va ruhiy holatdagi) aholiga taqdim etilayotgan ta’lim xizmatlarining qamrovi va darajasini aks ettiruvchi majmuaviy tavsif. Sifatli ta’lim har bir shaxsga uning manfaatlariga muvofiq ta’limni davom ettirish imkoniyatini bermog‘i lozim Ta’lim sifati, – nafaqat tahsil oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi, shuningdek, har bir pedagog va rahbarning ta’lim xizmatlari sifatini ta’minlashdagi faoliyati hamdir. Shuningdek, zamonaviy ta’lim muassasasida ta’lim sifati erishilgan miqdoriy va sifat natijalarining darajasini, ta’lim jarayonini tashkil etish va mazkur jarayon amalga oshadigan sharoitlarni aks ettiruvchi tavsiflar to‘plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi[1]. Mamlakatimizda ta’lim sifatini ta’minlashning huquqiy asoslari sifatida xizmat qilayotgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (7-modda), Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq Respublikada idoraviy bo‘ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar ta’lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo‘lgan Davlat ta’lim standartlari (DTS) joriy qilinishi, standartlashtirish obyektiga nisbatan me’yorlar va talablarning belgilanishi, “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq tasdiqlanishi “Davlat ta’lim standartlari to‘g‘risidagi nizomda qayd etilgan, shuningdek, mazkur nizomda, DTS: kadrlar tayyorlash sifati, ta’lim mazmuni, ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli darajasi, bitiruvchilarga, o‘quv yuklamasining hajmiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

- ta’lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali

integratsiyasini, milliy standartlar talablarining xalqaro talablarga muvofiqligini, ta’lim barcha turlari mazmunini, ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligini, uzluksiz ta’lim tizimida izchillikni ta’minlash kabi qator vazifalar belgilangan.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Sifatni boshqarish nazariyasining shiddat bilan rivojlanish davri o‘tgan asrning 40-yillari oxiri va 50-yillariga to‘g‘ri keldi. Ushbu davrda A.Feygenbaum (Armand V.Feigenbaum) sifatni ishlab chiqish, sifatni qo‘llab-quvvatlash va sifatni yaxshilash bosqichlaridan iborat Sifatning Umumiy Nazorati (Total Quality Control) tushunchasini kiritdi. Bugungi kunga kelib TQCning bir nechta asosiy (Yaponiya, Amerika, Yevropa) “maktab”lari mavjud. Shuning uchun bo‘lsa kerak, TQC asosini belgilovchi sifatida quyidagi sakkizta tamoyil tan olindi: 1.Tashkilotning iste’molchiga yuz tutganligi. 2.Rahbarlikning roli. 3.Xodimlarni jalb etish. 4.Jarayonli yondashuv. 5.Boshqarishga tizimli yondashuv. 6.Muntazam takomillashtirish. 7.Dalillarga asoslangan qarorlarni qabul qilish. 8.Ta’minlovchilar bilan o‘zaro manfaatli munosabat.

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida mahsulot, xizmat, ish va jarayonlarning yuqori sifatini ta’minlashga yo‘naltirilgan hukumat, firma va kompaniyalar rahbariyatining ulkan sa’y-harakatlari natijasida sifatni oshirish milliy g‘oyaga aylandi[2]. Mutaxassislar tayyorlash sifatiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar ta’lim muassasalarini boshqarish tizimini qayta ko‘rib chiqish, sifatli ta’lim xizmatini ko‘rsatishga rag‘batlantirishni kuchaytirish va natijada, ta’lim xizmatlari sifatini boshqarish tizimini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash, boshqarishning strategik rejalashtirishga, sifat menejmenti tizimiga asoslangan yangi tamoyillarini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Sifat – korxona va tashkilot, shu jumladan, ta’lim muassasalarining mavqyeini mustahkamlash maqsadida ichki va xalqaro bozorda mablag‘ sarflashning eng ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolayotgani butun dunyoda sifatni ta’minlash muammolariga e’tiborning oshib borishiga sabab bo‘lmoqda. Ta’lim sifati ta’lim oluvchilar tomonidan faqatgina akademik bilimlarni o‘zlashtirganlik darajasi bilan emas, balki hayotiy faoliyatning turli sohalari bo‘yicha kompetensiyalarning shakllanganligi, bir umr o‘qib-o‘rganishga tayyorlik, shaxsiy va kasbiy rivojlanish kabi motivatsiyalarning turg‘unlanish darajasi bilan o‘lchanadi. “Ta’lim sifati – bu ta’limning (natija, jarayon, ijtimoiy tizim sifatida) turli ehtiyojlar, davlat, jamiyat, shaxs manfaatlariga muvofiqligi; ta’limning iyerarxiya (yuqoridan quyiga) tamoyillari asosida tashkillashtirilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyat (tavsif, parametr)larining tizimli majmuasi”[3].

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Turli yondashuvlarning integratsiyasi natijasida Sifatning yalpi boshqaruvi (Total Quality Management – TQM) konsepsiyasi shakllandi. Zamonaviy TQMning asosini oliy darajadagi boshqaruvning tashkilot, uning xodimlari, iste’molchilari va jamiyatning manfaatlarini ko‘zlab sifat sohasidagi uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyasini ishlab chiqish va barcha xodimlarning uni amalga oshirishdagi ishtiroki tashkil qiladi. Tashkilotdagi menejment sifatini yaxshilashda birinchi rahbarning mas’uliyatini kengaytirish tamoyilini ilgari surgan va asoslagan A.Feygenbaum TQM tamoyillari ishlab chiqilishiga katta hissa qo‘shgan. Tashkilot oliy boshqaruvining sifatni boshqarishdagi doimiy va muntazam shaxsiy ishtiroki – ta’lim muassasasining sifatni ta’minlash ishida muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Sifatning yalpi boshqaruvini joriy etish. Sifatning yalpi boshqaruvini joriy etish uchun rahbar quyidagilarni amalga oshirishi lozim: sifat menejmentini joriy etish, raqobat sharoitida ta’lim muassasasining maqsadi, umumiy mafkurasi, rivojlanish tamoyillarini ishlab chiqish to‘g‘risida strategik qaror qabul qilishi; tashkilot maqsadlari tarkibiga sifatni ta’minlashni kiritish, uni ham ma’naviy, ham moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash; tashkilot oliy boshqaruvi tarkibidan sifat uchun mas’ul vakilni tayinlash; jarayonlarni boshqarishning statistik usullari va sifat menejmenti sohalari bo‘yicha xodimlarni (shu jumladan, yuqori pog‘ona rahbarlar tarkibidan) tayyorlash; xodimlar bilan teskari aloqani tashkil qilish (ichki iste’molchilarning fikrlari va talablarini inobatga olish); ichki audit va tashkilotdagi kamchiliklar tahlilini muntazam o‘tkazib turish. Djuran va Deminglar ta’kidlashicha, sifat uchun mas’uliyatning salmoqli qismi (muammolarning 96 foizi) menejment tizimi va uning yaratuvchilari,

qolganlari (muammolarning 4 foizi) bajaruvchilar zimmasiga yuklatiladi. TQM konsepsiyasida sifatni boshqarishga doir avvalgi konsepsiyalarga xos bo‘lgan barcha ijobiy jihatlar o‘z aksini topgan[4]. U ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida ko‘pgina zamonaviy menejment tizimlarining asosini tashkil qiladi. TQMning ko‘pgina yondashuvlari ISO oilasiga kiruvchi xalqaro sifat standartlarining zamonaviy avlodi g‘oyalari tarkibiga kiritilgan. Standartlarning ahamiyati shundaki, ular korxona menejmentiga tizimli va jarayonli yondashuvni joriy etish, menejmentning e’tiborini iste’molchilarga va ularning manfaatlarini hisobga olishga qaratadi. Xalqaro standartlashtirish tashkilotining (ISO) 9000 raqamli standartlari sifat tizimlarini loyihalashtirish va qo‘llashning yagona, butun dunyoda tan olingan yondashuvini joriy qildi. Ta’lim muassasasida ta’lim sifatini boshqarish tizimini yaratishdan maqsad iste’molchilar talablariga mos keluvchi sifatli ta’lim xizmatlarini taqdim etish uchun zarur sharoitlarni ta’minlashdir. Bundan tashqari zamonaviy ta’lim muassasasida ta’lim sifatini boshqarish tizimi quyidagilar uchun zarur: davlat ta’lim standartlari talablariga erishishda ta’lim jarayonlari samaradorligini oshirish, muassasada ijodiy va ishchan muhitni rivojlantirish, xodimlarning kasbiy faolligini oshirish, muassasada boshqaruv tizimini yaxshilash, ta’lim jarayonining moliyaviy, moddiy va kadrlar ta’minotini optimallashtirish, muassasaning raqobatbardoshligini oshirish, ta’lim faoliyati uchun zamonaviy xavfsiz sharoitlarni yaratish, boshqaruvda jamoatchilikning keng ishtirokini ta’minlash.

Ta’lim muassasasida ta’lim sifatini boshqarish tizimining vazifalari quyidagilar: ta’lim jarayoni subyektlari o‘rtasidagi ijtimoiy shartnoma sifatida davlat standartlarining bajarilishini ta’minlash, ta’lim sifatining asosiy mezon ko‘rsatkichlarini belgilash, ta’lim sifati to‘g‘risida tahliliy hisobot va ma’ruzalar tayyorlash, ta’lim sifatini ta’minlash va doimiy yaxshilash uchun innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish, muassasasining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, pedagog xodimlar malakasini oshirish[5]. Tadqiqotlar natijalariga asoslanib aytish mumkinki, ta’lim muassasasida ta’lim sifati menejmenti, bu – ta’lim sifatini loyihalashtirish, ya’ni ta’lim maqsadlarini va ularga erishish yo‘llarini belgilash; ta’lim jarayonini tashkil etish va ishtirokchilarning sifatli mehnatga qiziqishini uyg‘otish; maqsadlardan chetlanishlarni aniqlash va rivojlanishdagi o‘zgarishlarni kuzatish (monitoring) tizimi; natijalarni boshqarish va tahlil qilish jarayonlaridir.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Xulosa qilib aytganda, ta’lim sifati menejmentiga innovatsion yondashuvni joriy etish bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalar – bu nafaqat yangi texnologiyalarni qo‘llash, balki boshqaruv uslublarini takomillashtirish, ta’lim jarayonini talaba markaziga yo‘naltirish va natijaga asoslangan yondashuvni rivojlantirishdir. Umuman olganda, ta’lim sifati menejmentiga innovatsion yondashuvni qo‘llash orqali yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan va zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlashga erishiladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdullayev F.A. Ta’lim sifati menejmentida axborot texnologiyalarining o‘rni.- Toshkent: Komron-Press, 2016.-186 bet.

2. Kuxarev N.V. Naputik professionalnomu sovershenstvu. – Moskva: Znanie, 2009. -159 s.

3. Yuldashev M.A. Ta’lim sifati menejmentiga innovatsion yondashuvlar.- Toshkent: Moliya,2017.- 122 -bet.

4. Xodjayev B.X.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik-T.: Sano Standart, 2019. 88-bet.

5. Ro‘ziyeva D.I. Tolipov O‘.Q. pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.- T.: Innovatsiya-ziyo. 2019 161-bet.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 37.013

# EVRISTIK YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH

*Matkarimov Muxiddin Muxammadovich, Urganch davlat Pedagogika instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi*

# ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON A HEURISTIC APPROACH

*Matkarimov Muxiddin Muxammadovich, Chief Specialist of the Department for Quality Control of Education, Urgench State Pedagogical Institute*



*https://orcid.org/0009-0001-5929-2306*
*e-mail: Muxiddin_uwed@inbox.ru*

# ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ЭВРИСТИЧЕСКОГО ПОДХОДА

*Маткаримов Мухиддин Мухаммадович, главный специалист отдела контроля качества образования, Ургенчский государственный педагогический институт*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada evristik yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Evristik metodlarning o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlari va muammoli vaziyatlarda samarali yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, evristik savollarni qo'llash hamda o'quv faoliyatini faollashtirish usullari ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *evristik yondashuv, muammoli ta'lim, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, muammoli vaziyat.*

***Abstract:*** *This article analyzes the theoretical and practical aspects of organizing the educational process based on the heuristic approach. It highlights the importance of heuristic methods in developing students' independent thinking, creativity, and problem-solving skills. The study also examines ways of creating problem situations, applying heuristic questioning, and enhancing learning activity.*

***Keywords:*** *heuristic approach, problem-based learning, independent thinking, creative activity, educational process, pedagogical technologies, problem situation.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты организации образовательного процесса на основе эвристического подхода. Освещается значение эвристических методов в развитии самостоятельного мышления, творческих способностей и навыков решения проблемных ситуаций у обучающихся. Также анализируются способы создания проблемных ситуаций, применения эвристических вопросов и активизации учебной деятельности.*

***Ключевые слова:*** *эвристический подход, проблемное обучение, самостоятельное мышление, творческая деятельность, образовательный процесс, педагогические технологии, проблемная ситуация.*

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Dunyoda zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining roli tubdan o'zgarib, u faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, izlanish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiruvchi shaxsga aylanmoqda[1]. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tadqiqotchilik

kompetensiyasini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o‘qitish tizimiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan: “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi”[2]. Yana shu nutqdan dissertatsiya uchun juda muhim bo‘lgan: “...maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2ta chet tilini mukammal bilishlari shart”[3] fikrlaridan kelib chiqib, mavzuni o‘rganish dolzarbligini ko‘rish mumkin. Shu bilan bir qatorda, ushbu vazifalarini amalga oshirishda bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarida evristik yondashuv asosida tadqiqotchilik kompetensiyasini takomillashtirish metodikasini o‘rganish va shu asosda bilimlarni yanada takomillashtirish zamon talabi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS).** Ilmiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan va tatbiq qilinayotgan muammoning nazariy jihatlari qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Dissertatsiyada ular 3 guruhga bo‘lib o‘rganildi: xorijiy, MDH va mahalliy olimlar. **Birinchi guruh** - Xorijiy tadqiqotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida keng o‘rganilgan. Xususan, Jerome Bruner[4] tomonidan ishlab chiqilgan evristik (kashfiyotga asoslangan) o‘qitish nazariyasi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ilmiy izlanish olib borish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, John Dewey[5] ta’limni tajribaga asoslangan jarayon sifatida talqin qilib, o‘qituvchilarda tadqiqotchilik yondashuvini rivojlantirish zarurligini asoslab bergan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa David Kolbning tajribaviy o‘qitish modeli orqali refleksiya va amaliy tajriba asosida kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan [6].

Chet tillarini o‘qitish metodikasida Jack C.Richards[7] va Theodore S.Rodgers[8] tomonidan kommunikativ yondashuv doirasida o‘qituvchining tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. So‘nggi yillarda xorijiy tadqiqotlarda evristik yondashuv asosida “inquiry-based learning” va “research-based teaching” konsepsiyalari keng qo‘llanilmoqda.

**Ikkinchi guruh** - MDH davlatlarida, ayniqsa Rossiya pedagogika maktabida o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalasi chuqur o‘rganilgan. Jumladan, Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi asosida o‘qituvchining bilish faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan [9]. Shuningdek, Pyotr Galperin tomonidan aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi ishlab chiqilib, bu o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [10]. Rossiyalik olim Evgeny Polat esa innovatsion pedagogik texnologiyalar, xususan, loyiha va tadqiqot faoliyatiga asoslangan o‘qitish metodlarini ishlab chiqqan. MDH hududida evristik yondashuv ko‘proq muammoli o‘qitish va izlanishga yo‘naltirilgan metodlar orqali amalga oshiriladi [11].

**Uchinchi guruh** - Mahalliy (O‘zbekiston) manbalarida o‘rganilishi. O‘zbekiston olimlari tomonidan ham bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, jumladan, tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish masalalari bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, Nizomiddin Saidahmedov tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish asoslari ishlab chiqilgan[12]. Shuningdek, Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida ham o‘qituvchining doimiy izlanishda bo‘lishi va o‘z ustida ishlashi zarurligi ta’kidlangan [13]. Zamonaviy tadqiqotlarda esa ingliz tili o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirish, interfaol va innovatsion yondashuvlardan foydalanish masalalari keng yoritilmoqda [14].

Mahalliy ilmiy ishlarda evristik yondashuv elementlari ko‘proq interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar yaratish va mustaqil izlanish faoliyati orqali amalga oshirilayotgani kuzatiladi. Biroq aynan tadqiqotchilik kompetensiyasini evristik yondashuv asosida kompleks rivojlantirish masalasi yetarli darajada tizimli o‘rganilmagan.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Evristika (yunoncha “heurisko” –

topaman, kashf qilaman) – bu yangi bilimlarni mustaqil izlash, muammolarni yechish va yangicha xulosalarga kelishga yo‘naltirilgan fikrlash usulidir [15]. Pedagogikada evristik yondashuv o‘quvchini tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki ularni faol ravishda kashf qiluvchi subyekt sifatida ko‘radi [16]. Evristik yondashuv quyidagi ilmiy yo‘nalishlarga tayanadi: konstruktivizm, faoliyat nazariyasi, muammoli ta’lim konsepsiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limdan iborat. Asosiy olimlar: Jerome Bruner – kashfiyot orqali o‘rganish nazariyasi [17], Lev Vygotsky – yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi [18], Jean Piaget – kognitiv rivojlanish nazariyasi sifatida ta’riflaydi [19].

Evristik ta’lim quyidagi belgilar bilan ajralib turadi: muammoli vaziyatlar yaratish, savol-javob orqali bilimga yo‘naltirish, mustaqil izlanish va tadqiqot faoliyati, kreativ fikrlashni rivojlantirish, bir nechta yechim variantlarini ko‘rib chiqishdan iborat. Ta’lim jarayonini evristik asosda tashkil etish prinsiplari quyidagilardan iborat: faollik prinsipi – o‘quvchi faol ishtirok etadi. Mustaqillik prinsipi – bilim mustaqil o‘zlashtiriladi. Muammolilik prinsipi – o‘quv jarayoni muammo asosida quriladi.

Individual yondashuv – har bir o‘quvchining imkoniyatini hisobga olish, refleksiya – o‘z faoliyatini tahlil qilishdan iborat. Evristik metodlar va usullar: evristik suhbat, muammoli ta’lim, “Aqliy hujum”, loyihaviy metod, tadqiqot metodi sifatida keys-stadi (case study)ni qo‘llash mumkin. Evristik yondashuv asosida dars tashkil etish bosqichlari: muammoni qo‘yish, gipoteza ilgari surish, izlanish va tahlil qilishdan tashkil topadi. Natijani umumlashtirish: xulosa chiqarishdan iborat. Evristik yondashuv: tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgatadi. Bilimni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi [20]. O‘quv motivatsiyasini oshiradi. Innovatsion fikrlashni shakllantiradi. Evristik yondashuv ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo‘lib, u o‘quvchini bilim olish jarayonining markaziga qo‘yadi [21]. Zamonaviy ta’lim tizimida aynan shu yondashuv innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda yuqori natija beradi.

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Muammoli vaziyat – bu o‘quvchi oldida mavjud bilimlari bilan darhol yechib bo‘lmaydigan, lekin yangi bilim va fikrlash orqali hal etilishi mumkin bo‘lgan intellektual qiyinchilikdir. I.Ya.Lerner ta’rifiga ko‘ra: Muammoli vaziyat – bu o‘quvchining mavjud bilimlari yetarli bo‘lmagan holatda yuzaga keladigan va yangi bilimlarni egallashga ehtiyoj tug‘diradigan didaktik sharoitdir[15]. Lev Vygotsky nazariyasi fikricha, “Yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga ko‘ra, muammoli vaziyat o‘quvchining mavjud va potensial bilimlari orasidagi farqni yuzaga chiqaradi. O‘quvchi aynan muammo orqali rivojlanadi[18]. Jerome Bruner nazariyasiga asosan “Kashfiyot orqali o‘rganish” modelida bilim muammoli vaziyat orqali mustaqil topiladi. O‘qituvchi tayyor javob bermaydi, balki yo‘naltiradi[17]. John Dewey qarashlarida “Ta’lim – bu muammolarni hal qilish jarayonidir. Har bir dars real hayotiy muammo bilan boshlanishi kerak” [5], - deb ta’rif beriladi.

M.N.Skatkin yondashuviga asosan “Muammoli vaziyat – o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy didaktik vosita. Muammoli vaziyat yaratish usullari” deb qaragan[21]. Ilmiy manbalarga ko‘ra, quyidagi usullar samarali hisoblanadi: Qarama-qarshilik yaratish. O‘quvchining mavjud bilimlari va yangi fakt o‘rtasida ziddiyat keltirib chiqarish. Masalan: ilmiy faktni kutilmagan tarzda berish. Savol orqali muammo qo‘yish. Ochiq va muammoli savollar berish. “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar … bo‘lsa nima bo‘ladi?”

Amaliy vaziyat yaratish asosdia real hayotiy misollar orqali muammo berish. Bunda Case-study usulidan foydalaniladi. Gipoteza ilgari surishga undash asosida o‘quvchilarni taxmin qilishga majbur qilish. Bir nechta variantli fikrlarni shakllantirish. Muammoli vaziyatning didaktik funksiyalari. Bilimga ehtiyojni shakllantiradi. Tafakkurni faollashtiradi. Mustaqil izlanishni rag‘batlantiradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Darsda qo‘llash bosqichlari: muammo vaziyatni yaratish, muammoni anglash, gipoteza ilgari surish, yechimni izlash, natijani tekshirish va xulosa qilishdan iborat. Muammoli vaziyatlar yaratish: evristik ta’limning asosiy mexanizmi hisoblanadi, o‘quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi, bilimni chuqur va barqaror o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Muammoli vaziyatlar yaratish

evristik yondashuvning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyatlar o‘quvchilarda: mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, ijodiy yondashuv, qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bunday yondashuv o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, uning bilishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Muammoli vaziyat asosida tashkil etilgan darslar bilimning chuqur va barqaror o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Umuman olganda, evristik yondashuv doirasida muammoli vaziyatlar yaratish zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarning muhim yo‘nalishi bo‘lib, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. OECD, Fransiya, 2018. – pp. 4–7; UNESCO, Fransiya, 2015. – Pp. 36–45.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o‘qitish tizimiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. – Xalq so‘zi, 2021-yil 7-may. https://president.uz/oz/lists/view/4742.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/docs/-5841063.
4. Jerome Bruner. The Process of Education. - USA, 1960. – Pp. 1–97.
5. John Dewey. Experience and Education . - USA, 1938. – Pp. 1–116.
6. David Kolb. Experiential Learning. – USA, 1984. – Pp. 20–145.
7. Jack C. Richards. Approaches and Methods in Language Teaching. - USA, 2001. – Pp. 1–270.
8. Theodore S. Rodgers. *Approaches and Methods in Language Teaching.* - USA, 2001. – Pp. 1–270.
9. Лев Выготский. Мышление и речь. - Москва, 1934/1982. – Стр. 5–320.
10. Пётр Гальперин. Введение в психологию. - Москва, 1976. – Стр.50–200.
11. Евгений Полат. Новые педагогические и информационные технологии. - Rossiya, 2000. – Стр. 10–150.
12. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, O‘zbekiston, 2003. – B. 5–120.
13. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent, 1913/1992. – B. 10–160.
14. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Kompetensiyaviy yondashuv hujjatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 1–80.
15. Лемер И.Я. Современные основы методов обучение. - Москва: Педагогика, 1981. - 186 стр.
16. David Ausubel. Educational Psychology: A Cognitive View. - New York: Holt Rinehart, Winston, 1968. – 685 p.
17. Jerome Bruner. The Process of Education. Cambridge (USA): Harvard University Press, 1960. – 97 p.
18. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
19. Jean Piaget. The Psychology of Intelligence. - London: Routledge, 1950. – 182 p.
20. Окон В. Введение в обучение дидактики. - Москва: Высшая школы, 1990. - 382 стр.
21. Статкин М.Н. Проблемы современной дидактики. - Москва: Педагогика, 1980. - 192 стр.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 342.15

# СУД ВА БОШҚА ОРГАНЛАР ҲУЖЖАТЛАРИ ИЖРОСИНИ ТАЪМИНЛАШДА КОРРУПЦИОН ХАВФ-ХАТАРЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

***Жандуллаев Садик Куатбаевич,***
***ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси***
***магистранти***

# THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF CORRUPTION RISKS IN THE ENFORCEMENT OF JUDICIAL AND OTHER OFFICIAL ACTS

***Jandullaev Sodik Kuatbaevich,***
***master student of the Law Enforcement Academy***

# ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ КОРРУПЦИОННЫХ РИСКОВ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ ИСПОЛНЕНИЯ СУДЕБНЫХ АКТОВ И АКТОВИНЫХ ОРГАНОВ

***Жандуллаев Садык Куатбаевич,***
***магистрант Правоохранительной академии***
***Республики Узбекистан***

***Аннотация:*** *Мазкур мақолада суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатлари ижросини таъминлаш жараёнида коррупцион хавф-хатарлар тушунчаси, унинг назарий-ҳуқуқий асослари ва илмий талқинлари таҳлил қилинган. Шунингдек, Ўзбекистонда ижро тизимининг шаклланиш босқичлари, хусусан, Мажбурий ижро бюросининг ташкил этилиши ва унинг коррупцияга қарши курашишдаги ўрни ёритилган. Комплаенс-назорат тизимининг мазмуни, аҳамияти ҳамда унинг халқаро тажрибадаги ўрни кўриб чиқилган. Муаллиф томонидан коррупцион хавф-хатар тушунчасига муаллифлик ёндашуви илгари сурилиб, уни икки асосий йўналишда — норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардаги ва амалий фаолият жараёнидаги хавфлар сифатида таснифлаш таклиф этилган.*

***Калит сўзлар:*** *суд ҳужжатлари ижроси, коррупция, коррупцион хавф-хатар, ижро иш юритиш, комплаенс-назорат, Мажбурий ижро бюроси, манфаатлар тўқнашуви, ҳуқуқий механизм, давлат хизмати.*

***Abstract:*** *This article examines the concept of corruption risks in the process of enforcing judicial acts and acts of other authorities, as well as their theoretical and legal foundations and scholarly interpretations. The stages of development of the enforcement system in Uzbekistan are analyzed, with particular attention to the establishment of the Bureau of Compulsory Enforcement and its role in combating corruption. The study also explores the essence and significance of the compliance control system and its application in international practice. The author proposes an original approach to defining corruption risks, classifying them into two main categories: risks embedded in legal norms and risks arising in the course of practical activities.*

***Key words:*** *enforcement of judicial acts, corruption, corruption risks, enforcement proceedings, compliance control, Bureau of Compulsory Enforcement, conflict of interest, legal mechanism, public service*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется понятие коррупционных рисков в процессе обеспечения исполнения судебных актов и актов иных органов, а также их теоретико-правовые основы и научные подходы. Освещаются этапы реформирования системы исполнения в Республике Узбекистан, в частности создание Бюро принудительного исполнения и его роль в противодействии коррупции. Рассматривается сущность и значение системы комплаенс-контроля, а также её применение в международной практике. Автор предлагает собственный подход к определению коррупционных рисков, разделяя их на две основные группы: риски, заложенные в нормативно-правовых актах, и риски, возникающие в процессе практической деятельности.*

***Ключевые слова:*** *исполнение судебных актов, коррупция, коррупционные риски, исполнительное производство, комплаенс-контроль, Бюро принудительного исполнения, конфликт интересов, правовой механизм, государственная служба.*

**Кириш.** Ҳар қандай ҳуқуқий давлатнинг истиқболида – жамиятда адолатни таъминлаш, қонунийликни мустаҳкамлаш, суд-ҳуқуқ тизимида сўзсиз холисликни ўрнатиш, шу ўринда албатта, суд қарорларининг тез ва аниқ ижро қилиниши катта аҳамият касб этади. Давлатчилигимиз тарихида суд қарорларининг ижросини таъминлашга Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг илк кунлариданоқ алоҳида эътибор қаратилган. Давлатимиз раҳбари таъкидлаганларидек "Ҳар бир суд қарорининг қонуний кучи унинг амалда қандай ижро этилиши билан бевосита боғлиқ. Шунинг учун ҳам фуқароларимиз, жамият ва давлат манфаатларини кафолатли ҳимоя қилиш мақсадида суд қарорларининг сўзсиз ва тўлиқ ижросини таъминлаш, ижро ҳужжатларини ҳаракати ва натижаларини назорат қилиш бўйича самарали механизм яратишимиз керак. Суд ҳужжатлари ва бошқа орган ҳужжатларининг ижроси ўз вақтида таъминланмаса, нафақат фуқаролар ва юридик шахсларнинг ҳуқуқлари бузилишига, балки бошқа салбий оқибатларга олиб келади. Судлар томонидан қабул қилинган одил судлов актларининг тарбиявий ва амалий аҳамиятига путур етади[1]".

Қайд этиш жоизки, суд ҳужжатларини ижро этиш тизимини такомиллаштиришга оид ислоҳотлар 1993 йилдан бошлаб босқичма-босқич амалга оширилиб келинди. Биробарин, ижро иши юритишнинг ислоҳ қилиниши бугунги кунга қадар уч босқични босиб ўтмоқда. Биринчи босқич 1993-2000 йилларда ўзининг тамал тошини қўйишни бошлаган бўлса, 2001 йилдан 2017 йилгача бўлган муддатни ўз ичига олган иккинчи боскич фаол демократик янгиланишлар ва мамлакатни модернизация килиш даври[2], – деган эдилар И.Каримов. Учинчи босқич эса Шавкат Мирзиёевнинг Президентлик лавозимига сайланиши билан бошланган десак муболаға бўлмайди.

**Методология.** Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сонли Фармони билан тасдиқланган 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясининг Қонун устуворлигини таъминлаш ва суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари[3] да суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатлари ижроси самарадорлигини оширишнинг устувор вазифалар белгилаб берилди. Ушбу

[1] Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017. 455-б.

[2] Каримов И.А. Ўзбекистон: 16 йил мустақил тараккиёт йули. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси, Вазирлар Махкамаси ва Президент Девонининг Ўзбекистон Мустақиллигининг 16 йиллигига бағишланган қўшма мажлисида қилган маърузаси, - Халк сўзи. - 31 август,- 2007.

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармонига 1-илова 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси.

ислоҳатларнинг амалдаги ижроси сифатида 29.08.2017 йилдаги ПФ–5059-сон Фармони асосида ПҚ–3016-сон Қарор билан Бош прокуратура ҳузуридаги Мажбурий ижро бюроси ташкил этилди. Қарор билан Бюро суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларининг сўзсиз ижросини таъминлаш бўйича ваколатли орган сифатида белгиланди. Ўзига юклатилган вазифаларни бажариш учун қатор функцияларни амалга ошириши, шунингдек, ҳуқуқ ва мажбуриятлари санаб ўтилди. Жумладан, Бюро суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларининг сўзсиз ижросини таъминлаш борасида коррупцияга қарши курашиши ва олдини олиш бўйича тизимли иш олиб бориши, коррупцияга қарши назорат тизимини («комплаенс-назорат») жорий этиши белгиланган.

**Натижалар.** Комплаенс-назорат тизимини жорий этиш масаласи илк бор Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 29.06.2020 йилдаги ПФ-6013-сонли Фармонида ёртилиган. Яъни, Фармон билан давлат органлари, корхона ва ташкилотларда коррупцияга қарши ички назорат тизимини босқичма-босқич жорий этиш чораларани кўриш вазифалари юклатилди.

Шу ўринда комплаенс-назорат тизими нима деган саволга жавоб берамиз. Комплаенс – мувофиқлик, риоя қилиш, талабларни бажариш маъносини англатади.

Коррупцияга қарши комплаенс-назорат тизими эса, давлат органлари, корхона ва ташкилотлар фаолиятида коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги халқаро стандартлар, қонун ва бошқа меъёрий ҳуқуқий ҳужжатларга мувофиқ, коррупцион хавф-хатарлар, манфаатлар тўқнашувини ўз вақтида аниқлаш ва чек қўйиш, қонун бузилишлари ҳамда коррупцион ҳолатлар ҳақида хабар беришни ўзида акс эттирадиган профилактик тадбирлар мажмуаси ҳисобланади.

Комплаенс-назорат тизими илк бор 1906 йилда АҚШда жорий этилган. Мазкур тизимга кўра коррупцияга қарши курашиш нафақат уни фош этиш, балки, салбий оқибатларга сабабчи бўлаётган омилларни, коррупцияни келтириб чиқариши мумкин хавфларни аниқлаш, бартараф этишга қаратилган тадбирлар орқали амалга оширилиши механизми сифатида шаклланган. Ҳозирда ушбу тизим 150 дан ортиқ давлатларнинг тузилмаларида фойдаланилиб келинмоқда.

**Муҳокама.** Таъкидланганидек, коррупцияга қарши курашишда хавф-хатарларни барвақт аниқлаш катта аҳамият касб этади. Аммо, юридик фанлар номзоди А.Помазуев қайд этиши бўйича ҳозирда коррупцион хавф-хатар тушунчасининг ягона талқини мавжуд эмас[4].

Шунингдек, В. Астанин ўзининг илмий ишида коррупцион хавф тушунчасини, давлат органлари ходимларининг касб фаолияти давомидаги хулқ-атвори, унинг функционал вазифаларини бажариши, ҳуқуқ ҳамда ваколатларидан фойдаланишида юзага келиши мумкин бўлган қонунбузилиши ҳолатлари ёки ўрнатилган талаб ва таъқиқларга риоя этилмаслиги эҳтимоллиги [5] сифатида кўрсатган.

Бу борада Клитгаард, Маклин, Абароа ва Пэррислар томонидан ҳам тушунтиришлар берилган бўлиб, унга кўра “коррупция бу эҳтиросга эмас, балки аниқ ҳисоб-китобга асосланган жиноятдир. Одамлар хавф даражаси паст бўлганида, жазо енгил бўлганида ва фойданинг аҳамияти катта бўлганида коррупцияга мойилликни намоён этадилар”[6].

Миллий тадқиқот ишларида ҳам коррупцион хавф-хатар тушунчасига бир қанча изоҳлар берилган. Хусусан, Б. Мухаммадкулов “Коррупцияга қарши курашиш тизимидаги

[4] Помазуев А.Е. Коррупционные риски: понятие и значение для механизма противодействия коррупции, мақола – Москва, 2016.

[5] Астанин В.В. Антикоррупционная политика: криминологические аспекты – Москва, 2009. – 11 б.

[6] Р. Э. Клитгаард, Рональд МакЛин Abaroa и Линдси Пэррис, Коррумпированные города: руководство для лечения и профилактики - Окланд / Вашингтон, 1996 г. [R. E. Klitgaard, Ronald MacLean Abaroa and H. Lindsey Parris, Corrupt cities – a guide to cure and prevention (Oakland CA/Washington DC, 1996).

хавф-хатарларни олдини олиш[7]” номли илмий мақоласида коррупциявий хавф-хатарлар – давлат бошқарув органларига юклатилган вазифа ва функцияларни бажаришда мансабдор шахслар ёки оддий ходимлар томонидан мазкур вазифа-функцияларнинг коррупцияга энг заиф бўлган нуқталаридан фойдаланган ҳолда, белгиланган ички тартиб қоидаларга бўйсунмасдан ёки менсимасдан, ўзбошимчалик билан, давлат хизматидан фойдаланувчилар учун сунъий бюрократик тўсиқлар қўйиш орқали коррупция ҳолатларини келтириб чиқаришга замин яратган ҳолда, ўз манфаати ёки учинчи шахс манфаати учун ноқонуний қарорлар қабул қилиши, ҳаракати ёки ҳаракатсизлиги орқали моддий манфаат кўриш эҳтимоли сифатида таъриф беради.

**Хулоса.** Бизнинг фикримизча эса, коррупцион хавф-хатар давлат органлари, ташкилот ва корхоналар ходимларининг фақатгина функционал мажбуриятларини бажариши, ҳуқуқ ҳамда ваколатларидан фойдаланиши давомидагина эмас, балки ушбуларни белгилаб берувчи ҳуқуқ нормаларида ҳам намоён бўлиши мумкин. Яъни, давлат хизматчисининг ваколатлари, ҳуқуқ ва мажбуриятлари белгиланган норматив ҳужжатдаги камчиликлар, ноаниқликлар коррупцион ҳолат учун йўл очиб беради.

Шу боис, юқорида кўрсатилган тушунчалар асосида коррупцион хавф-хатарни мантиқий икки йўналишга ажратган ҳолда ўрганиш лозим бўлади. Булар:

-Давлат ташкилотининг, шу жумладан, давлат хизматчисининг ваколатлари, ҳуқуқ ва мажбуриятларини белгилаб берувчи нормалардаги коррупцион хавф-хатарлар;

-Давлат ташкилоти хизматчисининг зиммасига юклатилган вазифаларни бажариши давомида юзага келиши мумкин бўлган коррупцион хавф-хатарлар.

Мазкур тушунтиришни “Коррупция хавфи = мутлоқ ҳуқуқ + ҳаракат эркинлиги – жавобгарлик” формуласи орқали ҳам ёритиб бериш мумкин.

Аммо, ҳар иккита йўналишта ҳам коррупцион хавф-хатар тушунчасида умумийлик мавжуд. Яъни, бу коррупцион ҳолатнинг ҳали содир бўлмагани ва маълум сабабчи элементларнинг бартараф этилмаслиги коррупцион оқибатни келтириб чиқариши эҳтимоллиги умумий тушунча бўла олади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**


1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 455 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: 16 йил мустақил тараққиёт йўли. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси, Вазирлар Маҳкамаси ва Президент Девонининг мамлакат мустақиллигининг 16 йиллигига бағишланган қўшма мажлисидаги маъруза // Халқ сўзи. – 2007. – 31 август.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармонига 1-илова. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси.
4. Помазуев А.Е. Коррупционные риски: понятие и значение для механизма противодействия коррупции // Илмий мақола. – Москва, 2016.
5. Астанин В.В. Антикоррупционная политика: криминологические аспекты. – Москва, 2009. – 11 б.
6. Klitgaard R., MacLean-Abaroa R., Parris H.L. Corrupt Cities: A Guide to Cure and Prevention. – Oakland, CA; Washington, DC, 1996.
7. Мухаммадкулов Б.Л. Коррупцияга қарши курашиш тизимидаги хавф-хатарларни олдини олиш. – Тошкент: ТДЮУ, 2025.


[7] Мухаммадкулов Б.Л. Коррупцияга қарши курашиш тизимидаги хавф-хатарларни олдини олиш – Тошкент: ТДЮУ, 2025.

**Qabul qilindi: 02.02.2026** **Chop etildi: 30.04.2026** UDK: 342.15

***Ilmiy rahbar: prof. Y.V. Kolenko***

# KORRUPSIYAGA OID XABARLARNI KO‘RIB CHIQISHNING HUQUQIY-PROTSESSUAL TIZIMI

***Yusupova Gulnoza Ikrom qizi,***

***O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tadqiqotchisi***

# LEGAL AND PROCEDURAL SYSTEM FOR REVIEWING CORRUPTION-RELATED REPORTS

***Yusupova Gulnoza Ikrom qizi,***

***Researcher at the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan***

# ПРАВОВАЯ И ПРОЦЕССУАЛЬНАЯ СИСТЕМА РАССМОТРЕНИЯ СООБЩЕНИЙ О КОРРУПЦИИ

***Юсупова Гульноза Икром кызы,***

***исследователь Правоохранительной академии Республики Узбекистан***



***missyuristka3101@gmail.com***

***https://orcid.org/0009-0007-7202-270X***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada korrupsiyaga oid xabarlarni ko‘rib chiqishning huquqiy-protsessual mexanizmlari tahlil etiladi. Unda murojaatlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, tekshirish hamda qaror qabul qilish jarayonlarining amaldagi normativ-huquqiy asoslari o‘rganiladi. Shuningdek, xabarlarning ishonchliligini baholashdagi protsessual noaniqliklar va subyektiv omillar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida ushbu jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *korrupsiya, korrupsiyaga oid xabarlar, huquqiy-protsessual tizim, murojaatlarni ko‘rib chiqish, ishonchlilikni baholash, protsessual noaniqlik, normativ-huquqiy asoslar, huquqiy mexanizmlar.*

***Abstract:*** *This article analyzes the legal and procedural mechanisms for reviewing corruption-related reports. It examines the existing regulatory and legal framework governing the processes of receiving, registering, verifying such reports, and making decisions based on them. In addition, procedural ambiguities and subjective factors involved in assessing the reliability of reports are analyzed from a scientific perspective. Based on the findings, proposals and recommendations aimed at improving the efficiency of this process are developed.*

***Keywords:*** *corruption-related administrative offenses, administrative liability, legal mechanisms, conflict of interest, incentivization, law enforcement practice, anti-corruption.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются правовые и процессуальные механизмы рассмотрения сообщений о коррупции. Рассматриваются действующие нормативно-правовые основы процессов приема, регистрации, проверки обращений и принятия по ним решений. Также научно анализируются процессуальные неопределенности и субъективные факторы при оценке достоверности сообщений. По результатам исследования разработаны предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности данного процесса.*

***Ключевые слова:*** *коррупция, сообщения о коррупции, правовой и процессуальный механизм, рассмотрение обращений, оценка достоверности, процессуальная неопределенность, нормативно-правовые основы, правовые механизмы.*

**Kirish.** Korrupsiyaga oid xabarlarni samarali ko‘rib chiqish tizimi korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim tarkibiy elementi sifatida so‘nggi yillarda alohida e’tibor qozonmoqda. Chunki aynan ushbu bosqichda kelib tushgan ma’lumotlarning tezkorligi, to‘liqligi va ishonchliligi keyingi huquqiy choralar samaradorligini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish, ro‘yxatga olish va ko‘rib chiqish tartibi aniq belgilangan bo‘lib, bu jarayonning qonuniylik, xolislik va shaffoflik tamoyillari asosida amalga oshirilishi nazarda tutilgan [1]. Shu bilan birga, korrupsiyaga oid xabarlarni ko‘rib chiqish jarayonida ularning ishonchliligini baholash, dalillarni tekshirish hamda protsessual qarorlar qabul qilishda muayyan muammolar yuzaga kelmoqda. Xususan, protsessual normalarning ayrim holatlarda yetarlicha aniq emasligi, subyektiv yondashuvlarning mavjudligi va turli organlar o‘rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi mazkur tizim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, mazkur sohada huquqiy-protsessual mexanizmlarni ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi korrupsiyaga oid xabarlarni ko‘rib chiqishning huquqiy-protsessual tizimini normativ va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Bunda asosiy e’tibor xabarlarni qabul qilish va tekshirish tartibiga, ularning ishonchliligini baholash mezonlariga hamda ushbu jarayonda yuzaga keladigan protsessual muammolarni aniqlashga qaratiladi. Tadqiqotda formal-yuridik, tizimli va qiyosiy-huquqiy usullardan foydalanilib, mazkur institut o‘zaro bog‘liq huquqiy mexanizmlar majmui sifatida o‘rganiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologik yondashuv.** Mavzuga oid manbalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga xalqaro standartlarni ifodalovchi hujjatlar kiradi. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashishda xabarlar va shikoyatlarni qabul qilish, ularni tekshirish va samarali javobgarlik choralarini qo‘llash bo‘yicha majburiyatlari belgilangan [2]. Ushbu hujjat to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’muriy javobgarlikni tartibga solmasa-da, xabarlarning ishonchliligini baholash va ogohlantiruvchi choralarni qo‘llash zarurligi nuqtai nazarini belgilab beradi, bu esa milliy protsessual mexanizmlarni takomillashtirishda metodologik asos vazifasini bajaradi. Ikkinchi guruhga xalqaro monitoring va baholash hisobotlari kiradi. OECDning O‘zbekiston bo‘yicha monitoringi xabarlar orqali korrupsiyaga oid holatlarni aniqlash va baholash mexanizmlarining samaradorligini oshirish zarurligini ta’kidlagan.[3] Hisobotlarda ma’muriy va boshqa javobgarlik turlari o‘rtasidagi chegaralarni aniq belgilash, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish qoidalarini joriy etish va xabar beruvchi shaxslarni himoya qilishning kuchaytirilishi muhimligi qayd etilgan. Bu xabarlarning ishonchliligini baholash jarayonidagi amaliy muammolarni aniqlash va takomillashtirishga yordam beradi.Uchinchi guruhga milliy qonunchilik kiradi. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun va “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” xabarlarni qabul qilish, tekshirish va baholash jarayonini normativ asosda tartibga soladi. Ushbu hujjatlar xabarlarning ishonchliligini aniqlash, protsessual qarorlar qabul qilish va korrupsiyaga qarshi choralarni samarali qo‘llash mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Amaldagi qonunchilikni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga oid xabarlarning ishonchliligini baholash va ularni ko‘rib chiqish mexanizmi bir necha bosqichdan iborat. Birinchidan, huquqbuzarlikning normativ modeli O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida mustahkamlangan. 829-sonli Nizomga muvofiq, korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar jumlasiga MJtKning $61^1$, $193^1$, $193^2$ va $193^4$-moddalarida nazarda tutilgan

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
[2] United Nations Convention against Corruption, 2003
[3] OECD Anti-Corruption Policies: Monitoring Reports on Uzbekistan, Fourth and Fifth Rounds, 2022.

qilmishlar kiradi [4] . Ushbu tartib ma’muriy javobgarlikni abstrakt tushuncha emas, balki aniq moddalar bilan cheklangan maxsus huquqiy toifa sifatida belgilaydi. Shu yondashuv qo‘llash amaliyotida bir xillikni ta’minlashning dastlabki shartidir.Ikkinchidan, mazkur javobgarlikni qo‘llashning umumiy huquqiy asosi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan. Qonunning 25-moddasi xabarlarning o‘z vaqtida aniqlanishi, ularga chek qo‘yish, murojaatlarni to‘liq va xolis ko‘rib chiqish, vakolatli organlar o‘rtasida muvofiqlashtirish va zamonaviy usullardan foydalanishni asosiy chora-tadbir sifatida belgilaydi[5]. 26-moddaga ko‘ra esa davlat organlari xodimlariga korrupsiyaga oid huquqbuzarlik faktlari to‘g‘risida rahbar yoki huquqni muhofaza qiluvchi organni xabardor qilish majburiyati yuklanadi. Ushbu normativlar bo‘lmasa, ma’muriy sanksiya faqat huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin qo‘llanadi, ya’ni u postfaktum chora sifatida qoladi. Shu jihatdan 25- va 26-modda preventiv choralarga xizmat qiladi.Uchinchidan, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish korrupsiyaga oid ma’muriy javobgarlikni qo‘llashning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun davlat organlari va boshqa tashkilotlarda mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, xabarnoma va deklaratsiya berish, maxsus bo‘linmalar va odob-axloq komissiyalari orqali ularni tartibga solish mexanizmini yaratadi. Shu Qonunning 25-moddasiga ko‘ra, komissiyalar har yarim yilda xulosalar qabul qiladi va ularni tartibga solish bo‘yicha choralarning yetarliligini baholaydi; 26-modda esa manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lganda qabul qilingan qaror yoki tuzilgan bitimlarni sudda haqiqiy emas deb topish imkonini beradi. Bu normalar ma’muriy javobgarlik institutining preventiv tabiatini kuchaytiradi. To‘rtinchidan, xabar berish va rag‘batlantirish instituti korrupsiyaga oid ma’muriy javobgarlikni qo‘llash mexanizmidagi alohida yo‘nalish sifatida ahamiyat kasb etadi. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 28-moddasi xabar qiluvchi shaxslar ma’lumotlarini himoya qilish, ularning huquq va manfaatlariga tajovuz qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik, mehnat huquqlarini buzish javobgarligini va rag‘batlantirish tartibini belgilaydi[3]. Mazkur qonuniy asos 829-sonli qaror bilan konkretlashtirilgan. Nizomga muvofiq, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi ko‘maklashgan shaxslar — fuqarolar, nodavlat va davlat sektori xodimlari bo‘lishi mumkin [6] . Rag‘batlantirish miqdorlari, taqdimnomani ko‘rib chiqish tartibi, maxsus komissiyalar faoliyati, qaror qabul qilish muddatlari va mablag‘larni Davlat budjeti hisobidan to‘lash tartibi belgilangan. Ta’kidlash joizki, taqdimnoma va ilovalar uch ish kuni ichida komissiyaga yuborilishi, komissiya besh ish kuni ichida ko‘rib chiqishi va qaror uch ish kuni ichida ijroga yuborilishi nazarda tutilgan. Shu tartib protsessual aniqlikni ta’minlaydi, ammo rag‘batlantirish faqat yakuniy qaror kuchga kirganidan keyin ko‘rib chiqilishi uning preventiv ta’sirini cheklaydi.

**Xulosa**. O‘zbekistonda korrupsiyaga oid xabarlarni ko‘rib chiqishning huquqiy-protsessual mexanizmlari shakllangan va izchil takomillashib bormoqda. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks ushbu tizimning moddiy-huquqiy asosini belgilasa, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun davlat siyosati, xodimlarning xabar berish majburiyati va javobgarlikning umumiy tayanchini ta’minlaydi. “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun preventiv boshqaruv modelini yaratgan bo‘lsa, 829-son Nizom xabar berish va rag‘batlantirishning protsessual tartibini konkretlashtiradi. Shu bois, korrupsiyaga oid xabarlarni ko‘rib chiqish tizimini faqat jazolash vositasi sifatida emas, balki oldini olish, boshqarish va ichki signalni huquqiy himoya qilish mexanizmi sifatida baholash zarur.Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar samarali hisoblanadi: birinchidan, xabarlarni ko‘rib chiqishda vakolatli organlar uchun yagona metodik tavsiyalar ishlab chiqish; ikkinchidan, xabar berish va deklaratsiyalarni yagona elektron tizimda yuritish; uchinchidan,

[4] O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, 2021.
[5] O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, 2017.
[6] 829-sonli qaror “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”, 2019.

konfidensial va anonim xabar berishning ikki bosqichli modelini joriy etish; to‘rtinchidan, rag‘batlantirish bo‘yicha komissiyalar faoliyatining xolisligini oshirish va depersonalizatsiya qilingan amaliyot sharhlarini tatbiq etish.Shu tarzda tizimli va muvofiqlashtirilgan yondashuv korrupsiyaga oid xabarlarni ko‘rib chiqishning huquqiy-protsessual mexanizmlarini amalda samarali ishlaydigan modelga aylantiradi hamda xabarlarning ishonchliligini baholashdagi protsessual noaniqliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1.O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, 2021.
2.O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, 2017.
3.O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun, 2019.
4.829-sonli qaror “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”, 2019.
5.BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, 2003.
6.OECD, “Anti-Corruption Policy Assessment: Uzbekistan, Fourth Round”, 2020.
7.OECD, “Anti-Corruption Policy Assessment: Uzbekistan, Fifth Round Baseline Report”, 2022.
8.Abdurahmonov, Sh. “Korrupsiyaga qarshi kurashishda xabar berish va rag‘batlantirish institutining samaradorligi”, Huquqiy tadqiqotlar jurnali, 2021, №3, 45–53.
9.Karimov, O. “Korrupsiyaga oid ma’muriy javobgarlikning huquqiy-protsessual mexanizmlari”, O‘zbekiston Huquqshunoslik ilmiy jurnali, 2022, №2, 32–40.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 342.15

*Ilmiy rahbar: Ahmadov Alimardon Axmadovich, Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta'lim markazi prokurori, adliya maslahatchisi*

# O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA OID MA’MURIY HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNI QO‘LLASHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI

***Sulaymonov Jahongir Akramjon o‘g‘li,***
***O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tadqiqotchisi***



***sulaymonovjahongir50@gmail.com***
***https://orcid.org/0009-0008-2522-7275***

# LEGAL MECHANISMS FOR ENFORCING LIABILITY FOR CORRUPTION-RELATED ADMINISTRATIVE OFFENSES IN UZBEKISTAN

***Sulaymonov Jahongir Akramjon o‘g‘li,***
***Researcher at the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan***

# ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИВЛЕЧЕНИЯ К ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА АДМИНИСТРАТИВНЫЕ ПРАВОНАРУШЕНИЯ КОРРУПЦИОННОГО ХАРАКТЕРА В УЗБЕКИСТАНЕ

***Сулаймонов Жахонгир Акрамжон оглы,***
***исследователь Правоохранительной академии Республики Узбекистан***

***Annotatsiya:*** Mazkur maqolada O‘zbekistonda korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar uchun *javobgarlikni qo‘llashning huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur institutning normativ-huquqiy asoslari, vakolatli organlar faoliyati, protsessual bosqichlari, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish hamda xabar berish va rag‘batlantirish mexanizmlarining o‘rni yoritiladi. Shuningdek, amaldagi huquqiy tartibga solishdagi ayrim muammolar ko‘rsatilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar, ma’muriy javobgarlik, huquqiy mexanizmlar, manfaatlar to‘qnashuvi, rag‘batlantirish, huquqni qo‘llash amaliyoti, korrupsiyaga qarshi kurash.*

***Abstract:*** *This article analyzes the legal mechanisms for enforcing liability for corruption-related administrative offenses in Uzbekistan. The research highlights the regulatory and legal framework of this institution, the activities of authorized bodies, procedural stages, the regulation of conflicts of interest, as well as the role of reporting and incentive mechanisms. Furthermore, certain issues in the current legal regulation are identified, and scientific and practical proposals aimed at addressing them are put forward.*

***Key words:*** *corruption-related administrative offenses, administrative liability, legal mechanisms, conflict of interest, incentivization, law enforcement practice, anti-corruption.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются правовые механизмы привлечения к ответственности за административные правонарушения коррупционного характера в Узбекистане. В исследовании освещаются нормативно-правовые основы данного института,*

*деятельность уполномоченных органов, процессуальные стадии, регулирование конфликта интересов, а также роль механизмов информирования и поощрения. Кроме того, указываются некоторые проблемы в действующем правовом регулировании и выдвигаются научно-практические предложения, направленные на их устранение.*

***Ключевые слова:*** *административные правонарушения коррупционного характера, административная ответственность, правовые механизмы, конфликт интересов, поощрение, правоприменительная практика, противодействие коррупции.*

**KIRISH.** Korrupsiyaga qarshi kurashishda ma’muriy javobgarlik institutining o‘rni so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikning vazifalari sifatida huquq va erkinliklarni, mulkni, davlat hamda jamoat tartibini muhofaza qilishni, ma’muriy huquqbuzarliklarning oldini olishni va ishlarning o‘z vaqtida, xolis ko‘rib chiqilishini belgilaydi.[1]

Mazkur maqolaning maqsadi korrupsiyaga oid ma’muriy javobgarlikni qo‘llash mexanizmlarini normativ va amaliy nuqtayi nazardan yoritishdan iborat. Bunda asosiy e’tibor MJtKda nazarda tutilgan maxsus tarkiblarning qo‘llanish tartibiga, vakolatli organlarning o‘zaro hamkorligiga, manfaatlar to‘qnashuvi institutining ma’muriy-huquqiy ahamiyatiga hamda xabar berish va rag‘batlantirish mexanizmlarining samaradorligiga qaratiladi. Tadqiqotda formal-yuridik, tizimli va qiyosiy-huquqiy yondashuvlardan foydalanildi, chunki ushbu masalani alohida bir norma doirasida emas, balki o‘zaro bog‘liq huquqiy mexanizmlar majmui sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologik yondashuv.** Mavzuga oid manbalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga xalqaro standartlarni ifodalovchi hujjatlar kiradi. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish va samarali javobgarlik choralarini qo‘llash davlatlarning asosiy majburiyatlari sifatida belgilangan[2]. Mazkur hujjat bevosita ma’muriy javobgarlikni batafsil tartibga solmasa-da, unda mutanosib, samarali va ogohlantiruvchi ta’sir choralarining zarurligi qayd etilgan bo‘lib, milliy ma’muriy-huquqiy mexanizmlarni baholash uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Ikkinchi guruhga OECD monitoring hisobotlari kiradi. OECDning O‘zbekiston bo‘yicha to‘rtinchi raund monitoringi korrupsiyaga qarshi siyosatning huquqiy bazasi yaratilganini e’tirof etgan holda, ma’muriy va boshqa turdagi javobgarlik o‘rtasidagi chegaralarni aniqlashtirish, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha aniq qoidalarni joriy etish va korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar beruvchi yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashuvchi shaxslarni himoya qilishni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatgan.[3] Beshinchi raund bazaviy hisobotida esa manfaatlar to‘qnashuvi, xabar beruvchi shaxslar himoyasi, davlat xaridlaridagi halollik va maxsus anti-korrupsiya institutlari bo‘yicha baholash indikatorlari ishlab chiqilgan bo‘lib, bu amaldagi mexanizmlarni amaliy samaradorlik nuqtai nazaridan ko‘rishga imkon beradi.

Uchinchi guruhga milliy qonunchilik kiradi. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Nizom ushbu maqolaning normativ tayanchini tashkil etadi.

**Tahlil va natijalar.** Amaldagi qonunchilikni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga oid ma’muriy javobgarlikni qo‘llash mexanizmi bir necha bosqichdan iborat.

[1] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, 22.09.1994-yil // https://lex.uz/docs/97664

[2] United Nations Convention against Corruption. – New York, 2003.

[3] OECD. Anti-Corruption Reforms in Uzbekistan. Istanbul Anti-Corruption Action Plan. Fourth Round of Monitoring. – Paris, 2019.

Birinchidan, huquqbuzarlikning normativ modeli MJtKda mustahkamlangan. 829-sonli nizomga ko‘ra, korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar jumlasiga MJtKning $61^1$, $193^1$, $193^2$ va $193^4$-moddalarida nazarda tutilgan qilmishlar kiradi.[4]

Korrupsiyaga oid ma’muriy javobgarlikni qo‘llash mexanizmida xabar berish va rag‘batlantirish instituti alohida o‘rin egallaydi. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 28-moddasi xabar qiluvchi shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar xizmat siri ekanini, ularning va yaqin qarindoshlarining huquq hamda manfaatlariga tajovuz qilishga yo‘l qo‘yilmasligini, mehnat huquqlarini buzish javobgarlikka sabab bo‘lishini hamda ularni rag‘batlantirish Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshirilishini nazarda tutadi.[5] Mazkur norma shaxsni himoya qilish va rag‘batlantirishni yagona tizimda ko‘radi, bu esa xabar berish institutining qonun darajasida tan olinganidan dalolat beradi.

Ushbu qonuniy asos 829-son qaror bilan konkretlashtirilgan. Nizomga ko‘ra, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, nodavlat va davlat sektori xizmatchilari bo‘lishi mumkin. Mazkur hujjatda xabar berish uchun rag‘batlantirish miqdorlari, taqdimnomani ko‘rib chiqish tartibi, maxsus komissiyalar faoliyati, qaror qabul qilish muddatlari va mablag‘larni Davlat budjeti hisobidan to‘lash tartibi belgilangan[4]. Xususan, taqdimnoma va unga ilova qilingan hujjatlar uch ish kuni ichida komissiyaga yuborilishi, komissiya hujjatlarni besh ish kuni ichida ko‘rib chiqishi va qaror uch ish kuni ichida ijroga yuborilishi nazarda tutilgan[6]. Bu qoidalar protsessual aniqlikni ta’minlasa-da, rag‘batlantirishning faqat yakuniy qaror kuchga kirganidan keyin ko‘rib chiqilishi uning tezkor preventiv ta’sirini susaytiradi.

O‘zbekistonda korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni qo‘llashning huquqiy mexanizmlari shakllangan va ular izchil takomillashib bormoqda. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks moddiy-huquqiy asosni bersa, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun ushbu sohadagi davlat siyosati, xodimlarning xabar berish majburiyati va javobgarlikning umumiy tayanchini belgilaydi. “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun preventiv boshqaruv modelini, 829-son Nizom esa xabar berish va rag‘batlantirishning protsessual tartibini konkretlashtiradi. Shu bois korrupsiyaga oid ma’muriy javobgarlikni faqat jazolash vositasi emas, balki oldini olish, boshqarish va ichki signalni huquqiy himoya qilish tizimi sifatida baholash lozim.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, 22.09.1994-yil // https://lex.uz/docs/97664
2. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, 03.01.2017-yil, O‘RQ–419-son // https://lex.uz/docs/-3088008
3. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni, 05.06.2024-yil, O‘RQ–931-son // https://lex.uz/docs/-6952742
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 31.12.2020-yil, 829-son // https://lex.uz/uz/docs/-5193571
5. OECD. Anti-Corruption Reforms in Uzbekistan. Istanbul Anti-Corruption Action Plan. Fourth Round of Monitoring. – Paris, 2019 // https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2019/03/anti-corruption-reforms-in-uzbekistan_c913fdbb/46942986-en.pdf
6. ОЭСР. Базовый отчет пятого раунда мониторинга антикоррупционных реформ в Узбекистане. – Paris, 2024 // https://www.oecd.org/content/dam/oecd/ru/publications/reports/2024/11/baseline-report-of-the-fifth-round-of-monitoring-of-anti-corruption-reforms-in-uzbekistan_a7d9ab4c/0c24d6de-ru.pdf
7. United Nations Convention against Corruption. – New York, 2003 // https://www.unodc.org/documents/treaties/Special/2003%20United%20Nations%20Convention%20against%20Corruption.pdf.


[4] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 31.12.2020-yil, 829-son // https://lex.uz/uz/docs/-5193571

[5] O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, 03.01.2017-yil, O‘RQ–419-son // https://lex.uz/docs/-3088008

[6] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 31.12.2020-yil, 829-son // https://lex.uz/uz/docs/-5193571

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 342.15

*Илмий раҳбар: Сафаров Темур*

# СИНГАПУР И УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АНТИКОРРУПЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ И УСЛОВИЙ ИХ ЭФФЕКТИВНОСТИ

***Алохужаев Афзалхон Абдурауфхонович,***
***исследователь Правоохранительной академии Республики Узбекистан***

# СИНГАПУР ВА ЎЗБЕКИСТОН: АНТИКОРРУПЦИЯ МОДЕЛЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ ВА УЛАРНИНГ САМАРАДОРЛИК ШАРТЛАРИ

***Алохужаев Афзалхон Абдурауфхонович,***
***Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси тадқиқотчиси***

# SINGAPORE AND UZBEKISTAN: A COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS OF ANTI-CORRUPTION MODELS AND THEIR CONDITIONS OF EFFECTIVENESS

***Alokhujaev Afzalkhon Abduraufkhonovich,***
***Researcher at the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan***



***afzalaloxujaev@gmail.com***
***https://orcid.org/0009-0003-0582-8886***

***Аннотация:*** *В статье проводится сравнительный анализ сингапурской антикоррупционной модели и системы противодействия коррупции в Республике Узбекистан через призму ISO 37001 и Индикаторов PII ОЭСР. Установлено, что эффективность сингапурской модели определяется системной взаимообусловленностью её элементов: независимостью антикоррупционного органа, структурой стимулов и интеграцией с финансовым мониторингом. Выявлены три структурных разрыва в системе Узбекистана и сформулированы практические предложения по их устранению.*

***Ключевые слова:*** *ISO 37001, CPIB, антикоррупционный комплаенс, ОЭСР PII, институциональная независимость, дискреция, следственные полномочия, государственные закупки, структура стимулов.*

***Abstract:*** *This article presents a comparative analysis of the Singapore anti-corruption model and Uzbekistan's anti-corruption system through the lens of ISO 37001 and the OECD Public Integrity Indicators. The effectiveness of the Singapore model is found to stem from the systemic interdependence of its core elements: institutional independence, incentive structure, and integration with financial monitoring. Three structural gaps in Uzbekistan's system are identified and practical proposals for addressing them are formulated.*

***Key words:*** *ISO 37001, CPIB, anti-corruption compliance, OECD PII, institutional independence, discretion, investigative powers, public procurement, incentive structure.*

***Аннотация:*** *Мазкур мақолада Сингапур коррупцияга қарши модели ва Ўзбекистон Республикасининг коррупцияга қарши тизими ISO 37001 ва ЭҲТТ PII индикаторлари орқали қиёсий таҳлил қилинади. Сингапур моделининг самарадорлиги институционал мустақиллик, рағбатлантириш тузилмаси ва молиявий мониторинг билан интеграциянинг тизимли ўзаро*

*боғлиқлиги билан белгиланиши аниқланди. Ўзбекистон тизимидаги уч асосий таркибий камчилик аниқланиб, уларни бартараф этишга қаратилган амалий таклифлар шакллантирилган.*

***Калит сўзлар:*** *ISO 37001, CPIB, коррупцияга қарши комплаенс, ЭҲТТ PII, институционал мустақиллик, дискрецион ваколат, тергов ваколатлари, давлат харидлари, рағбатлантириш тузилмаси.*

Сингапурская антикоррупционная модель является наиболее часто цитируемым примером успешного преодоления системной коррупции в государственном управлении. Вместе с тем её популярность в сравнительных исследованиях парадоксально сочетается с поверхностным осмыслением: в большинстве работ опыт Сингапура редуцируется до перечня отдельных «лучших практик» — сильного антикоррупционного органа, высоких зарплат чиновников, жёсткого правоприменения, — без анализа того, каким образом эти элементы образуют единую систему и при каких условиях способны функционировать. Именно это редуцирование объясняет, почему многочисленные попытки механического копирования отдельных институтов не дают ожидаемых результатов.

Бюро по расследованию случаев коррупции Сингапура (Corrupt Practices Investigation Bureau — CPIB) функционирует на основе двух базовых актов: Закона о предотвращении коррупции (Prevention of Corruption Act, Cap. 241) (2) и Закона о конфискации выгод от коррупции, образующих замкнутую правовую цепочку — от криминализации деяния до изъятия всех активов коррупционного происхождения. Однако не правовая база, а архитектурное решение об организационном положении CPIB является ключевым фактором его эффективности. Прямая подотчётность CPIB премьер-министру, а не отраслевому министерству, устраняет «ведомственный щит» — механизм институциональной защиты должностных лиц силами того же ведомства, которое они возглавляют. Это позволяет бюро расследовать дела против любых лиц вне зависимости от занимаемой должности, включая министров и высших государственных служащих. Профессор Джон Куа (Национальный университет Сингапура) показал, что именно это условие формирует «рациональное сдерживание»: потенциальный коррупционер учитывает высокую вероятность разоблачения вне зависимости от своего иерархического положения, что принципиально меняет ожидаемые издержки коррупционного поведения (3).

Соотнесение данной архитектуры с ISO 37001 выявляет глубокое соответствие. Раздел 5.3.2 стандарта предписывает операционную независимость функции комплаенс-контроля от операционного менеджмента организации и прямой доступ к высшему руководству (4). Сингапур реализует этот принцип не на уровне отдельной организации, а на уровне государственного аппарата в целом: CPIB выступает «функцией комплаенса» для всей системы, а её «доступ к высшему руководству» воплощается в прямой подотчётности главе правительства. Это соответствие не случайно — оно отражает единую институциональную логику, согласно которой независимость контрольной функции является структурным, а не персональным условием её эффективности.

Индикатор PII ОЭСР «Институциональная независимость» фиксирует максимальные значения для Сингапура по трём ключевым параметрам: конституционно или законодательно защищённое финансирование, особый порядок назначения и освобождения руководства, прямая подотчётность высшему политическому уровню без промежуточных ведомственных фильтров (5). В сравнительных исследованиях ОЭСР именно этот индикатор является одним из наиболее сильных статистических предикторов общей эффективности национальных антикоррупционных систем — что подтверждает аналитический приоритет институциональной архитектуры перед конкретным набором полномочий и инструментов.

Применение формулы Клитгаарда (Коррупция = Монополия + Дискреция − Подотчётность) к сингапурскому опыту

выявляет следующую закономерность: реформы последовательно снижали первые два компонента — монополию через демонополизацию ряда государственных функций и развитие конкурентных механизмов, дискрецию через максимальную стандартизацию административных процедур и алгоритмизацию решений, — одновременно повышая подотчётность через систему декларирования имущества, публичную отчётность CPIB и неизбежность правоприменения. Критически важно, что воздействие осуществлялось на все три переменные одновременно: снижение дискреции без неизбежности ответственности делает чиновников осторожнее, но не честнее; жёсткое правоприменение без конкурентного вознаграждения усиливает конспирацию, а не добросовестность.

Ключевым структурным элементом, отличающим сингапурскую модель от большинства аналогов, является «двусторонний информационный поток» между CPIB и органами финансовой разведки. Данные финансового мониторинга систематически используются в антикоррупционных расследованиях, а результаты последних передаются в систему финансового контроля. Это устраняет наиболее распространённый структурный дефект разделённых систем: коррупционное деяние, остающееся ниже порога чувствительности антикоррупционного органа, может быть выявлено финансовой разведкой — и наоборот. В большинстве государств антикоррупционный контроль и финансовый мониторинг функционируют в параллельных институциональных вселенных, создавая «слепые зоны», в которых коррупционные доходы успешно легализуются. Также Закон о конфискации выгод от коррупции добавляет к этой системе важнейший сдерживающий элемент: конфискации подлежат все активы коррупционного происхождения вне зависимости от того, кто является их формальным владельцем на момент расследования. Это устраняет распространённую стратегию переоформления активов на родственников и аффилированных лиц до момента возможного разоблачения, существенно повышая реальные, а не только ожидаемые издержки коррупционного поведения.

Далее сравним антикоррупционную систему Республики Узбекистан с сингапурской моделью. Узбекистан располагает масштабной и в целом концептуально обоснованной нормативной базой: Закон «О противодействии коррупции» (ЗРУ-419, 2017), Закон «О конфликте интересов» (ЗРУ-931, 2024), Постановление о рейтинговой оценке антикоррупционной деятельности (ПП-81, 2022). Агентство по противодействию коррупции создано и функционирует. Однако именно здесь обнаруживается первый и наиболее принципиальный структурный разрыв с сингапурской моделью: в отличие от CPIB, который имеет право на расследования дел, Агентство по противодействию коррупции Узбекистана не имеет право на следственный действии. Индикатор PII ОЭСР фиксирует именно этот параметр как ключевой предиктор эффективности, и данный разрыв имеет не административный, а архитектурный характер: он не устраняется кадровыми решениями, а требует законодательные изменении. Сингапурская реформа последовательно снижала дискреционные полномочия чиновников через алгоритмизацию административных решений. В Узбекистане портал my.gov.uz и система единого окна создали значительный прогресс в этом направлении — особенно на уровне первичных взаимодействий граждан с государством. Однако в сферах с высокой коррупционной уязвимостью — государственные закупки, лицензирование, распределение государственного имущества — дискреционные полномочия должностных лиц по-прежнему значительны. Портал xarid.uz обеспечивает публичность результатов тендеров, однако не охватывает этапы формирования технического задания и приёмки исполнения, где концентрируются наиболее изощрённые коррупционные схемы. Постановление ПП-81 ввело рейтинговую оценку антикоррупционной деятельности государственных органов, однако критически важно, что данная оценка измеряет формальное

соответствие процедурным требованиям, а не реальное снижение коррупционных рисков — разрыв, который профессор Мунгиу-Пиппиди характеризует как «имитацию добросовестности». Закон «О конфликте интересов» (ЗРУ-931, 2024) создал нормативную основу для управления конфликтом интересов, однако практика его применения к высокопоставленным должностным лицам нуждается в методологическом укреплении через интеграцию с финансовыми данными.

На основе проведённого сравнительного анализа формулируются три конкретных и практически реализуемых предложения, сориентированных на устранение наиболее значимых структурных разрывов.

Первое, законодательное закрепление операционной независимости Агентства по противодействию коррупции через добавление следственных функций. Предлагается внести изменения в Закон «О противодействии коррупции» (ЗРУ-419), закрепив защищённого бюджетного финансирования и особого порядка назначения и освобождения руководства, требующего парламентского согласования. Данная мера соответствует требованиям ISO 37001 (раздел 5.3.2) и Индикатору PII ОЭСР «Институциональная независимость», а её реализация не требует конституционных изменений — достаточно законодательных поправок.

Второе, включение несоответствия рыночному уровню вознаграждения в методологию оценки коррупционных рисков государственных организаций. Предлагается дополнить утверждённую Агентством методологию оценки коррупционных рисков самостоятельным блоком «структурные стимулы», в рамках которого разрыв между оплатой труда в конкретном государственном органе и сопоставимыми позициями в частном секторе фиксируется как количественный индикатор коррупционного риска, автоматически повышающий приоритет органа для проверки. Данная мера не требует немедленного повышения зарплат — она обеспечивает прозрачность структурных стимулов и создаёт доказательную базу для последующих решений о реструктуризации оплаты труда в наиболее уязвимых секторах государственного управления в соответствии с разделом 6.1 ISO 37001.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:


1. Johnston M. *Syndromes of Corruption: Wealth, Power, and Democracy.* — Cambridge: Cambridge University Press, 2005. — P. 7–14.
2. Singapore Prevention of Corruption Act (Cap. 241). URL: https://sso.agc.gov.sg/Act/PCA1960 (дата обращения: 27.03.2026).
3. Quah J.S.T. *Curbing Corruption in Asian Countries: An Impossible Dream?* — Emerald Publishing, 2011. — P. 63–71.
4. ISO 37001:2016 Anti-bribery management systems — Requirements with guidance for use. Clauses 5.2, 5.3.2, 6.1, 7.3.
5. OECD. *Public Integrity Indicators: Methodology and Technical Background.* — Paris: OECD, 2022. — P. 21–28.
6. Rose-Ackerman S., Palifka B.J. Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. 2nd ed. — Cambridge University Press, 2016. — P. 334–342.
7. Mungiu-Pippidi A. The Quest for Good Governance: How Societies Develop Control of Corruption. — Cambridge: Cambridge University Press, 2015. — P. 87–95.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK:328.1.22

# A FEMINIST LINGUISTIC ANALYSIS OF FEMALE REPRESENTATION IN MARGARET DRABBLE'S "A SUMMER BIRD-CAGE"

***Axmedjanova Farida Djavairovna,***
***Teacher at Institute of Foreign Languages***

## MARGARET DREBBLENING "YOZGI QUSH QAFASI" ASARIDA AYOL VAKILLIGINING FEMINISTIK LINGVISTIK TAHLILI

***Axmedjanova Farida Djavairovna, Chet tillar instituti o'qituvchisi***

## ФЕМИНИСТСКИЙ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ЖЕНЩИНЫ В "ЛЕТНЕЙ ПТИЧЬЕЙ КЛЕТКЕ" МАРГАРЕТ ДРЭББЛ

***Ахмеджанова Фарида Джавоировна,***
***преподаватель Института иностранных языков***



***e-mail: axmedjanovafarida@gmail.com***
***https://orcid.org/0009-0005-6108-7079***

***Abstract:*** *This article presents a comprehensive feminist linguistic analysis of female representation in Margaret Drabble's novel* A Summer Bird-Cage*, examining how language functions as a key mechanism in constructing, reinforcing, and challenging gender identities within a patriarchal social framework. Drawing upon contemporary feminist linguistic theories and literary criticism, particularly the works of Cameron (2001), Mills (2008), and Butler (2004), the study investigates the interplay between narrative voice, metaphor, dialogue, and evaluative language in shaping the portrayal of female subjectivity.*

***Key words:*** *feminist linguistics, female representation, Margaret Drabble.*

***Аннотация:*** *В данной статье представлен всесторонний феминистский лингвистический анализ представительства женщин в романе Маргарет Дрэббл "Летняя птица в клетке," исследуется, как язык функционирует как ключевой механизм в построении, укреплении и оспаривании гендерной идентичности в рамках патриархальной социальной структуры. Основываясь на современных феминистских лингвистических теориях и литературной критике, в частности на работах Кэмерона (2001), Миллса (2008) и Батлера (2004), исследование исследует взаимодействие повествовательного голоса, метафоры, диалога и оценочного языка в формировании изображения женской субъективности.*

***Ключевые слова:*** *феминистская лингвистика, представительство женщин, Маргарет Дрэббл.*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Margaret Drebblning "Yozgi qush qafasi" romanidagi ayol vakilligining keng qamrovli feministik lingvistik tahlili taqdim etilgan bo'lib, unda til patriarxal ijtimoiy tuzilma doirasida gender o'ziga xosligini shakllantirish, mustahkamlash va unga qarshi turishda asosiy mexanizm sifatida qanday ishlayotgani o'rganilgan. Zamonaviy feministik lingvistik nazariyalar va adabiy tanqid, xususan, Kemeron (2001), Mills (2008) va Batler (2004) asarlariga tayanib, tadqiqot ayol subyektivligi tasvirini shakllantirishda narrativ ovoz, metafora, dialog va baholovchi til o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganadi.*

***Kalit so'zlar:*** *feministik lingvistika, ayol vakilligi, Margaret Drebbl.*

The representation of women in twentieth-century British literature has undergone a significant transformation, reflecting broader socio-cultural shifts associated with the rise of feminist thought and changing gender dynamics. Margaret Drabble's novel *A Summer Bird-Cage* (1963) occupies a crucial place within this evolving literary landscape, offering a nuanced portrayal of female identity, autonomy, and linguistic expression. This study aims to provide a comprehensive feminist linguistic

analysis of female representation in Drabble's work, focusing on how language functions as a medium through which gender roles, power relations, and ideological tensions are constructed and contested. Drawing upon feminist literary theory and linguistic frameworks, particularly those developed in the late twentieth and early twenty-first centuries, the article explores how Drabble's narrative strategies reveal the complexities of female subjectivity in a patriarchal society. The analysis integrates theoretical perspectives from scholars such as Deborah Cameron (2001), Sara Mills (2008), and Judith Butler (2004), while also situating the novel within the broader context of British feminist prose. Through close textual analysis, it becomes evident that Drabble employs language not merely as a descriptive tool but as a dynamic mechanism that encodes and challenges dominant gender ideologies. At the core of feminist linguistic theory lies the assumption that language is not neutral but ideologically loaded, reflecting and reinforcing social hierarchies, including those based on gender. As Cameron (2001) argues, linguistic structures often reproduce patriarchal norms by privileging male perspectives and marginalizing female voices [1]. In *A Summer Bird-Cage*, Drabble subverts this tendency by centering the narrative on female experiences and perspectives, thereby creating a discursive space in which women's voices are foregrounded. The protagonist, Sarah Bennett, serves as both narrator and observer, allowing readers to access an introspective and critical examination of her sister Louise's marriage and the societal expectations surrounding femininity. The narrative voice is characterized by a reflective, often ironic tone, which enables Drabble to question conventional notions of female fulfillment, particularly those associated with marriage and domesticity. From a linguistic standpoint, Sarah's discourse is marked by evaluative language, modality, and metaphorical expressions that reveal her ambivalence toward traditional gender roles. For instance, her descriptions of Louise's marriage frequently employ lexical choices that suggest confinement and restriction, such as "cage," "trapped," and "enclosed," thereby reinforcing the central metaphor of the novel. This metaphorical framework aligns with feminist critiques of marriage as an institution that limits female autonomy, as discussed by Butler (2004), who emphasizes the performative nature of gender roles and the constraints imposed by normative expectations [2].

Moreover, the novel's dialogue provides a rich site for examining the linguistic construction of gender identities. Conversations between female characters are often characterized by indirectness, hedging, and politeness strategies, which have traditionally been associated with women's speech patterns (Mills, 2008) [3]. However, Drabble complicates this stereotype by presenting moments in which female characters assert themselves through more direct and authoritative language. Louise, for example, oscillates between compliance and resistance, reflecting the internal conflict experienced by women navigating societal expectations. Her speech is marked by shifts in modality, moving from tentative expressions ("perhaps," "I suppose") to more definitive statements ("I know," "I want"), indicating a gradual assertion of agency. This linguistic variability underscores the fluidity of gender identity and challenges the notion of a fixed "female language." Furthermore, the interactions between male and female characters reveal asymmetrical power relations, with male characters often dominating conversations through interruptions, topic control, and declarative statements. Such patterns align with findings in feminist discourse analysis, which highlight how conversational dynamics can reflect broader social inequalities (Cameron, 2001) [1]. By depicting these interactions, Drabble exposes the subtle ways in which language perpetuates gender hierarchies while also providing a platform for resistance.

In addition to dialogue, the narrative structure of *A Summer Bird-Cage* plays a crucial role in shaping the representation of women. The use of a first-person narrator allows for a subjective and introspective exploration of female consciousness, aligning with feminist literary traditions that prioritize personal experience and emotional depth. Sarah's narrative is characterized by a high degree of self-reflexivity, as she frequently questions her own assumptions and interpretations. This metalinguistic awareness is evident in her use of rhetorical questions and evaluative commentary, which invite readers to critically engage with the text. For example, Sarah often reflects on the limitations of language in

capturing the complexity of human experience, suggesting an awareness of the inadequacy of conventional discourse to fully articulate female subjectivity. This aligns with Butler's (2004) notion of the instability of language and its role in constructing, rather than merely reflecting, identity [2]. Furthermore, the narrative is interspersed with descriptive passages that employ vivid imagery and symbolic language, reinforcing the thematic concerns of confinement and liberation. The recurring motif of the "bird-cage" serves as a powerful symbol of the tension between freedom and restriction, encapsulating the central dilemma faced by female characters. From a linguistic perspective, this metaphor operates at both the lexical and conceptual levels, shaping readers' interpretation of the narrative and highlighting the ideological implications of language use.

Another significant aspect of the novel is its portrayal of female relationships, particularly the dynamic between Sarah and Louise. Their interactions are characterized by a complex interplay of admiration, jealousy, and critique, reflecting the multifaceted nature of female solidarity. Linguistically, this relationship is constructed through a combination of evaluative adjectives, comparative structures, and intensifiers, which convey the narrator's shifting perceptions of her sister. For instance, Sarah's descriptions of Louise often oscillate between idealization and criticism, indicating an ambivalent attitude that mirrors broader societal tensions regarding female roles. This ambivalence is further reinforced by the use of contrastive conjunctions ("but," "however"), which highlight the contradictions inherent in Louise's character and situation. From a feminist perspective, such representations challenge the tendency to portray women as either wholly virtuous or entirely flawed, instead emphasizing the complexity of female identity. Mills (2008) argues that feminist stylistics seeks to uncover the ways in which language constructs gendered meanings, particularly through patterns of description and characterization [3]. In this regard, Drabble's nuanced portrayal of female relationships can be seen as a deliberate effort to resist reductive stereotypes and to present women as multidimensional individuals.

The socio-cultural context of the novel also plays a crucial role in shaping its linguistic and thematic features. Written during a period of significant social change in Britain, *A Summer Bird-Cage* reflects the tensions associated with the emergence of second-wave feminism and the questioning of traditional gender roles. The language used in the novel captures this transitional moment, incorporating both conventional and progressive elements. For example, references to marriage, domesticity, and social expectations are juxtaposed with expressions of individuality, independence, and self-realization. This duality is evident in the lexical choices and syntactic structures employed by the narrator, which often combine formal and informal registers, reflecting the complexity of the social environment.

In conclusion, Margaret Drabble's *A Summer Bird-Cage* offers a rich and multifaceted exploration of female representation, which can be effectively analyzed through a feminist linguistic framework. By examining the interplay between language, gender, and power, this study has demonstrated how Drabble's narrative strategies both reflect and challenge dominant ideologies. The novel's use of metaphor, dialogue, and narrative voice reveals the complexities of female subjectivity and highlights the role of language in constructing and negotiating identity. Through its nuanced portrayal of women's experiences, the text contributes to broader feminist debates regarding the nature of gender and the possibilities for resistance within a patriarchal society. Ultimately, this analysis underscores the importance of integrating linguistic and literary approaches in the study of gender representation, as such an interdisciplinary perspective allows for a deeper understanding of the ways in which language shapes our perceptions of identity and social reality.

**References:**

1. Cameron, D. (2001). *Working with Spoken Discourse*. London: Sage.
2 Butler, J. (2004). *Undoing Gender*. New York: Routledge.
3. Mills, S. (2008). *Language and Sexism*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Litosseliti, L. (2006). *Gender and Language: Theory and Practice*. London: Hodder Arnold.
5. Sunderland, J. (2004). *Gendered Discourses*. Basingstoke: Palgrave Macmillan.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 37.013

# BADIIY ASARLAR TAHLILINING BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI IFODALI VA IZOHLI O‘QISHGA O‘RGATISHDAGI AHAMIYATI

***Abdullaeva Gulmira**, Ajiniyoz nomidagi NDPI “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi assistenti*

# THE IMPORTANCE OF ANALYSIS OF ARTISTIC WORKS IN TEACHING ELEMENTARY STUDENTS TO READ EXPRESSIVELY

***Abdullaeva Gulmira, Assistant of the Department of Primary Education at the Ajiniyaz NDPI***

# ЗНАЧЕНИЕ АНАЛИЗА ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В ОБУЧЕНИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ВЫРАЗИТЕЛЬНОМУ И РАЗЪЯСНИТЕЛЬНОМУ ЧТЕНИЮ

***Абдуллаева Гулмира, ассистент кафедры начального образования НГПИ имени Ажинияза***



***e-mail: abdullaevag2511@gmail.com***
***https://orcid.org/0009 - 0001-8015-3028***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada badiiy asarlar tahlilining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ifodali va izohli o‘qishga o‘rgatishdagi o‘rni va metodik ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘qish malakalarining shakllanishi, nutq va so‘z boyligining kengayishi, tanqidiy va ijodiy fikrlashning rivojlanishi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning singdirilishida badiiy matnlar ustida ishlashning roli alohida tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy “O‘qish savodxonligi” mazmuni, badiiy matnlarning tasviriy ifodasi, obrazlar tizimi orqali o‘quvchilarda estetik did va nutq madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Badiiy asar tahlili, ifodali o‘qish, izohli o‘qish, boshlang‘ich ta’lim, nutq o‘stirish, so‘z boyligi, obraz tahlili, tanqidiy fikrlash.*

***Abstract:*** *This article scientifically highlights the role and methodological significance of the analysis of artistic works in teaching elementary school students to read expressively and explanatoryly. The role of working on artistic texts in the formation of reading skills in younger school-age students, the expansion of speech and vocabulary, the development of critical and creative thinking, and the inculcation of national and universal values is analyzed separately. The article considers the content of the modern "Reading Literacy", the possibilities of developing aesthetic taste and speech culture in students through the visual representation of artistic texts, and the system of images.*

***Key words:*** *Literary analysis, expressive reading, explanatory reading, primary education, speech development, vocabulary, image analysis, critical thinking.*

***Аннотация:*** *В статье научно освещаются роль и методическое значение анализа художественных произведений в обучении младших школьников выразительному и разъяснительному чтению. Отдельно анализируется роль работы с художественными текстами в формировании навыков чтения у младших школьников, расширении речевого и словарного запаса, развитии критического и творческого мышления, а также приобщении к национальным и общечеловеческим ценностям. В статье рассматривается содержание современной*

*«Читательской грамотности», возможности развития эстетического вкуса и речевой культуры учащихся посредством наглядного представления художественных текстов и системы образов.*

***Ключевые слова:*** *Литературный анализ, выразительное чтение, разъяснительное чтение, начальное образование, развитие речи, словарный запас, анализ образов, критическое мышление.*

**KIRISH**

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida badiiy asarlar bilan ishlashning yana bir muhim jihati — o‘quvchilarni matnning lingvistik qatlamlarini idrok etishga o‘rgatishdir. Chunki badiiy matn faqat voqealikni hikoya qiluvchi vosita emas, balki o‘zida fonetik, leksik, grammatik va uslubiy birliklarning murakkab tizimini mujassam etgan til hodisasidir. Aynan ana shu hodisalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari til sezgirligini, nutqiy faolligini, talaffuz madaniyatini va grammatik tafakkurini shakllantiradi.

Badiiy matnlarni tahlil qilish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarni matndan asosiy g‘oyani ajratish, qahramon xarakterini tahlil qilish, muhim so‘z va iboralarning ma’nosini anglash, matnning badiiy vositalarini topish kabi amallarga jalb etadi. Bu jarayon o‘quvchilarda til hodisalarini anglashni osonlashtiradi. Masalan, metafora, ta’kid, tashbeh kabi obrazli ifodalarni topish orqali o‘quvchilar nafaqat matn mazmunini o‘zlashtiradi, balki ularning tasavvuri, emotsional tafakkuri va estetik didi boyiydi.

**ADABIYOTLAR SHARHI**

Atajonovaning fikricha [1], boshlang‘ich ta’lim jarayonida badiiy asarlar o‘quvchilarning intellektual va emotsional rivojida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. U badiiy matnlar orqali o‘quvchi nafaqat o‘qish texnikasini, balki hayotiy tushunchalarni ham puxta o‘zlashtirishini ta’kidlaydi. Uning ta’kidlashicha, matnni anglash va tahlil qilish jarayoni fikrlashni jadallashtiradi, nutqiy rivojlanishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Meretgeldiyevaning fikricha [2], badiiy matn ustida ishlash savod o‘rgatishning tabiiy davomi bo‘lib, izohli va ifodali o‘qish o‘quvchida til sezgirligini shakllantiradi. U o‘qish turlarining xilma-xilligi o‘quvchilarni matnga turlicha yondashishga, undagi g‘oya va obrazlarni chuqurroq anglashga yordam berishini ko‘rsatadi.

Quronovning fikricha [3], badiiy asar tahlilining asosida estetika va g‘oya uyg‘unligi yotadi. U adabiy matn o‘quvchini axloqiy kamolotga yetaklaydigan kuch ekanini ta’kidlab, boshlang‘ich sinflarda adabiy tahlilning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi shaxs tarbiyasining muhim omili ekanini e’tirof etadi.

Ishmirzayeva fikricha [4], ifodali o‘qish — bu faqat texnika emas, balki o‘quvchining his-tuyg‘ularini to‘g‘ri uzatish ko‘nikmasi bo‘lib, badiiy asar tahliliga bog‘liq holda bu jarayon tez va samarali shakllanadi. U ovoz, ohang, pauza kabi nutq unsurlarining o‘quvchi ma’naviy olamiga ko‘rsatadigan ta’sirini alohida ajratib ko‘rsatadi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Badiiy asar tahlili jarayonining yana bir muhim jihati — o‘quvchilarda axloqiy ongning izchil shakllanishidir. Chunki badiiy matnlarda har bir qahramonning xatti-harakati, maqsadi va natijasi mavjud bo‘ladi. Ularning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi orqali o‘quvchi ijtimoiy xulq-atvorning to‘g‘ri va noto‘g‘ri shakllari haqida o‘ziga xos tasavvurga ega bo‘ladi. Bu jarayon ma’naviy tarbiya uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, badiiy matn tahlilini faqat o‘qish-yozish malakalarini shakllantirish vositasi sifatida emas, balki axloqiy va ma’naviy tarbiya jarayonining markaziy elementi sifatida ko‘rish zarur. Boshqa tomondan, badiiy asarlar tahlili o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyasini rivojlantiradi. Masalan, o‘quvchi asar qahramonining muvaffaqiyati ortida qanday mehnat yotganini yoki uning xatosi nimaga olib kelganini anglab, o‘z hayotiga tatbiq qilishni o‘rganadi. Bu jarayon empatiyani kuchaytiradi, o‘quvchi o‘zgalarning his-tuyg‘ularini anglashga moyil bo‘ladi.

***Abstract:*** *The uniqueness of separatism as a phenomenon of modern philosophical practice is determined by its different perceptions. On the one hand, separatism is traditionally equated with the national liberation movement, and on the other hand, with the unjustified disintegration of a single state. The political processes of the last decade of the 20th century forced a new perception of this phenomenon, and since the beginning of the 90s, a slightly different point of view on separatism has prevailed in reference publications.*

***Keywords:*** *separatism, national liberation movement, historical development, extremism, terrorism, interaction, conflict, structure, the essence of separatism.*

***Аннотация:*** *Уникальность сепаратизма как феномена современной философской практики определяется его различными восприятиями. С одной стороны, сепаратизм традиционно отождествляется с национально-освободительным движением, а с другой - с неоправданным распадом единого государства. Политические процессы последнего десятилетия XX века вынудили по-новому взглянуть на этот феномен, и с начала 90-х годов в справочных изданиях возобладала несколько иная точка зрения на сепаратизм.*

***Ключевые слова:*** *сепаратизм, национально-освободительное движение, историческое развитие, экстремизм, терроризм, взаимное влияние, конфликт, структура и сущность сепаратизма.*

**Kirish.** An’anaga ko‘ra, separatizmning asosiy manbai sifatida xalqlarning milliy o‘zligini anglashining o‘sishi qayd etiladi. Shunga o‘xshash yondashuv “Geosiyosat va milliy xavfsizlik” nomli boshqa terminologik lug‘atda ham mavjud bo‘lib, unda separatizm deganda “siyosiy tuzilmaning u yoki bu qismini yaxlitdan ajratishga qaratilgan harakatlar” tushuniladi. Lug‘at mualliflarining fikriga ko‘ra, separatizm muxtoriyatlar, milliy ozchiliklar, mintaqalar yoki aholining ayrim ijtimoiy guruhlarining davlat mustaqilligiga erishishga intilishi shaklida namoyon bo‘ladi[1].

**Metodologiya.** Separatizmga qarshi kurash muammolari tahliliga to‘xtalar ekanmiz, shuni ta’kidlash joizki, bu vazifani kompleks hal etish faqat turli gumanitar fanlar – falsafa, siyosatshunoslik,

sotsiologiya va boshqalar nuqtayi nazaridan fanlararo tadqiqotlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Olimlari orasida A.B. Volodinning monografiyasi, shuningdek, A.B.Avramenko va M.A.Domarevaning dissertatsiya tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularda separatizm hodisasining o‘ziga xos tushunchasi taklif etilgan, uning faollashuvining sabablari va omillari ochib berilgan. I.V. Bocharnikov, V.N.Lukin, S.A.Proskurin, V.V.Serebryannikov, A.I.Utkin, G.I.Yusupovalarning ilmiy ishlari fundamental xarakterga ega bo‘lib, separatizmning o‘ziga xos xususiyatlari, tadriji va destruktivligini ochib beradi [2].

**Muhokama va natijalar.** “Separatizm” hodisasining murakkabligi va ko‘p qirraliligi, uning davlat milliy xavfsizligining turli jihatlari bilan ko‘p vektorli o‘zaro bog‘liqligi ushbu muammoni batafsil tahlil qilish zaruratini belgilaydi[3].

Shu bilan birga, mazkur zaruriyat yuqorida ta’kidlanganidek, ushbu muammoga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularda “separatizm” atamasining aniq, bir xilda talqini yo‘qligi, shuningdek, uning ayrim talqinlari ziddiyatli xususiyatga ega ekanligi alohida ta’kidlanadi. Ko‘pincha, ilmiy adabiyotlarda “separatizm” tushunchasi murakkab davlat tuzilmalarining parchalanishi, ichki nizolar, hududiy mustaqillik harakatlari yoki siyosiy inqiroz jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan deyarli barcha hodisalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Biroq, bu yondashuv o‘zini to‘liq oqlamaydi, chunki u separatizmning mohiyatini yetarlicha aniqlamaydi va turli hodisalarni bir xil kategoriyaga kiritish xavfini yaratadi. Aslida, separatizm turli siyosiy, ijtimoiy va tarixiy jarayonlarning bir lahzalik rivojlanishi, ma’lum bir davr yoki sharoit kontekstida yuzaga kelgan hodisa sifatida idrok etilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, uning tahlili nafaqat davlat tuzilmalari yoki hududiy nizolar bilan cheklanmasligi, balki milliy-ozodlik harakatlari, ekstremistik oqimlar, siyosiy qarama-qarshiliklar va ijtimoiy konfliktlar bilan bog‘liq murakkab o‘zaro ta’sirlarni ham o‘z ichiga olishi kerak. Shuningdek, separatizmning turli tarixiy va madaniy kontekstlarda shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularni chuqur o‘rganish orqali ushbu hodisaning mohiyati, sabab va oqibatlari yanada aniqroq tushuniladi. Shu tarzda, separatizm tushunchasini yagona va soddalashtirilgan shaklda emas, balki ko‘p qirrali, tizimli va kontekstual yondashuv orqali tahlil qilish zarurati yuzaga keladi[4].

O‘rganilayotgan hodisaning mohiyati va tabiatini tahlil qilish uchun separatizm muammosini o‘rganish mumkin bo‘lgan mantiqiy vositalarni aniqlash kerak bo‘ladi, bu esa, o‘z navbatida, hodisaning mazmunini ochib beradigan asosiy kategoriyalar va tushunchalarni tahlil qilishni ham o‘z ichiga oladi. Xullas, gap muammoning kategorial apparatini ishlab chiqish haqida ketmoqda[5].

Shu bilan birga, “separatizm” kategoriyasi terminologik jihatdan ham aniqlik kiritishni talab qiladi, chunki bu hodisa nafaqat siyosiy-huquqiy nuqtai nazardan, balki ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstlarda ham murakkab va ko‘p qirrali tabiatga ega. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, separatizm fenomeni mahalliy jamiyatshunoslikda eng kam o‘rganilgan muammolardan biri bo‘lib, uning turli jihatlari – siyosiy, iqtisodiy, etnik, madaniy va ideologik – yetarlicha tahlil qilinmagan. Shuningdek, “separatizm” atamasi ko‘pincha turli talqinlarda ishlatiladi, ularning ba’zilari bir-biriga zid bo‘lishi mumkin, bu esa hodisaning haqiqiy mohiyatini tushunishni murakkablashtiradi. Shu sababli, bu terminni aniq va tizimli tarzda aniqlash, uning siyosiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlarini ajratib ko‘rsatish, shuningdek, separatizmning sabablarini, shakllanish mexanizmlari va oqibatlarini keng qamrovli o‘rganish muhimdir. Faqat shu yondashuv orqali separatizm hodisasi nafaqat empirik darajada, balki nazariy va konseptual nuqtai nazardan ham chuqur tahlil qilinishi mumkin, bu esa unga qarshi samarali siyosat va strategiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi [6].

“Yevroosiyo xavfsizligi-2002” ensiklopedik lug‘at-yilnomasida separatizm tushunchasi kengroq va batafsil ta’riflangan. Lug‘atga ko‘ra, separatizm (lotincha *separatus* – ajratilgan) – bu davlatning bir qismini siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy jihatdan markaziy hokimiyatdan ajratish va mustaqil yangi davlat tashkil etish, yoki mavjud davlat tarkibidagi hududlar uchun ma’lum darajadagi siyosiy va ma’muriy avtonomiya talab qiluvchi harakatlarni ifodalovchi hodisa hisoblanadi. Separatizm nafaqat hududiy ajratish bilan, balki uning ichki tuzilmasini o‘zgartirish, mahalliy siyosiy institutlarni mustaqillikka yo‘naltirish va shu orqali markaziy hokimiyatning avtoritetini kamaytirish bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu jarayon ko‘pincha siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan uyg‘unlashib, hududiy guruhlar va markaziy davlat o‘rtasida murakkab o‘zaro ta’sirlar, konflikt va muzokaralar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu tariqa, separatizm nafaqat siyosiy harakat, balki keng qamrovli ijtimoiy-huquqiy va madaniy fenomen

sifatida qaraladi, u davlatning ichki barqarorligi, hududiy yaxlitligi va milliy xavfsizligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi[7]. Aksariyat hollarda separatizm hodisasi ko‘p millatli davlatlarda milliy va etnik munosabatlarning tartibga solinmaganligi, ijtimoiy adolatsizlik va siyosiy integratsiyaning zaifligi natijasida yuzaga keladi. Separatizmning nazariy asosi ko‘pincha millatchilik, etno-siyosiy identitet va suverenitet haqidagi turli konsepsiyalarda ifodalanadi. Bu hodisa siyosiy-tashkiliy jihatdan o‘zini siyosiy frontlar, partiyalar, harakatlar va boshqa tashkilotlarning tuzilishi va faoliyatida ko‘rsatadi, ular o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida ommaviy kurashni kuchaytiradi. Separastik kuchlar ko‘pincha o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun harbiy zo‘ravonlik va to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurolli harakatlarga murojaat qiladi yoki buni rag‘batlantiradi [8].

Separatistik harakatlar mavjud davlatlarning ichki tuzilishini buzadi, hududiy yaxlitlik va siyosiy barqarorlikni tahdid ostiga qo‘yadi, shuningdek, global va mintaqaviy xavfsizlik uchun jiddiy salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar o‘z harakatlarida xalqlarning teng huquqliligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash tamoyillarini hurmat qilgan holda, suveren va mustaqil davlatlarning hududiy yaxlitligi yoki siyosiy birligini buzishga qaratilgan har qanday harakatlarga qarshi chiqadi[9].

Separastik tashkilotlarning xatti-harakatlari ko‘pincha geosiyosiy kontekstda ham tahlil qilinadi. Masalan, ularning maqsadi mavjud davlatlarning hududiy bo‘linishidan foyda olish, yangi siyosiy markazlar va qo‘llab-quvvatlovchilarni topish yoki o‘z hududiy manfaatlarini kuchaytirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu esa mintaqaviy va xalqaro miqyosda geosiyosiy muvozanatni buzadi, hududiy nizolarni keskinlashtiradi va ba’zan uzoq muddatli inqirozlarga olib keladi. Shu bilan birga, separatizm ko‘p hollarda mahalliy etnik, diniy yoki madaniy guruhlarning identitetini mustahkamlash va o‘z mustaqillik talablarini kuchaytirish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uning natijalari ko‘pincha tinchlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanish uchun jiddiy xavf tug‘diradi[10].

**Xulosa.** Shunday qilib, XX va XXI asrlar bo‘sag‘asida milliy lug‘atlar, ma’lumotnomalar va ixtisoslashtirilgan ensiklopedik nashrlarda ko‘rib chiqilayotgan hodisani idrok etishning yangi konteksti namoyon bo‘lmoqda.

Separatizmni tadqiq etishga tizimli yondashuv tamoyili uning mazmunini belgilovchi barcha elementlarning murakkab qorishmalarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda dialektik umumiy bog‘lanish tamoyilining metodologik imkoniyatlari to‘laroq namoyon bo‘ladi. Tizimli yondashuv separatizmni siyosiy hodisa va jarayon sifatida kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi, uning ichki va tashqi aloqalarini, rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga yordam beradi. Bu yondashuvda shaxs, jamiyat va davlat faoliyati ochiq dinamik tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Tizimli-mazmunli tahlil separatizmning siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini, motivatsiya va maqsadlarini aniqlash imkonini beradi. Tizimli-strukturaviy tahlil esa elementlar o‘rtasidagi barqaror va ahamiyatli munosabatlarni aniqlash, separatizm evolyusiyasi va jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qilish, shuningdek, davlat siyosatini samarali amalga oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan qarorlar ishlab chiqish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Геополитика и национальная безопасность. Словарь основных понятий и содержаний / Под общей редакцией В.Л. Манилова. - М., 1998. - С. 168.
2. Авраменко А.В. Сепаратизм (сущность и проблемы). Дис. ... канд. полит, наук. - М: МГУ, 1997; Володин А.В. Региональный сепаратизм: проблемы теории и практики. - М.: Диалог-МГУ, 1999;
3. Домарева М.А. Сепаратизм в постсоветской России: факторы возникновения, функционирования и нейтрализации. Дис. ... канд. полит, наук. - М.: МГСУ, 2004.
4. Бочарников И.В. Россия в условиях глобализации // Власть. - 2001. - №3;
5. Бутенко А.П. Глобализация: сущность и современные проблемы // Социально-гуманитарные знания. - 2002. - №3;
6. Лукин В.Н. Глобализация и международный терроризм: политический анализ рисков и стратегий обеспечения безопасности. - СПб.: Наука, 2006;
7. Сафарова Н.О. Террориизм. (тарихий-фалсафий таҳлил). -Тошкент.: Noshir. 2009. -Б.216.
8. Серебрянников В.В. Мировая “холодная война” второй половины XX века // Социально-гуманитарные знания. - 2002. - № 1;
9. Уткин А.И. Вызовы Запада и ответ России. - М., 2002;
10. Kellas J. The Politics of Nationalism and Ethnicity. - New York, 1991. -P 188.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 141.319.8:37.013.43:316.346.32053.6(575.1)

# TASAVVUF FALSAFASIDA MA'NAVIY UYG'ONISH VA UNING BUGUNGI KUNDA YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

[1]*Dehqonov Behzod Baxtiyorovich, Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori (PhD)*
[2]*Ne'matova Xurshida Bobojon qizi, Buxoro davlat universiteti, "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrasi magistranti*



*https://orcid.org/0009-0007-4636-7181*
*e-mail: dehqonovbehzod@gmail.com*

# SPIRITUAL AWAKENING IN SUFI PHILOSOPHY AND ITS SIGNIFICANCE IN THE EDUCATION OF YOUTH IN NEW UZBEKISTAN TODAY

[1]*Dehqonov Behzod Baxtiyorovich, Associate Professor of the Department of Islamic History, Source Studies and Philosophy, Bukhara State University, Doctor of Philosophy (PhD)*
[2]*Ne'matova Xurshida Bobojon qizi, Master's student, Department of Islamic History, Source Studies and Philosophy, Bukhara State University*



# ДУХОВНОЕ ПРОБУЖДЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ ТАСАВВУФА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ

[1]*Дехконов Бехзод Бахтиёрович, доцент кафедры истории ислама, источниковедения и философии Бухарский государственный университет, доктор философии (PhD)*
[2]*Неъматова Хуршида Бобожон кызы, магистрант кафедры истории ислама, источниковедения и философии Бухарский государственный университет*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada tasavvuf falsafasida shaxsning ma'naviy uyg'onish jarayoni, uning mohiyati va bosqichlari ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, tasavvuf ta'limotining inson qalbi poklanishi, axloqiy yetuklikka erishish hamda komil insonni tarbiyalashdagi o'rni ochib beriladi. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar tarbiyasida milliy va ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati ortib borayotganligi nuqtayi nazaridan, tasavvuf g'oyalarining tarbiyaviy imkoniyatlari yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *tasavvuf, ma'naviy uyg'onish, komil inson, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, axloq, ma'naviyat, Yangi O'zbekiston.*

***Abstract:*** *This article examines the process of spiritual awakening of the individual in the philosophy of Sufism, its essence and main stages from a scientific and philosophical perspective. It highlights the role of Sufi teachings in purifying the soul, achieving moral maturity, and educating the perfect individual. In the context of modern New Uzbekistan, special attention is paid to the growing importance of national and spiritual values in youth education, as well as the educational potential of Sufi ideas.*

***Key words:*** *sufism, spiritual awakening, perfect individual, youth education, national values, morality, spirituality, New Uzbekistan.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается процесс духовного пробуждения личности в философии суфизма, его сущность и основные этапы. Раскрывается значение суфийского учения в очищении души, достижении нравственной зрелости и воспитании совершенного человека. В условиях современного Нового Узбекистана особое внимание уделяется роли национальных и духовных ценностей в воспитании молодежи, а также воспитательному потенциалу суфийских идей.*

***Ключевые слова:*** *суфизм, духовное пробуждение, совершенный человек, воспитание молодежи, национальные ценности, нравственность, духовность, Новый Узбекистан.*

**Kirish.** Bugungi globallashuv va tezkor axborot oqimi sharoitida inson ma’naviyati, uning ichki olami va

ruhiy barkamolligi masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlar tarbiyasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan bo‘lib, ularning nafaqat bilimli, balki yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan va vatanparvar shaxslar bo‘lib kamol topishi muhim vazifa hisoblanadi. Tasavvuf falsafasidagi ma’naviy uyg‘onish g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, qalbni poklash, nafsni tarbiya qilish va komil inson bo‘lishga xizmat qiladi. U shaxsning o‘zini anglashiga, hayot mazmunini tushunishiga va jamiyatdagi o‘rnini topishiga yordam beradi. Shu sababli, tasavvufni o‘rganish va uni Yangi O‘zbekiston yoshlarini tarbiyalashda qo‘llash ilmiy-amaliy jihatdan muhimdir[1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tasavvuf falsafasida ma’naviy uyg‘onish masalasini chuqur va tizimli o‘rganish maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Avvalo, ilmiy bilishning dialektik usuli asosida ma’naviy uyg‘onish jarayoni tarixiy va mantiqiy birlikda tahlil qilinib, uning rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy talqinlari o‘rganildi. Shuningdek, tasavvuf ta’limotiga oid klassik va zamonaviy manbalarni qiyosiy-tahliliy usul orqali o‘rganish asosida mazkur tushunchaning mazmun-mohiyati ochib berildi.

Tadqiqotda tasavvuf g‘oyalarining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni tizimli yondashuv orqali o‘rganildi, ya’ni ma’naviy uyg‘onishning axloqiy, ruhiy va ijtimoiy jihatlari bog‘liqlikda tahlil qilindi. Analiz, sintez, induktiv va deduktiv usullar yordamida asosiy g‘oyalar ajratib olinib, zamonaviy tarbiya jarayoniga moslashtirildi. Tarixiylik va vorisiylik tamoyillari asosida tasavvuf falsafasining shakllanishi bugungi Yangi O‘zbekiston sharoiti bilan uyg‘unlikda ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga, kuzatish va umumlashtirish orqali yoshlar tarbiyasida tasavvufning tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlanib, tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyati ta’minlandi[2].

**Nazariy qism.** Tasavvuf falsafasi insonning ichki dunyosini anglash, qalbni poklash va uni oliy ma’naviy darajaga ko‘tarishga qaratilgan chuqur falsafiy-ma’naviy ta’limot sifatida shakllangan. Unda ma’naviy uyg‘onish shaxsning o‘z “men”ini anglash, nafsni jilovlash va ilohiy haqiqatga intilish jarayoni sifatida talqin etiladi. Tasavvufda bu jarayon bosqichma-bosqich kechib, tariqat, ma’rifat va haqiqat kabi darajalar orqali namoyon bo‘ladi. Har bir bosqich insonning ma’naviy kamolotga yetishishida muhim o‘rin tutib, uni komil inson darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Tasavvufiy qarashlarda ma’naviy uyg‘onish insonning ichki olamini tubdan o‘zgartiruvchi, uni komillik sari yetaklovchi murakkab va uzluksiz jarayon sifatida talqin etiladi. Bu jarayonning asosiy omillari sifatida qalb pokligi, ixlos, sabr, shukr va muhabbat kabi yuksak fazilatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Qalb pokligi tasavvufda barcha ma’naviy kamolotning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanib, insonni hasad, kibr-u havo, riyo kabi illatlardan poklash orqali unda ilohiy haqiqatni idrok etish qobiliyatini shakllantiradi. Ixlos esa har qanday amalning chin yurakdan, samimiyat bilan bajarilishini ta’minlab, insonni ikkiyuzlamachilik va manfaatparastlikdan uzoqlashtiradi [3].

Sabr va shukr tushunchalari tasavvufda insonning hayot sinovlariga munosabatini belgilovchi muhim mezonlar sifatida qaraladi. Sabr orqali inson qiyinchiliklarga bardosh berib, o‘z irodasini mustahkamlaydi, shukr orqali esa mavjud ne’matlarning qadriga yetib, ruhiy muvozanatni saqlaydi. Muhabbat esa tasavvuf falsafasining eng oliy g‘oyalaridan biri bo‘lib, u insonni nafaqat Yaratuvchiga, balki butun borliqqa mehr bilan

munosabatda bo‘lishga undaydi. Aynan muhabbat orqali inson qalbida bag‘rikenglik, kechirimlilik va insonparvarlik kabi fazilatlar shakllanadi. Tasavvuf allomalari, xususan, Sharq mutafakkirlari ma’naviy uyg‘onishni insonning o‘z ustida ishlashi, nafsni tiyish va ichki kurash orqali yuksalishi bilan bevosita bog‘laydilar. Ularning asarlarida “nafs bilan jihod” tushunchasi markaziy o‘rin egallab, bu insonning o‘z kamchiliklari ustidan g‘alaba qozonishi, o‘zini tarbiyalashi va komillikka intilishi zarurligini anglatadi. Shu jihatdan qaraganda, ma’naviy uyg‘onish faqat individual kamolot emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega jarayon bo‘lib, u jamiyatda ezgulik, adolat va ma’naviy muhitning qaror topishiga xizmat qiladi[4].

Amaliy jihatdan esa, bunday fazilatlarni o‘zida mujassam etgan inson jamiyatda ijobiy namuna bo‘la oladi, uning xulq-atvori, muomala madaniyati va hayotga bo‘lgan qarashlari boshqalarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois tasavvufiy ma’naviy uyg‘onish g‘oyasi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, u insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashning mustahkam ma’naviy asoslaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar tarbiyasida tasavvuf falsafasining ma’naviy uyg‘onish g‘oyalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy jamiyatda global axborot oqimi, ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy kontent, g‘ayritabiiy ideologik ta’sirlar va turli yot g‘oyalar yoshlarning ongiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatishi, ularning axloqiy barqarorligini va ruhiy muvozanatini buzishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tasavvufiy qarashlar orqali inson qalbi poklanadi, nafsiyati tarbiyalanadi va sabr, ixlos, shukr hamda muhabbat kabi yuksak fazilatlar shakllanadi[5].

Jaloliddin Rumiy o‘z Masnaviy asarlarida ma’naviy uyg‘onishning insonning o‘zini anglash, ruhiy barkamollikka erishish va jamiyatda ezgulikni qaror toptirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Alisher Navoiy esa Lison ut-tayrda insonni nafs va ichki kurash orqali komil inson darajasiga yetkazishning ahamiyatini keng yoritadi. Shu jihatdan qaralganda, tasavvuf falsafasining ma’naviy uyg‘onish konsepsiyasi yoshlar tarbiyasida nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy barkamollikni shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda yot ta’sirlarga qarshi kurashish, milliy va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarni sog‘lom dunyoqarash va mustahkam e’tiqod bilan tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, tasavvuf falsafasidagi ma’naviy uyg‘onish g‘oyalari yoshlar ongini yuksaltirish, ularni ijtimoiy faollikka undash va ma’naviy barqaror avlodni shakllantirishning samarali metodologik asosidir. Tasavvufiy ta’limotning insonparvarlik, bag‘rikenglik va axloqiy poklikka asoslangan qarashlari yoshlarni yot g‘oyalardan himoya qiluvchi va milliy qadriyatlarni mustahkamlovchi amaliy vosita bo‘lib, uni zamonaviy tarbiya jarayonlariga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir[6].

Nazariy jihatdan qaralganda, tasavvuf falsafasi insonparvarlik, bag‘rikenglik, kechirimlilik va o‘zini anglash tamoyillariga asoslanadi. Ushbu falsafiy yondashuv shaxsning ichki dunyosini yuksaltirish, qalbini poklash va ruhiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Tasavvufiy ta’limotlarda, xususan, G‘azzoliy va Rumiy ijodida ta’kidlanganidek, ma’naviy uyg‘onish insonni o‘z kamchiliklari va nafsining illatlari ustidan g‘alaba qozonishga undaydi, shu orqali shaxsiy komillik va jamiyatga foydali xulq-atvor shakllanadi. Bu jarayonda sabr, ixlos, shukr va muhabbat kabi fazilatlar asosiy o‘rinni egallaydi. Masalan, Navoiy ijodida insonning ichki kurash orqali komil inson darajasiga yetishi va milliy qadriyatlarni hurmat qilishning ahamiyati yoritiladi. Shu bilan birga, tasavvuf falsafasi yoshlarni nafaqat bilimli, balki ma’naviy yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli va milliy qadriyatlarga sodiq shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston sharoitida ushbu nazariy qarashlar yoshlar tarbiyasining amaliy poydevori sifatida dolzarbdir. Chunki zamonaviy jamiyatda axborot oqimining tezligi, turli yot g‘oyalar va ijtimoiy ta’sirlar yoshlarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, tasavvuf falsafasidagi ma’naviy uyg‘onish konsepsiyasini tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish orqali yoshlar mustahkam e’tiqod, sog‘lom dunyoqarash, bag‘rikenglik va yuksak axloqiy fazilatlar bilan tarbiyalanadi. Bu nafaqat individual barkamollikni, balki jamiyatda milliy qadriyatlar

va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi[7].

**Xulosa.** Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tasavvuf falsafasida ilgari surilgan ma’naviy uyg‘onish g‘oyasi insonning ichki kamoloti, axloqiy yetukligi va ijtimoiy faolligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Ushbu ta’limot insonni o‘zini anglashga, nafs ustidan g‘alaba qozonishga va yuksak ma’naviy qadriyatlarga amal qilishga undaydi. Natijada shaxs nafaqat o‘z hayotini mazmunli tashkil etadi, balki jamiyat taraqqiyotiga ham ijobiy hissa qo‘shadi. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar tarbiyasi ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilayotgan bir paytda, tasavvuf falsafasining ma’naviy uyg‘onish g‘oyalari yoshlarni yot ta’sirlardan himoya qilish, mustahkam e’tiqod va sog‘lom dunyoqarash shakllantirish, shuningdek, ularni vatanparvar va barkamol shaxs etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tasavvuf falsafasini zamonaviy tarbiya jarayoniga tatbiq etish orqali Yangi O‘zbekiston yoshlarini ma’naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxslar sifatida shakllantirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B.28.
2. Jo‘rayev N. Falsafa asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. –B.128.
3. Vohidov E. Ma’naviyat – komillik asosi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016. –B.63.
4. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. –B.58.
5. Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch. – 3.2023. 19-21.
6. Hasanov S. Tasavvuf falsafasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. –B.74.
7. Abdullayev Q. Yoshlar tarbiyasi va ma’naviyat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – B.48.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 141.319.8:37.013.43:316.334.3

# XOJAGON TARIQATI G‘OYALARINING MA’RIFATLI JAMIYATNI BARPO ETISHDAGI IJTIMOIY-TARBIYAVIY ROLI

***Vohidova Dilshoda Vohid qizi, Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi***

# THE SOCIO-EDUCATIONAL ROLE OF THE IDEAS OF THE KHOJAGAN SUFI ORDER IN BUILDING AN ENLIGHTENED SOCIETY

***Vohidova Dilshoda Vohid qizi, Independent Researcher, Bukhara State University***

# СОЦИАЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНАЯ РОЛЬ ИДЕЙ ТАРИКАТА ХОДЖАГОН В ПОСТРОЕНИИ ПРОСВЕЩЁННОГО ОБЩЕСТВА

***Вохидова Дилшода Вохид кызы, независимый исследователь, Бухарский государственный университет***



***https://orcid.org/0009-0007-4636-7181***
***e-mail: vohidovadilshoda@gmail.com***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola Xojagon tariqati g‘oyalari va ularning ma’rifatli jamiyatni barpo etishda ijtimoiy va tarbiyaviy rolini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda tariqatning ma’naviy qadriyatlari, axloqiy prinsiplari va ularning yoshlar tarbiyasi, jamiyatda ma’rifatni targ‘ib qilishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Xojagon tariqati g‘oyalari orqali insoniy fazilatlarni shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning dolzarbligi ta’kidlanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Xojagon tariqati, g‘oya, ma’rifatli jamiyat, ijtimoiy-tarbiyaviy rol, ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi.*

***Abstract:*** *This article is devoted to the study of the ideas of the Xojagon tariqat and their social and educational role in building an enlightened society. The research analyzes the spiritual values and moral principles of the tariqat, as well as their impact on youth education and the promotion of enlightenment in society. The relevance of shaping human virtues and ensuring social stability through the Xojagon ideas is emphasized.*

***Key words:*** *Xojagon tariqat, ideas, enlightened society, social-educational role, spirituality, youth education.*

***Аннотация:*** *Статья посвящена изучению идей тариката Ходжагон и их социальной и воспитательной роли в построении просвещённого общества. В исследовании анализируются духовные ценности и моральные принципы тариката, а также их влияние на воспитание молодёжи и распространение просвещения в обществе. Подчеркивается актуальность формирования человеческих качеств и обеспечения социальной стабильности через идеи Ходжагон.*

***Ключевые слова:*** *Тарикат Ходжагон, идеи, просвещённое общество, социально-воспитательная роль, духовность, воспитание молодёжи.*

**Kirish.** Ma’rifatli jamiyatni barpo etish – har bir davrda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda ma’naviy qadriyatlar, insoniy fazilatlar va ijtimoiy barqarorlikni shakllantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, turli diniy va ma’rifiy yo‘nalishlar, jumladan Xojagon tariqati g‘oyalari yoshlar tarbiyasi, ma’naviyatni rivojlantirish va jamiyatda axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi. Xojagon tariqati – tarixiy ildizlari chuqur bo‘lgan tasavvufiy yo‘nalish bo‘lib, insonning ma’naviy va axloqiy rivojlanishi, ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirish, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan g‘oyalari bilan ajralib turadi. Tariqatning asosiy tamoyillari va qadriyatlari yoshlarni tarbiyalashda, ularni ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishda va jamiyatning ma’rifiy rivojlanishiga hissa qo‘shishda amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Xojagon tariqati

g‘oyalari va ularning ma’rifatli jamiyatni barpo etishda ijtimoiy-tarbiyaviy roli o‘rganiladi[1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot Xojagon tariqati g‘oyalari va ularning ma’rifatli jamiyatni barpo etishda ijtimoiy-tarbiyaviy rolini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda metodologik asos sifatida tizimli yondashuv va tarixiy-tahliliy metodlardan foydalaniladi. Avvalo tariqatning tarixiy ildizlari, shakllanish jarayoni va uning jamiyat hayotiga ta’siri o‘rganiladi. Shu bilan birga, diniy, ma’rifiy va axloqiy g‘oyalarning tarbiyaviy funksiyasi ham tahlil qilinadi. Tadqiqotda bir nechta metodlardan foydalaniladi. Analitik va taqqosiy metodlar yordamida Xojagon tariqati g‘oyalari boshqa diniy va ma’rifiy oqimlar bilan solishtiriladi va ularning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati aniqlanadi. Tarixiy-metodik yondashuv esa tariqatning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va jamiyatdagi rolini tarixiy manbalar va arxiv materiallari orqali o‘rganishga imkon beradi. Empirik metodlar – intervyu, so‘rovnoma va kuzatuvlar – yordamida yoshlar va jamiyat vakillari orasida tariqatning tarbiyaviy ta’siri o‘lchanadi. Sistemali tahlil esa ma’naviy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va ijtimoiy faoliyatni bir tizim sifatida ko‘rib chiqishga yordam beradi [2].

**Nazariy qism.** Globallashuv va axborot asrida hozirda insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri yuqorida aytib o‘tganimizdek, ma’naviy barkamol, intellektual salohiyatli va ijtimoiy mas’uliyatli jamiyatni shakllantirishdir. Bunday jamiyat falsafiy tilda “ma’rifatli jamiyat” tushunchasi orqali ifodalanmoqda. Chunki ma’rifatli jamiyat inson tafakkurining yuksalishi, bilim va axloqning uyg‘unlashuvi, inson qadrining ustuvorligi bilan ajralib turadi. U nafaqat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotning, balki ma’naviy uyg‘onishning ham bosh omilidir. Bular byнёdkor g‘oyalar orqali shakllantiriladi.

Sharq va G‘arbda insoniyatning old mutafakkirlari o‘zlarining byнёdkor g‘oyalari orqali yetuk jamiyatni orzu qilib, bu borada doimo sa’y-harakatda bo‘lganlar. Ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligiga erishish lozimligini ta’kidlaganlar. Shu sababli xalqimizda “Olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin” deb bejizga aytilmagan. Chunki inson ilmli bo‘lsa-yu, odob-axloqi talab darajasida bo‘lmasa, uning jamiyat e’tiroziga uchrashi aniq. Lekin ma’rifatli insonning mazmuni kengligini ham esdan chiqarmasligimiz lozim. Bilim ma’rifatning funksiyalaridan biri, uning yuzaga kelishidagi asos ekanligini ham unutmasligimiz kerak[3].

Ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligi tushunchasining falsafiy mohiyati shundaki, birinchidan, ma’naviyatning ma’rifiy jarayonlar bilan uzviy aloqadorligini, inson ma’naviyatining u tomonidan o‘zlashtiriladigan bilimlar, amaliy tajriba va ko‘nikmalar hosil qilinishi, shaxsning ilmiy-ijodiy kamoloti bilan bog‘liqligini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi; ikkinchidan, ma’lum shaxs, ijtimoiy guruh, jamiyat va davlat hayotiga xos faoliyatda, urf-odat va an’analarda, ta’lim-tarbiya tizimida ma’naviy omillarning bilim va tafakkur rivoji bilan mushtarakligini ifodalaydi. Ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligi o‘zbek xalqining ko‘p ming yillik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o‘ziga xos xususiyati bo‘lib kelgan. Chunki azaldan O‘zbekiston sivilizatsiyasining asosi, poydevorini ma’naviyat, ma’rifat va axloq qadriyatlari tashkil etgan va bu tushunchalarni bir-biridan ajralgan holda tasavvur qilish mumkin emas. Ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligi jamiyat, xalq kamolotining bosh omillaridan biri hisoblanadi. Ma’rifat ham o‘z navbatida madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq. Chunki ma’rifat ma’naviyatga olib keladigan yo‘l, uni shakllantiradigan vositadir. Ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligi tarixi jamiyat tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligi ma’naviy qaramlikni bartaraf etuvchi kuch, u insonga aqliy va ruhiy quvvat baxsh etadigan omil sifatida namoyon bo‘ladi. U kishilarni gunoh ishlardan qaytaradi, ezgu xulq va odob egasi bo‘lishga chorlaydi, yordam beradi. Faqatgina chinakam ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligiga erishgan odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib, obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Ma’rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo‘ladi. Ma’naviyat sermazmun tushuncha bo‘lib, ma’rifat uni yoyish, kishilar ongi va qalbiga singdirish vositasidir. Ma’naviyatni hayotga singdirish faqat ma’rifat orqali emas, ma’rifat o‘choqlari, turli ijodiy uyushmalar, tashkilot, muassasalar, OAV va boshqa tizimlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligini ta’minlaydi, xalq ma’naviyati va ma’rifatining yuksalishiga imkon beradi[4].

Ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligi insonning iqtidori va intilishiga qarab rivojlanadi. Agar bu kamolot faqat tor doirada qolsa, jamiyatda muvozanat buziladi. Shuning uchun ma’rifatni targ‘ib qilish har bir ziyolining mas’uliyati bo‘lib, chin ma’rifatli inson

o‘z yurtini taraqqiy ettirishga qodirdir. Yoshlarni tarbiyalashda ustoz va murabbiylarning roli katta, ularni hurmat qilish va sharoit yaratish zarur. Ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligi insonga qudrat va salohiyat beradi, nafaqat iqtisodiy, balki ruhiy rivojlanishga ham xizmat qiladi. Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevori shu asosda qurilmoqda, davlat siyosati va jamiyatning kuch-qudrati esa fuqarolarning ma’naviy darajasi bilan baholanadi. Falsafiy tafakkur tarixidagi tasavvuf ta’limoti, undagi Xojagonlik tariqati o‘gitlari insoniyatni shu jihatdan tarbiyalaydigan manbalardan hisoblanadi. Bugungi Yangi O‘zbekistonda “ma’rifat” tushunchasi milliy taraqqiyot falsafasining asosiy g‘oyasiga aylandi. Taraqqiyotning eng muhim kaliti – bu ma’rifat va tafakkur yuksakligidadir, deb ta’kidlanmoqda. Chunki jamiyatning har bir davrlaridagi taraqqiyot darajasi – inson tafakkuri, ma’rifati va axloqiy dunyosining qanchalik mukammalligi bilan bog‘liqdir. Shu sababli ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligi o‘zaro dialektik aloqadorlikda[5]. Ma’rifat tushunchasi tasavvufda ilm, idrok va o‘zini anglash bilan bog‘liq bo‘lib, insonning ruhiy va jismoniy kamolotini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hadis va Qur’oni Karimga ko‘ra, inson o‘zini yaxshi anglasa, Parvardigorini ham taniydi. Shu sababli jamiyat rivojida markazga inson, uning intellekti va ma’naviy yetukligi qo‘yiladi. Ma’rifatli jamiyatni shakllantirish nafaqat ta’lim, balki davlat siyosati, fuqarolik jamiyati, madaniyat va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligida amalga oshadi. Xojagon tariqatidagi ma’naviy meros orqali ma’rifatli jamiyat mazmuni va funksiyalarini ochib berish, falsafiy tahlil qilish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tasavvuf ta’limotida ulug‘ mutasavviflar ham “orif”lar deyiladi. Orif “irfon” – ilohiy ilm sohibi. “Irfon” arabcha “bilish”, “bilib olish”, “tanish”, “tushunish” va “bilim” ma’nolarida qo‘llaniladi. Bu so‘zning muodili yunoncha bo‘lib, “sirli”, “gaybli” ma’nolarini anglatadi[6]. Tasavvuf, adabiyot, she’r va boshqa fanlarga oid ko‘plab masalalarni puxta o‘rganagan kishilarga nisbatan orif deyiladi. Irfon ilohiy ilmlardan biri sifatida Haqning zoti, ismlari va sifatlarini ishroq (ko‘ngil yorug‘ligi) orqali bilib olishga qaratilgan ilm hisoblanadi. Xojagon tariqatida ahlulloh (Xudoni qidiruvchilar) Haqni tanib olish yo‘lini irfon deb ataydi. Tasavvufda inson nafsini poklash, riyozat, sig‘inish va zikr orqali haqiqatga erishadi. Ayrim olimlar irfonni tasavvufning ilmiy, tasavvufni esa amaliy tomoni deb biladi. So‘fi haqiqiy orif bo‘lib, insonlarni sevish, xizmat qilish va Xudoning borligi va birligini unutmaslikni asosiy aqida qiladi. Shu sabab Yetti pir “oriflar” deb ataladi[7].

Abdulxoliq G‘ijduvoniy shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat ahli bo‘lib, uning ma’naviy merosi orqali ulug‘ zotlar tarbiyalanadi. Mamlakatimizda ma’rifiy islomni rivojlantirish va pirlar ziyoratgohlarini obod qilish xalqaro e’tirof topmoqda. Tariqatda inson qadr-qimmati fazilat, halol mehnat va jamiyatga foydali faoliyat bilan belgilanadi. Halol mehnat insonni mustaqil qiladi, kasb-hunar hayotda munosib o‘rin beradi. Faqrning asosiy xususiyatlari – vafo va sadoqat; solik tavozu bilan Qur’on va Hadis mutolaasi orqali o‘zini rivojlantiradi, jaholatdan qutuladi va Uchinchi Renessans poydevoriga hissa qo‘shadi [8].

**Xulosa.** Bugungi Yangi O‘zbekistonda “ma’rifat” tushunchasi milliy taraqqiyot falsafasining asosiy g‘oyasiga aylandi. Taraqqiyotning eng muhim kaliti – bu ma’rifat va tafakkur yuksakligidadir, deb ta’kidlanmoqda. Chunki jamiyatning har bir davrlaridagi taraqqiyot darajasi – inson tafakkuri, ma’rifati va axloqiy dunyosining qanchalik mukammalligiga bog‘liqdir. Abduxoliq G‘ijduvoniy Qur’oni Karim va Hadisga asoslangan tasavvuf ta’limotida inson ruhiy kamolotini chuqur o‘rgangan va qimmatli meros qoldirgan. Xojagon tariqatidagi ma’naviy meros ruhiy kamolotni yuksaltirib, ma’rifatli jamiyat yoshlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu asosda, ma’rifatli jamiyat mazmuni va funksiyalarini tariqat o‘gitlari orqali aniqlash va falsafiy tahlil qilish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Маънавият. Асосий тушунчалар луғати. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. Тошкент, 2021.
2. Ислом энциклопедия. А-Ҳ. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти.157-бет.
3. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Биринчи китоб. Тошкент, Ёзувчинашриёти, 37-бет.
4. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. Истиқлол нашриёти, 1999, 144-бет.
5. Vohidov E. Ma’naviyat – komillik asosi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016. – B.63.
6. Radhakrishnan S. Indian Philosophy. – London: George Allen & Unwin, 1923. – P. 112–135.
7. Feuerstein G. The Yoga Tradition: Its History, Literature, Philosophy and Practice. – Prescott: Hohm Press, 1998. – B. 210.
8. Taimni I.K. The Science of Yoga. – New Delhi: The Theosophical Publishing House, 1986. – B. 87–95.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 316.77:1

# МЕДИАПРОСТРАНСТВО КАК ФИЛОСОФСКАЯ КАТЕГОРИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА


***Исаева Дилбар Абдикадировна, доктор философии по философским наукам (PhD), доцент БГТУ***

# MEDIAMAKONNING ZAMONAVIY JAMIYATNING FALSAFIY KATEGORIYASI SIFATIDAGI TALQINI

***Isayeva Dilbar Abdikadirovna, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti***

# MEDIA SPACE AS A PHILOSOPHICAL CATEGORY OF MODERN SOCIETY

***Isaeva Dilbar Abdikadirovna, Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor, Bukhara State Technical University***



***https://orcid.org/0009-0007-4636-7181***
***e-mail: isayevadilbar@gmail.com***

***Аннотация:*** *В статье философия рассматривает медиа как часть современного общества, а не просто средство информации. Прослеживается трансформация восприятия медиа: от простого инструмента к среде, формирующей реальность. В качестве теоретической базы используются работы Маклюэна, Бергера, Лукмана, Лумана и Бодрийяра. Медиапространство определяется как социально-культурная среда, где создаются и транслируются смыслы, влияющие на восприятие и идентичность.*

***Ключевые слова:*** *медиапространство, социальная философия, медиатизация, социальная реальность, коммуникация, социальное пространство, среда, символические структуры, идентичность.*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada falsafa media hodisasini zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi sifatida, faqat axborot vositasi emas, balki ijtimoiy borliqni shakllantiruvchi muhit sifatida ko‘rib chiqadi. Media haqidagi tasavvurlarning transformatsiyasi oddiy instrumentdan reallikni shakllantiruvchi muhitga aylanishi tahlil etiladi. Nazariy asos sifatida Marshall Maklyuen, Piter Berger, Tomas Lukman, Niklas Luman va Jan Bodriyar asarlaridan foydalangan. Mediamakon ijtimoiy-madaniy muhit sifatida ta’riflanadi, unda ma’nolar yaratiladi va uzatiladi hamda idrok va identiklikka ta’sir ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *mediamakon, ijtimoiy falsafa, mediatizatsiya, ijtimoiy reallik, kommunikatsiya, ijtimoiy makon, muhit, ramziy tuzilmalar, identiklik.*

***Abstract:*** *This article examines media from a philosophical perspective as an integral part of modern society, not merely as a tool for information. It traces the transformation of the perception of media-from a simple instrument to an environment that shapes social reality. Theoretical foundations are drawn from the works of Marshall McLuhan, Peter Berger, Thomas Luckmann, Niklas Luhmann, and Jean Baudrillard. Mediaspace is defined as a socio-cultural environment in which meanings are created and transmitted, influencing perception and identity.*

***Keywords:*** *mediaspace, social philosophy, mediatization, social reality, communication, social space, environment, symbolic structures, identity.*

**Введение.** С развитием информационного общества и усилением медиатизации, социальная философия обращает внимание на формы реальности, в которых живёт современный человек. Медиапространство одна из таких форм, ставшая важной частью общественной жизни. При том, что этот термин часто встречается в научных работах, его значение остаётся размытым и требует философского уточнения. Сначала медиа понимали узко, как СМИ и способы передачи информации. В ранних теориях массовой коммуникации медиа считали инструментами для передачи информации, обучения и влияния на общественное мнение. Этот подход, типичный для начала XX века, был скорее техническим и не изучал, как медиа влияют на социальную реальность[1].

**Обзор литературы.** Во второй половине XX века, философы коммуникации и медиаэкологии изменили взгляд на роль медиа. Маклюэн утверждал, что медиа есть сообщение, подчёркивая, что способы коммуникации влияют не только на содержание информации, но и на наше восприятие, мышление и общение. Он считал медиа продолжением человека, меняющим то, как мы взаимодействуем с миром. Это позволило перейти от изучения медиа как инструментов к их философскому осмыслению как факторов, формирующих социум. Позже, рамки исследований расширились: медиа стали рассматривать в контексте социальных коммуникативных структур. Концепции социального конструирования реальности, предложенные Бергером и Лукманом, стали особенно важны. Они считали, что реальность формируется в процессе общения между людьми, через язык, символы и знаки. В этом контексте, медиакоммуникации стали одним из основных способов создания и подтверждения социального знания[2].

В современной социальной философии понятие медиапространства вводится для выхода за рамки понимания медиа лишь как технологий и каналов передачи информации. Оно рассматривается как особая форма социального пространства, где объединяются коммуникация, символические структуры, культурные коды и технологии, а акцент переносится на организацию социального бытия[3].

Медиапространство - это среда, где формируются смыслы, нормы и социальные связи, влияя на восприятие мира, мнения и идентичность человека. Согласно Бодрийяру, оно связано с “симулякрами”, создающими гиперреальность, что подчёркивает самостоятельную логику медиапространства и его влияние на общество. Это многоуровневая социальная реальность, объединяющая технологии, коммуникацию и культурные смыслы, выступающая не просто каналом информации, а средой организации социальной жизни. Медиапространство символично, динамично, обладает размытыми границами и двойственной природой - продукт деятельности человека и самостоятельная среда, влияющая на общество. Оно проникает в жизненный мир, формирует идентичность, управляет вниманием и значимостью событий, являясь ключевой формой современной социальной реальности. Философское понимание требует перехода от описания медиапрактик к анализу его структурных основ. В современной социальной философии, медиапространство - это философская категория, позволяющая увидеть изменения в социуме под воздействием медиатизации. Этот анализ рассматривает медиапространство на трёх уровнях: онтологическом, эпистемологическом и антропологическом. Теоретические подходы сочетаются с исследованиями, которые показывают особенности медиапространства в условиях трансформации [4].

1. Онтологическое измерение медиапространства. Онтологическое измерение связано с сущностью и конструированием социальной реальности. В философии медиа медиапространство - это среда, формирующая социальную реальность и наше восприятие мира. Важна работа Маклюэна Понимание медиа: внешние расширения человека, где он утверждает, что медиа меняют структуру человеческого опыта. Он считал медиа не просто инструментом, а средой, меняющей жизнь. Системно-теоретическое осмысление связано с работами Лумана, особенно с монографией Реальность массмедиа. Луман показывает, что общество создаётся коммуникацией, а медиапространство - самодостаточная система. Это позволяет рассматривать его как реальность, в которой создаются смыслы.

Социальный конструктивизм Бергера и Лукмана рассматривает медиапространство как механизм распространения символов, формирующих социальную реальность, а теория Бодрийяра подчёркивает роль «симулякров», заменяющих реальность. Современные исследования показывают связь материального и виртуального в медиапространстве. В Узбекистане оно развивается под влиянием цифровых технологий, объединяя традиционные и новые медиа и обеспечивая коммуникацию и социальное взаимодействие различных групп[5].

2. Эпистемологическое измерение медиапространства. Эпистемологическое измерение связано с производством знания и критериями. В работах Маклюэна подчёркивается, что медиа формируют не только содержание, но и формы мышления и восприятия. Это означает, что медиапространство функционирует как матрица, в которой знания становятся возможным. Кастельс рассматривает

TAMADDUN NURI

сетевые структуры как новую форму организации социума, где знание – ресурс[6].

Современные исследования фиксируют рост дезинформации, где истина определяется медиаформатами, а не фактами. В Узбекистане это усиливается цифровизацией и низким уровнем критического мышления. Медиапространство, взаимодействуя с официальными источниками и платформами, влияет на восприятие информации и развитие гражданского общества. Проблема качества контента сохраняется, поэтому медиапространство выступает не только источником информации, но и полем борьбы за её интерпретацию [7].

3. Антропологическое измерение медиапространства. Антропологическое измерение связано с трансформацией опыта и способов взаимодействия. Утверждается, что жизненный мир структурируется через символические формы. В медиатизированной реальности эти формы опосредуются технологиями, что приводит к появлению новых форм жизненного мира, где опыт конструируется. Медиапространство формирует восприятие и идентичность человека через медийные образы, влияя на самоощущение и стандарты культуры. Среди молодежи это проявляется в трансформации коммуникаций: расширяются связи, но снижается качество взаимодействия. В западной теории медиапространство рассматривается как элемент социума, воспроизводящий смыслы и интерпретирующий реальность. В постсоветском контексте оно трактуется как социальная структура и поле власти, сочетая функции доступа к информации и контроля[8].

В Узбекистане медиапространство развивается под влиянием цифровизации, роли государства и платформ, формируя мнение и идентичность молодежи, однако низкая медиаграмотность повышает риски дезинформации. Существует дефицит философского анализа, что требует создания моделей с учётом локальной специфики и интеграции западных теорий. Медиапространство понимается как особая форма социальной реальности, влияющая на восприятие мира, знания и личную идентичность[9].

**Заключение.** Подводя итог вышесказанному, можно утверждать, что медиапространство является и результатом деятельности человека, и независимой средой, оказывающей воздействие на социальную практику. Оно организует общение, создает смыслы и становится важным фактором преобразования современного общества. Поэтому философский анализ медиапространства необходим для понимания социальных изменений в условиях медиатизации и цифровизации.

**Использованная литература:**


1. Бодрийяр, Ж. Симулякры и симуляции. - М.: Издательский дом ПОСТУМ, 2015. - 240 с.
2. Маклюэн Маршалл. Понимание медиа: Внешние расширения человека/М.: Жуковский: КАНОН-пресс-Ц, Кучково поле, 2003. – 464 с.
3. Никлас Луман. Реальность массмедиа. https://iphras.ru/uplfile/socep/luman_realnost_massm.pdf
4. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. - М.: Медиум, 1995. - 323 с.
5. Бодрийяр, Ж. Симулякры и симуляции. - М.: Издательский дом ПОСТУМ, 2015. - 240 с.
6. Couldry N., McCarthy A. (eds.) Mediaspace: Place, Scale and Culture in a Media Age. - London: Routledge, 2004.
7. Маклюэн Маршалл. Понимание медиа: Внешние расширения человека/М.; Жуковский: КАНОН-пресс-Ц, Кучково поле, 2003. – 464 с.
8. Manuel Castells. The Rise of the Network Society. https://api.pageplace.de/preview/DT0400.9781444310146_A23624249/preview-9781444310146_A23624249.pdf
9. Eshbekov Bakhodir .The role of the media in strengthening freedom of expression and democratic institutions in Uzbekistan. Journal of Multidisciplinary Academic Business Studies (JoMABS) ISSN 3032-3169, Vol 2, No 3, 2025, P. 185-194.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 37.013.43:316.356.2:316.334.56

# YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA TA’LIM-TARBIYA MASKANLARINING O‘RNI

***Siddiqov Ulugbek Gafforovich, Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi***



***https://orcid.org/0009-0007-4636-7181***
***e-mail: siddiqovulugbek@gmail.com***

# THE ROLE OF FAMILY, MAHALLA, AND EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM IN NEW UZBEKISTAN

***Siddiqov Ulugbek Gafforovich, Independent Researcher, Bukhara State Technical University***

# РОЛЬ СЕМЬИ, МАХАЛЛИ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

***Сиддиков Улугбек Гаффорович, независимый исследователь, Бухарский государственный технический университет***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oilaning, mahalla institutining va ta’lim-tarbiya maskanlarining ahamiyati o‘rganiladi. Jamiyatning barqarorligi va milliy qadriyatlarning avlodlarga yetkazilishi ushbu uch omilning samarali hamkorligiga bog‘liqdir. Oila yoshlarning birinchi tarbiyaviy muhiti sifatida, mahalla esa ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash markazi sifatida, ta’lim-tarbiya maskanlari esa bilim va ma’naviyat asosida vatanparvarlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Yangi O‘zbekiston, yoshlarga tarbiya, vatanparvarlik, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya, milliy qadriyatlar.*

***Abstract:*** *This article examines the role of family, mahalla institutions, and educational centers in fostering patriotism among youth in New Uzbekistan. The stability of society and the transmission of national values to future generations depend on the effective cooperation of these three elements. The family serves as the primary educational environment for youth, the mahalla acts as a center for social support, and educational institutions play a crucial role in shaping patriotism based on knowledge and spirituality.*

***Key words:*** *New Uzbekistan, youth education, patriotism, family, mahalla, education, national values.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается роль семьи, института махалли и образовательных учреждений в воспитании молодежи в духе патриотизма в Новом Узбекистане. Стабильность общества и передача национальных ценностей новым поколениям зависят от эффективного взаимодействия этих трех факторов. Семья является первичной воспитательной средой для молодежи, махалля выступает как центр социальной поддержки, а образовательные учреждения играют ключевую роль в формировании патриотизма на основе знаний и духовности.*

***Ключевые слова:*** *Новый Узбекистан, воспитание молодежи, патриотизм, семья, махалля, образование, национальные ценности.*

**Kirish.** Yangi O‘zbekistonda millatning kelajagi va taraqqiyoti yoshlarga bog‘liq bo‘lib, ularning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi eng muhim vazifalardan biridir. Bugungi globallashuv va jahon miqyosidagi tezkor o‘zgarishlar sharoitida yosh avlodning milliy qadriyatlar, ota-bobolarning merosi va Vatanga sadoqat ruhida yetukliklari mamlakat barqarorligi va mustaqilligimiz mustahkamligini ta’minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois, yoshlarga tarbiya berishda oilaning, mahalla

institutining va ta’lim-tarbiya maskanlarining o‘rni beqiyosdir. Oila – shaxsning birinchi va eng muhim tarbiyaviy maydoni, mahalla esa ijtimoiy birdamlik va madaniy merosning markazi, ta’lim-tarbiya maskanlari esa bilim va ma’naviyatni shakllantiruvchi muhim maskanlardir. Ushbu uchta asosiy omil o‘zaro uzviy bog‘lanib, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samarali tizimini yaratadi. Shuning uchun, Yangi O‘zbekistonda milliy istiqlol va taraqqiyot yo‘lida yoshlarimizni munosib vatandosh, mas’uliyatli fuqarolar etib tarbiyalash – eng ustuvor vazifa sifatida e’tiborga olinmoqda. Bu esa oiladan boshlanib, mahalla va ta’lim-tarbiya muassasalari orqali mustahkamlanishi lozim [1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot “Yangi O‘zbekistonda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim-tarbiya maskanlarining o‘rni” mavzusini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, metodologik asos sifatida ijtimoiy-tarbiya fanlarida qo‘llaniladigan integratsiyalashgan yondashuvlar ishlatiladi. Tadqiqot jarayonida avvalo oilaning, mahalla institutining va ta’lim-tarbiya maskanlarining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ularning o‘zaro ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda analitik va taqqosiy metodlar yordamida turli hududlardagi tarbiyaviy tajribalar solishtiriladi, shuningdek, empirik metodlar – intervyular, so‘rovnomalar va kuzatuvlar orqali oilalar, mahalla faollari va pedagoglarning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi amaliy ishlari o‘rganiladi. Sistemali yondashuv esa bu institutlarning bir tizim sifatida ishlashini aniqlash va ularni uyg‘unlashtirish imkonini beradi[2].

**Nazariy qism.** Jahonda har qanday mamlakat o‘z kelajagini sog‘lom hamda komil inson, barkamol avlod timsolida ko‘rishni istaydi. Davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurishdek ezgu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish yoshlarimizning matonati, ilmi muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarimizning zamon talablari asosida ta’lim-tarbiya olishi, vatanparvar bo‘lishi, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o‘z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni yetkazishda oila va mahallaning o‘rni kattadir. Shu sababli Prezidentimiz Sh.Mirziyoev 2022-yil 11-maydagi “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 241-son Qarorida “…o‘quvchilar ongi va vatanparvarlik tuyg‘ularini va milliy qadriyatlarni singdirish, boy madaniy-tarixiy meros, milliy urf-odatlar, buyuk ajdodlarimiz ma’naviy merosini o‘rganishlari uchun sharoitlarni yaratishda sektor rahbarlari va mutasaddi tashkilotlarni keng jalb etish” vazifasini qo‘yadi [3].

Hozirgi globallashuv davrida yosh avlodda milliy o‘zlik, ma’naviy barqarorlik va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Buning amalga oshishi faqat davlat siyosati yoki ta’lim muassasalari bilan cheklanmay, oilaviy va mahallaviy muhit orqali ham ta’minlanadi. Oila shaxsning ijtimoiylashuvi va axloqiy qadriyatlari shakllanadigan birinchi muhitdir. Bolaning Vatan haqidagi ilk tasavvuri oiladagi nutq, an’analar va shaxsiy namuna orqali vujudga keladi, va Vatan tuyg‘usi yurakda ildiz otadi. Er-xotin oilani mustahkam qilishi, farzandlarni barkamol va vatanparvar etib tarbiyalashi, “oila–mahalla–ta’lim muassasasi” birligi esa jamiyatning muvozanatli rivojlanishi uchun zarur. Shu bilan Vatanparvarlik kundalik hayotda namoyon bo‘ladigan axloqiy munosabat sifatida shakllanadi[4].

Tadqiqotchilarning fikricha, 77 foiz inson ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida oilani keltiradi. Bunday holat ijtimoiy ongda oilaning ustuvor qadriyat ekanligidan dalolat beradi. Demak, inson kamoloti, ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va ma’naviyatning manbalari haqida fundamental g‘oyalarga tayangan holda, oila esa bu tizimda asosiy ma’naviy poydevor sifatida namoyon bo‘ladi [5].

“Vatan ostonadan boshlanadi” iborasi Vatan tuyg‘usining oiladan shakllanishini bildiradi. Bolaning vatanparvarligi uning kindik qoni to‘kilgan yerdan boshlanadi, shuning uchun tarbiyani oiladan boshlash zarur. Oila shaxsni shakllantiradigan birinchi muhit bo‘lib, bu yerda berilgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar keyinchalik mahalla va ta’lim muassasalarida rivojlanadi. Abdurauf Fitrat ta’kidlaganidek, millat taqdiri oilaning holatiga bog‘liq; oila munosabatlari intizomli bo‘lsa, mamlakat va millat ham kuchli bo‘ladi. Ota-onalar farzandlarini ma’naviy va jismonan barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashlari uchun o‘z bilim va madaniyatlarini doimo boyitib borishlari, farzandlarga Vatan tarixi, madaniyati va milliy qadriyatlar haqida to‘liq tasavvur berishlari lozim. Buning uchun xalq og‘zaki ijodi va zamonaviy tarbiya usullaridan foydalanish muhimdir. Oilada vatanparvarlikni tarbiyalashning samarali usullari – namuna ko‘rsatish, vaziyat orqali tarbiya, ma’qullash va maqtash, mukofotlash, munosabat orqali tarbiya qilishdir [6].

Shaxs faqat biologik mavjudot emas, balki ajdodlarini bilish orqali ma’naviy mavjudlik kasb etadi. Bu yoshda shakllangan faxr, daxldorlik va mas’uliyat tuyg‘usi vatanparvarlikning asosini tashkil

qiladi, chunki Vatanga muhabbat tashqi shiorlar bilan emas, balki “men kimman?” va “qaysi sulola va millatning davomchisiman?” degan savollarga javob orqali paydo bo‘ladi. Shuning uchun xotira bu faqat eslash qobiliyati emas, balki ma’naviy barqarorlik manbai bo‘lib, inson o‘z qadriyatlarini anglaydi, irodali bo‘ladi va o‘zligini yo‘qotmaydi. Ya’ni, xotirasi kuchli yoshlarning mafkuraviy tahdidlarga qarshi “immuniteti” kuchli bo‘lishi ta’kidlanadi[7]. Mafkuraviy immunitet shaxsning mustaqil fikrlash va tanqidiy tafakkuri bilan bog‘langan holda talqin etiladi. Xotirasi bo‘lgan yoshlar irodali bo‘ladilar, undaylar turli yot yo‘llarga kirib ketib, vatanga, xalqiga xiyonat qilmaydi. Bu bugungi turli mafkuraviy tahdidlar kuchaygan davrda yoshlar immunitetini shakllantirish va kuchaytirishda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidchilik yetakchilaridan Mahmudxo‘ja Behbudiyning fikricha, inson o‘z nasabini bilmasa, jamiyatda faol subyekt emas, balki passiv obyekta bo‘lib qoladi. Shu sababli yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash muhimdir. O.Musurmonovaning ta’kidlashicha, shaxsning ichki ma’naviy dunyosi – ehtiyoj, qiziqish, faoliyat va qadriyatlar tizimidan iborat[8].

Hozirgi globallashuv davrida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun noan’anaviy usullar qo‘llanilishi zarur. Bolalar qalb bilan Vatanni sevib, ma’naviy barqaror bo‘lishi uchun ularni hayratlantiradigan va qiziqtiradigan tarbiya muhitlari yaratish lozim. Islom madaniyati ham oilaviy tarbiyada muhim rol o‘ynaydi. Farzandlar Alloh Kalomi va islomiy an’analar asosida tarbiyalanadi. O‘zbekistonning tarixiy va diniy maskanlari, masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi ziyoratgohlar, farzandlarni vatanparvar ruhida tarbiyalash imkonini beradi. Oilaviy tarbiyada ota-onaning mas’uliyati katta. Tadqiqotlarga ko‘ra, otalar bolalar bilan kam vaqt o‘tkazadi, bu esa tarbiyada kamchiliklarga olib keladi. Oila – jamiyatning asosiy bo‘lagi, inson birinchi ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni oilada o‘rganadi. Shu sababli ota-onalar bolalarni Vataniga sodiq, mehnatsevar va jamiyat qurilishida faol ishtirokchi sifatida tarbiyalashlari zarur. Huquqiy normalarga rioya qilish ham tarbiyada muhim rol o‘ynaydi[9].

**Xulosa.** Yangi O‘zbekistonda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim-tarbiya maskanlarining o‘rni beqiyos ahamiyatga ega. Oila – shaxsning birinchi tarbiyaviy muhitidir, u yerda milliy qadriyatlar va mehr-muhabbat asoslari singdiriladi. Mahalla esa ijtimoiy birdamlikni mustahkamlab, yoshlarni jamiyatga foydali insonlar sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim-tarbiya muassasalari esa bilim, ma’naviyat va milliy g‘ururni tarbiyalashda poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu uch omil o‘zaro uyg‘unlashib, yoshlarni barkamol, mas’uliyatli va fidoyi vatandoshlar sifatida voyaga yetkazishda samarali tizimni tashkil etadi. Shunday ekan, millatning kelajagi, mustaqil davlatimizning ravnaqi yosh avlodning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga bevosita bog‘liqdir. Bu borada oiladan boshlab, mahalla va ta’lim-tarbiya muassasalari hamkorligini yanada kuchaytirish, yoshlarning ma’naviy va axloqiy barkamolligini ta’minlash – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Абдурахмонов А. Ўзбек оиласида фарзандларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг методлари ҳақида. // Экономика и социум, № 12(103). – Саратов, 2022. – С. 370.
2. Иномова М. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. – Тошкент, 1999. –Б.87.
3. Мусурмонова О. Ўқувчиларнинг маънавий маданиятини шакллантириш. – Тошкент: Фан, 1993. – Б.112.
4. Қуронов М. Ўзбек характери ва миллий ғоя. – Тошкент, 2005. – Б.67.
5. Тураханова Д. Ўсмир ва ота-она мунособатининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти ахборотномаси. № 2. – Тошкент, 2018. – Б. 123.
6. Усмонов К. Ёшларда ҳарбий ватанпарварлик туйғуси шаклланишининг миллий-маънавий ва ахлоқий асослари // Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти ахборотномаси. № 2. – Тошкент, 2018. – Б. 12.
7. Тошматов Б. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш – давлат сиёсати марказида // Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти ахборотномаси. № 2. – Тошкент, 2018. – Б. 5.
8. Қаҳҳорова М. Оила маънавияти ва уни ривожлантиришнинг маърифий жиҳатлари. – Тошкент.: Маънавият, 2019. – Б. 40.
9. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.221.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 398.8:82-343:811.512.133

# O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODIDA “OY” KONSEPTINING SEMANTIK VA RAMZIY TALQINI

***Sharipova Bahora Odiljonovna, Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti “Ingliz tili, amaliy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi***

# THE SYMBOLIC AND PSYCHOLOGICAL FORMATION OF THE “MOON” CONCEPT IN UZBEK ORAL FOLKLORE

***Sharipova Bahora Odiljonovna, Navoiy State University, Faculty of Philology, Department of Practical English, Lecturer***

# СИМВОЛИЧЕСКОЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ КОНЦЕПТА “ЛУНА” В УЗБЕКСКОМ НАРОДНОМ ФОЛЬКЛОРЕ

***Шарипова Бахора Одилжоновна, преподаватель кафедры практического английского языка филологического факультета Навоийского государственного университета***

***https://orcid.org/0009-0002-4358-0706***

***e-mail: bahora@nspi.uz***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodida “oy” konseptining semantik va ramziy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda folklorning turli janrlari — qo‘shiqlar, laparlar, ertaklar, rivoyatlar, maqollar va topishmoqlar asosida oy obrazining ko‘p qatlamli ma’nolari ochib beriladi. Oy konsepti go‘zallik, muhabbat, sadoqat, ruhiy holat, ayollik va onalik kabi tushunchalar bilan bog‘liq holda yoritiladi. Shuningdek, maqolada arxetip nazariyasi (C.G.Jung) va mifologik yondashuv (M.Eliade) asosida oy obrazining kollektiv ongdagi o‘rni tahlil etiladi*

***Kalit so‘zlar****: oy konsepti, folklor, semantik tahlil, ramziy ma’no, arxetip, mifologiya, go‘zallik, muhabbat, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, ramz, poetik obraz, madaniy fenomen.*

***Abstract****: This article analyzes the semantic and symbolic interpretation of the concept of the “moon” in Uzbek folklore. The study examines various folklore genres, including songs, lapars, fairy tales, legends, proverbs, and riddles, revealing the multi-layered meanings of the moon concept. The moon is interpreted as a symbol associated with beauty, love, loyalty, emotional states, femininity, and motherhood. The research is based on archetypal theory developed by Carl Jung and the mythological approach of Mircea Eliade, which allows for a deeper understanding of the moon as a cultural and psychological phenomenon*

***Key words:*** *moon concept, folklore, semantic analysis, symbolism, archetype, mythology, beauty, love, Uzbek oral tradition, cultural phenomenon.*

***Аннотация****: В данной статье рассматривается семантическая и символическая интерпретация концепта “луна” в узбекском фольклоре. Исследование основано на анализе различных жанров устного народного творчества, таких как песни, лапары, сказки, легенды, пословицы и загадки, что позволяет выявить многослойность значений данного концепта. Луна интерпретируется как символ красоты, любви, верности, эмоционального состояния, женственности и материнства. Теоретической основой исследования послужили архетипическая теория Carl Jung и мифологический подход Mircea Eliade. В результате установлено, что концепт луны в узбекском фольклоре выступает не только как эстетический образ, но и как важный элемент, отражающий человеческое сознание и мировоззрение.*

***Ключевые слова:*** *концепт луны, фольклор, семантический анализ, символика, архетип, мифология, красота, любовь, узбекское устное народное творчество, культурный феномен.*

**KIRISH.** Oy – qadimdan insoniyat uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lib, faqat astronomik obyekt sifatida emas, balki ma’naviy va falsafiy ramz sifatida ham qabul qilingan. Uning fazalari, tunda nur sochishi, tabiat jarayonlari bilan bog‘liqligi odamlar tasavvurida oyga chuqur ma’no yuklatgan (Eliade, 1987). Ayrim xalqlarda unga katta kuch deb qaralgan, hattoki sig‘inilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.** O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham oy obraziga katta semantik yuk berilgan. U go‘zallik, muhabbat, sadoqat va ruhiy holatlarning ifodachisi sifatida namoyon bo‘ladi (Turaqulov, 2018; Saidov, 2004). Bu ma’nolarning barchasi xalqning tiliga va albatta adabiyotlarga ko‘chgan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiga oid qo‘shiqlar, ertaklar, rivoyatlar, maqollar va topishmoqlar semantik va kontekstual jihatdan o‘rganilib kelinmoqda. Jumladan, xalq qo‘shiqlarida oy – go‘zallik timsoli sifatida tez-tez uchraydi. Masalan, “Oydek yuzingni ko‘rganlar hayratda qolur” tarzidagi ifodalar ayol go‘zalligini oyga qiyoslaydi (Saidov, 2004, b. 145). Shuningdek, zamonaviy qo‘shiqlarda ham oy tasviri hali-hanuz mavjud:

*“Bugun oy chiqdi horg‘in, onajonim sog‘indim.*

*Oymomo aytgin rostin, uni ko‘rasan doim, omonmi chiroyligim…”*

Ushbu parchada oy obrazi kommunikativ simvol ya’ni xabar yetkazuvchi, psixologik arxitep – ona obrazida va emotsional trigger – sog‘inchni kuchaytiruvchi sifatida namoyon bo‘lgan. Shuningdek, ushbu parchada “Oy” tabiat jismi emas ona, sog‘inch, umid ramzlariga aylangan.

**MUHOKAMA.** Xalq o‘zaki ijodiga nazar solsak va semantik tahlil qilsak, muhabbat haqidagi laparlarning birida quyidagi jumla mavjud.

*Oy yuzli yorim, kelgin yonimga,*

*Mehringni sochgin mening jonimga…*

Bu yerda “oy” mahbubaning yuziga qiyos qilib, uning go‘zal va nurli ekanini bildirgan. Ya’ni “oy” go‘zallik etaloni. Oy hozirga qadar eng oliy go‘zallik mezoni sifatida sanalib kelingan. Ushbu parchada oy go‘zallik, oy nuri esa muhabbat va mehr ramziy ma’nolarini ifodalagan. “Oy yuzli” iborasi bu yerda ideal husn egasi sifatida tasvirlagan. Mahbuba ushbu parchada oydek komil, go‘zal sifatida poetik ideallashtirilgan. Oy ushbu misrada estetik simvol, ya’ni go‘zallik ifodasi, emotsional simvol sifatida mehr-muhabbat ifodalangan bo‘lsa, mahbubaning yuzini oyga qiyoslab, metaforik qiyoslash ham ishlatilgan.

Epik janrlarimizda ham oy ramzi bor. “Alpomish” dostonida Barchinoyning go‘zalligi oyga tenglanib, yuzidan nur taralishi tasvirlanadi (Alpomish, 1958, b. 56). “Go‘ro‘g‘li” dostonida esa Oybarchin obrazi orqali oy ayollik va latofat belgisi sifatida ko‘rsatiladi: “Oybarchin yuzini ko‘rganlar oyni ko‘rgandek bo‘lur” (Go‘ro‘g‘li, 1961, b. 78) kabi metaforik qiyoslashlar orqali go‘zallikni, beg‘uborlikni ifodalovchi parchalar ko‘plab uchraydi. Maqollarda oy ramziy va umumlashgan ma’noda ishlatiladi. “Oy ko‘rgan ko‘zga quyosh ortiqcha emas” degan maqol go‘zallik va idrok haqidagi tasavvurlarimizni ifodalaydi (Saidov, 2004, b. 201). Bu maqolda inson tabiati haqida gap ketgan, bunda inson doimo yaxshisidan ham a’lorog‘ini qabul qilishga tayyor turishi yoki boshqacha tushuntirganda go‘zallikdan keyin yana go‘zallik istashi ma’nosi ifodalangan. Maqolda oy estetik emotsional qoniqish, quyosh esa yuqori darajadagi kamolot ramzi sifatida ifodalangan. Yaxshilik, yoxud go‘zallik hech qachon ortiqcha bo‘lmaydi, degan ma’noni ifodalagan.

Topishmoqlarda oyning tabiiy xususiyatlari obrazli tarzda aks etadi. Masalan, “Tunda chiqadi, kunduz yo‘q, osmon kezib yuradi” – bu oyning davriyligi va harakatini ifodalaydi (Saidov, 2004, b. 230). Ushbu topishmoqdagi oy chiqishi va botishi bu vaqtning o‘tishini, hayotning aylanma xarakterini ifodalaydi. Shu misollar oy konseptining folklor janrlari orasida turlicha ramziy va semantik qatlamlarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning nazariy asoslari arxetip nazariyasi va mifologik yondashuvdan olingan. Jung nazariyasiga qaraganda, oy kollektiv ongda arxetip bo‘lib, ayollik, onalik, ichki sezgi va ruhiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. O‘zbek folkloridagi “oydek yuzli” iborasi nafaqat tashqi go‘zallik, balki ichki poklik, nozik ruhiy holatni ifodalaydi. “Alpomish” dostonida Barchinoyning oyga qiyoslanishi – nafaqat go‘zallik, sadoqat va ma’naviy poklikni ham aks ettiradi. Bu Jungning “anima” arxetipi – ayollik va ruhiy sezgirlik timsoli bilan uyg‘un keladi.

Eliade fikriga ko‘ra, oy qadim madaniyatlarda muqaddaslik va kosmik tartib ramzi sifatida qabul qilingan (Eliade,1987,p.89). Oy fazalari tug‘ilish, o‘sish, so‘nish va qayta tiklanishni ifodalaydi, bu esa inson hayotining siklik tabiatiga o‘xshatiladi. O‘zbek rivoyatlarida sadoqatli yoki pok insonning oyga aylanishi haqidagi syujetlar bor. Bu oy obrazining ilohiy mukofot va ruhiy komillik timsoliga aylanishini ko‘rsatadi (Saidov,2004,b.178).

Qiyosiy tahlilda oy obrazining turli madaniy kontekstlardagi umumiy va maxsus xususiyatlar ham ochildi (Leeming, 2005). Yunon mifologiyasida Selene – oy ma’budasi, go‘zallik va ilohiylik timsoli. Hind mifologiyasida Chandra – oy xudosi sifatida vaqt va hayot sikllari bilan bog‘liq (Leeming, 2005, p. 230). O‘zbek folklorida ham oy hayot, ruhiyat va tabiat sikllari bilan bog‘liq universal

ramz sifatida namoyon. Lekin o‘zbek madaniyatida oy estetik va lirik obraz sifatida rivojlangan – bu milliy o‘ziga xoslikni ko‘rsatadi.

**NATIJALAR.** Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘zbek folklorida oy konsepti murakkab semantik tizim sifatida shakllangan:

Birinchidan, oy – ayollik va onalik bilan bog‘liq arxetipik ramz. Bu tabiatdagi siklik xususiyatlar bilan bog‘liq (Krippner & Combs, 2002).

Ikkinchidan, lirik janrlarda oy – estetik mezon. Inson go‘zalligi va hissiy holatini ifodalash vositasi (Turaqulov,2018).

Uchinchidan, epik va narrativ janrlarda oy – ilohiy kuch, poklik va mukofot ramzi. Ba’zida insonning ma’naviy yuksalishi bilan bog‘liq obraz sifatida tasvirlanadi (Eliade,1987).

Maqol va topishmoqlarda oy tabiiy hodisa sifatida ishlatilsa-da, uning harakati ramziy fikrlash elementini ko‘rsatadi (Saidov, 2004).

Ushbu natijalar oy obrazining folklorda ham badiiy bezak, ham inson ruhiyati va dunyoqarashini aks ettiruvchi vosita ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, “Oydek nur sochmoq” kabi iboralar oyning ruhiyatga ijobiy ta’sirini ifodalaydi. Bu yerda oy – osmondagi oddiy jism emas, balki ichki holatni yorituvchi ramz.

Jung nazariyasiga muvofiq, oy ongning chuqur qatlamlaridagi his-tuyg‘ular, ichki sezgilar bilan bog‘liq obraz. Sevgi haqidagi qo‘shiqlarda oyning ko‘p tilga olinishi bejiz emas. “Oyga qarab seni esladim” kabi ifodalar ichki kechinmalarni oyning obrazida tashqariga chiqaradi. Bu oyning ruhiyatimizdagi yashirin hislarni yuzaga chiqarishga qodir ramz ekanini ko‘rsatadi.

Eliade asosida esa, oy – muqaddaslik va tabiat tartibi bilan bog‘liq. Qadimda odamlar oy chiqishi yoki to‘lin oy davrini alohida kuzatib, muhim hodisa deb bilishgan. Ba’zi hududlarda to‘lin oy paytida tilak yoki ibodat qilish odat edi – bu oyning muqaddas kuch sifatida qabul qilinishi dalolatidir.

Oy obrazining ayollik bilan bog‘lanishi juda tabiiy. Qizlarni “oydek go‘zal” deb ta’riflash – nafaqat tashqi ko‘rinishni, balki muloyimlik, poklik va noziklikni ham anglatadi. Bu qadim insonlar tabiat va inson o‘rtasidagi o‘xshashlikni chuqur his qilganini ko‘rsatadi.

**XULOSA.** Oy obrazi orqali xalq nafaqat go‘zallikni, balki ruhiy holat, tabiat va hayot uyg‘unligini ham ifodalagan. Shu sababli, oy konsepti folklorda estetik obrazdan ko‘ra chuqur tafakkur qatlamlarini aks ettiruvchi madaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijada shuni aytish mumkinki, o‘zbek folklorida “oy” chuqur ramziy va ruhiy mazmunga ega badiiy timsol. U inson tafakkurining estetik, psixologik va mifologik qatlamlarini mujassam etadi (Turaqulov,2018;Jung,1964). Oy xalq ongida barqaror arxetip sifatida shakllangan va go‘zallik, poklik, muhabbat, ruhiy o‘zgarishlarni ifodalashda foydalaniladi (Eliade,1987). Shu sababli, oy konseptini tadqiq qilish madaniyat hamda tafakkur o‘rganishida muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Boyce-Davies C. *Black Women, Writing and Identity: Migrations of the Subject*. – London: Routledge, 1999. – 320 p.
2. Eliade M. *The Sacred and the Profane: The Nature of Religion*. – New York: Harcourt, 1987. – 256 p.
3. Jung C. G. *Man and His Symbols*. – London: Aldus Books, 1964. – 320 p.
4. Krippner S., Combs A. *The Mythic Path: Discovering the Guiding Stories of Your Past – Creating a Vision for Your Future*. – Wheaton (IL): Quest Books, 2002. – 300 p.
5. Leeming D. A. *The Oxford Companion to World Mythology*. – Oxford: Oxford University Press, 2005. – 480 p.
6. Needham J. *Science and Civilisation in China*. Vol. 2: History of Scientific Thought. – Cambridge: Cambridge University Press, 1956. – 696 p.
7. Saidov A. *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 280 b.
8. Saidov S. *O‘zbek xalq ijodi*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 260 b.
9. Turaqulov A. *Xalq og‘zaki ijodi va ramzlar olami*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. – 240 b.
10. Turaqulov O. *O‘zbek xalq estetik tafakkurida ramz va timsollar*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. – 220 b.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 796.032:37.013.43:94

# YOSHLARNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA OLIMPIYA HARAKATINING IJTIMOIY-MA'NAVIY AHAMIYATI

*Hamdamov Alisher Tohir o'g'li, mustaqil tadqiqotchi*

# THE SOCIO-SPIRITUAL SIGNIFICANCE OF THE OLYMPIC MOVEMENT IN EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES

*Hamdamov Alisher Tohir o'g'li, Independent Researcher*

# СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОЛИМПИЙСКОГО ДВИЖЕНИЯ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ

*Хамдамов Алишер Тохир оглы, независимый исследователь*



*https://orcid.org/0009-0001-9366-3799*
*e-mail: a_hamdamov96@mail.ru*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada O'zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ayniqsa, Olimpiya harakatining yoshlar tarbiyasidagi o'rni tahlil qilinadi. Olimpiya qadriyatlarining shaxs ma'naviy kamolotiga ta'siri, sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *olimpiya harakati, jismoniy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy qadriyatlar, sport siyosati, sog'lom turmush tarzi.*

***Abstract:*** *This article analyzes the reforms implemented in the field of physical education and sports in Uzbekistan during the years of independence, with particular emphasis on the role of the Olympic movement in youth education. The impact of Olympic values on the spiritual development of individuals and their importance in promoting a healthy lifestyle are scientifically substantiated.*

***Keywords:*** *Olympic movement, physical education, youth education, spiritual values, sports policy, healthy lifestyle.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются реформы, осуществлённые в сфере физической культуры и спорта в Узбекистане за годы независимости, а также особое внимание уделяется роли олимпийского движения в воспитании молодёжи. Научно обосновано влияние олимпийских ценностей на духовное развитие личности и их значение в формировании здорового образа жизни.*

***Ключевые слова:*** *олимпийское движение, физическая культура, воспитание молодёжи, духовные ценности, спортивная политика, здоровый образ жизни.*

**Kirish.** So'nggi yillarda globallashuv jarayonlari jamiyatning barcha jabhalariga, jumladan, jismoniy tarbiya va sport tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Jismoniy tarbiya va sport bugungi kunda nafaqat sog'lom turmush tarzini ta'minlovchi omil, balki yoshlar ma'naviy tarbiyasining muhim vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, Olimpiya harakati bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tarbiya va sport tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar uning ijtimoiy-madaniy mohiyatini yanada boyitdi. Zamonaviy sport nafaqat jismoniy rivojlanishni, balki insonning axloqiy, estetik va ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan Olimpiya harakati yoshlarni vatanparvarlik, halollik, raqobatbardoshlik ruhida tarbiyalashda muhim vositadir.

**Adabiyotlar tahlili.** Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi zamonaviy pedagogika, sotsiologiya va jismoniy tarbiya nazariyasida muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, sport va olimpiya harakatining tarbiyaviy

imkoniyatlari bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Olimpiya harakatining shakllanishi va rivojlanishi Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning asosiy g‘oyalari insonparvarlik, tinchlik, do‘stlik va halol raqobat tamoyillariga tayanadi. Bu tamoyillar yosh avlodni tarbiyalashda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Olimpiya harakatining asoschisi Per de Kuberten tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar sport orqali shaxsni har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan. Uning fikricha, sport nafaqat jismoniy rivojlanish, balki ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi hamdir. Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, olimpiya harakatining yoshlar ma’naviy tarbiyasidagi o‘rni keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, uni milliy qadriyatlar bilan integratsiyalash va zamonaviy ijtimoiy sharoitlarda qo‘llash masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda olimpiya harakatining ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatini o‘rganish uchun kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, sotsiologiya va jismoniy tarbiya nazariyasi tashkil etadi. Shu bilan birga, tadqiqotda Olimpizm g‘oyalari va Umuminsoniy qadriyatlar konsepsiyasiga tayanildi. Quyidagi metodlardan foydalanildi: tizimli tahlil usuli, qiyosiy tahlil usuli, sotsiologik tadqiqot usullari, pedagogik kuzatish usuli, kontent-tahlil usulidan foydalanildi. Olimpiya harakatining tarbiyaviy imkoniyatlari va uning yoshlar ma’naviy kamolotiga ta’siri tizimli ravishda o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg‘unlashtirildi. Bu esa natijalarning ishonchliligi va obyektivligini ta’minlashga xizmat qildi.

**Muhokama natijalari.** *Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-falsafiy mohiyati*. Jismoniy tarbiya va sport ijtimoiy hodisa sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim o‘rin egallab kelgan. U nafaqat jismoniy rivojlanish vositasi, balki ijtimoiylashuv, kommunikatsiya va madaniy almashinuv omili hamdir.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi yoshlarning:

- ijtimoiy faolligi yuqori bo‘ladi;
- intizomi kuchli shakllanadi;
- stressga chidamliligi ortadi;
- jamoada ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, sportni yoshlar tarbiyasining strategik vositasi sifatida ko‘rish mumkin.

Olimpiya o‘yinlari ilk bor 1896-yilda Afina shahrida o‘tkazilgan bo‘lib, bugungi kunga kelib u global miqyosdagi yirik sport va madaniy hodisaga aylandi[1]. Ushbu harakatni boshqaruvchi Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi sport orqali tinchlik, do‘stlik va o‘zaro hurmat g‘oyalarini ilgari suradi.

Olimpiya harakatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- tinchlik va do‘stlik;
- halol raqobat;
- inson qadr-qimmatini ulug‘lash;
- mukammallikka intilish.

Mazkur tamoyillar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va yoshlar tarbiyasida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ham mustaqillikdan so‘ng sport sohasiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasining tashkil etilishi (1992-yil) milliy sport tizimini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi[2]. Ayniqsa, so‘nggi yillarda qabul qilingan davlat dasturlari sport infratuzilmasini rivojlantirish, yoshlarni sportga keng jalb etish va xalqaro maydonda raqobatbardosh sportchilarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda:

- sport infratuzilmasi kengaytirildi;
- zamonaviy sport majmualari barpo etildi;
- xalqaro standartlarga mos tayyorgarlik tizimi joriy qilindi;
- sportchilarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish kuchaytirildi.

Bu jarayonlar O‘zbekiston sportchilarining xalqaro arenadagi muvaffaqiyatlarini ta’minlamoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish siyosati doirasida sportning barcha yo‘nalishlari, xususan, Olimpiya sport turlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda[3]. Bu esa yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilarining erishayotgan yutuqlari yoshlar uchun motivatsiya manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, Parij-2024 Olimpiadasida qo‘lga kiritilgan yuqori natijalar mamlakat sport salohiyatining yuksalayotganini ko‘rsatdi[4]. Bu yutuqlar yoshlar ongida milliy g‘urur, vatanparvarlik va yuksak maqsadlarga intilish hissini kuchaytiradi.

O‘zbekistonda ham sportni rivojlantirish tadbirlariga alohida e’tibor qaratilib, bu borada davlat budjetidan katta mablag‘lar ajratilmoqda. Ayniqsa,

olimpiyada sportini rivojlantirish tadbirlariga sog‘lom avlod tarbiyasining alohida ajralmas bir bo‘lagi sifatida qaralishi asnosida sportni ommalashtirish chora-tadbirlari kuchaytirildi. Keyingi yillarda sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha federatsiyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasi faoliyatini kuchaytirish kun tartibidagi eng dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Shuningdek, O‘zbekistonda 2019-2023-yillarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasining e’lon qilinishi sohada amalga oshirilayotgan tadbirlarning yanada kuchayishiga xizmat qildi. Zero O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “...bugungi kunda sport va sog‘lomlashtirish jarayonlarining natijadorligi Yangi O‘zbekistonni barpo etish vazifalari bilan uzviy bog‘liq ekanini anglagan holda mas’uliyat bilan harakat qilishimiz lozim”[6].

Shuningdek, Olimpiya qadriyatlari – halollik, tenglik, do‘stlik va mukammallikka intilish yoshlar ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu qadriyatlar ta’lim tizimi va sport faoliyati orqali yoshlar ongiga singdirilmoqda.

Olimpiya qadriyatlari yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ular quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

***Vatanparvarlikni shakllantirish*** - Xalqaro musobaqalarda ishtirok etayotgan sportchilar davlat bayrog‘ini himoya qiladi. Bu esa yoshlar ongida milliy g‘urur hissini kuchaytiradi.

***Halollik va adolat tamoyillari*** - sportda dopingga qarshi kurash, qoidalar asosida raqobatlashish yoshlarni halollikka o‘rgatadi.

***Iroda va sabr-toqatni rivojlantirish*** - sport mashg‘ulotlari qat’iyat, mehnatsevarlik va sabrni shakllantiradi.

O‘zbekistonda sportni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, Prezidentning PF-6099-son Farmonida quyidagi vazifalar belgilangan[3]:

- ommaviy sportni rivojlantirish;
- sport infratuzilmasini kengaytirish;
- professional sportni qo‘llab-quvvatlash;
- yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish.

Mazkur siyosat yoshlarning jismoniy va ma’naviy kamolotiga xizmat qilmoqda.

Olimpiya o‘yinlari davlatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiruvchi muhim omillardan biridir. O‘zbekiston sportchilari tomonidan qo‘lga kiritilgan medallar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini ham aks ettiradi[4].

Xususan, Parij-2024 Olimpiadasida erishilgan natijalar:

- sport tizimining samaradorligini;
- yoshlar salohiyatining yuksalganini;
- davlat siyosatining to‘g‘ri yo‘naltirilganini ko‘rsatadi.

Olimpiya harakati ta’lim tizimi bilan integratsiya qilinishi zarur. Bu quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- maktablarda sport darslarini kuchaytirish;
- Olimpiya qadriyatlari asosida tarbiyaviy ishlar olib borish;
- yosh sportchilarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish.

**Xulosa** qilib aytganda, Olimpiya harakati yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat sport yutuqlarini, balki insoniy fazilatlarni ham targ‘ib etadi. Shu bois, O‘zbekistonda Olimpiya sportini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni izchil davom ettirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ernazarov E. Olimpiada - jahon sporti bayrami. - T.: Sharq, 2008.
2. Akromov A.K. O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. - T., 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmoni.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2021.
5. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘. - T.: O‘zbekiston, 2019.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyunda qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ”gi PQ-3031-sonli qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son qarori.
8. Internet manba: https://olamsport.com

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 82.091:821.512.133

# TEYMURİLƏR DÖVRÜ RENESSANSI – ƏLİŞİR NƏVAİNİN “VƏQFİYYƏ” ƏSƏRİ SOSİAL-İQTİSADİ MANİFESTİ KİMİ

*Almaz Ülvi BİNNƏTOVA, Filologiya elmləri doktoru Özbəkistan Respublikasının “Dostluq” ordeni mükafatçısı,AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun “Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi əlaqələr” şöbəsinin müdiri*



*https://orcid.org/ 0000-0001-7991-3969*
*e-mail: almazulvi1960@mail.ru*

# TEMURIYLAR DAVRI RENESSANSI – ALISHER NAVOIYNING “VAQFIYA” ASARI IJTIMOIY-IQTISODIY MANIFEST SIFATIDA

*Almaz Ulvi BINNATOVA, filologiya fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasining “Do‘stlik” ordeni sohibasi, Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti “Ozarbayjon–Turkmaniston–O‘zbekiston adabiy aloqalari” bo‘limi mudiri*


# THE RENAISSANCE OF THE TIMURID ERA: ALISHER NAVOI’S “WAQFIYYA” AS A SOCIO-ECONOMIC MANIFESTO


*Almaz Ulvi BINNATOVA, Doctor of Philological Sciences, recipient of the “Friendship” Order of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department of Azerbaijan–Turkmenistan–Uzbekistan Literary Relations at the Nizami Ganjavi Institute of Literature, Azerbaijan National Academy of Sciences*


# РЕНЕССАНС ЭПОХИ ТИМУРИДОВ — ПРОИЗВЕДЕНИЕ АЛИШЕРА НАВОИ “ВАКФИЯ” КАК СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МАНИФЕСТ


*Алмаз Ульви БИННАТОВА, доктор филологических наук, кавалер ордена “Дружба” Республики Узбекистан, заведующая отделом “Азербайджано–Туркмено–Узбекские литературные связи” Института литературы имени Низами Гянджеви Национальной академии наук Азербайджана*













TAMADDUN NURI

***Xülasə:*** *Bu məqalədə Əlişir Nəvainin "Vəqfiyyə" əsəri Teymurilər dövrü İntibahının sosial-iqtisadi və mənəvi mahiyyətini əks etdirən mühüm mənbə kimi təhlil olunur. Göstərilir ki, Nəvai yalnız böyük şair və mütəfəkkir deyil, həm də genişmiqyaslı ictimai layihələr həyata keçirən dövlət xadimi və xeyriyyəçi olmuşdur. Onun Heratda yaratdığı "İxlasiyyə" kompleksi – mədrəsə, xəstəxana, xanəgah və kitabxanadan ibarət vahid sistem – İntibah dövrünün inkişaf modelini nümayiş etdirir. "Vəqfiyyə" əsəri hüquqi sənəd olmaqla yanaşı, bədii nəsr elementləri ilə zənginləşdirilmiş, müəllifin dünyagörüşünü və humanist ideyalarını əks etdirən unikal mətn kimi dəyərləndirilir. Əsərdə vəqf anlayışı yalnız maddi yardım vasitəsi kimi deyil, sosial rifahın təminə yönəlmiş kompleks mexanizm kimi təqdim edilir. Nəvai vəqf vasitəsilə təhsil, səhiyyə və sosial təminat sahələrini birləşdirərək davamlı inkişaf modeli formalaşdırmışdır.*

*Məqalədə həmçinin "Vəqfiyyə"nin dil və üslub xüsusiyyətləri, xüsusilə türk (cığatay) dilində yazılması və terminoloji yenilikləri elmi baxımdan təhlil edilir. Bu, türk dilinin elmi və inzibati sahədə mövqeyinin möhkəmlənməsində mühüm rol oynamışdır.*

*Nəticə etibarilə, "Vəqfiyyə" Teymurilər dövrünün ictimai-mədəni həyatını əks etdirən sənəd olmaqla yanaşı, praktik humanizmin və sosial məsuliyyət ideyasının parlaq nümunəsi kimi çıxış edir. Əsər müasir dövrdə də sosial siyasət, xeyriyyəçilik və ictimai idarəetmə sahələrində aktual əhəmiyyətini qoruyur.*

***Açar sözlər:*** *Əlişir Nəvai, Vəqfiyyə, Teymurilər, İntibah, xeyriyyəçilik, sosial model, türk dili.*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Alisher Navoiy qalamiga mansub "Vaqfiya" asari Temuriylar davri renessansining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy mohiyatini aks ettiruvchi muhim manba sifatida tahlil qilinadi. Navoiy nafaqat buyuk shoir va mutafakkir, balki yirik davlat arbobi va saxovatpesha inson sifatida ham e'tirof etiladi. Uning Hirotda barpo etgan "Ixlosiya" majmuasi – madrasa, shifoxona, xonaqoh va kutubxonadan iborat tizim – davr taraqqiyotining mukammal modelidir.*

*"Vaqfiya" asari huquqiy hujjat bo'lish bilan birga badiiy nasr unsurlari bilan boyitilgan noyob matn sifatida baholanadi. Asarda "vaqf" tushunchasi jamiyat farovonligini ta'minlovchi ko'p funksiyali tizim sifatida talqin etiladi. Navoiy ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordamni yagona tizimga birlashtirib, barqaror rivojlanish modelini yaratgan. Asarning til va uslub xususiyatlari, ayniqsa uning turkiy (chig'atoy) tilida yozilgani ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bu holat turkiy tilning ilmiy va ma'muriy sohalarda keng qo'llanishiga xizmat qilgan.*

*Xulosa qilib aytganda, "Vaqfiya" nafaqat tarixiy hujjat, balki ijtimoiy-iqtisodiy manifest sifatida ham muhimdir. Asar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.*

***Kalit so'zlar:*** *Alisher Navoiy, Vaqfiya, Temuriylar, renessans, xayriya, ijtimoiy model, turkiy til.*

***Abstract:*** *This article examines Alisher Navoi's "Vaqfiya" as a significant source reflecting the socio-economic and spiritual foundations of the Timurid Renaissance. Navoi is presented not only as a prominent poet and thinker but also as a statesman and philanthropist who implemented large-scale public projects. The "Ikhlasiya" complex he established in Herat, consisting of a madrasa, hospital, khanqah, and library, represents an integrated model of social development.*

*"Vaqfiya" is evaluated as more than a legal document; it is a literary text enriched with artistic prose elements that convey the author's worldview and humanistic ideals. The concept of waqf is interpreted as a comprehensive mechanism for ensuring public welfare, combining education, healthcare, and social support within a unified system. The study also highlights the linguistic and stylistic features of the work, particularly its composition in the Turkic (Chagatai) language, which contributed to the expansion of its scientific and administrative functions.*

*In conclusion, "Vaqfiya" stands as both a historical document and a socio-economic manifesto embodying principles of practical humanism. Its relevance persists in the modern era, offering insights into sustainable social development and public responsibility.*

***Keywords:*** *Alisher Navoi, Vaqfiya, Timurids, Renaissance, philanthropy, social model, Turkic language.*

***Аннотация:*** *В статье анализируется произведение Алишера Навои "Вакфия" как важный источник, отражающий социально-экономическую и духовную сущность Ренессанса эпохи Тимуридов. Подчеркивается, что Навои был не только выдающимся поэтом и мыслителем, но и государственным деятелем, реализовавшим масштабные благотворительные проекты.*

*Созданный им комплекс "Ихласия" в Герате, включающий медресе, больницу, ханаку и библиотеку, представляет собой целостную модель общественного развития.*

*"Вакфия" рассматривается не только как юридический документ, но и как художест-венно оформленный текст, отражающий мировоззрение автора и его гуманистические идеи. В произведении институт вакфа представлен как многофункциональный механизм обеспе-чения общественного благосостояния, объединяющий образование, здравоохранение и социальную поддержку. Особое внимание уделяется языковым и стилистическим особен-ностям произведения, написанного на тюркском (чагатайском) языке. Это способствовало расширению функций тюркского языка в научно-административной сфере.*

*Таким образом, «Вакфия» выступает не только историческим документом, но и своеобразным социально-экономическим манифестом, отражающим идеи практического гуманизма. Произведение сохраняет актуальность и в современном контексте, предлагая модель устойчивого общественного развития.*

***Ключевые слова:*** *Алишер Навои, Вакфия, Тимуриды, Ренессанс, социальная модель, благотворительность, тюркский язык.*

**GİRİŞ:**

Teymurilər dövrü Şərq tarixində elmin, mədəniyyətin və ədəbiyyatın yüksək inkişaf mərhələsi kimi səciyyələndirilir və bir çox tədqiqatçılar tərəfindən "Şərq İntibahı" kimi qiymətləndirilir. Bu dövrün ən görkəmli nümayəndələrindən biri olan Əlişir Nəvai yalnız böyük şair və mütəfəkkir kimi deyil, həm də dövlət xadimi, xeyriyyəçi və ictimai fikir adamı kimi geniş fəaliyyət göstərmişdir. Onun çoxşaxəli fəaliyyəti Teymurilər dövlətində sosial, mədəni və iqtisadi həyatın inkişafına mühüm təsir göstərmişdir. İlk olaraq, onun Türk dilinin himayədarı kimi təqdim etsək, "Mühakimətul-lüğəteyn" əsəri ilə türk dilinin bədii və elmi potensialını – zənginliyini sübut edərək, onu dövrün elmi dili olan fars dili ilə eyni səviyyəyə qaldırmışdır. Bu, mədəni müstəqilliyin ən böyük addımı idi.

Türkcə – cığatay türkcəsində ilk dəfə "Xəmsə" yazan Nəvai yalnız şair deyil, həm də dövlət xadimi kimi onlarla mədrəsə, kitabxana, körpü və xəstəxana tikdirmişdir. Bu, Teymurilər dövründə elmin və infrastrukturun inkişafına birbaşa töhfə idi. "Xəmsə" və digər əsərlərində Teymurilər dövrünün siyasi və mənəvi baxışlarını, ədalətli hökmdar ideallarını özündə əks etdirir. Nəvainin "Vəqfiyyə"də qurduğu sistemin, əslində onun "Heyrətul-əbrar"da təsvir etdiyi ədalətli cəmiyyətin real həyatdakı tətbiqi (praktikası) kimi göstərilməsidir.

**ƏSAS HİSSƏ:**

Əlişir Nəvainin "Vəqfiyyə" (1481–1482) əsəri Teymurilər dövrü İntibahının sosial, iqtisadi və mənəvi mənzərəsini əks etdirən ən önəmli sənədlərdən biridir. Bu əsər, bir tərəfdən klassik vəqf sənədi kimi hüquqi xarakter daşısa da, digər tərəfdən müəllifin ictimai baxışlarını, mənəvi dəyərlər sistemini və humanist ideyalarını əks etdirən mühüm tarixi və ədəbi mənbədir. "Vəqfiyyə" vasitəsilə Nəvai öz dövrünün sosial-iqtisadi münasibətlərini, ictimai institutlarını və xeyriyyəçilik ənənələrini sistemli şəkildə təqdim etmişdir. Məqalənin əsas məqsədi "Vəqfiyyə" əsərini Teymurilər dövrü İntibahının sosial-iqtisadi və mənəvi mahiyyətini əks etdirən kompleks mənbə kimi təhlil etməkdir. Bu məqsədə nail olmaq üçün əsərin janr xüsusiyyətləri, dil və üslub özəllikləri, vəqf institutunun təqdim forması, həmçinin Nəvainin həyata keçirdiyi xeyriyyəçilik fəaliyyətinin sosial əhəmiyyəti araşdırılır.

Tədqiqat zamanı tarixi-müqayisəli, mətnşünaslıq və sistemli təhlil metodlarından istifadə edilmişdir. Bu yanaşma "Vəqfiyyə"nin yalnız hüquqi sənəd kimi deyil, həm də sosial-iqtisadi model, bədii nəsr nümunəsi və humanist ideyaların praktik ifadəsi kimi dəyərləndirilməsinə imkan yaradır.

Nəvai əsərin giriş hissəsində dövrün mürəkkəb siyasi vəziyyəti, Sultan Hüseyn Bayqaranın hakimiyyəti və dövlət idarəçiliyi haqqında öz fəlsəfi düşüncələrini bölüşür. "Vəqfiyyə" sənədli janrla bədii üslubun sintezidir. Əsərdə müəllifin dünyagörüşü, dəyərlər sistemi və insan-dövlət münasibətlərinə dair fikirləri əks olunmuşdur. Bu əsər sadəcə bir hüquqi sənəd deyil, həm də Nəvainin dövlət xadimi və xeyriyyəçi kimi fəaliyyətini sübut edən tarixi bir mənbədir.

Nəvainin ən böyük xeyriyyə layihəsi Heratın şimalındakı İncil kanalının sahilində ucaltdığı "İxlasiyyə" kompleksi – Elm Mərkəzi və ya "Teymurilər İntibahının Florensi-yası" hesab edilir. "Vəqfiyyə"də bu kompleksin – İntibahın memarlıq siması tərkibi belə təsvir olunur:

*Mədrəsə* – burada dövrün ən istedadlı alimləri dərs deyirdi. Nəvai hər bir tələbənin yeməyi, geyimi və təqaüdü üçün xüsusi vəsait ayırmışdı.

*Şəfaiyyə (Xəstəxana)* – Pulsuz tibbi xidmət göstərən bu müəssisədə məşhur həkimlər çalışırdı. "Vəqfiyyə"yə görə, bura hər gün müəyyən miqdarda dərman və qida ilə təmin edilirdi.

*Xalasiyyə (Xanəgah)* – Sufilər və kimsəsizlər üçün sığınacaq yeri idi.

*Kitab və kitabxanaların* – o dövrdə formalaşmasına nəzər salsaq, bəli, Nəvai Teymurilər dövründə kitab mədəniyyətinin ən böyük hamisi idi. O, dövrün ən böyük rəssamı Kəmaləddin Behzadı və xəttat Sultan Əli Məşhədini öz himayəsinə götürərək şəxsi kitabxanasında işlətmişdir. Nəvai topladığı nadir nüsxələri yalnız özü üçün saxlamırdı. "Vəqfiyyə"də qeyd olunduğu kimi, "İxlasiyyə" mədrəsəsinin kitabxanası tələbələr və alimlər üçün açıq idi. Bu, Şərqdə kütləvi kitabxana sisteminin ilk nümunələrindən sayılır. Nəvai öz kitabxanasına rəhbərlik edən şəxsi (kitabdar) çox yüksək maaşla təmin edirdi ki, o, yalnız kitabların qorunması və çoxaldılması ilə məşğul olsun. Bu, Teymurilər İntibahında elm işçisinə verilən dəyərin göstəricisidir.

"Vəqfiyyə" sənədində Nəvai bu müəssisələrin yaşaması üçün çox sayda kənd, bağ, hamam və dükanları vəqf etdiyini yazır. O, sənəddə qeyd edir ki: Vəqf rəhbəri (mütəvəlli) dürüst olmalıdır. Əgər mülklərdən gələn gəlir artarsa, bu vəsait ilk növbədə tələbələrin yeməyinin keyfiyyətinin artırılmasına və binaların təmirinə xərclənməlidir.

12. А.Орипов. Йиллар армони. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.– Б.144.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 82(575.1)

# YOZUVCHI ASARLARIDA QAHRAMON RUHIY KECHINMALARINING USLUBIY IFODASI

*Hamidova Muhayyoxon Obidovna, NamDU "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrasi professori, f.f.n.*

# STYLISTIC EXPRESSION OF THE CHARACTER'S PSYCHOLOGICAL EXPERIENCES IN THE WRITER'S WORKS

*Khamidova Mukhayyoxon Obidovna, Namangan State University, Professor of the Department of Uzbek Literary Studies, Namangan State University, candidate of philological sciences*

# СТИЛИСТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПЕРЕЖИВАНИЙ ПЕРСОНАЖА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ПИСАТЕЛЯ

*Хамидова Мухайёхон Обидовна, Наманганский государственный университет, профессор кафедры узбекского литературоведения, кандидат филологических наук*



*https://orcid.org/0009-0007-9423-6274*
*e-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada yozuvchi asarlarida qahramonlarning ruhiy kechinmalarining uslubiy ifodasi tahlil qilingan. Unda qahramonlarning ichki hissiyotlari, ruhiy holatlari va ma'naviy ziddiyatlari turli badiiy-uslubiy vositalar orqali qanday tasvirlanishi o'rganilgan. Tahlil jarayonida rivoya usullari, obrazlilik, til xususiyatlari hamda muallifning individual uslubi qahramon ichki dunyosini chuqur ochib berishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, psixologik tasvirning qahramon mohiyatini ochish va badiiy asarning estetik ta'sirini kuchaytirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, uslubiy vositalardan samarali foydalanish yozuvchiga jonli, realistik va hissiy jihatdan boy qahramon obrazlarini yaratish imkonini beradi.*

***Kalit so'zlar:*** *qahramon, ruhiy kechinma, psixologik tasvir, badiiy uslub, individual uslub, ichki monolog, badiiy obraz, til vositalari, estetik ta'sir, adabiy tahlil.*

***Abstract:*** *This article analyzes the stylistic expression of characters' psychological experiences in the writer's works. It examines how the inner feelings, mental states, and spiritual conflicts of characters are depicted through various artistic and stylistic devices. In the process of analysis, particular attention is given to narrative techniques, imagery, linguistic features, and the author's individual style in revealing the depth of a character's inner world. The article also highlights the importance of psychological depiction in uncovering the essence of characters and enhancing the aesthetic impact of a literary work. The results of the study show that the effective use of stylistic devices enables the writer to create vivid, realistic, and emotionally rich character portrayals.*

***Keywords:*** *character, psychological experience, psychological depiction, literary style, individual style, inner monologue, artistic image, language devices, aesthetic impact, literary analysis.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется стилистическое выражение психологических переживаний персонажей в произведениях писателя. Рассматривается, каким образом внутренние чувства, психические состояния и духовные противоречия героев изображаются с помощью различных художественно-стилистических средств. В процессе анализа особое внимание уделяется повествовательным приемам, образности, языковым особенностям, а также индивидуальному стилю автора в раскрытии внутреннего мира персонажа. Также подчеркивается значение психологического изображения в раскрытии сущности героя и усилении эстетического воздействия художественного произведения. Результаты исследования показывают, что*

*эффективное использование стилистических средств позволяет писателю создавать яркие, реалистичные и эмоционально насыщенные образы персонажей.*

***Ключевые слова:*** *персонаж, психологическое переживание, психологическое изображение, художественный стиль, индивидуальный стиль, внутренний монолог, художественный образ, языковые средства, эстетическое воздействие, литературный анализ.*

**KIRISH.** Badiiy adabiyotda qahramon ruhiy kechinmalarini tasvirlash muhim estetik va badiiy vazifalardan biri hisoblanadi. Yozuvchi asarlarida qahramonning ichki dunyosini ochib berish, uning hissiy holatlari, o‘y-kechinmalari va ruhiy ziddiyatlarini ifodalash orqali asarning mazmun-mohiyati yanada chuqurlashadi. Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek adabiyotda psixologik tasvir vositalarining keng qo‘llanishi qahramon obrazining hayotiyligi va ishonchliligini ta’minlaydi.

Har bir yozuvchining individual uslubi qahramon ruhiy holatini ifodalashda o‘ziga xos yondashuvni namoyon etadi. Til vositalari, ichki monolog, dialog, tasviriy ifodalar hamda badiiy detallar orqali qahramonning ichki olami bosqichma-bosqich ochib beriladi. Shu jihatdan qaraganda, qahramon ruhiy kechinmalarining uslubiy ifodasini o‘rganish adabiyotshunoslikda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Sh.Xolmirzayev asarlarida qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalashda qo‘llanilgan badiiy-uslubiy vositalar tahlil qilindi hamda ularning badiiy asarning estetik ta’sirini kuchaytirishdagi o‘rni yoritildi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Qahramon ruhiy kechinmalarining badiiy ifodasi masalasi adabiyotshunoslikda ko‘plab olimlar tomonidan turli jihatlarda tadqiq etilgan. Xususan, psixologik tasvir muammolari, obraz yaratish jarayoni hamda yozuvchining individual uslubi masalalari ilmiy izlanishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. O‘zbek adabiyotshunosligida qahramonning ichki dunyosini tasvirlash, uning ruhiy holatini ochib berish masalalari bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada badiiy obrazning psixologik chuqurligi, ichki monolog, ong oqimi kabi usullarning qo‘llanishi alohida e’tiborga olingan. Shuningdek, yozuvchining til va uslub imkoniyatlari orqali qahramon kechinmalarini ifodalash masalalari ham keng yoritilgan.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Mazkur maqolada Sh.Xolmirzayev “Olabo‘ji” romani misolida qahramon ruhiy kechinmalarining uslubiy ifodasini o‘rganishda bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Jumladan, badiiy matnni tahlil qilishda tizimli, qiyosiy va tavsifiy metodlar asos qilib olindi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Tahlil jarayonida yozuvchi asarlaridagi qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalash usullari batafsil o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, qahramonlarning ichki dunyosini ochib berishda bir nechta asosiy uslubiy vositalar samarali ishlatiladi: ichki monolog, muallif nutqi, dialog, tasviriy detallarning psixologik yuklamasi va tilning badiiy imkoniyatlari atroflicha tahlil qilindi. Jumladan, adib Shukur Xolmirzayev “Olabo‘ji” romanida tasvir obyekti qilib olgan voqealar orqali davr ruhiyati haqida o‘zining mustaqil badiiy konsepsiyasini yaratgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu asarda mavjud ijtimoiy–siyosiy tuzumning ham ichdan, ham sirtdan yemirilib borayotgani, O‘zbekistonning boshqa qardosh jumhuriyatlar kabi Rossiya tomonidan bosib olinishi, shu sababli Rossiyaga qaram va mustamlaka o‘lkasi tarzida yashab kelgani, xo‘jaliklarning haddan tashqari kattalashib ketganligi sababli yangi tipdagi rahbarlarning yuzaga kelgani va bu rahbarlar totalitar tuzum inqirozining dahshatli timsoli bo‘lib qolganligi, ijtimoiy “Birlik harakati” boshlang‘ich nuqtalarida xalq manfaatini ko‘zlagani, o‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, mustaqillik uchun kurash, milliy uyg‘onish harakati, ayollar ozodligi bayrog‘i ostida ma’naviy tubanliklarning qaror topishi, “Milliy ozodlik harakati tabiiy jarayon”[7] ekanligi kabi g‘oyalarni ilgari surdi. Bu g‘oyalar asarda tasvir etilgan kishilar psixologiyasi, taqdiri, voqyealarning ichiga singib ketgan. Shunchalik singib ketganki, bu g‘oyalarning muallif tomonidan ishora qilinmagan holda ham o‘zimiz muallif chiqargan xulosaga kelamiz.

Shukur Xolmirzayev romanning qahramonlari To‘qliboy Qo‘chqarov, Ulton Sultonov, Bahor, Bo‘taboy So‘pi, Tarakanov, Maxfirat Egamqulova, Dunyo, Sulton bobo va shu kabi bir qator obrazlar talqini, tahlili orqali bizni doimo qiynab kelayotgan savollarga javob topishga harakat qiladi. Bunda u biz yashagan va hozir ham birga yashayotgan zamondoshlarimizning fe’l-atforini, ruhiyatini tekshirish orqali boradi.

Adib asarning bosh qahramoni Ulton obrazini yaratishda psixologizmdan keng foydalanadi. Nafaqat Ulton obrazi, balki boshqa qahramonlar tasvirida ham psixologizmdan keng foydalanib, asarni kitobxonlar tomonidan sevib qarshi olinishiga erisha oldi. Ulton tabiiy yashashni istagani uchun ham isnonlardan alohida, yolg‘iz o‘zining “yalmog‘izning kulbasi”ga o‘xshagan kulbasida bo‘lib, hayvonlar olamiga oid kitob o‘qishni xush ko‘rar, o‘zgalarni uni bezovta qilishini yoqtirmas edi. Bu uning ruhiyatiga singib ketgan edi. Shu sabab, uni To‘qliboy Qo‘chqarov huzuriga chaqirganida, bundan qattiq ranjiydi. Buni

quyidagi parcha misolidan ham ko‘rishimiz mumkin: “Yigit behol tortib hamda g‘ijinib kiyina boshladi. Tagi rezina tuflisini ham oyoqqa ilgach... kulbadan chiqdi”[6,35]. Shu holda borib, ustozidan topshiriq olgach, maktab ishini tekshirgani boradi. Psixologik dalillash, shubhasiz, turli yozuvchilarda har xil ko‘rinishda ro‘yobga chiqadi.

“O‘qimishli, el tanigan Ulton To‘qliboy Qo‘chqarov kabi kishilarning to‘riga o‘zi bilmagan holda osongina tushib qoladi. Bularning bari Ultonni ustozi, hozirda tuman Bosh kotibi bo‘lmish To‘qliboy Qo‘chqarovning sobiq shogirdini chaqirishidan boshlanadi. Ustozi bilan ko‘rishgandan so‘ng odatdagiday suhbatlardan so‘ng To‘qliboy Qo‘chqarov unga shunday deydi: “Gap shu, seni chaqirishdan ham murod shulki, xo‘sh, senga ishonaman... Shu maktabingga bizning nomimizdan raykomning vakili sifatida tekshirib, bor kam-ko‘stini yozib kelasan... qolgan mana shu o‘n-o‘n besh kunda nimalar qilib ulgurish mumkin, ana shu tomonlariniyam o‘ylab yozasan” [6, 30].

Adib hech bir voqeani shunchaki tasvirlamaydi, barchasini maqsad sari yo‘naltiradi. Mazkur voqea ham uch maqsadga xizmat qiladi. Ya’ni faol qahramonlarning maktab masalasida mutasaddi shaxslarning diqqatini jalb qilishga va Ulton bilan Bahorni yaqinlashtirishga. To‘qliboy Qo‘chqorov o‘zi bosh bo‘lib ikki yoshning to‘yini ham o‘tkazib beradi. Lekin to‘ydan so‘ng uning asl qiyofasi ochiladi: “Ulton yurmoqchi-intilmoqchi bo‘ldi-yu, bir sirli kuch havo to‘lqini kabi ko‘kragidan itardi. Va oromkursiga o‘tirib kuldi-yu, kaftlari bilan yuz-ko‘zini yopdi. Shunda boshi gir-gir aylanayotganini sezdi. So‘ng ko‘ngli aynib, suyanchiqqa yastandi. Va... u o‘ziga kelganida jinnixonada yotardi. Uning “jinni”ligini asoslovchi ma’lumotni esa Bahor yozgan edi. Yozganda ham juda professional yozilgan. Jinnixonaning vrachi Berdiqul diyonatini yutmagan, bu yerda yotgan “jinni”larni to‘g‘ri tushunadigan, ularning qismatidan ich-ichidan ezilib yurgan odam edi. Shuning uchun ham u Ulton fojiasini to‘g‘ri angladi, unga jinni deb qaramadi va uning bu maskandan qochish imkonini yaratib berdi. Lekin Ultonning ehtiyotsizligi uni yana shu maskanga tushishiga sabab bo‘ladi. Asar yakuni kitobxonni qattiq o‘yga toldiradigan tugallama bilan yakunlanadi. Bu tugallanma ikki ma’noga ega. Birinchisi fosiqlik dunyosi-jamiyat halol, to‘g‘riso‘z, tabiiy bir insonni “Olabo‘ji”ga aylantirdi. Ikkinchisi, jamiyatning o‘zi fosiqlik asosiga qurilgani uchun haqiqatdan “Olabo‘ji”dan qo‘rqqanday qo‘rqadi. Chunki haqiqat kuchli, baribir u yengadi. Asar voqealari zamiridan kelib chiqadigan g‘oya shundan iborat[3,242]. Ichki monolog qahramonning shaxsiy fikr va hissiyotlarini bevosita o‘quvchiga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Dialoglar orqali esa qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlar va ruhiy holatlar yanada aniqroq tasvirlanadi. Tasviriy detallarning psixologik funksiyasi qahramon kechinmalarini yanada jonli va realistik qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, muallifning individual uslubi qahramon obrazini shakllantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Til vositalari, badiiy obrazlar va ifodali uslublar yordamida qahramonning ichki dunyosi chuqur va hissiy jihatdan boy tarzda ochib beriladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan badiiy-uslubiy vositalar qahramon ruhiy kechinmalarini realistik, chuqur va estetik jihatdan ta’sirli tarzda ifodalash imkonini beradi. Bu esa o‘quvchida qahramon obraziga nisbatan chuqur tushuncha va hissiy qiziqish uyg‘otadi.

**XULOSA.** Umuman olganda, ushbu asarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, yozuvchi asarlarida qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalashda uslubiy vositalarning roli muhimdir. Ichki monolog, dialog, muallif nutqi, tasviriy detallarning psixologik yuklamasi va tilning badiiy imkoniyatlari orqali qahramonlarning ichki dunyosi chuqur va jonli tarzda ochib beriladi. Muallifning individual uslubi esa qahramon obrazini yaratishda markaziy o‘rin tutadi, bu esa asarning estetik ta’sirini kuchaytiradi va o‘quvchida hissiy rezonans uyg‘otadi. Shu bilan birga, psixologik tasvir va uslubiy ifoda bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, badiiy matnning mazmun-mohiyatini boyitadi va qahramon obrazini realistik hamda hissiy jihatdan boy shakllantirishga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992. – 105 б.
2. Hamidova M. Badiiy tasvir va uslub qirralari: Monografiya. – Namangan: Usmon Nosir media, 2024. – 188 b.
3. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти: Дарслик. – Тошкент: Янги нашр, 2010. – 364 б.
4. Норматов У. Етуклик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982. – 365 б.
5. Қўшжонов М. Доим изланишда. / Қўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.
6. Холмирзаев Ш. Олабўжи // Шарқ юлдузи. - 1992.- № 1.- Б. 30.
7. Холмирзаев Ш. Адиб шахс бўлиши керак // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1991.- 1 октябрь.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 82(575.1)

*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent Lobar MARDONOVA taqrizi asosida*

# INSONIYLIK VA JAMIYAT O‘RTASIDAGI ZIDDIYAT “ODAM BO‘LISH QIYIN” ROMANIDA

***O‘razova Inobad Normurod qizi, Termiz davlat pedagogika instituti talabasi***



***https://orcid.org/0009-0003-3969-7466***
***e-mail: normurodovna.2004inobat@gmail.com***

# THE CONFLICT BETWEEN HUMANITY AND SOCIETY IN THE NOVEL “IT’S HARD TO BE A MAN”

***Urazova Inobad Normurod kizi, Student of the Termez State Pedagogical Institute***

# КОНФЛИКТ МЕЖДУ ЧЕЛОВЕЧЕСТВОМ И ОБЩЕСТВОМ В РОМАНЕ “ТРУДНО БЫТЬ ЧЕЛОВЕКОМ”

***Уразова Инобад Нормурод кызы, студент Термезского государственного педагогического института***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada “Odam bo‘lish qiyin” romanida insoniylik va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat masalasi tahlil qilinadi. Asarda bosh qahramonning ichki kechinmalari, uning axloqiy tanlovlari va jamiyat tomonidan qo‘yilgan talablar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar yoritiladi. Muallif insoniy qadriyatlarning jamiyat bosimi ostida qanday sinovdan o‘tishini ko‘rsatadi. Maqolada, shuningdek, insonning o‘zligini saqlab qolish yo‘lidagi kurashi va ma’naviy poklikka intilishi muhim jihat sifatida ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *insoniylik, jamiyat, ziddiyat, axloqiy tanlov, ma’naviyat, ruhiy kurash, Gulchehra, Abdulla, Sayyora.*

***Abstract:*** *This article examines the themes of humanity andThe issue of conflict between society is analyzed. The work highlights the inner experiences of the main character, his moral choices and the contradictions between the demands made by society. The author shows how human values are tested under the pressure of society. The article also considers the struggle of man to preserve his identity and the pursuit of spiritual purity as an important aspect.*

***Keywords:*** *humanity, society, conflict, moral choice, spirituality, spiritual struggle, Gulchehra, Abdulla, Sayyora.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются темы гуманитарных наук и произведении анализируется проблема конфликта между обществом и внутренним миром главного героя, его моральные дилеммы и противоречия между требованиями общества. Автор показывает, как человеческие ценности подвергаются испытанию под давлением общества. В статье также рассматривается борьба человека за сохранение своей идентичности и стремление к духовной чистоте как важный аспект.*

***Ключевые слова:*** *человечество, общество, конфликт, моральный выбор, духовность, духовная борьба, Гульчехра, Абдулла, Сайёра.*

***Kirish.*** *“Odam bo‘lish qiyin” – O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘lmas Umarbekov qalamiga mansub roman*

Asar adibning ilk romani bo‘lib, 1969-yilda yozilgan. Roman yozuvchining ilk katta asari bo‘lsa-da, yaxshi muvaffaqiyat qozongan va ellik yildan beri qayta-qayta nashr etilmoqda. Asar sovet va

undan keyingi davrlarda bir qancha tillarga tarjima qilinib nashr etilgan. Ilk bora 1970-yilda “Yosh Gvardiya” nashriyoti tomonidan nashr etilgan. 1972-yilda rus tiliga tarjima qilinib “Зелёная звезда” nashriyotida nash etilgan. 1985-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti asarni “Yoz yomg‘iri” qissasi bilan birga 30 000 nusxada qattiq muqovada nashr etgan. 2007-yilda “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2018-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyoti asarni nashr etgan.

**Asosiy qism.** “Odam bo‘lish qiyin” O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘lmas Umarbekovning ilk romani hisoblanadi. Ijodkor bu romanida hayot, hayotning haqiqatga to‘la nafasi ufurib turadi. Asar tilining soddaligi, voqealarining jonliligi e’tiborga loyiq. O‘tgan asrning ikkinchi yarmidagi o‘zbek nasri rivojida O‘lmas Umarbekovning o‘ziga xos o‘rni bor. Uning bu romanı yoshlar hayoti, ma’naviy-axloqiy muammolar, insonlarning murakkab munosabatlari haqida yoritilgan va bugungi kunda ham ko‘p o‘qiladigan asarlar sirasiga kiradi. Asarda ilgari surilgan asosiy g‘oya bu muhabbatdek buyuk tuyg‘uga bo‘lgan sadoqatini hamma ham qola olmasligi, dunyoning yolg‘onchi tuyg‘ulariga aldanib qolmaslik, nafsga hech qachon bosh egmaslik kabi tushunchalarni kitobxonga tushuntirish g‘oyasi bor. Asar asosan yoshlar hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda insonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlari, muhabbat, sadoqat, xiyonat kabi murakkab tuyg‘ular yoritiladi. Yozuvchi qahramonlar orqali odamning haqiqiy inson bo‘lib yetishishi qanchalik qiyin ekanini ko‘rsatadi. Romanning asosiy g‘oyasi inson har qanday vaziyatda ham o‘z vijdoniga sodiq qolishi, yolg‘on tuyg‘ularga aldanmasligi va nafsiga berilmasligi kerakligidir. Asarda haqiqiy muhabbat va unga sadoqat masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Asar tili sodda va tushunarli bo‘lib, voqealar hayotiy tarzda tasvirlangan. Shu sababli roman bugungi kunda ham o‘quvchilar tomonidan qiziqib o‘qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O‘tgan XX asr mahsuli bo‘lgan konfliktologiya nazariyasi hozirgi zamon ijtimoiy-siyosiy hayotda barqarorlik va beqarorlikni ta’minlashda yetakchi rol o‘ynamoqda. Bunda har bir ziddiyatning tarixiyligi, zamonaviyligi, yoki, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy ziddiyatlar sifatida ham namoyon bo‘lishini ko‘ramiz, albatta. Shu o‘rinda, Sh.Mirziyoyev: “Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas”. Mazkur ibora paydo bo‘lganidan buyon ming yillar o‘tdi. Bu butun koinot, tabiat va bashariyat doimiy o‘zgarishda, yangilanishda deganidir. Darhaqiqat, insoniyat ham ana shu azaliy qonuniyat asosida yashaydi va hayot kechiradi[1,5]. Hayot doimo o‘zgarishda bo‘ladi va hech qachon bir xil holatda qolmaydi. Insoniyat ham, jamiyat ham vaqt o‘tishi bilan rivojlanadi, yangilanadi va turli bosqichlardan o‘tadi. Shavkat Mirziyoyev aytganidek, har bir kun yangi o‘zgarishlar bilan boshlanadi. Bu esa insondan moslashuvchanlikni, yangiliklarni qabul qilishni va o‘z ustida ishlashni talab qiladi. Shuning uchun o‘zgarishlar hayotning tabiiy qonuniyati bo‘lib, ular orqali inson va jamiyat taraqqiy etadi.

**Tahlil va natijalar.** “Odam bo‘lish qiyin” romani inson hayotining murakkab jihatlarini ochib beruvchi asarlardan biridir. Unda inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar chuqur badiiy tasvirlangan. Har bir inson jamiyatda yashar ekan, uning qoidalari, talablari va bosimiga duch keladi. Biroq insoniylik— ya’ni halollik, vijdon, mehr-oqibat kabi qadriyatlar har doim ham bu talablar bilan mos kelavermaydi. Asarda aynan shu ziddiyat markaziy o‘rin tutadi. Muallif qahramon orqali insonning o‘zligini yo‘qotmasdan yashash qanchalik qiyin ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur mavzu bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Asarda juda ko‘p konfliktlar uchraydi. Masalan, Gulchehraning tashqi va ichki olamida shaharga ketish yoki qishloqda qolish borasidagi qarama-qarshilik yoki Abdullaning Sayyora va obro‘-e’tibor yoki Gulchehraga nisbatan samimiy tuyg‘ulari qarama-qarshiligi konfliktni yuzaga keltiradi. Inson va tabiat o‘rtasidagi konflikt Abdullaning poyezddagi holatida aks etadi. Go‘yo Abdulla xursand: yettinchi osmonda uchadi-yu, tabiat uni so‘ngsiz kulfatlardan ogohlantiryotganday jim-jit, qo‘rqinchli. Bu fikrlarning yaqqol aksini asarda ko‘ramiz: “Abdulla ikki o‘t orasiga tushib qolgan edi. Lekin shunday bo‘lganidan xafa emas edi. Sayyora oddiy qiz emas. U bilan o‘z hayotini bog‘lagan odam ko‘p narsaga yetishishi mumkin. Abdulla esa shunday bog‘lanishning bo‘sag‘asida turibdi. U o‘zining Sayyora bilan bo‘ladigan turmushini tasavvur qilar ekan, beixtiyor chehrasiga tabassum yugurardi. Uch yil aspirantura, uch yil doktorlikka tayyorgarlik, keyin bironta yirik ilmiy-tekshirish institutiga rahbarlik... Buning ustiga

Gulchehra... Gulchehra... yaxshi qiz, chiroyli, unga yoqadi. Agar Sayyora bilan bunchalik bo‘lib ketmaganda, albatta, hech ikkilanmasdi. Hammasi o‘sha kelishganlaridek bo‘lardi”[2,185]. Abdulla bu yerda ikki xil yo‘l orasida qolgan — bir tomonda Sayyora bilan bog‘liq katta imkoniyatlar, kelajak, martaba va muvaffaqiyat; ikkinchi tomonda esa Gulchehraga bo‘lgan samimiy tuyg‘ulari turibdi. U Sayyorani tanlasa, hayotda ko‘p narsaga erishishi mumkinligini o‘ylaydi, ya’ni bu yerda manfaat va hisob ustun. Gulchehra esa oddiy, lekin qalbiga yaqin inson.

Abdulla shuhrat va unvon yo‘lida Gulchehraga homilani oldirishni maslahat beradi. Gulchehra Toshkentga kelib, homilani oldirishga urinadi, lekin Abdullaning yaqin orada uylanayotgani haqidagi xabarni eshitadi. Bu xabar uning butun orzularini barbod qiladi. O‘zini yo‘qotib qo‘ygan Gulchehra hali qurib bitkazilmagan mehmonxonaga boradi va yuqori qavatdan yiqilib halok bo‘ladi.

Asardagi kulminatsiya Gulchehraning o‘limi... Va buning ortida Abdullaning vijdon azobi... U bu o‘limda o‘zini va o‘tkinchi orzu-havaslarini ayblaydi:

“Salom, Abdulla!

Yana yozyapman. Lekin bu gal xatim sizni quvontirmaydi, chunki juda katta qo‘rquv va qayg‘u bilan yozyapman. Boshimga katta tashvish tushdi. Bu tashvishni hech kimga aytolmayman. Sizga aytishga ham uyalaman. Shuning uchun ham bir oydan beri sizga xat yozganim yo‘q edi. Endi yozmasdan ilojim yo‘q. Sizdan boshqa mening endi kimim bor? Abdulla, so‘nggi uchrashuvimizdan keyin bir oy o‘tgach, menda o‘zgarish yuz berdi. Tushunyapsizmi? Boshqacha yozolmayman. Avval, hechqisi yo‘q, bir kun avval, bir kun keyin, deb o‘zimni tinchitdim. Ikkinchi oyda ham shunday bo‘ldi. Mana hozir uchinchi oy ketyapti. Taxminim to‘g‘ri chiqqanga o‘xshaydi. Nima qilishimni bilmayman. Agar uchinchi oy ham shunday bo‘lsa, bunga esa bir hafta qoldi, unda hech qanday shubha qolmaydi. Tushundingizmi, Abdulla? Biz katta gunoh qilib qo‘yganga o‘xshaymiz. Qishloqda endi boshimni qanday ko‘tarib yuraman? Siz yonimda bo‘lganingizda ham, boshqa gap edi, bunchalik qiynalmas edim. Biror yo‘lini qidirib topardik. Vrachga murojaat qilgim kelmayapti. Uyalaman. Keyin, bu yerda. Qo‘qonda dadamni bilishadi. Boshim qotdi. Hech narsa dilimga sig‘may qoldi. Nima qilamiz endi?

Javobingizni kutib, Gulchehra”.

Bu xat Abdullani esankiratib qo‘ydi. Nahotki, Gulchehra homilador bo‘lsa? Yo‘q, bunday bo‘lishi mumkin emas. U yig‘lamoqdan beri bo‘lib, xatni yana o‘qib chiqdi. Yo tavba! Endi shu yetishmay turgan edi o‘zi. Nima bo‘ladi endi? Nima qiladi? Abdulla xonaning u boshidan-bu boshiga yurar ekan, ko‘z oldidan bu dahshatning manzaralari birma-bir o‘ta boshladi. Mana onasi... U bu xabarni eshitib, ko‘zlari g‘azabga to‘ldi”[3,197]. Bu xatda Gulchehra juda og‘ir ahvolda qolganini ko‘ramiz. U qo‘rquv, uyat va umidsizlik ichida Abdulladan yordam so‘rayapti. Bu yerda uning yolg‘izligi va himoyasizligi juda yaqqol seziladi. Ayniqsa, “Sizdan boshqa mening endi kimim bor?” degan gapidan u butun umidini Abdullaga bog‘lagani bilinadi. Abdulla esa bu xatni o‘qib, esankirab qoladi. U vaziyatdan qo‘rqib ketadi va nima qilishni bilmaydi. Uning ko‘z oldiga onasi, jamiyat, sharmandalik kabi narsalar keladi. Bu esa Abdullaning mas’uliyatdan qochishga moyilligini ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, “Odam bo‘lish qiyin” romanida insoniylik va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat shuni ko‘rsatadiki, inson har doim jamiyat bosimi va o‘z vijdoni orasida tanlov qilishga majbur bo‘ladi, lekin haqiqiy insoniylik — bu qanchalik qiyin bo‘lmasin, aynan vijdon va mehr yo‘lini tanlab, o‘z insoniy qadrini saqlab qolishdir. Asarda odamiylik mulkiga dog‘ qo‘ndirmay asrab yurish nechog‘lik qiyin va mas’uliyatli ekanligini yoritib beradi!

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2021. –Б. 5.
2. Odam bo‘lish qiyin: roman va hikoyalar. / O‘lmas Umarbekov –Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023.-240b.
3. Odam bo‘lish qiyin: roman va hikoyalar. / O‘lmas Umarbekov –Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023.-240b.
4. https://zenodo.org/records/19152200/files/112-115.pdf?download=1
5.https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0062/62_i_20241204_172840_2.50.pdf
6.http://journal-web.uz/index.php/07/article/view/1467

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 340.114

## *ISLOHOTLAR AMALDA*

***Maxsuda KAMALOVA, Beruniy tumani Adliya bo‘limi Yuridik xizmat ko‘rsatish markazi boshlig‘i, 1-darajali yurist***



# 2030-YILGACHA MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI TIZIMIDA QANDAY O‘ZGARISHLAR BO‘LADI?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi 158-sonli Farmoni bilan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi tasdiqlangandi. 2025-yilning 26-dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini qayta ko‘rib chiqish zaruriyati borligini ta’kidlaganidan keyin, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining takomillashtirilgan loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgandi. Ammo, strategiyaning takomillashtirilgan loyihasida ta’lim tizimi yo‘nalishida juda katta o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmaydi.

Ya’ni, ta’lim yo‘nalishida 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari avvalgi tahrirdan deyarli farq qilmasligini ko‘rish mumkin. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining takomillashtirilgan loyihasida ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilishi reja qilingan quyidagi bir qancha vazifalar belgilangan:

-bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini 80 foizga yetkazish;

-100 foiz maktabgacha ta’lim tashkilotlarini toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta’minlash;

-bolalarni maktabga tayyorlov guruhlari bilan 100 foiz qamrab olish;

-olis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo‘lga qo‘yish;

-umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan 100 foiz ta’minlash;

-1000ta nomdagi yangi avlod darslik majmualarni (darslik, mashq daftari,

pedagoglar uchun metodik qo‘llanmalar) chop etish *(Avvalgi tahrirda 700ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo‘llanmalar va mobil ilovalar yaratish nazarda tutilgandi);*

-yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1000ta multimedia dasturlarini yaratish;

-ta’lim tashkilotlariga har yili 600 nafar “til egalari” bo‘lgan xorijiy mutaxassislarni jalb etish *(avvalgi tahrirda 500 nafar etib belgilangandi);*

-Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning baholash tizimi joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ulushini 100 foizga yetkazish;

-500 ming nafar maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining malakasini uzluksiz oshirish;

-ehtiyoj yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar va olis hududlardagi abituriyentlar uchun pedagogik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha davlat granti asosida tayyorlangan kadrlar ulushini 17 foizga yetkazish;

-maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining o‘rtacha ish haqini 2 baravar oshirish;

-nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari sonini 1 000 taga yetkazish;

-nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun 1 trillion so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratish;

-nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar ulushini 3 baravarga oshirish;

-umumiy o‘rta ta’lim maktablari va akademik lisey bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish;

-umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan ta’minlash ulushini 100 foizga chiqarish.

*“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining avvalgi tahririda:*

-barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasb-hunarlarga o‘rgatish kurslarini joriy etish;

-1 000 nafar tarbiyachi va o‘qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish;

-2024-yildan boshlab har yili davlat-xususiy sheriklik asosida kamida 100 tadan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari qurilishi bo‘yicha shartnomalar tuzish;

-davlat-xususiy sheriklik asosida va xalqaro moliya institutlaridan jalb qilinadigan mablag‘lar hisobidan 2 milliard dollarlik umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish loyihalarini amalga oshirish nazarda tutilgandi.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 340.113

*HUQUQIY BILIMLARIMIZNI OSHIRAMIZ*

***Жалғас АМАНИЯЗОВ, Нукус туманлараро иқтисодий суди судьяси***



# ТЎЛОВГА ҚОБИЛИЯТСИЗЛИКНИНГ НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

**Кириш.** Тўловга қобилиятсизлик — бу юридик ва жисмоний шахсларнинг мажбуриятларини бажаришдаги қийналишини англатади. Ушбу ҳолат иқтисодий муносабатларда муҳим аҳамиятга эга, чунки у кредиторлар, дебиторлар ва бошқа манфаатдор тарафлар учун ҳуқуқий ва иқтисодий оқибатларга олиб келиши мумкин. Тўловга қобилиятсизликнинг назарий-ҳуқуқий асослари, унинг турлари, ҳуқуқий тартиблари ва таъсири ҳақидаги тушунчаларни билиш иқтисодий муносабат иштирокчилари учун муҳимдир.

**Тўловга қобилиятсизлик: тушунча ва сабаблари.** Тўловга қобилиятсизлик — суд томонидан эътироф этилган, қарздорнинг пул мажбуриятлари бўйича кредиторлар талабларини тўла ҳажмда қаноатлантиришга ва (ёки) солиқлар ҳамда йиғимлар бўйича ўз мажбуриятларини тўла ҳажмда бажаришга қодир эмаслиги. Бунинг асосий сабаблари:

1. **Иқтисодий омиллар**: молиявий муаммолар, бозордаги рақобат, иқтисодий инқироз.

2. **Ташкилий омиллар**: менежментдаги хатолар, ресурсларнинг самарасиз бошқарилиши.

3. **Қонунчилик омиллари**: норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ўзгариши, фискал сиёсати.

**Тўловга қобилиятсизлик аломатлари қуйидагилардан иборат:**

-вақтинча тўловга қобилиятсизлик — агар тегишли мажбуриятлар юзага келган санадан эътиборан уч ой ичида қарздор томонидан бажарилмаган бўлса, шаҳарни ташкил этувчи корхона ҳамда унга тенглаштирилган корхоналар томонидан эса олти ой ичида

бажарилмаса, судга мурожаат этиш санасида қарздорнинг пул мажбуриятлари бўйича кредиторлар талабларини қаноатлантиришга ва (ёки) солиқлар ҳамда йиғимлар бўйича ўз мажбуриятларини бажаришга қодир эмаслиги;

-доимий тўловга қобилиятсизлик — агар судга ариза бериш санасидаги ва ариза берилган йилнинг бошидаги ҳисобот даврида, агарда ариза йилнинг биринчи чорагида берилган бўлса, ўтган йилнинг бошидаги ҳисобот даврида қарздорнинг мажбуриятлари унинг активлари қийматидан ошиб кетган бўлса.

**Тўловга қобилиятсизликнинг ҳуқуқий асослари.** Тўловга қобилиятсизликнинг ҳуқуқий асослари ҳар бир мамлакатдаги қонунчиликка боғлиқ. Ўзбекистон Республикасининг "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги Қонуни, Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси, Иқтисодий процессуал кодекси ва бошқа ҳуқуқий ҳужжатлар тўловга қобилиятсизликка оид нормаларни белгилайди.

1. **Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги Қонун**: Юридик ва жисмоний шахсларнинг, шунингдек якка тартибдаги тадбиркорларнинг тўловга қобилиятсизлиги соҳасидаги муносабатларни тартибга солади.

2. **Фуқаролик кодекси**: Тўловга қобилиятсизлик ҳолатлари, дебиторларнинг ҳуқуқлари ва мажбуриятлари, кредиторларнинг манфаатлари билан боғлиқ нормаларни ўз ичига олади.

3. **Иқтисодий процессуал кодекси**: Тўловга қобилиятсизлик ҳолатларини судда кўриб чиқиш, кредиторларнинг даъволарини ва дебиторларнинг ҳимоясини таъминлайди.

**Хулоса.** Тўловга қобилиятсизлик иқтисодий муносабатларнинг муҳим таркибий қисми бўлиб, у ҳуқуқий ва иқтисодий оқибатларга олиб келади. Ўзбекистон Республикасининг ҳуқуқий нормалари тўловга қобилиятсизликни тартибга солишда муҳим роль ўйнайди. Тўловга қобилиятсизлик ҳолатлари, уларнинг сабаблари ва ҳуқуқий оқибатлари тўғрисидаги тушунчалар иқтисодий фаолиятнинг самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикасининг "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида" ги қонуни.
2. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси.
3. Ўзбекистон Республикасининг Иқтисодий процессуал кодекси.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 343.575

# ALOHIDA TOIFADAGI KUCHLI TA'SIR QILUVCHI MODDALAR NOQONUNIY AYLANMASI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

***Hodjiyev Alisherjon Hakim o'g'li, O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi "Prokurorlik faoliyati" yo'nalishi tinglovchisi***



***https://orcid.org/0009-0004-1431-5414***
***e-mail: alisher@gmail.com***

# ISSUES OF IMPROVING LEGISLATION IN THE FIELD OF ILLEGAL TRAFFICKING OF POTENT SUBSTANCES CLASSIFIED AS SPECIAL CATEGORY

***Hodjiyev Alisherjon Hakim ogli, Listener of the "Prosecutorial Activity" specialization, Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan***

# ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ НЕЗАКОННОГО ОБОРОТА СИЛЬНОДЕЙСТВУЮЩИХ ВЕЩЕСТВ, ОТНЕСЕННЫХ К ОСОБОЙ КАТЕГОРИИ

***Ходжиев Алишержон Хаким оглы, слушатель направления "Прокурорская деятельность", Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash sohasidagi amaldagi qonunchilik tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur sohadagi muammolar, huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ko'rib chiqiladi. Qonunchilikni takomillashtirish orqali jinoyatchilikning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *kuchli ta'sir qiluvchi moddalar, noqonuniy aylanma, qonunchilik, jinoyatchilik, huquqni muhofaza qilish, jamoat xavfsizligi, profilaktika, huquqiy tartibga solish.*

***Abstract:*** *This article analyzes the current legislation in the field of combating the illegal circulation of potent substances. It examines existing challenges, shortcomings in law enforcement practice, and proposes measures for improving the legal framework. Special attention is given to crime prevention and ensuring public safety.*

***Key words:*** *potent substances, illegal circulation, legislation, crime prevention, law enforcement, public safety, legal regulation, control measures.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется действующее законодательство в сфере противодействия незаконному обороту сильнодействующих веществ. Рассматриваются существующие проблемы, недостатки правоприменительной практики, а также предлагаются пути совершенствования законодательства. Особое внимание уделяется вопросам предупреждения преступности и обеспечения общественной безопасности.*

***Ключевые слова:*** *сильнодействующие вещества, незаконный оборот, законодательство, преступность, правоохранительные органы, общественная безопасность, профилактика, правовое регулирование.*

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasida ushbu sohada qonun ustuvorligini ta’minlash, Alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish va uning oldini olish maqsadida bir qator qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Shu bilan birga, mazkur sohada qonunlar ijrosi ustidan samarali prokuror nazoratini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Prokuratura organlari qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi asosiy davlat organlaridan biri bo‘lib, ularning faoliyati orqali Alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni aniqlash, bartaraf etish va ularning oldini olishga xizmat qiladi. Biroq amaliyotda ushbu sohada prokuror nazoratini amalga oshirishda ayrim muammolar va tashkiliy-huquqiy kamchiliklar mavjud. Shu munosabat bilan Alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar noqonuniy aylanmasi sohasida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini ilmiy jihatdan tadqiq etish va uni takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy aylanmasi sohasida qonunchilikni takomillashtirish ushbu sohada samarali huquqni muhofaza qilishni ta’minlashda asosiy ahamiyatga ega. Avvalo, qonunchilikdagi normalarni aniqlashtirish va ularni zamonaviy jamiyat va ilmiy-tadqiqot natijalariga moslashtirish muhim yo‘nalish hisoblanadi. Amaliyotda qayd etilayotgan muammolar ko‘rsatadiki, ayrim huquqiy tushunchalar va moddalarning ta’riflari noaniq, bu esa huquqni qo‘llashda turli xil talqinlarga sabab bo‘lmoqda[1]. Shu bois qonunchilikda Alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning turlari, ularning noqonuniy muomalasi va mas’uliyat shakllari aniq belgilab qo‘yilishi zarur.

Ikkinchi yo‘nalish – qonunbuzilishning oldini olishga qaratilgan normalarni mustahkamlash. Bu nafaqat jazo choralarini qo‘llash, balki profilaktik tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirishni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, dorixonalar, tibbiyot muassasalari va farmatsevtika sohasi xodimlari uchun alohida huquqiy talablar va nazorat tartiblari belgilanishi mumkin. Bundan tashqari, jamoatchilik va oiladagi profilaktik faoliyatni qonun asosida tartibga solish ham muhim yo‘nalishdan biri sanaladi[2].

Uchinchi yo‘nalish – qonunchilikda zamonaviy texnologik va transmilliy xususiyatlarni hisobga olish. Internet va kriptovalyuta orqali Alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar savdosi rivojlanayotgani bois qonunlarda elektron savdo va virtual hisob-kitoblar orqali sodir etilayotgan qonunbuzarliklarga qarshi choralar aniq belgilanishi kerak. Shuningdek, xalqaro huquqiy standartlar va xorijiy davlatlar tajribasini hisobga olgan holda qonunchilikni takomillashtirish, transmilliy jinoyatchilikka qarshi samarali mexanizmlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi[3].

To‘rtinchi yo‘nalish – jinoyat tarkibini aniq belgilash va jazo choralarini aniqlashtirish. Qonunchilikda Alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning turli miqdorda saqlanishi, tarqatilishi yoki sotilishi bilan bog‘liq jinoyatlar uchun huquqiy me’yorlar aniq va bir xil bo‘lishi kerak. Bu esa huquqni qo‘llashda yagona amaliyotni ta’minlaydi va sud qarorlaridagi nomutanosibliklarni kamaytiradi.

Shuningdek, qonunchilikni takomillashtirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati ustidan prokuror nazoratini yanada aniq va samarali tartibga solish ham muhim yo‘nalish hisoblanadi. Prokuratura organlari tomonidan qonunbuzilishlarning oldi olish, nazorat qilish va huquqiy choralar ko‘rish tartiblari qonunlarda aniq belgilanishi jamiyat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar noqonuniy aylanmasi sohasida qonunchilikni takomillashtirish qonun normalarini aniqlashtirish, profilaktik tadbirlarni mustahkamlash, zamonaviy texnologik va transmilliy xususiyatlarni hisobga olish, jinoyat tarkibini aniq belgilash va prokuror nazorati mexanizmlarini kuchaytirish yo‘nalishlari asosida amalga oshirilishi lozim. Bu esa huquqni muhofaza qilishning samaradorligini oshirish va jamiyatda qonuniylikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Qonunchilikni takomillashtirishda yana bir muhim yo‘nalish – qonuniy nazorat mexanizmlarini rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish hisoblanadi. Alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar noqonuniy aylanmasi sohasida qonunlarning amaliy ijrosi ko‘p jihatdan huquqni muhofaza

qiluvchi organlar va prokuratura nazorati samaradorligiga bog‘liq. Shu bois qonunchilikda nazoratning turli shakllari, tekshiruvlar, profilaktik tadbirlar va davlat organlari o‘rtasida axborot almashish mexanizmlari aniq belgilab qo‘yilishi kerak [4].

Bundan tashqari, qonunchilikda Alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning turlari va ularning miqdoriy tartiblari bo‘yicha normalar doimiy ravishda yangilanib turishi lozim. Zamonaviy ilmiy-tadqiqot va kriminalistika natijalari ko‘rsatadiki, sintetik moddalar va yangi tipdagi giyohvandlik vositalari tez sur’at bilan paydo bo‘lmoqda, shu sababli qonunlarda ularning huquqiy maqomi va qo‘llanish tartibi aniq belgilanishi talab etiladi [5]. Bu esa qonunni qo‘llashda yagona amaliyotni ta’minlaydi va jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qonunchilikda profilaktik yo‘nalishlar uchun maxsus moddalarni kiritish ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, aholi o‘rtasidagi huquqiy tarbiyani kuchaytirish, tibbiyot va farmatsevtika sohasi xodimlari uchun alohida bilim berish tizimini joriy etish, maktab va oiladagi profilaktik faoliyatni qonun asosida tartibga solish kabi choralar qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilishi zarur. Bu choralar nafaqat qonunbuzilishlarning oldini olishga, balki jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga ham xizmat qiladi.

Qonunchilikni takomillashtirishda xalqaro hamkorlikni qonunlar orqali tartibga solish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki Alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy aylanmasi ko‘p hollarda davlat chegaralaridan tashqarida amalga oshiriladi. Shu sababli qonunlarda transmilliy jinoyatchilikka qarshi choralar, xorijiy davlatlar bilan axborot almashish, qo‘shma tergov tadbirlarini o‘tkazish va xalqaro standartlarga muvofiq huquqiy yordam ko‘rsatish tartiblari aniq belgilanishi kerak. Shuningdek, qonunchilikda prokuror nazorati va uning amaliy mexanizmlari ham yanada aniq va kuchaytirilishi lozim. Prokuratura organlari qonunbuzilishlarning oldini olish, nazorat qilish va huquqiy choralar ko‘rishda faol bo‘lishi, tekshiruvlar va profilaktik tadbirlar natijalarini muvofiqlashtirishi zarur. Bu esa qonunlarning samarali ijrosini ta’minlaydi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda yuqori natija beradi.

Qonunchilikni takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari ham inobatga olinishi kerak. Elektron ma’lumotlar bazalari, avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlari va monitoring platformalari orqali Alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy aylanmasi holatini tezkor tahlil qilish va tegishli choralarni ko‘rish mumkin. Bu esa huquqni muhofaza qilish tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

**Xulosa.** Shu tariqa, qonunchilikni takomillashtirish yo‘nalishlari qonun normalarini aniqlashtirish, profilaktik tadbirlarni qonun asosida tartibga solish, zamonaviy sintetik va transmilliy tahdidlarni hisobga olish, prokuror nazorati mexanizmlarini kuchaytirish hamda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ushbu choralar Alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishda qonun ustuvorligini ta’minlash va jamiyat xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2020.
2. Dolgova A.I. Kriminologiya. – Moskva: Norma, 2018.
3. UNODC. International Standards on Drug Control. – Vienna, 2019. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
4. Siegel L. Criminology: Theories, Patterns and Typologies. – Boston: Cengage Learning, 2016.
5. UNODC. International Standards on Drug Control. – Vienna, 2019.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 37.013:159.9

# BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKSIOLOGIK YONDASHUV VA SANOGEN FIKRLASH INTEGRATSIYASI

***Oltiboyev Asqad Eshdavlatovich, Termiz davlat pedagogika instituti “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi***

# INTEGRATION OF AXIOLOGICAL APPROACH AND SANOGENIC THINKING IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRANSFORMATION OF FUTURE SPECIALISTS

***Oltiboyev Asqad Eshdavlatovich, Lecturer of the “Pedagogy” Department, Termez State Pedagogical Institute***

# ИНТЕГРАЦИЯ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА И САНОГЕННОГО МЫШЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

***Олтибоев Аскад Эшдавлатович, преподаватель кафедры “Педагогика”, Термезский государственный педагогический институт***



***https://orcid.org/0009-0005-6326-1851***
***e-mail: asqadoltiboyev@gmail.com***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda ularning kasbiy transformatsiyasi jarayonida aksiologik yondashuv va sanogen tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi tadqiq etiladi. Maqolada talabalarning ichki qadriyatlari ularning ruhiy barqarorligi va kasbiy muvaffaqiyatiga qanday ta’sir qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, patogen fikrlashdan sanogen fikrlashga o‘tish mexanizmlari aksiologik tamoyillar asosida yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *aksiologiya, sanogen tafakkur, kasbiy transformatsiya, kognitiv refleksiya, qadriyatlar iyerarxiyasi, patogen tafakkur, psixologik immunitet.*

***Abstract:*** *This article studies the relationship between the axiological approach and sanogenic thinking in the process of professional transformation of future specialists in the training of future specialists. The article scientifically substantiates how students’ internal values affect their mental stability and professional success. Also, the mechanisms of transition from pathogenic thinking to sanogenic thinking are highlighted based on axiological principles.*

***Keywords:*** *Axiology, sanogenic thinking, professional transformation, cognitive reflection, hierarchy of values, pathogenic thinking, psychological immunity.*

***Аннотация:*** *В данной статье исследуется взаимосвязь аксиологического подхода и саногенетических взглядов в процессе профессиональной трансформации будущих специалистов в рамках подготовки кадров. В статье научно обосновывается влияние внутренних ценностей студентов на их психическую устойчивость и профессиональный успех. Также на основе аксиологических принципов выделены механизмы перехода от патогенного мышления к саногенетическим.*

***Ключевые слова:*** *аксиология, саногенетические взгляды, профессиональная трансформация, когнитивная рефлексия, иерархия ценностей, патогенное мышление, психологический иммунитет.*

**Kirish.** Zamonaviy ta’lim paradigmasida balki ma’naviy-axloqiy jihatdan barqaror shaxs bo‘lajak mutaxassis nafaqat yuqori malakali kadr, sifatida shakllanishi lozim. Kasbiy transformatsiya

jarayoni – bu talabaning o‘quv faoliyatidan professional faoliyatga o‘tishidagi murakkab bosqich bo‘lib, u ko‘pincha ichki va tashqi konfliktlar bilan kechadi. Aksiologik yondashuv (yun. axios – qadrli va logos – ta’limot) – pedagogika va psixologiyada shaxsning qadriyatlar tizimini, uning ma’naviy-axloqiy asoslarini o‘rganuvchi yo‘nalishdir. Ushbu yondashuv doirasida kasbiy tayyorgarlik jarayoni shaxsning qadriyatli munosabatlari, kasbiy ideallari va ma’naviy qadriyatlari asosida quriladi. Sanogen fikrlash (lotincha *sano* – sog‘liq, *genesis* – tug‘ilish) tushunchasi esa rus psixologi Yu.M. Orlov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, insonning psixologik salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan fikrlash uslubini ifodalaydi. Sanogen fikrlash salbiy emotsiyalarni boshqarish, stressli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish va o‘z-o‘zini tartibga solish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ta’lim tizimida aksiologik yondashuv va sanogen fikrlashni integratsiyalash bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda [1].

Mazkur jarayon kasbiy transformatsiya tushunchasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u shaxsning kasbiy faoliyatga nisbatan munosabati, qadriyatli yo‘nalishi va fikrlash uslubida sodir bo‘ladigan sifat jihatidan o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli ta’lim jarayonida aksiologik yondashuv va sanogen fikrlashni integratsiyalash dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida maydonga chiqmoqda.

Kasbiy transformatsiya – bu shaxsning kasbiy faoliyat jarayonida bilim, ko‘nikma, kompetensiya, qadriyatlar va shaxsiy sifatlarining sifat jihatidan o‘zgarishi jarayonidir. Ushbu jarayon quyidagi tarkibiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

-kasbiy identifikatsiya va o‘zini anglash;
-kasbiy qadriyatlar tizimining shakllanishi;
-refleksiv va tanqidiy fikrlashning rivojlanishi;
-psixologik barqarorlik va moslashuvchanlik.

Mazkur jihatlar kasbiy transformatsiyaning nafaqat tashqi (bilim va malaka), balki ichki (qadriyat, munosabat, tafakkur) komponentlarini ham qamrab olishini ko‘rsatadi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi global axborotlashuv va raqobat sharoitida talabalarda “kasbiy charchash” (burnout) belgilari erta namoyon bo‘lmoqda. Buning asosiy sababi — kasbiy qadriyatlarning yetishmasligi va patogen (salbiy, destruktiv) fikrlash ustuvorligidir. Sanogen tafakkurni aksiologik filtr orqali rivojlantirish talabaga o‘z muammolarini kognitiv tahlil qilish va ularni rivojlanish bosqichi sifatida qabul qilish imkonini beradi. Bular zamonaviy ta’lim va mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda shakllantirilgan:

1993-yildan boshlab paxta qabul qilish, saqlash va uni qayta ishlash O‘zbekiston Respublikasida davlat standarti bo‘yicha qabul qilina boshlandi. Respublikada 1993-yili yetishtirilgan 342493 tonnadan ziyod paxtadan 93185 tonnadan ortiq sifatli tola olindi, buning 55% i chet ellarga sotishga chiqarildi. Jumladan Amerika Qo‘shma Shtatlari, Angliya, Indoneziya, Polsha, Rossiya, Ukraina, Turkiya va yana boshqa davlatlar respublikamizdagi barcha paxta tozalash zavodlarining mahsulotlarini olish bilan birga, Xo‘jayli paxta tozalash zavodi tayyorlagan sifatli paxta tolalarini ham sotib oldi.

Bu haqda O‘zbekiston miqyosida chiqadigan gazetalarda “Xo‘jayli talasi” aksiyadorlik jamiyatining yutuqlarini yoritib bormoqda. Ularda yozilishicha korxonalarda tayyorlangan tolalar jahon bozorida o‘z xaridorini topmoqda. Birjalarda Qoraqalpog‘istonda ishlab chiqarilgan tolaga yuqori baho berilmoqda.

Buning yaqqol misoli sifatida “Xo‘jayli tolasi” kabi korxonalarda tayyorlanayotgan tola Buyuk Britaniya, Shvetsariya, AQSH, Shimoliy Koreya kabi xorijiy davlatlar iste’molchilariga manzur bo‘lmoqda. Paxta tolasining 1 ming 756 tonnasi Xitoy davlatiga jo‘natildi. Yil yakuni bo‘yicha 210 million so‘m sof foyda olindi. Daromadning asosiy qismi aksiyadorlarga dividend sifatida tarqatildi. Qolgani ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishga sarflanmoqda [3].

Shuningdek 2004-yilning 19-iyul kuni Butunjahon marketing tashkiloti tomonidan Gollandiyaning Amsterdam shahrida o‘tkazilgan kongressda “Qoraqalpoqpaxtasanoat” birlashmasiga paxta tolasining sifati uchun xalqaro “Oltin yulduz” mukofoti berildi. Xo‘jaylidagi ochiq aksiyadorlik jamiyatiga ham xalqaro mukofot berilgan [5].

Bozor munosabatlari talablari va Prezidentimizning mamlakatimizni rivojlantirishdagi ustuvor yo‘nalishlari sifatida aytib o‘tayotganidek, qo‘shma korxonalar barpo etish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, eksportga mahsulot chiqarish o‘ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Xo‘jayli tumani mustaqillik yillarida ham savdo va tadbirkorlikni rivojlantirishda ko‘plab yutuqlarga erishgan. Bir qancha savdo tarmoqlari hozirgi davr talabiga mos yangidan tashkil etilib, aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu va xalq xo‘jaligining boshqa sohalarida tadbirkorlar soni ko‘payib, ular ham o‘z ishlarini takomillashtirib borib, xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rivojlantirish yo‘lida faol mehnat qilmoqda.

Shuning uchun kelgusida ushbu soha tarixini kundalik matbuot materiallari, arxiv ma’lumotlari va soha xodimlarining xotiralari asosida o‘rganib borsak, ularning natijalarini matbuotda e’lon qilib borsak, tug‘ilib o‘sgan zaminimiz tarixini chuqur bilib borishga va shu orqali o‘sib kelayotgan avlodni har tomonlama tarbiyalashga, tariximizni to‘ldirib borishga hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

**Adabiyotlar**


1. Беласаров Д. Хожели. – Н., 2011. – 142-бет.
2. Ешимбетов Е. «Хужайли толаси» акциядорлик жамияти меҳнат аҳлининг кўкламолди юмушлари // Ўзбекистон овози. – 2004. – 2 март.
3. Қарақалпоқ толасининг шуҳрати // Ишонч. – 2004. – 27 февраль.
4. Қарақалпоқстанның жаңа тарийхы. – Н., 2003. – 442-бет.
5. Мирҳабибов Ш., Мирфайзиев М. Оролбўйи хирмони // Ўзбекистон овози. – 2004. – 23 ноябрь; Пахта – сифатли маҳсулотга айланди // Аму тонги. – 2004. – 23 октябрь.
6. Рахимов К., Қурбонбоев И. Толалар тарихи. – Н., 1998. – 64-бет.
7. Сахиев Д., Юсупов О. «Қарақалпақтутыныў» акционерлик компаниясының тарийхый жылнамасы. – Н., 1999. – 72-бет.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 37.013:159.9

# O‘ZBEKISTONNING ASOSIY INTERNET RESURSLARI VA ULARNING IMKONIYATLARI

[1]*Suyarov Akram Musayevich,*
*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, PhD*
*2Musayeva Gulsevar Azamat qizi,*
*Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi*



*e-mail: akramsuyarov@mail.ru*

# MAIN INTERNET RESOURCES OF UZBEKISTAN AND THEIR CAPABILITIES

[1]*Suyarov Akram Musayevich,*
*PhD, Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service, Department of Information Technologies*
[2]*Musayeva Gulsevar Azamat qizi,*
*Student of the Samarkand State Pedagogical Institute*



*e-mail: musayevagulsevar@234gmail.com*

# ОСНОВНЫЕ ИНТЕРНЕТ-РЕСУРСЫ УЗБЕКИСТАНА И ИХ ВОЗМОЖНОСТИ

[1]*Суяров Акрам Мусаевич,*
*кандидат наук, доцент Самаркандского института экономики и сервиса, факультет информационных технологий*
[2]*Мусаева Гулсевар Азаматовна,*
*студент Самаркандского государственного педагогического института*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida internet tizimining shakllanishi, asosiy milliy internet resurslari va ularning foydalanuvchilarga taqdim etayotgan imkoniyatlari keng yoritilgan. So‘nggi yillarda mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashgani, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining barcha sohalarga kirib borayotgani natijasida internet resurslari jamiyat hayotining muhim qismiga aylangani ta’kidlanadi. Maqolada davlat boshqaruvi, ta’lim, axborot, biznes va ijtimoiy tarmoqlar yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan. asosiy veb-resurslar saytlarining vazifalari, imkoniyatlari va foydalanuvchilarga yaratayotgan qulayliklari tahlil qilinadi. Maqolada internet resurslaridan samarali foydalanish, ularni xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *O‘zbekiston, internet resurslari, raqamli transformatsiya, axborot texnologiyalari, onlayn xizmatlar, davlat portallari, ta’lim tizimi, raqamli iqtisodiyot.*

***Abstract:*** *This article provides a comprehensive overview of the formation of the Internet system in the Republic of Uzbekistan, the main national Internet resources and the opportunities they provide to users. It is noted that in recent years, as a result of the acceleration of digital transformation processes in the country and the penetration of information and communication technologies into all spheres, Internet resources have become an important part of social life. The article analyzes the functions, capabilities and conveniences of the main web resource sites operating in the areas of public administration, education, information, business and social networks. The article provides recommendations for the effective use of Internet resources and their improvement in accordance with international standards.*

***Key words:*** *Uzbekistan, internet resources, digital transformation, information technologies, online services, government portals, education system, digital economy.*

***Аннотация:*** *В данной статье представлен всесторонний обзор формирования интернет-системы в Республике Узбекистан, основных национальных интернет-ресурсов и возможностей,*

*которые они предоставляют пользователям. Отмечается, что в последние годы, в результате ускорения процессов цифровой трансформации в стране и проникновения информационно-коммуникационных технологий во все сферы, интернет-ресурсы стали важной частью общественной жизни. В статье анализируются функции, возможности и удобства основных веб-ресурсов, функционирующих в сферах государственного управления, образования, информации, бизнеса и социальных сетей. В статье приводятся рекомендации по эффективному использованию интернет-ресурсов и их совершенствованию в соответствии с международными стандартами.*

***Ключевые слова:*** *Узбекистан, интернет-ресурсы, цифровая трансформация, информационные технологии, онлайн-сервисы, правительственные порталы, система образования, цифровая экономика.*

**Kirish**. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, internet tarmog‘idan samarali foydalanish va axborot almashinuvi tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida internet bugungi kunda nafaqat axborot olish vositasi, balki ta’lim, boshqaruv, savdo-sotiq, aloqa va ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylangan.

O‘zbekistonda yaratilgan milliy internet resurslari aholiga qulay sharoit yaratish, davlat xizmatlarini onlayn shaklda taqdim etish, ta’lim jarayonini raqamlashtirish hamda fuqarolarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim o‘rin tutadi. Xususan, “my.gov.uz” portali orqali davlat xizmatlarini masofadan turib olish imkoniyati, “ziyonet.uz” orqali ta’lim sohasida elektron manbalarga kirish imkoniyati, shuningdek, “kun.uz”, “daryo.uz”, “olx.uz” kabi ommabop saytlar orqali yangiliklar, e’lonlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengaymoqda. Mamlakatda internet infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilinayotgan dasturlar, xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, aholining raqamli savodxonligini oshirish, internet tezligini yaxshilash va milliy kontentni ko‘paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida internet resurslarining soni va sifati tobora oshib bormoqda.

Mazkur maqolada O‘zbekistondagi asosiy internet resurslari, ularning turlari, funksional imkoniyatlari va jamiyat hayotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar hamda internet resurslaridan samarali foydalanishni yanada kengaytirish yo‘llari haqida ham fikr yuritiladi.

**Metodlar.** Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasidagi asosiy internet resurslarining turlari, ularning imkoniyatlari va foydalanuvchilarga ko‘rsatayotgan ta’sirini o‘rganish maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat tizimi va internet resurslari boshqaruvi sohasida ilgari surilgan zamonaviy konsepsiyalar tashkil etadi.

Birinchidan, tahliliy-metodik yondashuvdan foydalanildi. Bu usul yordamida O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan asosiy internet portallari, ularning funksional imkoniyatlari va xizmat turlari bo‘yicha ma’lumotlar yig‘ilib, ularning o‘zaro farqli jihatlari tahlil qilindi. Masalan, davlat xizmatlariga ixtisoslashgan “my.gov.uz” portali bilan ta’lim sohasiga oid “ziyonet.uz” tizimi yoki ommaviy axborot manbalari sifatida faoliyat yuritayotgan “kun.uz”, “daryo.uz” saytlarining foydalanuvchilar uchun yaratayotgan qulayliklari solishtirib o‘rganildi.

Ikkinchidan, solishtirma-tahliliy metod qo‘llanilib, O‘zbekistondagi internet resurslarining rivojlanish darajasi boshqa mamlakatlar, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali milliy resurslarning afzalliklari, kamchiliklari hamda xalqaro tajribaga moslashtirish imkoniyatlari aniqlanadi.

Uchinchidan, statistik tahlil usuli yordamida internet foydalanuvchilari soni, resurslardan foydalanish chastotasi, onlayn xizmatlar soni va ularning foydalanuvchilarga ta’siri bo‘yicha mavjud raqamli ko‘rsatkichlar o‘rganildi. Davlat statistika qo‘mitasi, AKT vazirligi hamda *Uztelecom, UZINFOCOM* kabi tashkilotlar ma’lumotlaridan foydalanilgan holda milliy internet infratuzilmasining holati tahlil qilindi.

To‘rtinchidan, kontent-tahlil metodikasi orqali internet resurslarida joylashtirilgan axborotlar mazmuni, ularning ijtimoiy yo‘nalishi, ta’limiy, iqtisodiy yoki madaniy ahamiyati baholandi. Ayniqsa, ommabop portallar va ta’lim

platformalaridagi kontentning sifati, yangilanish darajasi va foydalanuvchi interaktivligi alohida o‘rganildi.

Beshinchidan, so‘rovnoma va kuzatuv metodlari yordamida foydalanuvchilarning internet resurslaridan foydalanish odatlari, ularning qulaylik va kamchiliklarga bergan baholari o‘rganildi. So‘rovlar natijasida fuqarolarning internet portallaridan foydalanishdagi ehtiyojlari va muammolari aniqlanib, tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, rivojlanish strategiyalarini tahlil qilish va amaliy tajriba asosida umumlashtirish kabi metodik yondashuvlar ham qo‘llanilgan. Natijada, O‘zbekistonning internet ekotizimi, milliy resurslarning o‘ziga xos xususiyatlari, foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashuv darajasi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Umuman olganda, ushbu metodlar majmuasi orqali internet resurslarining mamlakatdagi raqamli transformatsiya jarayonlariga qo‘shayotgan hissasi, jamiyat hayotidagi roli hamda ularni yanada rivojlantirish istiqbollari chuqur tahlil qilindi.

**Xulosa.** Yurtimizda internet resurslarining shakllanishi va ularning jamiyat hayotiga kirib borishi O‘zbekistonning raqamli rivojlanish bosqichida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda internet nafaqat axborot almashish vositasi, balki iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ta’limiy jarayonlarning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan.

O‘zbekiston hukumati tomonidan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar internet infratuzilmasini rivojlantirish, milliy kontentni kengaytirish va raqamli xizmatlarni takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, mamlakatda faoliyat yuritayotgan asosiy internet resurslari — “my.gov.uz”, “ziyonet.uz”, “kun.uz”, “daryo.uz”, “olx.uz”, “e-auksion.uz” kabi saytlar aholiga turli yo‘nalishlarda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ular orqali davlat xizmatlarini masofadan turib olish, elektron ta’limdan foydalanish, yangiliklardan xabardor bo‘lish, onlayn savdo-sotiqni amalga oshirish va ko‘plab amaliy vazifalarni bajarish imkoniyati yaratilgan. Bu esa raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va fuqarolarning axborot madaniyatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammoli jihatlar ham qayd etildi. Jumladan, ayrim hududlarda internet tezligining pastligi, milliy kontent hajmining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ba’zi resurslarda foydalanuvchi interfeysining noqulayligi va axborot xavfsizligi masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun internet infratuzilmasini yanada kengaytirish, foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirish hamda milliy dasturchilarni qo‘llab-quvvatlash zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**


**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF–6079-son Farmoni. — *O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami*, 2020-yil.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. — Toshkent, 2021-yil.

**3.** Karimov B., Mamatov A. Sun’iy intellekt va ekspert tizimlar asoslari. – Toshkent: TATU nashriyoti, 2022.

**4.** Karimov A., Tojiboyev B. Axborot texnologiyalari va internet tizimlari. — Toshkent: TATU nashriyoti, 2022.

**5.** Suyarov A.M. Ijtimoiy tarmoq xavfsizligi va ularda ishlash texnologiyasi. Tamaddun nuri jurnali. ISSN 2181-8258. IF-9.347. DOI 10.69691. 2025-yil, 12-son, 1-qism (75). –B.244-248.

**6.** Suyarov A.M. Ways and models of providing integration of information technology science with mathematical sciences. «E3S Web of Conferences». Indexed by SCOPUS and submitted for indexing to Web of Science (CPCI) «E3S Web of Conferences» 402, 03016 (2023).

**7.** Suyarov A.M. Formation of information and communication competence of the teacher as an one of the main tasks of modern education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Volume 4, Issue 4, April-2023. –C.243-257.

**8.** Suyarov, A., Raximov, S., Abduraxmanov M. (2025). Methodology of using information technology software tools in teaching mathematics. The Eurasia Proceedings of Educational and Social Sciences (EPESS), 45, 106-115.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 378.147:004.65:37.02

# MODIFIKATSIYALANGAN AXBOROT BAZALARI ASOSIDA TALABALARNING INDIVIDUAL O‘ZLASHTIRISH TRAYEKTORIYASINI ADAPTIV BOSHQARISH

***Mirzaalimov Avazbek Alisherovich, Andijon davlat pedagogika instituti “Fizika va texnologik ta’lim” kafedrasi dotsenti***



***https://orcid.org/0000-0003-2846-1901***
***e-mail: avazbek.mirzaalimov@mail.ru***

# ADAPTIVE MANAGEMENT OF STUDENTS’ INDIVIDUAL LEARNING TRAJECTORY BASED ON MODIFIED INFORMATION BASES

***Mirzaalimov Avazbek Alisherovich, Andijan State Pedagogical Institute Associate Professor of the Department of Physics and Technological Education***

# АДАПТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ ТРАЕКТОРИЕЙ ОСВОЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МОДИФИЦИРОВАННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ БАЗ

***Мирзаалимов Авазбек Алишерович, Андижанский государственный педагогический институт, доцент кафедры физики и технологического образования***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada modifikatsiyalangan axborot bazalari asosida talabalarning individual o‘zlashtirish trayektoriyasini adaptiv boshqarish texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Modifikatsiyalangan axborot bazalarining o‘quv ma’lumotlarini dinamik yig‘ish, qayta ishlash va yangilashdagi o‘rni asoslab beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *modifikatsiyalangan axborot bazalari, individual o‘quv trayektoriyasi, adaptiv boshqaruv, sun’iy intellekt, learning analytics.*

***Abstract:*** *This article highlights the theoretical and practical aspects of adaptive management technologies for students’ individual learning trajectories based on modified information databases. The role of modified databases in the dynamic collection, processing, and updating of educational data is substantiated.*

***Keywords:*** *modified databases, individual learning trajectory, adaptive management, artificial intelligence, learning analytics.*

***Аннотация:*** *В данной статье освещены теоретические и практические аспекты технологий адаптивного управления индивидуальной траекторией обучения студентов на основе модифицированных информационных баз. Обосновывается роль модифицированных информационных баз в динамическом сборе, обработке и обновлении учебных данных.*

***Ключевые слова:*** *модифицированные информационные базы, индивидуальная учебная траектория, адаптивное управление, искусственный интеллект, учебная аналитика.*

**KIRISH.** Modifikatsiyalangan axborot bazalari asosida talabalarning individual o‘zlashtirish trayektoriyasini adaptiv boshqarish texnologiyalarida ma’lumotlarni yig‘ish va saqlash tizimi muhim boshlang‘ich bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichda talabaning o‘quv faoliyatiga oid barcha zarur ko‘rsatkichlar kompleks tarzda jamlanadi va tizimlashtiriladi. Xususan, talabaning bilim darajasi, test va nazorat ishlari natijalari, topshiriqlarni bajarish tezligi, yo‘l qo‘yilgan

xatolar va ularning takrorlanish darajasi, shuningdek, uning qiziqishlari hamda o‘rganish uslubi haqidagi ma’lumotlar yig‘iladi. Mazkur ma’lumotlar an’anaviy statik bazalardan farqli ravishda modifikatsiyalangan, ya’ni moslashuvchan va dinamik xususiyatga ega bo‘lgan axborot bazalarida saqlanadi. Bu bazalar talabaning har bir yangi o‘quv faoliyati natijasida yangilanib boradi, natijada o‘quv jarayonining real holatini aks ettiruvchi dolzarb ma’lumotlar shakllanadi. Bunday yondashuv o‘quv jarayonini uzluksiz monitoring qilish, talabaning rivojlanish dinamikasini aniqlash va keyingi pedagogik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish imkonini beradi. Shu tariqa, ma’lumotlarni yig‘ish va saqlash tizimi adaptiv boshqaruv texnologiyalarining axborotiy poydevorini tashkil etib, individual o‘quv trayektoriyasini shakllantirish va takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan ishonchli va tizimli ma’lumotlar bazasini yaratadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Modifikatsiyalangan axborot bazalarida jamlangan o‘quv ma’lumotlarini tahlil qilish jarayoni zamonaviy ta’limda learning analytics yondashuvi asosida amalga oshiriladi. Ushbu tushuncha ilk bor George Siemens tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, u o‘quv jarayoniga oid katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, o‘lchash, tahlil qilish va interpretatsiya qilish orqali ta’lim samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Mazkur bosqichda maxsus algoritmlar (statistik tahlil, machine learning modellari) yordamida talabaning o‘quv faoliyati chuqur o‘rganiladi. Xususan, bilimdagi bo‘shliqlar aniqlanadi, ya’ni qaysi mavzular yetarli darajada o‘zlashtirilmaganligi belgilanadi. Shu bilan birga, talabaning umumiy o‘zlashtirish darajasi baholanib, uning individual rivojlanish trayektoriyasi bo‘yicha o‘sish yoki pasayish dinamikasi kuzatiladi.

R.Ferguson tadqiqotlariga ko‘ra, learning analytics nafaqat o‘quv natijalarini baholash, balki o‘quv jarayonini oldindan prognoz qilish va optimallashtirish imkonini ham beradi[2]. Bu esa talabaning individual profilini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada har bir talaba uchun uning ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv strategiyasi ishlab chiqiladi.

Kognitiv diagnostika tizimi talabaning o‘rganish jarayonidagi ichki psixologik va kognitiv omillarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u ta’limni individuallashtirishda muhim metodologik vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv John R. Anderson va Robert J. Mislevy kabi olimlarning kognitiv psixologiya va ta’lim diagnostikasi bo‘yicha tadqiqotlariga asoslanadi[3].

Kognitiv diagnostika tizimi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabaning o‘rganishdagi individual xususiyatlari, qiyinchiliklari va kognitiv rivojlanish darajasi chuqur tahlil qilinadi. Ushbu tahlil natijalari talaba faoliyatini umumiy baholash bilan cheklanib qolmay, balki uning o‘ziga xos ehtiyojlariga mos keladigan individual pedagogik yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan holda tashkil etish imkonini yaratadi.

**NATIJALAR TAHLILI.** Natijada o‘quv jarayoni yanada tizimli va boshqariladigan tus olib, pedagogik faoliyat ilmiy asosda yo‘lga qo‘yiladi. Talabaning rivojlanish dinamikasi doimiy nazorat ostida bo‘ladi va zarur hollarda o‘quv mazmuni hamda metodlariga tezkor o‘zgartirishlar kiritiladi. Bu esa o‘quv jarayonining umumiy samaradorligini oshirib, ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Ma’lumotlarni tahlil qilish va kognitiv diagnostika tizimlari o‘zaro integratsiyalashgan holda talabaning o‘quv faoliyatini chuqur o‘rganish, uning individual xususiyatlarini aniqlash va adaptiv ta’limni samarali tashkil etish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Adaptiv boshqaruv mexanizmi modifikatsiyalangan axborot bazalari va tahliliy tizimlar asosida ishlovchi markaziy komponent bo‘lib, u o‘quv jarayonini real vaqt rejimida moslashtirish va individuallashtirishni ta’minlaydi. Mazkur mexanizm talabaning o‘zlashtirish darajasi, bilimdagi bo‘shliqlar, o‘rganish sur’ati va xatolarini inobatga olgan holda o‘quv mazmunini dinamik tarzda qayta tashkil etadi. Xususan, o‘quv materialining murakkablik darajasi moslashtiriladi, individual topshiriqlar tanlanadi hamda o‘rganish tezligi boshqariladi[4]. Bunday yondashuv natijasida har bir talaba uchun eng optimal o‘quv yo‘li avtomatik tarzda shakllanadi. Adaptiv boshqaruv mexanizmi o‘quv jarayonini standart shakldan chiqarib, uni shaxsga yo‘naltirilgan va moslashuvchan tizimga

aylantiradi. Bu esa talabaning o‘quv faoliyatidagi samaradorlikni oshirib, bilimlarni chuqur va izchil o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Adaptiv boshqaruv mexanizmining samarali ishlashi bevosita sun’iy intellekt algoritmlariga bog‘liq bo‘lib, ular o‘quv ma’lumotlarini chuqur tahlil qilish va prognozlash imkonini beradi. Xususan, machine learning algoritmlari talabaning o‘quv faoliyatidagi xatti-harakatlarini o‘rganib, uning keyingi rivojlanish yo‘nalishini aniqlaydi. Bu orqali tizim talabaning ehtiyojlariga mos o‘quv strategiyasini ishlab chiqadi. Prognozlash modellari esa talabaning kelajakdagi o‘zlashtirish darajasi, ehtimoliy xatolari va o‘quv natijalarini oldindan baholash imkonini beradi. Bu esa o‘quv jarayonini proaktiv boshqarishga, ya’ni muammolar yuzaga kelishidan oldin ularni bartaraf etishga xizmat qiladi. Tavsiya tizimlari esa talabaning individual profiliga asoslanib, unga eng mos o‘quv materiallari, mashqlar va topshiriqlarni taklif etadi. Bu jarayon shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni yanada takomillashtirib, o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Avtomatik baholash va feedback tizimi adaptiv ta’lim muhitining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, talabaning o‘quv faoliyatini uzluksiz baholash va tezkor teskari aloqa (feedback) taqdim etishga xizmat qiladi[1]. Ushbu tizim real vaqt rejimida ishlaydi, ya’ni talaba topshiriqni bajargan zahoti uning natijalari tahlil qilinadi va baholanadi. Natijada xatolar darhol aniqlanib, ularni tuzatish bo‘yicha aniq tavsiyalar beriladi. Bunday yondashuv o‘rganish jarayonini kechiktirilgan baholashdan farqli ravishda tezkor va samarali shaklga olib keladi. Talaba o‘z xatolarini darhol anglab yetadi, ularni tuzatadi va bilimlarini mustahkamlaydi. Shu tariqa avtomatik feedback tizimi o‘quv jarayonini jadallashtirib, uning umumiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Monitoring va vizualizatsiya tizimi o‘quv jarayonini samarali nazorat qilish va boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizim yordamida talabaning rivojlanish dinamikasi grafik va diagrammalar orqali aks ettiriladi, natijalar chuqur tahlil qilinadi hamda o‘qituvchilar uchun analitik hisobotlar shakllantiriladi.

O‘z-o‘zini boshqarish va refleksiya komponenti talabaning mustaqil ta’lim olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim pedagogik omil hisoblanadi. Bu jarayonda talaba o‘z bilim darajasini baholaydi, o‘z o‘quv faoliyatini rejalashtiradi va natijalarini tahlil qiladi. Refleksiya orqali talaba o‘z xatolarini anglab yetadi, ularni bartaraf etish yo‘llarini izlaydi va o‘z rivojlanish strategiyasini shakllantiradi. Mazkur komponent talabaning o‘quv jarayonidagi faolligini oshirib, uni bilimlarni mustaqil egallovchi subyekt sifatida shakllantiradi. Natijada uzluksiz ta’limga tayyor, o‘z-o‘zini rivojlantira oladigan va yuqori darajadagi kompetensiyalarga ega shaxs tarbiyalanadi.

**XULOSA.** Avtomatik baholash, adaptiv platformalar, monitoring tizimlari va refleksiya komponentlari o‘zaro uyg‘unlashgan holda ta’lim jarayonini raqamli, moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan tizimga aylantiradi. Bu esa talabalarning individual o‘zlashtirish trayektoriyasini samarali boshqarish va ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur texnologiyalar majmuasi modifikatsiyalangan axborot bazalari asosida talabaning individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, o‘quv jarayonini moslashtirish va samarali boshqarishni ta’minlab, ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan, adaptiv va yuqori natijador tizimga aylantiradi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. Hasanov M. Ta’lim natijalarini kuzatishda avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari // Raqamli pedagogika. – 2022. – № 1. – B. 55-61.
2. Jumayev M.E. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini baholashda Styudent (t-test) va Pirson ($\chi^2$) mezonlari // Fizika, matematika, informatika. – 2017. – № 3. – B. 76-82.
3. Karimova J.A. Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti va istiqbollari // Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari. – 2022. – № 1. – B. 66-72.
4. Mamarajabov M.E. O‘quv jarayonini axborotlashtirish sharoitida talabalarning kasbiy mahoratini oshirish // Ta’lim texnologiyalari. – 2019. – № 1. – B. 22-28.
5. Pardaev A.X. Konnektivizm – raqamli asrning ta’lim nazariyasi sifatida // Ta’lim taraqqiyoti. – 2021. – № 4. – B. 41-47.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 94(575.1)+331.105.44

# O‘ZBEKISTON SSRDA MEHNATKASHLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHDA KASABA UYUSHMALARINING MODDIY YORDAM TIZIMI



*Xomidov Abror Xushniyozovich, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti*

*https://orcid.org/0009-0000-2028-4643*
*e-mail: Xomidovabror@gmail.com*

# THE SYSTEM OF MATERIAL ASSISTANCE OF TRADE UNIONS IN THE SOCIAL PROTECTION OF WORKERS IN THE UZBEK SSR

*Khomidov Abror Khushniyozovich, Doctoral Student of Samarkand State University named after Sharof Rashidov*

# СИСТЕМА МАТЕРИАЛЬНОЙ ПОМОЩИ ПРОФСОЮЗОВ В СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЕ ТРУДЯЩИХСЯ В УЗБЕКСКОЙ ССР

*Хомидов Аброр Хушниёзович, докторант Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston SSRda mehnatkashlarni ijtimoiy himoya qilishda kasaba uyushmalarining moddiy yordam tizimining faoliyati yoritilgan. O‘rganilayotgan davr mehnatkashlarni moddiy himoya qilishda kasaba uyushmalari tomonidan ajratilgan mablag‘larning ijtimoiy himoya qilish sohalariga ajratilganligi tahliliy o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *O‘zbekiston SSR, kasaba uyushmalari, mehnatkashlar, maktab, sport maydonchasi, moddiy yordam, pensiya, qonun, byudjet, moliya, nafaqa, sog‘liqni saqlash.*

***Abstract:*** *This article highlights the activities of the trade unions' material assistance system in social protection of workers in the Uzbek SSR in the post-war years. The period is analyzed during which the funds allocated by trade unions for the material protection of workers were directed to areas of social protection.*

***Key words:*** *Uzbek SSR, trade unions, workers, school, sports ground, material assistance, pension, law, budget, finance, allowance, healthcare.*

***Аннотация:*** *В данной статье освещается деятельность системы материальной помощи профсоюзов по социальной защите трудящихся в Узбекской ССР в послевоенные годы. Анализируется период, в который средства, выделенные профсоюзами для материальной защиты трудящихся, направлялись на сферы социальной защиты.*

***Ключевые слова:*** *Узбекская ССР, профсоюзы, рабочие, школа, спортивная площадка, материальная помощь, пенсия, закон, бюджет, финансы, пособие, здравоохранение.*

**KIRISH.** O‘zbekiston SSRda ikkinchi jahon urushidan mustaqillikkacha bo‘lgan davr kasaba uyushmalari faoliyatida mehnatkashlarni moddiy, ijtimoiy, huquqiy himoya qilish, kasaba uyushmalari a’zolari soni kengayib borishi faoliyatining asosiy vazifalariga quyidagilar kirgan: urushdan keyingi davr iqtisodiy tiklanish, ishlab chiqarish sohalarini qayta rivojlantirish,

mehnatkashlarni ishlab chiqarish tarmoqlariga yo‘naltirish, madaniy-ma’rifiy faoliyatni kengaytirish, sport va sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish. Ijtimoiy himoyadagi o‘rni esa Mehnatkashlarga moddiy yordam tarmoqlarini kengaytirish, dam olish uylari va sanatoriyalarga yo‘llanmalar berish, ish joylarida xavfsizlikni nazorat qilish, ayollar va yoshlar huquqlarini himoya qilish, bepul tibbiy xizmat, bolalar bog‘chalari, uy-joy taqsimotida ishtirok etish, ijtimoiy himoya tizimini qayta ko‘rib chiqish, kasaba uyushmalarining rolini oshirish kabi bir qancha sohalarni va vazifalarni o‘z ichiga olgan. Masalan birgina Samarqand viloyati 15-sonli yetti yillik maktabda o‘quvchilar uchun bolalar maydonchasi ochib berilgan bo‘lib, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangan bo‘lib, bu maydonchaga bir vaqtning o‘zida 85 ta bolalar jalb etilgan. Bolalar kitob, gazeta, jurnallar bilan ta’minlangan, xuddi shunday maydonchalardan biri Siyob rayonining 10-11-sonli maktablarda ham tashkil qilinishida kasaba uyushmalari tashkiloti faol yordam bergan.

**MUHOKAMA.** Bu soha va vazifalarni amalga oshirish uchun komunistik partiya va kasaba uyushmalari tomonidan qonunlar va rejalar ishlab chiqilgan. Kasaba uyushmalari tomonidan mehnatkashlarni ijtimoiy himoya qilish oid qonunlarda davlat byudjeti hisobidan O‘zbekiston SSR aholisi va mehnatkashlarining turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilgan. Besh yillik rejalar ishlab chiqilgan. Mehnatkashlarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga imtiyozlar berilgan jumladan, korxona va muassasalar ma’muriyatlari bilan hamkorlikda jamoaviy bitimlar tuzish, ularning bajarilishini nazorat qilish huquqi berilgan. O‘zbekistonda kasaba uyushmalari tomonidan mehnatkashlarga moddiy yordam berish va huquqiy himoya qilish uchun 1970-yillarda 10 mingdan ortiq jamoa shartnomalari tuzilgan, mehnat va ijtimoiy huquqlarni ta’minlashda muhim rol o‘ynagan, qonunchilik jarayonlarida qatnashgan. Sovet boshqaruvi davrida O‘zbekiston SSRda kasaba uyushmalari davlat va partiya organlari rahbarligida faoliyat yuritgan. Kasaba uyushmalarining boshqaruv organlarining tarkibi Kommunistik partiya tomonidan tasdiqlangan. Masalan, 4,7 million kishi mehnatga layoqatli aholining qariyb 95 foizini tashkil qilgan. 1970-yillarda O‘zbekistonda kasaba uyushma a’zolari soni ortib borgan. 1970-yilda jami a’zolar soni 2,5 million kishini tashkil etgan.

1945-1991-yillar oralig‘ida O‘zbekiston SSR aholisi ijtimoiy himoya qilish sohalarining ortib borishi, natijasida mehnatkash aholi o‘rtasida ijtimoiy himoya tizimidan foydalanishda ko‘plab muammolar vujudga kelgan, shuningdek, ijtimoiy himoya qilish tizimiga oid qonun, qarorlardan aholi xabardor emasligi ma’lum bo‘lgan. Masalan, Samarqand viloyatida 1950-yili uy-joy qurilish kasabalari tashkiloti tomonidan keyingi 6-oy ichida quyi guruhlari tashkil qilingan bo‘lib, ularning soni 400 kishidan oshgan. Kasaba uyushmalari qurilish qatnashchilariga moddiy-maishiy yordam xizmatni yaxshilash joralarini ko‘rgan, Ammo kasaba uyushmalari faoliyatida ham kamchiliklar borligi aniqlangan. Jumladan, remont qilinishi lozim bo‘lgan 40 dan ortiq uy-joylar borligi aniqlangan. Bu kabi va boshqa holatlar keyinchalik ijtimoiy himoya yordamlari tayinlashda kamchiliklar borligini ko‘rsatgan. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, O‘zbekiston SSRda kasaba uyushmalari tomonidan mehnatkashlar faoliyatini qayta tiklash va ularning ijtimoiy himoya qilish ehtiyojlarini qondirishda faol qatnashgan.

**Adabiyotlar tahlili.** 1945–1991-yillarda O‘zbekiston SSRda ijtimoiy himoya tizimining manbalari alohida mavzu sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Sovet davriga oid “O‘zbekiston SSR tarixi”[1] hamda mustaqillik yillarida yaratilgan ayrim asar va tadqiqotlarda bu masalaga qisman to‘xtalib o‘tilgan. Jumladan, M.Matniyozovning “Xorazm tarixi”[2], Q.Rajabovning “O‘zbekiston SSR rahbariyatining ijtimoiy va siyosiy faoliyati (1945–1983 yillar)” [3], M.Vlasov Lenin yo‘li gazetasi 1950-yil 17-avgustdagi sonida kasaba uyushmalari tomonidan mehnatkashlarning bolalariga maktablarda sport maydonchalari tashkil etilganligi yoritib berilgan,

Qodirov, A. (2012). O‘zbekiston kasaba uyushmalari tarixi (1925-1991 yillar). Toshkent: Akademik nashr[5] kitobida kasaba uyushmalari faoliyati mehnatkashlarni ijtimoiy va moddiy, huquqiy himoya qilish, mehnatkashlar uchun jamoaviy shartnomalar tuzish holatlari yoritib berilgan, shuningdek, A.Mannopov va S.Mirzaahmedova muallifligidagi “7-mehru shafqat yillari” [6] S.Nasriddinov “Lenin yo‘li” gazetasi 1950-yil 4-avgustdagi sonida qurilish tashkiloti kasaba uyushmalari faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlari yoritib berilgan[7]. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. Статистический Ежегодник. –Т.: Узбекистан.1991, 338-b [8] to‘plamda O‘zbekiston SSRda mehnatkashlarga ijtimoiy yordam uchun ajratilgan mablag‘larning statistik ma’lumotlar berilgan. 1945-1991-yillarda O‘zbekiston SSR kasaba uyushmalari faoliyatida mehnatkashlarni ijtimoiy himoya qilish tizimidagi o‘rni mavzusini o‘rganish, jumladan ushbu maqolani asoslash jarayonida qiyosiy tarixiy usul, tarkibiy tahlil kabi usullardan [9] foydalanildi.

**Natijalar.** 1945-yildan 1991-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston SSR Xorazm viloyatida aholini, ayniqsa keksalar, ko‘zi ojizlar, urush va mehnat nogironlari, ko‘p bolali onalar, yolg‘iz onalar, dam olish uylariga yo‘llanmalar, pensionatlar, bolalar uylari ijtimoiy himoya tizimi tarkibiga kirib, O‘zbekiston SSRda ijtimoiy himoya tizimi davlat byudjeti hisobidan, kasba uyushmasi, ijtimoiy sug‘urtalar hisobidan moliyalashtirilgan. Sovet ittifoqi davlat byudjeti daromadlari qismi 1945-yilda 302,0 milliard so‘mdan 1950-yilga kelib 422,1 milliard so‘mga yetgan, shu yillar davomida ijtimoiy madaniy tadbirlar uchun byudjet hisobidan 524,5 milliard so‘m sarflangan. Bu mablag‘lardan: Xalq maorifiga 258,9 milliard so‘m; Sog‘liqni saqlash 94,4 milliard so‘m miqdorida mablag‘ ajratilgan bo‘lib, bu mablag‘lar umumiy ta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlari, ilmiy tekshirish muassasalari, zavod–fabrika ta’lim maktablari, kutubxona, klub, teatrlar, maorif madaniyat va sog‘liqni saqlash, pensiya hamda nafaqalar uchun yo‘naltirilgan. O‘zbekiston SSRda kasaba uyushmalari faqat ishlab chiqarish jarayonlariga emas, balki ijtimoiy hayotda ham muhim vazifa bajargan. Ular mehnatkashlarning dam olishi, sog‘lig‘i, madaniyati va turmush darajasini yaxshilashda davlat bilan birgalikda ishlagan. Shu tariqa, 1945-yildan keyingi davrda kasaba uyushmalari ijtimoiy himoya tizimining ajralmas qismi sifatida shakllangan. O‘zbekiston SSRda davlat ijtimoiy siyosatining yana bir jihati – aholining yashash darajasini o‘lchash va nazorat qilish bo‘lgan. 1951–1952-yillarda aholining iste’mol darajasi, oziq-ovqat ta’minoti va maishiy xizmatlar sifati bo‘yicha statistik tahlillar olib borildi[10]. Kasaba uyushmasi tashabbusi bilan ijtimoiy ta’minotga muhtoj insonlar uchun bir necha marta mablag‘ ajratilgan. Davlat ijtimoiy sug‘urta byudjetidan ishchi va xizmatchilarning moddiy-maishiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun 1958-yilda 680 million so‘mdan ko‘proq pul sarflangan[11]. Mamalakatdagi korxonalarning xo‘jalik va kasaba uyushmalari tashkilotlari mehnatkashlarning ish joylarida xavfsizligini ta’minlash maqsadida korxona va tashkilotlar bilan 1949-yil uchun bitimlar tuzishga kirishgan. Bu bitimlarni tuzishdan asosiy maqsad, mehnat muhofazasini yanada yaxshilashga qaratilgan. Mehnatkashlar ishlaydigan korxonalar jumladan: ko‘mir, metallurgiya, mashinasozlik, to‘qimachilik sanoatlarida va yangi qurilishlarda ko‘p mehnat talab qiladigan og‘ir ishlarni mexaniklashtirishga alohida e’tibor qaratgan. Bu yil mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi uchun 1milliard 74million so‘m mablag‘ ajratilgan. Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida ishlovchi kishilarning nogiron bo‘lib qolish holatlari urushdan oldingi davrga nisbatan ancha kamaygan[12]. 1960-yilga kelib, Sovet Ittifoqi davlat byudjetidan ijtimoiy madaniy tadbirlar uchun 247 782 162 ming so‘m miqdorida mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, shu davrga nisbatan bu ko‘rsatkich O‘zbekiston SSRda ijtimoiy-madaniy tadbirlar uchun davlat byudjeti daromadlaridan 5330525 ming so‘mni tashkil qilgan. 1991-yil yanvar oyiga kelib, Sovet davlati byudjet taqsimotiga ko‘ra ijtimoiy-madaniy tadbirlar uchun 19645057 ming so‘m miqdorida mablag‘

TAMADDUN NURI

ajratgan bo‘lib, quyidagicha taqsimlangan: 1.Xalq ta’limiga 5431759 ming so‘m; 2.Sog‘liqni saqlash tizimiga 3204427 ming so‘m; 3.Madaniyat va san’atga 459196 ming so‘m; 4.Ommaviy axborot vositalariga 1656875 ming so‘m; 5.Onalik va bolalikni muhofaza qilish, pensiya va nafaqalarga 8892800 ming so‘mni tashkil qilgan. KPSS MK tomonidan ishlab chiqilgan 4-besh yillik (1946–1950) va 5-besh yillik (1951–1955) rejalarda ijtimoiy sohalar (ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy himoya)ga ajratilgan sarmoyalar ishlab chiqarish sohalariga nisbatan ancha kam bo‘lsa-da, ular tizimli yondashuv asosida amalga oshirilga [13].

**Xulosa.** 1945–1991-yillarda O‘zbekiston SSRda mehnatkashlarni ijtimoiy himoya qilish kasaba uyushmalari faoliyatida mehnatkashlarni turmush darajasini va mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan qator qonunlar, qarorlar va ijtimoiy dasturlar amalga oshirilgan, jumladan, mehnatkashlarning ish joylaridagi mehnat muhofazasi faoliyati xavfsizligini ta’minlash uchun bir qancha sanoat korxonalari va tashkilotlari bilan shartnoma va bitimlar tuzilgan. Biroq amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, O‘zbekiston SSR aholisi va mehnatkashlarining ijtimoiy hayotida iqtisodiy yetishmovchiliklar hamda ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ehtiyoj saqlanib qolavergan. Sobiq Ittifoq tarkibiga kiruvchi boshqa davlatlarda bo‘lgani kabi, O‘zbekiston SSRda ham mehnatkashlarni ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblangan.

Mazkur yo‘nalishning ahamiyati mehnatkashlarni moddiy yordam bilan ta’minlash davlat byudjeti kasaba uyushmalari mablag‘lari hisobidan ijtimoiy himoya tizimiga ajratilgan xarajatlar hajmining oshib borishi bilan ham tasdiqlanadi. Shu bilan birga, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan davrda ijtimoiy himoya tizimining ayrim yo‘nalishlarida tashkil etish va taqsimlash jarayonida muayyan kamchiliklar borligi aniqlangan. Shu sababli, O‘zbekiston SSR kasaba uyushmalari faoliyatini o‘rganish nafaqat tarixiy tajribani tahlil qilish, balki ijtimoiy siyosatni takomillashtirish hamda aholini ijtimoiy himoya qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston SSR tarixi. 4-jild -T.: Fan, 1971. 217-218-b.
2. Matniyozov M. Xorazm tarixi.2-jild - Urganch.:1997. 173-b.
3. Rajabov Q. O‘zbekiston SSR rahbariyatining ijtimoiy va siyosiy faoliyati (1945 - 1983 yillar) -T.: Fan, 2020.
4. M.Vlasov Lenin yo‘li gazetasi 1950-yil 12-avgust. N 204. (5778).
5. Qodirov, A. (2012). O‘zbekiston kasaba uyushmalari tarixi (1925-1991 yillar.). Toshkent: Akademik nashr. 76-b.
6. S.Nasriddinov. Lenin yo‘li gazetasi 1950-yil 4- avgust, N 197 (5804).
7. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. Статистический Ежегодник. –Т.: Узбекистон.1991, 338-b.
8. A.Mannopov, S Mirzaahmedova. 75 mehr-u shafqat yillari –T.: Adolat, 1994.
9. A.Mannopov, S.Mirzaahmedova 75 mehr-u shafqat yillari –T.: Adolat, 1994.
10. 5 6-b 5. Shadmanova S. Tarix tadqiqotlarining metodologiyasi va zamonaviy usullari-T.: Barkamol fayz media nashriyoti, 2018. 70-b.
11. Тожибоев Ф.Э. 1945–1953 йилларда Совет ҳукумати аграр сиёсати // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Т. 2. – №12. – Б. 755–762.
12. Lenin yo‘li gazetasi. 1948-yil 25-dekabr . N. 256. (5346).
13. O‘zbekiston SSR tarixi.4-tom.-T.: 1971. 322-323-b.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 94(575)+665.3(575)

# ОБ ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ МАСЛОБОЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ И ТОРГОВЛИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (КОНЕЦ XIX — НАЧАЛО XX ВЕКА)

***Каримова Наргиза Икрамовна, доктор философских наук по истории (PhD), докторант Национального университета Узбекистана***



***https://orcid.org/0000-0002-1276-963X***
***e-mail: nargiz_82_88@mail.ru***

# ON THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE OIL-PROCESSING INDUSTRY AND TRADE IN CENTRAL ASIA (LATE 19TH — EARLY 20TH CENTURIES)

***Karimova Nargiza Ikramovna, Doctor of Philosophy (PhD) in History, Doctoral Student of the National university of Uzbekistan***

# MARKAZIY OSIYODA YOG‘-MOY SANOATI VA SAVDOSINING RIVOJLANISH TARIXI HAQIDA (XIX ASR OXIRI — XX ASR BOSHLARI)

***Karimova Nargiza Ikramovna, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti***

**Аннотация:** В статье исследуются исторические предпосылки, условия формирования и *основные этапы развития маслобойной промышленности и торговли в Центральной Азии в конце XIX — начале XX века. Рассматривается влияние процессов модернизации экономики региона, включая развитие транспортной инфраструктуры, прежде всего железнодорожного строительства, на становление промышленного производства и расширение торгово-экономических связей. Анализируется роль маслобойной промышленности как одного из ключевых направлений переработки сельскохозяйственного сырья, а также её значение в структуре региональной экономики. Особое внимание уделяется взаимодействию внутреннего и внешнего рынков, динамике цен на сырьё и готовую продукцию, а также изменению экономической конъюнктуры под воздействием интеграции региона в общероссийское и международное хозяйственное пространство. Делается вывод о том, что данная отрасль сыграла значительную роль в экономической трансформации Центральной Азии в рассматриваемый период.*

***Ключевые слова:*** *Центральная Азия, Туркестанский край, маслобойная промышленность, торговля, экономическое развитие, индустриализация, железнодорожное строительство, хлопковое сырьё, аграрная экономика.*

***Annotatsiya.*** *Maqolada XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda moychilik (masloboy) sanoati va savdosining tarixiy shart-sharoitlari, shakllanish omillari hamda rivojlanishning asosiy bosqichlari tadqiq etiladi. Hudud iqtisodiyotining modernizatsiya jarayonlari, jumladan transport infratuzilmasining rivojlanishi, avvalo temir yo‘l qurilishi, sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi va savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlashning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida moychilik sanoatining o‘rni va uning mintaqaviy iqtisodiyot tuzilmasidagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

*Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, moychilik sanoatining rivojlanishi tadbirkorlik faolligining ortishi, korxonalar tarmog‘ining kengayishi, yangi texnologik yechimlarning joriy etilishi hamda hunarmandchilikdan zavod-fabrika ishlab chiqarishiga bosqichma-bosqich o‘tish bilan kechgan. Xulosa*

*qilinadi-ki, mazkur soha ko‘rib chiqilayotgan davrda Markaziy Osiyo iqtisodiy transformatsiyasida muhim rol o‘ynagan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Markaziy Osiyo, Turkiston o‘lkasi, moychilik sanoati, savdo, iqtisodiy rivojlanish, industrializatsiya, temir yo‘l qurilishi, paxta xomashyosi, agrar iqtisodiyot.*

***Abstract:*** *The article examines the historical prerequisites, conditions of formation, and main stages of development of the oil-extraction industry and trade in Central Asia in the late 19th and early 20th centuries. It considers the impact of economic modernization processes in the region, including the development of transport infrastructure, primarily railway construction, on the establishment of industrial production and the expansion of trade and economic relations.The study analyzes the role of the oil-extraction industry as one of the key sectors of agricultural raw material processing, as well as its significance within the structure of the regional economy. The conclusion is drawn that this industry played an important role in the economic transformation of Central Asia during the period under review.*

***Keywords:*** *Central Asia, Turkestan Region, oil-extraction industry, trade, economic development, industrialization, railway construction, cotton raw materials, agrarian economy.*

**Введение.** Маслобойная промышленность Туркестана специализировалась преимущественно на переработке хлопковых семян. В Семиречье, однако, существовали две–три небольшие полукустарные маслобойни, перерабатывавшие ограниченные объёмы льняных, конопляных и подсолнечных семян. Данные предприятия функционировали обособленно от основной маслобойной промышленности региона, обслуживали узкий круг местных потребителей и не имели промышленного значения[1].

Первым основателем маслобойного производства в крае был К.К. Држевецкий в Бухаре. Им был сооружен в Бухаре солидных размеров маслобойный завод. Однако несоответствие к выделке хлопковых семян, скудость средств, а особенно предубеждение туземцев против машинного производства масла погубили это первое начинание и завод после многих испытаний поступили в собственность в большой хлопкоочистительный завод.

**Обзор литературы.** Второй маслобойный завод был построен в Самаркандской области, в Челекском районе, в имении Д.Л.Хорвата. Впоследствии инженер Л.О.Югович возвёл крупное маслобойное предприятие в городе Катта-Кургане.

В условиях ограниченного рынка сбыта, охватывавшего преимущественно местное население Самаркандской области и бухарских владений, Л. О. Югович столкнулся с необходимостью преодоления консервативных потребительских установок. Население с недоверием относилось к маслу, произведённому из американских семян, что существенно затрудняло его реализацию. После нескольких лет безуспешных попыток наладить сбыт Югович был вынужден покинуть предприятие.

В статье, опубликованной в «Туркестанских ведомостях» за 1884 г. (№ 36–37), содержится подробное описание данного завода. Судя по используемому оборудованию и технологическому процессу, предприятие было оснащено надлежащим образом. Неудача его функционирования может быть объяснена прежде всего отсутствием устойчивого потребительского спроса в крае: произведённое масло не соответствовало вкусовым предпочтениям местного населения и было вынуждено транспортироваться на верблюдах в железных бочках и деревянных ящиках в Оренбург.

Транспортные расходы были чрезмерно высокими, а оборот капитала — длительным, что в конечном итоге обусловило прекращение деятельности завода.

В 1893 г. К.С.Саготеловым в Мерве был построен небольшой завод с одним гидравлическим прессом, приводимым в действие ручным насосом. Однако после непродолжительного периода работы предприятие также было закрыто [2] . В относительно короткий период были сооружены первоклассные маслобойные заводы в имении Байрам-Али, предприятия К.

[1] НаУз.Ф-735 оп.1, д.363.л.48.

[2] НаУз Ф-27 оп. 2,д 18.л.9

М. Соловьёва в Намангане и Чусте, а также заводы Андреевского товарищества. Наряду с этим возникли предприятия среднего масштаба: Микиртичева — в Асхабаде, Антонова — в Мерве и Сарымсакова — в Маргелане.

К 1903 г. маслобойные заводы Туркестанского края уже обеспечивали переработку свыше 4 млн пудов семян. С учётом около 700 тыс. пудов семян, вывозившихся на маслобойный завод Персица в Нижнем Новгороде, общий объём переработки составлял приблизительно 20% валового сбора семян в регионе. Повышение цен на сала и масла в центральных районах России в значительной степени способствовало росту спроса и повышению цен на хлопковое масло. Одновременно был обеспечен сбыт жмыха как на внешних рынках, так и внутри региона. В результате доходность маслобойных предприятий возросла, и местные предприниматели, убедившись в их рентабельности и устойчивости, приступили к расширению производства.Весной текущего года были заказаны машины для шести новых маслобойных заводов в Ташкенте, Коканде, Маргелане и Андижане общей мощностью переработки около 3 млн пудов семян в год. Кроме того, на следующую весну намечено строительство ещё шести предприятий. Значение маслобойной промышленности в экономике края наглядно иллюстрируется следующим сопоставлением. При отсутствии перерабатывающих предприятий 21 миллионов пудов семян даже при цене 15 копеек за пуд обеспечили бы валовой доход населения лишь в размере около 3,15 миллионов рублей. В настоящее время цена семян достигла 35–45 копеек за пуд, а после завершения строительства заводов, по прогнозам, может установиться на уровне не ниже 80 копеек за пуд, что соответствует общей сумме около 16,8 миллионов рублей[3].

К 1914 году стоимость продукции фабрично-заводского производства в маслобойной промышленности составила 12 398,3 тыс. рублей, тогда как объём производства мыла оценивался в 638,9 тыс. рублей [4] . К 1910 году вывоз товаров из Центральной Азии, включая продукцию соседних стран, достиг значительного объёма — около 200 миллионов рублей. Ввоз товаров в регион к этому же времени был сопоставим по своим масштабам. Это свидетельствует о важной роли Туркестанского края в торгово-экономических связях с Россией, значение которой должно было ещё более возрасти по мере развития и упорядочения транспортной инфраструктуры.

Существенное значение в торгово-экономических связях региона имели также прилегающие к Туркестану территории — Афганистан и Персия. Ввоз товаров из Афганистана с 1896 г. постепенно увеличивался и в 1908–1910 гг. достиг объёма около 5 млн рублей. В свою очередь, экспорт товаров в Бухарские владения в указанный период также демонстрировал устойчивый рост и в последние годы достигал 4,5 млн рублей. Во-первых, относительно низкий уровень социально-экономического развития населения обусловливал ограниченное потребление товаров, облагаемых акцизами.

**Методология исследования.** Во-вторых, значительную роль играли религиозные нормы, предписывающие трезвый образ жизни. В-третьих, широкое распространение имели местные заменители облагаемых товаров: вместо сахара употреблялись леденец, кишмиш и тут (шелковица), вместо крепких алкогольных напитков — буза и виноградное вино, вместо акцизного табака — листовой, жевательный и кальянный табак, не подлежавшие налогообложению[5].

[3] И- 7 оп.1 д.2857. Управление Земледелия и Государственных имуществ в Туркестанском крае. 1907 г. Хлопководство в Туркестанском крае. Торг –пром отдел. Маслобойные заводы в Туркестане. 14 л.

[4] Илиас Алкин. Средняя Азия (Экономико – географический очерк Каракалпакстана, Киргизистана, Таджикистана,Туркменистана и Узбекистана. Издание Научно-исследовательской ассоциации по изучению национальных и колониальных проблем. Москва .1931.. С.187. 411 с.

[5] Илиас Алкин. Средняя Азия (Экономико – географический очерк Каракалпакстана, Киргизистана, Таджикистана,Туркменистана и Узбекистана. Издание

TAMADDUN NURI

За вычетом объёмов аналогичных товаров, вывезенных из Туркестанского края в Афганистан и Персию (в частности, 241 456 пудов керосина и 556 004 пуда сахара), объём продукции, направленной на удовлетворение внутреннего спроса населения Туркестанского края, а также Бухарского и Хивинского ханств, составил около 1 665 тысяча пудов керосина. При ставке акциза 60 копеек за пуд это обеспечивало поступления в размере около 999 тысяча рублей[6].

Облагаемого акцизом табаку израсходовано в 1910 г. Европейской России 7.435.604 пуда или в среднем около 2 фунтов на душу, тогда как в Туркестанском крае облагаемого акцизом табаку израсходовано всего лишь 39.909 пудов или в среднем 0.23 фунтов на душу населения т.е. в 9 раз меньше, чем в России. Керосина и других осветительных масел было потреблено в России в 1910 г.-21961,550 пудов или 0,14 пудов на душу населения. В Туркестанском крае было употреблено керосина 1 736 367 пудов или в среднем тоже 0,14 пудов на душу населения [7] .Цена на масла в 1908–1909 гг. составило 2 рубля 20 копеек — 2 рубля 30 копеек за 100 фунтов, а в 1910–1911 гг. увеличилась до 4 рублей 40 копеек — 5 рублей 40 копеек. Масло потреблялось исключительно в пределах оазисов и не являлось предметом вывоза[8]. Из Термеза вывозились мыло, а также асафетида и масло, используемое для смазывания волос. Из Хорезма экспортировались касторовое масло, амбра, лещинные орехи, мёд, свечи, виноград, значительное количество изюма, миндальные сладости, кунжут (сезам), рахбин (вид сыра), а также сыворотка. Из Самарканда вывозились лещиновые и обычные орехи. Из Бухары поставлялись дыни, известные под названием «аш-шаф» (ашшах)[9].

Быстрому распространению двигателей внутреннего сгорания способствовала относительная дешевизна нефти в регионе, обусловленная близостью Бакинского нефтяного района, а также наличием местных нефтяных запасов в Ферганской области[10]. В Центральной Азии в предвоенный период, особенно накануне революции 1917 г., усилился процесс формирования монополистических объединений в промышленности, тесно связанных с маслобойным производством. Одновременно ускоренными темпами развивался процесс слияния и сращивания банковского капитала с данной отраслью промышленности[11]. В 1901–1910 гг. маслобойные заводы размещались в трёх областях Туркестанского края — Ферганской, Самаркандской и Сырдарьинской. На основании статьи 4 постановления Временного правительства от 9 марта 1917 г. об учреждении общегосударственного Продовольственного комитета, во изменение циркулярного распоряжения Министра земледелия от 18 января 1917 г. об увеличении твёрдых цен на подсолнечное семя и в дополнение к приказу от 18 сентября 1917 г. № 80, устанавливаются твёрдые цены на растительные масла и искусственное сало на следующих основаниях: Нижеуказанные твёрдые цены на растительные масла и искусственное сало распространяются на все сделки в пределах Европейской России, Кавказа, Закавказья и Туркестанского края. Твёрдые цены вступают в действие со дня их утверждения и устанавливаются на срок до 1 сентября 1918 г. Твёрдые цены на

---

Научно-исследовательской ассоциации по изучению национальных и колониальных проблем. Москва .1931.. С.84. 411 с.

[6] С.Р.Конопка. Туркестанский край. Ташкент 1913 издательство электропечатия при Канцелярии Туркестанского Генерал Губернатора. С 91. 474 с.

[7] Там же С.366.

[8] С.Р.Конопка. Туркестанский край. Ташкент 1913 издательство электропечатия при Канцелярии Туркестанского Генерал Губернатора. С 204. 474 с..

[9] Илиас Алкин. Средняя Азия (Экономико – географический очерк Каракалпакстана, Киргизистана, Таджикистана,Туркменистана и Узбекистана. Издание Научно-исследовательской ассоциации по изучению национальных и колониальных проблем. Москва .1931. С.174. 474с.

[10] Илиас Алкин. Средняя Азия (Экономико – географический очерк Каракалпакстана, Киргизистана, Таджикистана,Туркменистана и Узбекистана. Издание Научно-исследовательской ассоциации по изучению национальных и колониальных проблем. Москва .1931. С.275. 411 стр.

[11] Там же .С.279.

растительные масла и искусственное сало устанавливаются франко-вагон (до ближайшей железнодорожной станции) или франко-борт (до ближайшей пристани отправления).

Твёрдые цены на растительные масла без тары устанавливаются в следующих размерах за пуд:

| **Наименования масел** | **Цена за пуд** | |
|---|---|---|
| | **рубли** | **копейки** |
| **Подсолнечное масло** | 31 | 05 |
| **Льняное** | 35 | 35 |
| **Конопляное** | 33 | 15 |
| **Горчичное( 1 и 2 сорта)** | 42 | 25 |
| **Рапс и репака озимый** | 33 | 75 |
| **Репака летняя** | 34 | 45 |
| **Рыжиковое** | 35 | 85 |
| **Сурепное** | 33 | 60 |
| **Хлопковое рафинированное** | 32 | 90 |

Примечание. Министру продовольствия предоставлялось право повышать указанные твёрдые цены на масло, вырабатываемое на маслобойных заводах Петрограда, Киева и Одессы, при условии, что такое повышение не превышало 10% установленных цен.

В случае обнаружения примеси другого растительного масла вся смесь оценивалась по цене наиболее дешёвого компонента.

Твёрдая цена за пуд искусственного сала (саломаса, маслорода, салолина) устанавливалась путём прибавления 7 рублей 25 копеек к твёрдой цене масла, из которого оно произведено[1].

Экономические условия для развития маслобойной промышленности в Центральной Азии в конце XIX — начале XX вв. изменились в благоприятную сторону: развитие железнодорожного транспорта открыло российский рынок для сбыта масла, а рост цен на животные жиры способствовал расширению внутреннего рынка сбыта в Центральной Азии.

**Список литературы:**


1. И- 7 оп.1 д.2857. 14 л.
2. Илиас Алкин. Средняя Азия (Экономико – географический очерк Каракалпакстана, Киргизистана, Таджикистана, Туркменистана и Узбекистана. Издание Научно-исследовательской ассоциации по изучению национальных и колониальных проблем. Москва .1931. 411 с.
3. НаУз Ф-27 оп. 2,д 18.л.9
4. НаУз.Ф-735 оп.1, д.363.л.48.
5. С.Р.Конопка. Туркестанский край. Ташкент, 1913. Издательство электропечатия при Канцелярии Туркестанского Генерал Губернатора. 474 стр.
6. НаУз. Ф-42 оп.1,д.4. л.101.


[1] НаУз. Ф-42 оп.1,д.4. л.101

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 1(430)+141.131

# ARTUR SHOPENGAUERNING MUTLAQ IRODA HAQIDAGI QARASHLARINING AYRIM JIHATLARI

*Qabulniyazova Gulchehra Tashpulatovna, O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti “Falsafa” kafedrasi professori*

# SOME ASPECTS OF ARTHUR SCHOPENHAUER’S VIEWS ON THE ABSOLUTE WILL

*Qabulniyazova Gulchehra Tashpulatovna, Professor of the Department of Philosophy, Faculty of Social Sciences, National University of Uzbekistan*

# НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ВЗГЛЯДОВ АРТУРА ШОПЕНГАУЭРА НА АБСОЛЮТНУЮ ВОЛЮ

*Кабулниязова Гульчехра Ташпулатовна, профессор кафедры “Философия” факультета социальных наук Национального университета Узбекистана*



*https://orcid.org/0000-0002-3608-4459*
*e-mail: kabulniyazovagulchehra@mail.com*

***Annotatsiya:*** *Maqolada mashhur faylasuf Artur Shopengauerning noklassik, irratsional qarashlaridagi ayrim jihatlari ochib berilgan. Ma’lumki, Shopengauer dunyoning asosida ongsiz tabiatga ega bo‘lgan mutlaq irodani ko‘rgan. Bu iroda tabiatda ham, jamiyatda ham namoyon bo‘ladi. Inson ongida u obyektivlasha boshlaydi. Inson va tabiat irodanning subyekti va obyektiga aylanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *irratsionalizm, tasavvur, iroda, mutlaq iroda, ratsionalizm, pessimizm, buddizm, san’at, she’riyat, darveshlik, o‘limga munosabat, subyekt, obyekt.*

***Abstract:*** *This article explores some aspects of the non-classical, irrational philosophy of the renowned German philosopher Arthur Schopenhauer. Schopenhauer famously saw absolute will, unconscious in nature, as the basis of the world. This will manifests itself both in nature and in human society. Reflected in human consciousness, absolute will is objectified, becoming the subject and object of knowledge, uniting into a single whole.*

***Key words****: irrationalism, imagination, will, absolute will, rationalism, pessimism, Buddhism, art, poetry, dervishism, attitude to death, subject, object.*

***Аннотация:*** *В данной статье раскрываются некоторые стороны неклассической, иррациональной философии известного немецкого философа Артура Шопенгауэра. Как известно, Шопенгауэр видел в основе мира абсолютную волю, имеющую бессознательный характер. Она проявляется как в природе, так и в человеческом обществе. Отражаясь в сознании человека абсолютная воля объективируется, она становится субъектом и объектом познания, соединяясь в единое целое.*

***Ключевые слова:*** *иррационализм, воображение, воля, абсолютная воля, рационализм, пессимизм, буддизм, искусство, поэзия, дервишизм, отношение к смерти, субъект, объект.*

**Kirish.** Nemis klassik falsafasining barcha vakillaridan faqat Kant Shopengauerning maqtoviga loyiq edi. Aflotun singari Shopengauer uni ham ustozi deb atagan. Kantning asosiy yutug‘i haqiqatni noumenlar dunyosiga va hodisalar dunyosiga bo‘lishdir. Kantning ta’limotida inson faqat sabab-oqibat munosabatlari hukm suradigan o‘z g‘oyalari dunyosi bilan shug‘ullanadi. Ammo hodisalar deb ataladigan insoniy tushunchalar tizimining orqasida “narsa o‘zida” yoki noumen dunyosi bor. Noumenlar haqida odam hech qachon hech narsani bilmaydi. Biroq, Kantdan farqli o‘laroq, Shopengauer yashirin noumenal mavjudotni tushunish mumkin deb hisoblaydi. Shopengauer ta’limotida bu mutlaq iroda, koinotning ko‘r va asossiz prinsipi [1].

Shopengauer fikricha, “irodani obyektivlashtirishning eng past bosqichi har bir masalada topilgan tabiatning eng umumiy kuchlaridir.

Bu, birinchi navbatda, og‘irlik, o‘tkazuvchanlik, keyin qattiqlik, suyuqlik, elektr, magnitlanish, kimyoviy xususiyatlar va boshqalar”. Inson faoliyati singari, ular ham birlamchi va asossiz bo‘lib, barcha sabablar va barcha harakatlarning shartidir. Iroda obyektivligining yuqori darajalarida shaxsda xarakterga ega bo‘lgan individuallik namoyon bo‘ladi. Noorganik tabiat bosqichida shaxslar yo‘q, lekin uning barcha hodisalari tabiatning universal kuchlarining namoyonidir. Bu yerda tabiat qonunlari ustunlik qiladi, ularning xatosizligi bizni qandaydir qo‘rquvga olib keladi. Tabiat qonunlari deganda g‘oyaning uning namoyon bo‘lish shakliga munosabati tushuniladi.

**Adabiyotlar tahlili.** A. Shopengauer hamma narsaning bu yerda va hozir mavjud bo‘lishining sababi borligiga alohida e’tibor beradi. “Ammo dunyoda hech bir narsaning so‘zsiz yoki umuman mavjudligiga sabab yo‘q”. Shuning uchun har bir sabab tasodifiy sababdir. Shopengauerning falsafasida odam va dunyo bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, u inson haqida xuddi shunday fikrni bildiradi. Ma’lum bo‘lishicha, “motivlar insonning xarakterini emas, balki uning xarakterining namoyon bo‘lishini, ya’ni harakatlarini, hayot maydonining ko‘rinishini belgilaydi, uning ichki ma’nosi va mazmunini emas: ikkinchisi irodanning bevosita namoyon bo‘lishi bo‘lib xizmat qiladigan xarakterdan kelib chiqadi, ya’ni, asossiz. ‘Nima uchun bir kishi g‘azablansa, boshqasi mehribon bo‘lishi motivlarga yoki tashqi ta’sirlarga bog‘liq emas... Va bu ma’noda bu mutlaqo tushunarsizdir” [2].

Shunday qilib, Shopengauer Lokk va fransuz materialistlarining fikrini rad etadi. Ularning fikriga ko‘ra inson atrof-muhit mahsuli, tarbiya, nazariy yoki estetik tarbiya natijasidir va hokazo. Har bir insonning xarakteri, uning o‘ziga xos fazilatlari va illatlari kabi tug‘ma. Uning fikricha, har bir shaxsning mohiyati boshidanoq belgilanadi va irodadan kelib chiqadigan mantiqsiz, tushunarsiz narsani ifodalaydi, uning namoyon bo‘lishi u yoki bu shaxsdir. Bu nuqtayi nazar klassik falsafaning insonni asosan oqilona mavjudot sifatida tushunishiga qarshi reaksiya bo‘lib, mistik an’ana bilan bir vaqtda buziladi, chunki unda diniy element yo‘q. U XIX-XX asrlarda insonning falsafiy tushunchasini aniqlaydigan yangi, irratsionalistik an’anaga asos solidi[3].

Tabiat va uning hodisalarida mujassam bo‘lgan irodaga kelsak, Shopengauer rivojlanish g‘oyasiga begona bo‘lsa-da, u dialektikaning bitta elementini qabul qildi: butun mavjudotning qutbli qarama-qarshiliklarga parchalanishi va ularning kurashi. “Qutblilik, - deydi Shopengauer, - magnit va kristallardan tortib odamlargacha bo‘lgan deyarli barcha tabiiy hodisalarning asosiy turi”. U ushbu tezisning tan olinishiga qadimgi Xitoy falsafasi, Kabala, shelengchilik va Yakob Byome ishora qiladi. Shopengauerning tabiat haqidagi qarashlari mexanik emas, balki organik bo‘lgani uchun, borliqning bifurkatsiyasi va qarama-qarshiliklar kurashi g‘oyasi uning falsafasida asosiy o‘rin oladi. Avvalo, u tabiatda irodani obyektivlashtirishning yuqori shakllarining pastki qismlarga qarshi kurashini ko‘radi. “Shunday qilib, tabiatning hamma joyida biz raqobat, kurash, g‘alabaning o‘zgaruvchanligini va bu irodani o‘ziga xos bo‘linishini ko‘ramiz. Irodani obyektivlashtirishning har bir bosqichi materiya, makon, vaqtni boshqasidan ajratib turadi...”. Bu raqobatni butun tabiat orqali kuzatish mumkin va hatto u tufayli ham mavjud: “Agar narsalarda kurash bo‘lmaganida, Empedokl aytgandek, ularning barchasi bitta bo‘lar edi... Axir, raqobatning o‘zi faqat irodaga xos bo‘lgan o‘z-o‘zini taqsimlashning namoyonidir...” [4].

Klassik o‘tmishdoshlari yordamida hamma narsaning dialektikasini anglab yetgan va tabiatda uning son-sanoqsiz dalillari mavjudligiga amin bo‘lgan Shopengauer uni faqat bo‘linish irodasining so‘nggi manbai sifatida o‘ziga xos xususiyat sifatida tan olishi mumkin edi. Shopengauer bu bo‘linishni va irodani obyektivlashtirishning barcha bosqichlarida undan kelib chiqadigan kurashni kuzatishga intiladi. Organik tabiatda iroda yashash irodasi xarakterini oladi va unda kurash kishilik jamiyatigacha sodir bo‘ladi: “Insoniyat boshqalar ustidan g‘alaba qozonib, tabiatda o‘z iste’moli uchun fabrikani ko‘radi; lekin bu ham ravshanlik bilan u o‘zida xuddi shu kurashni, irodani o‘z-o‘zini yo‘q qilishni namoyon qiladi va homo homini lupusga aylanadi”. Agar pastki bosqichda iroda o‘zini ko‘r-ko‘rona jalb qilish, qorong‘u impuls sifatida namoyon qilsa, unda irodanning obyektivligining yuqori darajalarida rivojlanayotgan shaxslar o‘zlarining hayotiy intilishlarini yashash irodasini amalga oshirish uchun bilimga muhtoj bo‘lib, ularga maqsadga muvofiq tanlov qilishga imkon beradi. Shunday qilib, “bilish shaxsni saqlash va nasl berish uchun yordamchi vosita sifatida paydo bo‘ladi”. Bu maqsadga birinchi navbatda miya xizmat qiladi. Ammo bu yordamchi vosita bilan bir qatorda, dunyo darhol o‘zining barcha shakllari, obyekti va predmeti, vaqti, makoni, ko‘pligi bilan vakillik sifatida paydo bo‘ladi. “Dunyo endi boshqa tomonini ko‘rsatmoqda. Hozirgacha u faqat iroda edi; endi u ham vakillik, bilish subyektining obyektiga aylanadi”. Shu bilan birga, irodaning tabiati

va uning faoliyati o‘zgarmoqda. Ilgari iroda ko‘r-ko‘rona harakat qildi, ammo shubhasiz; endi uning beg‘ubor ishonchi tugaydi. “Hayvonlar allaqachon arvohlar va yolg‘onga moyil”. Irodani obyektivlashtirishning eng yuqori bosqichida aks ettirish yoki “mavhum tushunchalar yig‘indisi sifatida sabab” allaqachon odamda paydo bo‘ladi. Bu yerda o‘z sohasida xatosiz instinkt hodisalar ortasiga o‘tadi va o‘z qarorlarini muhokama qilish, aks ettirish va ong shunday paydo bo‘ladi. Iroda topilmalarining ishonchi va xatosizligi deyarli butunlay yo‘qoladi, aks ettirish noaniqlik va ikkilanishni keltirib chiqaradi va aldanish mumkin bo‘ladi, bu ko‘p hollarda harakatlarda irodani yetarli darajada obyektivlashtirishga to‘sqinlik qiladi. Shunday qilib, Shopengauerning asosiy g‘oyasi shundaki, bilim, vaqti-vaqti bilan qilgan xatolariga qaramay, o‘z tabiatiga ko‘ra irodaga xizmat qilish, maqsadlariga erishish uchun mo‘ljallangan. Bu barcha hayvonlar va ko‘pchilik odamlarda uchraydi. Biroq, bashorat qilib, Shopengauer “ba’zi odamlarda bilim bu rasmiy roldan ozod qilinishi, bo‘yinturug‘ini sindirishi va har qanday istak maqsadlaridan xoli bo‘lib, san’at paydo bo‘ladigan dunyoning yorqin oynasi sifatida hukmronlik qilishi mumkin”, deb ta’kidlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bilim insonga omon qolish uchun kurashda xizmat qiladi, bilim kuchdir, degan fikr Shopengauerdan ancha oldin bildirilgan va xususan, zamonaviy falsafa asoschilari Bekon va Dekartning chuqur ishonchi edi. Biroq, klassik falsafada ushbu xizmat funksiyasi ikkinchi darajali deb hisoblangan va atrofimizdagi dunyo haqidagi haqiqatga erishishdan kelib chiqqan. Faqat haqiqiy bilim odamlarga muvaffaqiyatli xizmat qilishi va fanning maqsadi faqat uni egallash bo‘lishi mumkinligiga zarracha shubha yo‘q edi. XIX asrda ilmiy kashfiyotlardan tobora ko‘proq amaliy va sanoat maqsadlarida foydalanish tufayli fanning instrumental jihati tobora ko‘proq birinchi o‘ringa chiqmoqda. Biz qanchalik uzoqqa borsak, fan nimani bilishiga emas, balki u nima qila olishiga va qanday amaliy vazifalarga mos kelishiga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Ilm-fanning jamoatchilik fikridagi obrazi tobora ortib borayotgan darajada ushbu instrumental jihatga asoslanadi. Ilm-fanning kognitiv jihati qayerdadir ikkinchi darajaga o‘tadi yoki hatto sof mafkuraviy mulohazalar ta’siri ostida butunlay e’tiborga olinmaydi. Biroq, bularning barchasi ancha keyin sodir bo‘ladi. Bunday o‘zgarishning ehtimoli fanning ijtimoiy funksiyasi va rolida yotadi. Bu holat fikri ko‘plab yo‘nalishlar bo‘ylab harakatlanishga qodir bo‘lgan faylasufga shunday burilishlarni kutishga imkon beradi. Biz allaqachon ko‘rganimizdek, Shopengauer bilan bir qator holatlarda aynan shunday bo‘lgan. Shopengauer bilishning instrumental, xizmat jihatini ta’kidlab, burjua falsafasi yarim asrdan ko‘proq vaqt o‘tgach bosib o‘tgan yo‘lni belgilab berdi [5].

Ikkinchi kitobning yakunida Shopengauer irodani dunyoning metafizik mohiyati yoki uning “o‘z-o‘zidan narsa” sifatida tavsiflash uchun bir nechta qo‘shimcha tahlillarni qo‘shadi. “U XVII-XVIII asrlar g‘oyalaridan birini ifodalaydi: tabiatda zinapoyaning mavjudligi haqida, u orqali irodani yuqori obyektiv belgilarining pastki qismlarga universal zaruriy bog‘liqligini tushunish: insonga hayvonlar, hayvonlarga o‘simliklar, o‘simliklarga tuproq, suv, kimyoviy birikmalar va hatto sayyora, quyosh va boshqalar kerak”. “Aslida, - deydi Shopengauer, - buning sababi iroda o‘zini yutib yuborishi kerak, chunki undan boshqa hech narsa yo‘q va bu och iroda. Shuning uchun izlanish, sog‘inch va azob”.

**Xulosa.** Shopengauer tabiatning barcha mavjudotlarining hayratlanarli o‘xshashligi, ularni bir xil o‘zgarishlarni ko‘rishga majbur qiladigan oilaviy o‘xshashlik haqida gapiradi, ularning ma’nosi tabiatning barcha organik mavjudotlarining shubhasiz maqsadga muvofiqligida ifodalanadi. Bularning barchasida u iroda birligining dalillarini ko‘radi. “Bu yigirmanchi asrda fanning gumanistik ma’nosi haqida savol tug‘ilgunga qadar sodir bo‘ladi. Ma’lumki, bu ibora marhum Vitgenshteyn tomonidan tilni tushunishda o‘ziga xos ma’noga ega bo‘ldi. Tabiatning barcha qismlari bir-biri bilan birlashadi, chunki ularning barchasida bitta iroda namoyon bo‘ladi”. Shunday qilib, Shopengauer dunyoning birligini uning moddiyligida emas, balki unga singib ketgan irodada ko‘radi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Шопенгауэр А. Мир как воля и представление. - Москва: Эксмо, 2025. - С. 136.
2. Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. - Т.: Шарқ, 2002. - 720 б.
3. Нарский И.С. Западноевропейская философия XIX века. - М.: Высш. шк., 1976. - 584 с.
4. Йўлдошев С., ва бошқалар. Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси. - Т.: Шарқ, 2002. - 120 б.
5. Зотов А.Ф.,Мельвиль Ю.К. Западная философия XX века. - М.: Проспект, 1998. - 432 с.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 1:323.28

# РАДИКАЛИЗМ ЖАМИЯТ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ИНСОН ХАВФСИЗЛИГИГА ЖИДДИЙ ТАҲДИДДИР

***Ахмедова Муборак, Тошкент давлат тиббиёт университети доценти***



# RADICALISM AS A SERIOUS THREAT TO SOCIAL STABILITY AND HUMAN SECURITY

***Akhmedova Muborak, Associate Professor of Tashkent State Medical University***

***https://orcid.org/0009-0000-3599-1658***

***e-mail: axmedovamuborak@gmail.com***

# РАДИКАЛИЗМ КАК СЕРЬЁЗНАЯ УГРОЗА ОБЩЕСТВЕННОЙ СТАБИЛЬНОСТИ И БЕЗОПАСНОСТИ ЧЕЛОВЕКА

***Ахмедова Муборак, доцент Ташкентского государственного медицинского университета***

***Аннотация:*** *Мақолада ҳозирги кунда жамиятда радикализмнинг шаклланиш омиллари, унинг ижтимоий-сиёсий хавфлари ҳамда радикал ғояларга қарши курашишнинг самарали метод ва технологиялари илмий-назарий жиҳатдан таҳлил қилинган. Шунингдек, диний радикализм, мутаассиблик, экстремизм ва терроризм ўртасидаги ўзаро боғлиқлик очиб берилган. Халқаро ва минтақавий тажрибалар асосида радикализмга қарши курашда давлат институтлари, фуқаролик жамияти ва маънавий-маърифий омилларнинг аҳамияти асослаб берилган.*

***Калит сўзлар:*** *радикализм, экстремизм, терроризм, мутаассиблик, миллий хавфсизлик, маънавият, профилактика.*

***Abstract:*** *The article provides a scientific and theoretical analysis of the factors contributing to the emergence of radicalism in contemporary society, its socio-political threats, and effective methods and technologies for countering radical ideologies. The relationship between religious radicalism, fanaticism, extremism, and terrorism is examined. Based on international and regional experience, the role of state institutions, civil society, and spiritual-educational factors in combating radicalism is substantiated.*

***Key words:*** *radicalism, extremism, terrorism, fanaticism, national security, spirituality, prevention.*

***Аннотация:*** *В статье проводится научно-теоретический анализ факторов формирования радикализма в современном обществе, его социально-политических угроз, а также эффективных методов и технологий противодействия радикальным идеологиям. Раскрывается взаимосвязь религиозного радикализма, фанатизма, экстремизма и терроризма. На основе международного и регионального опыта обосновывается роль государственных институтов, гражданского общества и духовно-просветительских факторов в борьбе с радикализмом.*

***Ключевые слова:*** *радикализм, экстремизм, терроризм, фанатизм, национальная безопасность, духовность, профилактика.*

**Кириш.** Бугунги глобаллашув шароитида радикализм, экстремизм ва терроризм инсоният хавфсизлигига жиддий таҳдид солаётган ижтимоий-сиёсий ҳодисалардан бирига айланди. Айниқса, диний ниқоб остида амалга оширилаётган радикал ҳаракатлар

жамият барқарорлиги, миллатлараро тотувлик ва давлат хавфсизлигига салбий таъсир кўрсатмоқда. Шу боис радикализмнинг моҳияти, унинг келиб чиқиш сабаблари ҳамда унга қарши курашишнинг замонавий усулларини илмий асосда ўрганиш долзарб аҳамият касб этади.

Инсоният тамаддуни турли маънавий инқирозлар ва мафкуравий таҳдидлар билан юзма-юз келмоқда. Дунё харитасида беқарорлик ўчоқлари кўпайиб, экстремизм ва радикализм каби иллатлар чегара билмас хавфга айланаётган бир пайтда, миллий ўзликни англаш ва аждодлар меросига содиқлик масаласи ҳар қачонгидан ҳам долзарб аҳамият касб этмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ўзининг маърузаларида ушбу масалага алоҳида тўхталиб, маърифат ва жаҳолат ўртасидаги фарқни қуйидаги ҳаққоний ва оғриқли савол орқали ифодалайди: “Бутун дунёда кучайиб бораётган радикализм, экстремизм, терроризм, одам савдоси, гиёҳвандлик каби хатарлар, афсуски, бизни ҳам четлаб ўтмаяпти. Лекин такрор айтаман, мусулмон умматига сабоқ берган Имом Бухорий, Имом Термизий, Имом Мотуридий каби буюк уламолар етишиб чиққан бизнинг диёримизда бу борада адашганлар, радикализм ва экстремизм ғояларига берилганлар бўлиши мумкинми?” Радикализм муайян ғоя ёки мақсадни муросасиз, кескин усуллар орқали амалга оширишга интилишни ифода этади. У умумэътироф этилган миллий, маънавий ва демократик қадриятларни инкор қилиб, зўравонлик ва босимни асосий восита сифатида қўллайди. Радикализмнинг сиёсий, диний ва ижтимоий кўринишлари мавжуд бўлиб, уларнинг барчаси жамият барқарорлигига таҳдид солади[1].

«Радикализм» тушунчаси (лотинча radix — «томир», «илдиз» сўзидан олинган) мавжуд ижтимоий-сиёсий тартибни тубдан, кескин ва муросасиз усуллар билан ўзгартиришга интилишни англатади. Шуни таъкидлаш жоизки, радикализм муайян бир оқим ёки гуруҳнинг номи эмас, балки сиёсий вайронкорликни мақсад қилган ҳар қандай ҳаракатнинг умумий тавсифидир. Радикализм тушунчаси вақт ўтиши билан ўзгариб борган. Масалан, XIX асрда Буюк Британияда «Ислоҳотлар тўғрисидаги Билл» (1832) тарафдорлари бўлган либерал ислоҳотчилар ҳам ўз даврининг мухолифлари томонидан «радикаллар» деб аталган.

**Тадқиқот методологияси**. Бугунги кунда радикализм жамиятда умумэътироф этилган бунёдкор анъаналарни, азалий қадриятларни ва миллий маданиятни инкор этиб, ўз мақсадига фақат кескин ҳаракатлар орқали эришишни ёқлайдиган кучлар фаолияти сифатида баҳоланади.

Радикализмнинг кўринишлари ва мақсадлари ранг-баранг бўлиши мумкин (диний, сиёсий, миллий ва ҳ.к.), бироқ уларнинг барчаси учун қуйидаги жиҳатлар хосдир:

-Мафкуравий муросасизлик: Ўз ғояларини амалга ошириш йўлида ҳеч қандай мулоқот ёки босқичма-босқич ислоҳотларни тан олмайдилар.

-Ижтимоий таҳдид: Давлат ва ижтимоий институтларнинг барқарор фаолиятига хавф солувчи ҳар қандай ҳаракат радикал кайфиятдаги оқимлар фаолияти сифатида таснифланади.

-Қадриятларни инкор этиш: Улар жамиятнинг тинч-тотув яшашини таъминловчи инсонпарварлик ва бағрикенглик тамойилларини вайрон қилишга интиладилар. Агар мутаассиблик шахснинг ички маънавий деформацияси (бузилиши) бўлса, радикализм ушбу деформациянинг жамиятда вайронкор ҳаракат сифатида намоён бўлишидир. Радикализм жамият ҳаётида турли шаклларда намоён бўладиган мураккаб ижтимоий-сиёсий ҳодиса ҳисобланади. У муайян ғоя ёки мақсадни кескин, муросасиз усуллар орқали амалга оширишга интилиш билан характерланади. Радикализм сиёсий, диний ва илмий-мафкуравий кўринишларда намоён бўлиб, ҳар бир тури жамият барқарорлиги ва инсон хавфсизлигига жиддий таҳдид солади [2].

Сиёсий радикализм, одатда, мавжуд сиёсий тузум ва институтларни инкор этиш, уларни зўравонлик ёки босим йўли билан

TAMADDUN NURI

ўзгартиришга уринишда ифодаланади. Илмий-мафкуравий радикализм эса муайян ғоя ёки назарияни мутлақ ҳақиқат сифатида илгари суриб, бошқа қарашларни рад этиш орқали намоён бўлади. Диний радикализм эса динни ниқоб қилиб, сиёсий ҳокимиятни қўлга киритиш, жамиятни ўз қарашларига бўйсундиришга интилиш билан тавсифланади. Радикализмнинг ҳар қандай кўриниши инсоният учун улкан хавф туғдиради. У миллатидан, динидан ёки сиёсий қарашларидан қатъи назар, инсон ҳаёти ва жамият тараққиётига салбий таъсир кўрсатади, ижтимоий муносабатларни издан чиқаради ва айрим ҳолларда минглаб бегуноҳ инсонларнинг ҳалок бўлишига сабаб бўлади. Радикал тафаккур эгалари, одатда, ўз дунёқарашига, ҳаёт тарзига ва принципларига мос келмайдиган ҳар қандай фикр ёки ғояни кескин рад этади. Улар ўз йўлини ягона тўғри йўл деб ҳисоблаб, бошқаларни адашган, нотўғри йўлда юрувчилар сифатида баҳолайди. Бундай шахслар ўзгача фикрлайдиганларга нисбатан муросасиз муносабатда бўлиб, зарур ҳолларда бошқаларни мажбурлаш орқали ҳам ўз ғояларини қабул қилдиришга ҳаракат қиладилар[3].

Шу жиҳатдан радикализм демократия ва толерантлик ғояларига мутлақо зиддир. Чунки, унинг асосий моҳияти инсон эркинлигини чеклаш, бошқаларнинг танлаш ҳуқуқини инкор этиш ёки унга зўравонлик орқали таъсир кўрсатишдан иборат. Радикал шахслар, одатда, тоқатсиз бўлгани сабабли улар билан мулоқот қилиш, фикр алмашиш ёки дунёқарашини ўзгартириш жуда қийин кечади [5,6].

Бугунги кунда айнан шу каби ғоялар радикализм ва гедонизм билан уйғун ҳолда тарғиб этилмоқда. Улар инсон хоҳиш-истакларига чеклов қўймаслик, ижтимоий муаммоларни ҳал этишда зўравонликни қўллашни оқлашга уриниб, кучни мақсадга эришишнинг энг осон воситаси сифатида кўрсатади. Шу сабабли замонавий радикализм тинч йўл билан ҳал этилиши мумкин бўлган масалаларда ҳам зўравонлик ва босим усулларини қўллашга интилади, бу эса жамиятда беқарорлик ва ижтимоий тангликнинг янада кучайишига олиб келади. Радикализмнинг ўзига хос хусусиятларидан бири ижтимоий ва сиёсий муаммоларни ҳал этишда куч ишлатиш, зўравонлик ва мажбурлаш усулларига мойилликнинг нафақат ижтимоий заиф қатламлар, балки ақлий меҳнат вакиллари ва зиёлилар орасида ҳам кенгайиб бораётганидир. Кўплаб ҳолларда иқтисодий инқирозлар, ишсизлик, ижтимоий тенгсизлик ҳамда маънавий бўшлиқ зиёлилар орасида ҳам руҳий қониқмаслик ва ижтимоий норозилик кайфиятининг кучайишига сабаб бўлди [7]. Иқтисодий инқирознинг узоқ давом этиши, ижтимоий пасайиш ва маънавий таназзул билан бирга кечган шароитда интеллектуал элита орасида люмпенлашув жараёнлари кучаяди. Люмпенлашув шахснинг мулкий, ижтимоий ва маънавий таянчларини йўқотиши билан ифодаланади. Бу ҳолат инсоннинг ҳаётдаги реал қадриятлардан узоқлашувига, жамиятда ўз ўрни ва аҳамияти борлиги ҳақидаги ҳиссиётдан маҳрум бўлишига олиб келади. Люмпенлашув инсонни барқарор ҳаётий қадриятлардан узиб қўяди ва уни ёт ҳамда вайронкор ғоялар таъсирига мойил ҳолатга келтиради. Ана шундай шароитларда ҳатто илмий ва интеллектуал соҳада фаолият юритувчи шахслар ҳам радикал кайфиятларнинг ташувчисига айланиши мумкин [8].

Радикализм ва экстремизмга қарши самарали курашиш комплекс ёндашувни талаб этади. Бунда сиёсий, ҳуқуқий, мафкуравий, илмий ва халқаро чора-тадбирлар уйғун ҳолда амалга оширилиши лозим. Дарҳақат, фақатгина куч ишлатишга асосланган бирёқлама усуллар барқарор натижа бермайди. Шу боис профилактика ишлари, мафкуравий қарши таъсир ва халқаро ҳамкорлик масалалари тобора муҳим аҳамият касб этмоқда. Марказий Осиё давлатлари учун диний радикализмга қарши курашиш бўйича комплекс минтақавий дастурларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш алоҳида аҳамиятга эга.

Радикализмнинг олдини олишда ёш авлод тарбияси алоҳида ўрин тутади. Классик исломий манбаларда ота-онанинг фарзанд тарбиясидаги масъулияти алоҳида таъкидланади. Жумладан, машҳур мутафаккир Ҳусайн Воиз Кошифий «Ахлоқи муҳсиний» асарида бола Аллоҳ томонидан берилган

омонат эканини ва ота-она бу омонат учун жавобгар эканини қайд этади. У фарзандни тўғри тарбиялаш, муносиб исм қўйиш, мўътадил характерни шакллантириш, ахлоқий поклик ва атрофдагиларга нисбатан хушмуомалаликни ривожлантириш муҳимлигини таъкидлайди. Бундай ёндашув ёшларни деструктив ғоялар таъсирига тушиб қолишидан асрайди [9].

Жамиятнинг радикал мафкурага қарши бардошлилигини таъминловчи асосий омиллардан бири - мустақил ва танқидий фикрлаш қобилиятини ривожлантиришдир. Мустақил фикрга эга инсон ахборотни чуқур таҳлил қила олади, ҳақиқатни ёлғондан ажратади ва экстремистик тарғиботнинг манипулятив таъсирига қарши тура олади. Танқидий фикрлаш шахснинг ҳиссий ва мафкуравий провокацияларга берилмаслигига, зўравонлик ва мутаассибликка онгли равишда қарши чиқишига ёрдам беради.

Хулоса қилиб айтганда, радикализм жамият ва давлат барқарорлигига жиддий таҳдид солувчи, турли вайронкор кураш ва бузғунчи ҳаракатларнинг илдизида ётувчи хавфли ижтимоий-сиёсий ҳодисадир. У нафақат мавжуд ижтимоий тизимни издан чиқаради, балки миллий тараққиётга, маънавий баркамолликка ва жамиятнинг бир бутунлигига путур етказади. Шу боис радикал ғояларга берилмаслик, уларнинг таъсирига тушиб қолмаслик ва айниқса, ёш авлодни бундай мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қилиш ҳар бир жамият аъзосининг муҳим вазифаси ҳисобланади.

**Хулоса.** Радикализмнинг ҳар қандай шакли, у диний, сиёсий ёки мафкуравий тусда бўлишидан қатъи назар, миллий ва диний қадриятлар илдизига зарба беради, жамиятда ишончсизлик ва адоват муҳитини юзага келтиради, турли низо ва нотинчликларга сабаб бўлади. Бундай жараёнлар эса жамиятни инқироз сари етаклаб, унинг барқарор ривожланишини издан чиқаради.Шу нуқтаи назардан, буюк аждодларимиз томонидан илгари сурилган ҳар бир ишда ўртамиёналик, мувозанат ва ақл-идрокка таяниш ғояси бугунги кунда ҳам алоҳида аҳамият касб этади. Улар инсонни кескинлик, мутаассиблик ва фанатизмдан асраб, тинч-тотув ва осойишта ҳаётга ундайди. Зеро, ўртамиёналик - барқарор жамият, маънавий камол ва бахтли ҳаётнинг энг муҳим гаровидир.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**


1. “Терроризмга қарши кураш тўғрисида” Қонун. Токент. 2000 й.15 декабрь.
2. “Экстремизмга қарши кураш тўғрисида” Қонун. Токент 2018 й. 30 июль.
3. “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида” Қонун. Тошкент. 2021й. 5 июль.
4. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон-2030 стратегияси.-Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
5. Ниязов Н.С. Ёшлар онгида мафкуравий иммунитетни шакллантириш.- Тошкент: Янги аср авлоди, 2021.
6. Султонов Д.Д. Мафкуравий таҳдидлар ва миллий хавфсизлик.- Тошкент: Akademnashr, 2020.
7. Воиз Кошифий Ҳусайн. Ахлоқи Муҳсиний.- Тошкент: Фан, 1994.
8. Шанхай ҳамкорлик ташкилоти. Терроризм, сепаратизм ва экстремизмга қарши кураш тўғрисидаги Шанхай конвенцияси.- Шанхай, 2001 йил 15 июнь.
9. Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги. Терроризм ва экстремизмга қарши курашда ҳамкорлик концепцияси.- Қозон, 2005 йил 26 август.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 1:323.28

# БУГУНГИ ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МАФКУРАВИЙ ЖАРАЁНЛАР ВА МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАР

***Ахмедова Муборак, Тошкент давлат тиббиёт университети доценти***

# IDEOLOGICAL PROCESSES AND SPIRITUAL THREATS IN THE CONTEXT OF CONTEMPORARY GLOBALIZATION

***Akhmedova Muborak, Associate Professor of Tashkent State Medical University***

# ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ И ДУХОВНЫЕ УГРОЗЫ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

***Ахмедова Муборак, доцент Ташкентского государственного медицинского университета***

***https://orcid.org/0009-0000-3599-1658***
***e-mail: axmedovamuborak@gmail.com***

***Аннотация:*** *Мақолада глобаллашув даврида жаҳонда кечаётган сиёсий-мафкуравий жараёнлар, уларнинг миллий давлатлар барқарорлиги ва жамият маънавий ҳаётига таъсири илмий-назарий жиҳатдан таҳлил қилинган. Шунингдек, мафкуравий таҳдидлар, мутаассиблик, ахборот маконидаги курашлар, "рангли инқилоб"лар феномени ҳамда уларга қарши миллий ғоя ва мафкуранинг ўрни очиб берилган. Муаллиф томонидан мазкур жараёнларга қарши мафкуравий иммунитетни шакллантиришнинг илмий асослари асослаб берилган.*

***Калит сўзлар:*** *глобаллашув, мафкуравий таҳдид, миллий ғоя, миллий мафкура, мутаассиблик, ахборот хавфсизлиги, маънавият.*

***Abstract:*** *The article provides a scientific and theoretical analysis of contemporary ideological processes in the context of globalization and their impact on the stability of national states and the spiritual life of society. Particular attention is paid to ideological threats, the phenomenon of fanaticism, information and ideological confrontation, as well as the features of so-called "color revolutions." The role of national ideas and ideology in forming a stable ideological immunity of society is substantiated.*

***Key words:*** *globalization, ideological threat, national idea, national ideology, fanaticism, information security, spirituality.*

***Аннотация:*** *В статье проводится научно-теоретический анализ современных идеологических процессов в условиях глобализации и их влияния на устойчивость национальных государств и духовную жизнь общества. Рассматриваются идеологические угрозы, феномен фанатизма, информационно-идеологическое противоборство, а также особенности так называемых "цветных революций". Обосновывается роль национальной идеи и идеологии в формировании устойчивого идеологического иммунитета общества.*

***Ключевые слова:*** *глобализация, идеологическая угроза, национальная идея, национальная идеология, фанатизм, информационная безопасность, духовность.*

**Кириш.** Ҳозирги глобаллашув даври жаҳон миқёсида мафкуравий қарама-қаршиликлар кескинлашаётган, ахборот ва ғоялар кураши давлатлар хавфсизлигига бевосита таъсир кўрсатаётган мураккаб ижтимоий-сиёсий босқич сифатида намоён бўлмоқда. Миллатлараро ва динлараро муносабатлардаги кескинлик, экстремистик ғоялар ва радикал қарашларнинг тарқалиши жамият барқарорлигига жиддий таҳдид солмоқда. Шу сабабли мазкур мақолада глобал мафкуравий жараёнларнинг моҳияти ва уларнинг ижтимоий-маънавий оқибатларини илмий таҳлил қилиш долзарб ҳисобланади [1].

**Асосий матн.** Глобаллашув (лот, globus – “шар”, “Ер сайёраси”, ингл. globalization – “оммалашув”) – XX асрнинг иккинчи ярми ва XXI аср бошларида шаклланган, давлатлар, миллатлар ва маданиятлар ўртасида иқтисодий, сиёсий, ахборот ҳамда маданий алоқаларнинг чуқурлашуви билан тавсифланадиган умумсайёравий жараёндир. Глобаллашув жараёнида техник ва ахборот технологияларининг жадал ривожланиши натижасида инсониятнинг жамият ҳаётининг тули соҳаларида ўзаро боғлиқлиги кучайди.

Бироқ глобаллашув жараёнида фақат ижобий натижалар билан чекланиб қолмасдан, айрим ҳолларда миллий манфаатлар ва қадриятларнинг инкор этилиши, маданий бирхилликнинг шаклланиши каби салбий ҳолатларни ҳам юзага келтирмоқда [2].

Ҳозирги давр дунё ғоявий қарама-қаршиликлар мураккаб тус олган, мафкура полигонлари ядро полигонларидан ҳам кучлироқ бўлиб бораётган даврдир. Бутун ер юзи одамзод учун ягона макон ҳисобланади. Аммо тарихда мавжуд чегараларни ўзгартириш, муайян ҳудудларни босиб олиш учун сон-саноқсиз урушлар бўлган. Бу жараёнда эса уруш қуроллари мунтазам такомиллашиб борган. Мазкур урушлар то XX асргача асосан кўпроқ бир ё икки давлат ёхуд минтақа ўртасида бўлган. Халқаро муносабатларда айрим давлатлар томонидан “демократияни олға суриш” шиори остида амалга оширилаётган сиёсий ҳаракатлар ички ишларга аралашув, сиёсий беқарорлик ва қуролли тўқнашувларни келтириб чиқармоқда. Бу жараёнлар халқаро ҳуқуқ меъёрларига зид бўлиб, глобал тинчлик ва хавфсизликка салбий таъсир кўрсатмоқда. Дунёда муаммоларни ҳал этиш учун куч ишлатиш тенденциясидан ҳамон воз кечилгани йўқ. Ғаразгўй кимсалар гуруҳи томонидан юзага келтирилаётган низолар давлатлараро можароларга айланиб кетмоқда. Натижада, сайёрамиздаги уруш ўчоқлари ўчмаяпти, аксинча, янгилари пайдо бўлмоқда [3].

Глобаллашув шароитидаги энг хавфли омиллардан бири маънавий таҳдидлар ҳисобланади. Улар тил, дин ва маданият танламасдан, инсон онги ва руҳий дунёсига таъсир ўтказади. Мутаассиблик эса муайян ғоя ва ақидаларни мутлақ ҳақиқат сифатида қабул қилиш орқали шахс тафаккурини чеклаб қўяди ва жамиятда бағрикенглик муҳитига путур етказади.

Маънавий таҳдидларнинг хусусиятлари ҳамда салбий оқибатлари шундан иборатки, у: тил танламайди, дин танламайди, эътиқод танламайди. Инсон эркинлигига дахл қилади, инсон руҳий дунёсини издан чиқаради, мақсадли амалга оширилади [4].

Бугунги глобаллашув ва ахборот хуружи авж олган даврда халқаро сиёсат майдонида “рангли инқилоб” тушунчаси энг долзарб ва зиддиятли мавзулардан бирига айланди. Ушбу феномен оддий оммавий намойишлар чегарасидан чиқиб, замонавий технологиялар ва ижтимоий тармоқлар воситасида давлат бошқарувини ўзгартиришнинг куч ишлатилмайдиган, аммо стратегик жиҳатдан пухта ўйланган механизмига айланди. Қуйида «рангли инқилоб» тушунчасининг мазмун-моҳияти, унинг тарихий босқичлари ва бу жараёнларда Интернетнинг тутган ўрнини батафсил таҳлил қиламиз.

“Рангли инқилоб” атамаси, биринчи навбатда, маҳаллий аҳоли томонидан уюштирилган оммавий кўча намойишлари ва фуқаролик тартибсизликларини англатади. Ушбу жараёнлар одатда ҳарбийларнинг бевосита иштирокисиз содир бўлади, бироқ аксарият ҳолларда сиёсий режим ёки элитанинг алмашинуви билан якунланади. Бунга мисол қилиб, 2003 йил Грузиядаги “Атиргуллар инқилоби”; 2004 йил Украинадаги “Зарғалдоқ ранг инқилоб”; 2005 йил Қирғизистондаги “Лолалар инқилоби”; 2006 йил Белоруссиядаги

TAMADDUN NURI

инқилобга уриниш; 2008 йил Арманистондаги рангли инқилобга уриниш; 2009 йил Молдавиядаги инқилобга уриниш; 2010-2011 йиллар “Араб баҳори” (Яқин Шарқ ва Шимолий Африкадаги инқилоблар); 2014 йил Украинадаги “Қадр-қиммат инқилоби” (Евромайдан); 2018 йил Арманистондаги “Бархет (бахмал) инқилоби” кабиларни келтиришимиз мумкин[5].

Жаҳон сиёсий майдонида кечаётган глобаллашув жараёнлари нафақат ижобий ютуқларни, балки миллий давлатчилик ва барқарорликка таҳдид солувчи янги феноменларни ҳам юзага келтирмоқда. Хусусан, ахборот технологияларининг ривожланиши ва Интернет тармоғининг ҳаётимизга чуқур кириб бориши натижасида сиёсий ҳокимиятни алмаштиришнинг анъанавий бўлмаган усуллари, жумладан, “рангли инқилоб”лар пайдо бўлди. Қуйида ушбу тушунчаларнинг мазмун-моҳияти ва уларнинг тарихий хронологиясига тўхталиб ўтамиз [6].

Интернет (лотинча inter-“аро” ва инглизча net (work)-“тармоқ” сўзларидан олинган). Катта (глобал) ва кичик (локал) компьютер тармоқларини ўзаро боғлайдиган, бутун дунё бўйлаб фаолият кўрсатадиган халқаро ахборот алмашувининг глобал компьютер тизими. Турли соҳа ва масалаларга оид маълумотларни қамраб олувчи, узоқ масофадан туриб алоқа ўрнатиш, электрон тижорат, масофавий таълим, аудио, видео ва тасвирлар алмашиш имконини берувчи ҳамда улкан ҳажмдаги янгилик ва маълумотларни ўзида жамлаган электрон ахборот воситаси ва дастурий таъминот тушунчаси.

Инсоният тарихининг қайси босқичини кузатмайлик, жамият тараққиётига ғоявий ва маънавий тўсиқ бўлиб келган иллатлардан бири — бу мутаассибликдир. Бугунги глобаллашув ва ахборот курашлари авж олган даврда мафкуравий полигонларда инсон онгини бошқаришнинг энг хавфли қуроли сифатида айнан фанатизмдан фойдаланилмоқда. Қуйида мутаассибликнинг нафақат психологик моҳияти, балки унинг жамият учун келтирадиган ҳалокатли оқибатлари ва мафкуравий илдизларини таҳлил қиламиз [7].

Мутаассиблик (фанатизм)-бу шахснинг муайян ғоя, ақида ёки қарашларга кўр-кўрона ва меъёрдан ортиқ даражада боғланиб қолиши бўлиб, у онгнинг чекланиши ва дунёқарашнинг торайиши билан тавсифланади. Мутаассиб шахс учун ўз эътиқоди ягона ва мутлақ ҳақиқат бўлиб, у ҳеч қандай шубҳа ёки танқидий таҳлилга ўрин қолдирмайди. Бундай ҳолатда инсон ўзгаларнинг фикрларига нисбатан тоқатсиз бўлиб қолади, мулоқот ва бағрикенглик қобилиятини йўқотади. “Фақат мен ҳақман, менинг қарашларим мутлақ тўғри” деган янглиш ишонч шахснинг маънавий дунёсини ич-ичидан емириб, унинг соғлом ижтимоийлашувига тўсқинлик қилади.

Мутаассиблик ўз-ўзидан пайдо бўладиган тасодифий ҳодиса эмас. Аксарият ҳолларда у муайян бузғунчи кучлар ва мафкуравий марказлар томонидан махсус режа асосида, мақсадли равишда сингдирилади. Бу жараёнда, айниқса, ҳаётий тажрибаси кам ва ҳиссиётларга тез берилувчи ёшлар асосий нишонга айланади. Уларнинг онги ёт ғоялар билан заҳарланиб, муайян гуруҳлар ўз ғаразли мақсадлари йўлида ёшларни қўғирчоққа айлантиради. Бу эса инсон ресурсидан бузғунчи мақсадларда фойдаланишнинг энг хавфли кўринишидир. Мафкуравий таҳдидларга қарши самарали курашишда миллий ғоя, миллий мафкура ва чуқур билим ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Миллий ғоя жамиятни бирлаштирса, миллий мафкура ижтимоий фаолиятни йўналтиради, билим эса барқарор тараққиётни таъминлайди. Шу боис ёшлар онгида мафкуравий иммунитетни шакллантириш муҳим вазифа ҳисобланади [8].

Жамиятдаги мафкуравий бўшлиқни вайронкор ғоялар эгаллаб олмаслиги учун аниқ ва ҳаётий стратегия зарур. Бу стратегияни шартли равишда «Ғалаба формуласи» деб аташ мумкин. Унинг асосий тамойили: “Ғояга қарши ғоя, фикрга қарши фикр, жаҳолатга қарши маърифат”дир. Мутаассиблик ва ёт қарашларнинг олдини олиш учта мустаҳкам устунга таянади:

-Миллий ғоя: У жамиятнинг олий мақсадларини белгилайди ва халқни буюк тарихий ворислик туйғуси атрофида бирлаштиради.

-Миллий мафкура: Бу белгиланган мақсадларга эришиш йўлидаги тизимли фаолият ва маънавий қадриятларнинг уйғунлигидир.

-Чуқур билим ва маърифат: Илм-фан ва юксак танқидий тафаккур инсонга ҳақиқий саодат ва мустақил фикрлаш эркинлигини бахш этади.

Хулоса: Ғоя мақсадни, мафкура ҳаракатни, билим эса келажак фаровонлигини таъминлайди.

Бугунги кунда дунёнинг турли нуқталарида кечаётган глобал кураш шуни кўрсатмоқдаки, мафкуравий полигонлар ўз кучи ва таъсир кўламига кўра ядро полигонларидан ҳам хавфлироқ бўлиб бормоқда. Қурол инсон танасини йўқ қилса, бузғунчи ғоя унинг руҳини, ўзлигини ва эътиқодини емиради.

Инсоният мавжуд экан, эзгулик ва ёвузлик ўртасидаги кураш давом этади. Бу жангда бизнинг асосий қуролимиз қуйидаги тамойилларда акс этади:

-Ғаразли ният ва жаҳолатга қарши — эзгу фикр ва маърифат;

-Маънавий таҳдидларга қарши — миллий ғоя ва юксак маънавият.

Бизнинг йўлимиз — жаҳолат занжирларини маърифат нури билан парчалаш ва миллий ўзликни сақлаган ҳолда келажак сари дадил қадам ташлашдир.

**Хулоса.** Хулоса ўрнида таъкидлаш лозимки, замонавий глобаллашув шиддати билан кечаётган ҳозирги даврда мафкуравий жараёнлар ва маънавий таҳдидлар шунчаки назарий муаммо эмас, балки миллий давлатчилик ва жамият барқарорлигига бевосита дахл қилувчи стратегик хавфга айланди. Мафкуравий полигонларда инсон қалби ва онгини эгаллаш учун кечаётган курашлар ўз кўлами ва оқибатларига кўра ҳар қандай қуролли тўқнашувлардан кўра ҳалокатлироқ бўлиб бормоқда. Мазкур бузғунчи таҳдидларнинг олдини олиш ва жамиятда мустаҳкам мафкуравий иммунитетни шакллантириш бир қатор комплекс чора-тадбирларни амалга оширишни тақозо этади. Биринчи навбатда, миллий ғоя ва маънавиятни мустаҳкамлаш орқали халқимизнинг кўп асрлик қадриятлари, тарихий мероси ва миллий ўзликни англаш туйғусини замонавий демократик тамойиллар билан уйғунлаштириш зарур. Бу, айниқса, ёш авлодни ёт ва вайронкор ғоялар таъсиридан ҳимоя қилишда энг асосий маънавий қалқон бўлиб хизмат қилади. Шу билан бирга, ахборот хавфсизлиги ва медиасаводхонликни ошириш орқали ахборот маконидаги хуружларга қарши тезкор ва асосли раддиялар бериш, фуқароларда ахборотни саралаш ва таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантириш тизимини такомиллаштириш лозим. Шунингдек, ижтимоий-сиёсий жараёнларни чуқур таҳлил қилишга асосланган мафкуравий сиёсатни юритиш, хавф-хатарларни олдиндан прогноз қилиш ва уларга қарши илмий ечимларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


10. “Терроризмга қарши кураш тўғрисида” Қонун. Токент. 2000 й.15 декабрь.
11. “Ээкстремизмга қарши кураш тўғрисида” Қонун. Токент 2018 й. 30 июль.
12. “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида” Қонун. Тошкент. 2021й. 5 июль.
13. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
14. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон — 2030 стратегияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
15. Шанхай ҳамкорлик ташкилоти. Терроризм, сепаратизм ва экстремизмга қарши кураш тўғрисидаги Шанхай конвенцияси. – Шанхай, 15 июнь 2001 йил.
16. Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги. Терроризм ва экстремизмга қарши курашда ҳамкорлик концепцияси. – Қозон, 26 август 2005 йил.
17. Хусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Тошкент: Фан, 1994.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 37:004.8

# TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALA-NISHNING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

*G'afurov Said Akbar Abdulatif o'g'li, Qo'qon davlat universiteti doktoranti*

# MODERN OPPORTUNITIES FOR THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION

*Gafurov Said Akbar Abdullatif ugli, Doctoral Student of Kokand State University*

# СОВРЕМЕННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАНИИ

*Гафуров Саид Акбар Абдулатиф оглы, докторант Кокандского государственного университета*

*https://orcid.org/0009-0007-1325-0411*
*e-mail: yupiter0101@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar, adaptiv o'qitish tizimlari va ta'limni individuallashtirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, sun'iy intellektning ta'lim sifatini oshirish, talabalarning bilim darajasini monitoring qilish va o'qituvchilarning ish samaradorligini yaxshilashdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning istiqbollari va muammolari aniqlanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, adaptiv o'qitish, ta'lim texnologiyalari, masofaviy ta'lim, innovatsion pedagogika.*

***Abstract:*** *This article analyzes the theoretical and practical aspects of using artificial intelligence (AI) technologies in the educational process. AI-based platforms, adaptive learning systems, and possibilities for individualizing education are examined. The role of AI in improving the quality of education, monitoring students' knowledge levels, and enhancing teachers' work efficiency is also considered. The study identifies the prospects and challenges of implementing AI technologies in the education system.*

***Keywords:*** *artificial intelligence, digital education, adaptive learning, educational technologies, distance learning, innovative pedagogy.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты использования технологий искусственного интеллекта (ИИ) в образовательном процессе. Рассматриваются платформы на основе ИИ, адаптивные системы обучения и возможности индивидуализации образования. Также рассматривается роль ИИ в повышении качества образования, мониторинге уровня знаний студентов и повышении эффективности работы преподавателей. В исследовании определены перспективы и проблемы внедрения технологий ИИ в систему образования.*

***Ключевые слова:*** *искусственный интеллект, цифровое образование, адаптивное обучение, образовательные технологии, дистанционное обучение, инновационная педагогика.*

**Kirish.** So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari ta'lim jarayonini avtomatlashtirish, o'qitish samaradorligini oshirish hamda ta'lim sifatini

yaxshilashda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlarida sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari keng qo‘llanilmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, ularning individual qobiliyatlarini aniqlash va mos o‘quv dasturlarini shakllantirish mumkin. Shu sababli sun’iy intellektdan ta’lim jarayonida foydalanish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimidagi o‘rni va imkoniyatlari so‘nggi yillarda ko‘plab olimlar tomonidan keng o‘rganilmoqda. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sun’iy intellektning ta’lim jarayonini takomillashtirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda ta’lim sifatini oshirishdagi muhim rolini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt sohasidagi fundamental ilmiy manbalardan biri bo‘lgan Artificial Intelligence: A Modern Approach asarida Stuart Russell va Peter Norvig sun’iy intellektning nazariy asoslari, algoritmlari hamda turli sohalarda qo‘llanilish imkoniyatlarini batafsil yoritib bergan. Ushbu asarda sun’iy intellekt tizimlari orqali ma’lumotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va avtomatlashtirilgan tizimlarni yaratish masalalari keng ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu g‘oyalar ta’lim tizimida ham samarali qo‘llanilishi mumkin [1].

Ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanish masalalarini o‘rganishda Artificial Intelligence in Education nomli asar muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur asar mualliflari Wayne Holmes, Maya Bialik va Charles Fadel sun’iy intellektning ta’lim jarayonidagi amaliy imkoniyatlarini, jumladan, adaptiv o‘qitish tizimlari, aqlli o‘quv platformalari hamda ta’lim jarayonini individuallashtirish mexanizmlarini tahlil qilganlar. Mualliflar sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini monitoring qilish va ularning o‘quv faoliyatini optimallashtirish mumkinligini ta’kidlaydilar [2].

Shuningdek, Rose Luckin tomonidan yozilgan Machine Learning and Human Intelligence in Education asarida sun’iy intellekt va inson intellekti o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik masalalari o‘rganilgan. Muallif ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchini to‘liq almashtirmasligi, balki uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qilishi lozimligini ta’kidlaydi. Ushbu tadqiqotda sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari orqali o‘quvchilarning individual o‘rganish strategiyalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Milliy darajada ham ta’lim tizimini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlar va dasturlarda ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, masofaviy ta’lim platformalarini rivojlantirish hamda pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan [3]. Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, o‘quv jarayonini optimallashtirish hamda o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etishda pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, texnik infratuzilmani rivojlantirish hamda ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash zarur.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarni o‘rganish hamda ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga ta’siri bo‘yicha xorijiy tajribalar o‘rganildi.

Sun’iy intellekt ta’lim tizimida bir qator muhim vazifalarni bajaradi. Avvalo, u o‘quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Adaptiv o‘qitish tizimlari har bir talabaning bilim darajasi, o‘rganish tezligi va qobiliyatini tahlil qilib, unga mos o‘quv materiallarini taqdim etadi [4]. Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘qituvchilarga talabalar bilimini baholash jarayonini avtomatlashtirish imkonini yaratadi. Masalan, testlarni tekshirish, esse matnlarini tahlil qilish hamda o‘quvchilarning faoliyatini monitoring qilish sun’iy intellekt orqali amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt masofaviy ta’lim tizimlarining rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shmoqda. Onlayn platformalarda

ishlaydigan aqlli yordamchilar talabalar savollariga javob berish, o‘quv materiallarini tavsiya qilish va o‘qitish jarayonini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega.

Ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari

Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llash quyidagi afzalliklarni beradi:

- ta’lim jarayonini individuallashtirish imkoniyati;
- talabalar bilim darajasini tez va aniq baholash;
- o‘qituvchilarning vaqtini tejash va ish samaradorligini oshirish;
- masofaviy ta’lim tizimlarining samaradorligini oshirish;
- katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlarini tahlil qilish imkoniyati.

Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish zarurati va ma’lumotlar xavfsizligi masalalari shular jumlasidandir.

**Tahlil va natijalar.** Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy etilishi o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda o‘qitish metodlarini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, Stuart Russell va Peter Norvig tomonidan yaratilgan Artificial Intelligence: A Modern Approach asarida sun’iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega ekani ta’kidlangan. Bu esa ta’lim jarayonida talabalarning o‘quv faoliyatini chuqur tahlil qilishga yordam beradi [5]. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘qitish tizimlari har bir talabaning o‘zlashtirish darajasi, bilim olish tezligi va qiziqishlarini hisobga olib, individual o‘quv strategiyasini shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayonda ta’lim platformalari talabaning faoliyatini doimiy monitoring qilib boradi va zarur hollarda o‘quv materiallarini mos ravishda o‘zgartiradi. Shu jihatdan Wayne Holmes, Maya Bialik va Charles Fadel tomonidan yozilgan Artificial Intelligence in Education asarida sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini individuallashtirish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligi qayd etilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilar faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar test topshiriqlarini tekshirish, o‘quvchilarning yozma ishlarini tahlil qilish hamda ularning bilim darajasini monitoring qilish kabi jarayonlarni avtomatlashtiradi. Bu esa o‘qituvchilarga vaqtni tejash va o‘quv jarayonining metodik jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratish imkonini yaratadi [6].

Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalari masofaviy ta’lim tizimlarining rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Aqlli o‘quv platformalari orqali talabalar o‘quv materiallaridan mustaqil foydalanish, interaktiv topshiriqlarni bajarish hamda sun’iy intellekt yordamchilaridan maslahat olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ta’limning uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etishda ayrim muammolar mavjudligini ham ko‘rsatdi. Jumladan, ayrim ta’lim muassasalarida texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasining pastligi hamda ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash masalalari dolzarb muammolar sifatida qayd etildi [7].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng joriy etish ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini optimallashtirish va talabalarning bilim darajasini samarali nazorat qilish imkoniyatlarini yaratishini ko‘rsatdi. Kelajakda ushbu texnologiyalarni yanada rivojlantirish va ta’lim tizimiga chuqur integratsiya qilish orqali innovatsion pedagogik muhitni shakllantirish mumkin.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayonida qo‘llanilishining zamonaviy imkoniyatlari kompleks tarzda tahlil qilindi hamda ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAMADDUN NURI

Bundan tashqari, tadqiqotda ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar, jumladan, texnik infratuzilma, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi hamda ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq masalalar tahlil qilindi va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Shu tariqa, tadqiqot natijalari ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘quv jarayonini individuallashtirish, talabalar bilim darajasini aniq baholash hamda ta’lim samaradorligini oshirish imkonini yaratadi. Adaptiv o‘qitish platformalari orqali har bir talabaning bilim olish tezligi, qiziqishi va qobiliyatlari tahlil qilinib, unga mos o‘quv materiallari taqdim etilishi mumkin. Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalari masofaviy ta’lim tizimlarining rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Onlayn ta’lim platformalari, aqlli yordamchi tizimlar va interaktiv o‘quv materiallari orqali ta’lim jarayoni yanada qulay va samarali tashkil etilishi mumkin. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish zarurati hamda axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari dolzarb hisoblanadi. Mazkur muammolarni hal qilish ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun muhim ahamiyatga ega.

**Takliflar.** Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada samarali joriy etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt asosidagi zamonaviy o‘quv platformalarini joriy etish va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish.
2. oshirish maqsadida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari va treninglar tashkil etish.
3. Ta’lim jarayonida adaptiv o‘qitish tizimlaridan foydalanish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirishni kengaytirish.
4. Masofaviy ta’lim tizimlarida sun’iy intellekt asosidagi aqlli yordamchi tizimlarni joriy etish.
5. Ta’lim jarayonida foydalaniladigan raqamli platformalarda axborot xavfsizligini ta’minlash va ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish.
6. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sifatiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish.

Umuman olganda, sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv jarayonini takomillashtirish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu texnologiyalarni ta’lim tizimiga keng joriy etish orqali innovatsion va raqamli ta’lim muhitini shakllantirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Stuart Russell, Peter Norvig. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – 4th ed. – Pearson Education, 2021.
2. Wayne Holmes, Maya Bialik, Charles Fadel. Artificial Intelligence in Education. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
3. Rose Luckin. Machine Learning and Human Intelligence in Education. – London: UCL Institute of Education Press, 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. Ta’lim tizimini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha qaror va farmonlar.
5. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy Makers. – Paris, 2021.
6. OECD. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development. – Paris, 2022.
7. UNICEF. Artificial Intelligence for Children: Policy Guidance. – New York, 2020.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 37.02:004.9

# “PADLET” PLATFORMASI ORQALI BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

***G‘ofurova Oygul Abdulatif qizi, Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi***

# DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE INFORMATICS TEACHERS THROUGH THE “PADLET” PLATFORM

***Gofurova Oygul Abdullatif qizi, Teacher at the Pedagogical Skills Center of Fergana Region***

# РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПЛАТФОРМЫ “PADLET”

***Гофурова Ойгул Абдулатиф кызы, преподаватель Центра педагогического мастерства Ферганской области***

***https://orcid.org/0009-0009-2877-188X***
***e-mail: oygulgofurova0405@gmail.com***

***Annotatsiya:*** *Raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimida zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni talab etmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida interaktiv platformalar va raqamli o‘quv vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Padlet platformasi orqali bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Padlet yordamida tashkil etilgan interaktiv topshiriqlar, hamkorlikdagi o‘qitish faoliyati va raqamli portfoliolarni shakllantirish jarayonlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari Padlet platformasidan foydalanish talabalarning raqamli savodxonligini oshirish, pedagogik faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirish hamda kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Padlet, raqamli ta’lim muhiti, informatika ta’limi, pedagogik kompetensiya, interaktiv o‘qitish, raqamli texnologiyalar.*

***Abstract:*** *The processes of digital transformation require the wide implementation of modern digital technologies in the education system. Particularly, the use of interactive platforms and digital learning tools plays an important role in the preparation of future informatics teachers. This article analyzes the methodological possibilities of developing the professional competencies of future informatics teachers through the Padlet platform. During the research, interactive assignments organized through Padlet, collaborative learning activities, and the formation of digital portfolios were studied. The research results show that the use of the Padlet platform positively influences students’ digital literacy, strengthens their readiness for pedagogical activity, and contributes to the development of communicative and creative competencies.*

***Keywords:*** *Padlet, digital learning environment, informatics education, pedagogical competence, interactive learning, digital technologies.*

***Аннотация:*** *Процессы цифровой трансформации требуют широкого внедрения современных цифровых технологий в систему образования. Особенно важным становится использование интерактивных платформ и цифровых образовательных ресурсов в подготовке будущих учителей информатики. В данной статье анализируются методические возможности развития профессиональных компетенций будущих учителей информатики посредством платформы Padlet. В*

*ходе исследования были изучены интерактивные задания, организованные с использованием Padlet, деятельность по совместному обучению и процесс формирования цифровых портфолио. Результаты исследования показали, что использование платформы Padlet способствует повышению цифровой грамотности студентов, укреплению их готовности к педагогической деятельности, а также развитию коммуникативных и творческих компетенций.*

***Ключевые слова:*** *Padlet, цифровая образовательная среда, обучение информатике, педагогическая компетентность, интерактивное обучение, цифровые технологии.*

**Kirish.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy jamiyatda o‘qituvchidan nafaqat fan bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish, balki raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qila olish ham talab etiladi. Ayniqsa, informatika fanini o‘qitishda raqamli platformalar va interaktiv vositalardan foydalanish muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Kasbiy kompetensiya o‘qituvchining pedagogik, metodik, kommunikativ va raqamli ko‘nikmalarining uyg‘unligidan iborat bo‘lib, zamonaviy ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritishni ta’minlaydi[1].

Bugungi kunda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy platformalardan biri Padlet hisoblanadi. Padlet — bu foydalanuvchilarga virtual doska yaratish, unda turli xil materiallarni joylashtirish va hamkorlikda ishlash imkonini beruvchi interaktiv platformadir. Ushbu platforma ta’lim jarayonida fikr almashish, loyiha ishlarini tashkil etish, interaktiv topshiriqlar yaratish hamda o‘quv materiallarini jamlash uchun qulay vosita hisoblanadi. Shu sababli Padlet platformasining bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirishdagi metodik imkoniyatlarini o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi pedagogik jarayonni tubdan o‘zgartirib, yangi didaktik yondashuvlarni shakllantirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim jarayonini raqamlashtirish, interaktiv o‘qitish metodlarini joriy etish hamda o‘quv jarayonida innovatsion platformalardan foydalanish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu sababli pedagogik tadqiqotlarda raqamli ta’lim muhitini shakllantirish va unda samarali o‘qitish metodlarini ishlab chiqish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim platformalari o‘quv jarayonini tashkil etishda katta imkoniyatlarga ega. Holmes, Bialik va Fadel (2019) o‘z tadqiqotlarida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosidagi ta’lim tizimi o‘quvchilarning individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirishga yordam berishini ta’kidlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, zamonaviy raqamli vositalar o‘qitish jarayonini moslashuvchan, interaktiv va samarali qilish imkonini beradi [2]. Means, Bakia va Murphy (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa onlayn ta’lim platformalari va raqamli o‘quv vositalarining o‘quv jarayoniga ta’siri keng tahlil qilingan. Mualliflarning ta’kidlashicha, raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi. Bunday muhitda o‘quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki bilimlarni mustaqil ravishda izlash, tahlil qilish va amaliy faoliyatda qo‘llashni ham o‘rganadilar [3].

Bond va hamkorlari (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli platformalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishi va ularning ta’lim jarayonidagi faolligini kuchaytirishi aniqlangan. Mualliflar interaktiv platformalar orqali tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarni hamkorlikda ishlashga undashi hamda ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishini ta’kidlaydilar. Raqamli kompetensiyani rivojlantirish masalasi ham zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Redecker (2017) tomonidan ishlab chiqilgan Digital Competence Framework for Educators (DigCompEdu) modeli o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Ushbu modelga ko‘ra, o‘qituvchi raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv materiallarini yaratish, o‘quvchilar bilan interaktiv muloqotni yo‘lga qo‘yish hamda ta’lim jarayonini monitoring qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur [4]. Pedagogik adabiyotlarda interaktiv platformalardan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonining muhim komponenti sifatida qaraladi. Chunki bunday platformalar talabalar uchun hamkorlikda ishlash, o‘z g‘oyalarini erkin ifodalash hamda turli xil raqamli resurslardan foydalanish

imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, informatika o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida raqamli platformalar muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi.

Padlet platformasi ana shunday interaktiv ta’lim vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu platforma virtual doska shaklida tashkil etilgan bo‘lib, foydalanuvchilarga matn, rasm, video, havola va boshqa turli xil raqamli resurslarni joylashtirish imkonini beradi. Padlet platformasi yordamida ta’lim jarayonida muhokamalar tashkil etish, loyiha ishlarini amalga oshirish, interaktiv topshiriqlar yaratish hamda raqamli portfoliolarni shakllantirish mumkin.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Padlet platformasidan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshiradi hamda ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bundan tashqari, ushbu platforma o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida samarali muloqot muhitini yaratadi. Natijada ta’lim jarayoni yanada interaktiv va samarali tashkil etiladi [5]. Shuningdek, Padlet platformasi bo‘lajak o‘qituvchilar uchun raqamli portfoliolar yaratish imkoniyatini ham beradi. Bu esa talabalar o‘zlarining kasbiy rivojlanishini kuzatish, bajarilgan ishlarni tizimli ravishda jamlash hamda o‘z faoliyatini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Padlet platformasidan foydalanish bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining raqamli savodxonligini oshirish, pedagogik faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirish hamda ularning kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda Padlet platformasining bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirishdagi metodik imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, tahlil qilish va pedagogik faoliyat natijalarini baholash metodlaridan foydalanildi.Tadqiqot davomida talabalar bilan Padlet platformasi orqali turli interaktiv faoliyatlar tashkil etildi. Jumladan, algoritmlar va dasturlash asoslariga oid muammoli topshiriqlar, guruhli loyiha ishlari hamda muhokama mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Talabalar o‘z ishlarini Padlet doskasiga joylashtirib, boshqa talabalar bilan fikr almashdilar[6]. Bundan tashqari, talabalar o‘zlarining dars ishlanmalari, taqdimotlari va metodik materiallarini Padlet sahifasida to‘plab borish orqali raqamli portfoliolar yaratdilar.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqot jarayonida Padlet platformasidan foydalanish bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash maqsadida bir qator interaktiv pedagogik faoliyatlar tashkil etildi. Jumladan, Padlet platformasi orqali muammoli topshiriqlar, guruhli loyiha ishlari, muhokama mashg‘ulotlari hamda raqamli portfoliolar yaratish jarayonlari amalga oshirildi. Ushbu faoliyatlar talabalarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning pedagogik va metodik kompetensiyalarini shakllantirishga ham xizmat qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Padlet platformasidan foydalanish talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshirdi. Platforma orqali tashkil etilgan o‘quv faoliyati talabalarga o‘z fikrlarini erkin ifodalash, turli xil o‘quv materiallarini joylashtirish hamda boshqa talabalar bilan fikr almashish imkoniyatini yaratdi. Natijada talabalar o‘rtasida hamkorlik muhiti shakllanib, o‘quv jarayoni yanada interaktiv tus oldi[7].

Padlet platformasi yordamida tashkil etilgan o‘quv jarayonida talabalarning raqamli kompetensiyasi rivojlanishi kuzatildi. Talabalar platforma orqali matn, grafik materiallar, dastur kodlari, videomateriallar va turli havolalarni joylashtirish orqali raqamli kontent yaratish ko‘nikmalarini egalladilar. Bu esa ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Tadqiqot davomida Padlet platformasi asosida tashkil etilgan interaktiv topshiriqlar talabalarning tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, algoritmik masalalar yoki dasturlashga oid muammoli vaziyatlar Padlet doskasiga joylashtirilib, talabalar ularning turli yechim variantlarini muhokama qilishdi. Bunday faoliyat talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirishga hamda muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi [8]. Shuningdek, Padlet platformasi yordamida tashkil etilgan raqamli portfoliolar bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishini monitoring qilish imkoniyatini berdi. Talabalar o‘zlarining dars ishlanmalari, loyiha ishlari, taqdimotlari va boshqa metodik materiallarini Padlet sahifasida jamlab bordilar. Bu esa ularning pedagogik faoliyatini tahlil qilish, o‘z ustida ishlash

hamda refleksiya jarayonini rivojlantirishga yordam berdi [9]. Tadqiqot jarayonida yana bir muhim jihat aniqlanganki, Padlet platformasidan foydalanish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Platformada talabalar o'zaro fikr almashish, savol-javoblar tashkil etish va muhokamalar o'tkazish orqali samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirdilar. Bu esa kelajakdagi pedagogik faoliyatda o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish uchun muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, Padlet platformasidan foydalanish bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda bir qator afzalliklarga ega ekanligi aniqlandi. Jumladan, platforma ta'lim jarayonini interaktiv tashkil etish, talabalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish hamda ularning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, Padlet platformasi asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalashgan metodik yondashuv taklif etildi. Ushb yondashuv uchta asosiy komponentdan iborat:

-Interaktiv o'qitish muhiti – Padlet orqali muhokama va hamkorlik faoliyatini tashkil etish;

-Raqamli portfoliolar tizimi – talabalar ishlarini tizimli ravishda jamlash va baholash;

-Muammoli topshiriqlar asosida o'qitish – algoritmik va dasturlashga oid muammolarni birgalikda hal qilish. Taklif etilgan metodik yondashuv bo'lajak informatika o'qituvchilarining raqamli, pedagogik, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi [10]. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Padlet platformasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning o'quv faoliyatini faollashtiradi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda zamonaviy raqamli ta'lim muhitida samarali faoliyat yurita oladigan informatika o'qituvchilarini tayyorlashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Padlet platformasi bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali raqamli vosita hisoblanadi. Ushbu platformadan foydalanish orqali talabalar raqamli texnologiyalarni amaliy qo'llash, hamkorlikda ishlash va interaktiv o'qitish metodlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Padlet asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalar faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda zamonaviy ta'lim muhitida samarali faoliyat yurita oladigan informatika o'qituvchilarini tayyorlashga xizmat qiladi. Kelgusida Padlet asosidagi metodik yondashuvlarning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali chuqurroq o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Holmes W., Bialik M., Fadel C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* Boston: Center for Curriculum Redesign.
2. Means B., Bakia M., Murphy R. (2014). *Learning Online: What Research Tells Us About Whether, When and How*. New York: Routledge.
3. Redecker C. (2017). *European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu).* Luxembourg: Publications Office of the European Union.
4. Bond M., Marín V. I., Dolch C., Bedenlier S., Zawacki-Richter O. (2020). Digital transformation in higher education: A systematic review of the literature. *Computers & Education*, 152. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2020.103857
5. Russell S., Norvig P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson Education.
6. Anderson T. (2011). *The Theory and Practice of Online Learning.* Athabasca University Press.
7. Mishra P., Koehler M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.
8. Wing J. M. (2006). Computational Thinking. *Communications of the ACM*, 49(3), 33–35.
9. Dede C. (2014). The role of digital technologies in deeper learning. *Students at the Center: Deeper Learning Research Series.* Boston: Harvard University.
10. Garrison D. R., Vaughan N. D. (2008). *Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines.* San Francisco: Jossey-Bass.
11. Kearsley G., Schneiderman B. (1998). Engagement Theory: A framework for technology-based teaching and learning. *Educational Technology*, 38(5), 20–23.
12. Padlet. (2024). *Padlet: Collaborative digital platform for interactive learning.* Retrieved from https://padlet.com

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 378.147

# OLIY TA'LIMDA MUSTAQIL TA'LIMNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI

*Nimatova Moxinur Sobit qizi, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

# METHODOLOGY FOR ENHANCING THE PEDAGOGICAL EFFECTIVENESS OF INDEPENDENT LEARNING IN HIGHER EDUCATION

*Nimatova Moxinur Sobit qizi, Independent Researcher, National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami*

# МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

*Ниматова Мохинур Собит кызы, независимый исследователь Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами*

*e-mail: nimatovamohinur@gmail.com*
*https://orcid.org/0009-0007-3220-3880*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda mustaqil ta'limning roli tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda an'anaviy "reproduktiv" yondashuvdan "kreativ-tadqiqotchilik" yondashuviga o'tish mexanizmlari o'rganilgan. Mustaqil ta'limni tashkil etishning 4 bosqichli klaster modeli (motivatsion, kognitiv, operatsional, refleksiv) ishlab chiqilgan va pedagogik mahoratni oshirishning raqamli didaktik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *pedagogik mahorat, mustaqil ta'lim, kredit-modul tizimi, o'zini-o'zi boshqarish, metakognitiv qobiliyatlar, andragogika, raqamli ta'lim muhiti.*

***Abstract:*** *This article provides a systematic analysis of the role of independent learning in forming the professional competence of prospective teachers. The study examines the mechanisms of transitioning from the traditional "reproductive" approach to a "creative-research" approach. A 4-stage cluster model for organizing independent learning (motivational, cognitive, operational, reflective) has been developed, and scientifically grounded proposals are presented for improving the digital didactic support for enhancing pedagogical skills.*

***Keywords:*** *pedagogical skills, independent learning, credit-module system, self-regulation, metacognitive abilities, andragogy, digital educational environment.*

***Аннотация:*** *В данной статье проведен системный анализ роли самостоятельного образования в формировании профессиональной компетенции будущих педагогов. В исследовании изучены механизмы перехода от традиционного "репродуктивного" подхода к "креативно-исследовательскому". Разработана 4-этапная кластерная модель организации самостоятельного образования (мотивационный, когнитивный, операциональный, рефлексивный) и даны научно обоснованные предложения по совершенствованию цифрового дидактического обеспечения повышения педагогического мастерства.*

***Ключевые слова:*** *педагогическое мастерство, самостоятельное образование, кредитно-модульная система, самоуправление, метакогнитивные способности, андрагогика, цифровая образовательная среда.*

**Kirish. Muammoning dolzarbligi.** Zamonaviy globallashuv jarayonlari, raqamli transformatsiya va bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi ta’lim tizimi oldiga sifat jihatdan yangi talablarni qo‘ymoqda [1]. Bugungi kunda o‘qituvchi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar an’anaviy bilim berish funksiyasi bilan cheklanib qolmay, balki ta’lim jarayonini loyihalashtirish, boshqarish, fasilitatsiya qilish hamda ta’lim oluvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish kabi kompleks kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi [2]. Shu bois zamonaviy pedagogik paradigma o‘qituvchini faqat axborot uzatuvchi emas, balki ta’lim muhitini tashkil etuvchi menejer va refleksiv amaliyotchi sifatida talqin etadi [3]. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar (J. Dewey, D. Schön, B. Zimmerman va boshqalar) shuni ko‘rsatadiki, haqiqiy pedagogik mahorat auditoriya doirasida emas, balki mustaqil kognitiv faoliyat, tajriba orttirish va refleksiya jarayonida shakllanadi. Xususan, Dewey tajribaviy ta’lim nazariyasida bilim amaliy faoliyat orqali chuqurlashishini asoslagan bo‘lsa, Schön “refleksiv amaliyotchi” modelida kasbiy o‘sish doimiy o‘z-o‘zini tahlil qilish bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Zimmerman esa o‘zini-o‘zi boshqarish nazariyasida mustaqil ta’limni professional muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, pedagogik mahoratning shakllanishi ko‘proq talabaning auditoriyadan tashqari mustaqil faoliyatida – o‘qish, izlanish, loyihalash, muammoni hal etish va refleksiya jarayonida yuz beradi. Aynan mustaqil ta’lim jarayoni bo‘lajak pedagogda metakognitiv ko‘nikmalarni, kreativ fikrlashni va kasbiy improvizatsiyani rivojlantiradi. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimining joriy etilishi natijasida o‘quv yuklamasining 50–60 foizi mustaqil ta’limga ajratilgan [1]. Bu esa mazkur faoliyatni pedagogik mahoratni rivojlantirishning asosiy resursiga aylantiradi. Biroq amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’lim ko‘pincha reproduktiv xarakterda tashkil etilmoqda: talaba referat yozadi, konspekt tuzadi yoki tayyor materialni takrorlaydi [4]. Bunday yondashuv esa bilish jarayonini mexanik xotira faoliyatiga aylantirib, kreativ va refleksiv kompetensiyalarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. *Mazkur vaziyatda quyidagi ziddiyat yuzaga kelmoqda:*

-bir tomondan, zamonaviy pedagog kasbiy kompetensiyalarining kreativ, kommunikativ va refleksiv komponentlari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda;

-ikkinchi tomondan, mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi hali ham an’anaviy reproduktiv shaklda qolmoqda. Natijada, talabalarda nazariy bilimlar hajmi ortgan bo‘lsa-da, ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, pedagogik improvizatsiya qilish va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalari yetarlicha shakllanmayapti. Bu esa oliy ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim tizimi o‘rtasida sifat tafovutini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitining jadal rivojlanishi mustaqil ta’limni tashkil etishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Virtual simulyatsiyalar, LMS platformalar, sun’iy intellekt asosidagi tahliliy vositalar pedagogik mahoratni shakllantirish jarayonini individuallashtirish imkonini bermoqda. Biroq ushbu texnologik imkoniyatlar hali to‘liq metodik asosga ega emas [5].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, talabalarning pedagogik mahoratini mustaqil ta’lim faoliyati orqali rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur muammoning yechimi mustaqil ta’limni “majburiy o‘quv yuklamasi”dan “kasbiy o‘sish mexanizmi”ga aylantirishni taqozo etadi. Shunday qilib, mustaqil ta’limni pedagogik mahorat komponentlari bilan integratsiyalashgan, refleksiv va kreativ faoliyatga yo‘naltirilgan metodik model asosida tashkil etish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

**Nazariy-metodologik asoslar.** Pedagogik mahoratni mustaqil ta’lim orqali rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda quyidagi ilmiy yondashuvlar asos qilib olindi:

1. Konstruktivistik yondashuv (J.Piaje, L.Vigotskiy): Bilim berilmaydi, balki talaba tomonidan mustaqil faoliyat jarayonida “quriladi”. Pedagogik mahorat – bu nazariy bilimlarning amaliy vaziyatlar yechimida konstruksiyalanishidir.

2. O‘zini-o‘zi boshqarish nazariyasi: Pedagog bo‘lajak mutaxassis sifatida o‘z ta’limini

rejalashtirishi, monitoring qilishi va baholashi shart. Bu metodikaning o‘zagi hisoblanadi.

3. Akmeologik yondashuv: Talabaning kasbiy faoliyatda “cho‘qqi”ga chiqishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini mustaqil izlanish orqali shakllantirish.

**Metodikani takomillashtirishning innovatsion modeli.** Biz taklif etayotgan metodika talabaning mustaqil ishini “majburiyat”dan “kasbiy ehtiyoj”ga aylantirishga qaratilgan. Buning uchun mustaqil ta’limning “Refleksiv-Kreativ Sikl” modelini joriy etish maqsadga muvofiq.

**Modelning tarkibiy qismlari:**

**I Bosqich: Oriyentatsion - Yo‘naltiruvchi.**

*Metod:* “Flipped Classroom” — To‘nkarilgan sinf.

*Mohiyati:* Talaba nazariy ma’lumotni uyda platformalar orqali mustaqil o‘zlashtiradi. Auditoriyada esa ushbu bilimni pedagogik vaziyatga qo‘llash mashq qilinadi. Bu talabada “Men buni bilaman, lekin qanday o‘rgatishni bilmayman” degan muammoli vaziyatni va bilishga ehtiyojni paydo qiladi.

**II Bosqich: Proyektiv — Loyihaviy.**

*Metod:* Loyihaga asoslangan ta’lim.

*Mohiyati:* Talabaga tayyor referat yozish emas, balki “Maktab o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturi” kabi mikro-loyihalarni ishlab chiqish topshiriladi. Bu yerda mustaqil ish — tadqiqotga aylanadi.

**III Bosqich: Kommunikativ-texnologik.**

*Metod:* Peer-to-Peer — Tengdoshlar o‘qitishi.

*Mohiyati:* Talabalar o‘z mustaqil ishlarini bir-birlariga taqdimot qiladilar va “ekspert” sifatida baholaydilar. Pedagogik mahoratning muhim elementi — birovning ishini tahlil qilish va konstruktiv fikr bildirish ko‘nikmasi shu yerda shakllanadi.

**IV Bosqich: Refleksiv — O‘z-o‘zini tahlil.**

*Metod:* Pedagogik portfolio va video-trening.

*Mohiyati:* Talaba o‘z o‘tgan mikro-darsini videoga oladi va mustaqil ravishda tahlil qilib, “SWOT” tahlilini tuzadi.

**Empirik tahlil va statistik ko‘rsatkichlar dinamikasi.** Tadqiqot obyektivligini ta’minlash maqsadida qiyosiy tahlil Nazorat guruhi (NG) (an’anaviy mustaqil ta’lim: referat, konspekt) va Tajriba guruhi (TG) (biz taklif etgan “Refleksiv-Kreativ Sikl” metodi) kesimida olib borildi. Umumiy respondentlar soni: n=240 nafar (har bir guruhda 120 nafardan).


**Pedagogik mahorat komponentlarining rivojlanish dinamikasi.** Pedagogik mahorat 4 ta asosiy mezon bo‘yicha baholandi: *Gnostik* (bilim), *Kommunikativ* (muloqot), *Kreativ* (ijodkorlik) va *Refleksiv* (o‘z-o‘zini tahlil) (1-jadvalga qarang).

**1-jadval. Tajriba boshida va oxirida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili (o‘rtacha ball hisobida, 100 ballik tizimda)**

| Mezonlar (Kompetensiyalar) | Guruh lar | Tajriba boshida ($x_1$) | Tajriba oxirida ($x_2$) | O‘sish sur’ati (Δ%) | Student t-mezoni (p<0.05) |
|---|---|---|---|---|---|
| **Gnostik komponent** *(Nazariy bilim)* | NG | 68.4 | 74.2 | +8.4% | t=1.8 (ishonchsiz) |
| | **TG** | 69.1 | **82.5** | **+19.3%** | **t=3.4 (ishonchli)** |
| **Kommunikativ komponent** *(Auditoriya bilan ishlash)* | NG | 55.3 | 62.1 | +12.2% | t=2.1 |
| | **TG** | 56.0 | **78.4** | **+40.0%** | **t=5.2 (yuqori)** |
| **Kreativ komponent** | NG | 42.1 | 46.5 | +10.4% | t=1.2 (ishonchsiz) |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| *(Nostandart yechimlar)* | | | | | |
| | **TG** | 43.5 | **71.8** | **+65.0%** | **t=6.8 (yuqori)** |
| **Refleksiv komponent**<br><br>***(O‘z xatosini tuzatish)*** | NG | 38.0 | 44.2 | +16.3% | t=1.9 |
| | **TG** | 39.2 | **75.6** | **+92.8%** | **t=7.4 (yuqori)** |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, an’anaviy usulda (NG) talabalarning nazariy bilimi (gnostik) oshgan bo‘lsa-da, amaliy ko‘nikmalar (kreativ va refleksiv) sezilarli o‘zgarmagan. Takomillashtirilgan metodika qo‘llangan guruhda (TG) esa, ayniqsa, Refleksiv komponent (92.8% o‘sish) bo‘yicha keskin sifat o‘zgarishi kuzatildi. Bu mustaqil ta’limning “majburiy o‘qish”dan “ongli tahlil”ga o‘tganidan dalolat beradi (1-rasmga qarang).




**1-rasm. Pedagogik mahorat komponentlarining o‘sish dinamikasi.**

**Mustaqil ta’limga sarflangan vaqt va samaradorlik korrelyatsiyasi.** Ko‘pchilik tadqiqotchilar “qancha ko‘p o‘qisa, shuncha yaxshi” degan yanglish fikrda bo‘lishadi. Bizning statistik tahlilim Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti *(r)* orqali boshqa manzarani ko‘rsatdi (2-jadvalga qarang).

**2-jadval. Vaqt sarfi va natija o‘rtasidagi korrelyatsiya (r)**

| Faoliyat turi | Nazorat Guruhi ($r_{ng}$) | Tajriba Guruhi ($r_{tg}$) | Izoh |
|---|---|---|---|
| **Konspekt qilish va yodlash** | r = 0.65 | r = 0.32 | NGda yodlash muhim, TGda samarasiz. |
| **Loyiha ustida ishlash (PBL)** | r = 0.21 | r = 0.84 | TGda kuchli bog‘liqlik: amaliyot mahoratni oshiradi. |
| **Virtual simulyatsiya (Digital)** | r = 0.15 | r = 0.79 | Raqamli vositalar TGda samaradorlikni oshirgan. |

Nazorat guruhida vaqt sarfi va natija o‘rtasidagi bog‘liqlik past samarali (mexanik mehnat). Tajriba guruhida esa korrelyatsiya kuchli *(r > 0.7)*, ya’ni talaba sarflagan har bir soat uning kasbiy kompetensiyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilgan.

**Talabalarning mustaqil faoliyat darajalari.** Tajriba so‘ngida talabalarning mustaqil ishlash qobiliyati 3 darajaga ajratildi:

1. **Reproduktiv (Past):** Faqat topshiriqni bajarish uchun ishlaydi.
2. **Produktiv (O‘rta):** Ma’lumotni tahlil qila oladi.
3. **Kreativ (Yuqori):** Yangi bilim yaratadi va amaliyotga tatbiq etadi.

**-Nazorat guruhi:** Reproduktiv – 55%, Produktiv – 35%, Kreativ – 10%.

**-Tajriba guruhi:** Reproduktiv – 15%, Produktiv – 45%, **Kreativ – 40%**.

Statistik x-kvadrat ($x^2$) mezoni bo‘yicha hisoblanganda, farqlarning ishonchlilik darajasi $x^2_{emp}>x^2_{tab}(p<0.01)$ ekanligi tasdiqlandi. Bu taklif etilgan metodikaning tasodifiy emas, balki qonuniyatli ravishda samarali ekanini ilmiy isbotlaydi.

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik mahoratni rivojlantirishda mustaqil ta’limning ekstensiv yo‘li (vaqt va hajmni ko‘paytirish) o‘z chegarasiga yetgan. Taklif etilgan intensiv metodika (raqamli texnologiyalar, refleksiya va loyihaviy yondashuv) esa talabalarda kreativlikni 4 barobarga, refleksiv ko‘nikmalarni esa qariyb 2 barobarga oshirish imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** O‘tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari qiyosiy tahlil asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida nazorat guruhi (an’anaviy – konspekt, referat, reproduktiv topshiriqlar) hamda tajriba guruhi (interaktiv-raqamli, loyihaviy va refleksiv yondashuv) natijalari solishtirildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mustaqil ta’limni reproduktiv shakldan interaktiv-raqamli formatga o‘tkazish talabalarning kasbiy kompetensiyalarida sifat o‘zgarishini yuzaga keltirgan.

**1. Pedagogik improvizatsiya ko‘rsatkichlari**

Pedagogik improvizatsiya – bu o‘qituvchining kutilmagan vaziyatlarda tezkor, moslashuvchan va samarali qaror qabul qilish qobiliyatidir. Tajriba guruhida mazkur ko‘rsatkich tajriba boshiga nisbatan **35% ga oshgan.**

Bu o‘sish quyidagi omillar bilan izohlanadi:

-loyiha asosidagi topshiriqlar talabalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirdi;

-virtual simulyatsiyalar orqali “real pedagogik vaziyat” modellashtirildi;

-peer-to-peer baholash jarayonida talabalar turli pozitsiyalardan fikrlashga majbur bo‘ldilar.

Student t-mezoni natijalari ($p<0.05$) mazkur o‘sishning statistik jihatdan ishonchli ekanligini ko‘rsatdi. Nazorat guruhida esa improvizatsiya ko‘rsatkichi atigi 10–12% atrofida oshib, sezilarli sifat o‘zgarishi kuzatilmadi.

**2. Metakognitiv ko‘nikmalar dinamikasi**

Metakognitiv kompetensiya – bu talabaning o‘z fikrlash jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash qobiliyatidir. Tajriba guruhida ushbu ko‘rsatkich **1,5 barobarga oshgan.** Refleksiv bosqichda (portfolio va videoanaliz) talabalar o‘z faoliyatini SWOT-tahlil asosida baholashdi, xatolarni aniqlash va tuzatish mexanizmlarini ishlab chiqdilar. Natijada:

-o‘zini-o‘zi nazorat qilish darajasi sezilarli oshdi;

-mustaqil qaror qabul qilish jarayonida ongli strategiyalar shakllandi;

-o‘quv motivatsiyasi ichki ehtiyojga aylandi.

Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti tajriba guruhida refleksiya faolligi bilan umumiy pedagogik mahorat o‘rtasida kuchli bog‘liqlikni ko‘rsatdi ($r > 0.7$). Bu esa refleksiv yondashuv kasbiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri ekanini tasdiqlaydi.

**3. Axborot bilan ishlash va mediasavodxonlik**

Interaktiv-raqamli format LMS platformalar, virtual simulyatsiyalar va multimedia vositalaridan foydalanishni nazarda tutdi. Natijada tajriba guruhida:

-axborotni tanlash va tahlil qilish tezligi oshdi;

-turli manbalarni solishtirish va ishonchliligini aniqlash ko‘nikmasi shakllandi;

-pedagogik kontent yaratish (video-dars, prezentatsiya, infografika) malakasi rivojlandi.

Nazorat guruhida axborot bilan ishlash ko‘proq tayyor materialni ko‘chirish va konspekt qilish bilan cheklangan bo‘lsa, tajriba guruhida talabalar mustaqil ravishda pedagogik kontent ishlab chiqishga o‘tdilar. $\chi^2$ mezoni bo‘yicha hisob-kitoblar farqlarning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko‘rsatdi ($p<0.01$). Bu esa interaktiv-raqamli metodikaning samaradorligi

tasodifiy emas, balki qonuniyatli xarakterga ega ekanini anglatadi.

**Umumiy tahliliy xulosa.** Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’limni shunchaki vaqt va hajmni oshirish (ekstensiv yo‘l) orqali emas, balki mazmunan boyitish va refleksiv-kreativ faoliyatga yo‘naltirish (intensiv yo‘l) orqali pedagogik mahoratni sifat jihatdan rivojlantirish mumkin.

Tajriba guruhi natijalari:

The concept of the dialect continuum explains how linguistic variations flow across geographical boundaries (Wardhaugh & Fuller, 2014). For Tajik speakers in Uzbekistan, their dialect serves as a marker of solidarity but can also become a source of "discriminatory linguistic profiling" in professional settings. Modern EFL pedagogy, however, is moving toward a Global Englishes framework. Selvi (2019) argues that the goal of English education should be "intelligibility" rather than "native-likeness". By embracing an English-within-multilingualism ideology, educators can validate the learners' heritage languages while facilitating target language acquisition (Canagarajah, 1999).

**Research methodology.** This study employs a qualitative case study approach to explore the intersection of sociolinguistics and pedagogy among EFL teachers in Navoi, Uzbekistan. A qualitative framework was selected to capture the nuanced experiences, perceptions, and "linguistic identities" of the participants that quantitative data might overlook (Bucholtz & Hall, 2005).

Participants**.** The study involved 11 EFL teachers (9 females and 2 males) divided into two distinct subgroups based on their geographic location, ethnicity, and socioeconomic status (SES):

Group 1 (Urban Uzbek): Five teachers from Navoi city schools. They are native Uzbek speakers with upper-intermediate English proficiency. Their SES is categorized as intermediate to high.

Group 2 (Rural Tajik): Six teachers from remote mountain villages. They are native Tajik speakers with intermediate English proficiency. Their SES is categorized as lower to middle. The students were taught by me during one month according to the government program.

Data Collection Tools. To ensure a comprehensive understanding of the participants' sociolinguistic landscapes, three primary data collection methods were utilized:

Classroom Observations: The researcher observed teaching sessions to record instances of code-switching, pedagogical strategies, and "style shifting" during English instruction.

Semi-Structured Interviews: Participants were interviewed regarding their linguistic backgrounds, feelings toward British/American accents, and their perceived social positioning within the teaching community.

Linguistic Artifact Analysis: The researcher examined the teachers' speech patterns for “L1 interference” and the use of “borrowings’ from Russian or Uzbek.

Data Analysis. The data were analyzed using Thematic Analysis. The researcher focused on identifying recurring themes related to:

1. The use of Russian as a prestige code (Positionality).
2. The impact of geographic isolation on access to resources (SES).
3. The manifestation of “linguistic adoration” and ‘linguistic profiling” regarding accents.

Ethical Considerations. To protect the participants’ identities, pseudonyms (e.g., Student A, Student B) were assigned to all teachers. Participation was voluntary, and all participants provided informed consent before the observations and interviews were conducted.

**Results.** The findings of this study illustrate a significant divide between urban Uzbek EFL teachers and rural Tajik EFL teachers, shaped largely by their linguistic repertoires and socioeconomic status (SES).

1.Code-Switching as a Marker of Social Positionality. The first subgroup (Urban Uzbek) demonstrated a high frequency of code-switching between Uzbek and Russian. For these participants, Russian serves as a “prestige code”. By integrating Russian vocabulary into their professional discourse, they successfully established a “higher position” (Bucholtz & Hall, 2005) within the linguistic hierarchy. Student A (Urban): Displayed a clear “linguistic adoration” for British English, attempting to mimic native-like accents to index high proficiency and professional authority [5]. Student B (Urban): Despite lower confidence, her speech remained heavily influenced by the bilingual urban environment, blending English, Russian, and Uzbek.

2.Socioeconomic Barriers and Resource Access. SES emerged as a primary factor in pedagogical practice. The urban group (Group 1), possessing middle-to-high SES, reported fewer barriers to professional development. In contrast, the rural Tajik group (Group 2) faced significant “resource poverty”.

Environmental Constraints: Participants in the rural subgroup reported that poor school conditions and the high cost of Wi-Fi restricted their ability to engage with digital English resources or assign online tasks.

Geographic Isolation: The remoteness of the mountain villages limited these teachers’ exposure to the standardized linguistic environment of the city, further widening the gap in teaching materials and methods.

Linguistic Identity and “Ethnic Pride” in Dialects. For the second subgroup (Rural Tajik), linguistic identity was tied to their local dialects. The study observed two distinct reactions to the dominant linguistic group:

1. Linguistic Accommodation: Some younger teachers, like Student B (Rural), utilized “style shifting”, choosing to communicate in Uzbek with colleagues and adapting their accents to reduce communication barriers.
2. Resistance and Solidarity: Older teachers, such as Student A (Rural), expressed embarrassment over their Tajik accents in front of the urban group but remained loyal to their dialect. This reflects Fought’s (2011) observation that adopting a standard or majority language can be perceived as a lack of loyalty to one’s “ethnic pride”.

L1 Interference and Universal Errors. Interestingly, both groups exhibited similar grammatical challenges regardless of their ethnicity or SES. Absence of specific structures in both Uzbek and Tajik—such as third-person singular markers and definite articles—led to repetitive errors in English. This confirms that while social status varies, the cognitive process of L1 interference remains a shared experience among EFL teachers in this region.

**Research discussion.** All members of two subgroups commit repetitive errors in the use of third person singular pronouns, verb aspects, articles, and other related elements. These learners’ worldviews were altered as a result of the absence of these grammatical structures in their native language (Wardaugh & Fuller, 2014). Additionally, some of my students subconsciously employed “she” to refer to both genders. The language of both subgroups and the “code-switching” of the first subgroup should be

embraced, as Nuessel (2010) wrote that code-switching does not imply the "reconfiguration" of two separate languages, but rather the sophisticated use of two languages. In order to foster the use of the English language, learners should not be restricted in their code-switching tendencies. It is recommended that language learners in the initial subgroup be encouraged to employ code-switching as a means of transitioning to the study of English. In an effort to foster intercultural communication between two groups, the dialectal differences among Tajik teachers can be employed as an example to teach about linguistic diversity and dialects. Furthermore, it is imperative to acknowledge the impact of the target learners' primary language on both groups. The teacher must exercise patience in order to resolve the pattern of repeated L1 interference errors. Learners are discouraged from producing in the target language as a result of overcorrections.Pronunciation and Accent. The teacher should be aware that both subgroups have accents when speaking the target language, and the goal for these students should not be to achieve a perfect British or American accent, but rather to be able to hold a coherent conversation. Furthermore, the teacher should avoid "preferential linguistic profiling" for the first subgroup while using a British accent and "discriminatory linguistic profiling" for the second subgroup when speaking English with a Tajik accent.According to Baugh (2005), linguistic profiling leads to negative practices not only in education but also in a variety of other settings. Selection of language texts for tasks and activities:

It would be beneficial for my target learners to utilize multimodal resources (audio, video, and etc.) that encompass Global Englishes, varieties, and accents. Language varieties are introduced to provide learners with a repertoire of codes and discourses, as per Selvi (2019). Additionally, the classroom materials should be reflective of cultural diversity in order to foster cross-cultural understanding. Canagarajah (1999) introduces different cultures to demonstrate that there is no dominant community and that knowledge is socially constructed in each culture. Language learners should feel safe and valued, regardless of their ethnicity, gender, or linguistic background. Methodologies and techniques used in instruction. Adopting a "polymodal" approach and providing opportunities for exposure to various Englishes would be beneficial because it exposes learners to different varieties of English rather than just "standard English". According to Selvi (2019), this practice is crucial for my target learners, as it fosters diversity in the classroom. Furthermore, using the "English-within-multilingualism" ideology instead of "English-only" allows my target learners to preserve their "heritage language".

**Conclusion.** This study has illuminated the profound impact of sociolinguistic landscapes on the professional identities and pedagogical practices of EFL teachers in Navoi, Uzbekistan. The findings reveal that the English classroom is not a neutral space; rather, it is a site where socioeconomic status, ethnic identity, and historical linguistic hierarchies (specifically the prestige of the Russian language) intersect to create disparate educational experiences.The urban Uzbek subgroup effectively utilizes Russian code-switching and "linguistic adoration" of British accents to establish a higher professional positionality. In contrast, the rural Tajik subgroup, hindered by lower SES and geographic isolation, navigates a complex terrain of "linguistic profiling" and resource scarcity. Despite these social differences, the shared struggle with L1 interference suggests that linguistic commonalities exist which can bridge the gap between these two cohorts.

**References:**


1. Bucholtz, M., & Hall, K. (2005). Identity and interaction: sociocultural linguistic approach. *Discourse Studies*, *7*(4-5), 585-614.
2. Baugh, J. (2005). Linguistic profiling. In S. Makoni, G. Smitherman, A. F. Ball, & A. K. Spears (Eds.), *Black linguistics: Language, society, and politics in Africa and the Americas* (pp. 155-168). Routledge.
3. Fought, C. (2011). Language and ethnicity. In R. Mesthrie (Ed.), *The Cambridge handbook of sociolinguistics* (pp. 238–257). Cambridge University Press.
4. Mesthrie, R., Swann, J., Deumert, A., & Starr, R. L. (2009). *Introducing sociolinguistics.* Edinburgh University Press.
5. Nuessel, F. (2010). Succinct history and overview of U.S. sociolinguistics In E. T. Spencer (Ed.), *Sociolinguistics* (pp. 119–136). Nova Science Publishers, Incorporated.
6. Schilling, N. (2011). Language, gender, and sexuality. In R. Mesthrie (Ed.), *The Cambridge handbook of sociolinguistics* (pp. 218–237). Cambridge University Press.
7. Wardhaugh, R., & Fuller, J. M. (2014). *An introduction to sociolinguistics* John Wiley & Sons.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 159.922.7:811

# MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDA CHET TILINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

*Qo‘ziyeva Marjona Faxriddin qizi, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya mutaxassisligi magistranti*

# THE IMPORTANCE OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGE AT PRESCHOOL AGE

*Qo‘ziyeva Marjona Fakhriddin qizi, Master’s Student in Psychology, Samarkand State University named after Sharof Rashidov*

# ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

*Кузиева Маржона Фахриддин кызы, магистрант по специальности “Психология” Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова*

*https://orcid.org/0009-0004-5635-7567*
*e-mail: mquziyeva7@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola 3-7 yoshlarda o‘z ona tilini o‘rganishi hamda ona tilini o‘zlashtirish bosqichlari, o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan to‘siqlar haqida tahlil qilinadi. Nutq rivojlanishida artikulyatsiya, duduqlanish, nutqning kechikishi kabi nutq buzilishlari kabi muommolar dolzarb mavzulardan biri ekanligi to‘g’risida yoritilgan. Hamda ushbu maqolada chet tilining o‘rganish madaniyatlararo tarbiyani shakillantirishda muhim omila bo‘lib hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq til bilgan bolalarda dunyoqarashining kengayishiga xizmat qiladi. Mahalliy va chet ellik olimlarning chet tilini o‘rgangan bolalarning nutqiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishida yuqori darajada samaradorlik berishi haqida olib borgan tadqiqotlari to‘g‘risida yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ona tili, chet tili, blingvizm, “sezgir davr”, kognitiv faoliyat.*

***Annotation:*** *This article analyzes how children aged 3–7 acquire their native language, the stages of mother tongue acquisition, and the obstacles that arise during this process. It highlights that speech disorders such as articulation problems, stuttering, and delayed speech are among the pressing issues in speech development. The article also emphasizes that learning a foreign language is an important factor in the formation of intercultural education. Knowledge of two or more languages contributes to the expansion of children’s worldview. Furthermore, the paper reviews the studies of local and foreign scholars demonstrating the high effectiveness of foreign language learning in the speech, cognitive, and social development of children.*

***Keywords:*** *native language, foreign language, bilingualism, “sensitive period,” cognitive activity.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется процесс усвоения родного языка детьми в возрасте 3–7 лет, этапы его освоения, а также трудности, возникающие в ходе этого процесса. Освещается, что такие нарушения речи, как проблемы артикуляции, заикание и задержка речевого развития, являются одними из актуальных проблем. Также в статье подчеркивается, что изучение иностранного языка является важным фактором формирования межкультурного воспитания. Владение двумя и более языками способствует расширению мировоззрения детей. Кроме того, рассмотрены исследования отечественных и зарубежных ученых о высокой эффективности изучения иностранного языка в речевом, когнитивном и социальном развитии детей.*

***Ключевые слова:*** *родной язык, иностранный язык, билингвизм, “сензитивный период”, когнитивная деятельность.*

**Kirish.** Bolalarning o‘z ona tilini egallashi 3 bosqichda amalga oshadi. 1-bosqich. Prelingvistik bosqich. Bu bosqichda har bir bolaning individual xususiyatlariga qarab uzoqroq yoki qisqaroq vaqt davom etishi mumkin. Prelingvistik bosqich 10 oydan 15 oygacha bo‘lgan vaqt oralig‘ini o‘z ichiga oladi. 2-bosqich. Yig‘lash bosqichi bo‘lib, bola tug‘ulgan kunidan boshlab 10-15 haftani o‘z ichiga oladi. Yig‘lash orqali bola o‘zidagi noqulay muhit haqida habar beradi (Ochlik, tagining ho‘lligi). Ushbu bosqich bolaning noqulay muhitda ekanligini ifodalab, himoya reaksiyalarini hosil qiladi. Bu bosqichda bolaning yig‘lashi-muloqot vositasi emas, balki bolaning ehtiyojlarini ifoda qilishi sifatida e’tirof etiladi. 3-bosqich. Bu bosqichda bola yaqinlarini taniy boshlaydi. Ba’zi ko‘rsatgan obyektlarni ko‘rsatganda aloqa o‘rnata oladi[1].

Ikkinchi tilni o‘rganish jarayonida o‘yin mashg‘ulotlaridan, ayniqsa, rangli kitoblaridan foydalanib o‘rganish mumkin. Bolalar oilaviy muhit orqali hamda bog‘chasidan boshlab, o‘z tilini ijtimoiy muhit orqali yaxshi o‘rganishadi. Ushbu davrda bolalarga rolli o‘yinlarni o‘ynatish orqali tilni yaxshi o‘rgatish lozimdir. Bunda roll taqsimoti orqali tilni ijtimoiy muhitda tez o‘zlashtirishadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘z ona tilini egallash bola uchun nihoyatda murakkab jarayondir. Bu jarayonda bola juda murakkab ramziy tizimni assimilyatsiya qilish va tushunish bilan duch keladilar. Shuning uchun, ikkinchi ramziy tizimni egallash faqat birinchisini to‘liq egallashdan keyin, ya’ni to‘rt yoki besh yoshdan boshlab sodir bo‘lishi mumkin[2].

Dastlabki, bosqichda bolalarni ikkinchi tilga sezgir qilib, kundalik faoliyatida foydalana oladigan muloqot so‘zlarini doimiy ravishda qo‘llash nihoyatda katta aahamiyatga egadir. Bola to‘rt yoshida hali o‘z ona tilida o‘zlashtirmagan o‘qish va yozish mashg‘ulotlaridan foydalana olmasligi sababli, bu davrda til o‘rgatishda og‘zaki nutqni asoslashimiz zarur. Alohida ta’kidlashimiz kerakki, bu yoshda bolaning diqqatini muayyan vaqt davomida obyektga to‘plash imkoniyati beqaroq bo‘lganligi sababli, o‘yin uchun ajratilgan mashg‘ulot 20-25 daqiqadan oshmasligi nihoyatda ahamiyatga ega. O‘qitish jarayonini o‘yin mashg‘ulotlari orqali proyektiv metodikalarga boy holda qiziqarli tarzda bo‘lishi lozimdir. Bolalar bog'chada, uyda, ko‘chada bolalarning kundalik faoliyatining deyarli yarimi o‘yin orqali o‘tadi. Bu o‘yin mashg‘ulotlarida bolalar kattalarning hatti-xarakatlari, so‘zlarini, kundalik faoliyatini kuzatish orqali ularga taqlid qilishga harakat qiladilar. Shuning uchun yoshlikdan chet tilini o‘rgatish ushbu o‘yin faoliyatining davomi sifatida taqlid orqali o‘rganishadi. Chet tilini o‘rganish bolaning turli kundalik faoliyatlarini o‘z ichiga oladi: rasm chizish, bo‘yash, bekinmachoq o‘ynash, rolli o‘yinlar: shifokor-bemor yoki sotuvchi-xaridor rollarini o‘ynash kabi mashg'ulotlarni o‘z ichiga olishi orqali o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

**Metodologiya va adabiyotlar tahlili**. Tilning eng xarakterli jihati, shubhasiz, uning ijtimoiy tabiatidir. Til aloqa vositasidir. Chet tilini bilish bu faqat tilning lug‘at va grammatik tuzilmalarini bilish bilan cheklanib qolmasdan, balki shu so‘z va tuzilmalardan foydalangan holda ona tilida so‘zlashuvchilar bilan og‘zaki yoki yozma ravishda muloqot qila olishdir. Boshqacha aytganda, tilni bilish faqat zarur grammatik qoidalarni bilish, ya’ni “grammatik kompetensiya”ga ega bo‘lish emasdir. Shuningdek, u “kommunikativ kompetentsiya”ga ega bo‘lishni talab qiladi, ya’ni barcha holatlarda barcha tuzilmalarni va so‘zlarni bemalol qo‘llay olishdir. Bunga ega bo‘lish uchun o‘sha tilning madaniyati va adabiyoti haqida ham ma’umotga ega bo‘lishni talab qiladi. Til kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Tafakkur, xotira, fikrlash, diqqatni jamlash, idrok etish va hokazolar til bilan bog‘liq aqliy faoliyatdir. Til hamda aql bir vaqtda rivojlanadi. Aynan shu sabali, bolaning til rivojlanishi uning umumiy aqliy rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tqizmasdan qolmaydi. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, dunyoda chaqaloqlar tug'ilishganidan boshlab barcha tovushlarni chiqaradilar. Lekin, vaqt o‘tishi bilan ular faqat atrofdagi tildagi tovushlarni takrorlaydilar [3].

Turk olimi Krashenning fikriga qaraganda, bolalar miyasida til rivojlanishi ikki yoshdan boshlab, o‘smirlik davrigacha davom etishini tushuntiradi. Agar bola bu davrda chet tilini o‘rganishni boshlasa, uni o‘z ona tili kabi oson o‘rganishi mumkin ekanligini o‘z tadqiqotlarida isbotlaydi. Lambertning tadqiqotlariga qaraganda , agar bola o‘z ona tilini o‘zlashtirish bilan bir vaqtda ikkinchi chet tilini

o‘rganishni boshlasa, u kelajakdagi ta'limda boshqa bolalarga qaraganda, ko‘proq muvaffaqiyatga erishadi. Lev Vygotsky ta’kidlashicha, bolaning nutqi va tafakkuri ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida rivojlanadi. Maktabgacha yosh davrida tilni o‘zlashtirish jarayoni ayniqsa faol bo‘lib, bu davrda bolalar yangi til birliklarini tez qabul qiladi[1]. Maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab o‘zlashtirilgan chet tillariga bo‘lgan qobiliyat bolalarning kognitiv rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. 6 yoshgacha bo‘lgan davr miyaning eng tez rivojlanadigan davridir. Bu davrda bolalar keng tasavvurga ega bo‘lib, yangi narsalarni o‘rganishga nihoyatda qiziqadilar. Aynan shu xususiyatlarni hisobga olgan holda, maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o‘qitish boshqa davrlarga qaraganda osonroq. Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalar preoperatsion bosqichda bo‘lib, bu davrda til o‘rganish ularning tafakkurini, xotirasini va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi [2] . To‘g‘ri usullar qo‘llanilsa, maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o‘qitish o‘z ona tili bilan bir qatorda oson o‘rganilishi mumkin. Ushbu jadal aqliy rivojlanish davridan unumli foydalanish va ko‘plab o‘rganish imkoniyatlarini, jumladan, chet tillarini taqdim etish, bolaning kelajakdagi hayotini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi [4]. Maktabgacha yoshda til va kognitiv rivojlanish parallel tarzda bo‘lib, nihoyatda juda tez rivojlanadi. Ushbu davrda bolalar ikkinchi tilni o‘rganishda hech qanday to‘siq bo‘lmaydi. Ko‘pchilik o‘ylidiki, bola kichik yoshdan boshlab chet tilini o‘rgansa ham o‘z tilini ham ikkinchi chet tilini yaxshi o‘zlashtirolmedi deb o‘ylashadi. Lekin, olimlarning tadqiqotlariga qaraganda, ikkinchi tilni o‘rganish bolaning ona tilining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatmasligi aniqlangan. Salbiy ta’sir qilmasligining asosiy sababi maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning bosh miya rivojlanishi ikki tilni farqlamaydi va shuning uchun ular ikkala tilni parallel ravishda o‘rgana oladilar. Yoshligidan chet tillari bilan tanishgan bolalarda, ikkala tilda ham yuqori darajada fikrlashadilar [5]. Tadqiqotlarga ko‘ra, bu davrdag bolalarning qiziqishi eng yuqori cho‘qqiga chiqqan bo‘ladi. Maktabgacha tarbiya yoshi o‘rganishga eng ochiq bo‘lgan davrlardan biridir. Bolaga shu davrda chet tilini o‘rganishi ayni paytda boshlash bu sohada katta muvaffaqiyatlarga erishishiga yordam beradi. Yana bir tomoni esa, bolalar chet tilini o‘rganish davomida dunyo madaniyati va tillari mavjudligidan xabardor bo‘lib, yoshligidanoq ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqish bildira boshlaydilar. Shu sabablarga ko‘ra, maktabgacha ta’lim davrida chet tilini o‘rgatish ham bolaning ikkinchi tilni o‘rganishini osonlashtiradi, ham rivojlanishning barcha sohalariga, ayniqsa aqliy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Natija va muhokama.** Ta’lim vositalaridan eng muhimi, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yindir. Chet tilini o‘rgatishda didaktik darslardan foydalanish emas, balki tabiiy jarayon sifatida ko‘rilsa, bolaning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqi yanada ortadi. Stephen Krashen fikricha, chet tilini o‘rganish tabiiy muhitda, qiziqarli faoliyat va muloqot orqali amalga oshirilganda samarali bo‘ladi. Ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yin va muloqot orqali tilni tez o‘zlashtiradi[3]. Doimiy ravishda uyda chet tilida so‘zlashish hamda kundalik hayotda qo‘shiq va o‘yinlar orqali chet tilidan foydalanish o‘rganishni osonlashtiradigan hal qiluvchi omillardan biridir. 2-7 yosh oralig'i bolalarning yangi va boshqa tilni o‘rganishi uchun hal qiluvchi samarali bosqichi hisoblanadi. Buning sababi shundaki, bolalar 6-7 yoshdan oldin o‘rganish bosqichida emas, balki o‘zlashtirish bosqichida. 2 yosh bola o‘z ona tilida gapira boshlagan davr hisoblansa-da, biz hammamiz bilamizki, bola bu tilda gapira olishi uchun u bilan tanishish kerak. Shu bois, 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda ona tilini o‘rganish kabi chet tilini o‘rganishni boshlash unumli bo‘lmaydi. Agar bola 2 yoshida o‘rganganlarini ifodalay boshlasa ham, 3 yoshida o‘rganganlari xotirasida saqlanib qoladi. Ko‘pchilik ota-onalar bir vaqtning o‘zida ikki tilni

[1] Vygotskiy L.S. Myshlenie i rech. – Moskva: Pedagogika, 1982.
[2] Piaget J. The Language and Thought of the Child. – London: Routledge, 2001.
[3] Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982.

o‘rganayotgan bolalar keyinchalik chalkashliklarga duch kelishadi deb o‘ylashlari mumkin, ammo tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bir nechta tillarni o‘rganadigan bolalar o‘rganish vaqtini qisqartiradi va hatto o‘rganish samaradorligini oshiradi [6].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar “ongsiz aqlga” ega bo‘lsa, 3-6 yosh guruhidagi bolalar “ongli aql” tuzilishiga ega bo‘lishadilar. Bu davrda bolalar eshitgan va ko‘rgan hamma narsani ongsiz ravishda eslab qolishadi.. Shuning uchun bu davrda o‘rganilgan til ularning keyingi hayotiga katta hissa qo‘shadi. Farzadingizning maktabgacha yoshda chet tilini o‘rganishini osonlashtirish uchun: 1.Farzandingizga chet tilini o‘rganish uchun bosim o‘tkazmasligingiz kerak. 2.Bolalarga chet tilini o‘yinlar, qo‘shiqlar va qofiyalar orqali osonroq o‘rganadilar. 3.Imo-ishoralar va yuz ifodalari ham bolaga tushunish va talqin qilish uchun ishlatilishi kerak. Kundalik hayotda chet tilini gapirish va uni modellashtirish o‘rganishni osonlashtiradi. Shu sababli, oila a'zolari, tarbiyachilar yoki bola bilan bog'liq bo‘lganlar ikkinchi tilni o‘rganish uchun ushbu yoshda bola bilan chet tilida muloqot qilishlari muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning idroki juda ochiq, qiziqishi yuqori bo‘ladi. Shu sababli, chet tilini o‘rganish uchun ham mos davr hisoblanadi [7].

Til o‘rganish kartalari bolalarga chet tilini idrok etish va tushunishga yordam beradigan interaktiv vositadir. Yorqin rasmlar va kartalardagi qiziqarli vazifalar tufayli bolalar til o‘rganish qiziqarli o‘yin ekanligini his qilishadi. Ushbu interaktiv yondashuv o‘rganishni osonlashtiradi va yangi tilni o‘rganishga ijobiy munosabatni rivojlantiradi. Noam Chomsky til o‘zlashtirish insonning tug‘ma qobiliyatlariga asoslanishini ta’kidlab, bolalik davrida tilni o‘rganish jarayoni ancha tez va samarali kechishini qayd etadi[4]. “Bolalar uchun ingliz tili kartalari” o‘rganishni qiziqarli va samarali qiladi. Bolalar o‘zlarini o‘qishdan ko‘ra o‘ynayotgandek his qiladilar, bu ularning chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini uyg‘otadi [8].

Maktabgacha yoshi faol miya rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda bolalar yuqori darajadagi neyroplastiklikni namoyon etadilar, bu ularga yangi ma'lumotlarni osongina o‘zlashtirishga imkon beradi. Maktabgacha yoshdagi chet tilini o‘rganish yangi neyron aloqalarni shakllantirishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida kognitiv funktsiyalarga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Chet tilini o‘rganayotgan bolalarda tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi, muammoni hal etishga ijodiy yondashadi. Chet tillarini o‘rganish xotirani faol ravishda o‘rgatadigan yangi so‘zlar va grammatik tuzilmalarni yodlashni talab qiladi. Chet tillarini o‘rganayotgan bolalar xotira va e'tibor testlarida yaxshi natijalarga erishadilar. Chunki til o‘rganish jarayoni nafaqat esda saqlashni, balki olingan bilimlarni amalda qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi, bu esa axborotni chuqurroq o‘zlashtirishni osonlashtiradi. Chet tilini erta o‘rganish quyidagi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi: diqqat, xotira, fikrlash va tasavvur. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishdan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasasida chet tillarini o‘rganish muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar o‘z fikrlari va his-tuyg'ularini yangi tilda ifodalashni o‘rganadilar, bu ularning muloqot qobiliyatlarini kengaytiradi va atrofdagi dunyoni yaxshiroq tushunishga yordam beradi [9]. Ular ma’lumotni etkazishning turli usullari mavjudligini tushunadilar, bu esa empatiya va turli ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi. Chet tillarini o‘rganish bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi va madaniyatlararo kompetentsiyani rivojlantiradi. Ular turli madaniyatlar va urf-odatlar bilan tanishadilar, bu ularga yanada ochiq va bag'rikeng bo‘lishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish qobiliyati tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan globallashgan jamiyatda juda qadrlidir. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu sohadagi tadqiqot natijalari aralash. Ba'zi tadqiqotlar chet tilini erta o‘rganishning kognitiv va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi, boshqalari esa sezilarli aloqani

[4] Chomsky N. Language and Mind. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.

topmaydi. Maktabgacha ta’lim muassasasida chet tilini o‘rganish bolaning rivojlanishidagi juda muhim bosqichdir. Bu bolalarga ko‘p tilli dunyoda erkin muloqot qilish va kelajak uchun yangi imkoniyatlarni kashf qilish imkonini beradi. Til kartalari bu jarayonni osonlashtiradigan va uni bolalar uchun qiziqarli va qiziqarli qiladigan juda samarali vositadir. Ma’lumki, ikkinchi tilni o‘rganuvchilar o‘z ona tilida ham o‘qishni tushunish ko‘nikmalarini yaxshilaydi va o‘qish testlarida ham yuqori ball oladi. Ko‘p hollarda boshqa tilni o‘rganish bolaning turk tilidagi ko‘nikmalarini yaxshilaydi. Bolalar boshqa tillarning tuzilmalarini o‘rganish bilan birga chet tili haqida ham ko‘p narsalarni o‘rganadilar. Chet tiliga erta kirish, moslashuvchan va ko‘p qirrali fikrlashni rivojlantiradi. Bolalar tahlil qilish, taqqoslash va naqshlarni aniqlashni o‘rganadilar, bu ularning intellektual qobiliyatlarini kuchaytiradi. Bundan tashqari, yangi so‘zlarni va grammatik tuzilmalarni yodlash ularning xotirasini o‘rgatadi va uni kuchliroq va ishonchli qiladi.

**Xulosa**. Maktabgacha ta’lim muassasasida chet tilini o‘rganish cheksiz imkoniyatlar olamiga eshiklarni ochadigan sehrli kalitga o‘xshaydi. Bu nafaqat kelajakdagi tilni bilish uchun poydevor qo‘yadi, balki kognitiv rivojlanish, xotirani yaxshilash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Chet tili shunchaki so‘zlar va qoidalar to‘plami emas, balki boshqa madaniyatlar va dunyoni idrok etish usullariga bir oynadir. Til o‘rganish orqali bolalar turli xalqlarning urf-odatlari va an'analari bilan tanishadilar, xilma-xillikni qadrlashni va bag'rikenglik ko‘rsatishni o‘rganadilar. Bu ochiqlik va boshqalarga nisbatan hurmatni kuchaytiradi, bu bugungi dunyoda ayniqsa muhimdir. Chet tilini o‘rganish jarayonida ikkinchi til asosiy til bo‘lmasa ham, ular chet tili so‘zlaridan ko‘proq foydalanishga, o‘yin mashg‘ulotlarida ko‘proq foydalanishga yoki ular kabi o‘zini tutishga harakat qilishadilar. Til o‘rgatishda ertaklar, multfilimlar, rasmli hikoyalardan, o‘yin mashg‘ulotlari orqali maktabgacha yoshdagi bolalar oson til o‘rganishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Vygotskiy L.S. Myshlenie i rech. – Moskva: Pedagogika, 1982.
2. Piaget J. The Language and Thought of the Child. – London: Routledge, 2001.
3. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982.
4. Chomsky N. Language and Mind. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
5. Rod Ellis. The Study of Second Language Acquisition. – Oxford: Oxford University Press, 2008.
6. David Nunan. Teaching English to Young Learners. – Anaheim: Anaheim University Press, 2011.
7. Jeremy Harmer. How to Teach English. – London: Longman, 2007.
8. Penny Ur. A Course in English Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
9. Jack C. Richards. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 341.231.14:314.7-055.2(575.1)

# MIGRATSIYA VA AYOLLAR HUQUQLARI: O‘ZBEKISTON AYOL MIGRANTLARI MISOLIDA

***Ravshanova Malika Asror qizi, Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti***

# MIGRATION AND FEMALE RIGHTS: THE EXPERIENCE OF UZBEK MIGRANT WOMEN

***Ravshanova Malika Asror qizi, master’s student of Tashkent State Law University***

# МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ И ПРАВА ЖЕНЩИН: ОПЫТ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ-ЖЕНЩИН ИЗ УЗБЕКИСТАНА

***Равшанова Малика Асрор кызы, магистрант Ташкентского государственного юридического университета***



***https://orcid.org/0009-0006-5780-4669***
***e-mail: malikarav@icloud.com***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada migratsiya jarayonlarida ayollarning huquqiy holati xalqaro va milliy qonunchilik prizmasi orqali tahlil qilinib, gender yondashuvining nazariy-huquqiy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda O‘zbekistonlik ayol migrantlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini kuchaytirish hamda ularning huquqiy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *migratsiya, ayollar migratsiyasi, raqamli huquqlar, migrant, huquq, himoya.*

***Abstract:*** *This master’s thesis analyzes the legal status of women in migration processes through the prism of international and national legislation, highlighting the theoretical and legal foundations of the gender approach. The research develops practical proposals and recommendations aimed at strengthening the socio-legal protection of female migrants from Uzbekistan and ensuring their legal security.*

***Keywords:*** *migration, female migration, digital rights, migrant, right, protection.*

***Аннотация:*** *В данной магистерской диссертации анализируется правовой статус женщин в миграционных процессах через призму международного и национального законодательства, а также освещаются теоретико-правовые основы гендерного подхода. В исследовании разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на усиление социально-правовой защиты женщин-мигрантов из Узбекистана и обеспечение их правовой безопасности.*

***Ключевые слова:*** *миграция, женская миграция, цифровые права, мигрант, право, защита.*

**Kirish**. “Migratsiya” atamasi lotincha “migratio” va “migro” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “ko‘chib o‘tyapman” yoki “ko‘chib ketyapman” ma’nosini anglatadi. Xalqaro migratsiya tashkiloti migratsiyani “odamlarning odatiy yashash joyidan xalqaro chegara orqali yoki davlat chegaralari ichida ko‘chib o‘tishi” deb ta’riflaydi [1]. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy ishlar departamenti “odatdagi yashash mamlakatini o‘zgartirgan har qanday shaxs”ni xalqaro migrant deb ta’riflaydi. Bu ta’rif faqatgina “dam olish, do‘stlar va qarindoshlarnikiga tashrif, biznes, tibbiy muolajalar va diniy ziyorat” tufayli yuzaga kelgan migratsiyani istisno qiladi [2]. Ushbu jarayonni tadqiq etishda migratsiya faktori tushunchasi markaziy o‘rin tutgan [3].

Shuningdek, BMT tomonidan 1958-yilda nashr etilgan terminologiya lug‘atida migratsiya demografik jarayon sifatida aholi harakatining eng muhim yo‘nalishi deb tavsiflanadi. Shuningdek, 1989-yilda bo‘lib o‘tgan Xalqaro migratsiya tashkilotining 59-sessiyasi doirasida ushbu hodisaga davlat rivojlanishining determinanti va

ajralmas tarkibiy qismi sifatida baho berilgan. Mazkur yondashuvga ko‘ra, migrant tushunchasi muayyan hududiy ko‘chishni amalga oshirgan hamda xalqaro miqyosdagi institutsional ko‘makka muhtoj bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi e’tirof etilgan. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlarini tahlil qilishda gender aspekti, xususan, ayollar migratsiyasi fenomeni alohida ahamiyat kasb etayotganini ta’kidlashimiz joiz. Agar klassik yondashuvlarda migratsiya gender-neytral jarayon sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda tadqiqotchilar migratsiyani jinsiy tanlovga asoslangan murakkab ijtimoiy tizim sifatida e’tirof etmoqdalar. M. Boyd va E. Grieko kabi olimlarning fikricha, ayollar migratsiya traektoriyasining barcha bosqichlarida qaror qabul qilishdan tortib, qabul qiluvchi mamlakatdagi mehnat integratsiyasigacha bo‘lgan jarayonda erkaklarga qaraganda ko‘proq institutsional hamda ijtimoiy to‘siqlarga duch kelmoqdalar.

**Adabiyotlar tahlili.** Tadrijiy nuqtayi nazardan tahlil qilinganda, o‘tgan asrning so‘nggi choragiga qadar migratsiya nazariyalarida “gender ko‘rligi” fenomeni ustuvorlik qilganligi kuzatilgan [4]. Ushbu yondashuv amaliyotda davlatlar tomonidan ayollar migratsiyasini tartibga solishda ko‘pincha cheklovchi hamda diskriminatsion xarakterdagi institutsional to‘siqlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Xususan, Nepal tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hukumat tomonidan 40 yoshgacha bo‘lgan ayollarning xorijga chiqishi uchun oilasidagi erkaklar hamda mahalliy hokimiyat organlaridan ruxsatnoma olish talabi [5] aynan gender-noadekvat siyosatning natijasi hisoblangandi [6]. Tadqiqotchi Bhagatning ta’kidlashicha, bunday taqiqlar migratsiya xavfsizligini ta’minlash o‘rniga, ayollarni tizimli chetlatish hamda ularni noqonuniy kanallar orqali harakatlanishiga turtki berib, odam savdosi xavfini yanada oshirishi mumkin [7]. Ushbu yondashuvni quvvatlagan holda ta’kidlashimiz joizki, ayollar migratsiyasiga nisbatan o‘rnatiladigan sun’iy cheklovlar kutilgan natijani bermasligi mumkin, aksincha, noqonuniy yoki norasmiy migratsiya oqimlarining jadallashuviga bilvosita xizmat qiluvchi katalizator bo‘lishi mumkin. Buning tasdig‘i sifatida Indoneziya ma’lumotlari asosida o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqot natijalarini keltirishimiz mumkin. Mazkur tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayollar migratsiyasi sun’iy ravishda cheklanmagan muhitda ularning oiladagi mavqeyi sezilarli darajada oshib boradi. Xususan, migratsiyada bo‘lgan ayollarning 5 yildan so‘ng oilaviy jamg‘armalarni boshqarish hamda muhim qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki 20% dan ko‘proqqa oshganligi qayd etilgan [8]. Bu esa migratsiyani nafaqat iqtisodiy omil, balki ayollarning huquq, imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning oiladagi ijtimoiy maqomini transformatsiya qilish vositasi sifatida baholash zarurligini ko‘rsatmoqda. Ushbu davrda migratsiya hodisasi sof makroiqtisodiy va demografik jarayon sifatida, asosan, ishchi kuchi harakati prizmasi orqali o‘rganilgan bo‘lib, bu yondashuvda gender farqlari inobatga olinmagan. An’anaviy migratsiya oqimlarining asosiy kuchi hamda faol subyekti sifatida muntazam ravishda erkaklar nazarda tutilgan. Mazkur androsentrik model doirasida ayollar migratsiyasi mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida emas, balki erkaklarga ergashuvchi passiv hamroh yoki oilani birlashtirish jarayonining ikkinchi darajali tarkibiy qismi sifatida talqin qilingan. Bunday metodologik yondashuv ayol migrantlarning global mehnat bozoridagi subyektiv rolini va ularning migratsion qaror qabul qilishdagi avtonomligini ilmiy jihatdan inkor etib kelgan. Skalabrinian migratsiya tadqiqotlari markazi tadqiqotchisi, R. Boing ta’kidlaganidek, uzoq vaqt davomida migratsiya tahlillarida ayollar faqat ergashuvchi subyekt sifatida ko‘rilgan. Xususan, ayollar migratsiyasining o‘ziga xos determinantlari, ijtimoiy-huquqiy himoya masalalari tizimli tadqiqot obyektidan tashqarida qolib, faqatgina ayrim tarqoq izlanishlarda yordamchi ma’lumot sifatida aks ettirilmoqda. Ayniqsa, xalqaro huquqiy hujjatlarda, xususan, 1993-yildagi “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish to‘g‘risidagi deklaratsiya”ning 1-moddasida e’tirof etilganidek, shaxsga uning jinsi tufayli jismoniy, jinsiy yoki psixologik zarar yetkazadigan yoxud shunday zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday xatti-harakat, jumladan, erkinlikdan asossiz mahrum etish kabi genderga asoslangan zo‘ravonlik holatlari ayol migrantlarning huquqiy himoyasizligini yanada kuchaytirmoqda. Natijada, xalqaro migratsiya huquqi va sotsiologiyasi uzoq yillar davomida bir tomonlama xarakterga ega bo‘lib, ayol

migrantlarning huquqiy maqomini belgilashda universal gender-neytral normalarning qo‘llanilishi ularning real ehtiyojlarini to‘liq qoplash imkonini bermagan. Biroq, zamonaviy bosqichda global harakatchanlikning tarkibiy o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan migratsiyaning ayollashuvi tendensiyasi an’anaviy qarashlarni konseptual jihatdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Yuqorida keltirilgan statistik ko‘rsatkichlar rivojlangan davlatlar mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar, xususan, g‘amxo‘r iqtisodiyoti, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalaridagi kadrlar defitsitining ayol migrantlar hisobiga qoplanayotganidan dalolat bermoqda. Shimoliy mamlakatlarda ayollar migratsiyasining barqaror yuqori ko‘rsatkichlarini asoslovchi fundamental omillar sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

— oilani birlashtirish instituti: boy migratsion an’analarga ega bo‘lgan davlatlarda ushbu huquqiy mexanizm ayollar migratsiyasining asosiy drayveri bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu jarayon nafaqat demografik ko‘rsatkichlarni, balki migrant ayollarning qabul qiluvchi jamiyatga ijtimoiy integratsiyalashuv darajasini ham belgilab bermoqda;

— ijtimoiy emansipatsiya va avtonomiya: rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy muhit ayollarga o‘z iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash, ta’lim olish hamda professional faoliyat yuritish borasida keng istiqbollar taqdim etmoqda. Bu esa o‘z navbatida, ayollar uchun migratsiyani shunchaki yashash joyini o‘zgartirish emas, balki ijtimoiy o‘shish sifatida xizmat qilishiga imkon beradi;

— mehnat bozorining gender segmentatsiyasi: shimoliy mamlakatlar iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sektori ulushining ortishi, an’anaviy ravishda ayollar mehnat sohasi hisoblangan yo‘nalishlarga xalqaro miqyosda talabni barqarorlashtirmoqda [9].

Shunday qilib, rivojlangan davlatlarda ayollar migratsiyasi nafaqat oilaviy hamrohlik, balki individual tanlov va professional rivojlanish strategiyasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Muhim jihati shundaki, zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli platformalar ayol migrantlar uchun masofaviy mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu esa an’anaviy migratsiya tushunchasini virtual migratsiya elementlari bilan boyitib, ayollarning iqtisodiy faolligini yangi huquqiy maydonda tartibga solish zaruriyatini tug‘dirmoqda. Agar 2006–2007-yillardagi tadqiqotlarda ushbu mintaqada ayollar ulushi 30% dan past deb ko‘rsatilgan bo‘lsa [10], 2025-yilgi Xalqaro migratsiya tashkiloti ma’lumotlari bu ko‘rsatkichning 38% gayetganini tasdiqlamoqda [11]. Bu jarayon, ayniqsa, Saudiya Arabistonining “Vision 2030” strategik dasturi doirasida iqtisodiyot va xizmat ko‘rsatish sohasining liberallashuvi natijasida tibbiyot va servis yo‘nalishlaridagi ayol migrantlar oqimining ortishi bilan izohlanmoqda. Bu esa migratsiyaning ayollashuvi nafaqat miqdoriy, balki geografik jihatdan ham kengayib borayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, Janubi-Sharqiy Osiyoning qator mamlakatlari Shri-Lanka, Indoneziya va Filippin migratsiya profilida sifat transformatsiyasi yuz bergan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda ushbu davlatlar nafaqat past malakali ishchi kuchini, balki aqllar migratsiyasi doirasida yuqori malakali hamshiralar va AKT mutaxassislarini ham yetkazib bermoqdalar. Masalan, Filippinda ayollar emigratsiyasi jami oqimning 55–60% ini tashkil etmoqda [12]. Mazkur global tendensiyalar O‘zbekiston uchun ham xosdir. So‘nggi yillarda mamlakatimizdan yo‘nalayotgan migratsiya oqimlari nafaqat an’anaviy bozorlar Rossiya va Janubiy Koreya, balki Germaniya, Buyuk Britaniya va Polsha kabi Yevropa davlatlari hisobiga geografik jihatdan diversifikatsiyalanmoqda. Statistik tahlillarga ko‘ra, O‘zbekiston ayol migrantlarining umumiy oqimdagi ulushi 25–30% dan oshib borishi migratsiyaning milliy darajada ham ommalashib borayotgani va uning tarkibiy jihatdan murakkablashayotganini tasdiqlamoqda [13]. Bundan tashqari, ayol migrantlarni qabul qiluvchi davlat gender shartlari ham migratsiya to‘g‘risida qaror qabul qilish, eng avvalo, migratsiya yo‘nalishini tanlashga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Immigratsiya siyosati tashqi ko‘rinishidan neytral bo‘lib tuyulsa-da, qabul qilinadigan migrantlarning soni hamda turiga oid mezonlarni belgilash orqali xotin-qizlarning kelishini osonlashtirishi yoki aksincha, qiyinlashtirishi mumkin. Shuningdek, boriladigan joydagi ayolning ijtimoiy roli bilan bog‘liq madaniy

stereotiplar ham ayollar migratsiyasini cheklovchi omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin [14]. Shu bilan birga, ayollar migratsiyasida, ayniqsa, boriladigan manzilni tanlashda muhim o‘rin tutuvchi ijtimoiy tarmoqlar ham patriarxal andozalarni o‘zida aks ettirishi mumkin. Noqonuniy tarmoqlar holatida esa, har doim odam savdosi, jinsiy ekspluatatsiya yoki boshqa turdagi zo‘ravonlik qurboni bo‘lish xavfi saqlanib qoladi. Ushbu gender o‘zgaruvchilarini hisobga olgan holda, biz tadqiqotchi Boyd va Griekoning migratsiyani jinsiy tanlovga asoslangan jarayon sifatida ko‘rish kerakligi haqidagi fikriga qo‘shilamiz [15]. Umuman olganda, barcha ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar migratsiya jarayonida erkaklarga qaraganda ko‘proq to‘siqlarga duch kelishmoqda. Mazkur nazariy xulosalarning amaliy isboti sifatida Meksikadagi Redodem monitoringi natijalarini keltirishimiz mumkin, ushbu empirik ma’lumotlarga ko‘ra, migratsiya qarorlarida gender omili belgilovchi, tabaqalashgan rol o‘ynamoqda. Chunonchi, ayollarning qariyb 55% umumiy zo‘ravonlik siyosiy, jinoiy, ijtimoiy nizolar tufayli migratsiya qilishga majbur bo‘lishsa, oilaviy va maishiy zo‘ravonlik sababli ko‘chish ko‘rsatkichi ayollar orasida erkaklarga nisbatan 3-4 barobar yuqori ekanligi aniqlangan. Lotin Amerikasi mamlakatlari, xususan Ekvador misolida ayollarning 80%i aynan genderga asoslangan zo‘ravonlikni migratsiyaning asosiy turtki beruvchi omili sifatida ko‘rsatishi migratsiya nazariyalaridagi “gender ko‘rligi” fenomenidan voz kechish hamda ayollar uchun maxsus huquqiy himoya mexanizmlarini yaratish zarurligini tasdiqlamoqda [16]. Global miqyosda qishloq xo‘jaligining feminizatsiyalashuvi jarayoni ham ushbu tizimli to‘siqlarning o‘ziga xos davomi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, Nepal misolida o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, erkaklar migratsiyasi natijasida ayollar xo‘jalik boshqaruvini o‘z qo‘llariga olishlariga qaramay, ularning qaror qabul qilish vakolatlari hanuzgacha ijtimoiy va tarkibiy tengsizliklar bilan cheklanib qolmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oilalardagi ayollar resurslarni nazorat qilishda ko‘proq mustaqillikka ega bo‘lsalar-da, katta oilalardagi ayollar ko‘pincha iyerarxik nazorat ostida qolmoqdalar, bu esa ularning pul o‘tkazmalaridaninnovatsion maqsadlarda foydalanish imkoniyatini cheklamoqda [17].

Biroq, migratsiya jarayonlari faqatgina salbiy oqibatlarga ega emas. Mazkur tadqiqot oqimlarining gender jihatidan to‘g‘ri taqsimlanishi muhim ijobiy natijalarga ham olib kelishi mumkin ekanligini ko‘rsatmoqda. Buni yuqorida ko‘rsatilgan Nepal tajribasida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Bu tajribasidagi ijobiy ko‘rsatkichlarga monand, O‘zbekistonda ham migratsiyadan qaytgan ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy reabilitatsiya qilish tizimi yo‘lga qo‘yilganni ta’kidlashimiz lozim. Xususan, “Ayollar daftari” orqali migratsiyadagi ayollarning oilalariga moddiy yordam ko‘rsatish va qaytgan ayollarning bandligini ta’minlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda ayol migrantlar soni barqaror ravishda ortib borayotgan bir sharoitda, ularning xorijda O‘zbekiston Respublikasining to‘liq huquqiy himoyasida ekanliklarini amalda his qilishlari va har qanday vaziyatda qonun ustuvorligi hamda adolat tamoyillari qo‘llanilishini ta’minlash strategik ahamiyatga ega.

Oxirgi vaqtlarda Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa xorijiy davlatlarda ayol migrantlarning fojiali tarzda hayotdan ko‘z yumishi yoki zo‘ravonlik qurboniga aylanishi holatlari kuzatilmoqda. Bu esa xalqaro darajadagi huquqiy yordam va konsullik himoyasi mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini tug‘dirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda migrant ayollarning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi holatlarning ko‘payishi ularni nafaqat jismoniy, balki kiber-makonda ham huquqiy himoya qilish masalasini o‘rtaga tashlamoqda. Sharqiy mentalitetda ayol muhojirlarga nisbatan mavjud bo‘lgan ayrim salbiy qarashlar hamda stereotiplar ularning ijtimoiy integratsiyasiga ham to‘sqinlik qilishi mumkin. Ushbu omillar migratsiyadan qaytgan ayollarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomini tiklash hamda kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik masalalarining naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatadi, nazarmizda. Binobarin, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan himoya nafaqat xorijda, balki migrant ayol o‘z vataniga qaytganidan so‘ng ham davomiy va tizimli xarakterga ega bo‘lishi lozim.

Yuqorida keltirilgan Braziliya, Indoneziya, Lotin Amrikasi kabi davlatlar tajribasi migratsiyaga turtki bo‘luvchi omillar hamda ayollar migratsiyasining iqtisodiy transformatsiyalardagi rolini yaqqol ko‘rsatib berdi. Biroq, ushbu jarayonda ayol migrantlarning huquqiy himoyasini ta’minlashning yana bir o‘ta muhim jihatini alohida ta’kidlash lozim. O‘zbekiston va MDH mamlakatlari uchun xorijdan qaytib kelgan muhojir ayollarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish masalasi strategik ahamiyatga ega. Agar ushbu jarayon davlat va jamiyat e’tiboridan chetda qolsa, quyidagi ijtimoiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin:

— migratsiyadan qaytgan ayollarga nisbatan jamiyatdagi stereotiplar va “aybdorlik” tamg‘asining bosilishi ularning huquqiy va ijtimoiy kamsitilishiga sabab bo‘lishi mumkin;

— reintegratsiya jarayonidagi tizimli to‘siqlar, oilaviy nizolar va iqtisodiy muvaffaqiyatsizliklar ayol migrantlar orasida chuqur depressiya hamda o‘z joniga qasd qilish kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin;

— qaytib kelgan ayollarning mulkiy huquqlari, mehnat stajini tan olish, ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish mexanizmlari takomillashmaganligi ularning huquqiy bo‘shliqda qolib ketishiga olib kelishi mumkin.

**Xulosa.** Nazarimizda, migratsiya siyosati nafaqat xorijga ketish va u yerda bo‘lish jarayonini, balki vataniga qaytgan ayollarning huquqiy maqomini kafolatlashni ham qamrab olishi shart. Aks holda, migratsiyaning iqtisodiy foydasi uning keltirib chiqaradigan ijtimoiy zararlari oldida o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Migratsiya sohasidagi atamalar lug‘ati. Xalqaro migratsiya huquqi. – Jeneva: Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM), 2019. – B. 61-62.
2. Qaytish migratsiyasi: Xalqaro yondashuvlar va Markaziy Osiyoning mintaqaviy o‘ziga xos xususiyatlari. – Almati: Xalqaro migratsiya tashkiloti – BMT migratsiya Agentligi, 2020. – B.17.
3. Migratsiya faktori — lotincha “omil” so‘zi “qiluvchi”, “ishlab chiqaruvchi” ma’nosini anglatib, biron-bir jarayon yoki hodisani harakatga keltiruvchi kuch sifatida talqin etiladi.Omil tushunchasi biron-bir jarayon yoki hodisani harakatga keltiradigan kuch ma’nosida ishlatiladi.
4. Marinucci R. Feminization of Migration? // REMHU: Revista Interdisciplinar da Mobilidade Humana. – Brasília: CSEM, 2007. – Ano XV, № 29. – P. 5-22. ISSN: 1980-8585.
5. Safe migration for women // Nepal Times. - September 12, 2024.
6. Moving to power? Gender norms, women’s migration and household decision making // NewsRx science daily. - February 27, 2026.
7. Martinez J.P. El mapa migratorio de América Latina y el Caribe, las mujeres y el género. – Santiago de Chile: CEPAL, 2003. – P. 19.
8. IOM World Migration Report 2024. International Organization for Migration. – Geneva, 2024. – P. 25-28.
9. GRIECO, Elizabeth M.; BOYD, Monica. Women and Migration: Incorporating Gender into International Migration Analysis. // Migration Information Source. – 2003.
10. BOYD, Monica. Push Factors Resulting in the Women´s Decision to Migrate // UNFPA; IOM. Female Migrants. Bridging the Gaps Throughout the Life Cycle. – 2006. – P. 29.
11. Domestic and social violence behid women’s migration // CE noticies financieras English. - November 24, 2024.
12. Kandel, G. P., et al. Gender dynamics and remittances in the adoption of sustainable agricultural practices in Nepal // Scientific Reports. – 2026. – Vol. 16, No. 2107.
13. O‘sha joyda.
14. Investigators at Universidad CES Report New Data on Mental Health Diseases and Conditions (The Feminization of Migrations: Psychosocial and Mental health aspects of Venezuelan women in Colombia) // NewsRx Policy and Law Daily. – December 29, 2025.
15. The feminization of Venezuelan migration // University of Southampton. – 2022. – October 21.
16. O‘sha joyda.
17. Somaiah, B.C., Cabanda, E., Ho, E.L.E., Yeoh, B.S.A. Reconceiving Asian parenting within intra-Asia migration // Journal of ethnic and migration studies. – 2026. - P. 1419-1421.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 159.9:316.346.2:37.015.3

# TALABALARNING BO‘LAJAK KASBIY FAOLIYATIDA GENDER TENGLIK G‘OYASINI AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGIK TAYYORLIGINING TARKIBIY MODELI

*Murodov Mashrab Yoqub o‘g‘li, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ‘‘Ijtimoiy ish’’ kafedrasi o‘qituvchisi*



*e-mail: murodovmashrab06@gmail.com*

# STRUCTURAL MODEL OF STUDENTS’ PSYCHOLOGICAL READINESS TO IMPLEMENT THE IDEA OF GENDER EQUALITY IN THEIR FUTURE PROFESSIONAL ACTIVITY

*Murodov Mashrab Yoqub ugli, Lecturer of the Department of “Social Work”, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek*

# СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГОТОВНОСТИ СТУДЕНТОВ К РЕАЛИЗАЦИИ ИДЕИ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ИХ БУДУЩЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Муродов Машраб Ёкуб оглы, преподаватель кафедры “Социальная работа” Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada talabalarning bo‘lajak kasbiy faoliyatida gender tenglik g‘oyalarini amalga oshirishga psixologik tayyorligining tarkibiy modeli tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu tayyorgarlikning asosini tashkil etuvchi besh muhim komponent — gender madaniyat, gender tolerantlik, shaxsiy yetuklik, shaxsning gumanistik yo‘nalganligi hamda ma’naviy-axloqiy mas’uliyat ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Har bir komponentning mazmun-mohiyati, ularning o‘zaro bog‘liqligi va shaxsning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari talabalarda gender tenglik g‘oyalarini shakllantirishda tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *gender tenglik, gender madaniyat, gender tolerantlik, shaxsiy yetuklik, gumanistik yo‘nalganlik, ma’naviy-axloqiy mas’uliyat, psixologik tayyorgarlik, kasbiy faoliyat.*

***Abstract:*** *This article analyzes a structural model of students’ psychological readiness to implement gender equality ideas in their future professional activities. The study scientifically substantiates five important components that form the basis of this training: gender culture, gender tolerance, personal maturity, the humanistic orientation of the individual, and spiritual and moral responsibility. The essence and content of each component, their interconnection, and their significance in an individual’s professional activity are highlighted. The research results indicate the need for a systematic approach to forming ideas of gender equality in students.*

***Keywords:*** *gender equality, gender culture, gender tolerance, personal maturity, humanistic orientation, spiritual and moral responsibility, psychological training, professional activity.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется структурная модель психологической готовности студентов к реализации идей гендерного равенства в своей будущей профессиональной*

*деятельности. В исследовании научно обоснованы пять важных компонентов, составляющих основу этой подготовки: гендерная культура, гендерная толерантность, личностная зрелость, гуманистическая направленность личности и духовно-нравственная ответственность. Освещены содержание и сущность каждого компонента, их взаимосвязь и значение в профессиональной деятельности личности. Результаты исследования показывают необходимость системного подхода к формированию идей гендерного равенства у студентов.*

***Ключевые слова:*** *гендерное равенство, гендерная культура, гендерная толерантность, личностная зрелость, гуманистическая направленность, духовно-нравственная ответственность, психологическая подготовка, профессиональная деятельность.*

**Kirish.** Zamonaviy globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida gender tenglikni ta’minlash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatida gender tenglik tamoyillariga amal qilishi ijtimoiy adolatni qaror toptirish, samarali mehnat muhitini yaratish va inson kapitalidan to‘liq foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Talabalarning kasbiy shakllanish jarayoni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, balki ularning ijtimoiy qarashlari, qadriyatlari va psixologik tayyorgarligi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, gender tenglik g‘oyalarini anglash va amaliyotga tatbiq etishga tayyorgarlik darajasi muhim ilmiy muammo sifatida qaraladi. Mazkur jarayonni chuqur o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, shaxsning gender tenglikka nisbatan munosabati va xulq-atvori ko‘p omilli tizimga asoslanadi. Shu bois talabalarning psixologik tayyorgarligini tizimli yondashuv asosida tahlil qilish, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash va ilmiy asoslash dolzarb vazifalardan biridir.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, modelni qurish turli bilim sohalarida nazariy va amaliy tasavvurlarning to‘g‘riligi va to‘liqligini tekshirish orqali ancha samarali kirishadi. Modellashtirish nazariyasida, odatda, modellashtirish obyektining vazifasiga bog‘liq bo‘lgan ikkita asosiy yondashuv ajratib ko‘rsatiladi. Birinchi yondashuv - bu model o‘rnini bosuvchi. Bunday model mavjud voqelikni qayd etadi, aks ettiradi. Bunday holda, haqiqiy obyektlar bilan manipulyatsiya qilishdan oldin modelda ishlash amalga oshiriladi. Ikkinchi yondashuv - model, namuna. Bunday model prognostik hisoblanadi, ya’ni taqdim etilgan obyektning holatini aks ettiradi va model doirasida ushbu obyektning rivojlanishini ta’minlaydi Gaydamashko I.V., Babichev I.V., Gorbunov I.A., Morozova S.V.[1]. Ushbu tadqiqotning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, biz birinchi turdagi modellashtirishga rioya qildik.

Bundan tashqari, modellarni loyihalashning o‘zi, odatda, ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi. Birinchisi, shaxsiy tajribaga asoslangan intuitiv, sinov va xatolar deb ataladigan empirik yondashuvdir. Bunda modellashtirish juz’iylikdan umumiylikka, subyektivlikdan obyektivlikka qarab boradi. Bunday yo‘l ko‘proq mualliflik, g‘ayrioddiy, nostandart yo‘ldan boradi. Ikkinchi yo‘l - nazariy, ilmiy asoslangan yo‘l. U tizimli yondashuv va jarayonni tahlil qilishni hisobga oladi. U butun tadbirlar tizimini tahlil qilgan holda modellashtirish obyektini yanada umumlashtirilgan holda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Binobarin, ikkinchi yo‘l bugungi kunda keng tarqalgan bir tomonlama yondashuvdan farqli o‘laroq, modelni loyihalashda zarur tizimli yondashuvni ta’minlaydi, bunda faqat taklif etilayotgan yangiliklardan foydalanishning ayrim imkoniyatlari tahlil qilinadi [2].

Bo‘lajak mutaxassisning gender tenglikni amalga oshirishga psixologik tayyorligi tuzilmasi J.A.Starovoytova, Ye.V.Ioffe, L.E.Semenova, Ye.V.Naumova va boshqalar tomonidan quyidagi yondashuvlar prizmasi orqali ko‘rib chiqilgan:

-o‘quv, ya’ni umumpedagogik, umummadaniy, maxsus komponentlar;

-texnologik, ya’ni umumta’lim, dunyoqarash, psixologik-pedagogik, texnologik komponentlar;

-shaxsiy-faoliyatli, ya’ni motivatsion, kognitiv, hissiy-irodaviy komponentlar [3].

Shunday qilib, olimlarning yuqoridagi pozitsiyalari, o‘rganilayotgan muammoning nazariy tahlili xulosalari, modellashtirishning ilmiy asoslarini hisobga olgan holda, biz bo‘lajak mutaxassisning gender tenglik g‘oyalarini amalga oshirishga psixologik tayyorligining tarkibiy modelini tayyorladik (1-rasm).

**1-rasm. Talabaning bo‘lajak kasbiy faoliyatida gender tenglik g‘oyasini amalga oshirishga psixologik tayyorligining tuzilmaviy modeli**




Tayyorlangan modelning asosini beshta o‘zaro bog‘liq komponentlar tashkil etadi:
-gender madaniyat;
-gender tolerantlik;
-shaxsiy yetuklik;
-shaxsning gumanistik yo‘nalganligi;
-ma’naviy-axloqiy mas’uliyat.

Bunda, bo‘lajak mutaxassisning gender tenglik g‘oyalarini amalga oshirishga tayyorligining komponentlarini batafsilroq ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Birinchi komponent doirasida biz gender madaniyatni ajratib ko‘rsatdik. Ushbu tushuncha tadqiqotchilar tomonidan asosan ijtimoiy, kasbiy, ta’lim va oilaviy sohalarda ayol va erkak shaxsining o‘zini har tomonlama namoyon etishi uchun teng imkoniyatlar yaratish kontekstida qo‘llaniladi. Shu bilan birga, turli olimlar o‘rtasida bugungi kunda dunyoda davlat va boshqaruv faoliyatida erkaklar va ayollar vakilligining ba’zi nomutanosibligi, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi umr ko‘rish davomiyligi farqining oshishi, ayollarning ikki tomonlama bandligi, ikki tomonlama axloqiy standartlar kuzatilmoqda, degan yakdil fikr mavjud. Bularning barchasi zamonaviy jamiyat a’zolarining gender madaniyatni shakllantirish yo‘lida muayyan to‘siqlar mavjudligidan dalolat beradi. Buning sabablari sifatida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini allaqachon eskirgan me’yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor standartlariga rioya qilishga yo‘naltiradigan ijtimoiy borliqning barcha sohalarida jinslarning o‘rni va roliga nisbatan eskirgan gender stereotiplari e’tirof etiladi [4].

Gender tenglik g‘oyasini amalga oshirishga psixologik tayyorlikning keyingi, ikkinchi ajratib ko‘rsatilgan tarkibiy komponenti sifatida biz gender tolerantlikni belgiladik. Shu nuqtai nazardan, N.A.Ayupova, A.V.Doronina va boshqalarning fikriga ko‘ra, zamonaviy ko‘p madaniyatli jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning kafolatlaridan biri tolerantlik, shu jumladan gender tolerantlik ham namoyon bo‘ladi. Bu muhim sifatning shakllanishi bolalik davridayoq oila va ta’lim muassasalari sharoitida sodir bo‘ladi va insonning butun hayoti davomida davom etadi. Biroq, kasbiy tayyorgarlik tizimida gumanitar fanlarni o‘rganishning umumiy kursida va hatto bag‘rikenglik masalalari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan kurslarda gender tolerantlikni tarbiyalash masalasi bir qator sabablarga ko‘ra, odatda, hali ham juda cheklangan yoki umuman taqdim etilmagan. Shu bilan birga, tez o‘zgaruvchan zamonaviy demokratik rivojlanayotgan jamiyat va shaxslar kasbiy va ijtimoiy hayotda ham, oila va ishdagi shaxslararo munosabatlarda ham gender stereotiplarining bosimini tobora keskinroq his qilmoqdalar [5].

Gender tenglik g‘oyalarini amalga oshirishga psixologik tayyorlikning ajratib ko‘rsatilgan uchinchi tarkibiy qismiga shaxsiy yetuklik kiradi. Bu borada M.A.Umrixina, V.A.Gribsova, L.A.Butova va boshqalar tomonidan umuman yetuklik va xususan, shaxsiy yetuklik tushunchasini aniqlash va talqin qilishning murakkabligi va ko‘p ma’noliligi qayd etilgan. Shaxsiy yetuklik tushunchasining o‘zi hozircha yetarli darajada nazariy jihatdan aniqlanmagan, bu uning mazmunini talqin qilishdagi sezilarli kelishmovchiliklardan dalolat beradi. Zamonaviy tadqiqotchilarning tolerantlikning mohiyati va namoyon bo‘lishi haqidagi qarashlarini tahlil qilish va umumlashtirish shaxs yetukligining ushbu mezonini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar majmuini aniqlashga asos bo‘ladi [6].

Gender tenglik g‘oyalarini amalga oshirishga psixologik tayyorlikning to‘rtinchi ajratib ko‘rsatilgan tarkibiy komponenti sifatida biz shaxsning gumanistik yo‘nalganligini aniqladik.

S.S.Pavlenkovich, M.P.Andreyeva va boshqalarning pozitsiyalariga ko‘ra, o‘quvchilarning insonparvarlik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, yo‘nalganligini rivojlantirish o‘quvchilarning shaxs sifatida o‘zini o‘zi anglashiga, o‘z hayotiy pozitsiyasini shakllantirishni o‘rganishiga, o‘zini va atrofdagilarni tushunishiga yordam beradi. O‘quv mashg‘ulotlarida muloqot o‘quv mehnatini rag‘batlantirishga asos bo‘ladi, u mavhum talabaga yo‘naltirilishi mumkin emas va nafaqat ushbu yoshning dolzarb ehtiyojlarini hisobga olishi, balki shaxsning xilma-xilligiga to‘liq mos kelishi kerak. O‘qituvchi bilan yaqin hamkorlik asosida faol ijodiy faoliyatga jalb etish orqali uning insonparvarlik qadriyatlarini tizimli va maqsadli rag‘batlantirish jarayonida ta’lim oluvchi shaxsini insonparvarlik ruhida yo‘naltirish lozim [7].

Gender tenglik g‘oyalarini amalga oshirishga psixologik tayyorlikning yakuniy, ajratib ko‘rsatilgan beshinchi tarkibiy komponenti sifatida biz ma’naviy-axloqiy mas’uliyatni belgiladik. V.S.Barxatov, M.S.Chvanova va boshqalarning pozitsiyalariga ko‘ra, so‘nggi yillarda ilmiy makonda mas’uliyat muammosiga, xususan, demokratik jamiyat qadriyatlarini amalga oshirishga qodir bo‘lgan erkin shaxsni tarbiyalashning zarur sharti sifatida ma’naviy-axloqiy masalalarga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Hozirgi kunda mas’uliyat muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarning sezilarli darajada ko‘payishi kuzatilmoqda. Huquqiy va kasbiy mas’uliyatni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ular individual darajada mas’uliyatning tashqi tarkibiy qismini tashkil etadi, ma’naviy-axloqiy tarkibiy qism esa mas’uliyatning ichki tarkibiy qismi bo‘lib, insonni uning ommaviy rolidan tashqarida “xususiy” mavjudot sifatida tavsiflaydi [8].

**Xulosa.** Shunday qilib, yuqoridagilardan kelib chiqib, modellashtirishning ilmiy asoslarini, shuningdek, zamonaviy olimlarning o‘rganilayotgan hodisaga nisbatan turli xil pozitsiyalarini hisobga olgan holda, biz bo‘lajak mutaxassisning gender tenglik g‘oyalarini amalga oshirishga psixologik tayyorligining tarkibiy modelini tayyorladik, degan xulosaga kelish maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqishning asosini beshta o‘zaro bog‘liq tarkibiy komponentlar tashkil etadi: gender madaniyati; gender tolerantlik; shaxsiy yetuklik; insonparvarlik yo‘nalishi; ma’naviy-axloqiy mas’uliyat. O‘z mohiyatiga ko‘ra, alohida ajratib ko‘rsatilgan tarkibiy qismlar va umuman model talaba shaxsining zamonaviy gumanitar tafakkurini, uning boshqa jins vakillariga xolis munosabatini, qarama-qarshi individual ma’nolarni tartibga solish qobiliyatini, yangi tajribaga ochiqlikni, hissiy barqarorlikni, atrofdagilar bilan insoniy munosabatlarni o‘rnatishga yo‘naltirilganlikni, o‘z xulq-atvori, munosabatlarining qandaydir ichki regulyatori sifatida tavsiflangan mas’uliyatni qamrab oladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur komponentlarni ta’lim jarayonida maqsadli rivojlantirish orqali talabalarda gender tenglikka asoslangan kasbiy pozitsiyani shakllantirish mumkin. Bu esa nafaqat shaxsning kasbiy o‘zini namoyon etishiga, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Гайдамашко И.В., Бабичев И.В., Горбунов И.А., Морозова С.В. **Моделирование в психолого**-педагогических исследованиях. – Москва: Юрайт, 2020.
2. Назарова Е.С., Булгаков А.В. Теоретические основы моделирования образовательных процессов. – Москва: Инфра-М, 2021.
3. Старовойтова Ж.А., Иоффе Е.В., Семенова Л.Э., Наумова Е.В. Психологическая готовность личности к профессиональной деятельности: структура и компоненты. – Санкт-Петербург: Питер, 2022.
4. Абакумова А.Г., Бартенева И.О. Гендерная культура личности в условиях трансформации общества. – Москва: Юрайт, 2021.
5. Аюпова Н.А., Доронина А.В. Гендерная толерантность в современном образовательном пространстве. – Москва: Просвещение, 2022.
6. Умрихина М.А., Грибцова В.А., Бутова Л.А. Личностная зрелость и профессиональное развитие молодежи. – Санкт-Петербург: Питер, 2020.
7. Павленкович С.С., Андреева М.П. Формирование гуманистической направленности личности в системе высшего образования. – Москва: Инфра-М, 2021.
8. Бархатов В.С., Чванова М.С. Нравственная ответственность личности в условиях глобализации. – Москва: КноРус, 2023.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 378.015.3

# BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI KONSTRUKTIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI: SITUATIV MODELLAR ASOSIDA YONDASHUV

*Mahmudova Zilola Yoqub qizi,*
*Shahrisabz davlat pedogogika instituti*
*Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi, 2-kurs magistranti*
*Ilmiy rahbar: Nurullayeva Shahlo, p.f.d., prof.*
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*
*Pedagogika fakulteti “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedrasi professori*

# METHODOLOGY FOR DEVELOPING CONSTRUCTIVE ABILITIES OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS: A SITUATIONAL MODEL-BASED APPROACH

*Mahmudova Zilola Yoqub qizi,*
*Shahrisabz State Pedagogical Institute*
*Field of study: Theory and Methodology of Education and Upbringing (Primary Education), 2nd-year Masters student*
*Scientific advisor: Nurullayeva Shahlo, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor Shahrisabz State Pedagogical Institute*
*Faculty of Pedagogy, Professor of the Department of Primary Education Theory*

# МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ КОНСТРУКТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ: ПОДХОД НА ОСНОВЕ СИТУАТИВНЫХ МОДЕЛЕЙ

*Махмудова Зилола Якуб кызы,*
*Шахрисабзский государственный педагогический институт*
*Направление: Теория и методика обучения и воспитания (начальное образование), магистрант 2-курса*
*Научный руководитель: Нуруллаева Шахло, д.п.н., проф.*
*Шахрисабзский государственный педагогический институт*
*Педагогический факультет, профессор кафедры теории начального образования*



*mahmudovazilolaxon@gmail.com*

*https://orcid.org/0009-0001-5128-5021*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida konstruktiv qobiliyatlarni shakllantirish metodikasi tadqiq etilgan. Maqolada situativ modellar asosida konstruktiv qobiliyatni shakllantirish uchun funksional model ishlab chiqilgan; keys-model, muammoli vaziyatlar modeli, vaziyatli testlar va reflektiv-muhokama modeli kabi to‘rtta situativ model tavsiflab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *konstruktiv qobiliyat, situativ modellar, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, pedagogik ta’lim, funksional model, keys-model, refleksiya, metodika takomillashtirish.*

***Abstract:*** *This article investigates the methodology for developing constructive abilities in future primary school teachers. The article presents a developed functional model for forming constructive abilities through situational models, and describes four situational model types: case-model, problematic situation model, situational test model, and reflective-discussion model.*

***Key words:*** *constructive ability, situational models, future primary school teacher, pedagogical education, functional model, case-method, reflection, methodology improvement.*

***Аннотация:*** *В данной статье исследуется методика формирования конструктивных способностей у будущих учителей начальных классов. В статье представлена разработанная функциональная модель формирования конструктивных способностей на основе ситуативных моделей, описаны четыре вида ситуативных моделей: кейс-модель, модель проблемных ситуаций, модель ситуативных тестов и рефлексивно-дискуссионная модель.*

***Ключевые слова:*** *конструктивные способности, ситуативные модели, будущий учитель начальных классов, педагогическое образование, функциональная модель, кейс-метод, рефлексия, совершенствование методики.*

## KIRISH

O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar — xususan, 2020-yilda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun (O‘RQ-637-son), 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi (PF-60-son) va 2024-yildagi PQ-231-son Prezident qarori — oliy pedagogik ta’limda mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini yanada chuqurlashtirish zarurligini davlat darajasida belgilab berdi. Mazkur hujjatlarda ta’lim oluvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan.

Shu munosabat bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida konstruktiv qobiliyatni — ya’ni muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlar ishlab chiqish va pedagogik jarayonni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda loyihalash qobiliyatini — shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, mavjud an’anaviy o‘qitish uslublari ushbu qobiliyatni kompleks va izchil rivojlantirishga yetarlicha xizmat qilmayapti [1; 2].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, pedagogik qobiliyatlar nazariyasi (F.N. Gonobolin, V.A. Krutetskiy, N.V. Kuzmina), konstruktivizm falsafasi (J. Piaget, L.S. Vygotskiy, J. Bruner) va situativ o‘qitish nazariyasi (J. Lave, A. Collins, R. Barrows) bo‘lajak o‘qituvchilarning konstruktiv qobiliyatini situativ modellar orqali shakllantirishning nazariy asosini tashkil etadi [3; 4; 5]. Shu bilan birga, mahalliy pedagog olimlardan R.A. Mavlonova, A.A. Xoliqov, Sh.U. Nurullayeva va M.E. Zufarovalarning ilmiy ishlari ham ushbu masalani tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi [6; 7].

Shunday bo‘lsa-da, hozirga qadar situativ modellar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konstruktiv qobiliyatini shakllantirish metodikasini tizimli ishlab chiqish va tajriba-sinov asosida tekshirish bo‘yicha maxsus tadqiqot o‘tkazilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi — situativ modellarning pedagogik ta’lim jarayoniga integratsiyalashgan qo‘llanilishi orqali konstruktiv qobiliyatni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini ochib berish va funksional modelni taqdim etishdan iborat.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini konstruktivizm nazariyasi (J. Piaget, L.S. Vygotskiy), kompetensiyaviy yondashuv, situativ o‘qitish nazariyasi (J. Lave, A. Collins) va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv tashkil etadi [3; 4; 8].

**Situativ modellarning tasnifi**. Tadqiqotda situativ modellar konstruktiv ta’limning didaktik vositasi sifatida ta’riflanib, to‘rtta asosiy turga tasniflanadi. Ularning har biri konstruktiv qobiliyatning u yoki bu komponentini maqsadli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi:

**Keys-model** — real yoki shartli pedagogik vaziyatlarga asoslanib, talabalardan muammoni aniqlash, sabablarini tahlil qilish, bir nechta yechim variantini ishlab chiqish va eng maqbulini asoslashni talab etadi. Bu model tahliliy va ijodiy komponentlarni birgalikda rivojlantiradi [11].

**Muammoli vaziyatlar modeli** — talabalarga aniq yechimga ega bo‘lmagan ochiq pedagogik vaziyatlar taqdim etiladi; talaba mustaqil tahlil qilib, o‘z pedagogik pozitsiyasini asoslab beradi. Bu model qaror qabul qilish komponentini kuchaytiradi.

**Vaziyatli testlar modeli** — talabalarning tezkor qaror qabul qilish, pedagogik sezgirlik va kasbiy tafakkur darajasini diagnostika qilishga xizmat qiladi; bir vaqtning o‘zida rivojlantiruvchi funksiya ham bajaradi.

**Reflektiv-muhokama modeli** — situativ topshiriqlarni bajarishdan so‘ng talabalar o‘z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi va kelgusida qanday yaxshilash mumkinligini belgilaydi. Bu model metakognitiv qobiliyatlarni shakllantiradi.

**Funksional modelning tarkibiy qismlari**. Ishlab chiqilgan funksional model besh komponentdan tashkil topib, ularning o‘zaro uzviyligi ta’lim jarayonining yaxlitligi va izchilligini ta’minlaydi:

— Maqsadli komponent: konstruktiv qobiliyat komponentlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish;

— Mazmuniy komponent: real va shartli pedagogik vaziyatlar, keys-topshiriqlar, muammoli savollar va amaliy loyiha topshiriqlari;

— Faoliyatli komponent: muammoni tahlil qilish, muqobil yechimlar ishlab chiqish, jamoaviy va individual faoliyat;

— Metodik-texnologik komponent: muammoli ta’lim, PBL, keys-stadi, dizayn-fikrlash elementlari va interfaol metodlar;

— Diagnostik-natijaviy komponent: motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv mezonlar asosida baholash.

Modelning mantiqiy ketma-ketligi: Maqsad → Mazmun → Faoliyat → Metodlar → Diagnostika → Natija.

## NATIJA VA TAHLILLAR

Ishlab chiqilgan metodika 2025-yilning fevral–may oylarida Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabalar guruhlarida sinab ko‘rildi. Tajribada 121 nafar talaba ishtirok etdi: tajriba guruhi — 60 nafar, nazorat guruhi — 61 nafar.

Tajriba guruhida har bir dars quyidagi tuzilish bo‘yicha o‘tkazildi: motivatsion kirish (5 daq.) → situativ topshiriq taqdim etish (10 daq.) → kichik guruhda tahlil (15 daq.) → taqdimot va muhokama (10 daq.) → refleksiya (5 daq.). Nazorat guruhida darslar an’anaviy ma’ruza-seminar formatida davom ettirildi.

**Metodikaning uzviyligini ta’minlovchi omillar**. Funksional modelning besh komponenti o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik metodikaning uzviyligini ta’minladi. Dastlabki bosqichda talabalarda muammoli vaziyatlarga nisbatan qiziqish va motivatsiya shakllantirilib (maqsadli komponent), keyingi bosqichlarda tahliliy, ijodiy va reflektiv faoliyat izchil rivojlantirildi (mazmuniy va faoliyatli komponent). Yakuniy bosqichda esa konstruktiv qobiliyat kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan murakkab vaziyatlar orqali mustahkamlandi (metodik va diagnostik komponent).

## XULOSA

Ushbu tadqiqot situativ modellar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida konstruktiv qobiliyatni shakllantirish metodikasini ishlab chiqish va uni eksperimental tekshirishga qaratilgan. Olingan natijalar asosida to‘rtta situativ model (keys-model, muammoli vaziyatlar modeli, vaziyatli testlar modeli va reflektiv-muhokama modeli) konstruktiv qobiliyatning turli komponentlarini maqsadli rivojlantirishga xizmat qiladi va ularni integratsiyalashgan holda qo‘llash eng yuqori samara beradi degan xulosaga kelish mumkin.

Tavsiyalar: ishlab chiqilgan metodika oliy pedagogika ta’lim muassasalarida «Pedagogika», «Boshlang‘ich ta’lim metodikasi» fanlarini o‘qitishda qo‘llanilishi, o‘quv dasturlarida situativ o‘qitish komponentiga alohida o‘rin berilishi tavsiya etiladi.

TAMADDUN NURI

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**


1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘RQ-637-son. 23.09.2020. — Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida». — Toshkent, 2022.
3. Vygotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. — M.: Pedagogika, 1991. — 480 s.
4. Piaget J. The Psychology of Intelligence. — London: Routledge, 1950. — 182 p.
5. Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. — Cambridge: Cambridge University Press, 1991. — 138 p.
6. Mavlonova R.A. Umumiy pedagogika. — Toshkent: Fan, 2018. — 184 b.
8. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. — 256 p.
9. Jonassen D.H. Constructivist learning environments: On their design and impact // Educational Technology. — 1994. — Vol. 34, № 4. — P. 26–31.
10. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. — 312 b.
11. Almulla M.A. The effectiveness of the constructivist learning environment in developing critical thinking and creativity // Educational Sciences: Theory & Practice. — 2023. — Vol. 23, № 2. — P. 45–62.
12. Bruner J. The act of discovery // Harvard Educational Review. — 1961. — Vol. 31, № 1. — P. 21–32.
13. Zufarova M.E. Psixologik moslashuvchanlik va ta’lim jarayoni. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. — 167 b.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 94(575.1):614.

# FARG‘ONA VODIYSIDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINING INQIROZ DAVRI (1917–1923 yillar)

*Mansurov Ulug‘bek Umarovich,*
*University of Business and Science,*
*Ijtimoiy fanlar kafedrasi professor v.b.,*
*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

# HEALTHCARE SYSTEM OF THE FERGANA VALLEY DURING THE CRISIS PERIOD (1917–1923)

*Ulugbek Umarovich Mansurov,*
*Acting Professor of the Department of Social Sciences,*
*University of Business and Science,*
*Doctor of Philosophy (PhD) in History*

# СИСТЕМА ЗДРАВООХРАНЕНИЯ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В ПЕРИОД КРИЗИСА (1917–1923 ГГ.)

*Мансуров Улугбек Умарович,*
*и.о. профессора кафедры социальных наук*
*University of Business and Science,*
*доктор философии (PhD) по историческим наукам*



*ulugbek.mansurov.80@inbox.ru*
*ORCID iD 0009-0007-7212-0174*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola 1917–1923-yillarda Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini o‘rganadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tizimda kadrlar tanqisligi, moliyaviy yetishmovchilik, epidemiyalar va boshqaruvdagi muammolar xizmat sifatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, markaz va viloyat o‘rtasidagi hamkorlik sustligi va yangi iqtisodiy siyosat sharoitida tibbiyot muassasalari faoliyatining qisqarishi aholi salomatligiga salbiy ta’sir qilgan. Maqola davr sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishdagi murakkabliklarni, ularning sabab va oqibatlarini tahlil qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Farg‘ona vodiysi, sog‘liqni saqlash, tibbiyot xodimlari, epidemiyalar, NEP, 1917–1923, tibbiy xizmat, kasalxonalar, ambulatoriyalar, kadrlar tanqisligi, moliyaviy qiyinchilik, sanitariya, infektsion kasalliklar, shifokor yetishmovchiligi, markazlashuv, viloyat boshqarmalari, tibbiyot muassasalari, laboratoriya, harbiy chaqiruv, tibbiyot tarix.*

***Abstract:*** *This article examines the socio-economic and organizational aspects of the healthcare system in the Fergana Valley during 1917–1923. The study reveals that staff shortages, financial constraints, epidemics, and administrative challenges significantly affected the quality of medical services. Furthermore, weak cooperation between the central authorities and local regions, along with the transfer of medical institutions to local budgets under the New Economic Policy, limited healthcare operations and negatively impacted public health. The article analyzes the causes and consequences of these issues in the regional healthcare system.*

***Key words:*** *Fergana Valley, healthcare, medical staff, epidemics, NEP, 1917–1923, medical services, hospitals, outpatient clinics, staff shortage, financial difficulties, sanitation, infectious diseases, physician shortage, centralization, provincial health offices, medical institutions, laboratory, military mobilization, history of medicine.*

***Аннотация:*** *Статья исследует социально-экономические и организационные аспекты функционирования системы здравоохранения Ферганской долины в 1917–1923 гг. Результаты исследования показывают, что дефицит кадров, финансовые трудности, эпидемии и проблемы*

*управления существенно повлияли на качество медицинского обслуживания. Кроме того, низкая эффективность сотрудничества между центральной властью и регионами, а также передача медицинских учреждений на местные бюджеты в условиях новой экономической политики ограничили деятельность медицинских служб и отрицательно сказались на здоровье населения. Статья анализирует причины и последствия этих проблем в системе здравоохранения региона.*
***Ключевые слова:*** *Ферганская долина, здравоохранение, медицинский персонал, эпидемии, НЭП, 1917–1923, медицинское обслуживание, больницы, амбулатории, дефицит кадров, финансовые трудности, санитария, инфекционные болезни, нехватка врачей, централизация, областные управления, медицинские учреждения, лаборатория, мобилизация, история медицины.*

## KIRISH

XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimi murakkab ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitda faoliyat yuritgan. 1917-yilda Rossiyada yuz bergan Fevral inqilobi va Oktyabr davlat to‘ntarishi mintaqaga sovet hokimiyatining kirib kelishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, birinchi jahon urushi (1914–1918) va fuqarolar urushi davrida tibbiyot xodimlarining harbiy chaqirilishi, epidemiyalar va moddiy-texnik yetishmovchilik Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimini jiddiy inqirozga olib keldi. Natijada viloyat aholisiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyati cheklandi, epidemiologik vaziyat og‘irlashdi va mavjud muassasalar faoliyati sekinlashdi.

Mazkur davr sog‘liqni saqlash tizimida yuzaga kelgan kadrlar yetishmovchiligi, moliyaviy qiyinchiliklar va boshqaruvdagi beqarorlikni tadqiq etish ilmiy nuqtai nazardan ahamiyatlidir. Farg‘ona vodiysi misolida ushbu muammolarni o‘rganish nafaqat sovet davrida tibbiyot tizimi shakllanishini tushunishga, balki hududiy sog‘liqni saqlash tarixini kompleks tahlil qilishga yordam beradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Ushbu tadqiqotda 1917–1923-yillar oralig‘ida Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimining holati va inqiroz omillari o‘rganildi. Tadqiqot materiali sifatida Farg‘ona viloyat davlat arxiv fondlari, xususan, 435-fond, 1-ro‘yxatdagi hisobotlar va Turkiston Sog‘liqni saqlash xalq komissarligi hujjatlari, Turkiston XKS va Turkiston o‘lkasi sog‘liqni saqlash bo‘limlari syezdlari materiallari, “Izvestiya TurkTsIKa” gazetasi, Nikolay Semashko maqolalari, sobiq SSSR sog‘liqni saqlash tizimi tarixi bo‘yicha nashrlar hamda Farg‘ona vodiysi tibbiyot jamiyati faoliyatiga oid ilmiy tadqiqotlar, viloyat va uyezd sog‘liqni saqlash boshqarmalari hisobotlari, kasalxona va ambulatoriyalar faoliyat ko‘rsatkichlari asos bo‘ldi. Tadqiqotda tarixiy-metodik yondashuv qo‘llanib, analitik va taqqoslash metodlari yordamida Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimidagi kadrlar tanqisligi, moddiy-texnik va moliyaviy yetishmovchilik holati tahlil qilindi, sog‘liqni saqlash boshqaruv organlarining faoliyati va mahalliy tibbiyot muassasalari bilan hamkorligi o‘rganildi, epidemiologik va moliyaviy qiyinchiliklar bilan bog‘liq tarixiy hujjatlar asosida xulosalar chiqarildi. Tadqiqotda shuningdek tarixiy-kronologik metod qo‘llanib, Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimi inqirozining vaqt bo‘yicha rivojlanishi, markaziy va mahalliy boshqaruvning choralarini aniqlash imkonini berdi. Natijalar asosan hujjatli va statistik manbalarga tayangan holda, Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimi inqirozining asosiy sabablarini aniqlash va tizim faoliyatining samaradorligini baholashga yo‘naltirilgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA.

1917-yilda Rossiyada sodir bo‘lgan Fevral inqilobi va Oktyabr to‘ntarishi Turkiston o‘lkasining ijtimoiy-siyosiy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Fevral inqilobidan so‘ng Muvaqqat hukumat tomonidan tuzilgan Turkiston qo‘mitasi avvalgi mustamlakachilik siyosatini davom ettirdi va sog‘liqni saqlash tizimida katta o‘zgarishlar yuz bermadi. 1917-yil 1-noyabrda Toshkentda sovet hokimiyati o‘rnatildi va Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tarkibida Sog‘liqni saqlash xalq komissarligi (SSXK) tashkil etildi. Biroq rahbarlarning tez-tez almashishi (N. Barankin, K. Uspenskiy, S. Tursunxo‘jayev, I. Orlov va boshq.) tibbiy xizmatning barqaror ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi *[1. 55]*.

Sovet davlati sog‘liqni saqlash tizimining asosiy prinsipi sifatida barcha fuqarolar uchun malakali va bepul tibbiy yordam ko‘rsatishni belgiladi. Shu maqsadda, 1918-yilda barcha sog‘liqni saqlash va veterinariya ishlari Turkiston SSXK tasarrufiga birlashtirildi. Biroq

markazlashtirish amaliyotda sekin kechdi va viloyatlarda tizim to‘liq yo‘lga qo‘yilmadi. 1919-yilda Aloqa yo‘llari komissarligi tasarrufidagi tibbiy-sanitariya xizmatlari ham SSXKga o‘tkazildi, ammo Turkiston fronti tarkibida alohida sanitariya bo‘limi mustaqil faoliyat yuritganligi markazlashuvga to‘sqinlik qildi *[2. 5]*.

SSXK tarkibidagi bo‘limlar soni va shtatlar birligi viloyatlarda amalda yetarli ta’minlanmagan. Masalan, viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmalarida nazariy 63 shtat birligi o‘rniga 10–12 nafar xodim faoliyat yuritgan, uyezd darajasida 26 shtat o‘rniga 3–4 nafar xodim ishlagan *[3. 337]*. 1921-yilda markaziy apparatdagi xodimlar soni 138 nafarga, viloyat va uyezd shtatlari mos ravishda 35 va 16 nafargacha kamaytirildi *[4. 145]*. Bu esa moliyaviy cheklovlar va kadrlar yetishmovchiligi bilan birga, tibbiy xizmatni tashkil etishning murakkabligini ko‘rsatadi.

Farg‘ona viloyatida tibbiy kadrlar tanqisligi eng jiddiy muammo bo‘ldi. Birinchi jahon urushi va fuqarolar urushi davrida ko‘plab shifokorlar harbiy xizmatga chaqirilgan, chet el shifokorlari esa vatanlariga qaytgan. 1920-yilda Namangan shahrida jami 6 nafar shifokor va 6 nafar tibbiy yordamchi faoliyat yuritgan, ammo chet el shifokorlari ketishi kadrlar yetishmovchiligini yanada kuchaytirgan *[5. 399]*. Farg‘ona viloyatidagi 32 ta kasalxona va 28 ta ambulatoriyada atigi 16 nafar shifokor ishlagan, Qo‘qon shahridagi 110 o‘rinli jarrohlik kasalxonasida esa faqat bir nafar shifokor va ikki nafar yordamchi faoliyat ko‘rsatgan. Shifokorlar bir vaqtning o‘zida boshliq, maslahatchi va ordinator vazifalarini bajarishga majbur bo‘lgan *[6. 79]*.

1921-yil 6–9-iyun kunlari Toshkentda o‘tkazilgan Turkiston sog‘liqni saqlash bo‘limlari syezdida aynan Farg‘ona viloyati va Mirzacho‘l uyezdida shifokorlar yetishmovchiligi qayd etildi. Rossiya sog‘liqni saqlash komissari N. Semashko Turkistonga 150 nafar shifokor yuborishni va’da qilgan bo‘lsa-da, amalda atigi 15 nafar shifokor jo‘natilgan *[7. 154]*. Moddiy sharoitning yomonligi tufayli tibbiyot xodimlarining bir qismi boshqa kasblarga o‘tishga majbur bo‘lgan. Turkkomissiya va Turkiston XKSning 1921-yil 27-dekabrdagi 290-sonli buyrug‘iga asosan, 1922-yil 23-yanvarda barcha tibbiy xodimlar tibbiyot muassasalariga qaytarildi *[8. 1]*.

Shifokorlarning harbiy xizmatga chaqirilishi va epidemiyalar kimyo-bakteriologiya laboratoriyasi faoliyatining to‘xtashiga sabab bo‘ldi. 1919-yilda Qo‘qon shahar shifoxonasida tashkil etilgan laboratoriya shifokor Samsonov boshchiligida faoliyat yuritgan, lekin u harbiy xizmatga chaqirilgach, laboratoriya ishlamay qoldi. Ushbu laboratoriya viloyat uchun suv, havo va boshqa infeksion kasalliklarni aniqlashda zarur edi. Farg‘ona viloyat tibbiyot jamiyati laboratoriyani qaytarish va faoliyatini tiklash uchun harakat qilgan *[9. 1]*.

Sog‘liqni saqlash tizimida moddiy-texnik yetishmovchilik ham jiddiy muammo bo‘ldi. 1921-yilda kasalxonalar ta’mirtalab holatda, xo‘jalik inventarlari yetarli emas edi. Hammomlarning yoqilg‘isi ta’minlanmagani sababli qichima kasalligi tarqalgan. Sanitarlar soni kam, ish og‘irligidan ayrim xodimlar tark etgan *[10. 25]*. NEP siyosati asosida 1922-yildan tibbiyot muassasalari mahalliy byudjetga o‘tkazilganda, moliyaviy imkoniyatlar hisobga olinmaganligi sababli tibbiy xizmatning samaradorligi pasaygan va epidemiologik vaziyat og‘irlashgan.

Natijada 1917–1923-yillarda Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimi kadrlar yetishmovchiligi, moliyaviy cheklovlar, epidemiyalar va markazlashtirilmagan boshqaruv sababli inqirozga yuz tutgan. Bu davr tibbiy xizmatni keng qamrovda tashkil etishning murakkab sharoitini ko‘rsatadi va sovet sog‘liqni saqlash tizimi shakllanishining dastlabki bosqichi sifatida tarixiy ahamiyatga ega.

## XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1917–1923-yillarda Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimi jiddiy inqiroz holatida bo‘lgan. Sog‘liqni saqlash boshqaruvi organlarida kadrlar yetishmovchiligi, moddiy-texnik bazaning zaifligi va moliyaviy cheklovlar tizimning barqaror faoliyatini ta’minlashga to‘sqinlik qilgan. Ayniqsa, shifokorlarning harbiy chaqiruvga ketishi, epidemiyalar va chet ellik shifokorlarning o‘z vatanlariga qaytishi kadr tanqisligini keskinlashtirgan. Tibbiyot xodimlarining yetarli ta’minotga ega emasligi, ish haqi qarzdorligi va mehnat sharoitlarining og‘irligi ularning faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Markaziy hokimiyat tomonidan yuborilgan shifokorlar sonining cheklanganligi va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarining yetarli emasligi tibbiyot

muassasalarining samaradorligini sezilarli darajada pasaytirgan.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, sog‘liqni saqlash tizimining barqarorligini ta’minlashda nafaqat kadrlar va moliyaviy resurslar, balki boshqaruv tizimi va markaz bilan viloyat o‘rtasidagi hamkorlik muhim rol o‘ynagan. Natijada, 1920-yillar boshlarida Farg‘ona vodiysi aholisi uchun tibbiy xizmat sifat va qamrov jihatidan sezilarli darajada cheklangan bo‘lgan. Shu bilan birga, tadqiqot mazkur davr sog‘liqni saqlash tizimining tashkil etilishidagi murakkabliklar va cheklovlarni aniqlash, ularning kelgusida tizimni rivojlantirishda o‘rganilishi muhim ekanini ko‘rsatadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Мўминова Г. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917-1991 йиллар). Тошкент: Янги нашр, 2015. – Б. 55.
2. O‘z MA, R.25-fond, 1-ro‘yxat, 208- yig‘ma jild, 5-varaq.
3. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 138- yig‘ma jild, 307 varaq.
4. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 138- yig‘ma jild, 145-varaq.
5. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 137- yig‘ma jild, 399-varaq va orqasi.
6. O‘z MA, R.40-fond, 1-ro‘yxat, 159- yig‘ma jild, 79-varaq.
7. Народное здравие // Известия ТуркЦИКа – 15 июл 1921 – №154.
8. FVDA. 435-fond, 1-ro‘yxat, 140- yig‘ma jild, 1-varaq.
9. FVDA 435-fond, 1-ro‘yxat, 140- yig‘ma jild, 1-varaq.
10. Qichima, prurigo – bu badanga tariqdek mayda, uchi pufakchali pushtirang yoki sog’lom teri rangidagi toshmalar toshishi bilan kechadigan kasallik. Qarang: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2005 – Б. 25.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 930.2

# QO‘QON XONLIGI VA TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING ARXIV MANBALARIDA QAYD ETILISHI VA MANBASHUNOSLIK TAHLILI

*Nabijonov Sirojiddin Abdumutalib o‘g‘li, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti*



*https://orcid.org/0009-0008-3021-7522*
*sirojiddinnabijonov75@gmail.com.*

# THE REFLECTION OF RELATIONS BETWEEN THE KOKAND KHANATE AND THE TURKESTAN GOVERNOR-GENERALSHIP IN ARCHIVAL SOURCES AND THEIR SOURCE-CRITICAL ANALYSIS

*Nabijonov Sirojiddin Abdumutalib ogli, PhD Candidate Researcher Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*

# ОТРАЖЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ КОКАНДСКИМ ХАНСТВОМ И ТУРКЕСТАНСКИМ ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВОМ В АРХИВНЫХ ИСТОЧНИКАХ И ИХ ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

*Набижонов Сирожиддин Абдумуталиб оглы, Институт востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан, базовый докторант*

***Annotatsiya:*** *XIX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek xonliklari uchun murakkab davr bo‘lganligi sababli bugungi kunda u davrga xos tadqiqotlar olib borish dolzarbligini yo‘qotmayapti. Ayniqsa, Qo‘qon xonligi va Turkiston general – gubernatorligi o‘rtasidagi munosabatlarning arxiv manbalarida qayd etilishi va ularning manbashunoslik jihatdan tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmiga oid rasmiy hujjatlar, diplomatik yozishmalar, hisobotlar va statistik materiallar asosida tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarning mazmuni, shakllari hamda rivojlanish bosqichlari oid ayrim xusussiyatlar tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Qo‘qon xonligi, Turkiston general-gubernatorligi, arxiv manbalari, siyosiy munosabatlar, iqtisodiy aloqalar, diplomatik yozishmalar, rasmiy hujjatlar, manbashunoslik tahlili va h.k.*

***Abstract:*** *The second half of the nineteenth century was a complex period for the Uzbek khanates, and therefore conducting research devoted to this period has not lost its relevance at the present time. In particular, the reflection of relations between the Kokand Khanate and the Turkestan Governor-Generalship in archival sources, as well as their source-critical analysis, is of great importance. Therefore, in this article, based on official documents, diplomatic correspondence, reports, and statistical materials related to the second half of the nineteenth century, the content, forms, and certain features of the stages of development of relations between the parties are analyzed.*

***Keywords:*** *Kokand Khanate, Turkestan Governor-Generalship, archival sources, political relations, economic ties, diplomatic correspondence, official documents, source-critical analysis, etc.*

***Аннотация:*** *Вторая половина XIX века была сложным периодом для узбекских ханств, в связи с чем проведение исследований, посвящённых данному этапу, не утрачивает своей актуальности и в настоящее время. Особенно важное значение имеет отражение отношений между Кокандским ханством и Туркестанским генерал-губернаторством в архивных источниках, а также их источниковедческий анализ. Поэтому в данной статье на основе официальных документов, дипломатической переписки, отчётов и статистических материалов, относящихся ко второй половине XIX века, анализируются содержание, формы и некоторые особенности этапов развития отношений между сторонами.*

***Ключевые слова:*** *Кокандское ханство, Туркестанское генерал-губернаторство, архивные источники, политические отношения, экономические связи, дипломатическая переписка, официальные документы, источниковедческий анализ и др.*

**Kirish**. Ma’lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi natijasida O‘zbek xonliklari tarixida tub siyosiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ayniqsa, Qo‘qon xonligi (1709—1876) va Turkiston general-gubernatorligi (1867—1876) o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanishi va o‘rnatilishida buni kuzatish mumkin. Va bu jarayonni arxiv manbalari asosida tahlil qilish ikki hudud doirasida kechgan rasmiy aloqalar fonini gavdalantirib beradi. Shuning uchun, ushbu maqolada arxiv manbalari tahlil qilinib, muammoning ayrim jihatlari yoritildi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ushbu muammo bugunga qadar tadqiqotga jalb qilinib, gubernatorlikning tashqi aloqalari [1] va Qo‘qon xonligining boshqaruvi [2] hamda gubernatorlik bilan munosabatlari o‘rganilgan [3]. Shuningdek, ayrim arxiv hujjatlari to‘plam sifatida nashr ham qilingan [4, 5]. Shunday bo‘lsa-da, arxiv hujjatlaridan foydalanishdagi ayrim qiyinchiliklar sababli ushbu muammo atroflicha o‘rganilishdan xoli bo‘lgan. Bu esa ushbu maqolada arxiv hujjatlari va ularning nashrlaridan ham foydanlishga olib keldi.

**Tahlil va natijalar.** Arxiv manbalari asosan rasmiy shaklda yozilganligi sababli mavjud hokimyat olib borgan siyosatga oydinlik kiritish va tarixiy jarayonga aniqlik jihatidan noyob manbalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, ayrim arxiv manbalaridagi maktub, hisobot va shartnomalardan foydalanishda ko‘pincha ayrim to‘siqlarga duch kelinganligi sababli tdaqiqotlarga kam jalb qilingan. Ammo, ushbu maqolada muammoga atroflicha yondashish uchun arxiv manbalarining nashr qilingan variantidan ham foydalanildi. Jumladan, Janubiy Qozog‘iston viloyati davlat arxivi (ЮКОГА) F–1129 [6], Sankt-Peterburg Tashqi ishlar vazirligining Bosh arxivi (АВПРИ) F–161 [7], Rossiya Federatsiyasi Davlat arxivi (ГАРФ) Fond – 564 [8], Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo‘lyozmalari instituti (ИВР РАН) F–43 [9], Rossiya Milliy kutubxonasining Qo‘lyozmalar bo‘limi (ОР РНБ) F–621 [10], Sankt-Peterburg Markaziy Davlat Tarix Arxivi (ЦГИА СПб) F–1396 [11] va O‘zbekiston Milliy Arxivi (O‘z MA) F–715 saqlanayotgan ayrim ishlani keltirish mumkin. Natijada, bu materiallar orqali masalani obyektiv yoritishga erishiladi. Masalan, 1875-yil 22-sentyabrda Nasriddinbek bilan tuzilgan shartnomada xonlikning tashqi siyosat va tabiiy boyliklar masalasida cheklanishi bilan birga, xonlik uchun haqoratomuz so‘zlar ham o‘rin olgan edi [12: 588]. Ammo, bu ma’lumotga boshqa arxiv hujjatlarida ma’lum sabablar yuzasidan erishilmadi. Yana, shunday ikki hudud o‘rtasidagi muhim shartnomalardan biri 1868-yilda imzolangan. Bu shartnoma matni xorijiy arxivlarda ham saqalanadi. Masalan, Qozog‘iston davlati arxivlaridan birida 1868-yilgi shartnomaning ikki tomon muhrlari ham ilova qilingan nusxasi ham bor [13:4].

XIX asrning 70-yillarida Qo‘qon bilan iqtisodiy aloqalarda gubernatorlikning olib borgan munosabati foydali bo‘lgan deb talqin qilinadi. Ammo, rus arxivlarida qayd qilinishicha, gubernatorlikdagi iqtisodiyot yaxshi emas, balki savdo uchun yo‘l va statistika hali yo‘lga qo‘yilmagan. Bunga vaqtincha daromad yoki xizmat uchun gubernatorlikka kelgan amaldorlar toifasi va savdogarlaring tajribasizligi ko‘rsatilgan [9: 41].

Shu bilan birga, O‘zbekiston Milliy Arxivining (O‘z MA) I – 1, I – 19, I – 47, I – 276, I – 471, I – 715, I– 1043, I – 1396 fondlardagi hujjatlarni ko‘rsatish mumkin. Ayniqsa, I – fond Turkiston general-gubernatorligi devonxonasidagi hujjatlar orasida Qo‘qon xonligi va gubernatorlik o‘rtasidagi siyosiy aloqalar, elchilik missiya va maktublari hamda muzokaralari haqidagi hujjatlar

qayd qilingan. Masalan, 1867-yil 14–19-noyabrda general K.P.Kaufman maktub jo‘natganligi, keyinchalik xonlik elchisi Sarimsoq xo‘jani qabul qilib savdo matni maktubini u oraqali Xudoyorxonga yuborganligiga oid materillarni ko‘rish mumkin [14: 13].

Shuningdek, general-gubernatorlikning Qo‘qon xonligi bilan munosabatlari nomli hujjatda boshqa manbalarda uchramaydigan juda ham noyob ma’lumotlarni guvohi bo‘lish mumkin. Misol uchun, hozirga qadar ilmiy muomalaga kiritilgan materiallarda xonlikning 1868-yilgi va 1875-yilgi shartnomalari ma’lum. Ammo, 1871-1872-yillardagi chegara masalalariga oid ayrim qiziqarli ma’lumotlar jamlangan [15].

Chunonchi, I – 715 fondda Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olinish jarayoni yoritilgan bo‘lsa-da, bevosita Qo‘qon xonligi va General-gubernatorlik o‘rtasidagi savdo va siyosiy aloqalar haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, rus savdogari Xludovning Qo‘qon hududini tranzit sifatida foydalanib Qoshg‘arga borishga harakat qilganligi [16: 171], 1867-yil 3-dekabrda K.P. Kaufman tomonidan Xudoyorxonning (1866—1875) do‘stlik aloqalari uchun yuborilgan elchilari mamnuniyat bilan qabul qilganligi [17], 1872-yilda Nasriddinbekni Toshkentga kelganida Xudoyorxonni Pyotr I (1696—1721) ga qiyoslaganligi [18:120], 1875-yil 20-iyunda xonlik o‘z hududidagi qo‘zg‘olonlarni bartaraf etish uchun gubernatorlikdan harbiy yordam so‘raganligi haqidagi ma’lumotlarni keltirish mumkin [19: 48]. Shuningdek, Qo‘qondagi qo‘zg‘olon qatnashchilari To‘qmoq uyezdiga qochib o‘tganida gubernatorlik qish yaqinlashganligi sababli xonlik hududiga qaytarilmasligi yuzasidan xabar bergan edi. Ammo, 1874-yil iyul oyida Xudoyorxon vaqtinchalik gubernator vazifasini bajarib turgan general Kalpakovskiyga kunlar isib bahor fasli kelganligi sababli qochoqlarni qaytarishini so‘rab maktub yo‘llaganligi haqidagi ma’lumotlar kelgan [20:143].

**Xulosa**. Qo‘qon xonligi va Turkiston general-gubernatorligi o‘rtasidagi munosabatlarning arxiv manbalarida qayd etilishi va ularning manbashunoslik tahlili qilinib, ulardan foydalanishdagi ayrim qiyinchiliklar mavjudligi sababli kam tadqiqotga jalb qilinganligi aniqlandi. Ayniqsa, rasmiy yozishmalar, diplomatik hujjatlar va shartnomalarni tadqiqotga kam jalb qilinganligini ko‘rish mumkin. Ammo, ularning ayrimlari tadqiqot va maxus to‘plamlarda qisman yoki to‘liq nashr qilinganligi ko‘rsatildi. Natijada, tarixiy voqealarning xolis talqinini ta’minlash, mavjud ilmiy qarashlarni qayta ko‘rib chiqish hamda yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini yaratildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ураков Д. Ж. Туркистон генерал-губернаторлигининг қўшни давлатлар билан сиёсий ва иқтисодий алоқалари. — Тошкент, 2021. – 216 б.
2. Ахмедова М.Т. Қўқон хонлигининг ташкил топиши, давлат тизими ва ҳуқуқ манбалари: дисс. … канд. юрид. наук. – Тошкент, 2010. – 191 б.
3. Топилдиев Н. Қўқон хонлигининг Россия билан дипломатик алоқалари тарихидан (XIX аср – 1876 й). — Т.: Фан, 2007. 128 б.
4. Управление архивов и документации Южно-Казахстанской области. Южно-Казахстанский областной государственный архив. — Шымкент: ТОО «Кітап», 2010. — 415 с.
5. Петровский Н. Ф. Туркестанские письма. отв. ред. акад. В. С. Мясников, сост. В. Г. Бухерт. – М.: Памятники исторической мысли, 2010. – 358 с.
6. ЮКОГА. Ф.1129, оп.10,д.22.
7. АВПРИ. Ф. 161 (С.-Петербургский главный архив МИД). Разряд IV-2. Оп. 119. 1870–1874 гг. Д. 4. 42-43 varaqlar.
8. ГАРФ. Ф. 564 (А.Ф. Кони). Оп. 1. Д. 2855.
9. ИВР РАН. Ф. 43 (Н.Ф. Петровский). Оп. 2. Д. 6. Л. 41–42 varqlar.
10. ОР РНБ. Ф. 621 (А. Н. Пыпин). Оп. 1. Д. 662.
11. СПб МДТА. Ф. 1396. Оп. 2. Д. 44. Л. 76–77.
12. O‘z MA, F. 715, ro‘y. 1, 63-ish, 587–593-varaqlar.
13. ЮКОГА. Ф.1129,оп.10, д.22,л.4.
14. O‘z MA, I-1 fond, 34-ro‘yxat, 9-ish, 13-varaq.
15. O‘z MA, I-1 fond, 1-ro‘yxat, 1128-ish.
16. O‘z MA, 715-fond, 1-ro‘yxat,37-ish,171-varaq.
17. O‘z MA 715-fond, 1-ro‘yxat, 35-ish, 292-varaq.
18. O‘z MA, 715-fond, 34-ro‘yxat, 45-ish, 119–120-varaq.
19. O‘z MA, 715-fond, 1-ro‘yxat, 63-ish, 48-varaq.
20. O‘z MA, I- 715 fond. ro‘y-1–4. 60-ish. 143-varaq.

**Qabul qilindi: 05.02.2026** **Chop etildi: 30.04.2026** UDK: 1:321(575.1)

# YANGI O‘ZBEKISTONDA VAKILLIK HOKIMIYATI: TRANSFORMATSION JARAYONLAR, IZCHIL ISLOHOTLAR

***Raxmonov Sherzod Tolibovich, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro davlat universiteti***



***https://orcid.org/0009-0009-6701-0581***
***e-mail: raxmonovsherzod@gmail.com***

# REPRESENTATIVE GOVERNMENT IN NEW UZBEKISTAN: TRANSFORMATIONAL PROCESSES AND CONSISTENT REFORMS

***Rakhmonov Sherzod Tolibovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Bukhara State University***

# ПРЕДСТАВИТЕЛЬНАЯ ВЛАСТЬ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАНСФОРМАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ И ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ

***Рахмонов Шерзод Толибович, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, Бухарский государственный университет***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda vakillik hokimiyatining shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy bosqichlari chuqur tahlil qilinadi. Xususan, parlament tizimi va mahalliy kengashlar faoliyatida amalga oshirilayotgan transformatsion jarayonlar, ularning institutsional mustahkamlanishi hamda demokratik tamoyillar asosida takomillashuvi yoritiladi. Shuningdek, vakillik organlarining jamiyat va davlat boshqaruvidagi o‘rni, qonun ijodkorligi jarayonidagi faolligi va ochiqlik darajasining oshishi izchil islohotlar kontekstida baholanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *vakillik hokimiyati, Yangi O‘zbekiston, parlament, mahalliy kengashlar, transformatsion jarayonlar, demokratik islohotlar, qonun ijodkorligi, ochiqlik, davlat boshqaruvi, institutsional rivojlanish.*

***Abstract:*** *This article provides a comprehensive analysis of the formation and development of representative authority in the context of New Uzbekistan. Particular attention is given to transformational processes within the parliament and local councils, their institutional strengthening, and improvement based on democratic principles. The study examines the role of representative bodies in public administration, their participation in the legislative process, as well as the increasing levels of transparency and accountability.*

***Keywords:*** *representative authority, New Uzbekistan, parliament, local councils, transformational processes, democratic reforms, lawmaking, transparency, public administration, institutional development.*

***Аннотация:*** *В данной статье проводится всесторонний анализ становления и развития представительной власти в условиях Нового Узбекистана. Особое внимание уделяется трансформационным процессам в деятельности парламента и местных кенгашей, их институциональному укреплению и совершенствованию на основе демократических принципов. Рассматривается роль представительных органов в системе государственного управления, их участие в законотворческом процессе, а также повышение уровня открытости и подотчетности обществу.*

***Ключевые слова:*** *представительная власть, Новый Узбекистан, парламент, местные кенгаши, трансформационные процессы, демократические реформы, законотворчество, открытость, государственное управление, институциональное развитие.*

**Kirish.** So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli siyosiy-huquqiy islohotlar davlat hokimiyati tizimining barcha bo‘g‘inlarini tubdan yangilashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu jarayonda vakillik hokimiyati institutlari - parlament va mahalliy kengashlarning o‘rni va ahamiyati keskin ortib bormoqda. Zero, demokratik jamiyat qurishda aynan vakillik organlari xalq manfaatlarini ifoda etuvchi, davlat boshqaruvida muvozanat va nazorat

mexanizmlarini ta’minlovchi muhim institut sifatida namoyon bo‘ladi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida vakillik hokimiyatini takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar olib borilmoqda. Xususan, parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatini kuchaytirish, uning nazorat funksiyalarini kengaytirish, mahalliy kengashlarning vakolat va mas’uliyatini oshirish, deputatlarning saylovchilar bilan aloqalarini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu bilan birga, vakillik organlari faoliyatida ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini qaror toptirish zamonaviy demokratik boshqaruvning muhim talabi sifatida ilgari surilmoqda. Bugungi kunda vakillik hokimiyatining transformatsion jarayonlari nafaqat tashkiliy-huquqiy jihatdan, balki mazmunan ham yangilanishni taqozo etmoqda [1].

**Metodologiya.** Ma’lumki, ilmiy-nazariy jihatdan qaralganda, vakillik hokimiyati tushunchasi ilk bor antik davr falsafasida shakllana boshlagan. Qadimgi yunon mutafakkirlari, jumladan, Aristotel davlat boshqaruvi shakllarini tahlil qilar ekan, jamiyat manfaatlarini ifoda etuvchi institutlar zarurligini ta’kidlagan. Uning fikricha, davlatning asosiy vazifasi umumiy farovonlikni ta’minlash bo‘lib, bu esa faqat jamiyatning turli qatlamlari manfaatlari hisobga olingan holda amalga oshirilishi mumkin. Bu g‘oya keyinchalik vakillik hokimiyati konsepsiyasining nazariy poydevoriga aylandi. Yangi davr falsafasida vakillik hokimiyati masalasi yanada chuqurroq ishlab chiqildi. Xususan, Jon Lokk va Monteskyo kabi mutafakkirlar ijtimoiy shartnoma nazariyasi orqali hokimiyatning manbai xalq ekanligini asoslab berdilar [2]. Lokkning ta’limotiga ko‘ra, odamlar o‘z huquqlarini himoya qilish uchun davlatga bir qismini topshirgan va bu jarayonda ular o‘z vakillarini saylash orqali boshqaruvda ishtirok etadilar. Monteskyo esa hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasini ilgari surib, vakillik hokimiyatini qonun chiqaruvchi organ sifatida ko‘rsatadi. Bu yerda parlament xalq irodasini ifoda etuvchi asosiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Vakillik hokimiyatining metodologik asoslari ham ko‘p qirralidir. Birinchidan, u dialektik usulga tayanadi, ya’ni jamiyatdagi turli manfaatlar, qarashlar va ehtiyojlar o‘rtasidagi ziddiyatlar va ularning uyg‘unlashuvini o‘rganadi. Ikkinchidan, tizimli yondashuv asosida vakillik hokimiyatini davlat boshqaruvi tizimining bir qismi sifatida tahlil qilish mumkin. Bu holatda parlament, mahalliy kengashlar va boshqa vakillik organlari o‘zaro bog‘liq elementlar sifatida qaraladi. Uchinchidan, institutsional yondashuv orqali mazkur hokimiyat turining huquqiy va tashkiliy asoslari o‘rganiladi.

**Asosiy qism.** Vakillik hokimiyati fenomeni faqat siyosiy institut sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimining muhim elementi sifatida ham namoyon bo‘ladi. U jamiyatda adolat, tenglik va qonuniylik kabi qadriyatlarni ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, saylov jarayoni orqali fuqarolar o‘z manfaatlarini ifoda etuvchi shaxslarni tanlaydilar. Bu esa davlat boshqaruvida fuqarolar ishtirokini ta’minlaydi va legitimlikni oshiradi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Xalq hokimiyatchiligi haqidagi konstitutsiyaviy tamoyilning asl mohiyatini barchamiz chuqur anglab yetishimiz zarur. Buning uchun turli darajadagi ijro hokimiyati organlarining xalq vakillari – parlament va mahalliy kengashlar oldida hisobot berish amaliyotini keng joriy qilish kerak. Parlament, vakillik va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini yanada rivojlantirishimiz zarur. Har bir davlat xizmatchisi xalq oldida mas’ul ekanini hech qachon unutmasligi lozim”, -deb ta’kidlab kelmoqda. Falsafiy jihatdan, vakillik hokimiyatini “ijtimoiy ishonch instituti” sifatida ham qarash mumkin. Chunki uning asosida fuqarolarning davlatga va o‘z vakillariga bo‘lgan ishonchi yotadi. Agar bu ishonch mavjud bo‘lsa, davlat boshqaruvi samarali amalga oshiriladi. Aks holda esa legitimlik muammosi yuzaga keladi va siyosiy tizim barqarorligiga tahdid paydo bo‘ladi. Shu tarzda, vakillik hokimiyati fenomeni ko‘p qirrali, murakkab va doimiy rivojlanishda bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Uni chuqur ilmiy va falsafiy tahlil qilish orqali davlat boshqaruvini takomillashtirish, demokratik institutlarni mustahkamlash va jamiyat taraqqiyotini ta’minlash mumkin [3]. Vakillik hokimiyati fenomenini yanada chuqurroq anglash uchun uning mazmuniy tarkibiga e’tibor qaratish lozim. Bu yerda, avvalo, “vakillik” tushunchasining o‘ziga to‘xtalish muhim. Vakillik muayyan shaxs yoki guruhning boshqalar nomidan harakat qilishi, ularning manfaatlarini ifoda etishi va himoya qilishidir. Falsafiy jihatdan, bu jarayon ishonch (ishonchlilik), mas’uliyat va legitimlik kabi kategoriyalar bilan uzviy bog‘liq. Ya’ni, fuqarolar o‘z vakillariga ma’lum darajada ishonch bildiradilar va ulardan o‘z manfaatlarini adolatli himoya qilishni kutadilar [4]. Ma’lumki, siyosiy madaniyat bu jamiyat a’zolarining siyosiy bilimlari, qadriyatlari, munosabatlari va xulq-atvorini ifoda etuvchi tushuncha bo‘lib, u vakillik institutlarining samaradorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Agar jamiyatda fuqarolar o‘z huquq va burchlarini yaxshi

anglasa, saylovlarda faol ishtirok etsa va davlat ishlariga befarq bo‘lmasa, vakillik hokimiyati ham samarali faoliyat yuritadi. Bu jarayonni tushuntirishda amerikalik siyosatshunoslar Gabriel Almond va Sidney Verba tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy madaniyat nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Ular jamiyatlarda “paroxial”, “poddaniklik” va “fuqarolik” siyosiy madaniyat turlarini ajratib ko‘rsatgan. Fuqarolik madaniyati rivojlangan jamiyatlarda vakillik hokimiyati eng samarali ishlaydi, chunki bunday jamiyatlarda fuqarolar davlat boshqaruvida faol ishtirok etadilar.

Vakillik hokimiyatining sivilizatsion jihatlari esa uning turli madaniyat va an’analar bilan uyg‘unlashuvida namoyon bo‘ladi. Masalan, G‘arb davlatlarida vakillik demokratiyasi uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan bo‘lsa, Sharq mamlakatlarida bu institut ko‘proq jamoaviylik va an’anaviy boshqaruv elementlari bilan uyg‘un holda rivojlanmoqda. O‘zbekiston misolida ham bu holatni kuzatish mumkin: bu yerda vakillik hokimiyati milliy an’analar, jamoaviylik qadriyatlari va zamonaviy demokratik tamoyillarning uyg‘unligi asosida shakllanmoqda [5].

| | |
|---|---|
| Vakillik hokimiyatining amaliy ahamiyatini uning funksiyalari orqali namoyon bo'ladi | Birinchidan, u qonun chiqarish funksiyasini bajaradi. Bu jarayonda jamiyat ehtiyojlari huquqiy normalarga aylantiriladi. |
| | Ikkinchidan, nazorat funksiyasi orqali ijro hokimiyati faoliyati ustidan kuzatuv olib boriladi. |
| | Uchinchi, kommunikatsion funksiya orqali fuqarolar va davlat o'rtasidagi aloqa ta’minlanadi. |

Ilmiy-nazariy jihatdan, vakillik hokimiyatini tahlil qilishda “ijtimoiy kapital” tushunchasi ham muhim o‘rin tutadi. Amerikalik tadqiqotchi Robert Putnam ijtimoiy kapitalni jamiyatdagi ishonch, hamkorlik va o‘zaro yordam munosabatlari sifatida izohlaydi. Vakillik hokimiyatining samaradorligi aynan shu ijtimoiy kapital darajasiga bog‘liq. Agar jamiyatda ishonch va hamjihatlik yuqori bo‘lsa, vakillik institutlari ham samarali faoliyat yuritadi.Yakuniy qilib aytganda, vakillik hokimiyati fenomeni ko‘p qirrali, dinamik va murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo‘lib, uning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini chuqur o‘rganish davlat boshqaruvini takomillashtirish, demokratik institutlarni mustahkamlash va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda falsafiy tahlil alohida o‘rin tutadi, chunki u mazkur fenomenning mohiyatini, mazmunini va rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglash imkonini beradi.

**Xulosa.** Vakillik hokimiyati fenomeni ijtimoiy-falsafiy tahlil nuqtayi nazaridan juda murakkab, ko‘p qirrali va dinamik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat davlat boshqaruvining muhim instituti, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, manfaatlar va qadriyatlarni uyg‘unlashtiruvchi markaziy mexanizmdir. Vakillik hokimiyati orqali fuqarolar o‘z irodasini bilvosita tarzda amalga oshiradi, bu esa demokratiyaning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, vakillik hokimiyatining ilmiy-nazariy asoslari qadimgi falsafiy ta’limotlardan boshlanib, zamonaviy siyosiy nazariyalar orqali boyib borgan. Ijtimoiy shartnoma g‘oyalari, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi, legitimlik nazariyasi va kommunikativ yondashuvlar mazkur fenomenning mazmun-mohiyatini ochib berishda muhim o‘rin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Мирзиёев Ш.М. 2-том. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. М 54. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018. – Б.34-бет.
2. Аристотель. Давлат. Тошкент. Yangi asr avlodi, 2010 й.
3. Яковлев А. А. Завещание Джона Локка, приверженца мира, философа и англичанина. - М.: Изд-во ин-та Гайдара, 2013. - 432 с. - ISBN 978-5-93255-357-2
4. Locke John. An Essay Concerning Human Understanding. London. 1690.
5. Robert David Putnam. The Comparative Study of Political Elites Englewood Cliffs, N.J.: Prentice-Hall, (1976).

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 94(575.1):711.4(091)

# XVIII–XIX ASRLARDA BUXORO AMIRLIGI TARKIBIDA KITOB SHAHRINING TARIXIY-GEOGRAFIK RIVOJLANISHI VA URBANISTIK XUSUSIYATLARI

*Atamirzayeva Munavvar, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti, "O'zbekiston tarixi" kafedrasi tayanch doktoranti*



*https://orcid.org/0009-0002-8766-9315*
*e-mail: atamirzayeva.phd@gmail.com*

# HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL DEVELOPMENT AND URBAN FEATURES OF KITAB CITY WITHIN THE BUKHARA EMIRATE IN THE 18TH–19TH CENTURIES

*Atamirzayeva Munavvar, Basic Doctoral Student of the Department of History of Uzbekistan, Tashkent State Technical University named after Islam Karimov*

# ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И УРБАНИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГОРОДА КИТАБ В СОСТАВЕ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА В XVIII–XIX ВЕКАХ

*Атамирзаева Мунаввар, базовый докторант кафедры "История Узбекистана" Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada XVIII–XIX asrlarda Buxoro amirligi tarkibida Kitob shahrining tarixiy-geografik rivojlanishi va urbanistik xususiyatlari ilmiy asosda tahlil etiladi. Tadqiqotda shahar shakllanishiga ta'sir etgan tabiiy-geografik omillar, xususan, qulay geografik joylashuv, suv resurslariga boylik hamda savdo-karvon yo'llari tizimidagi o'rni asosiy determinant sifatida o'rganiladi. Shuningdek, Kitob shahrining ichki tuzilishi, mudofaa inshootlari, guzarlar tizimi va demografik tarkibi tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Maqola natijalari Kitob shahrining mintaqaviy urbanistik markaz sifatidagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Kitob shahri, Buxoro amirligi, Qashqadaryo vohasi, tarixiy geografiya, urbanizatsiya, XVIII–XIX asrlar, karvon yo'llari, guzarlar tizimi, shahar mudofaasi, aholisi.*

***Abstract:*** *This article provides a scientific analysis of the historical and geographical development and urban features of Kitab city within the Bukhara Emirate in the 18th–19th centuries. The study examines the natural and geographical factors that influenced the formation of the city, particularly its favorable geographical location, abundance of water resources, and its role within the system of trade caravan routes as key determinants. In addition, the internal structure of Kitab city, its defensive constructions, the system of residential quarters (guzars), and its demographic composition are analyzed on the basis of historical sources. The findings of the article contribute to identifying the role of Kitab city as a regional urban center.*

***Keywords:*** *Kitab city, Bukhara Emirate, Kashkadarya oasis, historical geography, urbanization, 18th–19th centuries, caravan routes, guzar system, urban defense, population.*

***Аннотация:*** *В данной статье на научной основе анализируются историко-географическое развитие и урбанистические особенности города Китаб в составе Бухарского эмирата в XVIII–XIX веках. Исследуются природно-географические факторы формирования города, такие как*

*выгодное географическое положение, богатство водных ресурсов и расположение на торгово-караванных путях. Также рассматриваются внутренняя структура города, оборонительные сооружения, система гузаров и демографический состав на основе исторических источников. Результаты исследования способствуют определению роли города Китаб как важного регионального урбанистического центра.*

***Ключевые слова:*** *город Китаб, Бухарский эмират, Кашкадарьинский оазис, историческая география, урбанизация, XVIII–XIX века, караванные пути, система гузаров, городская оборона, демографический состав.*

**Kirish.** Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi va urbanizatsiya jarayonlarini o‘rganishda mintaqaviy shaharlarning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini tahlil etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Buxoro amirligi davrida vujudga kelgan va rivojlangan shaharlar tizimi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning o‘zaro uyg‘unlashgan murakkab tizimini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, Kitob shahri Qashqadaryo vohasining muhim tarixiy-geografik va urbanistik markazlaridan biri sifatida alohida tadqiqot obyekti hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi Kitob shahrining XVIII–XIX asrlarda Buxoro amirligi tarkibidagi tarixiy-geografik rivojlanishini va urbanistik tuzilishini kompleks yondashuv asosida tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda tarixiy-geografik tahlil, qiyosiy-tarixiy metod, tizimli yondashuv hamda manbashunoslik usullaridan foydalanildi. Asosiy manbalar sifatida arxeologik tadqiqotlar, tarixiy hujjatlar, sayohatchilar qaydlari va ensiklopedik ma’lumotlar jalb etildi. Xususan, A.L.Kun, D.N.Logofet, Y.Skayler, M.Masson, E.B.Rtveladze kabi tadqiqotchilarning ishlari ilmiy asos sifatida tahlil qilindi.

**Natijalar.** Kitob Qashqadaryo vohasining sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, sharqiy tomondan Hisor tog‘ tizmasi, janubdan Yakkabog‘ tog‘i, shimoldan esa Zarafshon tog‘ tizmasi bilan chegaralangan. Kitob- Shahrisabz havzasining maydoni 41 ming ga. ga teng bo‘lib, Qashqadaryo vohasining suv bilan eng ko‘p ta’minlangan qismini tashkil etadi. Qashqadaryo, Oqsuv, Jinnidaryo, Qizildaryo, Tanxoz daryolari voha yerlarini asosiy suv ta’minoti hisoblanadi[1]. Kitob shahri Oqdaryo va Qashqadaryo oralig‘idagi Shahrisabz-Kitob botig‘ida, o‘rtacha 685 m balandlikda joylashgan[2].

Kitob hududi qadimda Kesh vohasi tarkibiga kirgan, arxeologik topilmalar bu yerda miloddan avvalgi II – I asrlarda ham turar joylar bo‘lganligini ko‘rsatadi. O‘rta asrlarda bu hududda qishloq turidagi manzilgohlar shakllanib, keyinchalik kichik shahar darajasida o‘sgan. Amir Temur davrida Kitob Shahrisabz bekligining muhim markazlaridan biri bo‘lgan. Kitob shahri o‘rta asrlarda G‘arb bilan Sharq mamlakatlarini bir-biriga bog‘lagan yirik karvon yo‘li yoqasida, Samarqand va Shahrisabz (Kesh) ga yaqin joylashganligi uchun yirik shaharga aylangan. XVIII – XIX aslarda Kitob Buxoro amirligi tarkibida bo‘lgan. XVIII asrda ilk o‘rta asrlarga oid shahar harobalari o‘rnida Kitob qo‘rg‘oni barpo qilinadi va uning atrofiga aholi joylashib, shahar rivojlana boshlaydi. Albatta bu davrda Qashqadaryo vohasida Kitobdan boshqa Sangfurush, Ulash kabi bir qator qo‘rg‘onlar vujudga kelgan bo‘lib, ular orasidan faqatgina Kitob taraqqiy etib, shahar darajasiga yetgan. 1962-yilda G.A.Pugachenkova tomonidan Kitob shaharchasini o‘rganish uchun ilmiy tadqiqot olib borilgan. Uning fikriga qaraganda, Kitob qal’asi XVIII asrning 40 – yillarida Kitob beklari tomonidan qurulgan[3].

Kitob toponimining kelib chiqishi yuzasidan ham bir necha qarashlar mavjud. Mahalliy aholi orasida mavjud fikrlarga ko‘ra, uning hududidan topilgan qadimgi kitob bilan bog‘liq bo‘lgan. Kitob teridan ishlangan bo‘lib, undagi yozuvlar odamlarga tushunarsiz holatda bo‘lgan. Keyinchalik bu kitob Buxoro amiriga yuborilgan.

[1] Якубов Б.С. XVIII аср иккинчи ярми – XIX аср 60-йилларида Шаҳрисабз ва Китоб бекликлари. Тарих.фан.ном.дис. – Т.: 1997. – С. 18.

[2] Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т.: Давлат илмий нашриёти Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2013. – С. 422.

[3] Гилманова Н. М. Бековская Кала. Open Akademia: Journal of Scholarly Research, Volume 2, Issue 9, 2024. ISSN (E) 2810-6377. – С. 1.

Shundan keyin shahar nomi “Kitob” deb yuritilgan[4]. Shahar nomi arabcha “Katf” – “yelka” ya’ni “ob” – “suv” ya’ni “suv yelkasi” so‘zlaridan kelib chiqgan deb tahmin qilinadi. Bu nom uning Qashqadaryo va Oqsuvdaryo orasida joylashganligi bilan bog‘liq bo‘lgan[5]. Yana boshqa olimlarning fikriga ko‘ra, Kitob shahrining nomi “Katob” ya’ni, “daryo bo‘yidagi qo‘rg‘on” tushunchasidan kelib chiqgan[6]. Bundan tashqari, ingliz sayyohlari ham “Kitob” ning ma’nosini “ob” – “suv” so‘zi bilan bog‘liq bo‘lganligini tahmin qilishgan[7].

Kitob XVIII – XIX asrlarda murakkab shaklga ega bo‘lgan, g‘arbdan sharqqa tomon cho‘zilgan shahar tusini olgan. Garbdan sharqqa qarab 2000 m., shimol – janub yo‘nalishida esa 750 m. ga teng bo‘lgan. Shahar devori Shahrisabz shahar devorining janubiy qismi kabi, asosan paxsa bloklaridan qurulgan bo‘lib, ta’mirlash ishlarida guvala va hom g‘ishtlardan foydalanilgan. Hozirgi kunga kelib shahar devorlari saqlanib qolmagan, saqlanib qolgan joylardagi devorlar ba’zi bir hovlilar uchun devor vazifasini o‘tab keladi. Saqlanib qolgan devorlarning balanligi 4-6 m., eni esa 3-4 m. ga teng. Shahar devorining umumiy uzunligi 4600 m. ga teng bo‘lgan. Kitob shahar devorlarida darvozalar mavjud bo‘lib, ularning soni 6 ta bo‘lgan. *Birinchi,* Shimoliy darvoza – “Samarqand darvoza” yoki “Arabxona darvoza” nomlari bilan atalgan. Bu darvoza orqali to‘g‘ri Samarqandga olib boruvchi yo‘lga chiqgan. Ikkinchi nomi esa darvozaga yaqin joylashgan “Arabxona” guzarining nomi bilan bog‘liq bo‘lgan; *Ikkinchi,* Sharqiy darvoza – Kunchiqar darvoza nomi bilan atalgan; *Uchinchi*, Janubiy darvoza – Sharbatxona deb nomlangan; *To‘rtinchi,* Janubi-g‘arbiy darvoza – Xo‘ja-Rushnoniy deb atalib, bu darvoza Xo‘ja Rushnoniy mozoriga olib borgan*; Beshinchi,* G‘arbiy darvoza – Govxona nomi bilan atalib, yana bir nomi Chingil bo‘lgan. Darvozaning nomi devor yaqinidagi Govxona guzari nomi bilan bog‘liq bo‘lgan; *Oltinchi,* Shimoli-g‘arbiy darvoza – Nomozgoh nomi bilan ataladi. Bu darvoza masjid tomonga olib chiqqanligi uchun shu nom bilan atalgan[8].

L.Kunning ma’lumotlariga qaraganda, Kitob shahrining yetti darvozasi bo‘lgan: Rovatoq, Qarapaycha, Gavxona, xo‘ja Rumonay, Jangal, Lo‘lixona va Kunchekar. Hozirgi kunda darvozalar o‘rni butunlay yo‘q bo‘lib ketgan. Kitob shahri ham albatta, guzarlarga bo‘lingan. Kunning to‘plagan ma’lumotlariga qaraganda ularning soni 51 ta bo‘lgan. Bu barcha mahallalardagi uylar soni 3700 taga yetadi. Uning hisobiga ko‘ra, har bir uyda o‘rtacha besh odam yashasa, Kitob aholisi 18,500 kishini tashkil etadi[9]. Ingliz sayohatchisi Yujin Skayler shunday yozadi: “Kitob shahri kichikroq shahar bo‘lib, uning aholisi 15 mingni tashkil qilgan”[10]. Logofet Kitob shahri aholisini 10 ming kishi bo‘lganligini ta’kidlagan [11] . Buxoro amirligi aholisi XVIII асрнинг ikkinchi yarmidan boshlab tez sur’atlar bilan ko‘paya boshladi. XIX asrning boshlariga kelib aholi soni 2 million dan oshiq, 50-yillarga kelib esa 2,5 million dan ortiq kishini tashkil qilgan. Buxoro shahrida 60 mingdan, Samarqand shahrida 50 mingdan oshiq aholi istiqomat qilishgan. Buxoro amirligi tarkibida bo‘lgan Kitob shahri aholisini 100 mingdan [12] oshiq bo‘lib, asosan aholi tarkibini o‘zbeklar va tojiklar tashkil etgan. O‘zbeklar asosan botqoq, tepalik, ba’zi vodiyni egallagan. Tojiklar esa faqat tog‘lar va vodiyning tor joylarida yashaydi. Tog‘ aholisi millatidan qat’iy nazar galcha deb atalgan. Kitobda tojiklar o‘zbeklardan ko‘proq istiqomat qilgan.

[4] Массон М. Е. Лунина С. Б. Пятый сезон археологических работ в Кашкадарье // Общ.науки в Узб. – 1968. - №: 6. – С. 61-63.
[5] Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т.: Давлат илмий нашриёти “ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси”, 2013. – С. 422.
[6] Ртваладзе Э. Б. Сагдуллаев А. С. Памятники минувших веков. – Т.: Узбекистон, 1986. – С. 52.
[7] Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. Таржимон З. А. Саидбобоев. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – С. 283.
[8] Крашенинникова Н.И. Прошлое Китаба // Вехи времен. – Т.: 1989, - С. 28.
[9] Кун А. Л. Очерки Шахрисябзкого бекства // Изв. Импер. Русск. геогр. Общ.ва по отд. Этнографии. – Спб., 1880. – Т.VI. – С. 223.
[10] Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. Таржимон З. А. Саидбобоев. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – С. 278.
[11] Логофет Д.Н. В горах и равнинах Бухары (Очерки Средней Азии). – Спб., 1909. – С. 29.
[12] Холиқова, Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида (XIX аср иккинчи ярми–XX аср бошлари). Тошкент: O‘qituvchi (2005). Б. 81.

Shaharda bundan tashqari boshqa millat vakillari: hindlar, yahudiylar, kam miqdorda afg‘onlar ham yashagan. Kitobda yahudiylarning 30 ta uyi mavjud bo‘lgan. Hindlar asosan foiz bilan qarz berish bilan shug‘lullanadi[13]. Shahar 51 guzardan tashkil topgan. A.L.Kun guzarlarning hammasini sanab o‘tgan bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: Airancha, Taxchi, Mildik sazi, Karabo‘yi, Charmgar, Mirzaday, Kokandi, Qo‘shariq, Xo‘ja-Buxariy, Patcha-nasir, Xalifa Mehmed, Absamad-Miraxur, Omon-saroy, Lyaklyakan, Bahadurbiy…v.b. Har bir mahallada bitta masjid va maktab mavjud bo‘lgan[14].

**Muhokama.** Olingan natijalar Kitob shahrining Buxoro amirligi tarkibida muhim iqtisodiy, siyosiy va strategik markaz bo‘lganligini ko‘rsatadi. Uning rivojlanishiga asosiy omillar sifatida geografik joylashuv, suv resurslari va savdo-karvon yo‘llari tizimi xizmat qilgan. Ayni paytda, tarixiy manbalarda darvozalar soni, aholi miqdori va toponimika bo‘yicha turli xil qarashlar mavjudligi ushbu mavzuning murakkabligini va qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Bu esa Kitob shahrining urbanistik evolyutsiyasini yanada chuqurroq o‘rganishni talab etadi.

**Xulosa.** Kitob shahri Qashqadaryo vohasining muhim tarixiy-geografik markazi sifatida shakllangan bo‘lib, XVIII–XIX asrlarda Buxoro amirligi tarkibida sezilarli urbanistik rivojlanish bosqichini bosib o‘tgan. Shahar rivojlanishida tabiiy-geografik sharoit, suv resurslari va savdo yo‘llari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Natijalar Kitob shahrining mintaqaviy urbanistik tizimda muhim o‘rin egallaganligini tasdiqlaydi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Якубов Б.С. XVIII аср иккинчи ярми – XIX аср 60-йилларида Шаҳрисабз ва Китоб бекликлари. Тарих.фан.ном.дис. – Т.: 1997. – С. 18.
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т.: Давлат илмий нашриёти Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2013. – С. 422.
3. Гилманова Н. М. Бековская Кала. Open Akademia: Journal of Scholarly Research, Volume 2, Issue 9, 2024. ISSN (E) 2810-6377. – С. 1.
4. Массон М.Е. Лунина С.Б. Пятый сезон археологических работ в Кашкадарье // Общ.науки в Узб. – 1968. - №: 6. – С. 61-63.
5. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т.: Давлат илмий нашриёти Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2013. – С. 422.
6. Ртваладзе Э. Б. Сагдуллаев А. С. Памятники минувших веков. – Т.: Узбекистон, 1986. – С. 52.
7. Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. Таржимон З. А. Саидбобоев.–Т.:Ўзбекистон, 2019. – С. 283.
8. Крашенинникова Н. И. Прошлое Китаба // Вехи времен. – Т.: 1989, - С. 28.
9. Кун А.Л. Очерки Шахрисябзкого бекства // Изв. Импер. Русск. геогр. Общ.ва по отд. Этнографии. – Спб., 1880. – T.VI. – С. 223.
10. Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. Таржимон З.А.Саидбобоев. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – С. 278.
11. Логофет Д.Н. В горах и равнинах Бухары (Очерки Средней Азии). – Спб., 1909. – С. 29.
12. Кун А.Л. Очерки Шахрисябзкого бекства // Изв. Импер. Русск. геогр. Общ.ва по отд. Этнографии. – Спб., 1880. – T.VI. – С. 218.
13. Кун А.Л. Очерки Шахрисябзкого бекства // Изв. Импер. Русск. геогр. Общ.ва по отд. Этнографии. – Спб., 1880. – T.VI. – С. 222.
14. Холиқова, Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида (XIX аср иккинчи ярми–XX аср бошлари). Тошкент: O‘qituvchi (2005). Б. 73-81.


[13] Кун А. Л. Очерки Шахрисябзкого бекства // Изв. Импер. Русск. геогр. Общ.ва по отд. Этнографии. – Спб., 1880. – T.VI. – С. 218.

[14] Кун А. Л. Очерки Шахрисябзкого бекства // Изв. Импер. Русск. геогр. Общ.ва по отд. Этнографии. – Спб., 1880. – T.VI. – С. 222.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 81.27+81.23

# INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI BIZNES SOHASI LEKSIK BIRLIKLARI VA ULARNING LINGVISTIK VA FUNKSIONAL TAHLILI

***Raxmonova Sardora Muminjonovna, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Ingliz tili amaliy fanlar” №2 kafedrasi katta o‘qituvchisi***



***https://orcid.org/0009-0004-8209-3518***
***e-mail: sardorarakhmonova@gmail.com***

# LEXICAL UNITS OF THE BUSINESS SPHERE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR LINGUISTIC AND FUNCTIONAL ANALYSIS

***Rakhmonova Sardora Muminjanovna, Senior lecturer, The department of practical disciplines of English language 2, Uzbekistan State World Languages University***

# ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ ДЕЛОВОЙ СФЕРЫ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ И ИХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

***Рахмонова Сардора Муминжановна, старший преподаватель №2 кафедры “Практические дисциплины английского языка” УзГМУ***

***Annotatsiya:*** *Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida biznes sohasi jadal rivojlanib, unga oid terminologiya ham doimiy ravishda kengayib bormoqda. Biznes terminlari nafaqat iqtisodiy jarayonlarni ifodalash vositasi, balki professional kommunikatsiyaning muhim elementi hisoblanadi. Ushbu maqolada biznesga oid terminlarning shakllanishi, ularning lingvistik xususiyatlari, semantik jihatlari hamda ingliz va o‘zbek tillaridagi qo‘llanishi tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *marketing, brend, kapital, menejment, foyda, daromad, import, eksport.*

***Annotation:*** *In the context of the modern global economy, the business sphere is developing rapidly, and its terminology is continuously expanding. Business terms are not only a means of expressing economic processes but also an important element of professional communication. This article analyzes the formation of business-related terms, their linguistic features, semantic aspects, as well as their usage in English and Uzbek languages.*

***Keywords:*** *marketing, brand, capital, management, profit, income, import, export.*

***Аннотация:*** *В условиях современной глобальной экономики бизнес-сфера развивается стремительными темпами, а связанная с ней терминология постоянно расширяется. Бизнес-термины являются не только средством выражения экономических процессов, но и важным элементом профессиональной коммуникации. В данной статье анализируются формирование бизнес-терминов, их лингвистические особенности, семантические аспекты, а также их использование в английском и узбекском языках.*

***Ключевые слова:*** *маркетинг, бренд, капитал, менеджмент, прибыль, доход, импорт, экспорт.*

**Kirish.** Biznes terminlari bu iqtisodiyot, marketing, menejment, moliya va tadbirkorlik faoliyatiga oid aniq tushunchalarni ifodalovchi maxsus so‘z va iboralardir. Ushbu terminlar quyidagi xususiyatlarga ega:

**-Aniqlik** – har bir termin ma’lum bir tushunchani ifodalaydi;

**-Bir ma’nolilik (monosemiya)** – chalkashlikni oldini oladi;

**-Standartlashganlik** – xalqaro miqyosda qo‘llaniladi;

**-Qisqalik va lo‘ndalik** – tez va samarali muloqotni ta’minlaydi.

Masalan: *profit (foyda), investment (investitsiya), revenue (daromad), startup (startap).*

**ASOSIY QISM.** Biznes terminologiyasi turli manbalardan shakllanadi. Bugungi kunda biznes tilining asosiy qismi ingliz tilidan o‘zlashgan. Masalan:

-*Marketing* → marketing;

-*Management* → menejment;

-*Brand* → brend;

-*Startup* → startap.

Bu jarayon **globalizatsiya** natijasidir. O‘zbek tilida quyidagi usullar orqali yangi terminlar yaratiladi. Ular:

1. **Qo‘shimchalar yordamida**:

tadbirkor → tadbirkorlik;

boshqar → boshqaruv.

2. **Qo‘shma so‘zlar orqali**:

ish haqi;

savdo markazi.

Ba’zi terminlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinadi:

-*Human resources* → inson resurslari;

-*Cash flow* → pul oqimi.

Ba’zi terminlar bir nechta ma’noga ega:

-*Capital;*

-moliyaviy kapital;

-poytaxt.

Bu holatda kontekst muhim ahamiyatga ega. Bir tushuncha turli terminlar bilan ifodalanishi mumkin:

-foyda → daromad → profit;

-xarajat → cost → expense.

Shuningdek, qarama-qarshi ma’noli terminlar biznesda keng qo‘llanadi:

-profit (foyda) ↔ loss (zarar);

-import ↔ export;

-demand ↔ supply.

Biznes terminlari quyidagi vazifalarni bajaradi. Aniq va qisqa ma’lumot berishga xizmat qiladi. Bu esa mutaxassislar o‘rtasida tushunishni osonlashtiradi.

Masalan:

-ROI (Return on Investment);

-KPI (Key Performance Indicator).

**Ingliz va o‘zbek tillarida biznes terminlari taqqoslanishi**

| Ingliz tili | O‘zbek tili | Izoh |
|---|---|---|
| Startup | Startap | yangi biznes |
| Revenue | Daromad | umumiy tushum |
| Profit | Foyda | sof natija |
| Market share | Bozor ulushi | kompaniya pozitsiyasi |

Ko‘rinib turibdiki, aksariyat terminlar ingliz tilidan o‘zlashgan va fonetik jihatdan moslashtirilgan. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan yangi terminlar paydo bo‘lmoqda:

-*E-commerce* → elektron savdo;

-*Freelancer* → frilanser;

-*Blockchain* → blokcheyn;

-*Digital marketing* → raqamli marketing.

Bu terminlar zamonaviy biznes muhitining ajralmas qismiga aylangan.

**XULOSA.** Biznes sohasi terminlari zamonaviy iqtisodiy va kommunikativ tizimning muhim tarkibiy qismidir. Ular aniq, qisqa va universal bo‘lishi bilan ajralib turadi. Ingliz tilining dominantligi tufayli ko‘plab terminlar o‘zbek tiliga o‘zlashgan bo‘lib, bu jarayon tilning boyishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, terminlarni to‘g‘ri tarjima qilish va ularning semantik xususiyatlarini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. Oxford University Press. (2017). *Oxford business English dictionary for learners of English*. Oxford University Press.
2. Cambridge University Press. (2019). *Cambridge business English dictionary*. Cambridge University Press.
3. Crystal, David. (2003). *English as a global language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
4. Kotler, Philip. (2016). *Marketing management* (15th ed.). Pearson Education.
5. Drucker, Peter F. (2007). *Management challenges for the 21st century*. HarperBusiness.
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). *Iqtisodiy terminologiya va rasmiy hisobotlar*.
7. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2000–2020). *Iqtisodiyot va biznesga oid maqolalar*.
8. Investopedia. (2024). Business terms glossary. https://www.investopedia.com
9. International Monetary Fund. (2023). *Financial terminology and reports*. https://www.imf.org
10. World Bank. (2022). *World development report*. https://www.worldbank.org


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 81'367.3

# ПЕРЕДАЧА МОДАЛЬНЫХ ЧАСТИЦ И МЕЖДОМЕТИЙ КАК СРЕДСТВ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ ДИАЛОГА

***Мирабдуллева Малика Махмуджон кызы, магистрант по специальности: Лингвистика (русский язык), факультета иностранных языков Каршинского государственного университета***



***https://orcid.org/0009-0002-3680-5401***
***e-mail: malika1502097@gmail.com***

# MODAL YUKLAMALAR VA UNDOVLARNING MULOQOTNING HISSIY IFODALILIGINI TA'MINLOVCHI VOSITA SIFATIDA BERILISHI

***Mirabdullayeva Malika Maxmudjon qizi, Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti "Lingvistika (rus tili)" mutaxassisligi magistranti***

# MODAL PARTICLES AND INTERJECTIONS AS MEANS OF EMOTIONAL EXPRESSIVENESS IN DIALOGUE AND THEIR TRANSLATION

***Mirabdullaeva Malika Makhmudjon kizi, Graduate student (Master's degree) in Linguistics (Russian language), Faculty of Foreign Languages, Karshi State University***

***Аннотация:*** *Статья посвящена анализу модальных частиц и междометий как основных средств эмоциональной выразительности диалога в русском языке и особенностям их перевода.*

***Ключевые слова:*** *модальные частицы, междометия, эмоциональная выразительность, диалог, прагматика, перевод, русская речь.*

***Abstract:*** *The article analyzes modal particles and interjections as the main means of emotional expressiveness in Russian dialogue and the peculiarities of their translation.*

***Keywords:*** *modal particles, interjections, emotional expressiveness, dialogue, pragmatics, translation, Russian speech.*

***Annotatsiya:*** *Maqola rus tilidagi dialogda modal zarralar va undovlarni emotsional ifodalilikning asosiy vositalari sifatida tahlil etadi hamda ularni tarjima qilish xususiyatlarini ko'rib chiqadi.*

***Kalit so'zlar:*** *modal zarralar, undovlar, emotsional ifodalilik, dialog, pragmatika, tarjima, rus tili nutqi.*

**Введение.** Диалог представляет собой одну из наиболее динамичных, живых и эмоционально насыщенных форм речевого взаимодействия. Именно в диалоге наиболее ярко и непосредственно проявляется субъективное отношение говорящего к содержанию высказывания, к собеседнику, а также к конкретной ситуации общения в целом (Виноградов, 1986, с. 142). Модальные частицы и междометия выступают в качестве тонких, но чрезвычайно эффективных языковых инструментов, позволяющих передавать широкий спектр эмоций, субъективных оценок, тончайших оттенков смысла и скрытого подтекста.

Как отмечал академик В.В. Виноградов, именно эти «малые» служебные единицы языка часто несут на себе основную эмоционально-экспрессивную нагрузку высказывания, успешно компенсируя отсутствие невербальных средств коммуникации (мимики, жестов, интонации) в письменной речи

(Виноградов, 1986, с. 594). Несмотря на свой формально незначительный грамматический статус, модальные частицы (же, ведь, ну, вот, ли, да, уж) и междометия (ой, ах, ух, ба, ого, фу, ну и ну, ай-яй-яй) играют ключевую роль в создании живого, естественного и психологически достоверного диалога. Они активно используются как в художественной литературе, так и в повседневном спонтанном общении, придавая речи яркость, эмоциональную глубину и индивидуальность (Ермакова, 2017, с. 48).

Актуальность темы обусловлена растущим интересом современной лингвистики к прагматическим и коммуникативным аспектам языка, а также реальными трудностями, которые возникают при межъязыковой передаче этих единиц в процессе перевода. В условиях интенсивного развития межкультурной коммуникации проблема адекватного воспроизведения эмоциональной окраски диалога приобретает особую научную и практическую значимость.

**Литература и методология.** Исследование выполнено на основе комплексного подхода, объединяющего прагматический, стилистический, контекстуальный и переводоведческий анализ. Такой многоаспектный методологический инструментарий позволяет всесторонне рассмотреть функционирование модальных частиц и междометий в различных коммуникативных условиях.

Материалом исследования послужили диалоги из произведений русской классической и современной литературы (А. П. Чехов, Л. Н. Толстой, М. А. Булгаков, В. М. Шукшин, Л. Улицкая), драматургических текстов, сценариев художественных фильмов и сериалов, а также аутентичные записи естественной разговорной речи носителей русского языка (Земская, 2018, с. 124).

В работе были применены следующие методы: прагматический анализ – для выявления коммуникативных и эмоционально-модальных функций частиц и междометий; контекстуально-ситуативный анализ – для изучения зависимости их значения от интонации, речевой ситуации и межличностных отношений между собеседниками; сопоставительно-переводческий метод – для определения основных трудностей и поиска оптимальных стратегий перевода данных единиц на английский и узбекский языки; а также стилистический анализ – для оценки роли этих языковых средств в создании индивидуальных авторских стилей (идиостилей) различных писателей (Балашова, 2018, с. 76).

**Обсуждение.** Модальные частицы и междометия выполняют в диалоге несколько важнейших функций: эмоционально-оценочную, контактоустанавливающую, модально-волевую, ритмико-интонационную и характеризующую (Кобозева, 2019, с. 248). Эти небольшие языковые единицы позволяют говорящему тонко выражать своё отношение к высказыванию, передавать эмоциональное состояние и регулировать ход общения.

Частица *же* часто выражает протест, категоричность или эмоциональное усиление («Да как же ты не понимаешь!»). Частица *ведь* апеллирует к очевидности факта и нередко содержит скрытый упрёк или напоминание («Ведь я же тебе говорил!»). Частица *ну* обладает особенно высокой многозначностью: она может выражать нетерпение («Ну, сколько можно ждать!»), побуждение к действию («Ну, давай уже!»), смягчение категоричности («Ну, не обижайся») или процесс раздумья («Ну, я не знаю…»). Междометия, в свою очередь, передают мгновенную эмоциональную реакцию говорящего: *Ой!* (испуг, уведение, боль), *Ах!* (восхищение, сожаление, разочарование), *Ух ты!* (восхищение, удивление), *Ба!* (неожиданная встреча), *Фу!* (отвращение, брезгливость). Эти единицы тесно связаны с интонацией и часто заменяют целые предложения, делая речь более динамичной и естественной (Падучева, 1996, с. 302).

При переводе данных единиц на другие языки возникают серьёзные трудности. Буквальный перевод, как правило, приводит к потере прагматического эффекта и эмоциональной окраски. Так, русское восклицание «Ну и ну!» в зависимости от контекста может передаваться на английский язык как “Well, well!”, “Wow!”, “My my!” или “Good grief!”, а на узбекский – «Voy-voy!»,

TAMADDUN NURI

«Qoy, qoy!» или «Hay-hay!». Однако полная передача эмоционального оттенка и прагматического смысла почти всегда требует применения стратегий компенсации и использования других выразительных средств принимающего языка.

**Результаты.** Проведённый комплексный анализ позволил выявить ряд устойчивых закономерностей. Модальные частицы и междометия являются важнейшими маркерами эмоциональной напряжённости и естественности диалога, во многом определяющими его живость, психологическую достоверность и коммуникативную эффективность. Их семантика в высокой степени контекстуально зависима и чаще всего выражает имплицитные смыслы и подтекст. При переводе наиболее эффективными стратегиями оказываются функционально-прагматическая замена, компенсация, усиление эмоциональной окраски лексическими или синтаксическими средствами, а в некоторых случаях – оправданное опущение с сохранением общего эмоционального тона высказывания. В художественном переводе приоритет всегда отдаётся сохранению эмоционально-прагматического воздействия на читателя, а не буквальному соответствию оригиналу. Кроме того, национально-культурная специфика междометий требует от переводчика глубоких знаний как исходного, так и принимающего языков и культур.

**Заключение.** Таким образом, модальные частицы и междометия представляют собой мощное и исключительно тонкое средство эмоциональной выразительности русского диалога. Они позволяют с большой точностью и естественностью передавать сложные оттенки чувств, отношение говорящего к собеседнику и к содержанию речи, а также создавать яркие, запоминающиеся речевые портреты персонажей (Чуковский, 1962, с. 118).

Успешная передача этих языковых единиц в переводе требует от переводчика не только высокой лингвистической компетенции, но и тонкого прагматического чутья, понимания культурных особенностей общения и творческого подхода. Сохранение эмоциональной палитры оригинала является одним из важнейших условий создания адекватного и художественно полноценного перевода. В современном мире, где межкультурная коммуникация приобретает всё большее значение, глубокое изучение и правильная передача модальных частиц и междометий способствуют более точному взаимопониманию между представителями разных языковых и культурных сообществ.

**Список литературы:**


1. Балашова Л.В. Русские модальные частицы: семантика и прагматика. – Саратов: Изд-во СГУ, 2018.
2. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – М.: Высшая школа, 1986.
3. Ермакова О.П. Междометия в русской разговорной речи // Русский язык в школе. – 2017. – № 4. – С. 45–52.
4. Земская Е.А. Русская разговорная речь: лингвистический анализ и проблемы обучения. – М.: Флинта, 2018.
5. Кобозева И.М. Лингвистическая семантика. – М.: Эдиториал УРСС, 2019.
6. Крылова О.А. Модальные частицы в современном русском языке. – М.: Изд-во МГУ, 2015.
7. Падучева Е.В. Семантические исследования. – М.: Языки русской культуры, 1996.
8. Теория и практика перевода: прагматический аспект / Под ред. С В. Гринёва. – М.: Флинта, 2020.
9. Чуковский К. И. Живой как жизнь. – М.: Детская литература, 1962.
10. Шахматов А. А. Синтаксис русского языка. – Л.: Учпедгиз, 1941.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 82(575.1)

# ISTIQLOL DAVRI XAMSASHUNOSLIGI: TADQIQ VA TALQINLAR

***Quvonov Zarif Omonboyevich, Navoiy davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***

# АНАЛИЗ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ: ИССЛЕДОВАНИЯ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ

***Кувонов Зариф Омонбоевич, доцент Навоийского государственного университета, доктор философии по филологическим наукам (PhD)***

# ANALYSIS OF THE INDEPENDENCE PERIOD: RESEARCH AND INTERPRETATIONS

***Kuvonov Zarif Omonboevich, associate professor of the Navoi state university, Doctor of Philosophy in Philology***



***https://orcid.org/0009-0009-0886-259X***
***e-mail: zarif_78@umail.uz***

***Annotatsiya:*** *Maqolada Alisher Navoiy “Xamsa”sining Mustaqillik davrida o‘rganilishi haqida mulohazalar yuritilgan. Xamsashunoslikning yangi tadqiq mezonlari asosida o‘rganilishi, adabiy asarni badiiylik mezonlari asosida baholash, diniy-irfoniy mazmun-mohiyatiga qaratilgan tadqiqotlar Alisher Navoiy epik merosini o‘rganishning muhim yutug‘i sifatida ko‘rsatilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *poetika, tadqiqot, “Xamsa”, nazariya, doston, tasavvuf, xronotop, germenevtika, syujet, struktura, tahlil.*

***Abstract:*** *This article examines the study of Alisher Navoi`s “Khamsa” during the independence period. Important advances in the study of Alisher Navoi's epic legacy include the study of “Khamsa” based on new research criteria, the evaluation of literary works based on artistic merit, and the exploration of their religious and mystical content.*

***Key words:*** *poetics, research, “Khamsa”, theory, epic, mysticism, chronotope, hermeneutics, plot, structure, analysis.*

***Аннотация:*** *В статье рассматривается исследование “Хамсы” Алишера Навои в период независимости. Важными достижениями в изучении эпического наследия Алишера Навои представлены исследование “Хамсы” на основе новых исследовательских критериев, оценка литературного произведения по критериям художественной ценности, а также исследование его религиозно-мистического содержания.*

***Ключевые слова:*** *поэтика, исследование, “Хамса”, теория, эпос, мистицизм, хронотоп, герменевтика, сюжет, структура, анализ.*

**KIRISH.** Muayyan adabiy asar poetikasi tadqiqida uning muallifi ijodiy dunyoqarashi, badiiy olami va ijodkorning adabiy muhit hamda o‘zigacha bo‘lgan an’anlardan oziqlanganiga guvoh bo‘lamiz. Shu jihatdan, qadim Sharq adabiyoti ildizlari ma’lum ijodiy an’analar ta’sirida bo‘lganini, diniy-tasavvufiy, falsafiy-adabiy manbalar va xalq og‘zaki ijodiga borib taqalishi ular o‘rtasidagi uzviylikni yuzaga keltiradi.

Milliy mustaqillik o‘tmish adabiy merosni o‘rganishda, adabiy asarni badiiylik mezonlari asosida baholash, diniy-irfoniy mazmun-mohiyati, falsafiy sarchashmalari ildizini teran anglashga imkon yaratdi. Xususan, navoiyshunoslikda badiiy matnni tadqiq etish tendensiyalari, baholash mezonlari yangilandi. Hazrat Navoiy ijodiyotining tub mazmun-mohiyatiga singdirilgan komillik va komil inson masalasini badiiyatning muhim qonuniyatlariga asoslanib tekshirish, ularni to‘g‘ri baholashga yo‘l ochdi. Alisher Navoiyning dunyoqarashi – diniy-tasavvufiy, ma’rifiy-falsafiy hamda ijtimoiy qarashlariga doir qator tadqiqotlar yaratildi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**. Ma’lumki, Navoiy ijodiga qiziqish, asarlariga munosabat o‘z davridan boshlangan. Zamondoshlarining shoir ijodi va shaxsiyatiga doir fikrlari turli tarixiy-ilmiy manbalar,

manoqib va tazkiralardan o‘rin olgan. Shunisi qiziqki, Navoiy o‘zining asarlarida ham ijodi va hayoti bilan bog‘liq qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Bu o‘rinda biz Hazrat Navoiyning “Xamsa”sining yaratilishi, o‘rganilishi (o‘tmishda va bugun) haqida mulohaza yuritishga harakat qilamiz.

Atoqli navoiyshunos A.Hayitmetov “Xamsa”ning yaratilish jarayoni” nomli maqolasida buyuk beshlikning maydonga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan omillarni tekshirar ekan, shuday yozadi: “Navoiy “Xamsa”sining yaratilishida uning buyuk zamondoshi, ustozi Abdurahmon Jomiy bosh maslahatchi rolini o‘ynagan, asar bitganda birinchi bo‘lib o‘qib chiqqan va unga munaqqid sifatida hammadan avval yuqori baho bergan. Lekin bundan Navoiy “Xamsa”ni yaratish masalasi bilan faqat ikki-uch yil shug‘ullangan va “Xamsa” uning ikki-uch yillik ijodiy faoliyatining mevasi ekan-da, degan xulosaga kelish xato bo‘lur edi. O‘zbek tilida “Xamsa” yaratish uni juda erta – bolaligidan boshlab band etgan. Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining kirish qismida o‘z ulug‘ xamsanavis salaflariga murojaat qilib:

*Kichik erkanimdan kelib qoshima,*
*Ulug‘ muddao soldingiz boshima, —*

der ekan, ma’lum bo‘ladiki, unda “Xamsa” yaratish muddaosi kichikligidayoq paydo bo‘lgan. Buning uchun Navoiy bir umr tayyorgarlik ko‘rgan, o‘zidan oldin yaratilgan “Xamsa”larni qayta-qayta o‘qigan, mutolaa qilgan. Navoiyda yigitlik vaqtidayoq, agar u shunday katta ishga qo‘l uradigan bo‘lsa, ba’zi salaflari kabi o‘ttiz yilda emas, balki “o‘ttiz oy”da yozib tugallashga erishish niyati, orzusi (“Bitigaymen o‘ttiz yilin o‘ttiz oy”) bo‘lgan. Bu uning ijodiy faoliyatining noyob xususiyatlaridan biri deb qaralishi kerak. Chunki boshqa asarlarini ham u mumkin qadar qisqa muddatda yozib tugallashga intilgan va ko‘p hollarda bunga muvaffaq bo‘lgan” [1,153].

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**. Ko‘plab tadqiqotlarda Navoiyning “Xamsa”si Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy dostonlari ta’sirida yaratilganligi aytiladi. Navoiyning ulug‘ salaflariga ergashib besh dostondan iborat nodir asar yozganini inkor etib bo‘lmaydi. Xamsachilik an’anasiga ko‘ra Navoiy dostonlarning syujeti, strukturasi kabilarga sodiq qolgan bo‘lsa ham “Biroq, aslida, Navoiy faqat “Hayrat ul-abror”nigina Nizomiy “Maxzan ul-asror”iga javob tarzida yozdi, xolos. “Farhod va Shirin” – Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav”iga, “Layli va Majnun” – Xoju Kirmoniyning “Gavharnoma”siga, “Sab’ayi sayyor” – Ashraf Marag‘oiyning “Haft paykar”iga, “Saddi Iskandariy” – Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomayi Iskandariy” dostoniga nazira”[2]. Hazrat Navoiy bu haqda o‘zi shunday ma’lumot beradi:*“Bu to‘rt devon ovozasin chun rub’i maskunga yetkurupmen, “Xamsa” panjasiga panja urupmen. Avvalkim, “Hayrat ul-abror” bog‘ida tab’im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi “Maxzan ul-asror”idin boshimga durlar sochibdur. Yana chun “Farhod va Shirin” shabistoniga xayolim yuz tutubdur, Mir Xusrav dami “Shirin va Xusrav” o‘tidin charog‘imni yorutubdur. Yana chun “Layli va Majnun” vodiysida ishqim po‘ya urub, Xoju himmati “Gavharnoma”sida nisorimga gavharlar yetkuruptur. Yana chun “Sab’ayi sayyora” rasadin zamirim bog‘labdur, Ashraf “Haft paykar”ining yetti hurvashin peshkashimga yarog‘labdur. Yana chun “Saddi Iskandariy” asosin xotirim muhandisi solibdur, hazrati Maxdum “Xiradnoma”sidin ko‘si isloh va imdod cholibdur”*[3, 26].

Prof. M.Muhiddinov: “Nizomiy beshligiga fors-tojik adabiyotida birinchi javob Amir Xusrav Dehlaviy o‘zbek adabiyotida esa Alisher Navoiy tomonidan amalga oshirildi. Bu ikki muallif xamsanavislikka munosabat bildirayotgan birinchi ijodkorlar bo‘lganlari uchun an’ananing barcha shartlariga amal qildilar” [4] deganda, “Xamsa”ning birinchi dostonini nazarda tutadi.

XX asrga kelib navoiyshunoslik fan sifatida taraqqiy eta boshladi. Shoir hayoti va ijodiga doir ma’lumotlarni to‘plash, asarlarini narsh qilish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. H.Sulaymonov tomonidan birinchi marta Alisher Navoiy lirikasi, ya’ni “Xazoyin ul-maoniy”ning tanqidiy-tekstologik matni yaratilgan bo‘lsa, P.Shamsiyev “Xamsa”ning matniy tadqiqini amalga oshirildi. Navoiy ijodini xalq orasida keng targ‘ib etish maqsadida “Xamsa” dostonlarining nasriy bayonlari nashr etildi. O‘z navbatida bu jarayonlar shoir ijodini o‘rganish borasidagi keyingi tahlil va talqinlarga, matnshunoslik ishlariga keng yo‘l ochdi.

Mustaqillikkacha amalga oshirilgan nashr va tadqiqotlarda davr talabiga ko‘ra Navoiy asarlarini zamonga moslash, diniy-irfoniy mazmuniga emas, dunyoviylikka asoslangan qarashlar ko‘proq ilgari surildi. “Olimlarimiz, shoir va yozuvchilarimiz o‘z ishlariga nihoyatda halol va sidqidildan munosabatda bo‘lganlariga shak-shubha yo‘q. Ammo XX asr navoiyshunosligining ancha-muncha noqisliklari ham bo‘lganligi bugungi kunda hech kimga sir emas.

Buning asosiy sababi ilm ahlida emas, balki davr siyosiy muhitida ekanligi ham barchaga ayon” [5,6].

Milliy qadriyatlar, diniy-e’tiqodiy tushunchalarning o‘rin topishi navoiyshunoslik sohasining yangi qarashlar bilan o‘rganishga yo‘l ochdi. Shoir dostonlarida ifodalangan g‘oyaviy mazmun, badiiyat olamining sirlari asl mohiyatini ochishga qaratilgan tadqiqotlar yaratilmoqda. Ularning avvalgisi, bu – “Xamsa”ning Sharq islom adabiyoti zamirida yuzaga kelgani, shoir fikr-qarashlari undan oziqlanganiga e’tiborni qaratilishidir. “Navoiy “Xamsa”ning besh dostonida “*majoziy ishq”*ning mukammal badiiy tasviri va talqinini yaratdi. “Xamsa” dostonlari “*majoziy ishq*” tasviridagi eng mukammal tizim darajasiga ko‘tarilgan yaxlit badiiyat olami bo‘lib, uni Borliq haqiqatining badiiy modeli deyish mumkin”[5, 23], – deydi M.Imomnazarov. Darhaqiqat, mumtoz adabiyotda ishq tushunchasi, bu – inosnni o‘zligini anglashdagi vosita deb qaraladi. Navoiy ishqni “Layli va Majnun”da shunday ta’riflaydi:

*Ey ishq, g‘arib kimiyo sen,*
*Bal oyinai jahonnamo sen.*
*Ham zotingga darj kimiyoliq,*
*Ham oyinai jahonnamoliq...*
*Xurshedi jahonkushoy sensen,*
*Mir’oti jahonnamoy sensen,*
*Kim qildi senga nazarni ravshan,*
*Ko‘rdi yeru ko‘kdagin muayyan.*
*Chun boqqali ixtiyor topti,*
*Har soriki boqti yor topti* [6, 310].

Anglashiladiki, shoir ishqning qudrati misni oltinga aylantiruvchi kuchga ega ekani, borliq sirlarini anglashda ko‘zga o‘laroq tasvirlaydi. Shu bilan birga Ishq olamni muvozanatini belgilovchi vosita. Allohni sevgan kishi uning yaratiqlarini ham sevadi. Negaki, Allohning tajallisi uning yaratiqlarida akslanadi.

“Xamsa”da ilgari surilgan diniy-tasavvufiy qarashlar tadqiqida A.Hayitmetov, A.Qayumov, M.Imomnazarov, N.Komilov, I.Haqqulov, N.Jabborov kabi atoqli navoiyshunoslar bilan birga keyingi davr adabiyotshunosligiga mansub avlod ishlarida ham buni ko‘rish mumkin. A.Hayitmetovning “Xamsa”da islom nuri” maqolasida adabiyotshunos beshlikning ilk asari falsafiy-didaktik xarakterdagi “Hayrat ul-abror” dostonidagi o‘ziga xoslik sifatida Navoiyning islom ruhi bilan sug‘orilgan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axlohiy-tarbiyaviy qarashlari turli obrazlar orqali emas, balki kitobxonga muallifning bevosita murojaati yo‘lida ifodalanganiga e’tibor qaratadi. Olim bu dostonda shoirning sobit e’tiqodi, barcha muhim hayotiy-axloqiy masalalar bo‘yicha ko‘zqarashi aks etganini va bu qarashlar to‘lig‘icha islomiy ekanini: **“**Navoiy o‘z faoliyatida... “Qur’on va hadislarga suyanib, ijodida eng yuksak cho‘qqilarga ko‘tarila oladi va uning bitgan she’riy satrlari chuqur hayotiy mazmun va *go‘zallik kasb etadi”, [7,66] – deb* ta’kidlaydi.

N.Komilovning “Xizr chashmasi” kitobidan o‘rin olgan maqolalarda Navoiy “Xamsa”sining irfoniy mohiyati, istiloh-timsollarning ma’no qirralari ochib beriladi hamda adabiyotshunoslarni mumtoz adabiyotni tasavvuf falsafasi nuqtai nazaridan o‘rganishni ilgari suradi. Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” dostonlarining tasavvuf ta’limoti asosida talqinlari xamsashunoslikni yangi fikr-qarashlar bilan boyitdi.

A.Abdug‘afurovning “Buyuk beshlik saboqlari” monografiyasida “Xamsa”ning yaratilishi bilan bog‘liq qimmatli mulohazalar bildiradi. Ulug‘ shoirning “Xamsa”dek ulkan asarni yaratish shoilmagani, bilim, tajriba to‘plaganini olim shunday izohlaydi: “u (*Navoiy* – Z.Q) ilmiy-ijodiy tayyorgarlikdan tashqari katta ijtimoiy-hayotiy tajriba ham zarur deb hisoblagan. Navoiy, iste’dod sohibi mamlakat turmushi va jamiyatdagi turli tabaqa-guruhlarning intilishlarini tushunish, ommaning orzu-staklarini chuqur his etish bilan, davrning yetakchi mayl-belgilarini, fikriy oqim-yo‘nalishlarini to‘g‘ri idrok eta bilish bilan juzviy birika olgandagina jiddiy ijtimoiy va badiiy ahamiyatga molik asar yaratish mumkin, degan yagona to‘g‘ri xulosaga kelgan” [8,13]. Olim dostonlarning syujet, kompozitsion qurilishi, ma’no-mohiyatini talqinlarini, shoir hayoti va ijtimoiy turmush tarzi bilan uyg‘unlikda o‘rganadi.

Istiqlol davri navoiyshunosligida “Xamsa”ga doir ko‘plab tadqiqotlar yaratildi. Ularda dostonlarning genezisi, timsollar tasavvufiy va dunyoviy ma’no-mohiyati, syujet qurilishi, badiiy poetikasining o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tadqiqi” – M.Hamidova, “Alisher Navoiyning badiiy obraz yaratish mahorati”– I.Salimov, “Alisher Navoiy va uning salaflari ijodida inson konsepsiyasi” (“Xamsa”larning birinchi dostonlari asosida) – M.Muhiddinov, “Alisher Navoiy “Xamsa”si talqining XV–XX asr manbalari” – A.Erkinov, “Alisher Navoiy “Xamsa”sida so‘fiylar timsoli” – N.G‘afforov, “Alisher Navoiy

“Xamsa”sini nasriylashtirish: an’ana, tadbil va talqin” – A.Hayitov, “Sab’ai sayyor” dostonida folklorizmlar va o‘zbek folklorida Bahrom syujetining talqini” – M.Narziqulova, “Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi” – D.Yusupova, “Navoiyning “Layli va Majnun”, Shekspirning “Romeo va Juletta” asarlarining qiyosiy tadqiqi”– X.Mamatqulova, “Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni sarlavhalari badiiyati” – A.Qurbonov, “Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi” – U.Jo‘raqulov, “Navoiy “Xamsa”sining nasriy bayonlari: prinsiplari, mezonlari, usullari” – O.Tojiboyeva, “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining qiyosiy tahlili” va “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni genezisi va poetikasi” – I.Ismoilov, “Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni poetikasi”, “Xamsa” ilk dostonlarining poetik strukturasi va obrazlar tizimi” – N.Sharipova, “Abduramon Jomiyning “Suhbat ul-abror” va Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonlarining qiyosiy tahlili” – D.Nazarova, “Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy “Layli va Majnun” dostonlarining qiyosiy tahlili” – Y.Abduhaqimova, “Hayrat ul-abror” balog‘at ilmi kontekstida” – G‘.Bobojonov, “Alisher Navoiy dostonlarida na’tlar poetikasi” – F.Bobojonov, “Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostoni. Doston tipologiyasi va arxitektonika masalalari” – S.Xidirnazarov, “Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ramziy va majoziy obrazlar sistemasi” – Z.Mamadaliyeva va boshqa tadqiqotchilarning dissertatsiyalari yaratilmoqda. E’tiborli jihati shundaki, xamsashunoslik alohida ilm tarmog‘i sifatida shakllanmoqda. Bu tadqiqotlarda jahon adabiyotshunosligining ilg‘or tahlil tajribalari: germenevtik, genetik, struktural, xronotop, qiyos usullari keng qo‘llanmoqda.

**XULOSA.** Navoiy “Xamsa”siga murojaat, tadqiq, talqin va nashr qilishga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi shunisi bilan ahamiyatliki, Gomer, Firdavsiy, Nizomiy, Dante, Shekspir kabi alp ijodkorlarning mo‘jizakor ijod namunalari qatorida hazrat Navoiyning ijodiy merosi, ayniqsa, bezavol “Xamsa”si ham jahon tamadduni yilnomasining oltin sahifasini tashkil etadi. Abdurahmon Jomiyning “Alisher Navoiy “Xamsa”si – temuriylar saltanatining eng muhim hosilasi”, deya baho berganiga juda katta hayotiy haqiqat mujassam. Haqiqatda, o‘zbek xalqi tafakkuri qomusi o‘laroq yaratilgan bu asar sohibqiron Amir Temur asos solgan qudratli saltanatda amalga oshirilgan ma’naviy islohotlarning xulosasi o‘laroq maydonga chiqdi. Beshta dostondan iborat ushbu muazzam asar o‘zbek xalqining ma’naviy qudrati uning harbiy va siyosiy salohiyatidan ustunroq ekani, ma’naviyat va adolat o‘zbek davlatchiligi va mentalitetining asosini tashkil etishining yaqqol isbotidir. Jahon tarixini o‘zbek xalqi asos solgan davlatchilik tarixisiz tasavvur etib bo‘lmaganidek, dunyo adabiyoti, insoniyat tafakkuri tarixini Alisher Navoiy siymosi va uning qalamiga mansub asarlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g‘oyalarning jahon tamaddunida tutgan o‘rnini hamda o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatga ega. Bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o‘zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o‘rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Ҳайитметов А. “Хамса”нинг яратилиш жараёни // “Шарқ юлдузи” журнали, № 9.1985 йил. 152-157 б.
2. Султонмурод Олим. “Лисон ут-тайр”да назиравийлик ва таржимавийлик синтези // Таржимашунослар форуми – 2023. 3 (23) Des., 2023/ http:// www.oriens.uz.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 16-том. Муҳокамат ул-луғатайн. Тошкент, Фан. 2000. 336 б.
4. Муҳиддинов М. Навоийдан кейин “Хамса” яратилганми? // https://zarnews.uz/post/navoiydan-keyin-xamsa-yaratilmaganmi
5. Имомназаров М. Навоийшуносликка кириш. Тошкент, 2016. 122 б.
6. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами, 20 томлик. 7-том. Лайли ва Мажнун. Тошкент, Фан. 377 б.
7. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. Тошкент, Фан, 1996. 162 б.
8. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. 184 б.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 821.512.133

# NAVOIY FAXRIYALARIDA USTOZGA MUNOSIBLIK HISSINING BADIIY TALQINI

*Otaqulova Sarvinoz Fozil qizi, O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti, Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi*



*https://orcid.org/009-5916-9196*
*e-mail: sarvinozotaqulova3@gmail.com*

# ARTISTIC INTERPRETATION OF THE FEELING OF BEING WORTHY OF THE MASTER IN NAVOI’S FAKHRIYAS

*Otaqulova Sarvinoz Fozil qizi, Basic Doctoral Researcher at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Teacher at Asian International University*

# ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧУВСТВА ДОСТОЙНОСТИ УЧИТЕЛЮ В ФАХРИЯХ НАВОИ

*Отакулова Сарвиноз Фозил кызы, базовый докторант Института узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан, преподаватель Азиатского международного университета*

***Annotatsiya:*** *Maqolada Alisher Navoiy faxriyalarida ustoz-shogird an’analari va ustozga munosiblik hissining badiiy talqini tahlil etiladi. Shoirning Xusrav, Jomiy kabi ijodkorlarga izdoshlik ruhida ijod qilgani, o‘zini ularga munosib shogird sifatida ko‘rsatishi hamda faxr asosida ifodalangan badiiy qarashlari yoritiladi. Shuningdek, turli janrlardagi faxriyalar misolida Navoiyning ijodiy mahorati ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *faxriya, ustoz-shogird an’anasi, ijodiy izdoshlik, badiiy talqin, Jomiy, Xusrav, soqiynoma, qit’a, talmeh, tamsil, iftixor.*

***Annotation:*** *The article analyzes the artistic interpretation of the master-disciple tradition and the sense of being worthy of one’s masters in Alisher Navoi’s poetry. It highlights the poet’s creative following of such figures as Khusrav and Jami, his portrayal of himself as their worthy disciple, and the artistic views expressed through the mode of poetic pride. The article also reveals Navoi’s creative mastery through examples of faxriya poems in various genres.*

***Key words:*** *faxriya, master-disciple tradition, creative succession, artistic interpretation, Jami, Khusrav, soqiynoma, qit’a, talmeh, tamsil, pride.*

***Аннотация:*** *В статье анализируется художественная интерпретация традиции “учитель-ученик” и чувства достойности учителю в поэзии Алишера Навои. Подчеркивается, что поэт творил в духе следования таким мастерам, как Хусрав и Джами, представляя себя их достойным учеником, а также раскрывал свои художественные взгляды в русле поэтического самовосхваления. Кроме того, творческое мастерство Навои освещается на примере фахрии разных жанров.*

***Ключевые слова:*** *фахрия, традиция “учитель-ученик”, творческая преемственность, художественная интерпретация, Джами, Хусрав, сокийнома, кытъа, тальмех, тамсил, ифтихор.*

**Kirish.** Mutafakkir ijodkor Alisher Navoiy faxriyalarida o‘z ijodidan g‘ururlanish bilan birga asarlarining badiiyati, shuhrati, ustoz-shogird an’analari kabi masalalardan ham so‘z yuritadi. Bu hol faxriyalarning mavzu ko‘lamini kengaytirishga, ijodkor ruhiyati hamda

asarlarining muhim xususiyatlari haqida muxtasar ma’lumot berishga xizmat qiladi.

Chunonchi, shoir an’anaviy faxriyalarida o‘z ustozlarining nomini keltirib ulug‘laydi yoki ustozlari tavrida she’rlar yozib, ularga munosib shogird bo‘lgani bayonini beradi. Shu tariqa faxriya ruhi bilan birga ijodiy izdoshlik g‘oyasi ham yorqin ifodalanadi. Bu kabi iftixoriya namunalari muallifning ijod yo‘lini ochib beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Navoiy qalamiga mansub quyidagi faxriya ushbu fikrni dalillaydi:

*Demangiz bulbul Navoiyni, samandardekki bor,*
*Nazm ichra shu’layi Jomiy-u so‘zi Xusraviy*
[1.493].

Aksariyat faxriyalarida o‘zini bulbul obraziga qiyoslab, ijodiy iste’dodini bayon etgan shoir ushbu iftixoriyada bulbulni adabiy mavqeyiga munosib ko‘rmaydi. Bu safar muallif o‘zini samandarga mengzaydi. Samandar o‘tda yonmaydigan qush bo‘lib, Navoiy ijodida umrboqiylik va ishq ramzi sifatida [2.497] qo‘llaniladi. Shoir Xusrav tavridagi, Jomiyning ishq shu’lasi aks etgan nazmining adabiyot olamida abadiy yashashini bashorat qilgandek, o‘zini shu she’rlarning yaratuvchisi sifatida samandar obrazi o‘rniga qo‘yadi.

Bundan ko‘rinadiki, shoir ifodalamoqchi bo‘lgan fikrlariga uyg‘un obrazlarni mahorat bilan tanlay olgan. Xusrav va Jomiy nomini keltirar ekan, ularning ijod yo‘lini davom ettirgani, eng asosiysi, ustozlariga munosib shogird sifatida o‘lmas asarlar yaratganiga ishora qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada Alisher Navoiy faxriyalari matnlari kontekstual, qiyosiy-tipologik hamda badiiy tahlil usullari asosida o‘rganildi. Faxriya namunalarida ustozga munosiblik hissining ifodalanish shakllari, shoirning o‘zini baholash mezonlari va ijodiy vorislikni anglatadigan poetik vositalar izchil tahlil qilindi.

Tadqiqotda baytlar mazmuni sharhlanib, talmeh, tamsil, qiyos, bilvosita ifoda, o‘z-o‘zini malomat qilish kabi badiiy unsurlar orqali Navoiyning ustoz-shogird an’anasiga munosabati yoritildi.

**Tahlillar va natijalar.** Bu turdagi boshqa bir faxriyasida Navoiyning ustozlari tavrida she’rlar yaratganini keltirish orqali faxr tuyg‘usi o‘z-o‘zini malomat qilish mazmuni bilan aralash holda bo‘y ko‘rsatadi:

*Ey Navoiy, sen Xusrav bila Jomiy tavri*
*San’at-u rangin qo‘y, so‘zda kerak dard ila so‘z*
[3. 497].

Ko‘rinadiki, Navoiy ustozlarining an’anasini davom ettirgan holda ularning usulida she’rlar yozganligidan g‘urur hissini aks ettirgan. Biroq Jomiy va Xusrav ijodidagi dard va otashinlikdan bebahra nazm namunalari yaratganini aytib, o‘z-o‘zini malomat ham qiladi. Bu orqali usul boshqa, she’rning mazmun-mohiyati va ta’sir kuchi boshqa masala ekanini uqtiradi. Tavr jihatidan ustozlariga munosiblikni namoyon etgan shoir mavzu va mazmun jihatidan ham Jomiy va Xusrav san’atiga yetishishga intilganini malomat ohangida ifodalaydi.

Navoiyning ustozlariga loyiqlik hissidan tug‘ilgan faxri surush tilidan bayon etilgan ko‘rinishda soqiynomaning XXII bo‘limida uchraydi:

*Kimki, nazm ichra guharrez o‘ldi,*
*Nuktasi mujiza angez o‘ldi.*
*Lafzi jonbaxshi nafis anfosi,*
*Xosiyat anda o‘luk ehyosi.*
*Sa’diy-u Xusrav-u Salman-u Kamol*
*Kim, edi har biri beshibhu misol.*
*Garchi charx etti barin mutavori,*
*Sen alar o‘rnidadursen bori.*
*Qaysining ma’razidakim, kirding,*
*Jonin olding demayin, jon berding.*
*Har nekim aylading o‘truda savod,*
*Aylading har birining ruhini shod.*
*Shodlig‘ tarkini tutma oxir,*
*Ham bu g‘amingni unutma oxir*[4.500].

Suhayliy Navoiyga gavhar sochuvchi ijodkor sifatini beradi, uning asarlarini mo‘jizaangez, jon bag‘ishlovchi va o‘likni tiriltiruvchi deya yuksak baholaydi. Talmeh san’ati asosida Sa’diy, Xusrav, Salmon, Kamol kabi yetuk shoirlar nomini keltirib, Navoiyni ularning o‘rniga munosib voris va shogird sifatida ta’riflaydi.

Beshinchi baytdagi “ma’raz” so‘zi yuqorida talmeh o‘laroq tilga olingan shoirlarning ijod mahsuli bo‘lmish asarlarini tamsil etib kelgan. Navoiyning ustozlari asarlari ichiga kirib borib, ularga qayta jon bag‘ishlagani, ya’ni o‘zidan oldingi yetuk ijodkorlar tavrida asarlar yaratganligi mazkur baytning umumiy mazmunini tashkil etadi. Keyingi baytlarda murshidlarining yaratig‘iga javob o‘laroq muqobil asarlar ijod etib, ularning

TAMADDUN NURI

ruhini shod etgani va bu ishda bardavom bo‘lishiga undov, ruhiy dalda aks ettiriladi.

Soqiynomadan o‘rin olgan ushbu faxriya shoirning ustozlariga munosib shogird ekanligini o‘zida mujassamlashtirgan an’anaviy iftixoriyaning bilvosita, surush tilidan ifodalangan betakror ko‘rinishi bo‘la oladi. Bunda surush vazifasini Shayxim Suhayliy ruhi bajargan.

*Navoiy nazmig‘a boqsang, emastur*
*Bu uchning holidin har bayti xoli.*
*Hamono ko‘zgudurkim, aks solmish,*
*Anga uch sho‘x mahvashning jamoli*[5.525].

Navoiyning ushbu qit’asi ham madh, ham faxr aralash holda kelganligi bilan e’tiborga loyiq. Qit’a boshida ustozlarining madhini keltirgan shoir, oxirgi ikki baytda o‘z faxrini ham ifoda etadi. Yuqoridagi parchaning birinchi baytida muallif o‘z nazmi Dehlaviy, Sheroziy va Jomiy ijod yo‘lidan xoli emasligini aytib, ularning an’anasini davom ettirganiga ishora qiladi.

Ikkinchi baytda shoir tamsil san’ati vositasida “uch go‘zalning oynaga tushgan aksidek” o‘xshatishini birinchi baytdagi fikriga misol tariqasida beradi. Bu misolda oyna - Navoiy nazmini, uch mahvash - uch yetuk ijodkorni, mahvashlarning oynaga aks solishi esa Navoiyning uchala ijodkorning ijod yo‘lini davom ettirib, ularning tavrida she’rlar yozganini tamsil qilib kelgan.

Mutafakkir ijodkor faxriyalarining yana bir turida o‘zini boshqa shoirlar bilan qiyoslash asosida ijodidan faxr tuyg‘usini bayon etadi. “Xazoyin ul-maoniy”da bunday mazmundagi faxriyalar sanoqli bo‘lib, butun devon bo‘yicha bor-yo‘g‘i ikkitani tashkil etadi. Ulardan biri shoirning o‘zini Sakkokiy bilan qiyoslab, undan ustunligi mazmuni aks etgan faxriya bo‘lsa, ikkinchisida esa Navoiy Sayyid Jamoliddin talmehini qiyos sifatida qo‘llab, she’riyati madhini quyidagicha ifoda etadi:

*Darsi ishqingni Navoiy, uyla der ushshoq aro*
*Kim, degay ilm ahlig‘a Sayid Jamoliddin*
*hadis[6.71].*

Navoiyning ushbu faxriyasi bilvosita bayon etilgan. Ya’ni, oshiqlar shoirning ishqiy darslarini, ya’ni ishqiy mavzudagi she’rlarini, tashbeh asosida mashhur ijodkor va mudarris Sayyid Jamoliddinning ilm ahli oldida hadis va’z etishiga o‘xshatadi. Bu bilan ishqiy she’rlar ilohiy ishqqa bag‘ishlangani, shu bois hadis kabi pok va muqaddas mazmun kasb etganiga ishora qilinadi.

Faxriyadagi o‘rnak sifatida keltirilgan Sayyid Jamoliddin Jomiyning qarindoshi bo‘lib, tolibi ilm ekani hamda Jomiyning shahar ichidagi madrasasida mudarrislik qilgani Navoiy tomonidan alohida ta’kidlangan. Demak, shoirning bosh maqsadi ishq va oshiqlik darsi yanglig‘ yangragan nazm ilohiy muhabbatning ramziy bayoni ekanini ochishdan iborat. Shu sababli u mudarris sifatida ilohiy ta’limot beruvchi ijodkor nomidan o‘rinli foydalangan. Ushbu faxriyada ma’lum yo‘nalishdagi ijodiy mahoratni ko‘z-ko‘z qilish bilan birga, bir shoirga qiyoslash asosida o‘z iftixorini bayon etish xususiyati ham kuzatiladi.

**Xulosa.** Navoiy faxriyalarida ustozga munosiblik hissi turli badiiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Shoir bir o‘rinda Jomiy va Xusrav kabi ustozlarning nomini ulug‘lab, ularning tavrida ijod qilganini faxr bilan tilga olsa, boshqa o‘rinlarda ayni munosiblik masalasiga o‘ta mas’uliyat bilan yondashib, o‘zini malomat ham qiladi. Soqiynoma va qit’a misollarida esa bu ruh bilvosita yoki tamsiliy ifoda orqali yanada teranlashadi. Demak, Navoiy faxriyalarida ustozga loyiqlik hissi oddiy taqlid emas, balki ijodiy davomiylik, badiiy vorislik va ma’naviy mas’uliyatning yaxlit ifodasi sifatida talqin etiladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 3-том. - Т.: Фан, 1988.
2. Алишер Навоий. Қомусий луғат. 2 жилдлик, 1-жилд. Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиддинов. - Т.: Шарқ, 2016.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 5-том. - Т.: Фан, 1990.
4-5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 6-том. - Т.: Фан, 1990.
6. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 5-том. - Т.: Фан, 1990.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 81'373.21 (091)

# “QADIMGI TURKIY SO‘ZLAR LUG‘ATI”DAGI ETNOTOPONIMLAR, ANTROPOTOPONIMLAR VA MIFOTOPONIMLAR XUSUSIDA

*Xusainova Sharofat Madraimovna, UrDU tayanch doktoranti,*
*Urganch davlat tibbiyot instituti “O‘zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrasi o‘qituvchisi*



*https://orcid.org/0009-0002-0111-0140*
*e-mail: sharofat5813@gmail.com*

# ON ETHNOTOPONYMS, ANTHROPOTOPONYMS AND MYTHOTOPONYMS IN THE “DICTIONARY OF ANCIENT TURKIC WORDS”

*Xusainova Sharofat Madraimovna, Doctoral student of UrSU, Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature, Languages, Urgench State Medical Institute*

# ОБ ЭТНОТОПОНИМАХ, АНТРОПОТОПОНИМАХ И МИФОТОПОНИМАХ В “СЛОВАРЕ ДРЕВНЕТЮРКСКИХ СЛОВ”

*Хусаинова Шарофат Мадраимовна, базовый докторант УрГУ, преподаватель кафедры “Узбекский язык и литература, языки” Ургенчского государственного медицинского института*

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada “Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati”da uchraydigan toponimlar tarixiy-lisoniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda toponimlarnig tasnifi, semantik guruhlarining shakllanishi va qadimgi turkiy xalqlar bilan bog‘liqligi o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:** toponim, toponimika, toponimiya, polinimiya, urbanonim, gidronim, oronim, etnotoponim, antropotoponim, mifotoponim, onomastika.*

***Abstract**: This article presents a historical and linguistic analysis of the toponyms found in the “Dictionary of Ancient Turkic Words”. The study examines the classification of toponyms, the formation of their semantic groups, and their connection with ancient Turkic peoples.*

***Key words**: toponym, toponymics, toponymy, polyonymy, urbanonym, hydronym, oronym, ethnotoponym, anthropotoponym, mythotoponym.*

***Аннотация:** В данной статье проводится историко-лингвистический анализ топонимов, встречающихся в “Древнетюркском словаре”. В исследовании рассматривается классификация топонимов, формирование их семантических групп и связь с древнетюркскими народами.*

***Ключевые слова:** топоним, топонимика, полинимия, урбаноним, гидроним, ороним, этнотопоним, антропотопоним, мифотопоним.*

**KIRISH.** Toponimlar xalq tarixining muhim xotira qatlamlaridan biridir. Ular nafaqat geografik hududlarni ifodalaydi, balki xalqlarning yashash joylari, ko‘chish yo‘llari, ijtimoiy-madaniy hayoti va tarixiy ma’lumotlarni ham yoritib beradi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar asosida yaratilgan “Древнетюркский словарь” (“Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati”) toponimlarni o‘rganishda muhim manbalardan hisoblanadi. Qadimgi turkiy toponimlar ko‘p asrlar davomida turli madaniy va geografik sharoitlar ta’sirida shakllangan noyob qatlam bo‘lib, o‘sha davr odamlarining dunyoqarashi, faoliyati va ruhiyati bilan bog‘liqdir. Binobarin, qadimgi turkiy toponimlarga singib ketgan semantik salohiyat qadimgi turkiy xalqlarning tili, tarixi va madaniyatini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada lug‘atdagi toponimlarning ayrim

turlari, tarkibiy tuzilishi, ularning semantik xususiyatlari va tarixiy mazmuni tahlil qilinadi. Ularda ma'lum hududning tarixi aks etadi. Bu o'z navbatida tarixni mukammalshtirish imkonini berish bilan birga unga aniqlik kiritadi. Har bir viloyat, shahar, qishloqlar tarixining o'z o'rni bor va uni aniq tarixiy manbalar, nufuzli lug'atlarga tayanib o'rganish zarurati tug'uladi.

Bugungi kunda ham "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati" eng nufuzli turkologik, turkiy tillarning birinchi umumlashtiruvchi lug'ati sanaladi. Ushbu lug'atda keyingi sakson yil ichida dunyoning turli burchaklarida saqlangan va nashr qilingan VII–XIII asrlarga oid ko'plab turkiy yodgorliklar va leksikonidagi 20 000 ga yaqin so'z, iboralar bilan birga antroponimlar, toponimlar, etnonimlar kabi onomastik birliklar izohlangan [15; 9-13].

**METODOLOGIYA.** Tadqiqot davomida qadimgi turkiy toponimik birliklarning shakllanishi, semantik qatlamlari, ularning tarixiy-etnografik kontekstdagi namoyon bo'lish jarayonlarini yoritishda qator manba va tadqiqot ishlari metodologik asos sifatida tanlandi. Avvalo, "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati" toponimlarning etimologik ildizlari, fonetik ko'rinishi va semantik maydonini aniqlashda asosiy leksikografik manba bo'lib xizmat qildi. Ushbu maqolada M.Koshg'ariy, E.V.Sevortyan, N.V.Podolskaya, A.Hojiev, M.Hakimov kabi tilshunos olimlar tomonidan tuzilgan izohli va etimologik lug'atlardan foydalanildi. Bu lug'atlar toponimlarning semantik chegaralarini aniqlash, terminologik birliklarni aniq tasniflash imkonini berdi.

**MUHOKAMA VA NATIJA.** Toponimika – tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo'lib, unda geografik obyektlarga qo'yilgan nomlar o'rganiladi. Toponimlar nafaqat geografik atama sifatida, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati, ijtimoiy hayoti va etnik jarayonlarini yorituvchi muhim lingvistik manba hisoblanadi. Inson narslarga nom qo'ymasdan yashay olmaydi. Dunyodagi hamma narsaning nomi bor. Joy nomlari, *geografik nomlar* yoki *toponim*lar deb ataladi. Toponimlarni *toponimika* fani o'rganadi. Toponimika yunoncha topos – joy va onoma – nom so'zlaridan tarkib topgan. Joy nomlari, ya'ni *toponimiya* bir necha turga bo'linadi. Bular: *gidronimiya* (yunoncha gidro – suv), ya'ni daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar nomlari; oronimiya (yunoncha oros – tog'), ya'ni tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar nomlari, *polinimiya* (yunoncha polis – shahar) yoki *urbanonimiya* (lotincha urbos – shahar) qishloq hamda shaharlarning nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar *etnotoponimlar* (yunoncha etnos – xalq) deyiladi[13;5]. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa *antropotoponimlar* deb atash mumkin. Kishilarga qo'yiladigan atoqli ot, ularning ismi, otasining ismi, taxallusi yoki laqabi bilan atalgan joy nomlari [12;5]. Afsonalar, rivoyatlar va xalq dostonlarida tilida uchraydigan xayoliy joy nomlari esa *mifotoponimlar* deyiladi [1;47].

Turkiy xalqlar toponimikasi, ayniqsa, boy va rang-barangdir. Qadimiy yozma manbalar va ular asosida tuzilgan "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati" turkiy toponimlarni o'rganishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Lug'atdagi toponimlar tahlili ularning lisoniy tavsifini bir necha yo'nalishda olib borish mumkinligini ko'rsatadi. Qayd etilgan jihatlarni e'tiborga olib, to'plangan toponimlarni quyidagi tegishli bandlarga ajratgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

**1. Etnotoponimlar.** Lug'atda urug', qabila, xalq nomi bilan ataluvchi joy nomlari juda ko'plab uchraydi.

*Afšar etnotoponimi*. Bu nomni Mahmud Koshg'ariy o'g'uz qabilalarining oltinchisi (MK $40_{10}$) sifatida tilga oladi [10;89]. Rashidaddin Yulduzxonning birinchi o'g'lining ismi sifatida qayd etadi [14;88]. Abulg'ozi Bahodirxonning shajarai tarokima asarida ham *avshar* etnonimi qayd etilgan [7; 53]. Afshar etnonimining tarqalish areali ancha keng. Mazkur komponent Ozarbayjon va Armaniston, Eron toponimiyalari tizimida juda qadimdan mavjud ekanligi ma'lum[5;64-69]. Afsharlar o'g'uz ko'chmanchi qabilalari tarkibiga kirib, IX-XI asrlarda Orol va Kaspiy bo'ylarida hayot kechirganlar. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, afsharlar Sirdaryoning quyi oqimida o'troqlashgan bo'lib, qishloqlar, qo'rg'onlarda yashaganlar [6;467].

Manbalarda mazkur etnonimning kelib chiqishi, uning lug'aviy ma'nosi haqida turli fikrlar bayon etilgan. H.Vamberi va Y.Nemetlar mazkur etnonimning ma'nolarini Rashidaddin,

Abulg‘ozi Bahodirxon tomonidan izohlangan ma’nolaridan boshqacha talqinini berganlar. H.Vamberi nomni “boshqaruvchi, hokim” deb tarjima qilsa, Yu.Nemet so‘zni *auš* o‘zagi bilan aloqador deb hisoblaydi va ma’nosini “itoatkor” deb izohlaydi[9;29]. A.Gusayinzade etnonimning “epchil, uddaburon” degan izohini ma’qullaydi va so‘zning uch qism – äv + “shoshilmoq, tezlashmoq”, *iš* birgalik nisbat qo‘shimchasi, *-ar/-är* – kelasi zamon fe’li qo‘shimchasidan iboratligini ta’kidlaydi [5; 69]. D.Yuldashevning ta’kislashicha, afšar etnonimining qadimgi yozma manbalarda qayd etilgan izohi haqiqatga yaqindir [16; 25].

*Arγu etnotoponimi*. Bu nomni Mahmud Koshg‘ariy ikki tog‘ orasi; Tiroz va Bolasog‘un orasidagi shaharlarga ham ارغو Arg‘u deydilar, chunki u ikki tog‘ orasidadir deb izohlaydi [10;148]. S.Q.Qorayev va A.H.Arifbayevlar esa O‘zbek xalqini etnogenezini o‘rganishda etnonimlarning roli nomli maqolasida bu etnonimni *arg‘in* – bu urug‘ O‘rta Osiyoda qadimda yashab kelgan va Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qayd qilingan arg‘u qabilasining o‘zginasi bo‘lishi mumkinligini, “Boburnoma”da, o‘zbek urug‘larining dastlabki yozma shajarasi hisoblangan va Mulla Sayfiddin Axsikandiyning “Majmuat-tavorix” asarida keltirilgan o‘zbek elatlari ro‘yxatida bu urug‘ arg‘un shaklida qayd qilinganini va bu etnonim mo‘g‘ulcha arg‘in (o‘zagi arg‘ – duragay) so‘zidan kelib chiqqanligini tahmin qiladilar hamda Arg‘in (arg‘un) so‘zi qirg‘iz tilida hozir ham ana shu ma’noni anglatishini yozadilar [13;55-56]. Shuningdek, *arγu* nomi turkiy qabila nomi sifatida ham yashashda davom etgan bo‘lib, XII-XIII asrlarda ham yozma manbalarda etnonim sifatida uchraydi. Tadqiqotchilar, jumladan, P.Goldenning fikricha, bu nom XI-XIII asrlarda ham siyosiy-etnik birlik nomi sifatida mavjud bo‘lgan [4]. Bu esa mazkur etnonimning tarixiy-etnik maqomini mustahkamlovchi omildir.

“Древнетюркский словарь”da *arg‘u* etnotoponimi uchta lug‘at maqolada izohlanadi. Shulardan birinchisida, arγu/arqu – ikki tog‘ oralig‘idagi vodiy; ikkinchi maqolada turkiy qabilalardan birining nomi, uchinchi maqolada Talas va Bolasog‘un orasidagi joy nomi sifatida ishlatilishi qayd etiladi. Shuningdek, *arγu talas/altun arγu uluš* shakllarida Talas shahri nomlaridan biri ekanligi izohlangan [3; 55]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, *arγu* dastlab qabila nomi – etnonim sifatida shakllangan, keyinchalik ushbu qabila joylashgan hududga o‘tib, toponimga aylangan. Bugungi kunda bu nom bilan ataluvchi hudud Tojikistonning Istaravshan tumanida mavjud.

*Bečänäk etnotoponimi*. Mahmud Koshg‘ariy devonida bu haqda Rumga yaqin turuvchi turkiy qabilalardan biri, o‘g‘uzlarning bir toifasi, ularni *bežeŋ* deb ham atalishini qayd qilgan [11; 450]. Abulg‘ozi Bahodirxon esa bu nomni *bečene* “bajo kelturikchi” deb tilga oladi [7;53]. Ibn Rusa, Ibn Fadlan, Al-Ma’sudiy kabilarning arab tilidagi yodnomalarida qayd etilishicha, pecheneglarning qadimgi yashagan o‘rni Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i, shuningdek, Orol dengiziga yaqini hududlarning shimoli-sharq va shimoli-g‘arb tomonida bo‘lgan. A.M.Sherbak runik, manixey va uyg‘ur yozuvlaridagi qadimgi turkiy matnlarda pecheng nomining uchramaganligi hamda bu nomning ancha kech qo‘llana boshlaganligiga asoslanib, bu xalq O‘rta Osiyoga kelgandan keyin uning pecheng nomi tarqalgan bo‘lsa kerak, deb tahmin qiladi [16; 26-27]. Lug‘atda juda ko‘plab etnonimlar izohlangan bo‘lib, toponimika uchun yana bir ahamiyatli manba unda uchraydigan etnotoponimlardir. *Aramut* (joy nomi va turkiy qabilalardan birining nomi), *Bulγar* (poytaxt shahar va qabila nomi), *Jaγma* (qishloq va qabila nomi), *Qïfčaq* (qipchoqlar yashagan hudud; Qashg‘ar yaqinidagi joy nomi), Tüpüt (Tibet – joy nomi, tibetliklar) kabilar ham etnotoponimlar hisoblanadi. Demak, lug‘atdan ayni vaqtda etnonimlar va etnotoponimlar haqida ko‘plab ma’lumotlarni topish mumkin.

**2. Antropotoponimlar.** “Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati”dagi ko‘plab toponimlar kishi ismlari, laqab, mansab, unvonlari asosida vujudga kelgan. Antroponimlarning toponimga aylanishi muayyan lisoniy qonuniyatlar asosida yuz beradi. Z.Do‘simov bu jarayondagi bir necha omillarni tahlil qilgan. Avvalo, bu holat ikki tizimning bir-biri bilan bo‘lgan yaqin munosabati, ularning xususiyatidan kelib chiqadi. Antroponimlar ham toponimlar kabi obyektni individuallashtiradigan, ularni bir-biridan ajratadigan ijtimoiy-lingvistik belgilarni emas,

ayrim vaqtda ular kishilarning etnik belgisi, milliy xususiyati, ijtimoiy-siyosiy izlanishlarini ham ko‘rsatuvchi belgidir [2; 95]. Shu bois ularning o‘zaro asoslanishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Bu yerda shaxs va obyekt o‘rtasidagi munosabat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘pgina ijtimoiy-siyosiy termin, laqab va ba’zi etnonimlarning toponimga aylanishida antroponimlar muhim vosita bo‘ladi. Bu xildagi belgilarning ko‘pchiligi o‘z-o‘zidan joy nomiga aylanmaydi. Ular dastavval kishi nomlari bilan birga qo‘llaniladi. Vaqt o‘tishi bilan turli omillar asosida joy nomiga o‘tadi [16; 39].

“Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati”da ko‘plab antropotoponimlarni uchratish mumkin. Jumladan, *altun* antropotoponimi. Lug‘atda “Altun” onomasi qadimgi turkiy onomastik tizimda antroponim, toponim va kosmonim vazifalarida qo‘llanganligi izohlangan. *Altun* arγu uluš (toponim) – Talas shahri nomlaridan biri; *Altun* jïš – Oltoy hududidagi unumdor yer. Mazkur so‘z “oltin” so‘zining qadimgi turkiy tildagi ko‘rinishi bo‘lib, bir qancha onomastik birikmalar tarkibida qo‘llanilgan: *Altun qan* (oronim), *Altun qara, Altun qaγan, Altun taj saŋun, Altun tamγan tarqan* (antroponim), *Atun jultuz, Altun qazuq* (kosmonim). Bugungi kunda ham “oltin” so‘zi ko‘plab atoqli otlar tarkibida uchraydi: *“Altin ayaq”* (oyoq kiyimlar sotiladigan do‘konlar tarmog‘i), *“Oltin jo‘ja”* (oshxonaga atab qo‘yilgan nom).

*Baj antropotoponimi.* Mazkur onomastik birlik lug‘atning uchta lug‘at maqolasi orqali izohlangan. Ulardan birinchisida, boy, davlatmand kishi ma’nosi yoritilgan: *baj er qojï* – davlatmand kishining qo‘yi (*ThS* II$_{40}$); *baj meŋilig qïlγaj biz* – biz boy va xursand qilamiz (*Suv* 341$_{17}$); *qïrq jïlqa tegin baj čïγaj tüzlinür* – qirq yilgacha boy va kambag‘al tenglashadi (MK 176$_{7}$); shuningdek, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida majoziy mazmunda saxovatli, saxiy ma’nosida ham qo‘llanganligi izohlangan: *tili čïn bütün häm közi köŋli baj* – tili nihoyatda chin, ko‘zi va ko‘ngli sahovatli (*QBN* 119$_{10}$); ikkinchi maqolasida *baj balïq* – uyg‘urlarning Selenga daryosi bo‘yidagi shahri; *baj jïγač* – turar joy nomi (MK 514$_{5}$); uchinchi lug‘at maqolasida antroponim: *baj apa* (*E* 39$_{6}$); *baj buγa* (USp 14$_{2}$, 17$_{2}$, 38$_{7}$); *baj temür* (USp 2$_{2,\ 9,}$ 25$_{9}$) shaklida ishlatilishi qayd etilgan. N.Kudachina *baj* so‘zining etimologiyasi haqidagi maqolasida, *baj* komponentiga asoslangan iboralarda ushbu so‘zning ajdod, homiy, muqaddas itoatkor, oqsoqol, egalik qiluvchi, boy, mo‘l-ko‘l kabi ma’nolarga ega bo‘lganligini tahmin qiladi. N.Kudachinaning ta’kidlashicha, tegishli ma’lumotlarning lingvistik va etnografik tahlili shuni ko‘rsatadiki, *baj* so‘zining semantik rivojlanishi diniy e’tiqodlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan. N.A.Baskakov ham turkiy tillardagi baj/paj ildizi marosimlar, afsunlarning turli sinkretik harakatlari va shu munosabat bilan qurbonlik, shodlik, ziyofatlar, qo‘shiqlar, afsonalar va boshqalarni nishonlash bilan chambarchas bog‘liq ekanligini qayd etadi [8; 82-87].

*Barsγan antropotoponimi.* Bu nomni Mahmud Koshg‘ariy toponim va antroponim sifatida tilga oladi. Alp Er To‘nga o‘g‘lining nomi ekanini qayd etadi. Barsγan shahrini bino qilgan shudir deb ta’kidlaydi. Mahmudning otasi ham shu shahardan deya yozib, ba’zilar uyg‘ur begi otboqarining ismi Barsγan bo‘lib, bu yerning havosi yaxshi bo‘lgani uchun u otlarini shu yerda boqar edi, so‘ng shahar unga nisbat berilib, Barsγan deb ataldi degan fikrda ekanliklarini ham qayd etgan [11;368].

Qadimgi ismlar, ya’ni antroponimlar toponimikada juda katta ahamiyatga ega. A.I.Popov, Dorogobi, Radonej, Jitomir, Ratmirovo singari toponimlar qadimgi slavyan ismlaridan olingan deb yozadi. O‘rta Osiyoda esa qadimgi turk ismlaridan kelib chiqqan nomlarni ajratish oson emas. Shu jihatdan Mahmud Koshg‘ariyning antroponimlar haqidagi fikri juda qimmatli. *Barman* shahri Afrosiyobning o‘g‘li Barman nomi bilan atalgan. *Qazvin* – Afrosiyobning qizi Qaz qurgan shahar bo‘lib, asli “qaz o‘yini” demakdir. *Qaz suvi* – Ila vodiysidagi katta bir yo‘l. Afrosiyobning qizi Qaz uning qirg‘og‘iga bir shahar qurgani uchun shunday nom olgan [13; 303-304]. Quyida lug‘atda uchraydigan, biroq ushbu tadqiqotda batafsil izohlanmagan ayrim antropotoponimlar sanab o‘tiladi. Jumladan, *Aruq* (charchagan, toliqqan, ozg‘in) – antroponim (*USp* 98$_{31}$), *Aruq turuq* – Farg‘ona vodiysi bilan Qoshg‘ar o‘rtasidagi tog‘ tizmasi yoki dovon nomi (MK 1$_{66}$); *Jabaš* – gidronim (МЧ 21), *Jabaš tutuq* – antroponim (*ThS* IV$_{3}$); *Jegän* (jiyan) *jegän čur, jegän qara* – antroponim (*USp* 51$_{2}$), *jegän känt* – Turkistondagi shahar [3; 269]; ötükän, ötükän jïš,

TAMADDUN NURI

ötükän jer – toponim, ötükän temür – antroponim [3; 417]; tajγan köl – gidronim, tajγan – antroponim [3; 559]; tašïq – antroponim, tašïq baš – toponim [3; 572].

**3. Mifotoponimlar.** “Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati”dagi toponimlar orasida etnotoponim va antropotoponimlar qatorida mifotoponimlarni ham uchratish mumkin. Jumladan, *Abajabur* – afsonaviy shahar nomi: ürüg amil abajabur atlïγ nirvanlïγ ulušqa tegmäkimiz bolzun – biz abhajapura deb nomlangan abadiy sokin shaharga yetib boramiz (Usp $10_{18}$).

*Gandamadin* – hind mifologiyasida tog‘ nomi [3; 207]. Gandhamadana toponimi sanskrit tiliga mansub murakkab leksema bo‘lib, ikki asosiy komponentdan tarkib topgan: gandha va madana. Gandha (सुगन्ध / गन्ध) – “hid”, “xushbo‘y ifor” ma’nolarini bildiradi va hind mifologiyasida ilohiylik, poklik hamda samoviy muhit ramzi sifatida talqin qilinadi. Madana (मादन) – “mast qilmoq”, “hayajonga solmoq” ma’nolarini anglatib, mifologiyada ruhiy zavq va ilohiy hayratni ifodalaydi; shuningdek, u sevgi xudosi Kamadevaning epitetlaridan biridir [17].

**XULOSA.** Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari qadimgi turkiy toponimlar til tizimida muhim o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Lug‘at asosida olib borilgan tahlil antropotoponimlar, etnotoponimlar, mifotoponimlarning qadimgi turkiy onomastik tizimdagi faol va mahsuldorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ularning orasida etnotoponimlar, antrotoponimlar nisbatan mahsuldor, zootoponimlar, fitotoponimlar hamda mifotoponimlar esa kamroq uchrashini aniqladik.

Mazkur ishda faqat ayrim birliklar yoritildi, qolganlari esa ushbu toponimik turkumning keng qo‘llanganligini ko‘rsatuvchi dalil sifatida qayd etildi.Toponimlarning manbalarini o‘rganish jarayonida qadimgi turkiy toponimlarni antropotoponimlar, etnotoponimlar, mifotoponimlar, fitotoponimlar va zootoponimlar sifatida tasniflash mumkin degan xulosaga keldik.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 47.
2. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.95.
3. Древнетюркский словарь. – Астана, 2016.
4. Golden P.B. The Turkic World in Mahmud al-Kashgari’s Dīwān Luġat at-Turk // Journal of Turkish Studies. – 2000.
5. Гусайинзаде А. О происхождении топонима “Апшерон” // Советская тюркология. – 1974. – №3. – С.64–69.
6. Кяштарный С.Г. Огузы // Советская историческая энциклопедия.– М., 1969. – Т. 10. – С.467.
7. Кононов А.Н. Родословная туркмен. Сочинение Абу-л-гази хана Хивинского. – М-Л., 1958. – С. 53.
8. Кудачина Н. Этимологии слова “Бай” в алтайком языке// Советская тюркология. – 1980. – №5. – С.82–87.
9. Koprulu M.F. Afsar // Islam Ansiklopediyasi. C 2. – Istambul, 1961. – S.29.
10. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.89, 148.
11. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. Ikkinchi jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B.368, 472
12. Низомов А., Рахимова Г., Расулова Н. Топонимика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Sharq, 2012. – Б.5.
13. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari nashriyoti, 2006. – B. 5, 55-56, 303-304.
14. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т. I. Кн.1. Перевод с персидского Л.А.Хетогурова. – М., 1952. – С. 88.
15. Yuldashev D.T. “Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati” onomastik tadqiqotlar uchun manba sifatida // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2024. – №5. – B. 9–13.
16. Юлдашев Д.Т. Жанубий Қорақалпоғистон топонимларининг тарихий-этимологик тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. – Нукус, 2012. – Б. 25.
17. Mount Gandhamadana - Wikipedia https://en.wikipedia.org/wiki/Mount_Gandhamadana

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 811.133.1:81'373.611

# DIPLOMATIK DISKURSNING KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI

*Negmatova Mumtozbegim Ulug'bek qizi, Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti*

# COMMUNICATIVE FEATURES OF DIPLOMATIC DISCOURSE

*Negmatova Mumtozbegim Ulugbek qizi, doctoral student at Tashkent state Transport University*

# КОММУНИКАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

*Негматова Муттозбегим Улугбековна, Ташкентский государственный базовый докторант Транспортного университета*

*https://orcid.org/0009-0003-1445-4732*
*e-mail: negmatovamumtozbegim@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada diplomatik diskursning eng ko'p tarqalgan kommunikativ xususiyatlari tadqiq etilgan. Maqolada diplomatik nutqqa xos bo'lgan har bir xususiyat muhokama etilgan bo'lib, ushbu xususiyatlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, amaliy jihatdan maqolada misollarga sharhlarning berib o'tilishi, kommunikativ xususiyatlarning ochiq-oydin tahlil etrilishiga imkon yaratgan.*

***Kalit so'zlar:*** *bilvositalik, diskurs, ehtiyotkorlik, institutsionallik, kommunikatsiya, rasmiylik, siyosiy neytrallik, xushmuomalalik.*

***Annotation:*** *This article examines the most common communicative features of diplomatic discourse. It discusses each feature of diplomatic speech, and these features are scientifically substantiated. Also, from a practical point of view, the article provides explanations of examples, allowing for a clear analysis of communicative features.*

***Key words:*** *indirectness, discourse, individual, institutionality, communication, formality, political neutrality, politeness.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются наиболее распространенные коммуникативные особенности дипломатического дискурса. Каждая особенность дипломатической речи обсуждается и научно обоснована. Кроме того, с практической точки зрения, в статье приводятся пояснения к примерам, позволяющие провести четкий анализ коммуникативных особенностей.*

***Ключевые слова:*** *непрямота, дискурс, осторожность, институциональность, коммуникация, формальность, политический нейтралитет, вежливость.*

**KIRISH.** Diplomatik diskursni o'rganish dunyodagi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda, xalqaro aloqalarda tinchlikni, o'zaro hamjihatlikni ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi. Tilshunoslik fanida diplomatik korpus vakillari nutqini tahlil qilish orqali olimlar, diplomatiyaning nozik jihatlarini, nutq uslublari, strategiyalarini o'rganib kelishmoqda. Diplomatik diskursning kommunikativ xususiyatlari doirasidagi izlanishlar ham bugungi kunda olimlar diqqat markazida bo'lib turibdi. Bunga sabab, ushbu tur diskursining boshqa diskurslarga nisbatan xususiyatlarining ko'pligi va aynan, diplomatik diskurs uchun xosligidadir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Tadqiqotimizda bugungi kunda diplomatik diskurs va uning kommunikativ xususiyatlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan, hamda ushbu sohada katta muvaffaqiyatlarga erishgan olimlarning ilmiy adabiyotlaridan keng foydalanildi. Xususan, diplomatik sohaga doir izlanishlar, G.Berrij, L.Terentiylarning qarashlarini majoziy ma'noda

davom ettirgan bo‘lsa, uslublar va xususiyatlar bevosita I.Galperin, H.Grays, G.Lakoff, P.Brovn, S.Levinson va boshqa olimlarning ilmiy qarashlaridan kelib chiqib tahlil hamda tadqiq etildi.

**TADQIQOT MUHOKAMASI.** Diplomatik nutq bir davlatning boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarida foydalanadigan nutq ekan, uning kommunikativ xususiyatlari ham o‘ziga xoslikni kasb etadi. Rus tilshunos olimi Terentiyning aytishicha, diplomatik diskurs kommunikativ jarayonning muhim bir qismi hisoblanib, uning boshqa diskurs turlaridan farqli jihati ko‘pqirraligidadir. Biz bu xususiyatni diplomatik diskursning ko‘p maqsad va vazifalarni amalga oshirishda qo‘llanilishini oshkora va yashirin tarzda namoyon etilishi orqali sezishimiz mumkin[6,89]. Haqiqatdan ham, boshqa diskurs turlaridan farqli ravishda diplomatik diskurs nutqni amalga oshiruvchi shaxs zimmasiga o‘ta mas’uliyatli vazifani yuklaydi.

Diplomatik nutqning kommunikativ xususiyatlari deganda nutqning qanday yo‘sinda yetkazib berilishi va uning nima maqsadni ifodalayotganligini tushunamiz. Aynan ana shu bosqichlarda diplomatik nutqning kommunikativ xususiyatlari o‘rganiladi. Bu xususiyatlarni bir necha turga ajratish mumkin. *Rasmiylik, xushmuomalalik, bilvositalik, siyosiy neytrallik, ehtiyotkorlilik, ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilganlik, chegaralangan axborot yetkazish, institutsionallik, standardlashganlik, ko‘p adresatlilik, o‘ziga xos imidj yaratish, konfliktni boshqarish* va yana bir qator turlarni keltirishimiz mumkin. Endilikda har bir xususiyatni ilmiy asoslangan materiallar doirasida ko‘rib chiqamiz.

Avvalambor, diplomatik diskursda ***rasmiylik*** xususiyatini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu xususiyatni stilistika bilan bog‘lashimizga hech qanday to‘sqinlik yo‘q. Mashhur tilshunos olim Galperin o‘zining “Stilistika” nomli kitobida tilning funksional uslublari haqida bayon etgan. Uning klassifikatsiyasida besh tur mavjud bo‘lib, aynan beshinchisi sifatida olim *rasmiylik* uslubini tan olgan.Ushbu uslub iqtisodiy hujjatlar, qonun hujjatlari, harbiy soha hujjatlari va shubhasiz, diplomatik hujjatlarni ham o‘zida mujassam etgan[3,312]. Haqiqatdan ham biz har bir diplomatik soha doirasidagi hujjatlarni faqatgina rasmiy uslub doirasida ko‘ramiz va bu uslub diplomatik diskursning o‘zgarmas xususiyati bo‘lib qolishi muqarrar. Nafaqat yozma ravishdagi muloqot vositalari, diplomatik sohaning so‘zlashuv jarayoni ham rasmiy tarzda amalga oshiriladi. Bunda diplomatik korpus vakillari ijtimoiy-odob axloq normalariga amal qilgan holda, o‘zga millatlarning sha’ni, qadr-qimmati, ma’naviyati hamda madaniyatini hurmat qilib o‘z mamlakatlari nomidan bayonot berishlari lozim bo‘ladi. Badiiy uslub, ilmiy publitsistik uslubdan keskin farq qiluvchi rasmiy uslubning o‘ziga xos yondashuvlari mavjud bo‘lib, ma’lum bir qolip doirasida ish olib borish talab etiladi. Ya’ni yuqoridagi uslublarda foydalaniluvchi erkin so‘z tanlash, turli xil bo‘yoqdor so‘zlardan foydalanish, emotsionallikni ko‘rsatib berish, shaxsiy xulosalarni bayon etish kabi xususiyatlar rasmiy uslubdan foydalanuvchi shaxslar uchun begonadir. Ulardan talab etiladigani rasmiy uslub doirasida qo‘llaniluvchi standard qoliplardan foydalangan holda, maqsadni aniq bayon etish, nutqda mantiqiy izchillikni saqlagan holda o‘z emotsional hissiyotlariga tayanmasdan, balki davlatning betaraflik pozitsiyasini namoyon etishdir. Agarda nutq jarayonlari rasmiy uslub doirasida olib borilmasa, diplomatiyada juda qo‘pol xatolik hamda hurmatsizlik hisoblanadi. Bunga sabab, uslubiyatning diplomatik munosabat shakllariga tushmasligidir. Oddiy misol tariqasida tushuntiradigan bo‘lsak: “*Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish tarafdorimiz”,* – ushbu gap rasmiy uslubdagi diplomatik nutq namunasidir.

Ammo so‘zlovchi mazkur gapni stilistik xato izohlasa, gap ehtimoliy ravishda quyidagicha shakllanishi mumkin: *“Bizning salobatli mamlakatlatlarimiz orasidagi yaqin hamkorlik rishtalarining yangi ufqlarga ko‘tarilishidan umidvormiz*”, - ushbu gap badiiy uslubga xos bo‘lib, yuqoridagi gap bilan ma’nosi deyarli bir xil, ammo uslubiy bo‘yoqdorlik, emotsiyanallik ko‘proq, deya baholay olamiz. Shu sababdan ham, biz diplomatik nutqda mazkur gaplar ma’nosini ifodalash uchun, birinchi gapdan foydalanishni ma’qul ko‘ramiz. Sababi, gap uslubi rasmiy uslubda bo‘lganligidadir.

Diplomatik diskursning ***xushmuomalalik*** xususiyatiga to‘xtalib o‘tar ekanmiz, bu xususiyatning davlatlar o‘rtasidagi aloqalarda, so‘zlashuvlarda, har bir uchrashuvlarda kuzatamiz. Hattoki, diplomatik diskursning yozma shaklida ham bu xususiyat saqlanib qoladi. Xushmuomalalik deganda biz, adresatning odob-axloq normalariga,

etika, ritorika qoidalariga, ma’naviyat va madaniyat qadriyatlariga tayangan holdagi so‘zlashuv jarayonini tushunamiz. Xushmuomalalikning lingvistikada alohida nazariya bo‘lib shakllanishi esa, ushbu xususiyatning fan uchun dolzarb ahamiyati mavjudligini ta’kidlaydi. Olimlar S.Levinson hamda P.Brown, E.Goffmanning “Face” (so‘zlashuvda yuz ifodasi) tushunchasi masalasidagi qarashlarini kengaytirgan tarzda “Politeness theory” ya’ni “Xushmuomalalik nazariyasi”ni ishlab chiqqanlar. Olimlarning izlanishlari xushmuomalik termini atrofida bahs yuritmay, balki uning strategiyalarini tadqiq etishdan iborat bo‘lgan. Ularning fikriga ko‘ra, xushmuomalalik strategiyalari pozitiv va negativ turlarga ajratiladi va so‘zlovchi hamda tinglovchining “ijobiy va salbiy yuzi”ni himoya qiladi[2,12]. Ya’ni, birida yaqinlik jihatidan muomala jarayonlari nazarda tutilsa, ikkinchisida shaxsiy hududni hurmat qilish asosiy vazifa sifatida turadi. Biz do‘stlar yoki oila davrasida, yoki ijodiy jamoalarda “ijobiy yuz”ni ifodalash strategiyalaridan foydalansak, “salbiy yuz” strategiyalari biz uchun rasmiy, ish yuzasidan uchrashuvlarda, majlislarda hamda diplomatik sathda tadqiq etiladi. Aynan “Salbiy yuz”ni ifodalovchi birliklarning “rasmiy xushmuomalalik bilan bir sathda turishi” olimlar e’tiborini tortgan. Bu nazariyani diplomatik diskurs doirasida tadqiq qilish esa ushbu soha vakillarining nutqlari iltifotli tarzda namoyon etilishini ta’minlaydi. Shuni ta’kidlash o‘rinli-ki, diplomatik diskursda xushmuomalalikni namoyon etish, shunchaki emotsiyani ko‘rsatish yoki samimiy hissiy tuyg‘u emas, balki bu strategik ahamiyatga ega harakat hisoblanadi. Bu orqali davlatning maxsus vakillari o‘z davlati nomidan hurmat va iltifot shakllarini o‘zga mamlakat vakillariga yetkazishadi. Agarda gaplar xushmuomala tarzda ifodalanamasa, muloqot jarayonida qo‘pollik yuzaga keladi. Xushmuomalalik diplomatik nutqda ehtimoliy ravishda quyidagicha bo‘lishi mumkin: *“Hurmatli elchi janoblari, bugungi samimiy suhbat uchun sizga o‘z minnatdorchiligimni izhor etaman. Sizning takliflaringiz hamda bildirgan fikr-mulohazalaringiz biz uchun muhim ahamiyatga ega”.* Biz ushbu gapda keltirilgan *hurmatli, samimiy, minnatdorchilik* kabi so‘zlar orqali xushmuomalalikka ishora mavjudligini sezishimiz mumkin.

Diplomatik diskursning ***bilvositalik*** xususiyatiga to‘xtalar ekanmiz, avvalo, bilvositalikning qanday xususiyat ekanligini aniqlab olishimiz lozim bo‘ladi. Bilvositalik ochiqdan-ochiq o‘zini namoyon etmasdan, yashirin tarzda ifoda etish deya olamiz. Diplomatik diskursda ham bilvositalik diplomatlarning o‘z nutqini ochiqchasiga emas, balki muloyimlik bilan namoyon etishini tushunamiz. Tilshunoslikda bu xususiyat bir qator nazariyalar doirasida o‘rganiladi. Masalan, Levinson hamda Brown ishlab chiqqan “Xushmuomalalik nazariyasi” ham bilvositalikni targ‘ib qiladi. Ya’ni bu yerda gapdan anglashiladigan mazmun to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘pol so‘zlar vositasida emas, balki “face-saving” metodi orqali, bilvosita, ma’no yashirilgan tarzda ya’ni yumshatilgan holda yetkazib beriladi. Bu orqali diplomatlar ehtimoliy nizolarni oldini olish, turli xil noto‘g‘ri talqinlardan qochib, mazmunni ijobiy jihatdan maqbul tarzda yetkazib berishga harakat qiladilar. Shu o‘rinda bilvositalik Grays [4,41-58] ishlab chiqqan maksimlar nazariyasiga zid kelishini ham ta’kidlab o‘tmog‘imiz lozim. Ya’ni, bilvosita ifoda miqdor maksimini buzadi va aniq hamda qisqa gapirishni targ‘ib qilmaydi. Ko‘p hollarda bilvositalik diplomatik bayonotlarda e’tiroz bildirishdan qochish maqsadida qo‘llaniladi. Bu vaziyatda so‘zlovchi bevosita tanqidni amalga oshirmasdan kinoyali tarzda fikrini ifoda etadi. Masalan, qandaydir qaror yoki taklifga e’tiroz bildirilganda diplomatiyada to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Bu qaror noto‘g‘ri” deb bayonot bermasdan, *“Mazkur qarorni yana bir bor ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb hisoblaymiz”* tarzida ifodalash yanada maqbulroq variant sifatida ko‘riladi. Shuni yodda tutish lozimki, diplomatiyada bilvositalikning nozik chegarasi mavjud. Agarda diplomatlar ushbu chegarani buzib o‘tishsa, ularning nutqlari badiiy uslub doirasiga tushib qoladi hamda nutqdan ko‘zlangan ma’no noto‘g‘ri tarzda ifodalanadi.

***Siyosiy neytrallik*** ham diplomatik bayonotlarda muhimlik kasb etadi. Siyosiy neytrallik deganda, davlatlarning diplomatik faoliyatida, biror bir siyosiy pozitsiyaga ochiq oydin fikr bildirmay, neytral pozitsiyada turishi tushuniladi. So‘zlashuvda siyosiy neytrallik asosan, diplomatik nutqda, xususan, BMT doirasidagi nutqlarda yaqqol seziladi. Uning ahamiyati shundaki, xalqaro huquqiy obro‘ni saqlaydi, turli nizolarni oldini

oladi, hamda muzokara jarayonlarini yumshatadi. Siyosiy neytrallik doirasidagi ilmiy izlanishlar aynan, bu xususiyatni ochiqdan-ochiq o‘rganishga qaratilmagan. Ammo biz uni ideologiya hamda yashirin pozitsiya kabi qirralarini ayrim adabiyotlarda uchratishimiz mumkin. Shuningdek, diplomatik diskurs sohasida muhim tadqiqotlar olib borgan olim Berridj siyosiy neytrallikni quyidagicha baholaydi: Avstriya va Shvetsariya mintaqadagi doimiy *neytral* mamlakatlar hisoblanib, ular tinchlik yo‘lidagi g‘ayrioddiy diplomatik sa’y-harakatlari bilan mintaqada ustunlikka erisha oladilar. Ya’ni ular ma’lum bir siyosiy yoki harbiy harakatga kelmasdan, balki o‘z bayonotlarida *siyosiy neytrallikni* saqlagan holda ustunlikka erishib kelmoqdalar[1,255]. Darhaqiqat, tarix bugungi kunga qadar diplomatlarning ko‘plab chiqishlariga guvoh bo‘lib kelmoqda. Ularning ayrimlari urushlarga sababchi bo‘lsa, boshqalari esa tinchlikni saqlashga qaratilgan bo‘ladi. Diplomatlarning o‘z bayonotlarida maqbul nutq strategiyalaridan foydalanishlari esa nafaqat ular uchun balki, o‘z mamlakatlari hamda dunyodagi ko‘plab mamlakatlar uchun tinchlikni saqlash yo‘lida manfaatli bo‘ladi, deya olamiz.

Diplomatik diskursning o‘ziga xosligidan yana biri, unda ehtiyotkor formulalardan foydalanishning shartliligidir. Sababi, ***ehtiyotkorlilik*** diplomatik diskursda tomonlarning manfaatini suiste’mol qilmasdan, o‘zaro nizolarga sabab bo‘lmasdan himoya qilishini nazarda tutadi. Diplomatlar o‘z nutqlarini e’tibor bilan, ortiqcha chalkashliklarga, nizolarga sabab bo‘lmasdan amalga oshirishi juda nozik masala. Bunda ularning nutqida bilvositalik, xushmuomalalik hamda nutqni yumshatuvchi birliklardan foydalanish qo‘l keladi. Ehtiyotkor formulalarni nutqda qo‘llash, so‘zlovchining ma’lum bir masala yuzasidan o‘zining tugallangan fikrini ifodalamasdan, balki shu fikrga nisbatan o‘z munosabatini yumshoq ohangda bildirishi nazarda tutiladi. Bu kabi formulalarni tilshunoslikda tadqiq qilgan olim Lakoff, ularga “hedjlar” deb nom beradi. Uning ta’kidlashicha bu kabi so‘zlar, gapga aniq ma’no bermasdan, balki noaniqlik vositasida so‘zlovchini ma’lum bir fikrga uzil-kesil fikr bildirishdan saqlaydi. Bu bilan so‘zlovchi o‘z nutqida neytrallikni ushlab qolishga harakat qiladi. Eng keng tarqalgan “hedjslar”ga biz *…bir turi, kabi, singari, shunga yaqin, asosan, ayniqsa, tom ma’noda* kabi so‘zlarni kiritishimiz mumkin[5,472]. Bu kabi so‘zlar so‘zlashuv jarayonida aniq bir fakt keltirib o‘tmasdan, mavhumlik vositasida ehtiyotkorlikni ta’minlaydi. Shuningdek, ayrim turdagi modal fe’llar ham nutqda ehtiyotkorlikni ta’minlaydi. Biz ularga misol qilib, ingliz tilida keng tarqalgan may, might, could, would, should kabi modal fe’llarni keltirishimiz mumkin. Ular o‘zbek tilida ham, mumkin, ehtimol tarzida qo‘llaniladi hamda diplomatik nutqlardagi ehtimolikni ifodalashga yordam beradi. Masalan, *Bu masala bo‘yicha bizda boshqa fikrlar bor* deyish o‘rniga *Bu masala yuzasidan pozitsiyalarimizda ba’zi farqlar bo‘lishi mumkin(might)*tarzida gaplarni ifodalash ehtiyotkorlik xususiyatini namoyon etadi.

**XULOSA.** Diplomatik diskursning kommunikativ xususiyatlarini tadqiq etar ekanmiz, uning serqirraligini, biri-birini takrorlamasligini va shu bilan birga barchasining biri-birini to‘ldirish xususiyatiga ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Ularni tahlil qilish bizga bu sohaga oid yangi bilimlarga ega bo‘lish imkonini beradi. Tilshunoslik hamda diplomatiya sohalari uchun esa, diplomatik muloqotlarning aniq, izchil, davomli hamda strategik jihatdan mukammal bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. Berridge G. Diplomacy. Theory and practice. – L, -2015. – Plagrave macmillan.
2. Brown P,Levinson S. Politeness:Some universials in language usage. –C, -1987,- Cambridge university press.
3. Galperin I. Stylistics. –M, -1977. -Higher school.
4. Grice H.P. Reprinted from Syntax and semantics 3: Speech arts, Cole et al. Logic and conversation.-1975. with permission from Elsevier.
5. Lakoff G. Hedges: A study in meaning criteria and the logic of fuzzy concepts. –B, -1973.- University of California.
6. Терентий Л. Интенционаьная структура дипломатического дискурса. Диссертация на соискание учёной степени доктора филологических наук. UDC 811.133.1:81’373.611 DOI https://doi.org/10.32838/2710-4656/2022.1-1/27.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 373:811.111:159.95

# INGLIZ TILINI O‘ZLASHTIRISHDA O‘SMIRLAR BILISH JARAYONLARINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

*Qurbonova Dilnoza Arslanovna, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti (PhD)*

# PSYCHOLINGUISTIC FEATURES OF COGNITIVE PROCESSES OF ADOLESCENTS IN MASTERING THE ENGLISH LANGUAGE

*Kurbanova Dilnoza Arslanovna, Associate Professor of the Uzbek State University of World Languages (PhD)*

# ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ ПОДРОСТКОВ В ОСВОЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

*Курбанова Дильноза Арслановна, доцент Узбекского государственного университета мировых языков (PhD)*



*https://orcid.org/0000-0001-9435-8975*
*e-mail: dilnoza_kurbonova8386@mail.ru*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada bilish jarayonlari ahamiyatiga doir mulohaza va fikrlar asoslab berilgan. Bilish jarayonlarini rivojlangan o‘smirlarning o‘ziga xos xususiyatlari mazkur maqolada o‘z aksini topgan va bilish jarayonlarini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy olimlarning qarashlari ilmiy-psixologik nuqtayi nazardan talqin qilingan.*

*Shu bilan birga, bilish jarayonlarini rivojlantirish nafaqat ingliz tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan munosabatni o‘zgaradi balki, uning kelajakdagi qarorlariga samarali ta’sir o‘tkazishi asoslangan.*

***Tayanch so‘zlar:*** *bilish jarayonlari, rijovlantirish, nutq, fikrlar, psixik taraqqiyot, qiziqish, psixolingvistika, idrok, ingliz tilini o‘zlashtirish, tilshunoslik.*

***Abstract:*** *This article presents considerations and substantiated ideas about the importance of cognitive processes. The specific features of adolescents with developed cognitive processes are reflected in this article, and the views of foreign scientists on the development of cognitive processes are interpreted from a scientific and psychological point of view.*

*At the same time, it is based on the fact that the development of cognitive processes not only changes the attitude towards mastering the English language, but also effectively influences its future decisions.*

***Keywords:*** *cognitive processes, development, speech, thoughts, mental development, interest, psycholinguistics, perception, mastering the English language, linguistics.*

***Аннотация:*** *В статье представлены соображения и обоснованные идеи о важности познавательных процессов. В статье отражены специфические особенности подростков с развитыми познавательными процессами, а также интерпретированы взгляды зарубежных ученых на развитие когнитивных процессов с научно-психологической точки зрения.*

*При этом работа основывается на том факте, что развитие познавательных процессов не только меняет отношение к освоению английского языка, но и эффективно влияет на будущие решения.*

***Ключевые слова:*** *познавательные процессы, развитие, речь, мышление, умственное развитие, интерес, психолингвистика, восприятие, освоение английского языка, лингвистика.*

**Kirish.** Bilish insonning eng asosiy ehtiyojlaridan biridir. Olimlar hatto odamlarda tug‘ma qiziqish yoki aqliy instinkt haqida ko‘p marotaba ta’kidlashadi. Bilish, bilim, uzoq

ajdodlarimizni vahshiylik zulmatidan sivilizatsiya va taraqqiyot yo‘liga olib chiqqan nur edi. Bugungi kunda u johillik, xurofot, illyuziyalar va hayot utopiyalari bulutlarini yo‘q qiladi[1]. Bilish insonni bilimli qiladi va ta’lim insonning eng qimmatli ijtimoiy fazilatlaridan biridir. Bilish haqida ko‘pchilik olimlar o‘z fikr mulohazalarini turli talqinda bayon etishgan.

**Adabiyotlar sharhi va metodlari.** Ushbu tadqiqot yuzasidan izlanish olib borilib, maqolada kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, kuzatuv, kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida ma’lum bo‘ldiki, V.A.Lektorskiyning fikriga ko‘ra, bilish inson ongida voqelikning faol, ijodiy aks etishi yoki takrorlanishidir[2]. B.Rassel bilishni obyektiv dunyoning hodisalari va naqshlari haqida bilim olish uchun jarayonlar va usullar to‘plami deb hisoblagan[3]. Bilish obyekti – bu voqelikning ma’lum bir bo‘lagi bo‘lib, insonning amaliy va aqliy faoliyati sohasiga kiradi. Bilish o‘z tabiatiga ko‘ra ijtimoiy jarayondir. Shuning uchun uning haqiqiy subyekti butun jamiyatdir. Fakt nuqtayi nazaridan, jamiyat, bilish subyekti sifatida,shaxslar va tadqiqot jamoalari tomonidan ifodalanadi [2].

Bilimga qiziqish insonning shaxs sifatida rivojlanishining eng muhim poydevoridir. Bilimga qiziqish insonning barcha psixologik jarayonlarini faollashtirish va shu orqali haqiqatni o‘zgartirish va yaxshilashga doimiy istakni rag‘batlantirishga qaratilgan. Aqliy qiziqishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u nafaqat aqliy faoliyat jarayonini boyitishi va faollashtirishi, balki shaxsning boshqa har qanday faoliyatini ham faollashtirishi mumkin, chunki ularning har biri kognitiv kelib chiqishga ega.Ingliz tilini samarali o‘zlashtirish jarayoni bevosita psixologiya bilan bog‘liq. Bu o‘smirlarning ingliz tilini o‘zlashtirish muvaffaqiyatini ta’minlash uchun ularning til o‘rganish jarayonida bilish jarayonlariga ahamiyat qilishimiz lozimligini ko‘rsatadi. Chunki, ikki jarayon – ingliz tilini o‘zlashtirish va uni o‘zlashtirish jarayonida bilish jarayonlarini rivojlantirish – o‘zaro bog‘liq. Bu esa, psixologiya hamda, tilshunoslikning o‘zaro bog‘liqligini anglatadi.

Shunday qilib, xorijiy tillarni o‘qitishga psixolingvistik yondashuv XX asrning o‘rtalarida paydo bo‘ldi, olimlar til o‘rganishni faqat lingvistik nazariyalar bilan to‘liq tushuntirib bo‘lmasligini va o‘rganish jarayoniga ta’sir qiluvchi bilish jarayonlari va hissiy jihatlarni hisobga olish zarurligini anglay boshladilar. Psixolingvistika fan sifatida chet tillarini o‘qitish bilan bevosita bog‘liq, chunki u ikkita asosiy sohani birlashtiradi: kognitiv jarayonlarni o‘rganadigan psixologiya va tilning tuzilishi va funksiyalarini o‘rganadigan tilshunoslik [10]. Psixologik jihatlarga tilni o‘zlashtirish jarayonida nutq, diqqat, xotira, idrok, tasavvur va fikrlash muhim rol o‘ynaydi. Lingvistik jihatlar tilning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan grammatika, lug‘at, fonetika va semantikani qamrab oladi. Psixolingvistika fan sifatida ingliz tilini o‘qitishga qanday usul va texnikalarni taklif qilishi mumkinligini aniqlash uchun biz psixolingvistika mavzusini va uning o‘qitish bilan qanday bog‘liqligini ko‘rib chiqamiz.

**Natija va muhokama**. Psixolingvistika doirasida xorijiy tillarini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydigan bir nechta asosiy jarayonlarni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonlar tovushlar va fonemalarni idrok etish, grammatik tuzilmalarni tushunish, so‘zlarni yodlash va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish, shu bilan birga, tilning madaniy va ijtimoiy jihatlaridan xabardorlik darajasini kengaytirishni o‘z ichiga oladi. Nutqni idrok etishning psixolingvistik tahlili doirasida I.A.Zimnyaya [7] og‘zaki va yozma nutqni tushunish jarayonida muhim rol o‘ynaydigan uchta asosiy semantik darajani aniqlagan bo‘lib, ular quyidagicha talqin qilinadi: tanib olish darajasi, tushunarlilik darajasi va tushunish darajasi.

Psixolingvistikaning ikki sohani psixologiya va tilshunoslikni birlashishidir. Tilshunoslik tilni o‘rganadi, psixologiya esa ong va xulq-atvorni o‘rganadi. Shuning uchun psixolingvistikani odatda ong va tilni o‘rganish deb ta’riflash mumkin. Inson ongi va tili o‘rtasidagi munosabatlar u tilni ishlab chiqarish va idrok etish jarayonida miyada sodir bo‘ladigan jarayonlarni tahlil qilish orqali o‘rganiladi. Tilni ishlab chiqarish, idrok etish va o‘zlashtirish psixolingvistikaning uchta asosiy sohasini qamrab oladi[11]: 1.Tilni ishlab chiqarish, so‘zlar orqali fikrini ifodalashda ishtirok etadigan jarayonlarni anglatadi. 2.Tilni idrok etish ham yozma, ham og‘zaki tilni talqin qilish va tushunishda ishtirok etadigan jarayonlarni anglatadi. 3.Tilni o‘zlashtirish esa ona tilini yoki ikkinchi tilni o‘zlashtirishni anglatadi.

Ushbu uchta tushunchani ochib beruvchi bir nechta psixolingvistika nazariyalari mavjud. Xorijiy tillarni o‘qitishga oid yondashuvlarni ishlab chiqishda bir nechta mutaxassislar ularni o‘zlarining fundamental nazariyalari sifatida qabul qiladilar. Bu psixolingvistika usuli deb ataladi. Ular

psixolingvistik yondashuviga ko‘ra til va tafakkur bir-biri bilan bog‘liq hodisalar, ammo to‘liq mustaqil deb hisoblaydilar. O‘rganish shaxs ichida sodir bo‘ladigan individual aqliy jarayon sifatida qaraladi va keyinchalik ijtimoiy komponentga qarab rivojlanadi[12]. Psixolingvistika til o‘qitishda til psixologiyasi bo‘yicha tadqiqot sifatida amalga oshiriladi. Bu tillarni o‘rganishda mumkin bo‘lgan psixologik elementlarni o‘rganishga yordam beradi. Psixolingvistika tilning qo‘llanilishi va kommunikatsiyasiga qaratilgan. O‘smirlarda ingliz tilini o‘rganishni osonlashtirish uchun bir nechta yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jahonda psixolingvistika g‘oyalariga asoslangan ma’lum yondashuvlar mavjud va bu usullar turli mamlakatlarda tillarni o‘qitish sohasida keng qo‘llaniladi. Tadqiqotchillar Levis va Fillips esa psixolingvistikani shunchaki til va inson ongi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish sifatida takidlaydi. Xulosa qilib aytganda, psixolingvistika uchta asosiy jarayonni o‘rganadi: tillarning paydo bo‘lishi, tilni tushunish va tilni o‘rganish ya’ni o‘zlashtirish.

**Xulosa.** Shunday qilib, ingliz tilini o‘qitishda o‘smirlarning bilish jarayonlarini rivojlantirish nafaqat uning tilga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi, balki kelajakda aqliy jihatdan etuk inson bo‘lishi uchun zamin yaratadi. Ingliz tilini o‘zlashtirgan o‘smirlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ingliz tilini o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o‘smirlarning idrok, nutq, tasavvur, diqqat va xotirasi taraqqiy etib boradi, natijada o‘smirlarning keyingi maqsadlarini amalga oshirish samarali bo‘ladi. O‘smirlarning ingliz tilini o‘zlashtirishida bilish jarayonlarini rivojlanishi ingliz tilini o‘zlashtirish va tushunish vositasi sifatida ulardan samarali foydalanish muvaffaqiyatini ta’minlaydigan, tilni o‘zlashtirishning qulayligi, moslashuvchanligi, dinamikasi hamda o‘rganish jarayonidan olinadigan ijobiy emotsional holatlar bilan bog‘liq bo‘lgan individual psixofiziologik, psixologik, axloqiy va ma’naviy xususiyatlar tizimidir.

Shunday qilib, ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonida o‘smirlar bilish jarayonlarining psixolingvistik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o‘rganish nafaqat lingvistik bilimlarni egallash, balki o‘smirlarning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq kabi kognitiv jarayonlarining faol rivojlanishini ham ta’minlaydi. Psixolingvistik yondashuv asosida qaralganda, tilni o‘zlashtirish jarayoni murakkab aqliy faoliyat bo‘lib, unda tilni ishlab chiqarish, idrok etish va o‘zlashtirish jarayonlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. O‘smirlik davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi ingliz tilini samarali o‘zlashtirish uchun qulay psixologik zamin yaratadi. Shu bilan birga, psixolingvistik omillarni hisobga olgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘smirlarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi va ingliz tilini o‘zlashtirishda samarali hisoblanadi. Ingliz tilini o‘rganish jarayonida o‘smirlarning bilish jarayonlarini rivojlantirish ularning nafaqat til kompetensiyasini, balki umumiy intellektual salohiyatini ham rivojlantiradi. Bu esa kelajakda mustaqil fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega va raqobatbardosh shaxsni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Сорокина Л.А. Методы активизации познавательной деятельности при изучении курса «Естествознание» как средство формирования планируемых результатов обучения М.: 2011 С. 1344–1347.
2. Рогова Г.В. Повышение эффективности обучения иностранному языку за счет улучшения психологического климата на уроке. М.: Просвещение, 1977.
3. Суперанская А.В. Общая терминология: вопросы теории/ А.В.Суперанская, Н.В.Подольская, Н.В.Васильева. Москва, 1989. 243 с.
4. Сухоруков Д.В. Формирование аддиктивного поведения и образовательная модель его профилактики / Сухоруков Д.В., Бойков А.Е. // Молодой ученый. 2014. С. 857–860.
5. Евдоксина Н.В. Психологические особенности изучения иностранного языка студентами технических вузов. Астраханский ГТУ. Научная статья.
6. Зимняя И.А. Психология обучения неродному языку (на материале рус ского языка как иностранного). - М.: Русский язык, 1989.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 101:502.131(575.1)

# O‘ZBEKISTONDA DAVLAT EKOLOGIK SIYOSATINING STRATEGIK RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

*Xudoyberdiyev Dilshod Murodovich, Qarshi davlat universiteti Ijtimoiy fanlari fakulteti dekani, falsafa fanlari nomzodi, dotsent*



*https://orcid.org/0009-0008-1816-3197*
*e-mail: hudoyberdiyev85@mail.ru*

# STRATEGIC DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF STATE ENVIRONMENTAL POLICY IN UZBEKISTAN

*Xudoyberdiyev Dilshod Murodovich, Dean of the Faculty of Social Sciences at Karshi State University, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor*

# СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Худойбердиев Дилшод Муродович, декан факультета социальных наук Каршинского государственного университета, кандидат философских наук, доцент*

***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbekistonda davlat ekologik siyosatining strategik asoslari tahlil qilingan. Xususan, milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg‘unligi, mintaqaviy ekologik hamkorlik, xalqaro ekologik munosabatlarda ishtirok, institutsional tizimni takomillashtirish hamda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, Orol dengizi muammosining global ahamiyati va uni hal etishda xalqaro hamkorlikning o‘rni ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda barqaror ekologik taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiluvchi strategik yo‘nalishlarni aniqlashga qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ekologik siyosat, barqaror rivojlanish, milliy manfaatlar, ekologik xavfsizlik, ekologik madaniyat, Orol dengizi, xalqaro hamkorlik, globallashuv.*

***Abstract:*** *This article analyzes the strategic foundations of the state environmental policy of Uzbekistan. Particular attention is paid to the harmonization of national and universal interests, the development of regional environmental cooperation, participation in international environmental relations, improvement of the institutional system, and enhancement of environmental culture among the population. The global significance of the Aral Sea problem and the role of international cooperation in addressing it are also examined. The results of the study are aimed at identifying strategic directions for ensuring sustainable environmental development in Uzbekistan.*

***Keywords:*** *environmental policy, sustainable development, national interests, environmental security, environmental culture, Aral Sea, international cooperation, globalization.*

***Annotatsiya:*** *В статье проанализированы стратегические основы государственной экологической политики Узбекистана. Особое внимание уделено вопросам гармонизации национальных и общечеловеческих интересов, развитию регионального экологического сотрудничества, участию в международных экологических отношениях, совершенствованию институциональной системы, а также повышению экологической культуры населения. Также*

*рассмотрено глобальное значение проблемы Аральского моря и роль международного сотрудничества в ее решении. Результаты исследования направлены на определение стратегических направлений обеспечения устойчивого экологического развития в Узбекистане.*

***Ключевые слова:*** *экологическая политика, устойчивое развитие, национальные интересы, экологическая безопасность, экологическая культура, Аральское море, международное сотрудничество, глобализация.*

**Kirish.** Hozirgi globallashuv sharoitida ekologik muammolar insoniyat taraqqiyotining eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish va iqlim o‘zgarishi kabi omillar har bir davlatni o‘z ekologik siyosatini takomillashtirishga undamoqda. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda davlat ekologik siyosatining strategik asoslarini tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillarida mamlakatda ekologik siyosatning milliy modeli shakllandi. Ushbu model milliy manfaatlarga tayangan holda global ekologik jarayonlarga moslashishni nazarda tutadi. Davlat ekologik siyosati samaradorligi uning aniq strategik asoslarga egaligi bilan belgilanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** O‘zbekistonda davlat ekologik siyosatining strategik rivojlanish yo‘nalishlari masalasi so‘nggi yillarda ilmiy doiralarda keng o‘rganilmoqda. Xususan, mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan davlat siyosati turli normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan strategiya va dasturlar ekologik siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi. Bu hujjatlarda atmosfera havosini muhofaza qilish, suv resurslarini boshqarish, bioxilma-xillikni saqlash va chiqindilarni qayta ishlash masalalari asosiy vazifalar sifatida qayd etilgan.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O‘zbekistonda ekologik barqarorlikni ta’minlash, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va iqlim o‘zgarishiga moslashish masalalari tahlil qilingan. Mahalliy olimlar tomonidan ham ekologik siyosatning turli jihatlari tadqiq etilgan. Ular tomonidan davlat boshqaruvida ekologik yondashuvlarni kuchaytirish, ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sanoat korxonalarida ekologik standartlarni joriy etish kabi masalalar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda davlat ekologik siyosatining strategik rivojlanish yo‘nalishlarini o‘rganish uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini ekologik siyosat, barqaror rivojlanish va davlat boshqaruvi sohasidagi ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va institutsional yondashuv asosiy metodlar sifatida qo‘llanildi.

Tizimli tahlil usuli orqali davlat ekologik siyosatining tarkibiy qismlari, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ta’sir mexanizmlari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil usuli esa O‘zbekiston tajribasini boshqa davlatlar tajribasi bilan taqqoslash imkonini berdi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usuli orqali ekologik siyosat sohasida qabul qilingan qonunlar, farmonlar va davlat dasturlari o‘rganildi. Statistik ma’lumotlar tahlili asosida ekologik ko‘rsatkichlar dinamikasi va ularning o‘zgarish tendensiyalari aniqlandi. Tadqiqot jarayonida shuningdek, Barqaror rivojlanish va Yashil iqtisodiyot konsepsiyalariga tayanildi. Bu yondashuvlar ekologik siyosatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bilan uyg‘un holda tahlil qilish imkonini berdi. Metodologiya doirasida sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg‘unlashtirildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligi va xolisligini ta’minlashga xizmat qildi.

**Muhokama va natijalar**. Davlat ekologik siyosati muayyan strategik maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, u tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda ekologik siyosat quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- ekologik globallashuv jarayonlari;
- milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg‘unligi;
- institutsional tizimning rivojlanishi;

- ekologik xavfsizlikni ta’minlash zarurati[9].

Ekologik siyosatni shakllantirishda strategik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u mavjud resurslarni samarali taqsimlash va ustuvor vazifalarni belgilash imkonini beradi. O‘zbekiston ekologik siyosatining muhim strategik tamoyillaridan biri milliy manfaatlar ustuvorligidir. Bu tamoyil ekologik muammolarni hal qilishda ichki ehtiyojlar va milliy xavfsizlikni birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Mamlakatimiz rahbari tashabbusi asosida qabul qilanayotgan farmon, qaror, strategiyalarida, ma’ruzalarida ekologik siyosatga doir huquqiy hujjatlar, hukumatning chorak asr mobaynida amalga oshirgan ekologik siyosati ustuvor yo‘nalishlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda davlat ekologik siyosatining strategik asoslari mustaqillik yillarida uzviy ravishda shakllana borgan. Milliy mustaqillikka erishgan O‘zbekiston davlati ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarni tubdan va chuqur qayta shakllantirish yo‘liga kirdi. Mustabid tuzum sharoitida shakllangan stereotiplardan, strategik yo‘nalishlardan voz kechib, jahon ekologik hamjamiyatining teng huquqli subyekti sifatida xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarda faol ishtirok qilayotgan O‘zbekiston davlati ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha yo‘nalishlaridagi kabi ekologik siyosat borasida ham strategik taraqqiyotning milliy modelini ishlab chiqdi va bu model o‘z samaradorligini amalda ko‘rsatmoqda.

Milliy ekologik manfaatlar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- aholi salomatligini ta’minlash;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish[10].

Shu bilan birga, milliy manfaatlarni mutlaqlashtirish emas, balki ularni zamonaviy global tendensiyalar bilan uyg‘unlashtirish muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda davlat ekologik siyosati samarasini oshirish uchun bu boradagi strategik milliy manfaatlarini aniqlash, ularning ustuvorligini ta’minlash zarur bo‘ladi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda davlat ekologik siyosatini tubdan isloh qilishda aynan ana shu yondashuv strategik asos vazifasini o‘tadi. Xususan, mamlakatdagi ekologik vaziyatni muhofaza qilish, ekologik munosabatlarning ijtimoiy-huquqiy asoslarini shakllantirish, ekologik muammolarni bartaraf qilish, ekologik globallashuv tendensiyalarining salbiy ta’sirini kamaytirishda eng avvalo milliy manfaatlarga tayanildi.

Ekologik globallashuv sharoitida davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik tobora kuchayib bormoqda. Shu bois milliy ekologik siyosat umuminsoniy manfaatlar bilan uyg‘un bo‘lishi talab etiladi. Bu jarayon quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, ekologik muammolarning transchegaraviy xarakteri; Ikkinchidan, xalqaro huquq normalarining ahamiyati oshishi; Uchinchidan, davlatlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari[11].

Mazkur tamoyil O‘zbekistonning xalqaro ekologik munosabatlarda faol ishtirokini ta’minlaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasi ekologik jihatdan o‘zaro bog‘liq hudud hisoblanadi. Shu sababli mintaqaviy hamkorlik davlat ekologik siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mintaqaviy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari:

- transchegaraviy suv resurslarini boshqarish;
- ekologik xavfsizlikni ta’minlash;
- qo‘shma ekologik loyihalarni amalga oshirish[12].

Bu jarayonda xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy institutlar muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston xalqaro ekologik munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida qator xalqaro tashabbuslarni ilgari surmoqda. Bu esa milliy ekologik siyosatning global darajada tan olinishiga xizmat qiladi.

Xalqaro hamkorlikning eng muhim asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, global ekologik muammolarni hal qilishda ishtirok etish; ikkichidan, xalqaro loyihalarda qatnashish; uchinchidan, ilmiy-texnik almashinuvni rivojlantirish[13].

Ekologik siyosat samaradorligi ko‘p jihatdan uni amalga oshiruvchi institutlarga bog‘liq. O‘zbekistonda bu borada bir qator islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan, ekologik qonunchilik bazasi shakllantirildi; maxsus davlat organlari tashkil etildi; jamoatchilik ishtirokini ta’minlash choralari ko‘rildi[14].

Orol dengizining qurishi nafaqat mintaqaviy, balki global ekologik muammo hisoblanadi. Uning oqibatlari: iqlim o‘zgarishi; aholi salomatligiga salbiy ta’sir; bioxilma-xillikning kamayishi[5]. Shu sababli mazkur muammoni hal qilish xalqaro hamjamiyatning e’tiborini talab etadi.

O‘zbekistonning Orol dengizi qurishi natijasida keskinlashgan ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish siyosati milliy xavfsizlik manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lib, nafaqat mamlakatimizda, balki global miqyosda XXI asr ekologik siyosatining yangi strategiyasini shakllantirish zaruratini vujudga keltirdi. Ammo, obyektiv va subyektiv sabablar mintaqada uzoq muddatli real tadbirlar dasturlarini ishlab chiqishiga va amaliyotga joriy etishga xalaqit bermoqda. Vaholanki, bu muammolarni hal qilish respublikamiz va Orolbo‘yi mintaqasidagi davlatlarning ekologik siyosat integratsiyasiga hamda globallashuvi jarayoniga qo‘shilishga olib kelar edi. Hozircha milliy va mintaqaviy ekologik siyosat strategiyasining fundamental asoslari ekologik vaziyat talablari bilan bog‘lanmayapti. Shuning uchun Orolbo‘yi hududida ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirishga doir mintaqada, MDH davlatlarida va xalqaro miqyosda qabul qilinayotgan qarorlar milliy, mintaqaviy, global siyosatning diskret va fragmentar xarakterga egaligidan kutilgan natijalarni bermayotir.

**Xulosa** qiladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda davlat ekologik siyosati mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich shakllanib, mukammal strategik asoslarga ega bo‘ldi. Ushbu asoslar, birinchidan, milliy manfaatlar ustuvorligi; ikkinchidan, global va milliy manfaatlar uyg‘unligi; uchinchidan, mintaqaviy hamkorlik; to‘rtinchidan, xalqaro integratsiya; beshinchidan, institutsional rivojlanish; oltinchidan, ekologik madaniyatni oshirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Mazkur strategik yondashuvlar mamlakatda barqaror ekologik rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. - T.: O‘zbekiston, 1997.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) materiallari.
5. Orol dengizi bo‘yicha xalqaro konferensiya materiallari.
6. Ekologik siyosat va barqaror rivojlanish. - T.: Fan, 2020.
7. Central Asian Environmental Studies Journal.
8. Sustainable Development Goals Report (UN, 2023).
9. Ekologik siyosat nazariyasi bo‘yicha umumiy yondashuvlar.
10. O‘zbekiston Respublikasi ekologik qonunchiligi asoslari.
11. Xalqaro ekologik munosabatlar nazariyasi.
12. Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish masalalari.
13. BMT ekologik dasturlari materiallari.
14. O‘zbekistonda ekologik boshqaruv tizimi islohotlari.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 1:005

# BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF THE MANAGEMENT COMPETENCE OF MANAGEMENT STAFF

[1]*Arzimatova Inoyatkhon Madimarovna, Fergana State University, Candidate of Philosophy, Associate Professor*
[2]*Teshaboeva Khumora Tokhtasinovna, Student of Fergana State University*

# BOSHQARUV KADRLARINING MENEJMENT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

[1]*Arzimatova Inoyatxon Madimarovna, Farg‘ona davlat universiteti falsafa fanlari nomzodi, dotsent*
[2]*Teshaboyeva Xumora To‘xtasinovna, Farg‘ona davlat universiteti talabasi*

# ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ

[1]*Арзиматова Иноятхон Мадимаровна, Ферганский государственный университет, кандидат философских наук, доцент*
[2]*Тешабоева Хумора Тохтасиновна, студентка Ферганского государственного университета*



*https://orcid.org/0009-0003-7026-888X*
*e-mail: arzimatova1969@gmail.com*

***Annotation:*** *The article reveals the role of management culture in achieving the effective functioning of democratic governance in government, the socio-psychological aspect and the meaning of the concepts of «personnel», «personnel reserve», «personal potential», «personnel - resource», «organizational structure» in the formation of managerial personnel reserve, the issues of managerial potential are highlighted that it is a holistic and at the same time a phenomenon with a complex structure.*

***Keywords:*** *state power, democratic governance, management culture, managerial personnel, personnel, personnel reserve, personal potential, managerial potential, intellectual potential, new thinking, patriot.*

***Annotatsiya:*** *Maqolada boshqaruv madaniyatining davlat boshqaruvida demokratik boshqaruvning samarali ishlashiga erishishdagi roli, ijtimoiy-psixologik jihati va boshqaruv kadrlar zaxirasini shakllantirishda «kadrlar», «kadrlar zaxirasi», «shaxsiy salohiyat», «kadr - resurs», «tashkiliy tuzilma» tushunchalarining ma’nosi ochib berilgan, boshqaruv salohiyati masalalari uning yaxlit va ayni paytda murakkab tuzilishga ega hodisa ekanligi ta’kidlangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *davlat hokimiyati, demokratik boshqaruv, boshqaruv madaniyati, boshqaruv kadrlari, kadrlar, kadrlar zaxirasi, shaxsiy salohiyat, boshqaruv salohiyati, intellektual salohiyat, yangicha fikrlash, vatanparvar.*

***Аннотация:*** *В статье раскрывается роль управленческой культуры в достижении эффективного функционирования демократического управления в государственном управлении, социально-психологический аспект и значение понятий «кадр», «кадровый резерв», «личностный потенциал», «кадровые ресурсы», «организационная структура» в формировании управленческого кадрового резерва, подчеркиваются вопросы управленческого потенциала как целостного и одновременно сложного явления.*

***Ключевые слова:*** *государственная власть, демократическое управление, управленческая культура, управленческий персонал, кадры, кадровый резерв, личностный потенциал, управленческий потенциал, интеллектуальный потенциал, новое мышление, патриот.*

**INTRODUCTION.** Developing a management culture is of practical importance in achieving the effective functioning of democratic governance in state power. Because in a system where it is not practiced, negative relations such as mutual distrust, failure to assume responsibility, bureaucracy, and negligence arise, which leads to the disorganization of state power management. Therefore, when training and placing personnel in the state power system, attention is paid to their ability to manage, as well as their spirituality and the extent to which they have realized their responsibility for the performance of the tasks assigned to them.

As the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev noted, "New Uzbekistan needs knowledgeable and determined leaders who deeply understand the dreams and aspirations of our people and consider it a sacred duty to serve them faithfully. We will continue our personnel policy aimed at attracting highly qualified specialists to the civil service who have high intellectual potential and innovative thinking, are independent thinkers, patriots and loyal to their people, have mastered modern knowledge and skills" [1, 91-92].

**LITERATURE REVIEW AND METHODS.** In analyzing the issue of the foundations of developing the management potential of managerial personnel, the works of such scientists as Mirziyoyev Sh.M. [1], Yusubov Zh.K. [2], Rubinstein S.G. [3], Ananyev B.G. [4], Zentsova Yu.S. [5], Saibel S.A. [6], Alekhina O.F. [7], the Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the People of Uzbekistan [8], Confucius [9], Forobiy [10, 11, 12] were effectively used. In studying the problem, the principles of general interrelation, historicity, systematicity, and generalization methods were used.

**RESULTS AND DISCUSSION**. In the formation of a managerial personnel reserve, we need to scientifically analyze the socio-psychological aspect and significance of the concepts of "cadre", "cadre reserve", "personal potential (competence)", "cadre - resource", "organizational structure (system)". In particular, in social psychology, the concept of "cadre" is widely used as a synonym for the concepts of management, administration, leader. Also, in sociology, communication, cybernetics, linguistics and other social and humanitarian sciences, as well as in cognitive psychology, the concept of "frame" (English Frame - frame, frame, carcass) is also used in the study of the problem of "cadre". Also, in the social sphere, "cadre" (French cadre) represents the concept of personnel composition. Cadre is used in relation to qualified employees in enterprises, institutions, firms, joint-stock companies, banks, trade unions and public organizations. A cadre is a person who has a specific specialization, knowledge, experience in a certain direction, and at the same time works in a certain team [2, 12-13]. So, a cadre is a person - a subject - who actively carries out direct activity and behavior in various spheres of society. His activity is inextricably linked with creation, organization, procedures, and changes.

A cadre is a "force" that directly affects the development of the external environment and society through interpersonal relationships, and it forms the basis of all sectors of the national economy. In social psychology, a "cadre reserve" is understood as a team of leaders and specialists who carry out management activities, meet the requirements of a certain level of position, and have undergone targeted training. The formation of a cadre reserve is considered to have a legal, organizational, and psychological basis. Also, in social psychology, "potential" - (lat. rotential) means power, opportunity. At the same time, the concept of "personal potential" is also widely used. Personal potential is the ability to increase a person's internal capabilities. The problem of potential was studied as an object of research by A. Adler, Z. Freud, E. Fromm, K. Jung, S. L. Rubinstein. According to S. L. Rubinstein [3, 20-21], a person, as a subject that transforms existence, creates, organizes and forms himself in determining his interaction with the external world and his activities. A subject is a consciously acting individual.

Human resource According to B.G. Ananev, from the very beginning of the development of the individual, scientific knowledge about reserves and resources is necessary for the implementation of social expectations [4, 4]. Also, in the study of personnel problems within the framework of social psychology, the concepts of manager, management, leader are used almost in the same sense and in many cases side by side. In particular, the difference

between a manager and a leader is the presence of a legal dimension, that is, the manager carries out activities in an official organization, on a legal basis, and assumes functional duties. A manager is formally a representative of authority. A leader is a charismatic person who unites the interests and goals of subjects united in certain groups, distinguished by his behavior and activities. The leader's activity is more manifested in the stable maintenance and development of spiritual, socio-psychological norms of communication and relations in mutual cooperation.

Since the emergence of human relations, especially statehood, the desire to understand management and its specific features has deepened. As a result, a number of important theoretical considerations and practical conclusions were developed about it within the framework of such disciplines as history, philosophy, ethics, and aesthetics. On their basis and in response to new modern problems, three independent scientific fields were formed in the 20th century that specifically study the phenomenon of management. The first is political science in the social direction, cybernetics in the technical direction, and management science in the economic field. The achievements of these disciplines, while complementing each other, also expressed some opposing points of view, which created the need to take another look at the content and essence of management and give it a full definition.

In our opinion, in any management, along with the preservation of the system, protection from internal and external aggression and ensuring stability, the issue of developing, improving and progressing the activities of its constituent elements in a certain direction also plays an important role. Because when assessing the activities of leaders and management personnel, the people or employees are not satisfied with living only with stability, and even pay attention to ensuring stability and security, and decide to abandon such policies or leaders due to the absence or inconsistency of qualitatively new changes. Therefore, management considers the above two issues simultaneously. In this sense, it would be correct to distinguish two important goals of management and define it as a complex socio-organizational activity related to maintaining the existence of the system, ensuring its stability and security, and its development in accordance with prospective goals. Management is a complex activity aimed at orderly development, leadership is a status in this activity, a person who is responsible and accountable for all processes, and has the appropriate authority. Leadership is considered a socio-political activity aimed at achieving these goals.

Management potential is, of course, an integral and at the same time complex phenomenon consisting of relevant knowledge about management, spiritual qualities and psychophysiological foundations. This explains the view of management potential by scientists as a set of abilities, qualities and characteristics necessary for a person to perform management activities. In particular, the Russian researcher Yu.S. Zensova understands the management potential of a person as the ability and ability to solve tasks in the field of organizing and managing the activities of other people [5,42], while the researcher Yu.Melnik says that management potential is related to the capabilities and abilities of a person to implement management, as well as the accumulated management experience. The Russian scientist S.L.Seibel in his dissertation defines management potential as a set of personal qualities, capabilities, and abilities related to the service, which are used and activated by the leader to solve management tasks and achieve set goals [6, 24]. According to O.F. Alexina, management potential is a set of theoretical knowledge, practical experience, and individual characteristics of employees performing management functions [7, 347]. It is clear that when asked what constitutes the structure of management capacity, most scientists generally answer that it is a set of qualities, capabilities or abilities, but its content, that is, what is included in those qualities, is not clearly indicated. In some works, the answer is given based on certain tasks performed in management activities (mobilization, motivation). To do this, a comprehensive approach to the issue from a structural-functional point of view, that is, determining what specific qualities are required to perform each task in management activities, remains one of the urgent tasks facing science.

According to the teachings of Confucius, who emphasized the ethical aspects of management culture, among the values of management, gaining the trust of the people and ensuring discipline in society are of great importance. In his opinion, state

management is the presence of sufficient food, sufficient weapons and the trust of the people. When asked what is meant by public administration, the philosopher answers: the ruler - as a ruler, the servant - as a servant, the father - as a father, the son - as a son, it is clear that for him discipline is a value that should be paid attention to in administrative activities. Achieving these goals, in his opinion, requires the implementation of tasks such as saving resources, correcting violations in the system, and mobilizing people for work.

In turn, the fulfillment of these tasks depends on the effective use of appropriate methods and means, and the rich legacy of the scholar is still worth studying with his thoughts on this. For example, Confucius, who firmly believed in governing the state through custom, stated that if it is governed by law and regulated by punishment, then the people will be vigilant but will not know shame. If it is governed by virtue and regulated by custom, the people will not only be ashamed, but also obedient. Also, the great thinker "Imam Moturidi's life wisdom, "Live in sympathy with the fifty countries, so that the people will always be with you," should be imprinted in the mind, heart, and actions of every minister and every leader" [8], - the thoughts of which are still relevant today.

If there is sufficient intelligence and humanity and strict discipline, but the people are not called to action with the help of traditions and customs, then perfection does not yet exist, he emphasizes. At the same time, he believes that people will follow a leader who behaves correctly even without orders. The main principle of this activity, in his opinion, is that when people are involved in work, they should participate in management without getting angry. In this regard, he gives methodological instructions such as "awaken enthusiasm with your personal example. Do not know how to relax. Be an example to your subordinates, do not blame them for minor shortcomings, and promote the worthy and capable," which have not lost their relevance even today. He also believes that in order to achieve the above, a leader and manager "must have the ability to observe carefully, intelligence and, of course, moral qualities such as truthfulness, love of people, conscientiousness and honesty" [9, 54]. Thus, Confucius considers it advisable to approach management activities based on values and traditions. With a deep understanding of them, governing the state is praised as a guarantee of social order and stability. When working with people, activating their volition, enthusiasm, spiritual and moral strength, thereby ensuring social stability, based on psychological, ethical and economic approaches, is considered one of the traditional values. At the same time, naturally, the ideological limitations of this doctrine are manifested in a negative attitude towards the unconventionality required by the development goal of management, and from this it is permissible to draw the right conclusion.

According to Abu Nasr al-Farabi, "in addition to knowledge, a ruler must have the following: first, the power and ability necessary to lead society towards goodness and true happiness; second, he must be able to convince people of the correctness of the chosen path to happiness" [10, 135]. Indeed, al-Farabi says that "not everyone can lead others and raise them to the level of happiness. If someone does not have the ability to make someone happy, to inspire them to the necessary actions, and is powerless to perform these actions, such a person cannot be a leader at all" [11, 290]. It is worth noting that the thinker, along with the knowledge and qualities necessary for management, also reveals the laws of their formation. For example, "when the movement (ruju) towards the knowledge of reality arises from feelings and imagination, it is called will... But when the rujju or the perception of the active mind after its first information is added to the rujju, then the will and human nature are formed" [12, 18], he shows the main factor in awakening the will to activity. According to him, everyone should be prepared for management. This is reflected, firstly, in the idea that the acquisition of virtuous behavior, good habits and the means leading to the highest happiness is possible only when the best abilities and virtuous habits are constantly developed among the people, in cities, and everyone strives for this; secondly, in the reasoning that every inhabitant of a virtuous city should know the first source of existing things, their levels, happiness, the leadership of a virtuous city, the stages of this leadership, and then the praiseworthy deeds leading to happiness.

From the perspective of leaders and management personnel, regulation requires a high legal culture and strong will; distribution requires knowledge of the system and objectivity based on it;

coordination requires strategic thinking and systematic analysis; protection requires pride, honor, feelings of involvement, will, courage and bravery; rational planning of activities requires knowledge of the needs of the system and prudence; negotiation requires diplomatic culture, restraint, and a consistent position; organizational work requires pragmatic activity and courage, knowledge of the business; mobilization requires possession of spiritual, spiritual and ideological influence (strength), and a culture of fluent speech requires socialization; and control relies on specific psychophysiological, intellectual and spiritual qualities such as continuous attention, subtle mind and perception, strong memory, vigilance, awareness of responsibility, and honesty.

**CONCLUSION**. In developing the management capacity of leadership cadres, improving the civil service personnel management system based on democratic values, while humanizing the attitude towards cadres, approaching them as a political value, is one of the urgent issues of today. In general, it is said that in the conditions of democracy and civil society, it is necessary to be suspicious of executive power cadres, to control their activities based on distrust, but often attention is not paid to having an attitude towards them that stems from the requirements of universal human values. However, it is precisely through such an attitude that the effectiveness of their activities can be ensured and, as a result, the level of well-being of the people can increase, and society can develop socio-economically and culturally. This is also confirmed by historical experience. Therefore, in our opinion, it is advisable to implement the necessary mechanisms for implementing a valuable approach and attitude towards cadres. In particular, firstly, to determine the social status of cadres; secondly, to be demanding and strict enough to lead to their professional growth; thirdly, solving the issues of material and financial support of personnel in accordance with market economy relations and activating their spiritual and educational foundations, thereby forming a sense of satisfaction with work; fourthly, clearly defining their areas of responsibility, while widely applying collegial principles; fifthly, rational use of the «teacher-student» system, which is one of the traditional practices of working with personnel, can be cited as such mechanisms.

**REFERENCES:**


1. Mirziyoyev Sh. New Uzbekistan Development Strategy. Tashkent: UZBEKISTON, 2022. 91-92 P.
2. Yusubov J.K. Improvement of the personnel training system in the civil service in Uzbekistan. political science. phil. doc. (PhD) dissertation...abstract. T.:2018. 12-13 p.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии /С.Л. Рубинштейн – СПб: Издательство Питер, 2000. С. 20-21.
4. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. СПб.: Питер, 2001. С. 4.
5. Зенцова Ю.С. Влияние краткосрочного социально-психологического тренинга на управленческий потенциал личности. Дисс. … канд. психол. наук/ Ю.С.Зенцова. – Казань, 2003. – С. 42.
6. Сайбель С.А. Проблемы реализации управленческого потенциала руководителей среднего звена в промышленности. Дисс. … социол. психол. наук/ С.А. Сайбель. – Уфа, 1998. – С. 24.
7. Алехина О.Ф. Управленческий потенциал и особенности его развития на современном этапе. // «Управление персоналом». 2004, № 2. – С. 347. // http://www.unn.ru/ pages/issues/vestnik/99990193 _West_econ_finans_2004_2(6)/64.pdf
8. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan // https://president.uz/uz/lists/view/5774
9. Конфуций. Изречения/ Конфуций; [пер. с древнекит. сост., пер., коммент. И.И.Семененко]. – М.: Эксмо, 2009. – С. 54.
10. Farabi Abu Nasr. The city of virtuous people. (Selected works). – T.: Abdulla Qodiriy National Heritage Publishing House, 1993. – P. 135.
11. Farabi Abu Nasr. The city of virtuous people. – T.: Generation of the New Age, 2016. – P. 290.
12. Farabi Abu Nasr. About virtue, happiness and perfection. – T.: Writer, 2001. – P. 18.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 1:004

# RAQAMLI SAVODXONLIK – “RAQAMLI MADANIYAT”NING AJRALMAS QISMI SIFATIDA

*Aslonov Jurabek Mansurovich, Navoiy davlat universiteti doktoranti*

# DIGITAL LITERACY AS AN INTEGRAL PART OF “DIGITAL CULTURE”

*Aslonov Jurabek Mansurovich, Doctoral Student of Navoi State University*

# ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ “ЦИФРОВОЙ КУЛЬТУРЫ”

*Аслонов Журабек Мансурович, докторант Навоийского государственного университета*



*https://orcid.org/0009-0002-3359-7336*
*e-mail: jurabekaslonov03@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada yoshlarning raqamli savodxonligi va raqamli madaniyatini shakllantirish masalalari zamonaviy ijtimoiy sharoitlar kontekstida chuqur tahlil etiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *raqamli savodxonlik, raqamli kompetentlik, shaxsiy ma’lumotlar.*

***Abstract:*** *This article provides an in-depth analysis of the issues of forming digital literacy and digital culture of young people in the context of modern social conditions.*

***Keywords:*** *digital literacy, digital competence, personal data.*

***Аннотация:*** *В данной статье представлен углубленный анализ вопросов формирования цифровой грамотности и цифровой культуры молодежи в контексте современных социальных условий.*

***Ключевые слова:*** *цифровая грамотность, цифровая компетентность, персональные данные.*

**KIRISH.** Tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda yoshlar kompyuter savodxonligining bazaviy ijobiy ko‘nikmalariga ega va Internetning faol foydalanuvchilari hisoblanadi. Bugungi kunda inson tabiatining ijobiy va salbiy tomonlarini birlashtiruvchi Internet tarmog‘idan har bir kishi foydalana oladi. Yoshlarimizning katta qismi “cheksiz imkoniyatlar podsholigi”dan foydalanishda o‘zini-o‘zi rivojlantirish, o‘qish, ish va ijtimoiy muloqotga ko‘proq vaqt ajratadi. Atrofga nazar tashlasak, har yerda qo‘lida smartfonli odamlarni ko‘rish mumkin, ya’ni ko‘pchilik smartfondan foydalanishni afzal ko‘radi va ular nega kompyuter yoki noutbuk kerakligini tushunmaydilar. Ilk marta raqamli texnologiyalardan foydalanayotganlar ko‘pincha, raqamli savodxonlikni o‘zlashtirishni aynan smartfondan boshlaydilar. Lekin ushbu gadjetning aniq afzalliklariga qaramay, uning virtual klaviaturasida oddiy klaviaturada bo‘lgan ko‘plab funksiyalar yo‘q. Bundan tashqari, kundalik amaliyotda ko‘plab tashkilotlar va o‘quv muassasalarida rahbariyat kompyuterda ishlash ko‘nikmalarini bilishni talab qiladi.

Tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, yoshlar onlayn to‘lov va xaridlar uchun maxsus mobil ilovalar va dasturlardan foydalanadilar, lekin shu bilan birga o‘z ilovalarga ma’lum bir ishonchsizlik mavjud yoki ko‘plari hali ham an’anaviy ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalaridan foydalanishni afzal ko‘radilar. O‘zbekistonda elektron axborot resurslarining kengayishi, shuningdek, kutubxona vositalarini yagona elektron tizimga ulash yoshlarning intellektual potensiali va bilimlarini yaxshilaydi. Lekin ushbu sohada QR kod kabi ma’lum yangi dasturlarni bilmaslik bizga faqat ma’lum bilim va ko‘nikmalar bilan ochiladigan raqamli dunyoga yetarli darajada ruxsat bermaydi.

**METOD VA METODOLOGIYA.** Mazkur tadqiqot metodologiyasi tahliliy, qiyosiy hamda tizimli yondashuvlarning uzviy uyg‘unligiga

asoslanadi. Tadqiqot jarayonida yoshlarning raqamli savodxonlik darajasi, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari hamda raqamli madaniyatga munosabati ilmiy manbalar va empirik ma’lumotlar asosida kompleks o‘rganildi. Raqamli savodxonlik tushunchasining turli talqinlari qiyosiy tahlil qilinib, uning asosiy tarkibiy komponentlari aniqlashtirildi. Shu bilan birga, raqamli muhitda xavfsizlik, axborot bilan ishlash va kommunikativ ko‘nikmalarning ahamiyati tizimli yondashuv asosida chuqur baholandi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Yosh avlodning katta qismi likbez (savodsizlikni tugatish)ga muhtoj: “shaxsiy ma’lumotlar” tushunchasini, ularni tarmoqda himoya qilish asoslarini va axborot texnologiyalaridan foydalanishda maxfiylik va xavfsizlikka rioya qilish zarurligi haqida kam ma’lumotga egalar. Biz zamonaviy texnologik va ijtimoiy sharoitlarda raqamli madaniyatni o‘qitish mazmun jihatdan ham, metodologik baza jihatdan ham kompleks xususiyatga ega bo‘lishi kerakligiga ishonamiz. Jamiyat nafaqat texnik, balki axborot xavfsizligining gumanitar aspektlarining chuqur bilimlariga ega bo‘lishi kerak, bu ko‘pincha davlat va fuqaro xavfsizligiga katta zarar yetkazadi. Bizning chuqur qarashimiz bo‘yicha, “Raqamli O‘zbekiston”ning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari ta’lim va yoshidan qat’i nazar mamlakatning har bir aholisini axborot xavfsizligi asoslariga o‘qitishni talab qiladi.

Raqamli savodxonlikni talqin qilishning ko‘plab variantlari mavjud. “Kompyuter savodxonligi” (computer literacy, cyber literacy), “raqamli savodxonlik” (digital literacy), “raqamli qamrab olish” (digital inclusion), “raqamli ravonlik” (digital fluency), “raqamli kompetentlik” (digital competency), “AKT-savodxonligi” (ICT literacy), “AKT-kompetentligi” (ICT competency), “media” va “axborot kompetentligi” (media and information competency), “raqamli ko‘nikmalar” (digital skills), raqamli xabardorlik (digital awareness), raqamli samaradorlik (“digital performance”), internet-savodxonligi (e-literacy) va boshqalar bir qator zamonaviy mualliflarning ishlarida sinonimik va o‘zaro almashtiriladigan atamalar sifatida ishlatiladi [1]. Lekin biz siz bilan zamonaviy rivojlanayotgan dunyoda eng mos va ahamiyatlilarini belgilaymiz. “Savodxonlik” [2] o‘zbek tili grammatik me’yorlariga muvofiq inson tomonidan o‘qish va yozish ko‘nikmalarini egallashning ma’lum darajasi sifatida xarakterlanadi va aholining ijtimoiy-madaniy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ta’kidlaymizki, savodxonlik tushunchasining aniq mazmuni tarixan o‘zgaruvchan, individning rivojlanishiga jamiyat talablarining o‘sishi bilan kengayish tendensiyasiga ega: o‘qish, yozish, hisoblashning elementar ko‘nikmalaridan toki insonning ijtimoiy jarayonlarda ongli ishtirok etishiga imkon beruvchi turli ijtimoiy zarur bilim va ko‘nikmalar majmuini o‘zlashtirishgacha. Ko‘plab ta’riflarga ko‘ra raqamli savodxonlik “axborot texnologiyalari va internet yordamida kontentni topish, baholash, ishlatish, ulashish va yaratish qobiliyati” sifatida xarakterlanadi [3].

Keyinchalik B.R. Jones-Kavalier va S.L. Flannigan raqamli savodxonlik “raqamli muhitda vazifalarni samarali bajarish qobiliyatini” o‘z ichiga oladi, “multimediani o‘qish va talqin qilish, raqamli manipulyatsiyalar yordamida ma’lumotlar va tasvirlarni qayta ishlab chiqarish, shuningdek, raqamli muhitda olingan yangi bilimlarni baholash va qo‘llash qobiliyatini” o‘zida mujassamlashtiradi [4] degan g‘oyani ilgari surishgan. X.Spires va M.Bartlettga ko‘ra raqamli savodxonlikni, avvalo, raqamli amaliyotlar orqali ko‘rib chiqadilar, ya’ni raqamli o‘zaro ta’sir ko‘nikmalariga ega bo‘lishdan ularning amaliy realizatsiyasiga e’tiborni qaratadilar. Ular taklif qilgan talqin bo‘yicha, raqamli savodxonlikning yetarli darajasiga erishgan individ, nafaqat raqamli muhitda mavjud bo‘lish ko‘nikmalarining ma’lum to‘plamiga ega, balki ularni o‘zining kundalik xulq-atvorida faol amalga oshiradi. Mmuntazam ravishda raqamli kontentni qidiradi, iste’mol qiladi, yaratadi va ulashadi [5].

Ko‘rilganidek, publitsistikada raqamli savodxonlikka ko‘plab yondashuvlar mavjud, ular o‘rtasidagi farqlar haqiqatan ham sezilarli, lekin umumiy xususiyatlar ham yaxshi seziladi. Lekin biz tomonimizdan o‘z ta’rifimiz berilgan, bu bizning o‘zbek jamiyatimizda sodir bo‘layotgan madaniy o‘zgarishlarni bog‘laydi va O‘zbekistonning intellektual yoshlarini tarbiyalashda davlatimiz va jamiyatimizning ma’lum yo‘nalishiga mos keladi. Bizning tadqiqotimizda biz raqamli madaniyatni keng ma’noda belgilaymiz, bu yerda “raqamli savodxonlik” raqamli texnologiyalar yordamida ma’lumotni topish, tizimlashtirish, tushunish, baholash va tahlil qilish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Bu zamonaviy yuqori texnologiyalarning amaliy bilimini va ularni qanday ishlatish mumkinligini tushunishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, raqamli savodxonlik madaniyat va inson xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi texnologik omillarni anglashni nazarda tutadi. Raqamli muhitda savodxon insonlar, ayniqsa shunday

bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lganlar bilan samaraliroq muloqot qilishlari va ishlashlari osonroq bo‘ladi. Yoshlarning raqamli madaniyatini rivojlantirish davlatimiz va jamiyatimizning keyingi gullab-yashnashida ulkan rol o‘ynaydi. Raqamli madaniyat darajasini baholash uchun raqamli savodxonlik tarkibiy qismlarini tahlil qilish kerak. Masalan, 2017-yilda Berlin shahrida bo‘lib o‘tgan G20 Sammitida tadqiqotchilar raqamli savodxonlikning quyidagi komponentlarini taklif qildilar: 1)axborot savodxonligi; 2)kompyuter savodxonligi; 3)kommunikativ savodxonlik; 4)mediasavodxonlik; 5)texnologiyalar yoki innovatsiyalarga munosabat. Ushbu tadqiqotda biz Yevropa komissiyasining qo‘shma tadqiqotlar xizmatida ishlab chiqilgan kompetensiyalarning raqamli tuzilmasiga (DigComp 2.0) tayanamiz[6].

Shunday qilib, yosh avlod nafaqat raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini o‘qitishga, balki raqamli muhitda muvaffaqiyatli moslashish uchun ularda raqamli madaniyatni shakllantirishga ham to‘g‘ri tayyorgarlikga muhtoj. Buning uchun ular amaliy yechimlarda, yosh avlod uchun ham, butun o‘zbek xalqi uchun ham qadrli bo‘lgan axborot-kommunikatsiya va qadriyatli aspektlar bilan to‘yingan ta’lim faoliyati sohasini qurish kerak. Raqamli madaniyatning muvaffaqiyatli shakllanishi yuqori darajadagi raqamli savodxonlikni talab qiladi. Aholining raqamli savodxonlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ular shaxsiy va professional rivojlanish uchun raqamli texnologiyalarni shunchalik tez-tez ishlatadilar. Bugungi kunda ushbu yo‘nalish respublikamiz rivojlanishida va uning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ustuvor hisoblanadi. Bugungi yoshlar oldida turgan vazifa turli fanlarning konsepsiyalari, nazariyalari va bazaviy bilimlarini o‘zlashtirish va ular o‘qiyotgan yoki tadqiq qilayotgan sohada dolzarb ishonchli ma’lumotni qidirish uchun barcha zarur mezon va strategiyalarni tushunish bilan bog‘liq. Oliy o‘quv yurtlari yoshlari ma’lumotni turli shakllarda (onlayn platformalar, elektron nashrlar, onlayn-videolar, audio yozuvlar, elektron kutubxonalar, ma’lumotlar bazalari va h.k.) samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun raqamli texnologiyalar sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak.

**CONCLUSION.** Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyatda raqamli savodxonlik va raqamli madaniyatni shakllantirish ustuvor ijtimoiy vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yoshlar axborot texnologiyalaridan faol foydalanayotgan bo‘lsalar-da, ularning raqamli xavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish hamda axborotni tanqidiy tahlil qilish borasidagi bilim va ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Shu sababli raqamli savodxonlikni rivojlantirish jarayoni faqat texnik ko‘nikmalarni egallash bilan cheklanmay, balki axborot madaniyati va xavfsizlik masalalarini ham qamrab olishi zarur. Raqamli ta’lim va axborot resurslarining kengayishi yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli savodxonlikni oshirish jamiyatning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. Коршунов Г.П., Кройтор С. Цифровая грамотность как ключевой фактор успешной адаптации человека и общества к цифровым реалиям // Общество и экономика, Выпуск 1, 2020. -С.38-58.
2. Куприяновский В.П., Сухомлин В.А., Добрин А.П., Рапков А.Н., Шкуров Ф.В., Дрозинов В.И., Фёдорова Н.О. Navyki v cifrovoj ekonomike i vyzovy sistemy obrazovaniya. International Journal of Open Information Technologies, 2017. -С.19-25.
3. Cornell University Digital Literacy resource: Digital literacy is… – Cornell University, 2017. -p.45.
4. Jones Cavaliere B.R., Flannigan S.L. Connecting the Digital Dots: Literacy of the 21st Century. – L., 2006. -p.76.
5. Spears H.A., Bartlett M.E. Digital Literacies and Learning: Designing a Path Forward – Cornell University, 2009. -p.90.
6. Krish Ch. Bridging the digital divide: measuring digital literacy. - Kiel Institute for the World Economy, Economics Discussion Papers, No 69, 2017. -p.101.
7. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 1:323(575.1)

# YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY DAVLAT BOSHQARUVINI TA’MINLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI: NAZARIY-AMALIY TAHLIL

*A’zamova Kumush Salim qizi, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar “ kafedrasi o‘qituvchisi*



*https:-orcid.org/0009-1769-5504*
*e-mail: azamovakumush@gmail.com*

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБНОВЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

*Аъзамова Кумуш Салим кызы, преподаватель кафедры “Социальные и гуманитарные науки” Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана*

# ACTUAL PROBLEMS OF PROVIDING SOCIAL GOVERNANCE IN RENEWING UZBEKISTAN: THEORETICAL AND PRACTICAL ANALYSIS

*A’zamova Kumush Salim kizi, Teacher of the Department of “Social and Humanitarian Sciences” of the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan*

***Annotatsiya:*** *Ushbu ilmiy maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan 2026-yil sharoitida yangilanayotgan O‘zbekistonda ijtimoiy davlat boshqaruvini ta’minlashning dolzarb muammolari keng ilmiy tahlil asosida o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ijtimoiylashgan davlat, siyosiylashgan davlat, o‘ta siyosiylashgan davlat, ijtimoiy siyosatning ustuvorligi, inklyuziv yondashuv, korrupsiya, fuqarolik jamiyati, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, raqamli transformatsiya.*

***Abstract:*** *This scientific article examines the urgent problems of ensuring social state governance in a renewing Uzbekistan in the context of the growing globalization and digital transformation of 2026.*

***Key words:*** *socialized state, politicized state, hyper-politicized state, priority of social policy, inclusive approach, corruption, civil society, “Uzbekistan — 2030” strategy, digital transformation.*

***Аннотация:*** *В данной научной статье на основе всестороннего научного анализа исследуются актуальные проблемы обеспечения социально-государственного управления в Узбекистане, обновляющегося в условиях 2026 года, когда процессы глобализации и цифровой трансформации усиливаются.*

***Ключевые слова:*** *социализированное государство, политизированное государство, высокополитизированное государство, приоритет социальной политики, инклюзивный подход, коррупция, гражданское общество, стратегия «Узбекистан — 2030», цифровая трансформация.*

**KIRISH.** Bugungi kunda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirtirayotgan bo`lsa, boshqa tomondan esa, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, iqtisodiy beqarorlik va ijtimoiy tengsizlik insoniyatning dolzarb muammolaridan bo‘lib qolmoqda. Aynan ana shunday sharoitda O‘zbekiston ijtimoiy davlat qurish yo‘lida dadil

qadam tashlashi nafaqat milliy, balki mintaqaviy ahamiyat ega voqealardan hisoblanadi.

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda ijtimoiy davlatni barpo etish g'oyasini ilgari surgan edi. Bu g'oya davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida yanada chuqurroq asoslanib, "Biz Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurishni asosiy maqsadimiz, deb bilamiz" [1] - deya ta'kidlandi. Ushbu strategik mo'ljal 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmon bilan mustahkamlangan bo'lib, uning birinchi bo'limi "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" deb nomlangan [2]. Ayni mana shu strategik maqsadning amalga oshirilishi mamlakatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.** Ijtimoiy davlat tushunchasi nemis olimi Lorenz von Shtein tomonidan 1850-yil ijtimoiy davlatni fuqarolarning huquqiy tengligini ta'minlash va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish vazifasini bajaruvchi siyosiy institusional tuzilma sifatida tavsiflagan[3]. Keyinchalik bu g'oya T.H.Marshall, Go'sta Esping-Andersen va boshqa G'arb olimlari tomonidan rivojlantirilgan. Mahalliy tadqiqotchilardan O.M.Bekmuradov[4] o'z tadqiqotlarida, ijtimoiy davlat milliy-madaniy qadriyatlar va islom ta'limotining insonparvarlik tamoyillari bilan uyg'un holda talqin qilinadi. Bu yondashuv O'zbekiston uchun metodologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

**MUHOKAMA**. Ijtimoiy davlatlarni tahlil qilar ejkanmiz ularni bir qancha toifalarga ajratish mumkun:

**1.Siyosiylashgan davlatlar -** bu toifaga mansub mamlakatlarda siyosiy hokimiyat uchun keskin kurash avj olgan, buning oqibatida siyosiy elita, etnik va milliy guruhlar, siyosiylashgan diniy ayirmachilik tuzilmalari o'rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ziddiyatlar va diniy tusdagi to'qnashuvlar kuchayishi bilan xarakterlanadi. Bunday davlatlarda davlat byudjeti va resurslarining asosiy qismi ijtimoiy ehtiyojlarga emas, balki siyosiy hokimiyatni saqlab qolish va kuchaytirish maqsadlariga sarflanadi.

**2.O'ta siyosiylashgan davlatlar –** bu toifaga mansub davlatlarda siyosiy hokimiyat uchun kurash qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi qurolli, qonli to'qnashuvlar bilan birga boradi. 2026-yilda ham Yaqin Sharq, Afrikaning bir qator mamlakatlari va boshqa mintaqalarda bunday holat kuzatilmoqda. O'ta siyosiylashgan davlatlarda nafaqat ijtimoiy rivojlanish, balki insonning eng asosiy huquqi — yashash huquqi ham tahdid ostiga tushadi. Bunday holat xalqaro miqyosda gumanitar inqirozni, nafaqat insoniyat uchun, balki Yer yuzidagi barcha hayotiy mavjudlikning yashashiga real tahdid bo'lmoqda.

**3.Ijtimoiylashgan davlatlar –** bu davlatlarda siyosiy boshqaruv ijtimoiy rivojlanish va fuqarolar farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Ular iqtisodiy o'sish bilan birga ijtimoiy tenglik va adolatni ham ta'minlashga intiladilar. Skandinaviya mamlakatlari, Germaniya, Fransiya kabi davlatlar shu toifaga misol bo'la oladi.

**4. Yuqori darajada ijtimoiylashgan davlatlar.** Bu davlatlarda ijtimoiy himoya tizimi yuksak darajada rivojlangan, inson qadriga inklyuziv yondashuv davlat siyosatining markaziy tamoyiliga aylangan. Bunday davlatlar nafaqat iqtisodiy rivojlangan, balki ijtimoiy jihatdan ham tenglashgan jamiyatni barpo etgan.

Ammo korrupsiya muammosi — ijtimoiy davlat qurish yo'lidagi asosiy to'siq hisoblanadi. Korrupsiyaning ijtimoiy davlat qurish jarayoniga ta'siri ko'p qirrali: birinchidan, davlat byudjetidan ajratiladigan ijtimoiy xarajatlar o'z maqsadiga yetib bormaydi; ikkinchidan, fuqarolarning davlat institutlariga ishonchi kamayadi; uchinchidan, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimida qonunsiz to'lovlar va diskriminatsiya kuchayadi; to'rtinchidan, iqtidorli kadrlar emas, balki "o'z odamlari" rahbar lavozimlarga tayinlanadi.

Bandlik va real daromadlar muammosi ha ijtimoiy davlat barpo qilishda asosiy muammolardan hisoblanadi. Davlat statistika qo'mitasining 2025-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda rasmiy ishsizlik darajasi 9 foizdan oshiq bo'lib, yashirin ishsizlik ko'rsatkichi bundan ham yuqori. Aholining real daromadlari esa inflyatsiyaning ta'siri ostida sezilarli tushib ketgan. Ijtimoiy davlat qurish jarayonida aholining bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish muhim strategik vazifadir [5].

Raqamli transformatsiya jarayoni ham ijtimoiy davlat barpo qilishda muhim ahamiyatga ega. 2026-yilning muhim xususiyatlaridan biri – sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotga jadal kirib kelishidir. Bu jarayon O'zbekiston uchun ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bir tomondan, raqamlashtirish davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtiradi, korrupsiyaga qarshi kurashda yangi imkoniyatlar yaratadi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida bu masalaga e'tibor qaratilgan bo'lib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan

Ijtimoiy davlatda inson qadriga bo'lgan inklyuziv yondashuv - ijtimoiylashgan davlatni barpo etishdagi muhim tamoyildir. Inklyuziv yondashuv deganda shaxsning jismoniy imkoniyatlari, ijtimoiy kelib chiqishi, millati, dini, jinsi, yoshi yoki boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, uning jamiyat hayotiga to'la va samarali ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish tushuniladi.

**NATIJALAR.** Tadqiqot jarayonida kuzatilishicha, ijtimoiylashgan davlat konsepsiyasi O'zbekiston uchun yangi bo'lmagan g'oyadir. Uning ildizlari mamlakatimizning boy tarixiy-madaniy merosida, islom ta'limotining insonparvarlik qadriyatlarida, ajdodlarimizning zakot, sadaqa va xayriya an'analarida yotibdi. Ammo bu g'oyani zamonaviy davlat boshqaruvi tizimi bilan uyg'unlashtirish - bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Dunyo mamlakatlarida kechayotgan voqea-hodisalarni kuzatar ekanmiz, ularning O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri va uning oqibatlari xususida chuqur mulohaza yuritish zaruriyati bor.

**XULOSAVA TAKLIFLAR.** Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlatni barpo etish muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda ijtimoiy adolat, inson qadri va fuqarolar farovonligini ta'minlash ustuvor yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korrupsiya, ishsizlik va past daromadlar ijtimoiy davlat rivojiga asosiy to'siqlardan biridir. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvlar uyg'unligi esa ijtimoiy davlat modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman, izchil islohotlar orqali barqaror va adolatli jamiyatni barpo etish mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahriri. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2023.
2. Yunusov K.A. Fuqarolik jamiyati nazariyasi. O'quv qo'llanma. — Andijon: AndDU nashriyoti, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. — Toshkent, 2022.
4. Bekmurodov M.B., Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. – T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2020. – 436 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2026 yil 14- yanvar. — Toshkent, 2026.
6. Koshanova N.M. The need to develop intellectual culture in the development of modern society// American Journal OfSocial Sciences And Humanity Research https://inlibrary.uz/index. php/ajsshr/ article/view/35709/36241

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 663.95+950

# ИСТОРИЯ ЧАЙНЫХ РЫНКОВ В СРЕДНЕЙ АЗИИ В XVIII-XIX ВЕКАХ

***Маматова Махфуза, д.ф.и.н. (PhD), докторант (DSc) Каршинск ого государственного университета***

# XVIII-XIX ASRLARDA O'RTA OSIYODAGI CHOY BOZORLARI TARIXI

***Mamatova Mahfuza, (PhD), Qarshi davlat universiteti doktoranti (DSc)***

# HISTORY OF TEA MARKETS IN MIDDLE ASIA

***Mamatova Mahfuza, (PhD), Doctoral Student (DSc) of Karshi state university***



***https://orcid.org/0000-0002-2984-7155***
***e-mail: mamatovamaxfuza@gmail.com***

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается рынок чая в Средней Азии в XVIII-XIX веках. Освещается история торговли зеленым и черным чаем в таких городах, как Бухара, Хива, Коканд и Ташкент. Установлено, что из Китая и Индии в регион импортировались 16 разновидностей чая. Торговля китайским чаем в основном находилась в руках бухарских и кокандских купцов, тогда как оборот индийского чая контролировали торговцы из Пешавара и Афганистана. Со второй половины XIX века торговля чаем приобрела статус важной отрасли колониальной экономики. Особенно активно чай реализовался на ярмарках, проводившихся в Ташкенте, где он продавался в больших объемах.*

***Ключевые слова:*** *чай, рынок, чайные фирмы, чайная торговля, чайные торговцы.*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyodagi choy bozori o'rganiladi. Buxoro, Xiva, Qo'qon va Toshkent kabi shaharlardagi ko'k va qora choy savdosi tarixi yoritilgan. Mintaqaga Xitoy va Hindistondan 16 xil choy import qilinganligi aniqlangan. Xitoy choy savdosi asosan Buxoro va Qo'qon savdogarlari qo'lida bo'lgan, hind choy savdosi esa Peshovar va Afg'oniston savdogarlari tomonidan nazorat qilingan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab choy savdosi mustamlaka iqtisodiyotining muhim sohasiga aylandi. Choy, ayniqsa, Toshkentda o'tkazilgan yarmarkalarda faol sotilgan va u yerda katta miqdorda sotilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *choy, bozor, choy firmalari, choy savdosi, choy savdogarlari.*

***Abstract:*** *This article examines the tea market in Central Asia in the XVIII-XIX centuries. The history of trade in split and black tea in such cities as Bukhara, Khiva, Kokand and Tashkent is covered. It is established that 16 varieties of tea were imported to the region from China and India. The trade in Chinese tea was mainly in the hands of Bukhara and Kokand merchants, while the turnover of Indian tea was controlled by traders from Peshawar and Afghanistan. From the second half of the 19th century, tea trade acquired the status of an important branch of the colonial economy. Tea was especially actively realized at fairs held in Tashkent, where it was sold in large volumes.*

***Key words:*** *tea, market, tea firms, tea trade, tea merchants.*

**Введение.** До XV в. чай везли с караванами по Шелковому пути в качестве дорогого посольского подношения, цена на который была очень высока. По этому, в средневековых источниках трудно найти информацию о нем. После XVIII в. чай появляется на центральноазиатских базарах.

По своему характеру источники и литература об источниковедческих аспектах истории чайной торговли Средней Азии классифицированы в соответствии с изучаемым периодом, были разделены на исследовании периода правления Российской империи, работы, опубликованные в советское

время и научные исследования периода независимости.

Материалы о чайной торговли в данный период в Средней Азии можно встретить в фонде И-46 и др. Национального Архива Узбекистана, о таможенных сборов, открытие чайной транзитной пути, привоз и вывоз чая в Туркестанской край.

**Методология исследования.** В раскрытии темы исследования использованы методы системности, сравнения, проблемно-целевой, исторический, сопоставительный методы, метод логического подхода, социологические и антропологические (эксперимент, наблюдение, количественный и качественный анализ, синтез) а также метод междисциплинарного подхода.

**Результаты и обсуждение.** В чайной торговле Средней Азии значение Бухары, как столицы Бухарского эмирата отводилось особое место. Исследователь городской жизни Востока И.П.Петрушевский отнес Бухару к «особому типу городов», «лежавших на узлах больших караванных путей, служивших складскими местами, перегрузочными пунктами и биржами для вывозной и транзитной торговли» (Петрушевский,1948,с.87).

Как говорили в Бухаре, «товары с четырех сторон приходили и опять на четыре стороны уходили (Сухарева,1966,с.133). Характеризуя бухарские базары XIX века, А.Вамбери обращает внимание на то, что все восточные базары похожи друг на друга. Надо сказать, что базары Бухары имеют сильное отличие от базаров других восточных стран. Это заметил и А.Вамбери, когда сравнивал бухарские базары с персидскими. Все они были построены по иранскому образцу Абдуллаханом после возвращения из Персии в 1582 г. Отныне базары имели несколько частей. В одной из них располагался чайный базар, где находились в своих лавках Растеи Чайфуруши — чайные торговцы. Торговцы 40-50 лавок образовывали чайный ряд, а всего в разных местах города их было около сотни (Сухарева, 1966,с.48). По данным Н.Ю.Петровского, побывавшего в Бухаре в 1872 г., было известно до 16 сортов чая (Петровский,1873,с.209-248). На каждом базаре был свой собственный аксакал (старшина), ответственный перед эмиром за порядок в нем и сбор податей (Вамбери,1868,с.319).

Ч.Валиханов, посетивший Кашгар в 1858 г., свидетельствовал о значительной чайной торговле между Кашгаром и Туркестаном. Важно, что чай активно ввозился в Центральную Азию «бухарцами» через земли ойратов еще в середине XVII в. (Валиханов,1904,с.146). Но, как отметил А.Добросмыслов, «из-за смут и беспорядков в Западном Китае, торговля эта ныне направилась через Западную Сибирь, чем, однако, на первое время, по крайней мере, пользовались не русские, а наши, бухарские купцы» (Добросмыслов,1912,с. 49).

В XIX-XX вв., торговыми отношениями с Бухарой больше всего был связан Афганистан, торговля чаем была в основном в руках афганских купцов, привозивших его сюда из Индии через Пешавар. Обычно афганские купцы вели главным образом оптовую торговлю. В Бухаре действовали приказчики крупных пешаварских чайных торговых фирм (НАУз, ф. И-46, оп. 1, д. 12, л. 23). К середине 90-х гг. XIX в. в Бухаре функционировало уже 23 пешаварских чайных агенства. В 1894 г. ими было ввезено в Бухару 90 тыс. пудов зеленого чая на сумму 2 млн. 500 тыс. руб. (Сапарова Д, 1991, с. 59).

После проведения железной дороги в 1888 г. столица Бухарского эмирата в экономическом отношении отставала от Ташкента и важнейших городов Ферганской долины (Сухарева,1957,с.144-145), главную роль в транзитной торговле с Россией стал играть Ташкент, но Бухара продолжала сохранять для всей Центральной Азии свое значение как важнейший «перевалочный пункт», откуда товары расходились по стране и шли за ее пределы.

А.Вамбери, путешествовавший по Хиве в 1863 г., упоминает о чае в караван-сараях (Вамбери,1868,с.62-63), но наряду с этим в рассказе купца Абросимова, который был в Хивинском ханстве не задолго до Вамбери, никаких известий о чае нет, несмотря на то, что в одном из своих рассказов он описывал состав угощения у «значительных ханов».

Более медленное распространение чая в Хиве является естественным, так как попадал он туда с караванами, шедшими из Кашгара через Бухару, и, конечно, должен был стоить еще дороже, а следовательно, и быть менее доступным для большинства людей.

В XVIII-XIX в. чай был популярным напитком и среди народов Кокандского ханства (1709-1876), он доставлялся туда с рынков Внутреннего Китая и Синьцзяна. Кокандские торговцы выполняли роль переводчиков и посредников в этой торговле. В китайских документах отмечается, что «годовой товарооборот между Кокандом и Китаем колебался от 100 000 до 300 000 чин (6,144 га)» (Saguchi, 1965, с. 80 ).

Во второй половине XIX в. торговлю чаем и шелком пыталась активизировать в Туркестанском крае колониальная администрация царской России. Созданный в Ташкенте в конце 1870 - начале 1871 г. Ярмарочный комитет занимался организацией ярмарок. Из отчетных ведомостей комитета видно, что приходившие в Ташкент караваны привозили большое количество чая, и в то же время вывозили, наряду с мануфактурными и бакалейными товарами, тоже чай. Надо отметить, что привоза черного чая не было из Кашгара (Материалы для..., 1873, 30-31). Как отмечал Ч.Валиханов, в Кашгаре почти не продавался черный (байховый чай) (Валиханов, 1904, с. 464).

**Заключение.** Рынки Коканда, Ташкента, Самарканда, Бухары, Хивы имели отделения, отведенные для чайной торговли. Оно имело свое специальное название как, например, Растеи-Чайфуруши (ряд чайных торговцев). Крупные чаеторговцы назывались «чай боло» (высший чай). Торговцы чая переключились на торговлю другими товарами, когда торговля чаем потеряла свое основное значение. Многие чаеторговцы торговали помимо чая сахаром и сахарном песком, и даже хлопком одновременно.

**Список литературы:**


1. НАУз, ф. И-46, оп. 1, д. 12, л. 23.
2. Вамбери А. Очерки Средней Азии. – М.: Типография А.И.Мамонтова и К$^0$, 1868. – С.319.
3. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М.: Изд. А.И.Мамонтова, 1874. – С. 301.
4. Материалы для торговой статистики Туркестанского края. Вып. 1. – Т.: тип. Окружнаго Штаба, 1873. – С. 30-31.
5. Петровский Н.Ф. Моя поездка в Бухару. // Вестник Европы, 1873 март. – С. 209-248.
6. Валиханов Ч.Ч. Сочинения. /Под. ред. Н.И.Веселовского. – СП: тип. Главного управления уделов, 1904. – С. 146.
7. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – Т.: типо-лит. А.О.Перцева, 1912. – С. 49.
8. Петрушевский И.П. Городская знать в государстве хулагуидов. // Советская востоковедение. V, 1948. – С. 87.
9. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Т., 1957. – С. 144-145.
10. Сухарева О.А. Бухара XIX – начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). – М.: Наука, 1966. – С. 133.
11. Saguchi T. The Trade of the Khokand khanate. Charter VI. Memories of the Research department of the Toyo Bunko (The oriental library) – Tokyo, 1965. № 24. – P. 80.
12. Кузнецов В.С. Цинская империя на рубежах Центральной Азии (вторая половина XVIII – первое половина XIX вв.). – Новосибирск: Сибирскоеотделение, 1983. – С. 56.
13. Сапарова Д.Ч. Влияние Закаспийской железной дороги на развитие русско-иранских торговых связей (90-е гг. XIX в.). – С.И, 1991. – С. 59.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 348.00.04

# 10-11 YOSHLI GANDBOLCHI QIZLARNI TAYYORLASHDA HARAKATLI O‘YINLARNI QO‘LLASH SAMARADORLIGI

*[1]Daniyeva Yarkin Choriyevna, Termiz davlat universiteti “Sport boshqaruvi” kafedrasi pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*
*[2]Abduvohidova Gavhar Boborahim qizi, Termiz davlat universiteti Sport faoliyati fakultet 3-kurs talabasi*



*yarkindanieva@gmail.com*
*https://orcid.org/0003-0003-0514-7811*

# EFFECTIVENESS OF USING ACTION GAMES IN TRAINING 10-11 YEAR-OLD HANDBALL GIRLS

*[1]Daniyeva Yarkin Chorievna, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor, Department of “Sports Management”, Termez State University*
*[2]Abduvokhidova Gavhar Boborahim kizi, 3rd year student, Faculty of Sports Activities, Termez State University*



# ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОДВИЖНЫХ ИГР В ТРЕНИРОВКЕ ДЕВОЧЕК-ГАНДБОЛИСТОК 10-11 ЛЕТ

*[1]Даниева Яркин Чориевна, кандидат педагогических наук, доцент кафедры “Управление спортом”, Термезский государственный университет*
*[2]Абдувохидова Гавхар Боборахим Кизи, студент 3-курса факультета спортивной деятельности, Термезский государственный университет*

***Annotatsiya:*** *“10-11 yoshli gandbolchi qizlarni tayyorlashda harakatli o‘yinlarni qo‘llash samaradorligi” nomli ilmiy maqolada maqolada sport maktablarida shug‘ullanuvchi 10-11 yoshli gandbolchi qizlarning o‘quv mashg‘ulotlarida harakatli o‘yinlarni qo‘llash orqali ularning harakatlar faollik darajasini aniqlangan va mezonlari ishlab chiqilgan. Tez o‘zgarib borayotgan sport dunyosida 10-11 yoshli gandbolchi qizlarning harakat faolligini oshirishda harakatli o‘yinlar orqali ajoyib natijalarga erishish asosiy omiliga aylanmoqda. Maqolaning xulosasi shundan iboratki, 10-11 yoshli gandbolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi, ularning sportning ushbu dinamik sohasidagi muhim rolini oshiradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *harakatli o‘yinlar, mashg‘ulotlar samaradorligi, sportchilar, o‘quvchilar, mashg‘ulotlar jarayonidagi boshlang‘ich tayyorlov, lokomotor harakat amallari, shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlari, sport tahlili, jismoniy tarbiya, gandbol texnika elementlari, “Xiaomi smart band 7” texnologiyasi, dinamometriya, spirometr.*

***Abstract:*** *In the scientific article “Effectiveness of using action games in the training of 10-11-year-old handball girls”. In the presented article, the level of movement activity of 10-11-year-old handball girls in sports schools was determined and criteria were developed by using action games. In the rapidly changing world of sports, achieving excellent results through action*

*games is becoming the main factor in increasing the movement activity of 10-11-year-old handball girls. The conclusion of the article is that it helps to improve physical fitness and efficiency of 10-11-year-old handball girls, increases their important role in this dynamic field of sports.*

***Key words:*** *Movement games, effectiveness of training, athletes, students, initial preparation during training, locomotor movement actions, personalized training programs, sports analysis, physical training, elements of handball technique. "Xiaomi smart band 7" technology, dynamometry, spirometer.*

***Аннотация:*** *В научной статье «Эффективность использования подвижных игр в подготовке гандболисток 10-11 лет». В представленной статье с помощью игр-активностей определен уровень двигательной активности гандболисток 10-11 лет спортивных школ и разработаны критерии. В быстро меняющемся мире спорта достижение отличных результатов посредством подвижных игр становится основным фактором повышения двигательной активности гандболисток 10-11 лет. Вывод статьи заключается в том, что это способствует повышению физической подготовленности и работоспособности гандболисток 10-11 лет, повышает их важную роль в этой динамичной сфере спорта.*

***Ключевые слова:*** *двигательные игры, эффективность тренировки, спортсмены, студенты, начальная подготовка во время тренировки, двигательно-двигательные действия, персонализированные программы тренировок, спортивный анализ, физическая подготовка, элементы техники гандбола, технология "Хиаоми смарт банд 7", динамометрия, спирометр.*

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili zamonaviy turk tarixshunosligida IX–XII asr Markaziy Osiyo allomalari merosining qanday o‘rganilayotganini aniqlashga qaratilgan. Tahlil besh asosiy yo‘nalish doirasida amalga oshirildi: umumiy tarixshunoslik yondashuvlari, turk ilmiy maktablarida allomalar talqini, manbashunoslik tadqiqotlari, interdisiplinar yondashuvlar hamda zamonaviy metodologik qarashlar. Zamonaviy turk tarixshunosligida Markaziy Osiyo allomalari merosi ko‘pincha umumturkiy tarix kontekstida o‘rganiladi. Bu yondashuvda IX–XII asrlar “ilmiy uyg‘onish davri” sifatida talqin qilinadi. Turk tarixchilari bu davrni islom sivilizatsiyasining shakllanishi bilan bog‘lab, allomalarni umumiy ilmiy merosning asoschilari sifatida ko‘rsatadi. Ayniqsa, Forobiy va Ibn Sino falsafiy qarashlari orqali ratsional tafakkurning rivojlanishi tahlil qilinadi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda tarixiy kontinuitet, ya’ni ilmiy an’analarning uzluksizligi asosiy g‘oya sifatida ilgari suriladi [2].

Turk tarixshunosligida Markaziy Osiyo allomalari ko‘pincha turkiy sivilizatsiyaning ajralmas qismi sifatida o‘rganiladi. Bu yerda ularning ilmiy faoliyati nafaqat individual yutuq, balki milliy-madaniy meros sifatida talqin qilinadi. Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojib asarlari turkiy til va madaniyatni o‘rganishda asosiy manbalar sifatida qaraladi. Ibn Sino va Beruniy esa tabiiy fanlar va falsafa rivojiga qo‘shgan hissasi bilan ajralib turadi. Turk tarixchilari ularning asarlarini zamonaviy ilmiy paradigmalar asosida qayta tahlil qilib, global ilmiy merosga qo‘shgan hissasini yoritadi [4].

Manbashunoslik yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlar allomalarning asl asarlarini aniqlash, ularning qo‘lyozma nusxalarini tahlil qilish va tarjima qilishga qaratilgan. Turk olimlari bu borada arab, fors va turkiy tillardagi manbalarni qiyosiy o‘rganadi. Xususan, Ibn Sino “Qonun” asari va Beruniyning geografiyaga oid ishlari keng manbashunoslik tahliliga tortilgan. Ushbu tadqiqotlar orqali asarlarning autentikligi, ularning tarqalish geografiyasi va ilmiy ta’siri aniqlanadi. So‘nggi yillarda turk tarixshunosligida interdisiplinar yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Bu yondashuv tarix, falsafa, filologiya, sotsiologiya va hatto tabiiy fanlar integratsiyasiga asoslanadi. Markaziy Osiyo allomalari merosi ushbu yondashuv orqali kompleks tarzda o‘rganiladi. Masalan, Ibn Sinoning tibbiyotga oid qarashlari zamonaviy

tibbiyot bilan qiyoslanadi, Beruniyning astronomik ishlari esa zamonaviy astrofizika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Bu esa allomalar ilmiy merosining dolzarbligini yanada oshiradi [5].

**Tadqiqot muhokamasi.** Mazkur tadqiqot doirasida IX–XII asr Markaziy Osiyo Sharq allomalarining zamonaviy turk tarixshunosligida o‘rganilishi masalasi keng qamrovda tahlil qilindi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, turk tarixshunosligida ushbu allomalar merosi nafaqat tarixiy manba sifatida, balki ilmiy-madaniy identifikatsiya, sivilizatsion taraqqiyot va umumturkiy tarixiy xotiraning muhim tarkibiy qismi sifatida ham qaraladi. Shu jihatdan, tadqiqot muhokamasi uch asosiy ilmiy yo‘nalishda amalga oshirildi: tarixiy-falsafiy yondashuv, manbashunoslik va metodologik yondashuv hamda zamonaviy interpretatsiyalar va ularning ilmiy ahamiyati [6].

Turk tarixshunosligida Markaziy Osiyo allomalari, xususan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy kabi mutafakkirlarning ilmiy merosi tarixiy-falsafiy kontekstda chuqur o‘rganiladi. Bu yondashuvda ularning asarlari islom falsafasi shakllanishi va Sharq tafakkurining rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi. Turk olimlari ushbu mutafakkirlarning ratsionalizm, mantiqiy tafakkur va ilmiy izlanishlarga asoslangan qarashlarini zamonaviy ilm-fan metodologiyasi bilan uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratadilar. Jumladan, Ibn Sinoning metafizika va tibbiyot sohasidagi ilmiy qarashlari, Forobiyning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalari hamda Beruniyning tajriba va kuzatuvga asoslangan empiristik yondashuvi zamonaviy ilmiy nuqtai nazardan qayta talqin etilmoqda. Bu esa ularning asarlarini nafaqat tarixiy hujjat sifatida, balki zamonaviy ilmiy tafakkurni shakllantiruvchi muhim manba sifatida baholash imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, turk tarixshunosligida manbashunoslik yondashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Allomalarning ilmiy asarlarini asl qo‘lyozmalar asosida o‘rganish, ularni turli tillarga tarjima qilish va qiyosiy tahlil qilish keng ilmiy amaliyotga aylangan. Bu jarayonda arab, fors va turkiy tillardagi manbalar birgalikda kompleks tarzda tahlil qilinib, tarixiy faktlarning aniqligi va ishonchliligi tekshiriladi. Shuningdek, zamonaviy tarixshunoslik metodlari, jumladan tarixiy-kritik tahlil, germenevtik yondashuv va kontekstual interpretatsiya orqali allomalarning ilmiy merosi yangicha nuqtai nazardan baholanmoqda. Ushbu metodologik yondashuvlar allomalarning asarlaridagi ilmiy g‘oyalarni zamonaviy ilmiy muhitga moslashtirishga yordam beradi hamda ularning global ilmiy merosdagi o‘rnini yanada aniqroq belgilash imkonini yaratadi [7].

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, IX–XII asr Markaziy Osiyo Sharq allomalarining zamonaviy turk tarixshunosligida o‘rganilishi keng qamrovli va ko‘p qirrali ilmiy yo‘nalishlardan biri ekanligi aniqlandi. Turk tarixshunosligida bu allomalar merosi nafaqat tarixiy manba sifatida, balki umumturkiy va umuminsoniy ilmiy-madaniy merosning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojib kabi mutafakkirlarning ilmiy faoliyati turli metodologik yondashuvlar asosida qayta tahlil qilinib, ularning jahon ilm-faniga qo‘shgan hissasi alohida e’tirof etilmoqda. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy turk tarixshunosligida manbashunoslik, tarixiy-falsafiy tahlil, interdisiplinar yondashuv va raqamli metodlar keng qo‘llanilib, allomalar merosini zamonaviy ilmiy diskursga integratsiya qilish jarayoni faol davom etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Al-Faruqi, I.R. (1982). Islam and the philosophy of science. International Institute of Islamic Thought.
2. Berkey, J.P. (2003). The formation of Islam: Religion and society in the Near East, 600–1800. Cambridge University Press.
3. Bosworth, C.E. (1996). The history of the medieval Islamic world. Oxford University Press.
4. Gutas, D. (1998). Greek thought, Arabic culture: The Graeco-Arabic translation movement in Baghdad and early Abbasid society. Routledge.
5. Nasr, S. H. (2006). Islamic philosophy from its origin to the present: Philosophy in the land of prophecy. State University of New York Press.
6. Özervarlı, M. S. (2012). Islamic thought in the Ottoman context: The reception of classical philosophy. Journal of Ottoman Studies, 39, 45–68.
7. Richter-Bernburg, L. (2006). Ibn Sina (Avicenna). In Encyclopaedia of Islam (3rd ed.). Brill.

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 81.37

# RUSIYZABON O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA QADRIYATGA YO‘NALTIRILGAN DARSLAR (7-8-RUS SINFLARDA)

*Abdullayeva Zarnigor Usubjon qizi, Andijon davlat pedagogika instituti tayanch (PhD) doktoranti*



*https://orcid.org/0009-0002-4196-9355*
*e-mail: zarnigorabdullayeva1993@gmail.com*

# VALUE-ORIENTED LESSONS IN WORKING WITH RUSSIAN-SPEAKING STUDENTS (IN GRADES 7-8)

*Abdullayeva Zarnigor Usubjon kizi, PhD student at Andijan State Pedagogical Institute*

# ЦЕННОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ УРОКИ ПРИ РАБОТЕ С РУССКОЯЗЫЧНЫМИ УЧАЩИМИСЯ (В 7-8-КЛАССАХ РУССКОГО ЯЗЫКА)

*Абдуллаева Зарнигор Усубджоновна, базовый докторант (PhD) Андижанского государственного педагогического института*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada rusiyzabon o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida qadriyatga yo‘naltirilgan darslarni tashkil etishning nazariy, metodologik va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot 7–8-sinf o‘quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlari, til o‘qitishning tarbiyaviy imkoniyatlari hamda ta’lim jarayonida qadriyatlar integratsiyasining samaradorligiga qaratilgan. Ilmiy tahlil jarayonida pedagogik, psixologik va intermadaniy yondashuvlar uyg‘unligi asosida o‘quvchilarda fuqarolik ongi, ma’naviy qadriyatlar va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, qadriyatga yo‘naltirilgan darslar o‘quvchilarning shaxsiy identitetini shakllantirishda, ijtimoiy mas’uliyatini oshirishda hamda madaniy ongini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim, rusiyzabon o‘quvchilar, 7–8-sinf, til o‘qitish metodikasi, intermadaniy kompetensiya, pedagogika, tarbiyaviy yondashuv, fuqarolik ong, shaxsiy identitet, ma’naviy qadriyatlar.*

***Abstract:*** *This article analyzes the theoretical, methodological and practical aspects of organizing value-oriented lessons in the process of working with Russian-speaking students. The study focuses on the age-psychological characteristics of 7–8th grade students, the educational opportunities of language teaching, and the effectiveness of integrating values in the educational process. The scientific analysis sheds light on the mechanisms for developing civic consciousness, spiritual values, and communicative competence in students based on the combination of pedagogical, psychological, and intercultural approaches. The results show that value-oriented lessons play an important role in forming students' personal identity, increasing their social responsibility, and developing their cultural awareness.*

***Key words:*** *value-oriented education, Russian-speaking students, 7–8th grade, language teaching methodology, intercultural competence, pedagogy, educational approach, civic consciousness, personal identity, spiritual values.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются теоретические, методологические и практические аспекты организации ценностно-ориентированных уроков в процессе работы с русскоязычными учащимися. Исследование сосредоточено на возрастно-психологических характеристиках учащихся 7–8 классов, образовательных возможностях языкового обучения и эффективности интеграции ценностей в образовательный процесс. Научный анализ освещает механизмы развития гражданского сознания, духовных ценностей и коммуникативной компетентности у учащихся на основе сочетания педагогического, психологического и*

*межкультурного подходов. Результаты показывают, что ценностно-ориентированные уроки играют важную роль в формировании личностной идентичности учащихся, повышении их социальной ответственности и развитии культурной осведомленности.*

***Ключевые слова:*** *ценностно-ориентированное образование, русскоязычные учащиеся, 7–8 класс, методика преподавания языка, межкультурная компетентность, педагогика, образовательный подход, гражданское сознание, личностная идентичность, духовные ценности.*

**Kirish.** Zamonaviy ta’lim tizimi globallashuv, raqamli transformatsiya va madaniyatlararo integratsiya jarayonlari ta’sirida tubdan o‘zgarib bormoqda. Ushbu sharoitda ta’limning asosiy vazifasi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni, fuqarolik mas’uliyatini va madaniy identitetni shakllantirishdan iborat bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, umumta’lim maktablarining 7–8-sinflar bosqichi shaxsning ijtimoiylashuvi va qadriyatlar tizimi shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi [1].

Rusiyzabon o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida til o‘qitish faqat lingvistik kompetensiyani rivojlantirish bilan cheklanib qolmasligi, balki tarbiyaviy va qadriyatga yo‘naltirilgan pedagogik funksiyani ham bajarishi zarur. Chunki til — bu nafaqat kommunikativ vosita, balki madaniyat, tarix, urf-odat va milliy tafakkurni ifodalovchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Shu sababli tilni o‘qitish jarayoni o‘quvchilarning dunyoqarashi va identitetini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Rusiyzabon o‘quvchilar bilan ishlashda qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim masalasi zamonaviy pedagogika, lingvodidaktika, psixologiya va madaniyatshunoslik kesishmasida shakllangan murakkab ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu bo‘limda mazkur muammoning nazariy asoslari, asosiy konsepsiyalar evolyutsiyasi hamda ilmiy yondashuvlar tizimli tahlil qilinadi.

Til va qadriyatlar o‘zaro bog‘liqligi. Lingvistik va sociolinguistik tadqiqotlarda til faqat kommunikativ vosita emas, balki madaniy kod va qadriyatlar tashuvchisi sifatida talqin qilinadi. Vygotskiy (1978) tilni tafakkur rivojlanishining asosiy vositasi deb hisoblab, uning ichki nutq orqali shaxs shakllanishidagi rolini ta’kidlaydi. Bourdieu (1991) esa tilni “symbolic capital” sifatida ko‘rib, uning ijtimoiy mavqe va identitet shakllanishidagi ahamiyatini ochib beradi. Bu yondashuvga ko‘ra, tilni o‘zlashtirish faqat grammatik bilim emas, balki madaniy kapitalni egallash jarayonidir [2]. Kramsch (1998) tilni “madaniy haqiqat” sifatida talqin qilib, har bir til strukturasida jamiyatning tarixiy tajribasi va qadriyatlari mujassam ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois, rus tili darslari madaniy va qadriyatga yo‘naltirilgan mazmun bilan boyitilganda, u shaxs shakllanishining muhim vositasiga aylanadi [3].

O‘smirlik davri va identitet shakllanishi. Psixologik tadqiqotlarda (Erikson,) 12–15 yosh oralig‘i identitet shakllanishining eng muhim bosqichi sifatida qaraladi. Bu davrda o‘quvchi:

- o‘z “Men” konsepsiyasini shakllantiradi,
- ijtimoiy guruhlarga mansublikni anglaydi,
- qadriyatlar tizimini qayta baholaydi.

Piaget (1972) nazariyasiga ko‘ra, bu bosqichda abstrakt tafakkur rivojlanib, o‘quvchilar murakkab axloqiy va ijtimoiy muammolarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli 7–8-sinflarda qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim ayniqsa samarali hisoblanadi.

Intermadaniy kompetensiya va zamonaviy pedagogika. Zamonaviy ta’lim nazariyasida intermadaniy kompetensiya (Byram, 1997) muhim o‘rin egallaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, til o‘rgatish jarayoni quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: madaniy bilimlar, kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy madaniy ong, qadriyatlarga nisbatan refleksiv munosabat. Banks (2016) tomonidan ishlab chiqilgan multikultural ta’lim konsepsiyasi ham o‘quvchilarning turli madaniyatlarni tushunish va hurmat qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan [4].

Rus pedagogik an’anasi va tarbiyaviy yondashuv. Rus pedagogikasida qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim an’anaviy ravishda kuchli rivojlangan. Ushinskiy ona tilini “milliy tarbiyaning asosi” deb hisoblagan. Sukhomlinskiy (1977) esa ta’limning markazida shaxsning ma’naviy dunyosi turishi kerakligini ta’kidlagan.

Ushbu yondashuvlarga ko‘ra, til darslari nafaqat bilim berish, balki: axloqiy tarbiya, madaniy ong, emotsional-intellektual rivojlanish jarayonlarini ham o‘z ichiga olishi lozim [5].

*Zamonaviy tadqiqotlar va ilmiy tendensiyalar*. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar (Cummins, 2001; García, 2009; Norton, 2013) til o‘qitish jarayonida identitet va motivatsiya o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikni ko‘rsatmoqda. Ushbu tadqiqotlarga ko‘ra: til o‘rganish motivatsiyasi madaniy identitet bilan bevosita bog‘liq, o‘quvchi o‘zini til bilan identifikatsiya qilsa, o‘rganish

samaradorligi oshadi, qadriyatga asoslangan ta’lim motivatsiyani barqarorlashtiradi. UNESCO (2020) ham global fuqarolik ta’limi konsepsiyasida qadriyatlar integratsiyasini asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilagan [6].

**Adabiyotlar tahlili** shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlar quyidagi muammolarni to‘liq qamrab olmaydi: rusiyzabon o‘quvchilar uchun maxsus qadriyatga yo‘naltirilgan metodik model yetarli darajada ishlab chiqilmagan, 7–8-sinf psixologik xususiyatlari bilan metodik yondashuvlar to‘liq integratsiyalashmagan, til o‘qitish va qadriyatlar shakllanishi o‘rtasidagi amaliy mexanizmlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqot ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

**Tadqiqot muhokamasi.** Mazkur tadqiqot natijalari rusiyzabon o‘quvchilar bilan ishlashda qadriyatga yo‘naltirilgan darslarning 7–8-sinflar sharoitida nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki shaxsiy, axloqiy va fuqarolik identitetini shakllantirishda muhim pedagogik omil ekanligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar mavjud nazariy konsepsiyalar va xalqaro ilmiy yondashuvlar bilan uyg‘unlikda tahlil qilinganda, til o‘qitish jarayonining ko‘p funksiyali (multifunksional) xarakterga ega ekanligi yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, rus tili darslari o‘quvchilarda: madaniy tajribani o‘zlashtirish, axloqiy me’yorlarni anglash, ijtimoiy munosabatlarni tushunish jarayonlarini birlashtiruvchi integrativ maydon sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuv til ta’limining tabiiy davomidir.

Qadriyatlar tizimi va o‘quvchi shaxsining shakllanishi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 7–8-sinf o‘quvchilari psixologik jihatdan shaxsiy identitetni shakllantirish bosqichida bo‘ladilar. Eriksonning psixososial nazariyasiga ko‘ra, bu davrda “men kimman?” degan savol markaziy ahamiyatga ega bo‘ladi. Qadriyatga yo‘naltirilgan darslar ushbu savolga javob topishda o‘quvchiga yordam beradi, chunki: matnlar orqali axloqiy dilemmalar tahlil qilinadi, madaniy va tarixiy kontekstlar o‘rganiladi, shaxsiy fikr bildirishga imkon yaratiladi. Natijada o‘quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki o‘z qadriyatlarini shakllantiruvchi faol subyektga aylanadi [7].

*Pedagogik metodlarning samaradorligi*. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi metodlar eng yuqori samaradorlikka ega:

- matnni qadriyat nuqtayi nazaridan tahlil qilish – axloqiy mazmunni ochib beradi;
- munozara va dialog – tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- loyihaviy faoliyat – o‘quvchini mustaqil izlanishga undaydi;
- refleksiv yozuv – ichki qadriyatlarni shakllantiradi.

Bu metodlar o‘quvchining kognitiv faoliyati bilan bir qatorda emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ham ta’minlaydi.

**Xulosa**. Mazkur tadqiqot rusiyzabon o‘quvchilar bilan ishlashda qadriyatga yo‘naltirilgan darslarni tashkil etishning nazariy, metodologik va amaliy asoslarini tahlil qilishga qaratildi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, 7–8-sinf bosqichi o‘quvchilarning shaxsiy identiteti, axloqiy qarashlari va fuqarolik ongining shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, til o‘qitish jarayonini faqat lingvistik kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida emas, balki keng qamrovli tarbiyaviy-madaniy tizim sifatida ko‘rib chiqish zarur. Tahlillar asosida aniqlanishicha, qadriyatga yo‘naltirilgan darslar o‘quvchilarda quyidagi asosiy natijalarni shakllantiradi: milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, tanqidiy va refleksiv fikrlash ko‘nikmalari, madaniy va ijtimoiy identitetning mustahkamlanishi, kommunikativ va intermadaniy kompetensiyaning rivojlanishi. Shuningdek, tadqiqot natijalari pedagogik jarayonda matn tahlili, dialogik o‘qitish, loyihaviy faoliyat va refleksiv yozuv kabi metodlarning yuqori samaradorligini ko‘rsatdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Bourdieu, P. (1991). *Language and Symbolic Power*. Harvard University Press.
2. Banks, J. A. (2016). *Cultural Diversity and Education*. Routledge.
3. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Multilingual Matters.
4. Kramsch, C. (1998). *Language and Culture*. Oxford University Press.
5. Fishman, J. A. (1991). *Reversing Language Shift*. Multilingual Matters.
6. Norton, B. (2013). *Identity and Language Learning*. Multilingual Matters.
7. Cummins, J. (2001). *Language, Power and Pedagogy*. Multilingual Matters.

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 81.2

# O‘ZBEK TILIDA MEDIA SLANG: SHAKLLANISHI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

***Eshmirzayeva Nozima Baxodir qizi, Qarshi davlat universiteti 1-bosqich doktoranti***

# MEDIA SLANG IN UZBEKISTAN: FORMATION, PROBLEMS AND PROSPECTS

***Eshmirzayeva Nozima Bakhodir kizi, 1st year doctoral student at Karshi State University***

# СЛЕНГ СМИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ФОРМИРОВАНИЕ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

***Эшмирзаева Нозима Баходир кызы, докторант 1-курса Каршинского государственного университета***

***https://orcid.org/0009-0004-6057-9584***
***e-mail: eshmirzayevanozima95@gmail.com***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola o‘zbek tilida media slangning paydo bo‘lishi, shakllanishi, rivoji va kelajakdagi istiqbollari bilan bog‘liq ijtimoiy-lingvistik, diskursiv va madaniy aspektlarni akademik tahlil qiladi. Tadqiqot IMRAD modeli asosida olib borilgan bo‘lib, media slangning tarixiy rivoji, lingvistik mexanizmlari, yoshlar nutqidagi o‘rni, raqamli media ta’siri va global integratsiyalashuvi o‘rganiladi. Maqola slangning ijtimoiy identitet shakllanishidagi roli, til normativlariga ta’siri va kelajakdagi istiqbollari haqida xulosalar beradi. Natijalar media slangni tilni innovatsion rivojlantirish vositasi sifatida ko‘rsatadi, lekin normativ barqarorlik uchun tahdid ham bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *media slang, o‘zbek tili, sotsiolingvistika, diskurs tahlili, raqamli media, til o‘zgarishi, identitet, mediatizatsiya, yoshlar nutqi, globalizatsiya*

***Abstract:*** *This study provides a comprehensive academic investigation of the emergence, formation, development, and future prospects of media slang in the Uzbek language from a sociolinguistic, discourse-analytic, and cultural perspective. Conducted within the IMRAD framework, it examines the historical evolution, linguistic mechanisms, role of slang in youth communication, its interaction with global media, and socio-cultural implications.*

*Findings indicate that media slang serves as both a vehicle for linguistic innovation and a potential threat to normative language stability. The article proposes implications for language policy, educational programs, and media literacy enhancement to ensure balanced integration of slang in contemporary Uzbek communication.*

***Keywords:*** *media slang, Uzbek language, sociolinguistics, discourse analysis, digital media, language change, identity, mediatization, youth communication, globalization.*

***Аннотация:*** *Статья посвящена академическому исследованию возникновения, формирования, развития и перспектив медийного сленга в узбекском языке с социолингвистической, дискурсивной и культурной точек зрения. Исследование выполнено в рамках модели IMRAD и анализирует историческое развитие медийного сленга, его лингвистические механизмы, роль в молодежной коммуникации, влияние цифровых медиа и интеграцию с глобальной медийной средой. Результаты показывают, что медийный сленг является не только инструментом языковой инновации, но и потенциальной угрозой нормативной стабильности. Статья предлагает рекомендации по языковой политике, образовательным программам и повышению медиаграмотности.*

***Ключевые слова:*** *медийный сленг, узбекский язык, социолингвистика, дискурс-анализ, цифровые медиа, языковые изменения, идентичность, медиатизация, молодежная коммуникация, глобализация.*

**Kirish.** Til inson faoliyatining ijtimoiy va madaniy shakllanishi bilan bog‘liq murakkab lingvistik hodisa sifatida doimiy o‘zgarishga uchraydi[1]. Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekistonda media makoni kengayishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning global kommunikatsiya tarmog‘iga integratsiyasi natijasida yangi til shakllari, jumladan media slang paydo bo‘ldi[2]. Media slang — bu kommunikatsion jarayonlarda norasmiy, qisqartirilgan, ko‘pincha chet tillardan o‘zlashtirilgan yoki semantik jihatdan o‘zgartirilgan til birliklarini ifodalovchi ijtimoiy-semiotik fenomen[3].

Media slang nafaqat yoshlar nutqi va guruh identitetini shakllantiradi, balki tilning ijtimoiy va madaniy funksiyalarini ham aks ettiradi. U o‘zbek tilining me’yoriy normativlariga bosim ko‘rsatadi, adabiy til me’yorlari bilan ziddiyatga kiradi va milliy til identitetiga ta’sir qiladi.

Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda trend bo‘lgan “flex qilish”, “hype qilish”, “meme” kabi birliklar, adabiy til me’yorlarida hali mustahkamlanmagan, lekin yoshlar nutqida keng tarqalgan[4]. Til doimiy ravishda ijtimoiy va madaniy kontekstga moslashadi. Media va internet kommunikatsiyasi bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar orasida yangi til birliklari, jumladan media slang tez tarqaladi.

Media slangning kelib chiqishi ko‘pincha ingliz va rus tillaridan o‘zlashtirilgan birliklar bilan bog‘liq. Masalan, “trend qilish”, “meme yaratish” yoki “hype qilish” kabi iboralar yoshlar nutqida keng tarqalgan. Bu birliklar adabiy til me’yorlariga mos kelmasligi mumkin.

Slangning boshqa bir o‘zi shundaki, u qisqartirish va yangilik yaratishga asoslangan. Ko‘pincha so‘zlar ma’nosini o‘zgartiradi yoki bir necha so‘zlarni birlashtiradi. Misol uchun, “flex qilish” — inglizchadagi “to show off” iborasidan olingan va yoshlar orasida ijtimoiy mavqe namoyishi sifatida ishlatiladi.

Media slang nafaqat yoshlar nutqini boyitadi, balki guruh identitetini shakllantiradi. Yoshlar uni o‘zaro aloqa vositasi sifatida ishlatadi. Bu jarayon, lingvistik jihatdan, tilning evolyutsion jarayoniga o‘xshaydi.

Yana bir jihat shundaki, media slang raqamli platformalar orqali tez tarqaladi. Instagram, Telegram, YouTube va TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlarda yangi birliklar paydo bo‘ladi va bir necha oy ichida ommalashadi. Bu esa til normativlariga ta’sir qiladi va adabiy til bilan ziddiyatga kirishi mumkin.

**Metodlar.** Tadqiqot sifat metodologiyasi, diskursiv-tahliliy va kvantitativ yondashuvlar asosida olib borildi. Asosiy usullar:

-Diskursiv tahlil: OAV, bloglar, Instagram, Telegram kanallari va YouTube videolardagi slang birliklarini o‘rganish;

-Diaxron tahlil: slang birliklarining 1990–2025 yillar davomida evolyutsiyasi;

-Taqqoslash usuli: o‘zbek media slangini ingliz va rus tillari bilan solishtirish;

-Empirik tahlil: yoshlar orasida so‘rovnomalar, intervyular va onlayn kuzatuvlar;

-Statistik tahlil: slangning ijtimoiy tarmoqlardagi keng tarqalishi va trendlarni raqamli ko‘rsatkichlar bilan baholash[5].

**Natijalar.**

**O‘tmishdagi muammolar**

-Rus va ingliz tili orqali kirib kelgan jargon va slangning normativ nazoratsizligi;

-Adabiy til me’yorlarining OAV va ijtimoiy tarmoqlarda buzilishi;

-Tarjima jarayonida semantik noto‘g‘riliklar;

-Slangning yoshlar nutqi bilan cheklanishi[6].

**Hozirgi holat**

-Inglizcha media slangning keskin ko‘payishi (trend, hype, fake, meme, viral, flex qilish);

-Ijtimoiy tarmoqlarda normativ nazoratning yetishmasligi;

[1] Crystal, D. *Language and the Internet*. Cambridge University Press, 2001.

[2] Fairclough, N. *Media Discourse*. Edward Arnold, 1995.

[3] Androutsopoulos, J. “Mediatization and Sociolinguistic Change,” 2014.

[4] Zokirova, M. “O‘zbek Yoshlar Media Slangi,” *Tilshunoslik Jurnali*, 2021.

[5] Labov, W. *Sociolinguistic Patterns*. University of Pennsylvania Press, 1972.

[6] Yule, G. *The Study of Language*. Cambridge University Press, 2010.

-Slang va adabiy til o‘rtasidagi chegaraning xiralashuvi[7].

**Kelajak istiqbollari**

-Global media integratsiyasi natijasida yangi slang birliklarining yuzaga kelishi;

-Til siyosati va ta’lim tizimi orqali boshqarish imkoniyatlari;

-Media savodxonlik va lingvistik madaniyatni oshirish zarurati.

Media slang o‘zbek tilida ikki tomonlama jarayon sifatida qaraladi:

**-Ijobiy tomonlari**: tilning moslashuvchanligi, yoshlar nutqining ijodkorligi, global media makoniga integratsiya;

**-Salbiy tomonlari**: adabiy til me’yorlariga tahdid, terminologik beqarorlik, milliy til identitetining zaiflashishi, media savodxonlik yetishmasligi[8].

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, kelajakda media slangni inkor etmasdan, **til siyosati, ta’lim va OAV etikasi orqali muvozanatda boshqarish** zarur.

Slangning o‘zbek tiliga integratsiyasi murakkab jarayon hisoblanadi. U yoshlar va ijtimoiy guruhlar orasida tez tarqaladi, ammo til siyosati va adabiy normativlar bilan doimiy ravishda muvofiqlashtirilishi zarur.

Shuningdek, media slangni o‘rganish ijtimoiy, madaniy va pedagogik jihatdan ham ahamiyatlidir. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, slang birliklari yoshlarning kommunikativ qobiliyatini oshiradi, ularni global media makoniga integratsiya qiladi va yangi ijtimoiy kontekstlarda identitetni shakllantiradi. O‘zbekiston kontekstida media slangning o‘rganilishi nafaqat lingvistik, balki sotsiolingvistik va madaniy jihatdan ham zarurdir. Bu jarayon til o‘zgarishlarini, globalizatsiya ta’sirini va yoshlar nutqidagi innovatsiyalarni tushunishga yordam beradi.

**Xulosa.** Media slang o‘zbek tilining rivojlanishida muhim, ammo murakkab lingvistik hodisa hisoblanadi. U o‘tmishda til me’yorlariga bosim ko‘rsatgan bo‘lsa, kelajakda raqamli kommunikatsiya sharoitida yanada kuchayishi kutiladi. Media slangni ilmiy tahlil qilish, til siyosati va ta’lim sohasida boshqarish, media savodxonlikni oshirish — o‘zbek tilining barqaror rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Crystal, D. *Language and the Internet*. Cambridge University Press, 2001.
2. Fairclough, N. *Media Discourse*. Edward Arnold, 1995.
3. Labov, W. *Sociolinguistic Patterns*. University of Pennsylvania Press, 1972.
4. Androutsopoulos, J. Mediatization and Sociolinguistic Change, 2014.
5. Yule, G. *The Study of Language*. Cambridge University Press, 2010.
6. Pennycook, A. *Global Englishes*. Routledge, 2007.
7. Halliday, M. A. K. *Language as Social Semiotic*. Edward Arnold, 1978.
8. Kress, G. *Multimodality*. Routledge, 2010.
9. Zokirova, M. O‘zbek Yoshlar Media Slangi, *Tilshunoslik Jurnali*, 2021.


[7] Pennycook, A. *Global Englishes*. Routledge, 2007.

[8] Halliday, M. A. K. *Language as Social Semiotic*. Edward Arnold, 1978.

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 37.011

# JADID PEDAGOGIKASINING NAZARIY ASOSLARI VA UNING BUGUNGI TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI (ABDULLA AVLONIY PEDAGOGIK QARASHLARI MISOLIDA)

***Shamsiddinova Sadoqatxon G'opporjon qizi, Qo'qon universiteti "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligi yo'nalishi tayanch doktoranti***



***https://orcid.org/0009-0001-3000-7698***
***e-mail: shamsiddinovasadoqat@gmail.com***

# THEORETICAL FOUNDATIONS OF NEW PEDAGOGY AND ITS SIGNIFICANCE IN THE TODAY'S EDUCATION SYSTEM (ON THE EXAMPLE OF ABDULLA AVLONIY'S PEDAGOGICAL VIEWS)

***Shamsiddinova Sadokatkhon Gopporjon kizi, PhD student in the specialty "Theory of Pedagogy. History of Pedagogical Teachings" at Kokand University***

# ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ НОВОЙ ПЕДАГОГИКИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ АБДУЛЛЫ АВЛОНИ)

***Шамсиддинова Садокатхон Гоппоржон кызы, докторант по специальности "Теория педагогики. История педагогических методов обучения" Кокандского университета***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada jadid pedagogikasining nazariy asoslari hamda uning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati Abdulla Avloniy pedagogik qarashlari misolida ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida jadid pedagogikasining shakllanish omillari, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi masalalari yoritilgan. Shuningdek, Abdulla Avloniyning pedagogik merosi zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim modeli bilan qiyosiy tahlil qilinib, uning bugungi ta'lim islohotlaridagi metodologik ahamiyati asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *jadid pedagogikasi, Abdulla Avloniy, ta'lim-tarbiya, pedagogik qarashlar, milliy ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik meros, ma'naviy tarbiya, ta'lim islohotlari.*

***Abstract:*** *This article provides a scientific analysis of the theoretical foundations of Jadid pedagogy and its significance in the modern education system based on the pedagogical views of Abdulla Avloniy. The study examines the formation factors of Jadid pedagogy, the unity of education and upbringing, learner-centered education principles, and the integration of national and universal values. The pedagogical heritage of Abdulla Avloniy is comparatively analyzed with the modern competency-based education model, highlighting its methodological importance in contemporary educational reforms.*

***Keywords:*** *Jadid pedagogy, Abdulla Avloniy, education and upbringing, pedagogical views, national education, competency-based approach, learner-centered education, pedagogical heritage, moral education, educational reforms.*

***Аннотация:*** *В данной статье научно анализируются теоретические основы джадидской педагогики и её значение в современной системе образования на примере педагогических взглядов Абдуллы Авлони.*

*В исследовании раскрываются факторы формирования джадидской педагогики, принципы единства обучения и воспитания, личностно-ориентированного образования, а также гармония национальных и общечеловеческих ценностей. Педагогическое наследие Абдуллы Авлони рассматривается в сравнении с современной компетентностной моделью образования и обосновывается его методологическая значимость в условиях современных образовательных реформ.*

***Ключевые слова:*** *джадидская педагогика, Абдулла Авлони, обучение и воспитание, педагогические взгляды, национальное образование, компетентностный подход, личностно-ориентированное обучение, педагогическое наследие, духовное воспитание, образовательные реформы.*

**Kirish.** XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan ijtimoiy-madaniy uyg‘onish jarayoni tarixda jadidchilik harakati nomi bilan mashhur bo‘lib, u nafaqat siyosiy va madaniy hayotda, balki ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda ham muhim burilish yasadi. Jadidchilik harakati vakillari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-fan, ma’rifat va zamonaviy ta’limni e’tirof etdilar. Ayniqsa, eski maktab va madrasalardagi yodlashga asoslangan ta’lim usullarini isloh qilish, o‘quv jarayoniga yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish masalasi jadid pedagogikasining markaziy g‘oyasiga aylandi. Shu jihatdan jadid pedagogikasi milliy ta’lim tarixida innovatsion pedagogik tafakkurning shakllanish bosqichi sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi [1]. Jadid pedagogikasining nazariy asoslari insonparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, dunyoviy bilimlarni egallash, shaxsni har tomonlama rivojlantirish hamda ta’lim va tarbiyaning uzviyligi tamoyillariga tayanadi. Jadid mutafakkirlari ta’limni faqat savod chiqarish vositasi emas, balki jamiyatni taraqqiyot sari yetaklovchi strategik omil deb baholaganlar. Ularning fikricha, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlovchi va vatanparvar avlodni tarbiyalash orqali millat ravnaqiga erishish mumkin edi. Bu qarashlar bugungi kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan bevosita uyg‘unlashadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Jadid pedagogikasi va uning nazariy asoslarini o‘rganish masalasi pedagogika, tarix, falsafa hamda ma’naviyatshunoslik yo‘nalishlarida ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning markazida bo‘lib kelmoqda. Jadidchilik harakati vakillarining ma’rifiy faoliyati, ayniqsa, ularning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari milliy pedagogik tafakkur taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida baholanadi. Ilmiy adabiyotlarda jadid pedagogikasi asosan ta’limni modernizatsiya qilish, milliy uyg‘onish g‘oyalarini shakllantirish hamda shaxs kamolotiga yo‘naltirilgan pedagogik tizim sifatida talqin etiladi. Jadid pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan dastlabki ilmiy manbalar jadid mutafakkirlarining o‘z asarlari hisoblanadi. Xususan, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat kabi ma’rifatparvarlarning pedagogik asarlari ushbu yo‘nalishning nazariy poydevorini tashkil etadi. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” kabi asarlarida ta’lim va tarbiyaning mazmuni, metodlari hamda pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablar ilmiy-pedagogik asosda yoritilgan. Tadqiqotchilar ushbu asarlarni jadid pedagogikasining konseptual modeli sifatida baholaydilar [2].

O‘zbekistonlik olimlardan B.Qosimov, N.Karimov, S.Dolimov, I.G‘afurov va boshqa tadqiqotchilar jadidchilik harakatining tarixiy hamda ma’rifiy jihatlarini keng o‘rganganlar. Ularning ilmiy ishlarida jadid maktablarining tashkil etilishi, yangi usuldagi ta’lim metodlari (“usuli jadid”) hamda o‘quv jarayoniga fanlarning tizimli ravishda kiritilishi masalalari tahlil qilingan [3].

Mazkur tadqiqotlar jadid pedagogikasining an’anaviy ta’lim tizimidan tubdan farq qiluvchi jihatlarini ochib beradi. Jumladan, yangi usul maktablarida fonetik o‘qitish usulining qo‘llanishi o‘quvchilarning savod chiqarish jarayonini tezlashtirgani ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Pedagogika sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarda jadid pedagogikasi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasining tarixiy ildizi sifatida talqin qilinadi. M.Ochilov, R.Mavlonova, O.Tolipov kabi pedagog olimlar ta’lim tizimining rivojlanishida milliy pedagogik merosning o‘rnini tahlil qilib, jadidlarning ta’lim jarayonida mustaqil fikrlash, ongli o‘qitish va amaliy bilimlarni shakllantirishga e’tibor qaratganligini ta’kidlaydilar. Ushbu yondashuv bugungi kompetensiyaviy ta’lim modeli bilan metodologik jihatdan uyg‘un ekanligi qayd etiladi[4]. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham jadidchilik harakati Markaziy Osiyodagi ijtimoiy modernizatsiya jarayonining muhim omili sifatida o‘rganilgan. A.Khalid, E.Allworth, D.Brower kabi olimlarning ilmiy ishlarida jadidlarning ma’rifiy faoliyati milliy ong va zamonaviy ta’lim tizimi shakllanishidagi asosiy kuch sifatida baholanadi. Xususan, Adeeb Khalid jadidchilikni musulmon jamiyatlarida modern tafakkur va ta’lim islohotlarini

yuzaga keltirgan harakat sifatida izohlaydi. Uning tadqiqotlarida jadid maktablari orqali yangi pedagogik madaniyat shakllangani alohida ta’kidlanad [5].

Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar orasida uning axloqiy tarbiya konsepsiyasi alohida o‘rin egallaydi. Tadqiqotchilar Avloniyning tarbiya masalasini faqat pedagogik jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida talqin qilganini qayd etadilar. Avloniy ta’limda milliylik va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash zarurligini ilgari surgan bo‘lib, bu masala zamonaviy globallashuv sharoitida ayniqsa dolzarb hisoblanadi.So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda jadid pedagogikasini zamonaviy ta’lim islohotlari bilan integratsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida milliy pedagogik merosga murojaat qilish zarurati ko‘plab ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarda asoslab berilgan[6].

**Tadqiqot muhokamasi.** Jadid pedagogikasining nazariy asoslarini zamonaviy ta’lim tizimi nuqtayi nazaridan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu pedagogik yo‘nalish o‘z davrida ilgari surilgan g‘oyalar bilan cheklanib qolmay, bugungi ta’lim jarayonining metodologik rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, Abdulla Avloniy pedagogik qarashlari ta’limning maqsadi, mazmuni va tashkil etilish tamoyillarini aniqlashda hozirgi pedagogik konsepsiyalar bilan uyg‘unlik kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadid pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan ta’lim va tarbiyaning uzviyligi bugungi ta’lim siyosatining ham ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta’lim jarayonini faqat bilim berish bilan chegaralamay, uni shaxsning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy kamolotini ta’minlovchi tizim sifatida talqin etgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ham o‘quvchilarda nafaqat akademik bilim, balki ijtimoiy kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilanmoqda. Bu jihatdan Avloniy ilgari surgan qarashlar bugungi kompetensiyaviy ta’lim modelining tarixiy asoslari sifatida namoyon bo‘ladi[7].

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, jadid pedagogikasida o‘quvchi shaxsiga individual yondashuv masalasi alohida o‘rin tutadi. Jadid maktablarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olishga e’tibor qaratilgan. Bu esa hozirgi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi bilan to‘liq mos keladi. Abdulla Avloniy o‘qituvchi faoliyatini faqat bilim yetkazish emas, balki tarbiyaviy rahbarlik sifatida baholab, pedagogning shaxsiy namunasi ta’lim samaradorligining muhim omili ekanligini ta’kidlagan. Bugungi kunda pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar aynan shu g‘oyalar bilan hamohangdir.

Tadqiqot muhokamasi jarayonida yana bir muhim jihat — jadid pedagogikasining ijtimoiy yo‘naltirilganligi aniqlandi. Jadid mutafakkirlari ta’limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko‘rib, ma’rifat orqali ijtimoiy muammolarni hal etish mumkinligini asoslab berganlar. Hozirgi davrda inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyot uchun raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash masalalari ham aynan ta’lim sifatiga bog‘liq ekanligi e’tirof etilmoqda.

**Xulosa.** Jadid pedagogikasining nazariy asoslari, ayniqsa Abdulla Avloniy pedagogik qarashlari milliy ta’lim tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim ilmiy hamda metodologik ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot davomida o‘z tasdig‘ini topdi. Jadid mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan ta’lim va tarbiyaning uzviyligi, shaxs kamolotiga yo‘naltirilgan yondashuv, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi kabi tamoyillar bugungi zamonaviy ta’lim konsepsiyalari bilan bevosita mos keladi. Abdulla Avloniy ta’limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholab, barkamol, ma’naviy yetuk va mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalash g‘oyasini ilgari surgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Avloniy, A. (1912/1999). Birinchi muallim. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
3. Avloniy, A. (1915/2003). Ikkinchi muallim. Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. Dolimov, S. (2006). Jadid maktablari va pedagogik tafakkur taraqqiyoti. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Karimov, N. (2001). Jadidchilik harakati tarixi. Toshkent: Sharq nashriyoti.
6. Mavlonova, R., & To‘raqulov, X. (2018). Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Ochilov, M. (2017). Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni.

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 94(575.1)(091)

# 1960-1980-YILLARDA SURXONDARYO VOHASINING DEMOGRAFIK AHVOLI: TARIXIY-STATISTIK TAHLIL

*Abduraxmanov Akmal Yo‘ldoshovich, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*



*https://orcid.org/0009-0003-0830-0649*
*e-mail: abduraxmanov137@gmail.com*

# DEMOGRAPHIC SITUATION OF THE SURKHANDARYA OASIS IN 1960–1980: A HISTORICAL AND STATISTICAL ANALYSIS

*Abdurakhmanov Akmal Yoldoshovich, Senior Lecturer at Termez University of Economics and Service, Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences*

# ДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ СУРХАНДАРЬИНСКОГО ОАЗИСА В 1960–1980 ГОДАХ: ИСТОРИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

*Абдурахманов Акмал Юлдошович, старший преподаватель Термезского университета экономики и сервиса, доктор философии (PhD) по историческим наукам*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada 1960-1980-yillarda O‘zbekistonning janubiy hududi hisoblangan Surxondaryo vohasining demografik holati, aholi o‘sish dinamikasi va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ushbu jarayonlarga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Butunittifoq aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari (1959, 1970, 1979) va arxiv hujjatlari asosida vohadagi tabiiy o‘sish, migratsiya oqimlari hamda urbanizatsiya jarayonlari o‘rganilgan. Maqolada vohada amalga oshirilgan yirik irrigatsiya loyihalari, xususan, Sherobod va Amu-Zang kanallarining qurilishi natijasida yangi erlarning o‘zlashtirilishi aholining hududiy joylashuviga qanday ta’sir ko‘rsatganligi ochib berilgan. Shuningdek, aholi tarkibidagi milliy va jinsiy mutanosiblikning o‘zgarishi, tug‘ilish ko‘rsatkichlarining yuqoriligi va o‘lim darajasining pasayishi kabi demografik o‘tish davriga xos xususiyatlar statistik ma’lumotlar yordamida dalillangan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 1960-1980-yillar Surxondaryo uchun jadal demografik yuksalish davri bo‘lib, bu iqtisodiyotning agrar xarakteri va an’anaviy oila institutining mustahkamligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Surxondaryo, demografiya, aholi o‘sishi, tabiiy ko‘payish, urbanizatsiya, migratsiya, statistika, arxiv ma’lumotlari, irrigatsiya, ijtimoiy tarkib.*

***Abstract:*** *This article scientifically analyzes the demographic situation, population growth dynamics, and the impact of socio-economic factors on these processes in the Surkhandarya oasis, the southern region of Uzbekistan, during the 1960s-1980s. During the study, natural growth, migration flows, and urbanization processes in the oasis were studied based on the data of the All-Union Population Censuses (1959, 1970, 1979) and archival documents. The article reveals how the development of new lands as a result of large irrigation projects, in particular the construction of the Sherabad and Amu-Zang canals, affected the territorial distribution of the population. Also, features of the demographic transition, such as changes in ethnic and gender balance, high birth rates, and decreasing mortality rates, are evidenced using statistical data. The analysis shows that the 1960s-1980s were a period of rapid demographic rise for Surkhandarya, which was directly related to the agrarian character of the economy and the strength of the traditional family institution.*

***Key words:*** *Surkhandarya, demography, population growth, natural increase, urbanization, migration, statistics, archival data, irrigation, social composition.*

***Аннотация:*** *В данной статье научно анализируется демографическое состояние, динамика роста населения и влияние социально-экономических факторов на эти процессы в Сурхандарьинском*

*оазисе, южном регионе Узбекистана, в 1960-1980-х годах. В ходе исследования на основе данных Всесоюзных переписей населения (1959, 1970, 1979) и архивных документов изучены естественный прирост, миграционные потоки и процессы урбанизации в оазисе. В статье раскрывается влияние освоения новых земель в результате реализации крупных ирригационных проектов, в частности строительства Шерабадского и Аму-Зангского каналов, на территориальное распределение населения. Также с помощью статистических данных обоснованы такие особенности демографического перехода, как изменение этнического и полового состава населения, высокая рождаемость и снижение смертности. Анализ показывает, что 1960-1980-е годы были периодом стремительного демографического подъема Сурхандарьи, что было напрямую связано с аграрным характером экономики и прочностью традиционного института семьи.*

***Ключевые слова:*** *Сурхандарья, демография, рост населения, естественный прирост, урбанизация, миграция, статистика, архивные данные, ирригация, социальный состав.*

**KIRISH.** Insoniyat tarixining har bir davrida demografik jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosi va ko‘zgusi bo‘lib xizmat qilgan. XX asrning ikkinchi yarmi, xususan, 1960-1980-yillar O‘zbekiston, jumladan Surxondaryo vohasi uchun nafaqat iqtisodiy islohotlar, balki tub demografik o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Bu davrda viloyat iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligiga, xususan, paxtachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, bu holat aholining turmush tarzi va ko‘payishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Janubiy mintaqaning o‘ziga xos iqlimiy sharoiti va sovet davridagi markazlashgan boshqaruv tizimi demografik siyosatni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi [1; 45-b].

1960-yillarning boshlarida Surxondaryo viloyati ma’muriy jihatdan bir qator o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. 1960-yil 25-yanvarda viloyat Qashqadaryo viloyati bilan birlashtirilib, 1964-yil fevral oyida yana mustaqil ma’muriy birlik sifatida qayta tashkil etilishi demografik hisob-kitoblarda o‘ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqardi. Shunga qaramay, bu davrda vohada aholi sonining o‘sish sur’atlari respublika darajasidan yuqori bo‘lganligi kuzatiladi. Bu holat, bir tomondan, an’anaviy serfarzandlik an’analari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, sog‘liqni saqlash tizimining yaxshilanishi va bolalar o‘limining kamayishi bilan izohlanadi [3; 112-b].

Irrigatsiya va melioratsiya ishlari 1960-1980-yillarda Surxondaryo demografiyasining asosiy drayveriga aylandi. Sherobod cho‘lining o‘zlashtirilishi, Amu-Zang va Janubiy Surxon suv omborlarining ishga tushirilishi natijasida minglab gektar yangi erlar dehqonchilikka kiritildi. Bu esa, o‘z navbatida, nafaqat ichki migratsiyani, balki qo‘shni viloyatlardan ham aholining oqib kelishini ta’minladi. Yangi tashkil etilgan sovxozlar va qishloq aholi punktlari vohaning demografik xaritasini butunlay o‘zgartirib yubordi [5; 28-b].

Urbanizatsiya jarayonlari ham ushbu yillarda o‘ziga xos tarzda kechdi. Termiz shahri viloyat markazi sifatida jadal rivojlandi, shuningdek, Denov, Jarqo‘rg‘on va Sherobod kabi tuman markazlari shahar maqomini oldi. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, urbanizatsiya asosan ma’muriy xarakterga ega bo‘lib, aholining katta qismi (taxminan 65-70%) hamon qishloq joylarda istiqomat qilishda davom etdi. Bu esa mintaqaning demografik yuklamasini qishloq infratuzilmasiga yo‘naltirdi[8; 77-b].

Ushbu maqolaning maqsadi 1960-1980-yillarda Surxondaryo vohasida kechgan demografik jarayonlarni statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilish, aholi soni va tarkibidagi o‘zgarishlarning sabab-oqibatlarini yoritib berishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida vohaning doimiy aholisi, uning tabiiy va mexanik harakati olingan. Mazkur davrni o‘rganish bugungi kunda mintaqada olib borilayotgan demografik siyosatni to‘g‘ri baholash va istiqbolni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi[10; 12-b].

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.** Surxondaryo vohasining demografik tarixi va aholishunoslik muammolari bir qator o‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, R. Mullajonovning O‘zbekiston aholisiga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlarida 1960-1980-yillardagi demografik portlash jarayonlari respublika miqyosida tahlil qilingan bo‘lsa-da, Surxondaryo mintaqasining o‘ziga xos xususiyatlari kamroq yoritilgan. Tarixchi olim S. Tursunov va uning hammuallifligidagi “Surxondaryo tarixi” asarida vohaning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bir qatorda aholining joylashuv tartibi va etnik tarkibi bo‘yicha muhim ma’lumotlar keltirilgan [2; 156-b]. Shuningdek, I.Mullajonovning demografik jarayonlar tahliliga oid ishlarida janubiy viloyatlardagi tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlarining o‘zaro nisbati dinamikasi ko‘rsatib o‘tilgan.

Sovet davri statistik to‘plamlari va Butunittifoq aholini ro‘yxatga olish natijalari (1959, 1970, 1979-yillar) ushbu mavzu bo‘yicha eng ishonchli manbalar hisoblanadi. Biroq, sobiq ittifoq davridagi demografik ma’lumotlarning bir qismi ideologik sabablarga ko‘ra yopiq saqlangan yoki bo‘rttirib ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkinligi bois, ularni tanqidiy tahlil qilish talab etiladi. Keyingi yillarda T.Pardayev, E.Qobilov kabi tadqiqotchilar vohaning mahalliylashgan demografik va ijtimoiy manzarasini arxiv materiallari asosida to‘ldirishga harakat qilishgan [4; 90-b]. Shunga qaramay, 1960-1980-yillardagi aynan demografik o‘zgarishlarni yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiquvchi maxsus tadqiqotlar hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

**METODOLOGIYA.** Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik guruhlash va demografik prognozlash metodlaridan foydalanildi. Asosiy e’tibor 1959, 1970 va 1979-yillarda o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish materiallarini o‘zaro solishtirishga qaratildi. Bu usul yigirma yillik davr ichida aholi sonining o‘sish sur’atlarini aniq raqamlarda ifodalash imkonini berdi. Ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash uchun Surxondaryo viloyati davlat arxivining ijtimoiy ta’minot va statistika bo‘limlari fondlaridan olingan hisobotlar bilan qiyosiy o‘rganildi.

Demografik ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti (TUK) va o‘limning umumiy koeffitsiyenti (O‘UK) kabi xalqaro standartlardan foydalanildi. Shuningdek, urbanizatsiya darajasini aniqlashda shahar va qishloq aholisining foizdagi nisbati hisoblab chiqildi. Mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda, aholining hududiy joylashuvi irrigatsiya inshootlarining qurilishi bilan bog‘liq holda kartografik metodlar yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv tanlandi. Bunda demografik jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan ajralmas bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi. Masalan, sog‘liqni saqlash punktlarining ko‘payishi o‘lim darajasiga, ayollarning mehnatga jalb qilinishi esa tug‘ilish dinamikasiga qanday ta’sir ko‘rsatganligi sotsiologik-tarixiy prizma orqali yoritildi. Bu yondashuv vohaning 1960-1980-yillardagi demografik portretini to‘liqroq chizishga xizmat qildi.

**TAHLIL VA NATIJA.** 1960-1980-yillarda Surxondaryo viloyatining demografik rivojlanishi juda yuqori sur’atlar bilan xarakterlanadi. 1959-yilgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra, viloyat aholisi taxminan 412,2 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 1970-yilga kelib bu ko‘rsatkich 662,9 ming kishiga etdi. Bu o‘n yil ichida aholining 60% dan ko‘proqqa o‘sganini anglatadi. Bunday jadal o‘sishning asosiy sababi tabiiy ko‘payish bo‘lib, har 1000 kishiga tug‘ilish koeffitsiyenti 35-40 promilleni tashkil etgan.

Ushbu davrda aholining jinsiy tarkibi ham asta-sekin muvozanatlashib bordi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda ayollar ulushining yuqoriligi kuzatilgan bo‘lsa, 1970-yillarga kelib erkaklar va ayollar nisbati deyarli tenglashdi. Quyidagi jadvalda Surxondaryo vohasi aholisining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi aks ettirilgan.

***1-jadval. Surxondaryo viloyati aholisining o‘sish dinamikasi (1959-1979-yy.)***

| Ko‘rsatkichlar | 1959-yil | 1970-yil | 1979-yil |
|---|---|---|---|
| Jami aholi soni (ming kishi) | 412,2 | 662,9 | 897,2 |
| Shahar aholisi (%) | 22,4 | 24,1 | 26,8 |
| Qishloq aholisi (%) | 77,6 | 75,9 | 73,2 |
| Yillik o‘rtacha o‘sish (%) | 2,8 | 3,2 | 3,0 |

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, shahar aholisining ulushi o‘sib borgan bo‘lsa-da, qishloq aholisi hamon mutlaq ustunlikka ega edi. Bu Surxondaryo iqtisodiyotining agrar yo‘nalishda ekanligidan dalolat beradi. Shahar aholisining o‘sishi asosan Termiz, Denov va yangi tashkil etilgan Sho‘rchi, Sherobod kabi shaharlar hisobiga to‘g‘ri kelgan.

Aholining hududiy joylashuvida irrigatsiya omili hal qiluvchi rol o‘ynadi. 1960-yillarda Sherobod va Muzrabot cho‘llarining o‘zlashtirilishi natijasida aholi zichligi past bo‘lgan hududlarda yangi aholi punktlari paydo bo‘ldi. Masalan, Sherobod tumanida aholi soni yigirma yil ichida qariyb 2,5 barobarga ko‘paydi. Quyida ushbu davrdagi voha qishloq xo‘jaligi va aholi manzilgohlari manzarasini tasvirlovchi rekonstruksiya keltirilgan.

Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 1970-1979-yillar oralig‘ida aholining migratsion harakati ham sezilarli bo‘lgan. Viloyatga asosan qo‘shni Tojikiston SSR va O‘zbekistonning markaziy

viloyatlaridan mutaxassislar va ishchi kuchi oqib kelgan. Shu bilan birga, tub aholi orasida migratsiya darajasi juda past bo‘lib, bu voha aholisining an’anaviy yashash tarziga sodiqligini ko‘rsatadi. 1980-yilga kelib, Surxondaryo aholisi 900 ming kishilik chegaradan oshib o‘tdi, bu esa mintaqada ijtimoiy infratuzilmani (maktablar, shifoxonalar) kengaytirish zaruriyatini tug‘dirdi [12; 22-b].

**MUHOKAMA.** 1960-1980-yillarda Surxondaryo vohasida kuzatilgan demografik jarayonlar o‘sha davrdagi umumittifoq va respublika tendensiyalaridan bir qator jihatlari bilan ajralib turadi. Birinchidan, vohadagi tabiiy o‘sish sur’atlari nafaqat SSSRning Yevropa qismidan, balki O‘zbekistonning sanoatlashgan hududlaridan (Toshkent, Farg‘ona) ham yuqori bo‘lgan. Bu holat Surxondaryoda patriarxal oila munosabatlarining saqlanib qolganligi va qishloq xo‘jaligida qo‘l mehnatiga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligi bilan izohlanadi [6; 114-b]. Ikkinchidan, urbanizatsiya jarayonining o‘ziga xosligi shundaki, shaharlar aholisi asosan ma’muriy xizmatchilar va sanoat ishchilari hisobiga o‘sgan bo‘lsa, qishloq aholisining mutlaq soni barqaror o‘sib bordi. Bu hodisa demografiya fanida “soxta urbanizatsiya” yoki sekinlashgan urbanizatsiya deb ataladi. Shaharlar qishloq aholisini o‘ziga to‘liq jalb qila olmadi, natijada qishloq joylarda aholi zichligi ortib, er-suv resurslariga bo‘lgan bosim kuchaydi. Uchinchidan, ijtimoiy infratuzilmaning aholi o‘sish sur’atlaridan orqada qolishi jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. 1970-yillarning oxiriga kelib, viloyatda maktabgacha ta’lim muassasalari va tibbiyot punktlari etishmovchiligi sezila boshladi. Paxta yakkahokimligi sharoitida aholining turmush darajasi demografik yuklama tufayli sekin ko‘tarildi. Shuningdek, 1960-1980-yillarda vohaning etnik tarkibida ham o‘zgarishlar yuz berdi: o‘zbeklar ulushi ortib borgani holda, boshqa millat vakillari asosan shaharlarda to‘plangan edi. Bu jarayonlar mintaqaning keyingi yillardagi ijtimoiy-siyosiy barqarorligi va madaniy rivojlanishiga poydevor bo‘lib xizmat qildi [14; 55-b].

**XULOSA.** 1960-1980-yillar Surxondaryo vohasi tarixida demografik yuksalish va tarkibiy o‘zgarishlar davri sifatida muhrlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yigirma yil ichida voha aholisi ikki barobardan ko‘proqqa ko‘payib, mintaqaning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini tubdan o‘zgartirdi. Bu davr uchun xos bo‘lgan yuqori tug‘ilish va pasaygan o‘lim darajasi mintaqaning demografik yoshligini ta’minladi, biroq ijtimoiy infratuzilmaga og‘ir yuk bo‘lib tushdi.

Irrigatsiya va yangi erlarning o‘zlashtirilishi aholini hududlar bo‘yicha qayta taqsimlashda asosiy omil bo‘ldi. Sherobod cho‘li va boshqa tumanlarga aholining ko‘chirilishi vohaning xo‘jalik qiyofasini shakllantirdi. Urbanizatsiya jarayonlari esa shaharlarning o‘sishiga olib kelgan bo‘lsa-da, Surxondaryo hamon agrar-industrial hudud bo‘lib qolaverdi. Mazkur davrdagi demografik tajriba shuni ko‘rsatadiki, aholi sonining tez o‘sishi iqtisodiy resurslar va ijtimoiy xizmatlar bilan mutanosib ravishda boshqarilishi lozim. Ushbu tarixiy saboqlar bugungi kunda viloyatdagi demografik va bandlik siyosatini ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Муллажонов И.Р. Ўзбекистон аҳолиси. - Тошкент: Ўзбекистон, 1967. - 240 б.
2. Турсунов С. ва бошқалар. Сурхондарё тарихи. - Тошкент: Шарқ, 2004. - 608 б.
3. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. - Тошкент: Шарқ, 2000. - 688 б.
4. Пардаев Т.Р. Жанубий Ўзбекистон шаҳарлари ижтимоий ҳаёти. - Тошкент: Фан, 1996. - 120 б.
5. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 452-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish.
6. Муллажонов Р. Аҳоли ва меҳнат ресурслари. - Тошкент: Меҳнат, 1989.-156 б.
7. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1970 г. Статистический ежегодник. - Ташкент: Узбекистан, 1971. - 350 с.
8. Ртвеладзе Э. Сурхондарё. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996. - 180 б.
9. Итоги Всесоюзной переписи населения 1959 года. Узбекская ССР. - М.: Госстатиздат, 1962.
10. Итоги Всесоюзной переписи населения 1979 года. Том 1. - М.: Финанси и статистика, 1981.
11. Каримов И. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
12. Азаматов М. Сурхон воҳаси ирригацияси тарихи. - Термиз: Жайҳун, 1994. - 88 б.
13. Ҳамроев А.И. Сурхондарё вилоятида демографик жараёнлар // Кибер Ленинка илмий журнали. 2023.
14. Рўзиев А.Н. Сурхондарё вилояти иқтисодий-ижтимоий тавсифи. - Тошкент: Ўзбекистон, 1982. - 96 б.
15. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 8-жилд. - Тошкент: ЎзМЕ, 2004.

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 342.727

# O‘ZBEKISTONNING RAQAMLI MAKONIDA INTERNET-KONTENTNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

***Choriyeva Charos Burhonovna, Toshkent davlat yuridik universiteti “Ommaviy axborot vositalari huquqi” mutaxassisligi magistranti***



***https://orcid.org/0009-0002-1453-5156***
***e-mail: charoschorieva2703@gmail.com***

# LEGAL REGULATION OF INTERNET CONTENT IN UZBEKISTAN’S DIGITAL SPACE: PROBLEMS AND SOLUTIONS

***Choriyeva Charos Burhonovna, Tashkent State University of Law, Master’s student in “Mass Media Law”***

# ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНТЕРНЕТ-КОНТЕНТА В ЦИФРОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

***Чориева Чарос Бурхоновна, Ташкентский государственный юридический университет, магистрант по специальности “Право средств массовой информации”***

***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbekistonning raqamli makonida internet-kontentni huquqiy tartibga solish tizimi tahlil qilinadi. Muallif so‘z erkinligi kafolatlari va kibertahdidlardan himoya qilish o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni statistik ma’lumotlar hamda sud amaliyoti asosida ochib berib, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *internet-kontent, raqamli senzura, so‘z erkinligi, axborot huquqi, O‘zbekiston, ijtimoiy tarmoqlar, sud amaliyoti, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlar, sun’iy intellekt.*

***Abstract:*** *The article analyzes the legal regulation of internet content within Uzbekistan’s digital space. The author identifies inconsistencies between free speech guarantees and cybersecurity measures through statistics and case studies, offering recommendations to improve the legal framework.*

***Keywords:*** *internet content, digital censorship, freedom of speech, information law, Uzbekistan, social networks, judicial practice, cybersecurity, personal data, artificial intelligence.*

***Аннотация:*** *В статье анализируется система правового регулирования интернет-контента в цифровом пространстве Узбекистана. Автор выявляет несоответствия между гарантиями свободы слова и мерами кибербезопасности на основе статистики и судебной практики, предлагая рекомендации по совершенствованию законодательства.*

***Ключевые слова:*** *интернет-контент, цифровая цензура, свобода слова, информационное право, Узбекистан, социальные сети, судебная практика, кибербезопасность, персональные данные, искусственный интеллект.*

**Kirish.** Raqamli transformatsiya va internetning jamiyat hayotidagi o‘rni tobora ortib borayotgan bugungi kunda internet-kontentni huquqiy tartibga solish masalasi dunyoning barcha davlatlari, jumladan, O‘zbekiston uchun ham dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylangan. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida internet foydalanuvchilari soni keskin oshdi. 2026-yil ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakat aholisining 31 million nafari internetdan foydalanadi, faol ijtimoiy tarmoq

foydalanuvchilari esa 14 million kishini tashkil etadi[1]. Ushbu jarayon, bir tomondan, fuqarolarning axborot olish va so‘z erkinligi huquqlarini kengaytirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kibertahdidlar, ekstremistik targ‘ibot, firibgarlik va boshqa noqonuniy kontent xavfini ham oshirdi. Mazkur vaziyat davlat oldiga ikki muhim vazifani qo‘yadi: birinchidan, fuqarolarni kibermakon tashdidlaridan himoya qilish; ikkinchidan, so‘z erkinligi va axborot olish huquqini kafolatlash. Ushbu ikki yo‘nalish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash har bir davlat raqamli siyosatining asosiy muammosi hisoblanadi. O‘zbekiston uchun bu masala alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mamlakat raqamli iqtisodiyotga o‘tish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish va xalqaro axborot maydoniga integratsiyalashish kabi strategik maqsadlarni belgilagan. Tadqiqotning asosiy maqsadi - O‘zbekiston Respublikasida internet-kontentni huquqiy tartibga solish tizimini kompleks tahlil qilish, amaldagi qonunchilik va uni qo‘llash amaliyoti o‘rtasidagi tizimli muammolarni aniqlash hamda ularni hal qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu tahlil natijasida ishlab chiqilgan xulosa va takliflar milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda raqamli makonda inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Internet-kontentni tartibga solish muammolari xalqaro huquqshunoslikda keng o‘rganilgan mavzulardan biridir. Mavjud adabiyotlarni quyidagi yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

*Xalqaro tadqiqotlar.* AQSHda D.S.Citron va J.M.Balkin [2,3] kibermakonda so‘z erkinligi va shaxsiy daxlsizlik masalalarini tadqiq etgan. Citron “sudralib keluvchi senzura” tushunchasini kiritib, texnologik platformalar orqali so‘z erkinligiga bilvosita ta’sir qilish mexanizmlarini tahlil qilgan. Balkin esa “algoritmik jamiyat”da so‘z erkinligining transformatsiyasini o‘rganib, xususiy platformalarning kontentni moderatsiya qilish vakolatlari davlat tomonidan tartibga solishdan ko‘ra jiddiyroq xavf tug‘dirishi mumkinligini ko‘rsatgan. Yevropa Ittifoqida Raqamli xizmatlar to‘g‘risidagi qonun doirasida platformalar javobgarligi va kontentni moderatsiya qilish masalalari intensiv tadqiq etilmoqda [4].

*O‘zbekiston bo‘yicha tadqiqotlar.* O‘zbekiston kontekstida mavzu bo‘yicha tadqiqotlar nisbatan cheklangan. M.T.Olimov va Sh.R.Haydarov [5,6] O‘zbekiston axborot qonunchiligining umumiy holatini o‘rganib, asosan normativ-huquqiy bazaning tuzilmasini tavsiflagan. Biroq ushbu tadqiqotlarda amaliyotdagi real muammolar chuqur tahlil qilinmagan. Xalqaro tashkilotlarning hisobotlari O‘zbekistonda so‘z erkinligi, kontentni blokirovka qilish va jurnalistlarning ta’qibi masalalarini yoritadi, ammo ular asosan baholash xarakteriga ega [7]. Qiyosiy tadqiqotlar asosan qonunchilik normalarini taqqoslaydi, amaliyotdagi tafovutlar esa yetarlicha o‘rganilmagan. Yuqoridagi tahlildan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston internet-kontentini tartibga solish tizimining kompleks, tizimli ilmiy tahlili - qonunchilik bazasi, uni qo‘llash amaliyoti, yuzaga kelayotgan muammolar va ularning sabablari hozirgacha to‘liq amalga oshirilmagan. Ushbu ilmiy bo‘shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqot sifatli huquqiy tadqiqot bo‘lib, unda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, sud amaliyotini o‘rganish va qiyosiy-huquqiy metodlar qo‘llanilgan.

**Natijalar.** Tadqiqot natijasida O‘zbekiston Respublikasida internet kontentini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimining asosiy tarkibiy elementlari aniqlandi. Konstitutsiyaviy asos sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 81-82-moddalarida so‘z va matbuot erkinligi hamda axborot olish huquqi kafolatlangan[8]. Shu bilan birga, mazkur huquqlar qonun bilan belgilangan cheklovlar doirasida amalga oshirilishi qayd etilgan. Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar qatoriga “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi[9] Qonuni kiradi. Unda sun’iy intellekt tushunchasi, shuningdek, shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga oid qoidalar belgilangan. “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi[10] Qonun esa Raqamli texnologiyalar vazirligining vakolatlarini kengaytirgan. Yangi normativ yangiliklar doirasida sun’iy intellekt tushunchasi quyidagicha ifodalangan: inson bilim va ko‘nikmalarini taqlid qiluvchi, mustaqil o‘rganish va qaror qabul qilish imkoniyatiga ega texnologik yechimlar majmui. Shu bilan birga, sun’iy intellekt

TAMADDUN NURI

yordamida shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy qayta ishlash uchun 50-100 BHM miqdorida jarima belgilangan. Tarmoq odobi buzilgan taqdirda esa 10 sutkagacha ma’muriy qamoq yoki muqobil ravishda jarima qo‘llanilishi nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan yuritiladigan taqiqlangan ekstremistik va terroristik materiallar reyestrining dinamikasi tahlili sezilarli o‘sish tendensiyasini ko‘rsatadi. Xususan, 2024-yil yanvar holatiga reyestrda 800ta material mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yil yanvariga kelib ularning soni 1389taga yetgan (o‘sish sur’ati – 73,6%). 2026-yil yanvar holatiga esa mazkur ko‘rsatkich 1593 taga yetgan (o‘sish sur’ati – 14,7%). Platformalar kesimida taqsimot shuni ko‘rsatadiki, asosiy ulush ijtimoiy tarmoqlarga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Telegram platformasiga tegishli materiallar 49,6% ni tashkil etadi (790 ta). Shuningdek, Instagram – 16,6%, Facebook – 15,6%, YouTube – 10,5% va TikTok – 3,3% ulushga ega[11]. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil davomida 30 mingdan ortiq fuqaro tuhmat va haqorat moddalari asosida javobgarlikka tortilgan bo‘lib, ulardan 200 dan ortig‘iga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanilgan. Tadqiqot doirasida bir qator amaliy holatlar tahlil qilindi. Ular orasida eng ko‘p uchraydiganlari quyidagilardan iborat: birinchi holatda, ijtimoiy tarmoqdagi izohi sababli 20 yoshli fuqaro davlat rahbarini haqorat qilish aybi bilan 2,5 yilga ozodlikdan mahrum etilgan va apellyatsiya instansiyasi tomonidan hukm o‘zgarishsiz qoldirilgan. Ikkinchi holatda, bloger Kabul Dusov ta’lim tizimidagi muammolarni tanqid qilgani hamda korrupsiya haqida murojaat qilgani uchun 5 yil 2 oy muddatga ozodlikdan mahrum etilgan. Uchinchi holatda, jurnalist Akmal Eshonxonov sud tizimiga oid tanqidiy maqolalari uchun ma’muriy javobgarlikka tortilib, jarima qo‘llanilgan. Mazkur holatlar amaliyotda so‘z erkinligi va jinoiy javobgarlik o‘rtasidagi murakkab muvozanat mavjudligini ko‘rsatadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan baholar O‘zbekistonda internet erkinligi va kontentni tartibga solish tizimining ayrim jihatlari hali takomillashtirishga muhtoj ekanligini ko‘rsatadi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasida internet kontentini tartibga solish sohasida normativ-huquqiy baza va uni qo‘llash amaliyoti o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Konstitutsiyaning 81-82-moddalarida so‘z erkinligi va axborot olish huquqi kafolatlangan bo‘lsa-da, amaliyotda 30 mingdan ortiq fuqaroning tuhmat va haqorat moddalari asosida javobgarlikka tortilishi kuzatiladi. Mazkur holat huquq nazariyasida “qog‘ozdagi huquq” va “amal qilayotgan huquq” o‘rtasidagi klassik tafovutni yaqqol namoyon etadi. Ushbu tafovutning asosiy sabablari sifatida bir nechta omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, huquqiy normalarning noaniqligi - “odobsiz so‘zlar”, “tartibni buzish” kabi tushunchalarning aniq mezonlarga ega emasligi huquqni qo‘llovchi organlarga keng diskretsiya vakolatlarini beradi. Ikkinchidan, mustaqil sud nazoratining yetarli darajada shakllanmaganligi - xalqaro baholashlarga ko‘ra, mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha juda past natijalar qayd etilgan. Uchinchidan, sud tizimining institutsional mustaqilligi bilan bog‘liq muammolar mavjud. O‘zbekiston modeli ayrim jihatlari bilan Rossiya va Xitoy modellariga yaqinlashmoqda, biroq Xitoydagi kabi rivojlangan texnologik filtratsiya infratuzilmasiga ega emas. Yevropa Ittifoqining Digital Services Act (DSA) modeli esa muvozanatli yondashuvni taklif etadi - bunda platformalarga muayyan majburiyatlar yuklatilishi bilan birga, foydalanuvchilarning asosiy huquqlari, xususan so‘z erkinligi himoya qilinadi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda internet kontentini tartibga solish tizimining kompleks holatini ochib berdi va bir qator muhim xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Birinchidan, normativ-huquqiy baza jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, uning amaliy qo‘llanilishi ko‘pincha konstitutsiyaviy kafolatlar va xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmaydi. Ikkinchidan, kontentni blokirovka qilish tizimi sezilarli darajada kengaygan bo‘lsa-da, uning shaffofligi va hisobdorligi yetarli emas. Uchinchidan, so‘z erkinligi bilan bog‘liq jinoiy ta’qiblar eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda va bu holat jamiyatda o‘z-o‘zini tsenzura qilish tendensiyasini kuchaytiradi. To‘rtinchidan, kiberxavfsizlik choralarini ishlab chiqishda huquqiy aniqlik va shaxsiy javobgarlik tamoyillariga qat’iy rioya etilishi zarur. Beshinchidan, sun’iy intellektni tartibga solish sohasida qilingan dastlabki qadamlar ijobiy

baholanishi mumkin, biroq ularning amaliy samaradorligi hali to‘liq shakllanmagan.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. Liability Established for the Illegal Processing of Personal Data Using Artificial Intelligence // Government Portal of the Republic of Uzbekistan. – 2026. – URL: https://gov.uz/en/digital/news/view/122739
2. Balkin J.M. Algoritmik jamiyatda so‘z erkinligi: katta ma’lumotlar, xususiy boshqaruv va nutqni tartibga solishning yangi maktabi // UC Davis Law Review. – 2018. – 51-tom, 3-son. – 1149–1210-betlar.
3. Citron D.S. Ekstremistik nutq, majburiy muvofiqlik va senzuraning kengayishi // Notre Dame Law Review. – 2018. – 93-tom, 3-son. – 1035–1072-betlar.
4. European Commission. The Digital Services Act: Ensuring a Safe and Accountable Online Environment // EU Legislation. – 2022. – URL: https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/policies/digital-services-act-package
5. Olimov M.T. O‘zbekiston axborot huquqining rivojlanish tendensiyalari // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. – 2024. – 2-tom, 1-son. – 45–58-betlar.
6. Haydarov Sh.R. Internet-kontentni huquqiy tartibga solish: muammolar va yechimlar // Axborot xavfsizligi va huquq. – 2023. – 4-tom, 2-son. – 23–35-betlar.
7. OSCE ODIHR & RFoM. Uzbekistan’s draft information code shows promise but still needs improvement // OSCE. - 2024. - URL: https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media/571234
8. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 2023. – URL: https://lex.uz/docs/-6445145#-6445734
9. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi (LexUZ). – URL: https://lex.uz/docs/-83472
10. O‘zbekiston Respublikasining Telekommunikatsiyalar to‘g‘risidagi Qonuni: yangi tahriri, 2024-yil 20-dekabr // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 2024.URL: https://lex.uz/docs/-7283071
11. Taqiqlangan kontentlar ro‘yxati e’lon qilindi, ro‘yxat bir yilda sezilarli kengaydi // Anhor.uz. – 2026, 13-yanvar. – URL: https://anhor.uz/uzl/news/taqiqlangan-kontentlar-ro-yxati/


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 343.13:343.98

# XORIJIY MAMLAKATLAR JINOYAT PROTSESSIDA TEZKOR QIDIRUV FAOLIYATI: QIYOSIY TAHLIL

[1]*Atamirzayev Ibroxim Xakimovich, Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti "Jinoyat protsessual huquqi" kafedrasi mudiri yu.f.d. (PhD)*

[2]*Ibragimov Mansur Artiqmashrabovich, Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti "Jinoyat protsessual huquqi" kafedrasi katta o'qituvchisi*



*https://orcid.org/0009-0008-1230-1261*
*e-mail: ibrohim80@gmail.com*

# OPERATIONAL-SEARCH ACTIVITY IN THE CRIMINAL PROCESS OF FOREIGN COUNTRIES: A COMPARATIVE ANALYSIS

[1]*Atamirzayev Ibrokhim Khakimovich, Head of the Department of Criminal Procedural Law, Faculty of Law, Namangan State University, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)*

[2]*Ibragimov Mansur Artiqmashrabovich, Senior Lecturer of the Department of Criminal Procedural Law, Faculty of Law, Namangan State University*



*https://orcid.org/0009-0000-2473-2271*
*e-mail: ibragimov78@gmail.com*

# ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

[1]*Атамирзаев Иброхим Хакимович, заведующий кафедрой уголовно-процессуального права юридического факультета Наманганского государственного университета, доктор философии по юридическим наукам (PhD)*

[2]*Ибрагимов Мансур Артикмашрабович, старший преподаватель кафедры уголовно-процессуального права юридического факультета Наманганского государственного университета*

***Annotatsiya:*** *Mazkur ilmiy maqolada xorijiy mamlakatlar jinoyat protsessida tezkor qidiruv faoliyatini tashkil etish va uni amalga oshirish bilan bog'liq masalalar hamda tartibga soluvchi qonunchilik va tezkor qidiruv bilan bog'liq bo'lgan masalalar haqida fikr yuritilgan va xorijiy davlat misolida tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** Xabeas Korpus, tezkor-qidiruv, ekspert xulosasi, ashyoviy dalillar, fototasvirlar, videoyozuv, provakator, agent.

***Аннотация:*** *В данной научной статье рассмотрены и проанализированы на примере зарубежного государства вопросы, связанные с организацией и осуществлением оперативно-розыскной деятельности в уголовном процессе зарубежных стран, а также вопросы, связанные с нормативным законодательством и быстрым расследованием.*

***Ключевые слова:*** *Хабеас корпус, быстрый поиск, экспертное заключение, материал, улики, фотографии, видеозапись, провокатор, агент.*

***Annotation:*** *This scientific article considers issues related to the organization and development of quick search activities in criminal proceedings of foreign countries, as well as issues related to regulatory legislation and quick search, and analyzes them using the example of a foreign country.*

***Keywords:*** *Habeas Corpus, quick search, expert opinion, material evidence, photographs, video recording, provocateur, agent.*

**Kirish**. Huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar faoliyatida qonunchilikka amal qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish, “Xabeas Korpus” institutini yanada kengaytirish, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish kabi muhim vazifalarni ilgari suradi[1]. Ushbu vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishda mamlakatimizning ichki ishlar tizimida jahon tajribasining eng samarali tomonlarini ham qo‘llash o‘zining ijobiy natijasini beradi.

Jumladan, tergov harakatlarini o‘tkazishda tezkor qidiruv axborotlaridan foydalanishning jahon tajribasi borasida ham vazifalar belgilansa, adolatlilik g‘oyalariga hamohang deb hisoblayman. Zero, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida so‘nggi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar dunyo jamoatchiligi tomonidan ijobiy qarshilanyapti.

Bu borada “Xabeas korpus” institutini rivojlantirish, qonun ustuvorligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilish sohasida islohotlar ayniqsa, jadal olib borilmoqda.

Jinoyat protsessi nazariyasi va sud-tergov amaliyoti bilan bog‘liq muammolarni hal etishda tergovchining tezkor qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi organlar bilan hamkorligini tartibga soluvchi normalarni ishlab chiqish, bu borada xalqaro va rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish jinoyatlarni ochish va tergov qilishda tezkor qidiruv faoliyatining imkoniyatlaridan samarali mexanizmini ishlab chiqish, huquqni qo‘llash amaliyotida uchraydigan jinoyat-protsessual muammolarning ilmiy-nazariy va amaliy echimini topish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish tergov organlari va tezkor qidiruv bo‘linmalari o‘rtasidagi xamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim axamiyat kasb etadi.

Alohida tergov harakatlarida va ularni o‘tkazishda tezkor-qidiruv axborotlaridan foydalanishning taktik usullari borasida ayrim xorijiy davlatlarning tajribasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, tezkor-qidiruv axborotlari va natijalarini dalillarga aylantirish va ulardan foydalanish muammosi xorijiy mamlakatlar qonunchiligida ham muhim hisoblanadi[2].

Xususan, Rossiya Federatsiyasi «Tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunining 11-moddasiga muvofiq tezkor qidiruv faoliyati natijasida olingan haqqoniy ma’lumotlar protsessual qonunning dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashni tartibga soluvchi normalariga amal qilgan holda tegishli tartibda tekshirilganidan hamda rasmiylashtirilganidan keyin jinoyat protsessiga kiritilsagina jinoyat ishlari bo‘yicha dalil bo‘lib hisoblanadi[3].

Tezkor qidiruv faoliyati natijalari va axborotlaridan dalil sifatida foydalanish masalasi xususida amaldagi Rossiya Federatsiyasi JPKning 89-moddasida agar «Tezkor qidiruv faoliyati natijalari ushbu Kodeksda dalillarga qo‘yilgan talablarga javob bersa, ulardan isbot qilish jarayonida foydalanish mumkinligi» ta’kidlangan.

AQSh Oliy Sudi amaliyotida tezkor qidiruv ma’lumotlari sudda dalil sifatida qabul qilinadi hamda ayblovning asosiy ma’lumotlari bo‘lib xizmat qiladi va sud majlisida unda tezkor qidiruv xizmati xodimi ayblovning asosiy guvohi sifatida ishtirok etadi.

Shuningdek, AQShda sudya ayblanuvchini qamoqqa olishda va yoki tintuv o‘tkazish haqida qarorni uchinchi shaxs xabarini ko‘rsatib, ma’lumot taqdim etgan maxfiy xizmat xodimi ko‘rsatmasiga ko‘ra qabul qilishi mumkin. Ushbu qoidalar bizni qonunchilikdan ancha farqli ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Germaniya konunchiligida gumon qilinuvchi, ayblanuvchining yakin qarindoshlaridan tezkor qidiruv tadbirlarini o‘tkazish orqali to‘plangan a’lumotlar dastlabki tergov va sudda dalil sifatida qabul qilinmasligi belgilab qo‘yilgan.

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi tomonidan anonim guvohning ko‘rsatuvlari sudlanuvchining jinoyat sodir etishdagi aybdorligini isbotlovchi yagona yoki asosiy dalil bo‘lmasa, bu ko‘rsatuvlarni jinoyat ishi bo‘yicha

dalil sifatida qo‘llashning qonuniyligini tan olish pretsedentini inkor etadi.

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlar jinoiy guruh tomonidan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va sodir etish uchun foydalanilishi mumkin. Shu sababli Rossiya Federatsiyasi «Tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunida maxsus texnik vositalar yordamida so‘zlashuvlarni yashirin eshitish nazarda tutilgan. Bu tadbir tezkorqidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ boshlig‘ining qarori bo‘yicha sud sanksiyasi bilan o‘tkaziladi.

Shuningdek, Tojikiston jinoyat-protsessual kodeksida dalillarni to‘plash bilan bog‘liq moddalarida ish uchun ahamiyatli holatlar bo‘yicha tezkor qidiruv faoliyati natijalaridan ham foydalanish mumkinligi ko‘rsatilgan. Xuddi shu kabi qoida Qozog‘iston qonunchiligida ham bor.

Shuningdek, Qozog‘iston Jinoyat protsessual kodeksida tezkor-qidiruv tadbirlarida to‘plangan yashirin yozuvlar, eshitilib qayd etilgan telefon suhbatlari, elektron video va audioyozuvlar ham dalil sifatida tegishli tartibda qabul qilinishi mumkinligi belgilangan[4]. Ozarbayjon qonunchiligida shaxslarning huquqlarini faqat sud qarori bilan cheklanganidan keyin olingan tezkor qidiruv natijalari dalil sifatida qo‘llanish mumkinligi belgilangan.

Estoniya Jinoyat protsessual kodeksining dalillarga tegishli moddalarida dalillar sifatida sud majlisi bayonnomalari tezkor-qidiruv ma’lumotlari, tergov harakatlari bayonnomalari, ekspert xulosasi, ashyoviy dalillar va fototasvirlar, videoyozuvlar va boshqa turdagi yozuvlar ham dalil sifatida qabul qilinishi belgilangan.

Yuqorida keltirilgan misollar va amaliyot tajribasidan ayonki, jahon taraqqiyoti bilan hamnafaslik, islohotlardan cho‘chimaslik mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish, jinoyatlarning oldini olish, ularni ochish va tergov qilishda huquqni muhofaza qilish organlarining o‘zaro hamda idoraviy hamkorligini ta’minlash, bu boradagi qaratilgan xalqaro va milliy mexanizmlarni takomillashtirish, chuqur va tizimli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishida katta ahamiyatga ega. AQSH huquqni muhofaza qilish organlarining anonim shaxslar bilan ishlash tajribasi qiziqish uyg‘otmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Jinoyat to‘g‘risida ma’lumot bergan shaxslarga to‘liq anonim bo‘lish kafolatlanadi. Birinchi telefon aloqasi paytida ularga ma’lum kod raqamlari beriladi, bu raqamlar ushbu fuqarolar bilan keyingi aloqada ham qo‘llaniladi[5].

Agar olingan ma’lumotlar politsiya uchun foydali bo‘lib chiqsa (hibsga olish, sudlash, o‘g‘irlangan mol-mulkni qaytarish, bedarak yo‘qolgan kishini qidirish va bosh.) va yordam bersa, fuqaro bilan navbatdagi telefon suhbati paytida ish haqi miqdori bo‘yicha kelishib olinadi, shuningdek topshirish joyi, vaqti va usuli ham kelishib olinadi.

Mukofot olish uchun ma’lumot beruvchi tergovning muvaffaqiyatli yakunlanishidan manfaatdor bo‘ladi. Bu politsiya bilan doimiy aloqada bo‘lish uchun rag‘bat. Bu jarayonda nafaqat dastlabki ma’lumotlar, balki qo‘shimcha tafsilotlar ham ko‘rsatib o‘tilgan. Masalan, anonim ma’lumot beruvchilar klassifikatsiyaga ega axborotchilar ro‘yxatidan ajralib turishi bejiz emas. Anonim axborot beruvchi o‘zini tanishtirishdan bosh tortadi yoki soxta ismdan foydalanishi mumkin, ayniqsa agar u bir necha bor aloqada bo‘lgan bo‘lsa. Uning haqiqiy ma’lumotlarini hech kim bilmaydi, axborot beruvchi ularni oshkor qilishni istamaydi. Politsiya xodimi ko‘pincha ushbu turdagi ma’lumot beruvchilar bilan telefon yoki pochta orqali muloqot qiladi.

Umuman olganda, huquqiy faoliyatda provokatsiya (lot. provokatio) deganda shaxslarni, guruhlarni, tashkilotlarni og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarga undash, og‘dirish tushuniladi. Shunisi e’tiborga loyiqki, “provakator” so‘zi “agent” sarlavhali so‘z bilan sinonimik qatorga kiritilgan bo‘lib, uning tarkibiy qismlari “politsiya agenti”, “detektiv”, “ayg‘oqchi” so‘zlariga hamohangdir. Yaponiya politsiyasi “surishtiruv xo‘rak bilan” foydalanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, surishtiruv organi yoki uning nomidan shaxs xo‘rak sifatida harakat qilib, jinoyat sodir etadi, uning bajarilishini kutadi va qo‘lga oladi[6].

Tezkor eksperimentni provokatsiya elementlari bilan qonuniylashtirish tarafdorlari o‘zlarining qarashlarini qo‘llab-quvvatlash uchun muhim dalil sifatida xorijiy tezkor qidiruv amaliyotiga murojaat qilishadi. Darhaqiqat, bir qator mamlakatlarda (Germaniya, AQSh) tezkor qidiruv faoliyatining usuli sifatida provokatsiya,

“tuzoqqa tushirish” korrupsiya, giyohvandlik moddalar savdosi, terrorizmga qarshi kurashda faol qo‘llaniladi. Shu bilan birga, chet el qonun chiqaruvchisi tezkor qidiruv organlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarga ko‘ra, jinoyat sodir etishga “tayyor”, “moyil” bo‘lgan shaxslarga nisbatan provokatsiyaga yo‘l qo‘yadi, ya’ni ular allaqachon jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan shaxslarga qo‘llaydi.

Germaniya va Avstriya politsiyasi xodimlarining tajribasini o‘rganib, ularning amaliyotida “provokatsiya darajalari” darajasiga ega ekanligiga amin bo‘lish mumkin. Agar, masalan, giyohvandlik vositasining sotuvchisi fuqarolik kiyimi kiygan politsiyachining oldiga kelib, undan o‘z ixtiyori bilan dori sotib olishni taklif qilsa, u holda bunday agent tomonidan giyohvand moddalarni sotib olish provokatsiya deb hisoblanmaydi. Ba’zi tadqiqotchilar tezkor eksperimentning tajovuzkorligini oshirishni zarur deb hisoblashadi.

S.Radichinskiyning aytishicha, tezkor qidiruv tadbirlar uchun ishonchli huquqiy asos shakllantirish maqsadida “tezkor kiritish”dan foydalanilsa yanada maqsadga muvofiq bo‘lardi. Bu esa, o‘z navbatida turli xil turdagi jinoiy tashkilotlarga kiritilgan shaxslar uchun jinoiy-huquqiy kafolat bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu vazifani hal qilmasdan, jinoyatchilikning uyushgan shakllariga qarshi kurash, oddiygina qilib aytganda, samarali bo‘lmaydi, deb fikr bildiradi.

Aynan huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan yoki ularning ishtirokida uyushtirilgan jinoyatlar, huquqni muhofaza qilish amaliyotida eng xavfli va qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan holatlarnuqtayi nazaridan kelib chiqqan.

Masalan,T.V.Kondrashov fikricha, bu istisno qilinmaydi va ba’zida oddiy fuqarolarning provokatsiyasi, masalan, shaxsga qarshi jinoyatlar niyatida sodir etiladi. Bunday provokatsiyalar insonni jinoiy javobgarlikkatortish maqsadi bilan ham, hujum uyushtirib undash orqali shaxsga nisbatan
jismoniy o‘ch olish niyati bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Provokatsiya jinoyatlarini baholash muammosi jinoyat huquqi nazariyasida (provokatsiya qiluvchi shaxs harakatlarining) mazmun-mohiyati masalasi aniq etarli darajada o‘rganilmaganligi bilan murakkablashadi. Pora provokatsiyasi to‘g‘risidagi jinoyat qonuni normasining mohiyatini aniqlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri ushbu qilmishning sheriklik instituti bilan, xususan, jinoyat sodir etishga undash bilan o‘zaro bog‘liqligi masalasining hal qilinishiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga “Tezkor qidiruv faoliyati natijalari” kiritildi, ular “Tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga binoan olingan natijalar tushuniladi. Ya’ni, Qonunda belgilangan talablarga rioya etilgan holda o‘tkazilgan tezkor qidiruv tadbirlarining natijalari ushbu Kodeks normalariga muvofiq tekshirilganidan va baholanganidan so‘ng jinoyat ishi bo‘yicha dalillar deb e’tirof etilishi mumkin.

Tezkor qidiruv faoliyati materiallari jinoyat ishi qo‘zg‘atish uchun asos bo‘lishi, jinoyat ishi o‘z yurituvida bo‘lgan surishtiruv, tergov organlariga, prokurorga tergov harakatlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish uchun taqdim etilishi, shuningdek bu materiallardan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi normalariga muvofiq jinoyat ishlari bo‘yicha isbot qilishda foydalanilishimumkin.

V.K.Znikin “Tezkor qidiruv faoliyatining maqsadlari va vazifalariga asoslanib, uning natijasi, jinoyatchilik sohasida va infratuzilmasida tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshirish yo‘li bilan tezkor qidiruv faoliyatining kuchlari va vositalari tomonidan olingan va to‘plangan faktik tezkor ma’lumotlar tergov va sud harakatlari manfaatlarida foydalaniladigan bo‘ladi”, deb hisoblaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Agar tezkor qidiruv tadbirlarini o‘tkazish uchun asoslar va shart-sharoitlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari ko‘rsatmalaridan og‘ish sodir bo‘lsa, unda ularni amalga oshirish natijalaridan jinoyat ishi manfaatlari uchun foydalanib bo‘lmaydi.

Odatda, tezkor eksperiment g‘ayrihuquqiy qilmish sodir etgan yoki unga tayyorgarlik ko‘rayotgan shaxslarni fosh etish va aniqlashga qaratilgan, shuningdek latent jinoyatlarni va ularga aloqador shaxslar tomonidan sodir etilganlik faktlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish va fosh etishga qaratilgan tezkor eksperimentning tezkor

taktik vazifasi, ikkita vazifadan iborat, umumiy profilaktika va individual profilaktika. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'rib chiqilayotgan chora asosan ushbu profilaktika yo'nalishida bo'lib, u ushbu tezkor qidiruv tadbir paytida aniqlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni to'xtatish va shaxsni boshlagan jinoyatni tugatishga olib kelish uchun faktik imkoniyatdan mahrum qilish va nihoyasiga etkazish va zararli oqibatlarning oldini olishdan iboratdir. Fosh etish tezkor qidiruv tadbir doirasida jinoyatlarga tayyorgarlik ko'rilayotganda yoxud suiqasd qilinayotganda hibsga olish bilan bog'liqdir.

Tezkor qidiruv tadbirni o'tkazish shakliga qarab (oshkora va nooshkora)ular davlat tomonidan (ayrim xorijiy mamlakatlarda xususiy tadbirlar amalga oshirish mumkin) amalga oshiriladi. Ular asl maqsadlarini shifrlash bilan va ularsiz amalga oshiriladi. Bunda tezkor qidiruv tadbirlar oshkora ravishda amalga oshirilganda, qoida tariqasida ularni amalga oshirishda yashirilmaydi. Shu bilan birga, qonunchilik tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga deputatlar, senatorlar, sudyalar, prokurorlar,advokatlarni (xorijda diniy uyushma vakillariga (rohiblar) ham taqiqlaydi) maxfiylik asosida hamkorlikka jalb qilishni taqiqlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Федеральный закон Российской Федерации «Об оперативно-розыскной деятельности». Москва 1995 г. № 144-ФЗ –с 249.

2.Смирнов М.П. Комментарий оперативно-розыскного законодателства РФ и Зарубежных стран. – М.: Экзамен, 2002. – S.335,435,437 и др.

3.Po'latov A. Tezkor qidiruv faoliyati va uning huquqiy asoslari. Monografiya. Toshkent: O'zbekiston B-265.

4.Рюнти Х. Словарь уголовного права. Токио: Япония 1961 – с. 19–20.

5.Смирнов М.П. Комментарии оперативно-розыскного законодательства РФ и зарубежных стран / М.П.

6.Смирнов. – Москва: Экзамен, 2002. – С. 204-205.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 342.7:004.9:338.48

# RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TURISTLARNI XABARDOR QILISH AMALIYOTI

*Abduvohidova Nihola Umid qizi, Toshkent davlat yuridik universiteti OAV huquqi mutaxassisligi magistranti*

# THE PRACTICE OF INFORMING TOURISTS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

*Abduvohidova Nihola Umid qizi, Master's Student in Media Law, Tashkent State University of Law*

# ПРАКТИКА ИНФОРМИРОВАНИЯ ТУРИСТОВ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*Абдувохидова Нихола Умид кызы, магистрантка по специальности "Медийное право", Ташкентский государственный юридический университет*

*https://orcid.org/0009-0007-7956-8836*
*e-mail: abduvokhidovanihola@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada turizm sohasida turistlarni raqamli texnologiyalar orqali xabardor qilish amaliyoti har tomonlama tahlil qilinadi. Unda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, xususan mobil ilovalar, onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt texnologiyalarining turistlarga xizmat ko'rsatishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot jarayonida raqamli texnologiyalar yordamida axborotning tezkorligi, aniqligi va ochiqligini ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada mavjud muammolar, jumladan axborot ishonchliligi, kiberxavfsizlik va raqamli infratuzilma bilan bog'liq kamchiliklar ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida turizm sohasida raqamlashtirish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *turizm, raqamli texnologiyalar, turistlarni xabardor qilish, axborot tizimlari, mobil ilovalar, onlayn platformalar, e-tourism, sun'iy intellekt, shaffoflik, raqamlashtirish.*

***Abstract:*** *This article comprehensively analyzes the practice of informing tourists through digital technologies in the tourism sector. It highlights the role of modern information and communication tools, in particular mobile applications, online platforms, social networks and artificial intelligence technologies in providing services to tourists. The research process substantiates the possibilities of ensuring the speed, accuracy and openness of information using digital technologies. The article also examines existing problems, including information reliability, cybersecurity and shortcomings related to digital infrastructure. Based on the results of the research, scientific and practical proposals have been developed to improve digitalization processes in the tourism sector.*

***Key words:*** *tourism, digital technologies, informing tourists, information systems, mobile applications, online platforms, e-tourism, artificial intelligence, transparency, digitalization.*

***Аннотация:*** *В данной статье проводится всесторонний анализ практики информирования туристов с помощью цифровых технологий в туристическом секторе. Подчеркивается роль современных информационно-коммуникационных средств, в частности мобильных приложений, онлайн-платформ, социальных сетей и технологий искусственного интеллекта, в предоставлении услуг туристам. В ходе исследования обосновываются возможности обеспечения скорости, точности и открытости информации с использованием цифровых технологий. Также рассматриваются существующие проблемы, включая надежность информации, кибербезопасность и недостатки цифровой инфраструктуры. На основе результатов*

*исследования разработаны научно-практические предложения по совершенствованию процессов цифровизации в туристическом секторе.*

***Ключевые слова:*** *туризм, цифровые технологии, информирование туристов, информационные системы, мобильные приложения, онлайн-платформы, электронный туризм, искусственный интеллект, прозрачность, цифровизация.*

**Kirish.** Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Turizm nafaqat mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, balki madaniy almashinuvni kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, turizm xizmatlari bozorida raqobatning ortib borishi turistlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishni, ularni to‘liq, ishonchli va tezkor axborot bilan ta’minlashni taqozo etmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – turizm sohasida turistlarni raqamli texnologiyalar orqali xabardor qilish amaliyotini kompleks tahlil qilish va uning samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi: raqamli texnologiyalarning turizm sohasidagi o‘rnini o‘rganish, turistlarni axborot bilan ta’minlash mexanizmlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida turizm sohasidagi axborot tizimlari va xizmat ko‘rsatish jarayonlari tanlandi, tadqiqot predmeti esa turistlarni raqamli texnologiyalar orqali xabardor qilishning tashkiliy-iqtisodiy va texnologik jihatlaridan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda turizm sohasida turistlarni xabardor qilishning raqamli mexanizmlari kompleks tarzda o‘rganilib, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Turizm sohasida raqamli texnologiyalar orqali turistlarni xabardor qilish masalasi so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar asosan e-tourism konsepsiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turizmga integratsiyasi, turistlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlari va raqamli platformalarning xizmat ko‘rsatish samaradorligiga ta’siri kabi masalalarni qamrab oladi.

Xorijiy olimlardan D.Buhalis o‘zining ilmiy ishlarida turizm sohasida axborot texnologiyalarining strategik ahamiyatini asoslab bergan. Uning ta’kidlashicha, e-tourism – bu turizm xizmatlarini yaratish, taqdim etish va iste’mol qilish jarayonlarida raqamli texnologiyalardan kompleks foydalanishni nazarda tutadi. Buhalisning fikriga ko‘ra, zamonaviy turistlar axborotni tezkor, interaktiv va individual shaklda olishni istaydi, bu esa turizm subyektlarini innovatsion texnologiyalarni joriy etishga undaydi [1].

Z.Xiang va U.Gretzel tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa ijtimoiy tarmoqlarning turistlarni xabardor qilishdagi o‘rni chuqur tahlil qilingan. Ular internet foydalanuvchilarining aksariyati sayohatni rejalashtirish jarayonida aynan ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va sharh platformalariga tayanishini aniqlagan. Bu esa an’anaviy axborot manbalariga nisbatan foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentning (user-generated content) ustunligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mualliflar bunday axborotning ishonchliligi masalasiga alohida e’tibor qaratadi[2].

P.Kotler va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan marketing konsepsiyalarida turizm xizmatlarini ilgari surishda raqamli kanallarning roli muhim ekani ta’kidlangan. Ularning fikricha, raqamli marketing vositalari orqali turistlarga individual yondashuvni ta’minlash, xizmatlar haqida to‘liq va aniq axborot berish hamda iste’molchilar bilan samarali kommunikatsiya o‘rnatish mumkin. Bu esa turistlarning qoniqish darajasini oshirishga xizmat qiladi [3].

TAMADDUN NURI

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa O‘zbekiston sharoitida turizm sohasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tahlil qilingan. Ular turistlarni axborot bilan ta’minlashda milliy onlayn platformalarni rivojlantirish, yagona axborot tizimini yaratish va xizmatlarning shaffofligini ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, ayrim ilmiy ishlarda turizm infratuzilmasining raqamlashtirish darajasi yetarli emasligi, axborot tizimlari o‘rtasida integratsiya muammolari mavjudligi qayd etilgan[4].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar turistlarni xabardor qilishda keng imkoniyatlar yaratadi. Ular axborotning tezkorligini, ochiqligini va qulayligini ta’minlaydi. Biroq, mavjud ilmiy ishlarda axborot ishonchliligi, kiberxavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish hamda raqamli tengsizlik kabi muammolar yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bois, turizm sohasida turistlarni raqamli texnologiyalar orqali xabardor qilish amaliyotini chuqurroq o‘rganish, mavjud nazariy yondashuvlarni amaliy tajriba bilan boyitish va kompleks ilmiy xulosalar ishlab chiqish zarurati mavjud.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur ilmiy tadqiqotda turizm sohasida turistlarni raqamli texnologiyalar orqali xabardor qilish amaliyotini kompleks o‘rganish maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuv va metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompleks va qiyosiy tahlil tamoyillariga asoslangan holda shakllantirildi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy iqtisodiy nazariya, turizm menejmenti va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Shuningdek, e-tourism konsepsiyasi, raqamli iqtisodiyot nazariyasi va xizmatlar bozorini rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlar tadqiqotning nazariy poydevori sifatida xizmat qildi[5].

Tadqiqot obyekti sifatida turizm sohasida faoliyat yurituvchi axborot tizimlari, raqamli platformalar va xizmat ko‘rsatish jarayonlari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa turistlarni raqamli texnologiyalar orqali xabardor qilishning tashkiliy, iqtisodiy va texnologik jihatlaridan iborat[6].

**Tadqiqot muhokamasi.** Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar turizm sohasida turistlarni xabardor qilish tizimini tubdan o‘zgartirib, uni yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Ayniqsa, mobil ilovalar, onlayn bronlash tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellektga asoslangan xizmatlar turistlar uchun asosiy axborot manbaiga aylanib bormoqda. Bu jarayon turizm xizmatlarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

**Turistlarni raqamli texnologiyalar orqali xabardor qilish vositalarining tahliliy taqqoslanishi**

| Raqamli texnologiya turi | Asosiy funksiyalari | Afzalliklari | Kamchiliklari | Turizmga ta’siri |
|---|---|---|---|---|
| Mobil ilovalar | Bron qilish, navigatsiya, ma’lumot berish | Qulaylik, tezkorlik, doimiy foydalanish imkoniyati | Internetga bog‘liqlik, ba’zi ilovalarda xatoliklar | Turistlar mustaqilligini oshiradi |
| Veb-saytlar | Axborot taqdim etish, xizmatlarni reklama qilish | Keng qamrovli ma’lumot, ochiqlik | Yangilanmaslik muammosi | Turistlarga dastlabki axborot manbai |
| Ijtimoiy tarmoqlar | Sharhlar, tavsiyalar, tajriba almashish | Ishonchlilik (foydalanuvchi fikri), tez tarqalish | Noto‘g‘ri ma’lumotlar xavfi | Turist qaroriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi |
| Onlayn bron tizimlari | Mehmonxona va transportni band qilish | Vaqtni tejash, narxlarni taqqoslash | Yashirin to‘lovlar ehtimoli | Shaffoflikni oshiradi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sun’iy intellekt (chatbotlar) | 24/7 maslahat, savollarga javob | Tezkor xizmat, inson omilini kamaytiradi | Murakkab savollarga javob bera olmaslik | Xizmat sifatini oshiradi |
| Elektron xaritalar | Yo‘nalish ko‘rsatish, joylashuv aniqlash | Aniqlik, real vaqt rejimi | Internetga bog‘liqlik | Turistlar harakatini osonlashtiradi |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar turistlarni xabardor qilishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar eng samarali axborot manbalari sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, barcha texnologiyalar uchun umumiy muammo – internetga bog‘liqlik va axborot ishonchliligi masalasidir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy turistlar qaror qabul qilish jarayonida an’anaviy axborot manbalariga nisbatan ko‘proq raqamli platformalarga tayanadi. Xususan, ular sayohatni rejalashtirish, yo‘nalish tanlash, mehmonxona va transport xizmatlarini bron qilishda internet tarmoqlari va mobil ilovalardan faol foydalanadi. Bu esa turizm subyektlaridan axborotni tezkor, aniq va ishonchli shaklda taqdim etishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalar turistlar ehtiyojlarini qondirishda eng samarali vosita sifatida e’tirof etilmoqda[7].

Biroq, tadqiqot natijalari bilan bir qatorda mavjud muammolar ham aniqlandi. Eng dolzarb muammolardan biri – axborotning ishonchliligi va dolzarbligidir. Turli platformalarda joylashtirilgan ma’lumotlarning bir-biriga mos kelmasligi yoki eskirganligi turistlarda noto‘g‘ri tasavvur hosil qilishi mumkin. Ayniqsa, foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontent (sharhlar, baholar) har doim ham obyektiv bo‘lavermaydi. Bu esa turizm xizmatlari sifatini baholashda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, kiberxavfsizlik masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar bu jarayonda xavfsizlik yetarli darajada ta’minlanmasa, turistlar ishonchi pasayishi mumkin. Shu bois, raqamli texnologiyalarni joriy etishda axborot xavfsizligini ta’minlash ustuvor vazifa bo‘lishi lozim.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar turizm sohasida turistlarni xabardor qilish jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari turistlarga tezkor, qulay va keng qamrovli axborot olish imkonini berib, ularning sayohatni rejalashtirish va amalga oshirish jarayonlarini sezilarli darajada yengillashtiradi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, mobil ilovalar, onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellekt texnologiyalari turistlarni xabardor qilishning eng samarali vositalari hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Buhalis D. *E-tourism: Information technology for strategic tourism management*. – London: Pearson Education, 2003.
2. Xiang Z., Gretzel U. Role of social media in online travel information search // Tourism Management, 2010.
3. Kotler P., Bowen J., Makens J. *Marketing for Hospitality and Tourism*. – Pearson, 2016.
4. UNWTO. *Digital Transformation in Tourism*. – Madrid, 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. Law R., Buhalis D., Cobanoglu C. Progress on information and communication technologies in hospitality and tourism // International Journal of Contemporary Hospitality Management, 2014.
7. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. Smart tourism: foundations and developments // Electronic Markets, 2015.

Qabul qilindi: 18.03.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 393.05.07

# OTA-BOBOLAR KULTINING MILLIY VA JAHON MEROSI

***Kamalova Dilfuza Abdulloyevna, Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti***

# NATIONAL AND WORLD HERITAGE OF ANCESTOR CULT

***Kamalova Dilfuza Abdulloyevna, Doctoral student at Karakalpak State University***

# НАЦИОНАЛЬНОЕ И МИРОВОЕ НАСЛЕДИЕ КУЛЬТА ПРЕДКОВ

***Камалова Дилфуза Абдуллоевна, докторант Каракалпакского государственного университета***



***https://orcid.org/0009-0004-0233-6883***
***e-mail: dilfuzakamalova654@gmail.com.***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Qoraqalpog‘istonning janubiy hududida yashovchi aholi orasida ota-bobolar kulti xalqning milliy merosini ifodalovchi an’ana sifatida o‘rganiladi. Shuningdek, ajdodlarni eslashda amalga oshiriladigan qabr ziyorati odobi haqida ham ma’lumot berilgan. Shu o‘rinda ajdodlarni eslash va qabr ziyorati dunyoning boshqa o‘lkalarida qay tarzda amalga oshirilishi misollar yordamida keltirilib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ajdodlar ruhi, barcha avliyolar kuni, Día de los Muertos kuni, Obon festivali, qabr ziyorati, Qingming.*

***Abstract:*** *This article examines ancestor worship among the people of the southern region of Karakalpakstan as a tradition that represents the national heritage of the people. Here, examples are provided of how remembering ancestors and visiting graves are practiced in other countries around the world.*

***Keywords:*** *ancestral spirits, All Saints' Day, Día de los Muertos, Obon Festival, tomb-visiting, Qingming.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается культ предков у жителей южного региона Каракалпакстана как традиция, представляющая собой национальное наследие народа. Здесь приведены примеры того, как в других странах мира практикуется поминовение предков и посещение могил.*

***Ключевые слова:*** *духи предков, День всех святых, День мертвых, фестиваль Обон, посещение гробниц, Цинмин.*

**KIRISH.** Mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar qatorida ajdodlar nomini abadiylashtirish borasida ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir hududda ajdodlarni xotirlash turlicha bo‘lsa-da, ularning maqsadi bir yo‘nalishga – marhumlarning xotirasini hayotdagilar orasida saqlash va jamiyatdagi birdamlikni yanada mustahkamlashdan iborat.

Yoshlar orasida o‘z ajdodlaridan faxrlanish tuyg‘usini kuchaytirish yutrimizda fidoyi jonkuyar insonlar yetishib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ajdodlarimiz hayotiy tajribalari, ularning boy ma’naviy meroslarini kelajak avlodga yetkazish davlatimiz siyosati darajasiga ko‘tarildi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Biz buyuk ajdodlarimizdan faxrlanishimiz kerak” degan so‘zlari yoshlarni bu mavzuga qiziqishining yanada ortishiga turtki bo‘ladi. Respublikamizda 1999-yildan buyon har yili 9-may kuni Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlanishi ham ota-bobolarga bo‘lgan yuksak e’tibordan dalolat beradi. Bu kuni har kim o‘zi uchun qadrli insonlarni eslaydi, sharaflaydi.Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23 fevralda “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 47-sonli qarori[1] qabul qilinishi ham bu sohaga e’tiborning kuchayishidan dalolat beradi. Ajdodlarimizning boy ilmiy merosini o‘rganish maqsadida milliy va xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari tashkil etilgan. Shuningdek, Respublikamizda 2014-yil 15-16-may kunlari dunyoning ko‘pgina mamlakatlaridan olimlar

va imiy markazlar ishtirokida Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiya[2] muhim rivojlanish bosqichi bo‘ldi. Bundan tashqari, Respublikamizda 2022-2026-yillarga oid Taraqqiyot strategiyasi[3]da ham inson qadrini ulug‘lashga alohida e’tibor qaratilgan.

Tarixiy-tahlil usuli yordamida ota-bobolar kulti paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari o‘rganildi. Xalqning mahalliy an’analari etnografik kuzatuvlar yordamida aniqlandi. Dala yozuvlari asosida ma’lumotlar yozib olindi. O‘rganilayotgan hududlarning farqlari inobatga olingan holda an’analardagi farqlar qiyosiy tahlil usuli yordamida ochib berildi. Marhumlarni eslash dunyoning boshqa nuqtalarida qanday amalga oshirilishi etnografik kuzatuv usuli orqali yoritildi.

**MUHOKAMA.** Ajdodlarga sig‘inish azaldan mavjud bo‘lgan an’ana sifatida davom etib kelmoqda. S. A.Tokarev ota-bobolar kulti haqida yozar ekan, marhumlar vafot etish bilan yo‘qolmasligini ta’kidlaydi[4].

Avvalo marhumning “yil oshi”ga qadar ma’rakalarning o‘tkazilishida jamoaviy xotirlash ijtimoiy birdamlikni namoyon qilib, unda shu nasl-nasabni qadrlash kabi holatlar namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari xalqimizda marhum arvohini xotirlash va unga hurmat ko‘rsatish maqsadida turli an’analar shakllangan. Jumladan, chiroq yoqish, holvaytar pishirish, bo‘g‘irsoq pishirish, sadaqa tarqatish kabi marosimlar mavjud. Ota-bobolarni eslash avvalo qabr ziyoratiga borish bilan belgilanadi. Avvalo insonlar qabr ziyoratiga borganda tahoratli bo‘lish joizdir. Ota-bobosini xotirlash uchun qabristonga kelganda, barchaga umumiy qilib salom beriladi. Keyin ziyorat qilmoqni maqsad qilgan qabrning qibla tarafida o‘tirib, qabr egasiga salom beradi va duo oqiydi. Shuni ta’kidlash joizki, qabr boshida Qur’on tilovat qilinmasdan faqat duo qilinadi. Qoraqalpog‘istonning janubiy hududida yashovchi qozoq va o‘zbek xalqlari orasida qabr ziyorati asosan Hayit kunlari amalga oshirilib, unda asosan erkaklar hayit kuni ziyorat qilishi, ayollar esa ertasi kuni ziyorat qilishi kuzatiladi[5]. Diniy kitoblarda keltirilishicha, hayit kuni qabr ziyoratiga borish noto‘g‘ri, boisi marhumlar ruhi shu kuni ozod bo‘lib o‘z uylari va yaqinlarini ko‘rish uchun ketishadi deyilgan. Qabr ziyoratida faqat o‘z ota-bobosini ziyorat qilish emas, balki shu hududda yashab o‘tgan buyuk ajdodlarimizni ziyorat qilish ham nazarda tutiladi. O‘rganilaytogan hududda asosan Sulton Uvays bobo, Norinjon bobo, Shayx Jalil bobo kabi yirik qabriston ziyoratgohlar mavjud bo‘lib, bu joylarni ziyorat qilish ham an’ana tusiga kirgan. Ayniqsa, oliy o‘quv yurtiga hujjat topshiruvchi yoshlar ota-bobolari va ziyoratgohlarga aylangan ulug‘ bobolarning qabrlariga borib duo qilishadi.

Marhum ruhiga nisbatan ishonch va hurmat uzoq safarga chiqayotgan paytda “ota-bobolar ruhi qo‘llasin” degan so‘zlardan foydalanish nafaqat qo‘llab-quvvatlovchi kuch, balki himoyachi sifatida bilishidan ham dalolatdir. Ajdodlar kulti va ruh bir biri bilan yaqin tushuncha hisoblanib, har ikkalasi ham marhumlar va tiriklar orasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy o‘z asarida ajdodlar ruhi bu dunyodagi barcha narsalardan boxabar bo‘lishi, yaxshi va yomon kunlarida tiriklardan “xabar olishi” (tushida namoyon bo‘lishi)ni ham aytib o‘tgan[6]. Dala yozuvi jarayonida axborot beruvchining so‘zlariga ko‘ra, uni elektr toki urgani va shu onda marhum bo‘lgan ota-onasi ko‘z oldida gavdalanib, elekrt tokni ajratib qo‘yganini ko‘rganini aytar ekan, meni halokatdan asradi deb qat’iy ishonch bilan gapiradi[7]. Ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy meros unitilmas, bebaho boyligimizdir. Ajdodlarni eslash nafaqat bizning o‘lkamizda, balki boshqa o‘lkalarda ham muhim marosim sifatida qaraladi. Jumladan, Xitoyda marhumlarni eslash maqsadida Qingming qabristonlarni ziyorat qilish an’anasi[8] ko‘p asrlardan buyon bajarilib kelinmoqda. Bu kuni qabrlarni tozalash ishlarini ham bajarishadi. Bunda ko‘pchilik ota-bobolarni yod etib xudoga ibodat qilishsa, baz’ilari esa bevosita ajdodlar ruhiga ibodat qilish holatlari ham kuzatiladi.

Yaponiyada ajdodlar ruhiga atab Obon festivali o‘tkazilib, bu marosim ham ko‘p yillik tarixga egadir. Bu yoz fasli (avgust)da o‘tkazilib, ajdodlar ruhining kelishi va uni xotirlash an’anasidir. Garchi miliy bayram qatoriga kirmasa-da, ko‘pchilik muassalarda ishdan dam olish kuni sifatida belgilanadi. Bu kuni qabrlar ziyorat qilingach odatda qarindoshlar bir joyga yig‘ilishadilar. Bu bayram sifatida oy taqvimi asoslanib, o‘tkaziladi. Olov yoqish an’anasi esa, marosiming boshlanish va tugash jarayonida amalga oshiriladi[9]. Afrikaning Yoruba xalqlarida ham ajdodlar ruhiga nisbatan ishonch juda kuchli bo‘lib, ular har bir ishni boshlash arafasida bunga alohida e’tibor qaratishadi. Ular ruhlarning har doim tiriklar olamiga ta’sir qilib turishini ta’kidlaydi. Bu haqida milliy etnograf olim

A.Ashirov ham ta’kidlab o‘tgan[10]. Meksikada ayniqsa, astek va maya xalqlarida mavjud bo‘lgan ajdodlar ruhiga nisbatan ishonch juda kuchli. Ularning fikriga ko‘ra, o‘lim hayotning bir qismi sifatida qaralib, vafot etgan ajdodlar bilan aloqa qilish imkoni sifatida qaraladi. Davlat madaniyati darajasiga ko‘tarilgan bobolar kulti, ajdodlarga nisbatan yuksak hurmat belgisidir. Día de los Muertos kuni noyabr oyining boshida o‘tkazilib, ota-bobolar ruhini birgalikda xotirlash ana’anasi hisoblanadi. Bu kuni odatda qabristonlarda altar tashkil etilib, marhumlarning sevimli narsalari va shamchiroq qo‘yishadi. Día de los Muertos kuni ajdodlar ruhini xursand qilish maqsadida uxlamasdan kechasi musiqa tinglab, ular bilan bog‘liq xotiralarini so‘zlashadilar. Bu an’anada yana bir narsa, o‘limdan qo‘rqmaslik nazariyasi ham mavjud[11].

Yevropa xalqlarida ajdodlarni xotirlash an’anasi butparastlik va xristian dini an’analari umumiyligida namoyon bo‘ladi. Butparastlik an’anasiga ko‘ra ota-bobolarni homiy sifatida ko‘rishgan bo‘lsa, xristianlikda bundan biroz uzoqlashib, xotirlash va ma’lum kunlari ziyorat qilish bilan cheklanishadi. 1- noyabr Barcha avliyolar kuni sifatida yod etish kunidir[12].

**NATIJALAR.** Tadqiqot natijasida respublikamizda ota-bobolar ruhini yod etish va u bilan bog‘liq amalga oshirilgan ishlar va tegishli qarorlar haqida ma’lumot berildi. Qoraqalpog‘iston janubida yashovchi o‘zbek va qozoq xalqlarining ota-bobolar kulti haqidagi tushunchalari bayon qilindi. Shunindek, qabr ziyorati haqidagi ayrim bilimlar bayon qilindi. Ota-bobolar ruhi har doim tiriklarni qo‘llashi haqida bir qancha ma’lumotlar dala yozuvi jarayonida o‘z aksini topdi. Bunda nafaqat ajdodlar ruhini hurmatlash bakli milliy mentalitetimizga xos bo‘lgan yana bir tushuncha katta avlod vakillarini e’zozlash tuyg‘usi kuchli ekani ham kuzatildi. Dunyoning boshqa o‘lkalarida marhumlari e’zozlash va u bilan bog‘liq turli marosimlar haqida ham misollar keltirilib o‘tiladi. Bu ma’lumotlar masofaviy kuzatuvlar va xalqaro ilmiy manbalar asosida bayon qilindi.

**XULOSA.** Insoniyat yashashda davom etar ekan, o‘zidan oldingi insonlarning tajriba va bilimlaridan foydalanadi. Ota-bobolarimizning hayotdan olgan tajribalari, ayniqsa yoshlarimiz uchun o‘rnak va namunadir. Marhum ota-bobolarimizga nisbatan hurmatning yuqori ekanligi bu avlodlararo uzviylikning mustahkamligini bildiradi. Yakuniy fikr sifatida ajdodlar ruhi hamisha mangu ekanligini ta’kidlash joiz.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 23.02.2011 yil 47-son qarori.
2. O‘rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati xalqaro konferensiya materiallari 2014-yil 15-16-may, Samarqand. 2014.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 28.01.2022 yil PF-60-son.
4. Токарев С.А. Ранние формы религии и их развитие . М. 1964. С 20-25.
5. Dala yozuvi. Shomuratova Dilbar. Amudaryo tumani. 1964-y. Xo‘jakent 27- xonadon.
6. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. / Танланган асарлар.Т. 1.-Тошкент: Фан. 1968.-б. 263.
7. Dala yozuvi. Kamalov Anvar. Amudaryo tumani.1980-y. 5-Xo‘jakent.13 -xonadon.
8. https://cnto.org.au/qingming-festival/
9. Hur, Nam-Lin (2007). Death and Social Order in Tokugawa Japan: Buddhism, Anti-Christianity, and the Danka System. Harvard University Asia Center, 2007. p. 192. ISBN 9780674025035.
10.Ashirov. A. Etnologiya. Toshkent. Yangi nashr, 2014. B- 399.
11. Foxcroft, Nigel H. (October 28, 2019). The Kaleidoscopic Vision of Malcolm Lowry: Souls and Shamans. Rowman & Littlefield. p. 130. ISBN 978-1-4985-1658-7.
12. Lindsay, Sandy „Hallowe'en is a spooktacular event for the Goodfellows“. Saugeen Times (2023-yil 30-oktyabr). 2023-yil 25-noyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaralди: 2023-yil 25-noyabr.

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 811.111'243:37.02

# MODERN APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO SPEAKERS OF OTHER LANGUAGES

*Murtazayeva Farangiz, Teacher at the Department of English Language and Literature, Gulistan State*

# BOSHQA TILLARDA SO‘ZLASHUVCHILAR UCHUN INGLIZ TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

*Murtazayeva Farangiz, Guliston davlat universiteti “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi*

# СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НОСИТЕЛЕЙ ДРУГИХ ЯЗЫКОВ

*Муртазаева Фарангиз, преподаватель кафедры английского языка и литературы Гулистанского государственного университета*



*https://orcid.org/0009-0007-3565-8020*
*e-mail: mufarangizab@gmail.com*

***Abstract:*** *This article explores modern approaches to teaching English to Speakers of Other Languages (TESOL) in the context of global educational transformation. It analyzes the shift from traditional grammar-based instruction to communicative, task-based, content-integrated, and technology-enhanced methodologies. Special attention is given to Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), Content and Language Integrated Learning (CLIL), and the integration of digital technologies and artificial intelligence in language education. The study synthesizes recent literature to highlight the effectiveness, advantages, and challenges of these approaches.*

***Keywords:*** *TESOL, Communicative Language Teaching, Task-Based Language Teaching, English teaching, learner-centered education, blended learning.*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola global ta’lim transformatsiyasi sharoitida boshqa tillarda so‘zlashuvchilar uchun ingliz tilini o‘qitish (TESOL)ning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganadi. Unda an’anaviy grammatikaga asoslangan o‘qitishdan kommunikativ, vazifaga asoslangan, mazmun bilan integratsiyalashgan hamda texnologiya bilan boyitilgan metodologiyalarga o‘tish tahlil qilinadi. Kommunikativ til o‘qitish (CLT), vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBLT), mazmun va til integratsiyalashgan o‘qitish (CLIL), shuningdek, til ta’limida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni joriy etishga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot ushbu yondashuvlarning samaradorligi, afzalliklari va muammolarini yoritish uchun so‘nggi ilmiy adabiyotlarni umumlashtiradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *TESOL, kommunikativ til o‘qitish, vazifaga asoslangan til o‘qitish, ingliz tilini o‘qitish, o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim, aralash ta’lim.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются современные подходы к обучению английскому языку носителей других языков (TESOL) в условиях глобальной трансформации образования. Анализируется переход от традиционного обучения, основанного на грамматике, к коммуникативным, задачным, интегрированным по содержанию и технологически поддерживаемым методологиям. Особое внимание уделяется коммуникативному обучению языку (CLT), обучению на основе выполнения задач (TBLT), интегрированному обучению содержанию и языку (CLIL), а также интеграции цифровых технологий и искусственного интеллекта в языковое образование. В исследовании обобщаются последние научные публикации с целью выявления эффективности, преимуществ и проблем данных подходов.*

***Ключевые слова:*** *TESOL, коммуникативное обучение языку, обучение на основе выполнения задач, обучение английскому языку, обучение, ориентированное на учащегося, смешанное обучение.*

**Introduction.** In the contemporary globalized world, English has firmly established itself as the dominant medium of international communication, science, technology, business, and education. As a result, the demand for effective English language teaching (ELT) methodologies has increased significantly across diverse educational contexts. Teaching English to Speakers of Other Languages (TESOL) has therefore evolved from traditional grammar-focused instruction to more dynamic, learner-centered, and communicative approaches. This transformation reflects broader shifts in educational theory, technological advancement, and an increased understanding of second language acquisition processes. Historically, English language teaching was dominated by traditional methods such as the Grammar-Translation Method, which emphasized explicit grammatical instruction and translation exercises. While such approaches provided learners with foundational knowledge of linguistic structures, they were often criticized for their limited effectiveness in developing communicative competence. In response to these limitations, modern pedagogical frameworks have increasingly prioritized communication, interaction, and learner engagement as central components of language acquisition [1].

**Literature review.** The field of Teaching English to Speakers of Other Languages (TESOL) has experienced substantial transformation in recent decades, driven by advancements in linguistic theory, educational psychology, and digital technology. Modern literature emphasizes a shift from teacher-centered instruction toward learner-centered, communicative, and technology-enhanced methodologies. This literature review synthesizes recent scholarly contributions (primarily 2018–2025) on major modern approaches in English language teaching, including Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), Content and Language Integrated Learning (CLIL), technology-enhanced language learning (TELL), and artificial intelligence (AI)-supported instruction [2]. Communicative Language Teaching remains one of the foundational frameworks in modern TESOL. According to Richards (2018), CLT prioritizes meaningful communication over grammatical accuracy, focusing on developing learners' communicative competence. Recent studies (Li & Smith, 2020; Ahmed, 2022) indicate that CLT continues to be widely adopted due to its effectiveness in improving fluency and interactional skills. However, researchers also highlight challenges such as teacher misunderstanding of CLT principles and exam-oriented educational systems that limit its implementation [3]. Recent empirical studies suggest that CLT is most effective when combined with task-based and technology-supported activities. For example, Nguyen (2021) found that integrating digital tools into communicative tasks significantly enhances learner engagement and speaking confidence. Thus, CLT is increasingly viewed not as a standalone method but as part of a broader communicative ecosystem [4].

Task-Based Language Teaching has gained prominence as a natural extension of CLT. Willis and Willis (2019) define TBLT as an approach where learners acquire language through the completion of meaningful tasks. Unlike traditional instruction, TBLT emphasizes outcome-based learning, where linguistic accuracy emerges through task completion. Recent research supports the effectiveness of TBLT in improving both fluency and cognitive engagement. Ellis (2020) argues that TBLT promotes deeper language processing by requiring learners to negotiate meaning. Similarly, Zhang and Gao (2023) found that students exposed to task-based instruction demonstrated higher retention of vocabulary and improved speaking performance compared to those in traditional classrooms. However, some scholars (Brown & Lee, 2021) note that TBLT requires careful task design and teacher training. Without proper scaffolding, learners may experience cognitive overload, especially at lower proficiency levels [6]. CLIL has emerged as an important pedagogical approach in multilingual education contexts. According to Coyle, Hood, and Marsh (2019), CLIL integrates subject content with language learning, allowing students to acquire English while studying academic disciplines such as science or history. In addition, recent European educational reforms (2021–2024) show a growing trend toward CLIL adoption in secondary education, particularly in multilingual regions. This reflects its increasing global relevance [7].

**Research discussion.** The findings from the literature review demonstrate that modern TESOL practices are characterized by methodological diversification, technological integration, and a strong shift toward learner-centered pedagogy. This section critically discusses how Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), Content and Language Integrated Learning (CLIL), and technology-enhanced approaches collectively reshape English language instruction in

contemporary educational contexts. It also examines their practical implications, limitations, and future directions in English language teaching. One of the most significant insights emerging from recent research is that CLT remains the foundational paradigm in TESOL, but its application has evolved considerably. While early implementations of CLT focused primarily on oral fluency through communicative activities, modern interpretations emphasize interactional authenticity supported by multimodal resources. In digital classrooms, CLT is increasingly implemented through online discussions, video conferencing, and collaborative platforms, which extend communicative opportunities beyond the physical classroom. However, despite its theoretical strength, CLT continues to face implementation challenges, particularly in contexts where standardized testing prioritizes grammatical accuracy over communicative competence. This mismatch between pedagogy and assessment systems often leads to partial or superficial adoption of CLT principles [8].

TBLT, on the other hand, offers a more structured yet flexible alternative by organizing instruction around meaningful tasks. The literature indicates that TBLT is particularly effective in promoting learner engagement, problem-solving skills, and spontaneous language use. In practice, tasks such as designing travel plans, conducting surveys, or solving real-world problems encourage learners to use English as a functional tool rather than an abstract system. However, the effectiveness of TBLT depends heavily on task design and teacher expertise. Poorly designed tasks may result in cognitive overload or reduced linguistic output, especially among lower proficiency learners. Therefore, successful implementation requires careful scaffolding, clear task sequencing, and ongoing teacher support. CLIL represents another important dimension of modern TESOL by integrating language learning with subject content. The discussion in recent studies highlights that CLIL fosters deeper cognitive engagement because learners acquire language while simultaneously processing academic knowledge. Nevertheless, CLIL also presents challenges, including the need for teachers who are proficient in both language instruction and subject matter delivery. In many educational systems, insufficient teacher training remains a significant barrier to effective CLIL implementation. Moreover, the lack of standardized instructional materials further complicates its widespread adoption.

**Conclusion.** Modern TESOL approaches demonstrate a clear shift from traditional teacher-centered instruction to learner-centered, communicative, and technology-integrated pedagogy. Methods such as Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), and Content and Language Integrated Learning (CLIL) have significantly improved learners' communicative competence, engagement, and cognitive development. At the same time, technology-enhanced language learning and AI-based tools have expanded access to English education and enabled more personalized learning experiences. However, challenges such as unequal access to technology, insufficient teacher training, and over-reliance on digital tools remain important issues.

**References:**


1. Ahmed, S. (2022). Communicative competence in English language teaching: Modern perspectives. Journal of Language Teaching Research, 14(2), 45–60.
2. Brown, H. D., & Lee, H. (2021). Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy (4th ed.). Pearson Education.
3. Chen, L., Wang, Y., & Li, X. (2024). Artificial intelligence in second language learning: Opportunities and challenges. Computers & Education: Artificial Intelligence, 5, 100–115. https://doi.org/10.xxxx/cea.2024.01
4. Freeman, D., & Anderson, M. (2021). Techniques and principles in language teaching (4th ed.). Oxford University Press.
5. García, O. (2022). CLIL and multilingual education: A global perspective. International Journal of Bilingual Education and Bilingualism, 25(3), 210–225. https://doi.org/10.xxxx/ijbeb.2022.03
6. Godwin-Jones, R. (2021). Mobile-assisted language learning: New perspectives. Language Learning & Technology, 25(1), 1–15. https://doi.org/10.xxxx/llt.2021.01
7. Johnson, K., & Wang, H. (2023). AI-based feedback systems in English language learning. Journal of Educational Technology Research, 12(4), 78–92.
8. Kessler, G. (2022). Technology integration in TESOL: Current trends and future directions. TESOL Quarterly, 56(2), 300–320. https://doi.org/10.xxxx/tesol.2022.02

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 1:323.1:17

# JADIDCHILIK G‘OYALARINING ZAMONAVIY MA’NAVIY QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O‘RNI

*Hamrayev Ergash Toxir o‘g‘li, Samarqand davlat Pedagogika instituti 2-kurs magistranti*

# THE ROLE OF JADIDISM IDEAS IN THE SYSTEM OF MODERN SPIRITUAL VALUES

*Hamrayev Ergash Tokhir ogli, 2nd-year Master’s Student, Samarkand State Pedagogical Institute*

# РОЛЬ ИДЕЙ ДЖАДИДИЗМА В СИСТЕМЕ СОВРЕМЕННЫХ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

*Хамраев Эргаш Тохир оглы, магистрант 2-курса Самаркандского государственного педагогического института*



***e-mail: hamrayevergash@gmail.com***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada jadidchilik g‘oyalarining zamonaviy ma’naviy qadriyatlar tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Jadidchilik harakati ma’rifat, ilm-fan, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy taraqqiyotga asoslangan g‘oyaviy oqim sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda uning zamonaviy ta’lim, ma’naviy tarbiya va milliy identitetni shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, jadidchilik g‘oyalari globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishning muhim omili sifatida baholanadi. Maqolada tarixiy va zamonaviy yondashuvlar uyg‘unligida jadidchilikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *jadidchilik, ma’naviyat, ma’rifat, milliy identitet, ta’lim, qadriyatlar, globallashuv, islohot.*

***Abstract:*** *This article analyzes the role of Jadidism ideas in the modern system of spiritual values. Jadidism is considered an ideological movement based on enlightenment, science, national identity, and social progress. The study highlights its significance in modern education, moral upbringing, and the formation of national identity. It also emphasizes that Jadid ideas serve as an important factor in preserving and developing national values under globalization processes. The article reveals the socio-philosophical essence of Jadidism through the integration of historical and modern approaches.*

***Keywords:*** *Jadidism, spirituality, enlightenment, national identity, education, values, globalization, reforms.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется роль идей джадидизма в современной системе духовных ценностей. Джадидизм рассматривается как идеологическое движение, основанное на просвещении, науке, национальном самосознании и социальном прогрессе. В исследовании раскрывается его значение в современном образовании, духовном воспитании и формировании национальной идентичности. Также подчеркивается, что идеи джадидов являются важным фактором сохранения и развития национальных ценностей в условиях глобализации. В статье раскрывается социально-философская сущность джадидизма через сочетание исторического и современного подходов.*

***Ключевые слова:*** *джадидизм, духовность, просвещение, национальная идентичность, образование, ценности, глобализация, реформы.*

**Kirish.** XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakati nafaqat siyosiy yoki ma’rifiy islohotlar tizimi, balki milliy ong, ma’naviy yangilanish va jamiyat taraqqiyotini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan keng qamrovli g‘oyaviy oqim sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu harakat vakillari jamiyatni orqada qoldirayotgan asosiy omil sifatida jaholat va ma’rifatsizlikni ko‘rib, ta’lim tizimini isloh qilish, zamonaviy fan va texnologiyalarni o‘zlashtirish, milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirish orqali taraqqiyotga erishish mumkinligini ilgari surganlar. Bugungi globallashuv jarayonlari sharoitida jadidchilik g‘oyalarining mazmun-mohiyati yanada dolzarb ahamiyat kasb

etib, ular zamonaviy ma’naviy qadriyatlar tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda jadidchilik g‘oyalarining tarbiyaviy ahamiyati katta bo‘lib, ular zamonaviy milliy identitetning mustahkam poydevorini yaratadi[1].

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy jamiyatda ma’naviy qadriyatlar tizimi tez o‘zgarayotgan axborot oqimlari, madaniy integratsiya va global ta’sirlar ostida shakllanmoqda. Bunday sharoitda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy rivojlanish bilan uyg‘unlashtirish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi. Jadidchilik g‘oyalari esa aynan shu uyg‘unlikni ta’minlashda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, jadidchilikning ijtimoiy adolat, ayollar huquqlarini kengaytirish, bilimga asoslangan jamiyat qurish kabi tamoyillari bugungi demokratik islohotlar bilan hamohangdir. Ularning tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish va zamonaviy qadriyatlar tizimi bilan bog‘lash nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu mavzu keng qamrovli tadqiqotlarni talab etadi[2].

**Adabiyotlar tahlili.** Jadidchilik g‘oyalarining zamonaviy ma’naviy qadriyatlar tizimidagi o‘rnini o‘rganish so‘nggi yillarda ijtimoiy-gumanitar fanlarda dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar asosan uch asosiy blokka ajraladi: jadidchilikning tarixiy-falsafiy mohiyatini yoritish, uning ta’lim va ma’rifat tizimidagi o‘rni, hamda zamonaviy ma’naviy jarayonlar bilan bog‘liqligini tahlil qilish. So‘nggi ilmiy ishlarda jadidchilik faqat tarixiy harakat sifatida emas, balki modernizatsiya, milliy identitet va ma’naviy yangilanishning konseptual asosi sifatida talqin qilinmoqda. Ko‘plab zamonaviy tadqiqotlarda jadidchilikning markaziy g‘oyasi – ma’rifat orqali jamiyatni isloh qilish tamoyili – bugungi ta’lim islohotlari bilan bevosita bog‘lanadi. Bu yondashuvda jadidlar ilgari surgan ilm-fan, zamonaviy bilimlar va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish g‘oyalari kompetensiyaga asoslangan ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtiriladi. Ayniqsa, pedagogika va ta’lim falsafasi yo‘nalishidagi ishlarda jadidchilikning didaktik tamoyillari, o‘qitish metodlari va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilishdagi ahamiyati keng tahlil qilinadi[3].

O‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda jadidchilik milliy uyg‘onishning asosiy bosqichi sifatida baholanib, uning ma’naviy qadriyatlar tizimiga qo‘shgan hissasi alohida ta’kidlanadi. Bu tadqiqotlarda jadidlarning milliy tilni rivojlantirish, matbuot va adabiyot orqali jamoatchilik ongini shakllantirishdagi roli chuqur o‘rganiladi. Shuningdek, ularning ijtimoiy tenglik, ayollar ta’limi va jamiyatda yangicha fikrlashni shakllantirishga qaratilgan qarashlari zamonaviy demokratik qadriyatlar bilan uyg‘unligi asoslab beriladi. So‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy ishlarda jadidchilikni faqat tarixiy fenomen sifatida emas, balki “ma’naviy modernizatsiya modeli” sifatida ko‘rish tendensiyasi kuchaygan. Bu yondashuvga ko‘ra, jadidchilikning asosiy mohiyati jamiyatni ichki ma’naviy yangilanish orqali rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu bugungi global transformatsiya jarayonlarida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda jadidchilik g‘oyalari muhim tarbiyaviy asos sifatida talqin qilinadi [4].

Xorijiy va mintaqaviy tadqiqotlarda esa jadidchilik ko‘proq modernizm va postkolonial nazariyalar kontekstida o‘rganilmoqda. Bu ishlarda jadidlar faoliyati Sharq jamiyatlarining o‘zini modernizatsiya qilishga bo‘lgan ichki intilishi sifatida ko‘rsatiladi. Shuningdek, jadidchilikni islomiy modernizmning bir ko‘rinishi sifatida talqin qiluvchi yondashuvlar ham mavjud bo‘lib, ular diniy qadriyatlar va dunyoviy bilimlar uyg‘unligini asosiy tamoyil sifatida ko‘rsatadi. Zamonaviy o‘zbek ilmiy adabiyotlarida esa jadidchilik g‘oyalarining amaliy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, ta’lim tizimi, ma’naviy tarbiya va milliy identitetni mustahkamlash jarayonlarida jadidchilik merosidan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bu yondashuvda jadidchilik nafaqat tarixiy tajriba, balki zamonaviy islohotlar uchun konseptual asos sifatida qaraladi [5].

Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, jadidchilik g‘oyalari zamonaviy ilmiy paradigmalarda ko‘p qatlamli fenomen sifatida qaralmoqda. Bir tomondan u tarixiy harakat sifatida o‘rganilsa, ikkinchi tomondan zamonaviy ma’naviy va ta’limiy tizimlar uchun metodologik asos sifatida talqin qilinadi. Bu ikki yondashuvning uyg‘unligi jadidchilikni kompleks ilmiy kategoriya sifatida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek olimlari jadidchilikni milliy qadriyatlar tizimining ajralmas qismi sifatida ko‘rib, uni zamonaviy rivojlanish strategiyalari bilan bog‘lashga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu esa jadidchilikni faqat tarixiy meros emas, balki kelajak taraqqiyotining g‘oyaviy asosi sifatida qayta talqin qilish imkonini bermoqda. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar jadidchilik

g‘oyalarining zamonaviy ma’naviy qadriyatlar tizimidagi o‘rnini tahlil qilish uchun yetarli nazariy va metodologik asoslar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishda yanada chuqur empirik tadqiqotlar olib borish, ayniqsa yoshlar ongida jadidchilik g‘oyalarining aks etishini o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda [6].

**Tadqiqot muhokamasi.** Jadidchilik g‘oyalarining zamonaviy ma’naviy qadriyatlar tizimidagi o‘rni masalasi bugungi kunda nafaqat tarixiy, balki amaliy va konseptual jihatdan ham muhim ilmiy muhokama mavzusi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati ilgari surgan asosiy g‘oyalar – ma’rifat, ilm-fan, milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy adolat va taraqqiyotga intilish – hozirgi O‘zbekiston jamiyatining ma’naviy yangilanish jarayonlari bilan bevosita uyg‘unlashgan. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, jadidchilikning eng muhim jihatlaridan biri uning ta’limga bergan ustuvor ahamiyatidir. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan yangi usul maktablari konsepsiyasi bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv o‘qitish metodlari va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tamoyillari bilan uyg‘unlashmoqda. Bu esa jadidchilik g‘oyalarining zamonaviy pedagogik jarayonlarda bevosita aks etayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari jadidchilikning ma’naviy qadriyatlar tizimidagi o‘rnini belgilashda milliy identitet masalasi markaziy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Jadidlar milliy til, madaniyat va adabiyot orqali xalqning o‘zligini anglashini kuchaytirishga intilgan. Bugungi globallashuv sharoitida esa ushbu yondashuv milliy madaniyatni saqlash va uni zamonaviy madaniy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda[7].

Muhokama davomida yana bir muhim jihat – jadidchilikning ijtimoiy tenglik va inson huquqlari bilan bog‘liq qarashlari tahlil qilindi. Jadidlar ayollar ta’limi, jamiyatda teng imkoniyatlar yaratish va ijtimoiy adolatni ta’minlash g‘oyalarini ilgari surgan. Bu qarashlar bugungi demokratik jamiyat qurilishi jarayonlari bilan mos keladi va zamonaviy ma’naviy qadriyatlar tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, jadidchilik g‘oyalari yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida ilmga intilish, innovatsion fikrlash va vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirishda jadidchilik merosi muhim motivatsion manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida jadid adabiyoti va g‘oyalarini o‘rganish orqali yosh avlodda milliy g‘urur va ma’naviy barqarorlikni shakllantirish mumkinligi aniqlangan[8].

**Xulosa.** Jadidchilik g‘oyalari zamonaviy ma’naviy qadriyatlar tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim g‘oyaviy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadidlarning ma’rifatparvarlik, ilm-fan, milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy adolat va taraqqiyotga intilish haqidagi qarashlari bugungi O‘zbekiston jamiyatining ma’naviy yangilanish jarayonlari bilan bevosita uyg‘unlashgan. Ularning ta’limga bergan ustuvor ahamiyati zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim tizimi bilan mos keladi va yosh avlodni intellektual hamda ma’naviy jihatdan rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Karimov, N. (2021). Jadidchilik va milliy uyg‘onish g‘oyalari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. To‘xtayev, A. (2020). Zamonaviy ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Mirzayev, S. (2022). Ma’naviy qadriyatlar va globallashuv jarayonlari. Toshkent: Ma’naviyat.
4. Hasanov, O. (2021). Jadid pedagogik qarashlarining zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni. Pedagogik ta’lim jurnali, 3(2), 45–52.
5. Jo‘rayev, B. (2023). Jadidchilik merosi va milliy modernizatsiya jarayonlari. O‘zbekiston ijtimoiy fanlar jurnali, 4(1), 12–19.
6. Yuldashev, Q. (2022). O‘zbek ma’rifatchilik harakati va jadidlar faoliyati. Toshkent: Sharq.
7. Rasulov, D. (2021). Jadidchilikning metodologik asoslari va zamonaviy talqinlari. Ilm-fan va jamiyat, 2(4), 33–40.
8. Karimova, L. (2023). Milliy identitet va ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasi. Madaniyat va ma’rifat ilmiy jurnali, 5(1), 21–28.

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 811.512.133'373.45:636

# AFFIKSATSIYA USULI ORQALI YASALGAN CHORVACHILIKKA OID TERMINLAR

*O‘rinova Olima Tog‘ayevna, Qarshi davlat universiteti, “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi dotsenti, f.f.n.*

# AFFIXATION-BASED TERMS RELATED TO LIVESTOCK BREEDING

*O‘rinova Olima Tog‘ayevna, Associate Professor of the Department of Uzbek Linguistics, Karshi State University, Candidate of Philological Sciences*

# ТЕРМИНЫ, СВЯЗАННЫЕ С ЖИВОТНОВОДСТВОМ, ОБРАЗОВАННЫЕ МЕТОДОМ АФФИКСАЦИИ

*Уринова Олима Тогаевна, доцент кафедры узбекского языкознания Каршинского государственного университета, кандидат филологических наук*



*https://orcid.org/0009-0003-5925-2341*
*e-mail: olima.urinova@mail.ru*

***Annotatsiya:*** *Tillarning tarixiy taraqqiyoti davomida so‘z yasalish jarayonida faol ishtirok etadigan usullardan biri affiksatsiya usulidir. Affiksatsiya usulining mohiyati uning so‘z yasashdagi miqdoriy ko‘rsatkichlari va imkoniyatlarini ma’lum bir soha leksikasi misolida o‘rganish tilshunoslikning muhim vazifalari sirasiga kiradi. Chorvachilik leksikasida so‘z yasalishi masalalarini o‘rganishda ishning hajm imkoniyatidan kelib chiqib, unda bu soha leksikasining affiksatsiya usuli asosida yasalgan so‘zlarga asosiy e’tibor qaratamiz.*

***Kalit so‘zlar:*** *semantik (yoki leksik-semantik), fonetik, sintaktik-leksik, affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya usuli.*

***Abstract:*** *One of the methods actively involved in word formation during the historical development of languages is the affixation method. Studying the essence of the affixation method, its quantitative indicators, and its potential in word formation using the vocabulary of a particular field as an example is an important task in linguistics. In examining word formation in the vocabulary of animal husbandry, based on the context of the work, we will focus on words formed using the affixation method in the vocabulary of this field.*

***Keywords:*** *semantic, phonetic, syntactic-lexical, affixation, compositional, abbreviation method.*

***Аннотация:*** *Одним из методов, активно участвующих в процессе словообразования в ходе исторического развития языков, является аффиксационный метод. Изучение сущности аффиксационного метода, его количественных показателей и возможностей в словообразовании на примере лексики определенной области является одной из важных задач лингвистики. При изучении вопросов словообразования в лексике животноводства, исходя из контекста работы, мы будем уделять внимание словам, образованным на основе аффиксационного метода лексики этой области.*

***Ключевые слова:*** *семантический, фонетический, синтаксически-лексический, аффиксационный, композиционный, аббревиационный метод.*

**Kirish.** Jahon va o‘zbek tilshunosligida har bir til hodisasini o‘rganishga yangicha yondashuvlar, yangi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Har bir tilning o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib, tilning o‘z tarixiy taraqqiyotini to‘g‘ri hisobga olgan holda tahlil va tadqiq etilayotganligi hamda tarixiy-tadrijiy taraqqiyot asosida o‘rganish borasida ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbek tilining chorvachilik leksikasi birinchidan, umumxalq tilining asosiy

lug‘at boyligi va grammatik imkoniyatlaridan, ikkinchidan esa, boshqa xalqlarning tillaridan olingan so‘z-termin va affikslardan foydalanib yasaladi va rivojlanib boradi. Umumtilshunoslikda so‘z yasalishi, uning diaxron va sinxron aspektdagi taraqqiyoti xususida turli xil fikrlar mavjud.

O‘zbek tilshunosligida tilning muntazam boyib borishiga xizmat qilayotgan so‘z yasalishining affiksatsiya usuli – turli xildagi affikslar vositasida yangi ma’noli yasama so‘zlarning yasalishida faol va mahsuldor usullardan biri hisoblanadi. Bu usul tilning taraqqiyot darajasini, uning rivojlanib borish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi, boylik ko‘lamini belgilovchi va baholovchi mezonlardan biridir. Til ilmida affiksatsiya usuli bilan yangi ma’noli yasama so‘zlarning yasalishida xizmat qiladigan so‘z yasovchi qo‘shimchalarning so‘z yasashdagi o‘rnini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili**. Mustaqillik tufayli ijtimoiy hayotning turli sohalarida, xalq xo‘jaligi, sanoat, qishloq xo‘jaligi, jumladan, paxtachilik, donchilik, o‘simlikshunoslik, chorvachilik kabi ko‘plab sohalarda o‘zbek tilining boyib borishi kuzatilmoqda. Shu ma’noda o‘zbek tilining muntazam boyib borishiga xizmat qilayotgan so‘z yasalishi qonuniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish g‘oyatda muhim vazifalardandir.

A.Hojiyev so‘z yasalishining asosiy usullari sifatida lingvistik adabiyotlarda qayd etilayotgan quyidagi: 1) semantik (yoki leksik-semantik), 2) fonetik, 3) sintaktik-leksik, 4) affiksatsiya, 5) kompozitsiya, 6) abbreviatsiya usul [1] larini sanab o‘tadi hamda ular orasida affiksatsiya usuli asosiy usullar ekanligini ta’kidlab va boshqa turkiy tillarda so‘z yasalishi o‘rganilgan lingvistik adabiyotlarda so‘z yasashning ikkitadan yettitagacha turi mavjudligini ko‘rsatadi. A.G‘ulomov ham hozirgi o‘zbek tilida so‘z yasashning keng qo‘llanadigan eng unumli va yetakchi turlari sifatida affiksatsiya va kompozitsiya usullarini ko‘rsatgan edi [2]. Biz ishimizda ishning hajm va imkoniyatidan kelib chiqib, chorvachilik leksikasida so‘z yasalishining affiksatsiya usullari haqida so‘z yuritamiz.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘z yasalishining asosiy usuli affiksatsiya usulidir. Hozirgi adabiy tilda yangi-yangi so‘zlar yasalishi, asosan, affiksatsiya usuli bilan so‘z yasalishida ko‘rinadi[3].

Ma’lumki, affiksal so‘z yasalishi asosga affiks qo‘shish, affiks yordamida so‘z yasalishi tushuniladi. Ya’ni deravatsiya lot.derivatio – yasalish, aynan, affiksal so‘z yasalishidir[4].

O‘zbek tili chorvachilik leksikasining shakllanishi va taraqqiyotida affiksatsiya usuli bilan so‘z yasalishining o‘rni beqiyos. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, bu usul bilan so‘z yasalishi gulchilik leksikasida eng faol va mahsuldordir.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Bu soha leksikasidagi so‘zlarga turli so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida ot, sifat, fe’l turkumiga doir so‘zlar yasalishi kuzatildi. Chunonchi: ***-chi, -дор, -ма, -гu, -к, -chilik, -xona, -poya,-zor, -bon, -vchi,-uvchi, -dosh, -shunos,*** kabi qo‘shimchalar bilan ot; ***-li, -siz, -ser,*** kabilar bilan sifatlar; ***-la, -lan, -lat*** ва shu kabi qo‘shimchalarning qo‘shilishidan fe’llar yasalgan.

Affiksatsiya usuli bilan so‘z yasalishining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ot, sifat va fe’l yasovchi qo‘shimchalar bilan so‘z yasalishi turli miqdoriy ko‘rsatkichlarga ega. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhlab o‘rganish mumkin:

**Ot yasalishi.** Chorvachilik leksikasida quyidagi affikslar yordamida ot turkumiga oid so‘zlar yasaladi.

**-chi qo‘shimchasi.** Bu affiks yordamida quyidagi ma’noli shaxs otlari yasaladi:

*Nonchi//yemchi* - cho‘pon qo‘lidan ma’lum vaqtda non-yem yeb, shartli refleks hosil qilgan qoramol. Bu termin *non* yoki *yem* o‘zaklariga *-chi* affiksining qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan.

*Oldinchi* - poda oldida yurib, to‘dani belgilangan tomonga boshqarib yuruvchi chorva moli.

[1] Ҳожиев А.Ўзбек тили сўз ясалиши. –Тошкент, 1989. – Б.29. 6

[2] Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.22.

[3] Ҳожиев А.Ўзбек тили сўз ясалиши. –Тошкент, 1989. – Б.35. 6

[4] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. -164 б.

*Sinoqchi* - chorva mollarining kuyukkanligini tekshirish uchun qo‘yilgan buqa. Bu termin qadimgi turkiy tilda *sinamoq* fe’lidan yasalgan, ya’ni: *sina+g‘*. Keyin *sinag‘ > sinaq +chi > sinaqchi*. Ammo shaxsga nisbatan qo‘llangan *sinaqchi* so‘zi soha terminologiyasida buqaga nisbatan qo‘llanishga o‘tgan.

*Egizchi* - kamdan-kam holatlarda egiz tug‘adigan chorva moli. *Egizchi* termini *ikki* soni asosida hosil qilingan.

*Saqmonchi* - tul paytida cho‘ponga yordam beruvchi va chorva mollariga qarab turuvchi shaxs.

*Podachi* – podani haydab olib yuruvchi, haydab yurib boquvchi shaxs. Fors-tojik tilidan o‘tgan *poda* so‘zi odatda bir turga oid chorva mollari to‘dasi (*mol podasi, qo‘y podasi, echki podasi* kabi)ni bildiradi. Bu so‘zga *-chi* qo‘shimchasi qo‘shilib podachi shaxs oti yasalgan. *Molboqar* so‘zida “qoramolni bir joyda boqish”ma’no qirrasi kuchli bo‘lsa, *podachi* so‘zida “qoramolni haydab yurib boqish” ma’no qirrasi qabariq ifodalangan.

*Sog‘uvchi* - sigir sog‘uvchi. Bu termin «sog‘moq» fe’li asosida hosil qilingan: *sog‘+uv+chi>sog‘uvchi.*

*Suvchi (obkash)* - cho‘pon yordamchisi. U ko‘pincha mollarni sug‘orish, qo‘shxonani suv bilan ta’minlash kabi vazifalarni bajaradi.

*Tuzlovchi* - shilib olingan mol terisini tuzlash va quritish hamda uni yig‘ishtirish ishlari bilan shug‘ullanuvchi shaxs. Terminning tarkibi: *tuz+la+v+chi>tuzlovchi*.

*To‘lchi* - to‘l paytidagina cho‘ponga yordam beruvchi shaxs, to‘l ishlari tugagach, u kishi o‘z ishiga qaytariladi.

*Ko‘nchi* - so‘yilgan mol terisini oshlash va teri sotish ishlari bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

*Qochiruvchi* - kuyukkan hayvonni maxsus shprits yordami bilan sun’iy usulda urug‘lantiruvchi shaxs. Bu termin «qochirmoq» fe’li asosida hosil qilingan;

-dor qo‘shimchasi orqali:

*Jaydari* - zebusimon qoramol. Bu termin ham aslida tojik tilining ta’siri tufayli vujudga kelgan, lekin bunga qaramay, u juda ko‘p asrlardan buyon chorvadorlar hayotiga, tiliga, umuman o‘zbek tiliga singib ketgan.

Etimologik nuqtai nazardan tekshirilganda, u quyidagicha vujudga kelgan: Termin o‘zagi - *jay (joy)+-dar(<-dor)+-i* bo‘lgan:

*-dar<-dor* yasovchi affiksi «*doshtan*» fe’lining hozirgi zamon shakli - «*dor*»ning o‘zagiga daxldordir.

*Beldor* - beli yo‘g‘on qoramol. Bu terminning vujudga kelishi ham juda soddadir: *bel* so‘ziga tojik tilidan kirgan *-dor* affiksining qo‘shilishi natijasida yasalgan: *bel+dor=beldor*.

*Xoldor//chirgidor* - badanidagi junining har-har joyida qora tuslari bo‘lgan chorva. *Xoldor* termini odam badanida uchraydigan xollarga nisbat berish asosida yaratilgan.

-ma qo‘shimchasi orqali:

*Chayqama* - boshini past va yuqoriga silkib, sekin yuruvchi chorva. Bu termin umumxalq tilidagi *chayqamoq (silkimoq* ma’nosida) fe’li asosida yasalgan. Bu fe’l chorva molining bosh harakatini aks ettiradi. Shu harakat molga nom berilishi uchun asos bo‘lganligi tufayli ham *chayqamoq* so‘zining o‘zagiga *-ma* affiksi qo‘shilishi natijasida termin yasalgan: *chayqa+ma=chayqama.*

*Qayirma shox* - buralgan va yuqoriga ko‘tarilgan shoxli chorva moli. U ba’zan *qayqi shox* ham deb ataladi. Bunday molning shoxi kalta yoki uzun bo‘lishidan qat’i nazar, uchi peshonaga qarab egilgan bo‘ladi. Shunga ko‘ra ham belgini bildiruvchi *qayqi* («egilgan», «bukilgan») so‘zi yordami bilan hosil qilingan.

*Ангрaйма* – chorva molining bir nuqtaga qarab qolish kasalligi; tentak kasalligining boshlang‘ich davri. Bu termin *angraymoq* (hayron holatda qolmoq) fe’li asosida yasalgan: *angray+ ma>angrayma.*

-q affiksi orqali:

*Sinoqchi* - chorva mollarining kuyukkanligini tekshirish uchun qo‘yilgan buqa. Bu termin qadimgi turkiy tilda *sinamoq* fe’lidan yasalgan, ya’ni: *sina+g‘*. Keyin *sinag‘>sinaq +chi > sinaqchi*. Ammo shaxsga nisbatan qo‘llangan *sinaqchi* so‘zi soha terminologiyasida buqaga nisbatan qo‘llanishga o‘tgan.

*O‘tloq* - molni o‘tlatadigan joy. Bu yaylovning bir qismi bo‘lib, kichikroq territoriyani tashkil qiladi. Bu termin *o‘tlamoq* fe’lining negiziga *-q* affiksining qo‘shilishi natijasida yasalgan: *o‘tla+q=o‘tlaq>o‘tloq.* O‘zakka *-q* affiksi qo‘shilishi bilan *-a* unlisi *-o* ga aylanadi.

TAMADDUN NURI

*Qo‘shoq* - sigirlarni sog‘ish uchun tayyorlangan joy. Bu yerda sigirlar qo‘shoqlanib sog‘iladi.

Bu termin *qo‘shmoq* fe’li asosida yasalgan: *qo‘sh+a>qo‘sha; qo‘sha+q>qo‘shoq.*

-gi affiksi orqali:

*Ko‘nargi* - qaynatilgan sutni qatiqqa aylantirish uchun, solinadigan ma’lum miqdordagi qatiq. Pishirilgan sutga (bir oz sovigach) ozgina miqdorda qatiq qo‘shilsa, sut shu qatiqning «talabiga ko‘nib» qotadi, ya’ni qatiqqa aylanadi. Shunga ko‘ra *“ko‘n”*-ga kelasi zamon sifatdoshi qo‘shimchasi *-ar* qo‘shilib, *ko‘nar* yasalgan, *-gi* ot ma’nosini beruvchi terminni hosil qilgan. *Ko‘nar+gi>ko‘nargi.*

*Kuydirgi* - yuqumli kasallik nomi. Bu kasallikka duchor bo‘lgan mol o‘ladi, o‘limtik esa chuqurga tashlanib, kuydiriladi. Ana shunga binoan ham uni «kuydirgi» deb ataydilar.

**Xulosa** sifatida aytish joizki, chorvachilik leksikasida affiksatsiya usuli bilan so‘z yasalishida so‘zlarga turli so‘z yasovchi qo‘shimchalar faol bo‘lib, chorvador xalq tomonidan bir qancha terminlar hosil qilingan va ular nutqida ishlatilib kelinmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:


1. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2019. – 117 b.
2. Ermatov I. O‘zbek tilshunoslik terminologiyasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. – 144 b.
3. Исмаилов Ғ. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фанл. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б.7. – 27 б.
4. Лейчик, В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура / В.М. Лейчик. – М., 2007.
5. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – S. 128.
6. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.22.
7. Ҳожиев А.Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент, 1989. – Б.29. 6.
8. Ҳожиев А.Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент, 1989. – Б.35. 6.
9. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. -164 б.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 821.512.133.09

# OLIM TOSHBOYEVNING “KISHAN” ROMANIDA MARQABOY OBRAZI VA UNING IJTIMOIY AHAMIYATI

*Yashinova Mahfuza, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs magistranti*

# THE IMAGE OF MARKABOY IN THE NOVEL “KISHAN” BY OLIM TOSHBOYEV AND ITS SOCIAL SIGNIFICANCE

*Yashinova Mahfuza, 2nd-year Master’s student of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi*

# ОБРАЗ МАРКАБОЯ В РОМАНЕ «КИШАН» ОЛИМА ТОШБОЕВА И ЕГО СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

*Яшинова Махфуза, магистрант 2-курса Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишер Навои*

*e-pochta: mahfuzayashinova@gmail. com*

***Annotatsiya:*** *Biz ushbu maqolada badiiy asarda obraz tushunchasi, uning nazariy asoslari, obraz yaratish mahorati haqida to‘xtalib o‘tganmiz. Shu bilan bir qatorda “Kishan” romanidagi Marqaboy obrazi, uning psixologik holatlari va davr nuqtayi nazaridan obrazning ahamiyatini romandagi parchalardan misollar keltirgan holda tahlil qilganmiz.*

***Kalit so‘zlar****: obraz, xarakter, psixologizm, Marqa so‘zi, izohli lug‘at, davr, ijtimoiy hayot.*

***Аннотация:*** *В данной статье мы рассмотрели понятие образа в художественном произведении, его теоретические основы, а также мастерство создания образа. Наряду с этим, на примере романа «Kishan» проанализирован образ Маркабоя, его психологическое состояние и значение образа с точки зрения эпохи, с приведением примеров из текста произведения.*

***Ключевые слова:*** *образ, характер, психологизм, слово «Марка», толковый словарь, эпоха, общественная жизнь.*

***Abstract****: In this article, we examined the concept of character (image) in a literary work, its theoretical foundations, and the skill of character creation. In addition, the character of Marqaboy in the novel “Kishan” is analyzed, including his psychological state and the significance of the character from the perspective of the period, with examples taken from the text of the novel.*

***Keywords:*** *image (character), character, psychologism, the word “Marqa, ” explanatory dictionary, period, social life.*

**Kirish.** Badiiy asar bor ekan unda obraz bo‘ladi. Har qanday asarni badiiy obrazsiz tasavvur qilolmaymiz. Xoh lirik, xoh epik, xoh dramatik turga mansub asar bo‘lsin asarning markazida qahramon turadi. “Adabiyotshunoslikda “badiiy obraz”atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda “badiiy obraz” deganda borliqning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi (jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma’noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi.

Borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning markazida inson obrazi turadi. Negaki, borliqning o‘zida inson shu xil mavqe egallaydi. Shunday ekan, badiiy adabiyotning borliqni idrok etishida inson obrazining asosiy vosita bo‘lishi tabiiy va qoniniydir”[1. 97].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, borliqdagi jonli va jonsiz narsalarning

barchasi badiiy adabiyotga obraz sifatida kiritilishi mumkin. Hatto kichik hajmdagi she'rlarda ham obraz va lirik qahramon tushunchalari mavjud bo‘ladi. Har qanday badiiy asarda inson taqdiri va uning ichki kechinmalari bosh planga qo‘yiladi. Bu holatni roman janrida to‘laqonli ravishda ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchi ma'lum bir asar ustida ishlar ekan, albatta asar qahramonlari, ularning taqdiri, xarakteri, portreti, xatti-harakatlari ustida alohida fikr-mulohaza qiladi. Yozilajak badiiy asar uchun ma'lumot, material to‘playdi. Bu tayyorgarlik jarayonining ichiga qahramon tanlash, uni rivojlantirish, boyitish alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi inson obrazini yaratar ekan, asardagi davr voqealaridan va yon atrofida yashovchi insonlar fe'l -atvoridan kelib chiqib, shu bilan birga o‘z idealidagi inson obrazini qo‘shib ma'lum bir qahramonni yaratadi.

"Badiiy adabiyotda inson obrazini to‘laqonli yaratish, uni o‘quvchi ko‘z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud. Bularga *muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi* kabi badiiy unsurlar kiradi"[1.99]. Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra muallif o‘z asariga ma'lum bir qahramonni kiritar ekan, albatta u qahramonga xos xarakter, nutq va qahramon portretini ham chizib berishi muhim sanaladi. Ammo har bir ijodkor bu unsurlarga turlicha yondashadi. Kimdir nutqqa ko‘proq e'tibor qaratsa, kimdir portretni mohirlik bilan chizadi. Biz tahlil qilmoqchi bo‘lgan roman muallifi Olim Toshboyev ham qahramon ya'ni obraz yaratishda o‘z uslubiga ko‘ra ish tutgan ijodkorlardan hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili**. Muallifnining "Kishan" romanini o‘qir ekanmiz romandagi qahramonlarning portretiga u qadar ko‘zimiz tushmaydi. Ijodkor qahramon portretini qisqacha gavdalantirib o‘tadi. Asosiy jihat esa ularning ismlari va fe'l atvorlaridan kelib chiqqan hatti-harakatlariga qaratiladi. Roman bosh qahramoni Oltiboy oqsoqol bo‘lib, u Halim Xumsa (bog‘dor)ning o‘g‘li. Halim Xumsadan Oltiboy va Marqaboy ismli 2 o‘g‘il qoladi. Romanda Sovet ittifoqi davrida Ittiffoqqa xizmat qilgan Oltiboy oqsoqolning mirshablik davrlari va keksaygandan keyingi hayoti aks etadi. Qolgan personajlar o‘sha voqealar atrofida harakatlantiriladi.

Romanda barcha voqealarning markazida turgan **Boybo‘ri** (Oltiboyning 60 yoshida ko‘rgan oltinchi o‘g‘li) obrazini uchratamiz. Yozuvchi bu obrazni kelajakka umid, uzilgan rishtalarni tiklovchi, urf-odat, qadriyatlarni qadrlovchi yosh avlod timsolida asarga kiritgan bo‘lsa ajab emas. Ammo biz bugun tilga olmoqchi bo‘lgan qahramon Marqaboy cho‘pon obrazi. **Marqaboy** – bu kam uchrovchi, yon atrofimizda quloqqa chalinmaydigan ismlar turiga kiradi. Shuning uchun qahramon xarakteri, ichki olamiga kirishdan avval bu ismning ma'nosini tahlil qilishga qaror qildik. Sababi ko‘pgina yozuvchilar kabi muallif Olim Toshboyev ham o‘z qahramonlariga ularning tashqi yoki ichki olamidan kelib chiqqan holda ism tanlashni ma'qul ko‘rishiga guvoh bo‘lamiz.

**"Marqa"** so‘zi o‘zbekcha so‘z bo‘lib, qo‘zichoq, ya'ni qo‘ylar qo‘zilayotgan paytda tug‘ilgan bola; marqa-botir, pahlavon degan ma'nolarni bildiradi"[2. 212].

Ismning yana bir ma'nosi bo‘lib, bu ma'lum bir izohli lug‘atga kiritilmagan, ammo shevaga oid yoki fonetik o‘zgarishga uchragan so‘z sifatida qaraydigan bo‘lsak"**marq**"/"**mark**" ildizi bilan bog‘lab "belgi", "iz" ajralib turuvchi xususiyat ma'nosiga yaqin holatda ham tahlil qilish mumkin. Ammo bu ma'no ilmiy jihatdan tasdiqlanmagan.

***"Boy**"so‘zi esa o‘zbek tilida juda faol komponent bo‘lib, aksariyat ismlardan so‘ng qo‘shiladigan so‘z hisoblanadi.*

*"Boy"(o‘z)-davlatli, badavlat yoki hukmron, hokim ma'nolarida ishlatiladi* [2.66].

Har ikkala ma'no ham bizningcha qahramonimizga to‘la mos keladi. Marqaboy ismini muallif qo‘ylar qo‘zilayotganda tug‘ilgan bola ma'nosida qo‘llagan bo‘lsa ajab emas. Sababi roman qahramoni cho‘pon bo‘lib, umri dalada mol va qo‘y boqish bilan o‘tgan, qo‘y-qo‘zilar, hayvonlar tilini tushunadigan inson sifatida tasvirlangan. Buni tashqi belgi deb hisoblaymiz.

Endi ismning "belgi", "ajralib turuvchi" kabi ma'nolariga diqqat qaratamiz. Tasodifni qarangki Marqaboy romanda akasi Oltiboydan farqli o‘laroq nihoyatda pok qalbli, vijdonli va o‘ta g‘ururli shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu esa qahramonning insoniy fazilatlari bo‘lib, atrofdagi va davr nuqtayi nazaridan o‘z xalqini, vijdonini sotayotgan insonlardan ajralib turuvchi alohida belgiga ega shaxs ekanini ko‘rsatadi. Shunday ekan, Marqaboy ismi qahramonga ham tashqi ham ichki belgilar jihatidan to‘la mos deya olamiz.

"Oltiboy oqsoqol ta'biri bilan aytganda, Marqaboy tayoqday to‘g‘ri odam. Buning ustiga, ismi jismiga mos-oyoq-qo‘llari uzun-uzun, burni qulog‘ochday, kaftlari rapidaday, boshi savatday,

sallasi qozonday. Bobo bir umr mol boqqan:goh chagana, goh davlatniki. Marqaboy eshak minib ovul oralasa oyoqlari selanglab, yer chizib ketadi. Shuning uchun ham eshakka uzangi taqadi. Marqaboy Oltiboy oqsoqol yil sayin kichrayib (Tavba deyman, nevaralarimiz yontoqqa chiqib azon aytmasa go‘rga edi!..)borayotgan elning yuz yil oldingi ajdodlaridan ulgiday taassurot uyg‘otadi”[3. 86-87].

Yuqoridagi parchada muallif Marqaboyning portretini mahorat bilan tasvirlaydi. Marqaboyning tashqi qiyofasi ham cho‘ponlarga xos ekani alohida ta’kidlanadi. Ehtimol, inson yillar davomida qaysi kasb bilan shug‘ullansa, asta-sekin o‘sha kasbga har tomonlama moslashib borishi ham shundandir. Go‘yo Marqaboy ham aynan cho‘pon bo‘lib yaralgandek tasvirlanadi. Asosiy vaqtini dasht-u dalada o‘tkazadigan insonlarning tashqi ko‘rinishi bir-biriga o‘xshash bo‘lishi ham, shubhasiz, tabiat ta’siri bilan izohlanadi.

“Saksondan oshgan Marqaboyning bilgani birgina alif va qozi — “qo‘zi” bo‘lib, harom o‘lgan, so‘yilgan, terilangan qo‘zilar hisobi yuritiladigan “temir” daftari qatorasiga tortilgan alif va “qozi”larga to‘la edi” [3.87]. Ushbu parchadan Marqaboy cho‘ponning naqadar halol inson ekani yaqqol namoyon bo‘ladi. Garchi savodi bo‘lmasa-da, birovning haqqidan qo‘rqish, o‘zganing moliga xiyonat qilmaslik uning pokligi va halolligidan dalolat beradi.

“Marqaboy bolaligidan juda oriyatli, yelka tomiri yo‘g‘on bo‘lib o‘sdi. Nohaqlikni ko‘rdi — tamom, birdan qoni qaynaydi. Soqoli ko‘ksiga tushgan chog‘ida ham qirchillama yigitlarni “bobojon...” latib urganini ko‘pchilik ko‘rgan” [3.87].

Ko‘rinib turibdiki, Marqaboy oddiy cho‘pon bo‘lishiga qaramay, nohaqlikka qarshi turadigan, oiladagi janjallar, jamiyat va insonlarga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlarga murosasiz inson sifatida gavdalantiriladi. U bunday holatlarga befarq qaray olmaydi, ularga shunchaki ko‘z yumib o‘ta olmaydi. Buning sababi uning qalbida jo‘sh urib turgan insoniylik, vijdon, or-nomus tuyg‘ularidir. Jamiyatda yuqori mavqega ega yoki mansabdor shaxs bo‘lmasa-da, o‘zi yashab turgan muhitda odamlar o‘rtasida ahillik va totuvlik qaror topishini istaydi. Biroq shunday shijoatli inson ham keksaygan sari hayotiy xulosalarga keladi: “Marqa bobo yetmishdan oshib nohaqlikka tayoq ko‘tarmay qo‘ydi. O‘z ta’biri bilan aytganda, tiliga suyanib qoldi: “Oriyatning davri o‘tdi, bolam! Hozir ming xato qilsin, birovni bir shapaloq urib ko‘ring… O‘x-xu-u, sudma-sud qatnab yurgan kuningiz…”” [3.88].

Mazkur parchadan anglashiladiki, Marqaboy bobo oriyat va vijdon bilan yashagan bo‘lsa-da, insonlarni to‘g‘ri yo‘lga solish tobora murakkablashib borayotganini chuqur anglab yetadi.

“Marqaboyning ko‘ngli bamisoli keng dala. Yuzi ham, qo‘li ham, xalqona aytganda, ketiyam ochiq odam. Kampiri bor-yo‘g‘i shovla-jalama qilgan bo‘lsayam, qo‘ni-qo‘shnini aytib chiqadi. Sabzisiz, qo‘y go‘shti va qo‘y moyi solingan shovlaning ta’mi, oh-oh, og‘zingizda qoladi” [3. 88]. Muallif ushbu cho‘pon obrazida ko‘ngli ham, qo‘li ham ochiq, birovga yomonlik qilmaydigan, soddadil insonni gavdalantiradi. Cho‘pon kamgap, birovga ziyoni tegmaydigan, ammo nohaqlikka qarshi chiqa oladigan, to‘g‘riso‘z inson sifatida tasvirlanadi. Yolg‘onni bilmaydigan bu oqko‘ngil inson ancha ishonuvchan ham bo‘lib, muallif buni bir qancha misollar orqali ko‘rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Marqa bobo tashqaridan oddiygina cho‘pon bo‘lib ko‘rinardi. Sababi, har kim ham u bilan yaqindan suhbat qurmas edi. Shu bois ko‘pchilik uning boy va go‘zal ichki olamidan bexabar edi. Ammo Boybo‘ri amakisini nihoyatda yaxshi ko‘rar, Qo‘shbuloqqa kelishi bilanoq uning suhbatiga oshiqardi: “Boybo‘ri qachon uyga kelsa, otasiga bildirib-bildirmay amakisi Marqa bobo gurungiga shoshadi. Oltiboy oqsoqol sirtiga sizdirmasa ham, ich-ichidan mamnun: kenja tufayli uzilgan rishtalar ulanishini chin dildan istaydi” [3. 89–90].

Boybo‘ri Oltiboyning kenja o‘g‘li bo‘lib, Marqaboy va Oltiboy o‘rtasida bir qancha ginalar mavjud edi. Marqaboy akasi Oltiboyning qilmishlariga chiday olmay, u bilan bordi-keldini uzgan edi. O‘rtada devor bo‘lsa-da, aka-ukalik munosabatlari uzilgan edi. Oltiboy qarigach, o‘g‘li tufayli bu aloqalar tiklanishidan umid qiladi. Marqaboyning akasi bilan bunday sovuq munosabatda bo‘lishiga jiddiy sabablar bor edi: “Oltiboy mirshab bo‘lib yurgan chog‘larida boylarning mol-mulkini ochiq-oydin tortib olgan bo‘lsa, urushdan keyin ot o‘g‘irlashni pinhona kasb qildi” [3. 91].

Bir qorindan tushgan bo‘lsa-da, aka-ukaning fe’l-atvorida keskin farqlar mavjud edi. Tabiatan mansabparast, hurmat-izzatga o‘ch, obro‘li insonlar oldida yaxshi ko‘rinishga urinuvchi va bu yo‘lda hech narsadan qaytmaydigan, hatto ko‘plab ziyoli insonlarning yostig‘i qurishiga “hissa” qo‘shgan Oltiboy oqsoqol mirshablik davrida qo‘shni

qishloqlardan ot o‘g‘irlashni odat qilib oladi. Ot o‘g‘rilari haqida odamlardan eshitgan Marqaboy o‘g‘ri o‘z akasi ekanini bilgach, nihoyatda og‘ir ruhiy holatga tushadi.

“Betimning qizargani ko‘rinmadimikin, deb yuzini necha marta burdi. Axir, qishloqlarda yo‘qolgan qancha-qancha qoramol va otlarning daragi chiqmagan edi-da! Nahotki, elning qo‘riqchisi, qo‘lida nagan tutgan milisa og‘asi qip-qizil o‘g‘ri bo‘lsa! Nahotki, u o‘g‘rining inisi?! Yo‘q! Marqaboy uyatdan, or-nomusdan ichi yonib, a’zoyi badanini qaltiroq tutdi”.

**Tahlillar va natijala**r. Marqaboy obrazi romandagi asosiy qahramonlardan biri sifatida tasvirlanadi. Bu obraz Oltiboy oqsoqolga qarama-qarshi qo‘yilgan bo‘lib, ma’lum ma’noda uni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, noto‘g‘ri yo‘lda ekanini eslatib turuvchi qahramon sifatida gavdalantiriladi. Roman voqealari mustabid tuzum va undan keyingi davrlarda sodir bo‘ladi. O‘sha paytlarda ham cho‘ponlarga oddiy ko‘z bilan qaralgan, ular jamiyat tomonidan u qadar ahamiyatli deb hisoblanmagan. Bugungi kunda ham bu holat ma’lum darajada saqlanib qolgan. Ko‘pincha cho‘ponlarning vazifasi dalada qo‘y-qo‘zilarga qarashdan iborat degan qarash mavjud. Ammo ularning xayollari, orzu-istaklari, ichki kechinmalari va dunyo haqidagi mulohazalari ko‘pchilikni qiziqtirmaydi. Marqaboy ham aynan shu sababli insonlar bilan u qadar yaqin emas edi. Uning do‘sti va sirdoshi Bo‘ston laqabli oti edi. Biroq Marqa cho‘ponni yaqindan bilgan inson uning suhbatini yana sog‘inishi shubhasiz.

“Boybo‘ri Marqaboyning gapga chechan, topqir, suhbat boshlasa o‘tirgan odamni mixlab tashlaydigan jaydari fe’lini juda ko‘pchilik, hatto akalari ham bilmasligiga hayron bo‘lib o‘tirardi. Mulla Qarshi cho‘pon boboni alqab qoladi. Aytishicha, Ro‘zi Kalatda-kamarda ochilib qolgan toshqalama go‘rdan chiqqan kitoblarni terib kelib hadya qilgan” [3. 96]. Mulla Qarshi romanda diniy qadriyatlarga xos iymon-e’tiqod bilan yashovchi obraz sifatida tasvirlanadi. U Oltiboydan farqli ravishda Marqaboyni alohida hurmat qiladi. Buning sababi esa undagi insoniylik va to‘g‘rilik fazilatlaridir. Muallif ukaning vajohatini, akani do‘pposlash holatini shu qadar mohirlik bilan tasvirlaganki, kitobxon bu manzarani xuddi ko‘zi bilan ko‘rayotgandek tasavvur qiladi.

**Xulosa.** Marqaboy umrining so‘ngiga qadar iymoni va vijdoniga xilof bormay yashaydi. U keksaygan chog‘ida ham akasining o‘zgarmas fe’l-atvori va xatti-harakatlaridan norozi bo‘lib qolaveradi. Muallif bu obrazni bejiz kiritmagan. Oriyatli bu inson har qanday davr mafkurasidan qat’i nazar, o‘zligini saqlab qoladi. U atrofdagilarga ham befarq emas. Ammo Ittifoqqa ergashgan, mansab yo‘lida o‘z xalqini sotadigan amaldorlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashga uning kuchi yetmaydi. Sababi, ular ko‘pchilik edi. Obro‘ va to‘kin hayot yo‘lida vijdonidan, g‘ururidan, qadriyatlariyu dinidan voz kechgan manqurt shaxslar jamiyatda ustun edi. Oddiy cho‘pon esa bu jarayonlarga yolg‘iz qarshilik ko‘rsata olmasdi.

Shunga qaramay, xalq orasida bunday insonlarning mavjudligi kelajakka umid uyg‘otadi. Ular davrga ochiq qarshilik ko‘rsata olmagan bo‘lsalar-da, o‘z oilalarida sog‘lom muhitni shakllantira olganlar. Natijada ana shunday oilalarda o‘z millatini, urf-odat va qadriyatlarini hurmat qiladigan yosh avlod voyaga yetib, jamiyat hayotiga kirib kelgan. Bu esa, shubhasiz, katta yutuqdir. Zero, bola oiladagi muhit ta’sirida ulg‘ayadi. Qolaversa, pok nasl, iymon-e’tiqod va insoniylik ruhida tarbiya topgan avlod kelajakda o‘z milliyligini va ozodligini asrab qolishi tabiiydir. Shu bois ushbu obrazni ana shunday barkamol avlodning shakllanishiga hissa qo‘shgan insonlar qatoriga kiritish mumkin.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Quronov D. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. — Toshkent: Akademnashr, 2018. — 480 b.
2. Begmatov E. A. *O‘zbek ismlari ma’nosi (izohli lug‘at)*. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. — 608 b.
3. Toshboyev O. *Kishan*. — Toshkent: Oltin Qalam nashriyoti MCHJ, 2024. — 270 b.
4. Internet manbalari.

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 8209

# ТРАНСФОРМАЦИЯ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АСПЕКТ

***Саидова Нилуфар Зарифовна, преподаватель кафедры русского языка и литературы Каршинского государственного университета***



***https://orcid.org/0009-0007-9056-1547***
***e-mail: saidovalili0406@gmail.com***

# RUS VA O‘ZBEK PROZASIDA MAGIK REALIZM-NING TRANSFORMATSIYASI: QIYOSIY ASPEKT

***Saidova Nilufar Zarifovna, Qarshi davlat universiteti “Rus tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi***

# TRANSFORMATION OF MAGICAL REALISM IN RUSSIAN AND UZBEK PROSE: COMPARATIVE ASPECT

***Saidova Nilufar Zarifovna, Lecturer, Department of Russian Language and Literature, Karshi State University***

***Аннотация:*** *Статья посвящена сравнительному анализу трансформации магического реализма в русской и узбекской прозе XX–XXI веков на примере произведений Михаила Булгакова и Зульфии Куролбой кызы.*

***Ключевые слова:*** *магический реализм, русская проза, узбекская проза, трансформация, фольклор, мифология, гуманизм, сравнительный анализ.*

***Annotatsiya:*** *Maqola XX–XXI asr rus va o‘zbek prozasida magik realizmning transformatsiyasini Mixail Bulgakov va Zulfiya Qurolboy qizi asarlari misolida qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *magik realizm, rus prozasi, o‘zbek prozasi, transformatsiya, folklor, mifologiya, gumanizm, qiyosiy tahlil.*

***Abstract:*** *The article is devoted to a comparative analysis of the transformation of magical realism in Russian and Uzbek prose of the 20th–21st centuries based on the works of Mikhail Bulgakov and Zulfiya Kurolboy qizi.*

***Keywords:*** *magical realism, Russian prose, Uzbek prose, transformation, folklore, mythology, humanism, comparative analysis.*

**Введение.** Магический реализм, зародившийся в латиноамериканской литературе середины XX века, быстро стал одним из наиболее влиятельных и оригинальных художественных методов столетия. Он позволил писателям органично соединять реальное и фантастическое в едином повествовательном пространстве, стирая привычные границы между обыденностью и чудом. Как справедливо отмечает А. Ф. Кофман, «магический реализм разрушает границы между обыденным и чудесным, открывая мифологическую глубину повседневности» (Кофман, 2015, с. 12).

В русской и узбекской прозе этот метод претерпел значительную трансформацию, обогатившись национальными культурными кодами, историческим опытом и философскими традициями двух народов. Он приобрёл новые смысловые оттенки, отразив специфику национального мировосприятия и социально-исторический контекст каждой литературы.

Творчество Михаила Булгакова и Зульфии Куролбой кызы ярко иллюстрирует, как магический реализм превращается в мощный инструмент осмысления действительности, острой социальной критики

и утверждения вечных нравственных ценностей. Несмотря на очевидные культурные и мировоззренческие различия, оба автора создают многомерный художественный мир, в котором фантастическое не противопоставляется реальности, а помогает глубже понять её сущность, а сверхъестественное раскрывает внутренние конфликты человека, общества и эпохи.

**Литература и методология.** Исследование выполнено на основе комплексного подхода, включающего сравнительно-типологический, культурологический и сравнительно-исторический методы. Такой методологический инструментарий позволил выявить как универсальные черты магического реализма, так и его национально-специфические трансформации в русской и узбекской литературах. Материалом исследования послужили ключевые произведения: роман М. Булгакова «Мастер и Маргарита» и рассказы З. Куролбой кызы, в частности «Древняя песня» («Qadimiy qo‘shiq») и «Голоса предков». Анализ включает культурологический метод для выявления национальной символики и мифопоэтических элементов, литературоведческий – для детального изучения поэтики, композиции и художественных приёмов, а также сравнительно-исторический подход, позволяющий проследить особенности трансформации магического реализма в различных культурно-исторических контекстах.

**Обсуждение.** В русской прозе магический реализм приобретает ярко выраженный сатирико-философский характер. В романе Михаила Булгакова «Мастер и Маргарита» сверхъестественное в лице Воланда и его свиты внезапно вторгается в атеистическую советскую Москву 1930-х годов, обнажая пороки, ложь, корысть и духовную пустоту общества. Знаменитая фраза Воланда: «Я – часть той силы, что вечно хочет зла и вечно совершает благо» (Булгаков, 1983, с. 45) ярко подчёркивает диалектику добра и зла, а также сложность нравственного выбора в мире, где граница между ними часто размыта. Булгаков использует фантастику не столько для развлечения, сколько как мощное художественное средство социальной критики и философского осмысления действительности. Такие ключевые мотивы, как «рукописи не горят», проповедь истины Иешуа и сила любви Маргариты, убедительно демонстрируют торжество духовного начала над материальным и пошлым.

В узбекской прозе магический реализм трансформируется преимущественно в мистико-фольклорном и лирическом направлении, опираясь на богатые традиции восточной притчи, суфизма и узбекских народных поверий. В рассказах Зульфии Куролбой кызы («Древняя песня», «Голоса предков») граница между жизнью и смертью, реальностью и потусторонним миром становится почти прозрачной. Героиня «Древней песни» продолжает испытывать глубокое чувство любви даже после смерти, являясь своему возлюбленному через сны, дуновение ветра и древние мелодии. Автор подчёркивает: «Миллион лет тому назад… и сейчас — это одно и то же» (Куролбой кызы, 2011, с. 32). В этом контексте фантастическое выступает средством выражения идеи вечности человеческих чувств, непрерывной связи поколений и духовного бессмертия.

Если Булгаков опирается на европейскую традицию гротеска и карнавальной культуры (Бахтин, 1979, с. 284), то Куролбой кызы черпает вдохновение из узбекского фольклора, коранических мотивов и суфийской философии. В результате её магический реализм носит более лиричный, интроспективный характер, сосредоточен на внутреннем мире человека, духовном очищении, гармонии с природой и неразрывной связи с предками.

Таким образом, несмотря на существенные различия в стилистике и культурных истоках, оба писателя демонстрируют, что фантастическое в магическом реализме не противопоставляется реальному, а органично дополняет его, позволяя увидеть скрытые, глубинные стороны бытия. В их произведениях магический элемент выполняет важнейшую этическую и гуманистическую функцию: помогает читателю осознать ценность добра, любви, справедливости и внутренней свободы.

TAMADDUN NURI

**Результаты.** Сравнительный анализ выявил ряд устойчивых закономерностей трансформации магического реализма в русской и узбекской прозе. В центре обоих литературных миров находятся универсальные человеческие ценности – любовь, добро, истина и борьба со злом. Однако способы их художественного раскрытия существенно различаются: если М.Булгаков передает эти ценности через острую сатиру, динамичный сюжет и философский гротеск, то З. Куролбой кызы использует лирическую медитацию, мистическое переживание и тонкую психологическую глубину. Национальная специфика проявляется в стилистике и поэтике: у Булгакова преобладают ирония, гипербола, ритмичная проза и карнавальный смех, тогда как у Куролбой кызы доминируют поэтическая образность, афористичность, символика природы и фольклорные мотивы, среди которых особенно выделяется образ «древней песни» как голоса души народа и памяти поколений. Важно отметить, что у обоих авторов фантастическое и сверхъестественное выполняют ярко выраженную катарсическую и воспитательную функцию: они освобождают человека от страха, расширяют границы сознания, воспитывают сострадание и помогают осознать сложность и многомерность бытия. Наконец, культурная адаптация магического реализма носит ярко выраженный национальный характер: в русской литературе он стал одной из форм художественного сопротивления тоталитаризму и идеологическому давлению, а в узбекской прозе — действенным средством возрождения национальной духовности, исторической памяти и традиционных ценностей в постсоветский период.

**Заключение.** Трансформация магического реализма в русской и узбекской прозе демонстрирует удивительную способность этого художественного метода адаптироваться к национальным художественным традициям, сохраняя при этом свой универсальный гуманистический смысл. Творчество Михаила Булгакова и Зульфии Куролбой кызы убедительно доказывает, что органичное сочетание реального и фантастического позволяет глубже осмыслить современность, сохранить культурную память и передать вечные нравственные ценности новым поколениям.

Через магический реализм оба автора утверждают, что истинная реальность многомерна, а человек способен преодолеть границы времени, пространства и даже смерти силой любви, веры и творчества. Таким образом, данный художественный метод становится своеобразным мостом между культурами и эпохами, значительно обогащая мировую литературу.

**Использованная литература:**


1. Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура Средневековья и Ренессанса. – М.: Художественная литература, 1979.
2. Булгаков М.А. Мастер и Маргарита. – М.: Художественная литература, 1983.
3. Buranova J.A. Temur Po‘latovning “Taroziy toshbaqasi” romanida arxetipik obrazlar tizimi // Tamaddun nuri. 6 (69), 2025. – B. 27-29. https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tnj/issue/view/24
4. Гирин Н.Ю. Поэтика сверхпредельности: к интерпретации художественных процессов латиноамериканской литературы. – СПб.: Алетейя, 2008.
5. Гугнин А.А. Магический реализм в контексте литературы XX века. – М., 1998.
6. Каримов З.А. Магический реализм в современной узбекской прозе // Philology. – 2024. https://cyberleninka.ru/article/n/magicheskiy-realizm-v-sovremennoy-uzbekskoy-proze
7. Кофман А.Ф. Магический реализм в литературе. – М., 2015.
8. Куролбой кызы З. Qadimiy qo‘shiq: hikoyalar. – Тошкент: O‘zbekiston, 2011.
9. Хамидов Б. Adabiyotning estetik tamoyillari. – Тошкент, 2012.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 821.512.161.09-31

# O‘RXON PAMUQ IJODI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

*Asadova Dilbarxon Fayzulloyevna,*
*TDShU “Turkshunoslik oliy maktabi”stajyor-o‘qituvchi,*
*mustaqil tadqiqotchi*

# SOME REFLECTIONS ON THE WORKS OF ORHAN PAMUK

*Asadova Dilbarkhon Fayzulloyevna,*
*Assistant Lecturer, Independent Researcher “Higher School of Turkic Studies”*
*Tashkent State University of Oriental Studies*

# НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ТВОРЧЕСТВЕ ОРХАНА ПАМУКА

*Асадова Дилбархон Файзуллоевна,*
*Стажёр-преподаватель, независимый исследователь*
*“Высшая школа тюркологии” Ташкентский государственный университет востоковедения*



*https://orcid.org/0009-0007-1522-5877*

*dilbarasadova1994@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Maqolada Turkiyalik zabardast ijodkor, Nobel mukofotining laureati O‘rxon Pamuqning hayoti va ijodi haqida so‘z boradi. Unda adib bosib o‘tgan ijodiy yo‘lning o‘ziga xosliklari, adib asarlarining nashri va e’tiroflari haqidagi mulohazalarga keng o‘rin berilgan. Adibning romanlari yuksak badiiyati bilan ajralib turadi. Ayni adabiy-estetik hodisalar mohiyati “Mening ismim – Qirmizi” romani misolida yoritilgan. Bunda tarixiy romanning poetikasiga oid jihatlarni ko‘rsatib berishga alohida e’tibor qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *O‘rxon Pamuq, tarixiy roman, Nobel mukofoti, “Mening ismim Qirmizi”, poetika, tarjima.*

***Annotation:*** *The article discusses the life and work of the prominent Turkish writer and Nobel Prize laureate Orhan Pamuk. It examines the distinctive features of the writer’s creative path and provides detailed reflections on the publication and recognition of his works. The author’s novels are distinguished by their high artistic quality. The essence of these literary and aesthetic phenomena is illustrated through the example of the novel My Name Is Red. Particular attention is given to identifying and explaining aspects related to the poetics of the historical novel.*

***Key words:*** *Orhan Pamuk, historical novel, Nobel Prize,* My Name Is Red, *poetics, translation.*

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются жизнь и творчество выдающегося турецкого писателя, лауреата Нобелевской премии Орхан Памук. В ней широко освещаются особенности его творческого пути, издание произведений автора и их признание в мире. Романы писателя отличаются высоким художественным уровнем. Сущность актуальных литературно-эстетических явлений раскрывается на примере романа “Меня зовут Красный”. Особое внимание уделяется вопросам поэтики исторического романа.*

***Ключевые слова:*** *Орхан Памук, исторический роман, Нобелевская премия, «Меня зовут Красный», поэтика, перевод.*

**Kirish.** Jamiyat hech qachon bir joyda qotib tura olmaydi. Hayotdagi o‘zgarishlar, yangilanishlar, ijtimoiy-ma’naviy hayot taqozo etadigan ehtiyojlar tizimining o‘zi uni har doim harakatga solib turadi. “Bugun biz davlat va barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”.[1] Ushbu ta’kid badiiy adabiyotga, shu adabiyotni yaratayotgan ijod ahliga ham chambarchas bog‘liqdir.

Globallashuv jarayonlari avj olib borayotgan hozirgi davrda ijod ahli mana shunday harakatlarning tashabbuskori va yalovbardori bo‘lib kelgan. Ular orasida taniqli turk adibi O‘rxon Pamuq ham bor.

O‘rxon Pamuq bundan rosa yigirma yil oldin – 2006-yilda Nobel mukofotini olgan turkiyalik yirik adibdir. Alohida ta’kidlash joizki, u turkiy xalqlar ijodkorlari orasida bunday yuksak mukofotga musharraf bo‘lgan birinchi va hozircha yagona adib hisoblanadi. U faqat Turkiyada emas, uning tashqarisida ham juda mashhur ijodkor: adib asarlarining hozirgacha ellikdan ortiq jahon tillariga tarjima qilingani bejiz emas.[2]

U 1952-yilda Istanbulda o‘ziga to‘q oilada dunyoga kelgan. Shunga qaramay oilaviy biznes tanazzuli, boshqa ijtimoiy-maishiy hayotdagi muammo va masalalar uning taqdiridagi o‘ziga xosliklarni tashkil etgan. U rassom va me’mor bo‘lish orzusi bilan yashagan. Oxirigacha yetkazmagan bo‘lsa-da, shu sohaga oid bilim yurtlarida tahsil olgan. Ko‘plab rasmlar chizgan. Oxir-oqibatda esa yozuvchi sifatida dong taratgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Pamuq sermahsul ijodkor. Faqat, romanlarining o‘zigina unga katta obro‘ keltirgan. Xususan, “Cevdat Bey ve Oğulları” (“Javdat Bey va o‘g‘illari”, 1982), “Sessiz Ev” (“Sassiz uy”, 1983), “Beyaz Kale” (“Oq qal’a”, 1985), “Kara Kitap” (Qora kitob”, 1990), “Yeni Hayat” (“Yangi hayot”, 1994), “Kar” (“Qor”, 2002), “Masumiyet Müzesi” (“Beg‘uborlik muzeyi”, 2008), “Kafamda Bir Tuhaflık” (“Boshimdagi g‘alati holatlar”, 2014), “Kırmızı Saçlı Kadın” (“Qirmizi sochli ayol”, 2016), “Veba Geceleri” (“Vabo kechalari”, 2021).

Alohida ta’kidlash lozimki, O‘rxon Pamuq Turkiyada mamlakat ichidagi hamda uning tashqarisidagi tanlovlarda eng ko‘p mukofotlarni olgan adibdir. Jumladan, “ilk mukofotini Antalya “Oltin Apelsin” kinofestivali doirasida o‘tkazilgan hikoya tanlovida uchinchi o‘rinni egallaganida (1975 yil) u 23 yoshda bo‘lgan. Ilk romani “Karanlık ve Işık” bilan Milliyet roman tanlovida ishtirok etib, Mehmet Eroğlu bilan birgalikda birinchi o‘rinni bo‘lishadi (1979 yil). **“**Cevdat Bey ve Oğulları**”** nomli asar Orhan Kemal va Milliyet Roman mukofotlari**g**a sazovor bo‘ladi (1983 yil), **“**Sessiz Ev” Madaralı Roman mukofoti**n**i qo‘lga kiritadi (1984 yil), ayni shu roman Fransiyada Prix de la Découverte Européenne mukofotiga loyiq deb topiladi (1991 yil). **“**Beyaz Kale” **A**QShda Independent Award for Foreign **F**iction mukofotini qo‘lga kiritadi (1990-yil), “Kara Kitap” Prix France Culture mukofotini qo‘lga kiritadi (1990 йил). 1998 yilda e’lon qilingan “Benim Adım Kırmızı” romani Fransiyada 2002-yilda Eng yaxshi xorijiy kitob mukofoti (Prix du Meilleur Livre Étranger)**,** Italiyada Grinzane Cavour mukofoti, Irlandiyada dunyodagi yagona romanga beriladigan eng yirik mukofotlardan biri — Xalqaro IMPAC Dublin adabiyot mukofotini (2003 yil) qo‘lga kiritadi”.[3.15-16] Uning boshqa mukofotlari ham anchagina.Tabiiki, bu mukofotlarning eng oliysi, Nobel mukofoti (2006 yil) bo‘lgan edi. Bular bejiz emas. O‘rxon Pamuq badiiy ijodning nozik sirlarini puxta o‘rganib, ona tilining ichki imkoniyatlarini eng ko‘p darajada namoyon etishning uddasidan chiqgan.

“Benim Adım Kırmızı” (“Mening ismim Qirmizi”, 1998) – adib ijodida alohida ajralib turadigan asar.

Pamuqning tarixiy mavzularda yozilgan asarlarini tadqiqotchilar “L.N.Tolstoy hamda Uilyam Shekspir asarlari ruhida” yozilgangini qayd etishadi.[4.50] O‘rni kelganida aytish lozimki, asar rus tiliga bir emas, ikki marta tarjima qilingan: bu ishni Vera Feonova [5] hamda Mixail Sharovlar [6] amalga oshirishgan.

V.Feonova taniqli turkiyshunos olima, yozuvchi va tarjimon bo‘lgan. Uning turk yozuvchilari Aziz Nesin, Sabahaddin Ali, O‘ktay Akbal, Bekir Yildiz va nihoyat, O‘rxon Pamuqning bir necha romanlarini rus tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.[7]

Mixail Sharov ham adibning bir qator asarlarini, ular bilan birga esa “Mening ismim Qirmizi” romanini ham rus tiliga tarjima qilgan.

Asarning Qozon shahrida sahnalashtirilgani ham e’tiborga loyiq.[8]

**Tadqiqot metadologiyasi.** “Romanning badiiy o‘ziga xos jihatlariga avvalo ko‘plab hikoyachilarning mavjudligi kiradi, ularning ismlari bilan atalgan boblar o‘z ichiga ularning so‘zlagan hikoyalarini oladi. Ular orasida, ayniqsa, kutilmagan hikoyachi – roviylar: it, shayton, qizil rang, chizilgan daraxt, chizilgan tangacha, o‘liklar ajralib turadi. Ushbu usul turli voqealarni turli personajlar ko‘zdan kechirishga imkon beradi, turli ma’nolarni yuzaga keltiradi va o‘quvchini shunday xulosaga olib keladi: Sharqiy miniatyura nafaqat rassomlarning mashg‘uloti, balki ularning dunyoqarashi, hayotga oid o‘ziga xos qo‘llanmasidir. Shu bois, rasmning buzilishi hayotiy yo‘nalishning yo‘qolishi, odatdagi dunyoning qulashi sifatida qabul qilinadi”.[9]

Asarning o‘zbek tiliga ham tarjima qilingani e’tiborga loyiq. Tarjima muallifi Eldar Asanovdir.[10]

“Pamuq qahramonlarining asosiy manzili Istanbul tarzida belgilanishi ham e’tiborga molik.[11] Qahramonlarning postmodernizm talablari bilan uyg‘un holda shakllantirilgani ham adibning o‘ziga xosliklaridan birini tashkil etadi. Ular orasida romanda alohida mavqega ega bo‘lgan Shakura va Qora, shuningdek, Shakuraning otasi yirik ustoz va rassom – Pochcha, rassomlarning ulug‘i Usmon markaziy o‘rinlarni egallashgan. Ularning yonida rassomlar: Kapalak, Laylak, Zaytun bor. Qoraning ta’rifi bilan aytganda “Qari qarg‘a” Ester, [12.43] Xayriya, Hasan, Ot, Ko‘ppak, O‘lik, Qotil, pul, og‘och, Qirmizi…

Odatda epik asarlarda roviy obrazi yetakchi mavqega ega bo‘ladi. Mazkur roman aynan roviylarning turfaligi bilan ajralib turadi. Ta’kidlash lozim, asarda qancha qahramon va personajlar ishtirok etgan bo‘lsa, shuncha roviy hikoyachilar ham bordir. [13] Shunga qaramay, bu mavzuni keyingi maqolaga qoldirish maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

**Tahlillar va natijalar.** Asarda umuman roman janriga xos bo‘lgan asosiy belgi va xislatlar to‘la mujassamlashgan. Undagi yetakchi g‘oya sifatida muhabbat tasviri bilan sharqona hamda g‘arbona tasavvur va tushunchalarning ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi mavjud holati hamda ularning adabiy-estetik talqini tashkil etadi. Bularning barchasi “Mening ismim Qirmizi”ni olimlar tomonidan “eng jonli, eng qiziq, uning eng o‘qimishli romani”[4.52] sifatida qayd etishlarining bejiz emasligini yana bir marta tasdiqlab turadi.[4.52]

Badiiy asarlarni “badiiy matn” istilohi ostida talqin qilgan professor M.Yo‘ldoshev shunday yozadi: “badiiy matnning quyidagi mazmuniy turlarini belgilash mumkin: 1.Hikoya mazmunli matn. 2.Tasviriy matn. 3.Izoh mazmunli matn. 4.Didaktik matn. 5.Xabar mazmunli matn. 6.Buyruq-istak mazmunli matn. 7.Hissiy ifoda mazmunli matn. Lekin shuni ham ta’kidlab o‘tmoq, joizki, ushbu turlarning faqat bittasi asosida shakllantirilgan badiiy matnni kamdan-kam hollarda uchratish mumkin bo‘ladi. Badiiy asar tarkiblanish jihatidan ham, mazmun jihatidan ham o‘ta murakkab tuzilishga ega bo‘lganligi bois, unda matnning barcha mazmuniy turlarini yoki ma’lum bir turining ayrim xususiyatlarinigina uchratish mumkin. Shuning uchun biror asarning matn turini aniqlashda asarning umumiy ruhiga va yozuvchining asl maqsadiga e’tibor qaratish lozim”.[14.104-105] Agar ko‘chirmadagi oxirgi ta’kidga e’tibor berilsa, O‘rxon Pamuqni bu jihatdan aralash tipli matn muallifi sifatida tavsiflash mumkin bo‘ladi. “Mening ismim Qirmizi” kitobi mutolaasida shaxs va oila, mehr va muhabbat, alohida shaxs va jamiyat, inson umrining mazmun va mohiyati, hayot va o‘lim, ota-ona va farzandlar orasidagi munosabatlar dialektikasi haqidagi mulohazalar kitobxon ongi va shuurida qayta jonlanadi, shu mavzu va muammolar mushohadasi uni ko‘p vaqt band etib turadi.

**Xulosa.** “Hikoya mazmunli matnda muallif yoki asar qahramoni o‘zi boshidan o‘tkazgan, eshitgan, o‘qigan yoki guvoh bo‘lgan biror bir voqeani hikoya qilib beradi. Xotiralar, esdaliklar, ertak va rivoyatlarni hikoya mazmunli matn sifatida baholash mumkin. Hikoya tarzi, asosan, o‘tgan zamon shaklida, birinchi shaxs birlik yoki ko‘plikda ifodalanadi. Hikoya qilinayotgan voqea-hodisa tor yoki keng qamrovli bo‘lishi mumkin. Sekin-asta rivojlanib boruvchi izchil bayon va yaxlitlovchi ohang kuzatiladi. Asosan, biryoqlama ifoda uslubidan foydalaniladi, ya’ni matn

shakllanishida, asosan, hikoya qiluvchi (roviy) yetakchi faktor hisoblanadi. Monologik nutq ko‘rinishi bunday matnlar uchun juda mos va qulay bo‘ladi. Albatta, o‘rni bilan dialogik nutk kurinishlariga murojaat qilinganligi ham kuzatiladi. Shunda ham hikoya matnining motivatsion butunligi roviyga bog‘liq bo‘ladi. Bu tip matnlarda hikoya mazmuni yetakchilik qilsada, tasviriy, izoh, xabar, hissiy ifoda mazmunli matnga xos xususiyatlar ham birdaniga ishtirok etishi mumkin”.[14.104-105] O‘rxon Pamuq buning amaliy isbotini ko‘rsatib bergani bilan ham kitobxonlar mehrini qozonganiga shubha yo‘q.

2009-yil 28-avgustda Moskvada O‘rxon Pomuqning kitobxonlar bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tadi. O‘shanda Sizning kitoblaringizni Rossiyada nima uchun sevib o‘qishadi? degan savol ham berilganda O‘rxon Pamuqning javobi shunday bo‘lgan: “Bu go‘zal qizdan nima uchun erkaklarga yoqishini so‘rash bilan barobar. Aqlli qiz: “Bilmayman, lekin shikoyat qilmayman”, – deb javob beradi. Imperiyaga xos ulug‘vorligini yo‘qotgan hamda salkam yuz yillardan beri Sharq va G‘arb orasida sarosimada yurgan Rus o‘quvchisi, ehtimolki, Vatan haqidagi aniq va achchiq mulohazalarda kutilmaganda o‘zining xastadil (melanxolik) ruhiyatiga hamohang bo‘lgan ko‘p narsalarni topadi”.[15]

Bu javob ko‘pma’noliligi bilan ajralib turadi. Haqiqatda ham adibning asarlaridagi ko‘pgina tasvirlar, obrazlar borki, ularning tahlil va talqinlarida turfa ohanglar ancha serob. “Mening ismim Qirmizi” romani ham ayni mana shu silsilani davom ettiradi. “Pamuq – simfoniyachi yozuvchi, katta shakllarning ustasi”[16] deyilgan tavsiflar bejiz emas. Asar mutolaasi bu xulosalarga qo‘shilish lozimligini qayta-qayta tasdiqlab turadi.

**Adabiyotlar:**


1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017, 23 декабр.
2. Помук Орхан. Материал из Википедии – свободной энциклопедии. – // https://ru.wikipedia. org/wiki/ Памук,_Орхан
3. Tülay Özekin,Tarihsel romana karşılaştırmalı bir bakış: Amin Maalouf, Orhan Pamuk, Nedim Gürsel: Doktora…tezi. –Ankara, 2007. – S. 419.
4. Мамедханлы Арзу Вахид гызы. Проблемы истории в творчестве Орхана Памука.– // Бальтийский гуманитарный журнал, 2016, Т.5. № 2 (15), – С.50-53
5. Памук, О. Меня зовут красный: роман / Орхан Памук; пер. с тур. В.Б. Феоновой.– Санкт-Петербург: Амфора, 2007. – 478с. ISBN 978-5-367-00334-5.
6. Памук, О. Имя мне – Красный: роман / Орхан Памук; пер. с тур. М.С. Шарова.– Санкт-Петербург: Азбука, 2026. – 479с. ISBN 978-5-389-09166-5.
7. Памук, О. Черная книга: роман / Орхан Памук; пер. с тур. В.Б. Феоновой.– Санкт-Петербург: Амфора, 2007. – 479с. ISBN 978-5-367-00235-8.
8. https://ru.wikipedia.org/wiki/Имя_мне__Красный#Художественные_особенности
9. Чиалашвили-Гордеева Елена Шалвовна. Сравнительный анализ двух русских переводов романа Орхана Памука “Benim Adım Kırmızı” («Меня зовут Красный» / «Имя мне — Красный»)
10. O‘rxon Pomuq. Mening otim Qirmizi. Roman. Tarjimon: Eldar Asanov. – Toshkent: Iqro-Nashr, 2025. – 624 b.
11. https://lenta.ru/articles/2009/08/29/pamuk/
12. Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı* / Orhan Pamuk. — 23. baskı. — İstanbul: Yapı Kredi Yayınları, 2022. — 520 s. — (Yapı Kredi Yayınları; 3934. Edebiyat; 1109).
13. Имя мне – Красный.– // https://ru.wikipedia.org/wiki Имя мне – Красный.
14. Йўлдошев М. Бадиий матн лингавопоэтикаси. – Тошкент, «Фан», 2008, – Б.160.
15. Сентиментальный музей Орхана Памука. //https://lenta.ru/articles/2009/08/29/pamuk/
16. Дубин Б. Роман-цивилизация или возвращенное искусство Шехерезады. – // в кн. Орхан Памук. Черная книга. Роман. *Перевод с турецкого Веры Феоновой.– Иностранная литература. 1999, № 6. – // https://ru. wikipedia.org/wiki/ Феонова,_Вера_Борисовна*

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK:82'192+83'373.6

# ЛЕКСИЧЕСКИЕ ИННОВАЦИИ Н.С.ЛЕСКОВА: НАРОДНАЯ ЭТИМОЛОГИЯ И ВОЗМОЖНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СОВРЕМЕННОМ ФИЛОЛОГИЧЕСКОМ АНАЛИЗЕ

***Мавлянова Гульнара Шавкатовна,***
***магистрант 2-курса факультета***
***филологии и искусства УрГУ Ургенч, Узбекистан***

# LEXICAL INNOVATIONS OF N.S. LESKOV: FOLK ETYMOLOGY AND THE CAPABILITIES OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN MODERN PHILOLOGICAL ANALYSIS

***Mavlyanova Gulnara Shavkatovna,***
***second-year master's student, Faculty of Philology and Arts,***
***Urganch State University, Urgench, Uzbekistan***

# N.S. LESKOVNING LEKSIK INNOVATSIYALARI: XALQ ETIMOLOGIYASI VA ZAMONAVIY FILOLOGIK TAHLILDA SUN'IY INTELLEKTNING IMKONIYATLARI

***Mavlyanova Gulnara Shavkatovna, Urganch davlat universiteti***
***Filologiya va san'at fakulteti 2-kurs magistranti, Urganch,***
***O'zbekiston***



***@mavlyanovagulya9212***
***@gmail.com***
***0009-0009-8326-2084***

***Аннотация:*** *Статья посвящена анализу лексических инноваций Николая Семёновича Лескова, связанных с народной этимологией, и раскрывает возможности искусственного интеллекта в их выявлении, систематизации, лексикографическом описании и филологической интерпретации в современной гуманитарной науке.*

***Ключевые слова:*** *Н.С.Лесков, народная этимология, сказ, лексические инновации, идиостиль, цифровая филология, искусственный интеллект, лексикография.*

***Abstract:*** *The article is devoted to the analysis of Nikolai Semyonovich Leskov's lexical innovations associated with folk etymology and examines the possibilities of artificial intelligence in their identification, systematization, lexicographic description, and philological interpretation in contemporary humanities research.*

***Key words:*** *N.S.Leskov, folk etymology, skaz, lexical innovations, idiostyle, digital philology, artificial intelligence, lexicography.*

***Annotatsiya:*** *Maqola Nikolay Semyonovich Leskovning xalq etimologiyasi bilan bog'liq leksik innovatsiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, sun'iy intellektning ularni aniqlash, tizimlashtirish, leksikografik tavsiflash va zamonaviy gumanitar fanlarda filologik talqin etishdagi imkoniyatlarini yoritadi.*

***Kalit so'zlar:*** *N.S.Leskov, xalq etimologiyasi, skaz, leksik innovatsiyalar, idiostil, raqamli filologiya, sun'iy intellekt, leksikografiya.*

**Введение.** Язык Н.С.Лескова давно рассматривается в филологии как одна из наиболее своеобразных художественных систем русской литературы XIX века. Это связано прежде всего с тем, что Н.С.Лесков делает слово не только средством сообщения, но и предметом художественной игры, стилизации и культурной памяти. Для его прозы особенно значим сказ – тип повествования, ориентированный на чужое слово, устную интонацию, просторечие, диалектизмы и профессиональную речь. Не случайно именно Лесков, по наблюдению Большой российской энциклопедии, сыграл особую роль в развитии сказовой формы в русской литературе [5]. Анализ языка писателя в современной науке также подчеркивает его повышенную чувствительность к народной речи, стилизации и многоуровневой языковой организации текста.

Ключом к пониманию лесковских лексических новаций является народная этимология. В Большой российской энциклопедии она определяется как ошибочное осмысление носителями языка происхождения слова, особенно характерное при освоении заимствований, в просторечии и диалектной речи [4]. В учебной литературе по этимологии специально отмечается, что именно тексты Лескова стали хрестоматийным материалом для наблюдения над подобными переосмыслениями; среди типичных примеров называются *гувернянька*, *верояции*, *мелкоскоп* [6]. Однако в художественном тексте Лескова народная этимология не сводится к «неправильности»: она становится формой художественного смыслообразования.

Наиболее показательный материал дает сказ «Левша». Уже в экспозиции читатель сталкивается с целой системой деформированных или переосмысленных слов: *бюстры*, *валдахин*, *Аболон полведерский*, позднее – *керамиды*, *нимфозория*, *мелкоскоп*, *верояции*, *буреметры*, *непромокабли*, *Твердиземное мор*. Для филолога важно, что перед нами не хаотический набор комических искажений, а последовательная стратегия приспособления чужого слова к логике «народного» слуха и к живой речевой артикуляции. Именно в этом смысле В.А.Гавриков справедливо пишет о лесковской народной этимологии как о художественно значимом явлении сказовой прозы, а не просто о дефекте произношения [2].

Показателен пример *мелкоскоп*: слово восходит к *микроскопу*, но в новой форме связывается с семантикой «мелкого», то есть маленького и едва заметного, поэтому становится для рассказчика понятнее книжного оригинала. Сходно образовано и слово *буреметр*, где значение переосмысляется через связь со словом *буря*. Тот же механизм действует в форме *непромокабли*: здесь важна не точность исходного слова, а его кажущаяся понятность и включенность в русскую словообразовательную логику.

Не менее выразительны случаи типа *Аболон полведерский* и *Твердиземное море*. В первом случае античный культурный знак подвергается снижению и бытовизации: имя скульптурного канона очевидно «приземляется» народным слухом, превращаясь в смешную, почти предметную форму. Во втором случае книжное географическое наименование не столько искажается, сколько переводится в систему иной мотивировки: море оказывается как бы соотнесенным с «твердой землей». Подобные формы демонстрируют, что лесковская лексическая инновация строится не только на фонетическом искажении, но и на вторичном семантическом мотивировании [1]. Она создает эффект речи, которая осваивает чужую культуру, не принимая ее в готовом виде, а переделывая под собственные представления.

Отсюда вытекают и основные функции народно-этимологических инноваций у Лескова. Во-первых, это характерологическая функция: слово сразу маркирует тип сознания говорящего. Во-вторых, стилистическая функция: через такие формы создается эффект устного рассказа, сказовой спонтанности, «несглаженной» речи. В-третьих, концептуальная функция: Лесков показывает, что народное сознание активно перерабатывает чужое слово, включая его в собственную картину мира. В этом смысле лесковские инновации нельзя считать просто комизмом; это языковой способ показать столкновение

TAMADDUN NURI

книжной, официальной, европейской и народной моделей понимания мира.

Системность лесковского словотворчества подтверждается и тем, что оно стало объектом специального лексикографического описания. В обзоре современной русской авторской лексикографии Л.Л.Шестакова отмечает, что выпуски словаря новообразований Лескова публиковались с 2002 года, а в полном виде словарь вышел в 2017 году; при этом подчеркивается его справочная, систематизирующая и исследовательская функция в изучении роли словотворчества в идиостиле писателя [7]. Сам факт появления такого словаря важен методологически: он показывает, что лесковские инновации представляют собой не случайный набор эффектных слов, а целостный и описываемый пласт авторского языка.

Это наблюдение принципиально и для данной темы. Если словотворчество Лескова допускает системное словарное описание, значит, оно может быть исследовано не только традиционными историко-литературными методами, но и средствами цифровой филологии: через картирование форм, автоматизированный поиск вариантов, распределение по произведениям, типологизацию моделей деформации и повторяющихся приемов.

В русскоязычной науке цифровая гуманитаристика рассматривается как значимое методологическое направление, сочетающее возможности цифровых методов с необходимостью их гуманитарной интерпретации и критического осмысления ограничений. В работах Н.И.Клушиной показано, что внедрение искусственного интеллекта открывает для стилистики новые познавательные возможности, но одновременно ставит перед исследователем задачи этического, аксиологического и философского уровня [3]. Применительно к анализу Лескова это означает, что ИИ наиболее продуктивен не как автономный интерпретатор текста, а как вспомогательный инструмент предварительной аналитики: выявления нестандартных словоформ, сопоставления их с нормативными эквивалентами, группировки контекстов и построения рабочих типологий. Такой подход позволяет использовать цифровые методы без отказа от филологического чтения, основанного на внимательном анализе, наблюдении и интерпретации.

Особенно перспективен здесь лексикографический аспект. Исследования Р.Лью показывают, что ИИ уже способен помогать в создании словарных описаний: в работе 2023 года было установлено, что сгенерированные моделью дефиниции в ряде случаев сопоставимы по качеству с дефинициями, созданными профессиональными лексикографами, хотя примеры употребления и общая структура статьи по-прежнему требуют существенной доработки человеком [8]. В более позднем обзоре тот же автор подчеркивает, что в эпоху ИИ лексикография не утрачивает значения, а меняет свою роль: специалист все больше выступает как тот, кто направляет, проверяет и корректирует автоматизированные инструменты. Применительно к лесковскому материалу из этого следует, что ИИ может использоваться для подготовки черновых словарных статей на слова типа *мелкоскоп* или *нимфозория*, для автоматического сбора контекстов и для первичного разведения форм по типам словообразовательной переработки. Это именно вывод по аналогии с современными исследованиями лексикографии, а не уже доказанный результат на материале Лескова.

Кроме того, ИИ может быть полезен при межтекстовых сопоставлениях. Например, он способен ускорить поиск сходных моделей народно-этимологической деформации в других произведениях Лескова, а также в текстах писателей, продолжающих сказовую традицию. В этом отношении цифровой инструмент дает исследователю возможность увидеть не только отдельный яркий пример, но и повторяемую модель. Однако на этом этапе и проявляется граница автоматизации.

**Заключение.** Лексические инновации Н.С.Лескова, основанные на механизмах народной этимологии, следует рассматривать как одну из центральных форм его художественного мышления. В них слово не

TAMADDUN NURI

просто деформируется, а заново мотивируется в логике народного сознания. Именно поэтому лесковские формы нельзя сводить к комическому просторечию: они выполняют характерологическую, стилистическую и мировоззренческую функции, создавая специфическую речевую ткань сказа.

Современные ИИ-инструменты способны заметно усилить исследование этого материала: ускорить поиск, классификацию и предварительное лексикографическое описание единиц. Но чем глубже мы входим в поэтику Лескова, тем очевиднее становится, что окончательное понимание его слова остается задачей филологии, а не автоматической обработки.

**Список литературы:**


1. Алешина Л.В. Словарь новообразований Н.С.Лескова. – М.: Флинта; Наука, 2017.
2. Гавриков В.А. Лесковские традиции народной этимологии в творчестве В.С. Высоцкого // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки. 2017. № 3. С. 103–110.
3. Клушина Н.И. Автор, языковая личность и искусственный интеллект // *Вестник Московского университета. Серия 9. Филология*. 2025. № 2. С. 20–31.
4. Народная этимология // Большая российская энциклопедия. Т. 22. – М., 2013. С. 62–63.
5. Сказ // Большая российская энциклопедия. Т. 30. –М., 2015. С. 318.
6. Соснина А.А. Основы этимологии. Новосибирск: Изд-во НГТУ, 2018.
7. Шестакова Л.Л. Новое в русской авторской лексикографии // *VERBA. Северо-Западный лингвистический журнал*. 2021. Т. 1. № 1. С. 35–49.
8. Lew R. Dictionaries and lexicography in the AI era // Humanities and Social Sciences Communications. 2024. Vol. 11. Art. 426.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 894.375

# QORA VA AKBAR OBRAZLARINING G‘OYAVIY-FALSAFIY TALQINI

## (“Mening otim Qirmizi” va “Isyon va itoat” asarlari misolida)

***Sanakulova Mohibonu Shokirjon qizi,***
***Navoiy davlat universiteti magistranti***



***https://orcid.org/0009-0004-9037-2250***
***mohibonusanakulova44@gmail.com***

# THE IDEOLOGICAL AND PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE CHARACTERS BLACK AND AKBAR

## (on the example of the novels “My Name Is Red” and “Rebellion and Obedience”)

***Sanakulova Mohibonu Shokirjon qizi,***
***Master’s student at Navoi State University***

# ИДЕЙНО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗОВ КАРА И АКБАРА (на примере романов «Меня зовут Красный» и «Бунт и покорность»)

***Санакулова Мохибону Шакиржановна,***
***магистрант, Навоийский государственный университет***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O‘rxon Pomuqning “Mening otim Qirmizi” va Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” asarlaridagi Qora va Akbar obrazlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur obrazlarning g‘oyaviy-falsafiy mohiyati, ichki ziddiyatlari hamda insonning tanlov va o‘zlikni anglash jarayonidagi o‘rni ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *qiyosiy tahlil, Qora obrazi, Akbar obrazi, g‘oyaviy-falsafiy talqin, ichki konflikt, zamonaviy roman, inson o‘zligi.*

***Abstract:*** *This article analyzesthe characters of Black (Kara) and Akbar in the works “My Name Is Red”by Orhan Pamuk and “Rebellion and Obedience”by Ulugbek Hamdam.The study reveals the ideological and philosophical essence of these characters, their internal contradictions, and their role in the process of human choice and self-awareness.*

***Keywords:*** *comparative analysis, the character of Black, the character of Akbar, ideological and philosophical interpretation, internal conflict, modern novel, human identity.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются образы Кара и Акбара в произведениях «Меня зовут Красный» Орхана Памука и «Бунт и покорность» Улугбека Хамдама. В исследовании раскрываются идейно-философская сущность данных образов, их внутренние противоречия, а также их роль в процессе человеческого выбора и осознания собственной идентичности.*

***Ключевые слова:*** *сравнительный анализ, образ Кара, образ Акбара, идейно-философская интерпретация, внутренний конфликт, современный роман, человеческая идентичность.*

**KIRISH ( ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Badiiy adabiyotda obraz tushunchasi asarning g‘oyaviy-estetik mazmunini ochib beruvchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Obraz orqali ijodkor voqelikni bevosita aks ettirmaydi, balki uni badiiy tafakkur asosida qayta yaratadi va umumlashtiradi.

Shu jihatdan badiiy obraz real hayot hodisalarining badiiylashtirilgan, estetik va falsafiy ma’nolar bilan boyitilgan shakli sifatida namoyon bo’ladi. Adabiyotshunoslikda badiiy obraz masalasi ko‘pgina adabiyotshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, adabiyotshunos olim D.Quronovning badiiy obraz tasnifiga doir izlanishlarini e’tirof etish lozim. Olim inson obrazi masalasiga to‘xtalar ekan, quyidagicha fikrlar bildiradi: ‘‘Inson obrazini to‘laqonli yaratishning muhim sharti, ayni paytda, samarali vositasi badiiy psixologizm sanaladi”[1]. Shu jihatidan inson obrazi nafaqat individual xarakter belgilarini, balki muayyan davr, ijtimoiy muhit va insoniy muammolarni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab badiiy-falsafiy birlikdir. Turk yozuvchisi O‘rxon Pomuqning “Mening otim Qirmizi” hamda o‘zbek ijodkori Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” asarlarida ham inson obrazi o‘zida shaxs va jamiyat, e’tiqod va shubha, itoat va isyon kabi falsafiy muammolarni aks ettiradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** O‘rxon Pomuqning “Mening otim Qirmizi” nomli romani Sharq va G‘arb madaniyatlari to‘qnashuvi, san’at falsafasi, insoniy muhabbat hamda ruhiy iztiroblar chuqur yoritilgan asarlardan biridir. Asar 1998-yilda yozilgan bo‘lib, 2001-yildan boshlab bugungi kunga qadar ingliz, nemis, fransuz, ispan, italyan, rus, yapon, xitoy, arab va fors kabi 50 dan ortiq tillarga tarjima qilingan. Mazkur asar jahon miqyosida Erdag Go‘knar, Michael McGaha, Walter Andrews, Homi Bhabha, Edward Said, Jale Parla kabi ijodkorlar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilgan. Pomuqning ushbu mashhur asari o‘zbek tiliga ilk bora 2025-yilda tilshunos, jurnalist Eldar Asanov tomonidan tarjima qilindi. Bu o‘zbek kitobxonlari uchun katta yangilik bo‘ldi hamda roman birinchilardan bo‘lib olima Ma’suma Obidjonova tomonidan lingvopoetik jihatdan tahlil qilindi. O‘rxon Pomuqning butun dunyoga tanilishida “Mening otim Qirmizi” alohida ahamiyatga ega. Yozuvchining adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha xalqaro Nobel mukofoti laureati bo‘lishida ham asarning o‘rni beqiyos. Asar tarixiy roman bo‘lib, unda XVI asr Usmonli turklar imperiyasida sodir bo‘lgan voqealar aks ettirilgan. Romanda Usmoniy hukmdor Murod III hukmronligi davri va unda faoliyat yuritgan bir guruh miniatyurachi rassomlar, shuningdek, ularning o‘zaro ziddiyatlari fonida aks etgan Sharq va G‘arb rassomchiligi hikoya qilinadi. Asarda har bir qahramon o‘z tilidan gapiradi. Ya’ni romandagi rassomlar, bosh qahramonlar , hattoki o‘lik, ot, ko‘ppak, shuningdek, rasm, daraxt, qizil rang kabi jonsiz narsalar voqea-hodisalarni o‘z dunyoqarashlaridan kelib chiqib hikoya qilib beradi. Bu usul orqali muallif o‘sha davr muhitini faqatgina bir shaxs nuqtayi nazaridan emas, balki turli jonli va jonsiz yaratiqlar nutqi orqali yoritishni maqsad qilgan. Ushbu murakkab va ko‘p qatlamli asarda voqealar Shakura, Qora, Pochcha afandi, Ester, Qotil, Zaytun, Kapalak, Laylak, ustod Usmon kabi obrazlar atrofida kechadi. Romandagi Qora obrazi g‘oyaviy-estetik konsepsiyaning asosiy tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Roman kompozitsiyasida Qora vositachi-narrativ[2] qahramon sifatida gavdalantiriladi. Garchi roman ko‘p ovozli tuzilishga ega bo‘lsa-da, voqealar bog‘lanishi va syujet harakatining izchilligi Qora obrazi orqali ta’minlanadi. Eronlik olima Elham Mohammadi tomonidan “Mening otim Qirmiz” romani haqida yozilgan maqolada Qora obraziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Black functions as a redeemer whose actions restore harmony in a fragmented world” [3] (tarjima: Parchalanib ketayotgan dunyoda Qora uyg‘unlikni tiklaydigan najotkor vazifasini bajaradi). Qora naqqosh emas, balki san’atni, umuman, hayotni kuzatuvchi va tahlil qiluvchi qahramon. 12 yil davomida turli o‘lka va madaniyatlarni ko‘radi, o‘rganadi, tahlil qiladi. Shu bois u san’at va uning falsafasi hamda tarixiy o‘zgarishini anglashga intiladi. Qora dastlab kimligi noma’lum bo‘lgan, Zarif afandi hamda Pochchani o‘ldirgan qotil (naqqosh Zaytun) tomonidan chizilgan otga boshqa rasmlardagi kabi oddiy bir ot, deb qaragandi. Biroq ikki kun ichida Pochchasi vafot etib, sevgani Shakuraga uylanishi natijasida uning hayot haqidagi qarashlari butunlay o‘zgarib ketadi. Aslini olganda, bu o‘zgarishlar faqatgina o‘sha ikki kun ta’sirida vujudga kelmagandi, balki yillar davomida sargardonlikda kechirilgan hayot tajribalari edi. Ustoz Usmon bilan birgalikda xuddi o‘sha otga qayta nazar solar ekan, Qoraning xayolidan quyidagicha fikrlar kechadi: “Hozir esa otda ko‘zim oldida bug‘ kabi titragan go‘zallik va ichimda yashash, o‘rganish va har narsani qamrash hayajonini uyg‘otgan kuch ko‘rayotgandim”[4]. Ushbu holat orqali yozuvchi Qorani chuqur fikr yuritadigan hamda tafakkur qila oladigan obraz

sifatida gavdalantiradi. Bu jihatdan u romandagi boshqa naqqoshlardan yaqqol ajralib turadi.

Qora obrazining psixologik qatlamida ichki ziddiyat yetakchilik qiladi. Bir tomondan u haqiqat va adolat izlovchi yuksak tafakkur egasi, ikkinchi tomondan esa shaxsiy manfaat va ishq ta'sirida qolgan insondir. Shuningdek, ushbu obraz pok va ilohiy san'at hamda jinoyatga yetaklagan san'at o'ylari girdobida qoladi. Qoraning "Bu otni Alloh ko'rgani kabi naqsh etgan qo'li sehrli naqqosh kim?" deb so'rardim o'zimdan, bir on uning ayanchli qotil ekanini unutgan kabi"[4] degan o'ylari uning ruhiyatida bo'layotgan g'alayonlarni yaqqol ochib beradi. Muallif asarda naqqoshlar o'rtasidagi G'arb va Sharq san'ati an'analarining to'qnashuvini ko'rsatadi. Qora timsoli esa mana shu to'qnashuvni o'z ruhiyatida eks ettiradi. Sinchkov va teran fikrlaydigan Qora Sharq san'atini inkor etmagan holda G'arb an'analarini ham qabul qiladi. Madaniyatlar va san'atlar to'qnashuvi davomida Qora ba'zan ikkilanadi, ba'zan esa dadil qadam bosadi. Shu sababli asarda Qora murosani tanlagan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. U keskin inqilobchi emas, Qotil naqqosh kabi Sharq an'analarini himoya qilish uchun jinoyatga qo'l urmaydi, balki o'zgarishlarni tushunishga va qabul qilishga urinuvchi tafakkur egasidir. Bu xususiyat O'rxon Pomuqning o'z dunyoqarashi bilan hamohangdir. Adabiyotshunoslikda bu holatni an'ana va yangilik dialektikasi tushunchasi[5] bilan izohlash mumkin. Qora o'zida ikki estetik tushunchaga xos xususiyatlarni birlashtiradi va shu orqali romanning postmodern tabiatini kuchaytiradi. Yozuvchi asosiy obrazlardan biri bo'lgan bu qahramonni Qora (Kara) deb nomlashi ham bejiz emas aslida. Turkiy xalqlarda, jumladan, turk mifologiyasida Qora (Kara, siyah) zulmat, yovuz kuchlar ramzini aks ettirishi bilan birga kuch, qudrat, buyuklik ramzini ham ifodalaydi. "Ancak aynı zamanda derın bir dinlendirici sessizlik, sonsuzluk ve yapısal güçü de simgeleyebilir "[6] (tarjima: Qora rang chuqur, xotirjam sukunatni, abadiylikni va mustahkam kuch ramzini anglatadi). Demak, muallif mazkur obrazga ism tanlashda ham uning yengilmas ruhiyatini hamda mustahkam irodasini anglatishni maqsad qilgan. Qora – asardagi murakkab xarakterli adabiy qahramondir. U muallifning to'g'ridan to'g'ri ovozi emas, balki asarning g'oyaviy yukini tashuvchi obrazdir. Qora obrazi orqali O'rxon Pomuq san'at, muhabbat, shaxsiy tanlov va madaniy o'ziga xoslik masalalarini adabiy-falsafiy darajada yoritishga erishgan. Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" asarida ham tanlangan mavzu markazida inson va uning ichki dunyosi mavzusi turadi. Insonni ham eng go'zal yaratiq, ham qismat oldida har qancha urinmasin juda ojiz ekanligi tasvirlanadi [7]. Romanda haqiqat va o'zlikni anglash ziddiyatli, og'ir va chigalli muammolarni, ya'ni isyonni yengib o'tish orqasida qo'lga kiritiladi, degan g'oya ifodalanadi. Shu g'oyaviy konsepsiya Akbarning hayot yo'li, faoliyati, personajlar o'rtasidagi munosabatlar, kurashlar orqali badiiy haqiqatga aylantiriladi[8]. Akbar obrazi e'tiqod, itoat va ichki qarama-qarshiliklar markazida turgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu qarama-qarshiliklar o'z o'quvchisi bo'lgan Sadrga jahl ustida musht tushirishi va uning oqibatida qamoqqa tushishidan so'ng boshlanadi. Qamoqdan chiqqanidan so'ng esa Diana, xotini Farida, akasi Nurmat kabi obrazlar orqali Akbarning chigal o'ylar girdobida qolganligi, ularni yengib o'tish uchun ma'nan yuksalishga intilishi aks ettiriladi. Akbar – tashqi tomondan itoatkor, ichki dunyosida esa isyonkor bo'lgan murakkab ruhiy tipdir. Akbar obrazida itoat tushunchasi faqat tashqi bo'ysunish sifatida emas, balki ichki ruhiy kurash shaklida ochiladi. Obraz talqinida Akbarning ichki sukuti ham muhim poetik detal sifatida namoyon bo'ladi. Uning ko'p hollarda ochiq isyon qilmasligi, aksincha, sukut orqali qarshilik ko'rsatishi ramziy ma'no kasb etadi. Begona yurtda arzimagan sabab bilan kaltaklangan Akbarning "…dodingni kimga aytasan?...Xudoga…Biroq ey Xudo, qani endi Sendan bir misqol tushuna olsam, balki shundagina hayotning, inson umrining mazmuni, mantig'i degan narsalar ustida iztirob bilan o'ylashlarimni bas qilarmidim?...Yo'qsa, chekayotgan zahmatlaringning zoye ketishiga, qilayotgan, qilmoqchi bo'layotgan ezgu amallaring, ishlayotgan savoblaringning izsiz yo'qolishiga, umuman, kun kelib sendan, sening xotirangdan asar ham qolmasligiga qanday chidash mumkin?..."[9] deya ich-ichidan quyilgan savollarida uning isyon qilayotgani holda yagona Allohga murojaat qilishini his qilamiz. Bu holatning o'zidayoq biz Akbarning Yaratganga bo'lgan itoat tuyg'usi aks ettirilganini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi yovuzlikni ezgulik zabt etishi jarayonini Akbar timsolida aks ettirilgan ichki nizo, isyonlar orqali tasvirlaydi.

Umuman, asarning asosiy g‘oyaviy yuki mazkur obrazga yuklatiladi. Asar davomida turli qahramonlarning taqdiri va ichki g‘alayonlari bilan tanishar ekanmiz, Akbar obrazi ularni birlashtirib turuvchi shaxs ekanligini anglaymiz. Yigitlik yillarida, hayot nafasi jo‘sh urganda Akbar faqat va faqat savollar qurshovida yashaydi. Qamoqda yashab, u yerdagi hayotni anglay boshlagandan so‘ng “Isyon nima?“va “Itoatga qanday erishish mumkin?” mazmunidagi so‘roqlarga javob izlash uning ongidan ruhiga ko‘chadi. Akbar – faqatgina ijodkor yaratgan badiiy to‘qima obraz emas, balki xato qilishga moyil bo‘lgan jonli inson obrazidir. Akbar yillar davomida o‘z ruhiyatidagi ziddiyatlar bilan kurashib, savollariga javoblar izlar ekan, hayotga teranroq nazar solishga, hayotning o‘tkinchiligiga, inson umrining esa aziz va qimmatli ekanligiga amin bo‘ladi. Qamoqdagi hayotning shafqatsizligi, berahmligidan Akbar o‘z yuragining toshga aylanib borayotganidan qo‘rqa boshlaydi va ustozi tabib bilan gaplashishga, undan ruhiy dalda, ma’naviy yo‘llanma olishga umid bog‘laydi. Akbarning ma’naviy yuksalishi asar davomida passiv idrok etuvchidan faol tafakkur egasiga aylanishi jarayonida namoyon bo’ladi. Bu jarayon orqali yozuvchi insonning haqiqiy itoati tashqi bo‘ysunishda emas, balki ongli tanlov va ichki mas’uliyat bilan bog‘liqligini badiiy-falsafiy jihatdan asoslaydi. Turk va o‘zbek ijodkorlari tomonidan yaratilgan Qora va Akbar obrazlari turli madaniy va ijtimoiy muhitda shakllangan bo‘lsa-da, ularni birlashtirib turuvchi asosiy jihat – ichki ziddiyatlar va shaxsiy izlanishdir. Har ikkala obraz ham tayyor haqiqatni qabul qilmaydi, balki uni ichki kurash orqali anglashga intiladi. Qora ko‘proq intellektual va estetik izlanishlar yo‘lidan boradi. Uning ruhiyatidagi g‘alayonlar san’at, haqiqat va muhabbat masalarida namoyon bo‘ladi. Akbar esa axloqiy va diniy maydonda ichki kurash olib boradi. Shu xususiyatiga ko‘ra Qora va Akbar obrazlari bir-birini takrorlamaydi, balki zamonaviy inson ruhiyatining turli, ammo o‘zaro bog‘liq qirralarini yoritadi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Xulosa sifatida shuni aytish muhimki, har ikkala yozuvchining asarlarida inson va uning ruhiyati, o‘z asliyatini izlashga intilishi, ma’naviy kamoloti xususida qayg‘urishi, inson va jamiyat o‘rtasidagi bahsli munosabatlarini badiiy psixologizm asosida tasvirlash ustunlik qiladi. Qora va Akbar obrazlarining g‘oyaviy-falsafiy qiyosi turli adabiy an’analarga mansub asarlar o‘rtasida mazmuniy mushtaraklik va tafovutlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu obrazlar orqali O‘rxon Pomuq va Ulug‘bek Hamdam zamonaviy adabiyotda insonning ma’naviy o‘zligi, erkin tanlovi va mas’uliyati masalalarini badiiy-falsafiy darajada yoritishga erishgan.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Quronov D.,Adabiyot nazariyasi asoslari. “Akademnashr” nashriyoti, T.,2018. 103-bet.
2. Phan Q., Chromatic dialogues and narrative multiplicity: a critical analysis of Orhan Pamuk’s My name is Red. Article, Egycon SMART Int’l Conference, Vietnam, 2023.
3. Elham Mohammadi Achachelooei, Black as a redeeming hero in My name is Red. Journal of language horizons, February 2023.
4. O‘rxon Pomuq, Mening otim Qirmizi. Tarjimon E.Asanov, “Yangi asr avlodi” nashriyoti, T.,2025. 396-bet.
5. Umurov H.,Adabiyotshunoslik nazariyasi. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, T.,2004.
6. Gulnur Tlegenova, Kazak ve Türk dillerinde “Ak” ve “Kara” renklerinin anlamlarının karşılaştırmalı analizi. Uluslararası Türk dünyasi araştırmaları dergisi, Temmuz 2024.
7. Ko‘liboyev B., Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” va Somerset Moemning “Oy va sariq chaqa” asarlarida inson va jamiyat muammosi. XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta’lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar, 2-tom, 7-son, 2024.
8. Kochkarov I., Ulug‘bek Hamdam romanlarida diniy-dunyoviy tafakkur badiiy talqini. Magistrlik dissertatsiyasi. Nukus, 2021. 54-bet.
9. Hamdamov U., Isyon va itoat. “Yangi asr avlodi”, T., 2003. 22-bet.

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK:82'192+83'373.6

# РЕЧЕВОЕ ПОВЕДЕНИЕ: УЗБЕКСКО-РУССКОЕ ПЕРЕКЛЮЧЕНИЕ КОДОВ

***Сабирова Асал Оллабергановна, магистрант 2 - курса специальности "Линвгистика" (русский язык) УрГУ Ургенч, Узбекистан***
Asalsabirova976@gmail.com

# SPEECH BEHAVIOR: UZBEK-RUSSIAN CODE-SWITCHING

***Asal Ollaberganovna Sabirova, second-year master's student majoring in Linguistics (Russian language), UrSU, Urgench, Uzbekistan***

# NUTQ XULQI: O'ZBEK-RUS KODINI ALMASHTIRISH

***Asal Ollaberganovna Sabirova, Urganch davlat universitetining tilshunoslik (rus tili) mutaxassisligi bo'yicha ikkinchi kurs magistratura talabasi, UrDU, Urganch, O'zbekiston***

***Аннотация:*** *В статье рассматривается узбекско-русское переключение кодов как важный элемент речевого поведения билингвов в Узбекистане. Анализируются социальные, культурные и прагматические факторы его использования, а также основные функции, отражающие специфику современной языковой ситуации в стране.*

***Ключевые слова:*** *речевое поведение, переключение кодов, билингвизм, языковые контакты, прагматические функции, языковая ситуация в Узбекистане.*

***Abstract:*** *The article examines Uzbek-Russian code-switching as an important element of the speech behavior of bilingual speakers in Uzbekistan. It analyzes the social, cultural, and pragmatic factors underlying its use, as well as its main functions reflecting the specific features of the country's current linguistic situation.*

***Key words:*** *speech behavior, code-switching, bilingualism, language contacts, sociolinguistics, pragmatic functions, linguistic situation in Uzbekistan.*

***Annotatsiya:*** *Maqolada o'zbek-rus kod almashinuvi O'zbekistondagi bilingvlar nutqiy xulq-atvorining muhim unsuri sifatida ko'rib chiqiladi. Undan foydalanishni belgilovchi ijtimoiy, madaniy va pragmatik omillar, shuningdek, mamlakatdagi hozirgi til vaziyatining o'ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi asosiy funksiyalar tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *nutqiy xulq-atvor, kod almashinuvi, bilingvizm, til kontaktlari, sotsiolingvistika, pragmatik funksiyalar, O'zbekistondagi til vaziyati.*

**Введение.** Современная языковая ситуация в Узбекистане характеризуется активным взаимодействием нескольких языков, среди которых особое место занимают узбекский и русский. Их сосуществование в образовательной, профессиональной, бытовой и медиасферах формирует устойчивую билингвальную среду, в которой языковой выбор зависит от коммуникативной ситуации, социального статуса собеседников, темы общения и культурного контекста. В такой среде одним из наиболее заметных явлений становится переключение кодов.

Под переключением кодов обычно понимается переход говорящего с одного языка на другой в пределах одного высказывания, реплики, диалога или коммуникативной ситуации. Это явление представляет значительный интерес для социолингвистики, психолингвистики и теории языковых контактов, поскольку позволяет выявить особенности речевого поведения билингвов, способы организации многоязычной коммуникации и механизмы адаптации речи к меняющимся условиям общения.

Переключение кодов представляет собой закономерную форму функционирования билингвальной речи. Оно возникает в тех сообществах, где один и тот же говорящий владеет двумя или несколькими языками и использует их в зависимости от коммуникативных условий. В научной литературе данное явление рассматривается не как отклонение от нормы, а как естественный механизм организации речи в условиях многоязычия.

Как отмечается в исследовании Юсупбаевой М.Г., посвящённом значимости изучения переключения кода в Узбекистане, данное явление следует анализировать в контексте многоязычия, культурной идентичности и социальной динамики; при этом переключение кода выступает не только отражением языковых особенностей, но и важным инструментом выражения социальной принадлежности и культурных аспектов общения [2].

Следует различать собственно переключение кодов и смешение языков. Если смешение предполагает более устойчивое взаимопроникновение элементов разных языков, то переключение кодов чаще связано с конкретной ситуацией общения и выполняет определённую коммуникативную задачу. Оно может быть межфразовым, когда говорящий меняет язык между предложениями, и внутрифразовым, когда элементы двух языков сосуществуют в пределах одного высказывания. Например, межфразовое переключение можно наблюдать в высказывании: «Bugun dars juda qiziq bo‘ldi. Но преподаватель дал слишком сложное задание». В данном случае смена языкового кода происходит между двумя предложениями. Внутрифразовое переключение проявляется в конструкции: «Men bugun meetingga кечикиб keldim», где в пределах одного высказывания сочетаются узбекские и русские элементы. Подобные случаи демонстрируют гибкость билингвальной речи и её зависимость от коммуникативной ситуации.

В статье Н.И.Муродовой подчёркивается, что исследование переключения кода в Узбекистане особенно важно именно в полилингвальной среде, где усиливаются языковые контакты между носителями разных языков и где данное явление тесно связано с межкультурной коммуникацией и языковой политикой [1].

Для значительной части населения узбекский язык связан с национальной идентичностью, культурным и бытовым пространством, тогда как русский язык часто выполняет функции языка образования, профессионального общения и межкультурного контакта. В результате выбор языкового кода определяется не только степенью владения языками, но и социальным контекстом, характером общения и коммуникативной целью.

Узбекско-русское переключение кодов выполняет несколько важных функций, которые непосредственно отражают особенности речевого поведения билингвов.

Прежде всего, оно связано с функцией самоидентификации. Так, в речи билингва выражение «Мы, o‘zbeklar, к гостям относимся по-особенному» демонстрирует одновременную актуализацию двух языковых кодов как средства выражения этнокультурной принадлежности. Переключение на узбекский компонент в данном случае усиливает эффект национальной самоидентификации и подчеркивает культурную близость говорящего к обозначаемому сообществу.

Важной является и фатическая функция, связанная с установлением и поддержанием контакта между собеседниками. Например, в начале общения говорящий может использовать реплику: «Assalomu alaykum, как дела?» Подобное сочетание узбекской формулы приветствия и русской части вопроса служит не столько передаче новой информации, сколько установлению контакта, поддержанию дружелюбной тональности и регулированию социальной дистанции между собеседниками. Использование узбекских или русских форм приветствия, обращения и этикетных формул позволяет регулировать социальную дистанцию и создавать определённую атмосферу общения [3].

Существенную роль играет адресатная функция. Например, в многоадресатной коммуникации возможно высказывание: «Ребята, послушайте, Aziz, sen ayniqsa diqqat qil». Здесь переключение на узбекский язык маркирует персональное обращение к конкретному участнику общения, выделяя адресата внутри общей группы. Таким образом, смена кода помогает уточнить направленность реплики и усилить адресность высказывания.

Следует выделить и эмоционально-оценочную функцию. Показательным примером может служить реплика: «Это было просто dahshat, невозможно слушать». Узбекский элемент *dahshat* в данном контексте усиливает эмоциональную оценку и придаёт высказыванию большую экспрессивность.

Подобные переключения особенно характерны для спонтанной разговорной речи, где важна не только информативность, но и выразительность сообщения. [4].

Кроме того, переключение кодов может выполнять юмористическую функцию, позволяя создавать игру слов, иронический эффект или комическое сопоставление единиц двух языков. Так, в неформальном общении возможна реплика: «Он сегодня такой серьёзный, прямо boshliq bo‘lib qolibdi». Комический эффект здесь создаётся за счёт неожиданного соединения русской синтаксической рамки и узбекского слова *boshliq* в оценочном контексте. Переключение кода в подобных случаях выполняет функцию языковой игры и усиливает шутливую тональность высказывания.

Наконец, в условиях двуязычного общения исследователи выделяют эзотерическую функцию переключения кода, когда второй язык используется как своего рода скрытый код для ограничения доступа нежелательной аудитории к содержанию высказывания.

Речевое поведение в условиях узбекско-русского билингвизма определяется возрастом, образовательной средой, типом общения, коммуникативной ситуацией и культурной принадлежностью говорящих. В частности, спонтанная речь студентов и молодёжи отличается большей гибкостью в использовании нескольких языковых кодов, а сама языковая практика нередко строится на свободном чередовании узбекских и русских элементов.

Юсупбаева М.Г. в статье «Структурные, семантические и прагматические особенности русско-узбекского переключения кодов» анализирует спонтанную речь студентов Ургенчского государственного университета, использующих русский язык как основной язык коммуникации, что придаёт исследованию особую значимость для изучения переключения кодов как формы реального речевого поведения в условиях узбекско-русского двуязычия [2].
Муродова Н.И. в статье «Значимость исследования переключения кода в Узбекистане» подчёркивает, что данное явление требует дальнейшего комплексного изучения, поскольку тесно связано с языковыми контактами, культурной практикой общества и национальным речевым поведением. Это позволяет рассматривать переключение кода не как поверхностную языковую вариативность, а как значимый социолингвистический феномен [1].

Следовательно, узбекско-русское переключение кодов выступает важным индикатором современной языковой динамики в Узбекистане. Оно показывает, каким образом билингвы адаптируют свою речь к адресату, ситуации, культурному контексту и прагматическим задачам общения.

Анализ показал, что переключение кодов выполняет различные функции: самоидентификационную, фатическую, адресатную, эмоционально-оценочную, юмористическую, предметно-тематическую и эзотерическую Кроме того, исследование подтверждает, что в условиях Узбекистана данный феномен тесно связан с культурной динамикой, многоязычием и межкультурной коммуникацией

Следовательно, узбекско-русское переключение кодов следует рассматривать не как периферийное явление, а как закономерную и социально значимую форму организации речи в условиях билингвального общения. Его дальнейшее изучение важно как для социолингвистики, так и для практики преподавания языков, анализа языковой политики и понимания современной коммуникативной ситуации в Узбекистане.

**Использованная литература**


1. Муродова Н.И. Значимость исследования переключения кода в Узбекистане // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. 2024. Т. 1. Вып. 14. С.-4-5.
2. Юсупбаева М.Г. Структурные, семантические и прагматические особенности русско-узбекского переключения кодов // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2024. Т. 4. № 1. С.-180-184.
3. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. М., 2005.
4. Воробьев В. В. Лингвокультурология: теория и методы. М.: РУДН, 1997.
5. Маслова В. А. Лингвокультурология. М., 2001.

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 821.512.133-1.09:27.

# SULAYMON BOQIRG‘ONIY DOSTONLARIDA ONA OBRAZI TALQINIDA AN’ANA VA O‘ZIGA XOSLIK (“QISSAI ISMOIL ALAYHISSALOM” DOSTONI ASOSIDA )

***Shomurodova Dilorom Husanmurotovna, Qarshi davlat universiteti “O‘zbek mumtoz adabiyoti” kafedrasi tayanch doktoranti***



***https://orcid.org/0009-0006-5037-8134***
***diloromshomurodovam agistr92@gmail.com***

# THE IMAGE OF THE MOTHER IN SULAYMON BOQIRGONIY’S EPICS IN TERMS OF TRADITION AND UNIQUENESS (BASED ON THE EPIC “QISSAI ISMOIL ALAYHISSALOM”)

***Dilorom Shomurodova Husanmurotovna, PhD student at Karshi State University, Department of "Uzbek Classical Literature"***

# ОБРАЗ МАТЕРИ В ТРАДИЦИИ И СВОЕОБРАЗИЕ СУЛАЙМАНА БАКИРГАНИ В ЕГО ПОЭМАХ (НА ПРИМЕРЕ ПОЭМЫ “КИССА-И ИСМАИЛ АЛАЙХИССАЛАМ”)

***Шомуродова Дилором Хусанмуротовна, базовый докторант кафедры “Узбекская классическая литература”, Каршинский государственный университет***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Sulaymon Boqirg‘oniy dostonlari tarkibida muhim o‘rin tutuvchi ona obrazi “Qissai Ismoil alayhissalom” dostoni misolida tahlil etiladi. Tadqiqotda Ismoil alayhissalom qissasi yoritilgan tarixiy va badiiy asarlarda Hojar obrazining talqinlari qiyoslanadi. Shuningdek, dostonda ona obrazining an’anaviy talqini bilan bir qatorda shoirga xos individual badiiy yondashuv, tasavvufiy-falsafiy mazmun va ma’naviy-axloqiy g‘oyalar ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ona obrazi, tasavvuf, badiiy talqin, doston, Ibrohim alayhissalom, Ismoil alayhissalom, Hojar, qurbonlik, iymon, qissa.*

***Abstract:*** *This article analyzes the image of the mother, which occupies an important place in the Sulaymon Boqirgoniy epics, using the example of the epic “Qissai Ismoil alayhissalom.” The study compares interpretations of the character of Hagar in historical and literary works that depict the story of Ismail alayhissalom. In addition to the traditional interpretation of the mother figure in the epic, the research reveals the poet’s individual artistic approach, the Sufi-philosophical content, and moral-ethical ideas.*

***Key words:*** *mother figure, Sufism, artistic interpretation, epic, Abraham alayhissalom, Ismail alayhissalom, Hagar, sacrifice, faith, story*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется образ матери, занимающий важное место в поэмах Сулеймана Бакиргани, на примере поэмы «Кисса Исмаил алейхиссалам». В исследовании сравниваются различные интерпретации образа Хаджар в исторических и художественных произведениях, в которых освещается история Исмаила алейхиссалам. Кроме того, в поэме раскрывается не только традиционное понимание образа матери, но и индивидуальный художественный подход поэта, содержание мистико-философского характера и духовно-нравственные идеи.*

***Ключевые слова:*** *образ матери, суфизм, художественная интерпретация, поэма, Ибрахим алейхиссалам, Исмаил алейхиссалам, Хаджар, жертва, вера, кыса.*

**Kirish.** Turkiy mumtoz adabiyotda payg‘ambarlar qissalari asosida yaratilgan asarlar alohida badiiy-estetik va ma’naviy ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalishda Sulaymon Boqirg‘oniy ijodi muhim o‘rin egallaydi. Uning dostonlarida islomiy syujetlar xalqona ifoda, tasavvufiy qarashlar va chuqur badiiy talqin bilan uyg‘unlashgan holda yoritiladi. Xususan, “Qissai Ismoil alayhissalom” dostoni orqali insoniy fazilatlar, ilohiy sinovlar va ma’naviy poklanish masalalari keng qamrovda ochib beriladi. Mazkur dostonda ona obrazi alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, u nafaqat voqealar rivojida faol ishtirok etuvchi qahramon, balki yuksak axloqiy va ruhiy qadriyatlarning timsoli sifatida gavdalanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** XII va XIII asrlarda Markaziy Osiyo va Turkistonda keng yoyilgan Yassaviylik tariqatining yetuk namoyondalaridan biri Qul Sulaymon taxallusi bilan ijod qilgan, Hakim ota nomi bilan tanilgan Sulaymon Boqirg‘oniydir. Hakim Sulaymon ota Ahmad Yassaviyning qoshida 1186-1187-yillar (hijriy 582-y.) da yashagan va ta’lim olgan uchinchi xalifasidir. Uning Ahmad Yassaviyning hikmatlari uslubida yozilgan to‘rtliklari xalq orasida juda mashhur bo‘lgan. Bu she’rlar sodda, ravon va samimiy ruhda yozilganligi sababli el orasida keng shuhrat topdi. Dostonlardagi obrazlar ham diniy manbalar asosida shakllangan va “Qisas ul-anbiyo”lardagi obrazlarning badiiy talqinlaridir. “Ismoil alayhissalom qissasi” dostoni Ismoil alayhissalomning qurbonlik voqeasi haqida bo‘lib, barmoq vaznida 73 to‘rtlikdan iborat she’riy shaklda yozilgan. Bu doston haqida turk adabiyotshunosi Yaziji Shahin shunday yozadi: “Hz. Ismoil qissasida, Yassaviylik tariqatining muhim vakillaridan biri bo‘lgan Qul Sulaymon, Hz. Ismoilning qurbon qilinishi voqeasini tasavvuf va hikmat an'analari doirasida sharhlagan; g‘amgin hamda ibratli tarzda ifoda etgan.” [4; 189-b.] Qur’oni Karimning Soffat surasi 102-103-oyatlarida ushbu voqea haqida so‘z boradi. Bu e’tiborga molik voqea ko‘plab tarixiy va badiiy asarlarda qalamga olingan. Xususan, Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning “Tarixi Tabariy” asarida bu hodisaning tarixiy jihatlariga e’tibor qaratilsa, Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham “Qissai Zabihi Ismoil alayhissalom” nomli alohida qissasida bu voqea nasriy shaklda badiiy vositalar bilan boyitilgan holda ochib beriladi. Sulaymon Boqirg‘oniy ham islom dinidagi bu muhim voqeani she’riy tarzda qalamga oladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, germenevtik, tarixiy-madaniy metodlardan va badiiy-estetik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Muhokama va natijalar.** Dostonning ilk misralarida eranlar, pirlar, payg‘ambarlar, xususan, Muhammad S.A.V. va sahobalarni nazarda tutib murojaat qilinadi va bu dostonni o‘qigan kishida dunyo tashvishlari yo‘qolishi, jonga safo keltirishi e’tirof etiladi. Doston davomida bu voqea Abbos r.a.dan hadis sifatida Muhammad S.A.V.dan hikoya qilingani keltiriladi. So‘ng voqea Ibrohim alayhissalomning tush ko‘rishi va Allohning qurbonlik qilish amri bilan boshlanadi. Shundan so‘ng Xalillulloh Mino tog‘ida yuz tuyani qurbonlik qiladi. Ammo Jabroil alayhissalom Ismoil alayhissalomni qurbonlik qilishi kerakligi haqidagi farmonni olib keladi. Ibrohim alayhissalomga bu qanchalik og‘ir bo‘lsa ham Haqning buyrug‘ini qabul qiladi va Ismoilning uyiga boradi. Asarda bu holat quyidagicha beriladi:

Ayo Hojar, san qo‘bg‘il, Ismoil boshin yuvgil.
Surma ko‘ziga chekkil, do‘stga eltoy tediyo.
Miskin Hojar bilmodi, o‘g‘li boshin tarodi.
Surma ko‘ziga surtib, sochlarini o‘rdiyo.
Boshin, ko‘zin siypodi, tojin boshiga qo‘ydi,
Arig‘ to‘nlar kiydurdi, olub oni keldiyo. [2:525-b]

Ibrohim alayhissalom Ismoil alayhissalomni qurbonlik qilish uchun olib ketayotganini Hojardan sir tutadi. Bir do‘stimnikiga olib boraman deb yolg‘on so‘zlaydi. Shu o‘rinda “Tarixi Tabariy”da biroz farqli jihat ko‘zga tashlanadi. Boqirg‘oniy va Rabg‘uziy asarlarida Ibrohim alayhissalom Hojarga Ismoil alayhissalomni do‘stinikiga olib borishini aytadi, biroq Tabariy boshqa sababni keltiradi: “O‘g‘lini onasiga: — Bu bola katta bo‘ldi. Uni men bilan birga ish qilishga jo‘nat! —dedi.” [5:84-b.] Tabariy ota o‘g‘lini ishlash uchun tog‘ga olib ketayotganini bildiradi. Ona mehr bilan o‘g‘lini kiyintiradi, yasantiradi. “Qisasi Rabg‘uziy”da shu holat nasriy shaklda ohangdor shaklda tasvirlash barobarida onaning farzandiga bergan o‘giti she’riy tarzda keltiriladi: “Yorindasi Hojarg‘a aydi: “Bir aziz do‘stum bor, bu og‘ulni tillayu turur

kelturgil ko‘rayin, teb. Emdi Ismoilni boshini, sochini yuvg‘il, anda eltayin” tedi. Hojar Ismoilni yuvdi, sochini taradi. Arig‘ to‘nlar kizdurdi ersa Ismoil g‘oyat ko‘rkluklandi. Onasi Ismoilning yuzinga boqdi, aydi. Oytak yuzin, kuntak ko‘rkin, qalamtek ko‘zin, o‘qtak kirpukin, aqiqtak erinlarin, yinjutak tishlarin, pistatak og‘zin, qizil mengizin, sillig‘ yuzin, bo‘ynin quchub, o‘pub aydi: Bayt: Ey ko‘nglum ovunchasi o‘g‘rab yiroqg‘a bormag‘il,

Yarliqqa yolg‘uz onangni bag‘rini o‘rtamag‘il.

Ushbu ketmagidin o‘lmakimni tilar ersang sana,

Man o‘ngungda o‘layin san ichimni yondurmag‘il. ” [3:108-b.]

Onaning bolasiga mehri va otasiga nisbatan hurmati ifoda etilgan ushbu baytlarda xuddi bolasini o‘limga kuzatayotganini sezgan bir mushtipar ayolning o‘tinchi, farzandi haqqiga qilgan duosi ham mujassamdir. Ibrohim alayhissalom asl voqeani yashiradi, chunki har ne bo‘lganda ham ona, yolg‘iz farzandini o‘limga jimgina kuzatishi mumkinmi? Uning qarshilik qilishi Ibrohim alayhissalom uchun ham azobli edi, bu uning g‘amini yanada og‘irlashtirardi. Lekin voqeaning shu nuqtasida “Qisasi Rabg‘uziy”da bir holat keltiriladi. Unga ko‘ra ota-o‘g‘il vazifani ado etish uchun ketayotgan vaqtlarida Iblis ularni yo‘ldan qaytarish uchun vasvasaga soladi. Ammo ikkalalari ham bunga e’tibor berishmaydi. Shundan so‘ng Iblis Hojarni oldiga boradi: “Avratlar zaifroq bo‘lur teb Hojarg‘a keldi. Ibrohim Ismoilni qancha eltur bilurmusan? Aydi: “Do‘stinga eltur”. Iblis aydi: “Qurbon qilg‘ali eltur”. Hojar aydi: “Qayu ota o‘g‘ulni qurbon qilmishi bor?” Iblis aydi: “Tengri farmonladi”. Hojar aydi: “Ey ahmoq, Tengri yorlig‘i bo‘lsa hazor jon fido bo‘lsun”, tedi, |Iblis navmid bo‘lub yana Ismoil taba keldi, vasvasa qilu boshladi.”[3:109-b.] Aslida bu Iblisning bu javobni olishi aniq edi. Chunki qarshisida oddiy ayol emas, Alloh bizni zoye qilmas, deya kimsasiz cho‘lda yakka qolgan, o‘zini va farzandini Haq irodasi yo‘lida taslim qilgan va buning mo‘jizaviy mukofotini olgan ayol turgan edi. Bu kabi og‘ir sinovdan bir bor o‘tgan inson uchun ikkinchi bor o‘tish qiyin emas. Bunday iymoni mustahkam ayolning o‘g‘li ham shayton hiylalariga aldanmaydi. Iblis Ismoilning oldiga borib otasiga qarshilik qilishga undaganda Ismoil alayhissalom uni tosh bilan haydaydi. Buni qarangki, uning bu harakati hozirgacha hojilarga sunnat bo‘lib qoldi. Doston voqealarining keyingi rivojida Hojar bevosita qatnashmasa-da, lekin uning o‘rni bilvosita sezilib turadi.

Ota-o‘g‘il Mino tog‘iga yetib kelishgach, Ibrohim alayhissalom o‘g‘liga Allohdan kelgan yorliqni ma’lum qiladi. Shunda Ismoil alayhissalom Allohning farmoni so‘zsiz bajarilishi kerakligini aytadi. Aslida bu tabiiy hol, chunki Hojardek ayol voyaga yetkazgan o‘g‘ildan faqatgina shunday javob kutish mumkin. Ismoil alayhissalom otasidan uchta narsani iltimos qiladi. Uning uchinchi —so‘nggi tilagi onasi bilan bog‘liq edi:

Uchunchi qurbon qilg‘il, qonlig‘ to‘nimni olg‘il,

Eltib onomg‘a berg‘il, bo‘lsin yodgor tediyo. [2:526-b]

Onasiga mehri cheksiz o‘g‘il uning hijronida qiynalmasligi uchun undan yodgorlik sifatida to‘nini berishni so‘raydi. Uning iforini his qilgan onasida oz bo‘lsa-da ayriliqdan chekkan g‘ami kamayishini umid qiladi. Shu o‘rinda qonli to‘n yoki ko‘ylakni ayrilgan farzandidan xotira sifatida qabul qilish keyinchalik Yusuf alayhissalom taqdirida kuzatiladi. Shuningdek “Qisasi Rabg‘uziy”da uchinchi iltimosi sifatida onasiga ko‘ylagi va soch tolasini olib borishni iltimos qiladi. [3;120-b]

O‘g‘ilning so‘nggi vidolashuvi ham onasiga atalgan edi. Undan ayrilish onasi uchun naqadar og‘ir azob ekanini o‘g‘il achinish bilan izhor qiladi:

Butog‘indin oyrilg‘ay, toza shoxi qurug‘ay,

Qon yoshlarin oqizg‘ay, munlug‘ onom tediyo.

Murodig‘a yetmayin, diydorimg‘a to‘ymayin,

Mungin, zorin aytmayin, hasrat ichra qoldiyo.

Onom mani yo‘qlag‘ay, ko‘zdin yoshin og‘izgay,

Saharlarda oh urub, ko‘b yig‘log‘oy tediyo. [2:527]

Ushbu so‘zlar orqali o‘g‘ilning onaga bo‘lgan cheksiz muhabbati ufurib turibdi. O‘g‘il o‘lim ostonasida turibdi, ammo bir on bo‘lsa-da, o‘zining taqdiri haqida o‘ylamaydi. So‘nggi

daqiqalargacha onasiga bo‘lgan g‘amxo‘rlik, mehr, uning hijrondagi holi o‘g‘ilni tashvishga soladi.

Ismoil alayhissalom otasiga qo‘llarini bog‘lashini, u tayyor ekanini aytadi. Ibrohim alayhissalom ham haqning hukmini bajo keltirish uchun pichoqni o‘g‘lining bo‘g‘ziga tortadi. Allohning amri bilan pichoq Ismoilning bo‘ynini kesmaydi. Xalilluloh bir necha bor urinadi, lekin toshni-da parchalay oladigan pichoq Ismoil qarshisida ojiz qoldi. Shu o‘rinda e’tirof joizki, muallif qurbonlik jarayoni nihoyatda o‘tkir va ta’sirchan, jonli tasvirlaydi. So‘ng Haqdan vahiy bo‘lib, Ismoil alayhissalom o‘rniga qurbonlik uchun qo‘chqor tushirildi va uning maqomi Alloh nazdida yanada yuksak pog‘onaga ko‘tarildi. Keyinchalik uning avlodidan Muhammad S.A.V. dunyoga keldi. Voqeaning so‘nggi o‘rganilgan manbalarda: “Tarixi Tabariy”da [5:85-b.], “Qisasi Rabg‘uziy”da [3:121-b.] o‘xshash berilgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Sulaymon Boqirg‘oniy dostonida ona obrazi —Hojarning badiiy qiyofasi, ruhiy olami va o‘g‘li Ismoil alayhissalomnining unga bo‘lgan hurmati, mehri ifodasi orqali ta’sirchan tarzda ochib beriladi. Dostonda Hojar obrazi orqali iymon, sabr, ilohiy sinovlarga bardosh va fidoyilik g‘oyalari aks etadi. Hazrati Hojarning hayot yo‘llari, chekkan mashaqqatlari, ibratga to‘la hayotlari ko‘plab asarlarda turfa talqinlarda qalamga olinib, hech bir o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Қуръони карим (маъноларининг таржимаси). Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2001.

2. Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg‘oniy. -Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. - 592 b.

3. Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. — 304-b.

4. YAZICI ŞAHİN, S. (2016). Hikmet Geleneğinde Yazılmış Ḳıṣṣa-ı Ġażret-İ İsmā‘íl. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi, 5(1), 189-225.

5. Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. “Tarixi Tabariy”. https://islomiy.info/kitoblar/tabariy.pdf


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 81.38

# YOZUVCHI IDIOSTILINI SHAKLLANTIRUVCHI LINGVISTIK VA EKSTRALINGVISTIK OMILLAR

***Shernazarova Munisa Qahramon qizi,***
***Navoiy innovatsiyalar universiteti***
***"Filologiya va tillarni o'qitish" kafedrasi o'qituvchisi***



***munisa.shirinboyeva99@gmail.com***
***Orcid raqam: 0009-0004-5117-0218***

# LINGUISTIC AND EXTRALINGUISTIC FACTORS IN THE FORMATION OF AUTHOR'S IDIOSTYLE

***Shernazarova Munisa Qahramon qizi, Lecturer at the Department of Philology and Language Teaching Navoi University of Innovations***

# ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИДИОСТИЛЯ АВТОРА

***Шерназарова Муниса Кахрамон кизи, преподаватель кафедры филологии и обучения языкам, Навоийский университет инноваций***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada yozuvchi idiostilining shakllanish jarayoni lingvistik va ekstralingvistik omillar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Idiostil muallifning individual til uslubi sifatida ko'rilib, u leksik, sintaktik va stilistik vositalar tizimi orqali namoyon bo'ladi. Tadqiqotda shuningdek, muallifning dunyoqarashi, ijtimoiy-madaniy muhiti, psixologik xususiyatlari kabi ekstralingvistik omillar idiostil shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, idiostil ko'p qatlamli va murakkab tizim bo'lib, u nafaqat til birliklari, balki muallifning individual tafakkuri va ijodiy yondashuvi bilan ham chambarchas bog'liq. Maqolada idiostilni o'rganishning zamonaviy yondashuvlari ham ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *idiostil, individual uslub, lingvistik omillar, ekstralingvistik omillar, badiiy matn, muallif uslubi.*

***Annotation:*** *This article examines the formation of the author's idiostyle from the perspective of linguistic and extralinguistic factors. Idiostyle is considered as an individual style of expression manifested through a system of lexical, syntactic, and stylistic means. Particular attention is paid to the influence of extralinguistic factors such as the author's worldview, socio-cultural environment, and psychological characteristics. The findings indicate that idiostyle is a complex and multi-layered system that involves not only linguistic elements but also the author's individual cognition and creative approach. The paper also highlights modern approaches to the study of idiostyle.*

***Key words:*** *idiostyle, individual style, linguistic factors, extralinguistic factors, literary text, author's style.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается процесс формирования идиостиля автора с точки зрения лингвистических и экстралингвистических факторов. Идиостиль понимается как индивидуальный стиль речи автора, проявляющийся через систему лексических, синтаксических и стилистических средств. Особое внимание уделяется влиянию экстралингвистических факторов, таких как мировоззрение автора, социально-культурная среда и психологические особенности. Результаты исследования показывают, что идиостиль представляет собой сложную многослойную систему, включающую не только языковые элементы, но и индивидуальное мышление и творческий подход автора. Также рассматриваются современные подходы к изучению идиостиля.*

***Ключевые слова:*** *идиостиль, индивидуальный стиль, лингвистические факторы, экстралингвистические факторы, художественный текст, стиль автора.*

**KIRISH.** Bugungi kunda zamonaviy lingvistika fanida badiiy matn tilini o‘rganish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayniqsa, muallifning individual nutq uslubi — idiostil tushunchasi tilshunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Idiostil muallifning til vositalaridan foydalanishdagi o‘ziga xosligi, uning dunyoqarashi va ijodiy yondashuvi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab hodisa hisoblanadi. Shu bois, uni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki kognitiv, pragmatik va madaniy jihatlarni ham qamrab oladi.

Ilmiy adabiyotlarda idiostil ko‘pincha muallifning individual stilistik tizimi sifatida talqin qilinadi. U leksik birliklar, sintaktik konstruksiyalar, stilistik vositalar hamda badiiy tasvir elementlarining muayyan uyg‘unligi orqali shakllanadi. Biroq, zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, idiostilni faqat til birliklari orqali izohlash yetarli emas. Muallifning ijtimoiy muhiti, tarixiy davri, madaniy qadriyatlari va psixologik xususiyatlari kabi ekstralingvistik omillar ham uning uslubini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Ko‘plab tadqiqotchilar idiostilni muallifning individual nutq faoliyati va til vositalarini tanlashdagi o‘ziga xosligi sifatida talqin qilsalar, ayrim olimlar uni nafaqat lingvistik birliklar majmuyi, balki muallifning kognitiv va kommunikativ faoliyati mahsuli sifatida ham izohlaydilar. Masalan, David Crystal (2016) idiostilni til shaxsining kommunikativ makoni sifatida talqin qilib, uni muallifning dunyoni idrok etish va uni til orqali ifodalash usuli bilan bog‘laydi. Bu yondashuv idiostilni faqat matn darajasida emas, balki tafakkur darajasida ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, stilometrik va korpus lingvistika yo‘nalishidagi tadqiqotlar idiostilni aniqlashda statistik metodlarning muhimligini ta’kidlaydi. Maciej Eder (2013) o‘z ishlarida muallif uslubini aniqlashda so‘z chastotasi, n-grammalar va boshqa kvantitativ ko‘rsatkichlardan foydalanish samarali ekanligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv idiostilni obyektiv ravishda tahlil qilish imkonini beradi va ayniqsa mualliflikni aniqlash (authorship attribution) sohasida keng qo‘llaniladi.

Boshqa tomondan, idiostilni ekstralingvistik omillar bilan bog‘lab o‘rganish ham muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Harald Schmid (2016) idiostilni muallifning ijtimoiy, tarixiy va madaniy konteksti bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rib, uni ichki (lingvistik) va tashqi (ekstralingvistik) omillar birligi sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv idiostilni shakllantiruvchi omillarni kengroq doirada tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, idiostilni diskurs va pragmatika nuqtai nazaridan o‘rganish ham dolzarb hisoblanadi. Douglas Biber (2013) til birliklarining funksional qo‘llanishi va kontekstual omillarni hisobga olish orqali muallif uslubini aniqlash mumkinligini ta’kidlaydi. Bu esa idiostilni faqat struktura emas, balki kommunikativ jarayon sifatida ham ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, idiostil — bu murakkab, ko‘p qirrali tizim bo‘lib, u lingvistik birliklar, kognitiv jarayonlar hamda ekstralingvistik omillar o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Zamonaviy tadqiqotlar idiostilni kompleks yondashuv asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda va bu yo‘nalishda yangi metodologik imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Ushbu tadqiqotda idiostilning shakllanishini o‘rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot lingvostilistik va kommunikativ-kognitiv yondashuvlar asosida amalga oshirildi.

Nazariy tahlil usuli yordamida idiostilga oid ilmiy adabiyotlar o‘rganildi va uning lingvistik hamda ekstralingvistik jihatlari aniqlashtirildi. Lingvostilistik va semantik tahlil metodlari orqali badiiy matnlardagi stilistik vositalarning qo‘llanish xususiyatlari va ularning funksional ahamiyati tahlil qilindi.

Kontekstual tahlil stilistik birliklarni diskurs doirasida baholash imkonini berdi. Shuningdek, umumlashtirish va tasniflash metodlari asosida aniqlangan vositalar tizimlashtirildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, idiostil shakllanishida stilistik vositalar, xususan, taqqoslash va metaforalar muhim o‘rin egallaydi. Taqqoslashlar

matnda tasviriylikni kuchaytirish, emotsional-ekspressiv ta’sir yaratish hamda obrazlilikni shakllantirish kabi funksiyalarni bajaradi. Ular orqali oddiy predmet va hodisalarga qo‘shimcha semantik yuklama berilib, matnning badiiy ta’sir kuchi oshiriladi. Struktur jihatdan taqqoslashlarning turli tiplari mavjud bo‘lib, ular orasida sodda, ikki komponentli shakllar kengroq qo‘llanilishi kuzatiladi, bu esa uslubning aniqlik va ixchamlikka intilishini ko‘rsatadi.

Metaforalar idiostilning yana bir muhim komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. Ular yashirin taqqoslash vazifasini bajarib, abstrakt tushunchalarni konkretlashtiradi, muallif dunyoqarashini ifodalaydi va matnning estetik ta’sirini kuchaytiradi. Metaforik birliklar orqali ma’lum semantik dominanta shakllanib, u matnning umumiy mazmuniy va emotsional yo‘nalishini belgilaydi. Tahlillar metaforalarning ko‘pincha sodda shakllarda qo‘llanishini ko‘rsatadi, bu esa qisqa, ammo kuchli semantik effekt hosil qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, idiostilni shakllantirishda lingvistik vositalar bilan bir qatorda ekstralingvistik omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, ijtimoiy-madaniy muhit, psixologik holat va janr xususiyatlari stilistik vositalarning tanlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa idiostilni nafaqat individual, balki kontekstual hodisa sifatida ham talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, idiostil ko‘p qatlamli va tizimli tuzilishga ega bo‘lib, unda lingvistik, kognitiv va pragmatik omillar o‘zaro uyg‘unlashadi. Shu bilan birga, idiostil muallifga xos individuallikni aks ettiradi va ma’lum stilistik dominantlar asosida shakllanadi. Turli matnlarda bu dominant elementlarning ustuvorligi farqlanishi mumkin, bu esa idiostilning dinamik va moslashuvchan tabiatini ko‘rsatadi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Mazkur tadqiqot natijalari idiostil murakkab va ko‘p qatlamli hodisa ekanligini hamda uning lingvistik va ekstralingvistik omillar o‘zaro ta’siri asosida shakllanishini ko‘rsatdi. Aniqlanishicha, individual uslub, avvalo, stilistik vositalarni tanlash va qo‘llashdagi o‘ziga xoslik orqali namoyon bo‘ladi, bunda taqqoslash va metaforalar muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, idiostilni faqat til birliklari doirasida izohlash yetarli emasligi, balki muallifning ijtimoiy, madaniy va psixologik xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligi tasdiqlandi. Bu esa idiostilni kompleks tizim sifatida o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi.

Natijalar idiostilning ma’lum stilistik dominantlar asosida shakllanishini va uni o‘rganishda lingvistik, kognitiv hamda pragmatik yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanishi zarurligini ko‘rsatdi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda yanada chuqur tadqiqotlar olib borish, xususan, zamonaviy metodlar asosida tahlillarni kengaytirish dolzarb hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Aloshyna, M. (2022). *Author's idiostyle: Linguistic and translation aspects*. Rev. EntreLínguas, 8, e022049. https://doi.org/10.29051/el.v8i00.16660
2. Crystal, D. (2016). *The gift of the gab: How eloquence works*. Yale University Press.
3. Eder, M. (2013). Does size matter? Authorship attribution, small samples, big problem. *Digital Scholarship in the Humanities*, 30(2), 167–182.
4. Schmid, H.-J. (2016). *Entrenchment and the psychology of language learning*. De Gruyter Mouton.
5. Wright, D. (2017). Using word n-grams to identify authors and idiolects. *International Journal of Corpus Linguistics*, 22(2), 212–241.
6. Argamon, S., & Koppel, M. (2013). A systemic functional approach to automated authorship analysis. *Journal of Law & Policy*, 21(2), 299–316.

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 81.38

# O‘ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

*[1]Matkarimov Saparboy Rajabovich,*
*Urganch davlat universiteti dotsenti,*
*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*
*[2]Qalandarova Dilnoza Ravshan qizi,*
*Urganch davlat universiteti 1-bosqich magistranti*



*https://orcid.org/0009-0006-0100-1605*
*matkarimovsaparboy@gmail.com*

# A COMPARATIVE ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE UZBEK AND FRENCH LANGUAGES

*[1]Matkarimov Saparboy Rajabovich, Associate Professor at Urgench State University*
*Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences*
*[2]Qalandarova Dilnoza Ravshan qizi*
*First-year Master’s student at Urgench State University*



*dilnozaqalandarova1403@gmail.com*
*https://orcid.org/0009-0001-9247-1795*

# СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКАХ

*[1]Маткаримов Сапарбой Раджабович,*
*доцент Ургенчского государственного университета*
*доктор философии (PhD) по филологическим наукам*
*[2]Каландарова Дилноза Равшан кызы,*
*магистрант 1 курса Ургенчского государственного университета*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada o‘zbek va fransuz tillari frazeologizmlarining shakllanish manbalari qiyosiy-etimologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ikki xalq iboralarining kelib chiqishidagi milliy-madaniy va ekstralingvistik omillarni aniqlashdan iborat.*

***Kalit so‘zlar:*** *lingvokulturologiya, frazeologiya, etimologiya, madaniy kod, milliy mentalitet, qiyosiy tahlil.*

***Abstract****: This article analyzes the sources of formation of phraseologisms of the Uzbek and French languages from a comparative-etymological perspective. The aim of the study is to identify national-cultural and extralinguistic factors in the origin of the expressions of the two peoples.*

***Key words:*** *linguoculturology, phraseology, etymology, cultural code, national mentality, comparative analysis.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются источники формирования фразеологизмов узбекского и французского языков с сравнительно-этимологической точки зрения. Цель исследования – выявление национально-культурных и экстралингвистических факторов происхождения выражений двух народов.*

***Ключевые слова****: лингвокультурология, фразеология, этимология, культурный код, национальный менталитет, сравнительный анализ.*

**Kirish**. Zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologik yondashuv til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tadqiq etishda frazeologik birliklarni

asosiy obyekt sifatida ko‘radi. Har bir xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi, ko‘p asrlik hayotiy tajribasi va milliy qadriyatlari tilning "oltin fondi" hisoblangan frazeologizmlarda muhrlanadi, zero bu birliklar shunchaki lisoniy vosita emas, balki xalqning madaniy kodini saqlovchi va avloddan-avlodga uzatuvchi manba vazifasini bajaradi. [1.288]

**Adabiyotlar tahlili.** O‘zbek va fransuz tillari tipologik hamda geografik jihatdan turlicha bo‘lishiga qaramay, ularning frazeologik tizimida mushtarak insoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, milliy o‘zlikni aks ettiruvchi keskin farqli jihatlar ham mavjuddir. Ushbu maqolada mazkur ikki til frazeologizmlarining shakllanish manbalarini qiyosiy-etimologik jihatdan tahlil qilish, ularning kelib chiqishiga asos bo‘lgan diniy-ma’rifiy, tarixiy va ekstralingvistik omillarni aniqlash hamda bu birliklarning lingvomadaniy tabiatini yoritish asosiy maqsad qilib olingan. Bunday qiyosiy tadqiqot nafaqat tillarning lug‘at boyligini o‘rganish, balki o‘zbek va fransuz xalqlarining lisoniy olam manzarasidagi o‘ziga xosliklarini anglash uchun ham ilmiy-nazariy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** I. Diniy-ma’rifiy manbalar "O‘tkan kunlar": Qodiriy qahramonlari tilida duolar va diniy tushunchalar bilan bog‘liq iboralar markaziy o‘rin tutadi. Masalan, "Peshanasiga yozilgani" (taqdirga tan berish) yoki "Insof bermoq". Bu ibora o‘zbek xalqining islomiy "Taqdiri azal"ga bo‘lgan kuchli ishonchini ifodalaydi. Lingvokulturologik nuqtai nazardan, bu inson irodasidan tashqari sodir bo‘ladigan fojialarni (masalan, Otabek va Kumushning ayrilig‘ini) qabul qilish va sabr qilish mexanizmidir.

"Notre-Dame de Paris": Gyugo asarida xristianlik va cherkov hayoti bilan bog‘liq iboralar yetakchi. Masalan, "Mettre l'index sur" (ko‘rsatkich barmoqni qo‘ymoq - ayblamoq) yoki diniy rituallar bilan bog‘liq birliklar. Ushbu ibora bevosita katolik cherkovining "Index Librorum Prohibitorum" (Taqiqlangan kitoblar ro‘yxati) tushunchasidan kelib chiqqan. Lingvokulturologik jihatdan bu G‘arb madaniyatidagi "aybdorlik va qonun" ustuvorligini ko‘rsatadi. Klod Frollo dunyoqarashida hamma narsa yo gunoh, yo taqiq ostida.

Qiyos: Har ikki asarda ham qahramonlar taqdirni ilohiy kuch bilan bog‘lovchi iboralarni ishlatadi, bu esa ikki xalqning o‘sha davrdagi diniy dunyoqarashini ko‘rsatadi.

II. Ijtimoiy tabaqalanish va shahar hayoti

"O‘tkan kunlar": Toshkent va Marg‘ilon savdogarlari hamda beklar hayoti.

“Salla desa kalla keltirmoq” - Bu ibora Sharqona mutelik va amrga so‘zsiz bo‘ysunishning fojiaviy ramzidir. Iborada "salla" (ilm va martaba belgisi) va "kalla" (inson hayoti) obrazlari qarama-qarshi qo‘yilgan. Bu o‘sha davrdagi qonunlarning inson qadriga nisbatan naqadar qattiq bo‘lganini, ijrochilarning esa (masalan, xon amaldorlari) o‘z mas’uliyatini tushunmay, ko‘r-ko‘rona xizmat qilishini ko‘rsatadi. [2.125]

"Oshga tushgan pashshadek"- Bu yerda o‘zbek madaniyatining eng muqaddas unsuri - osh (palov) obrazidan foydalanilgan. Ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini bilmaslik, kutilmaganda noo‘rin aralashish "pashsha"ning oshga tushishiga o‘xshatiladi. Bu ibora o‘zbeklarning "tartib va odob"ga bo‘lgan talabini, jamiyatda har bir narsaning o‘z o‘rni borligi haqidagi qarashini ifodalaydi.

"Notre-Dame de Paris": Parijning o‘rta asrlar tubanliklari (mo‘jizalar saroyi) va aristokratiyasi.

"Cour des Miracles" (Mo‘jizalar hovlisi): Dastlab bu Parijdagi aniq bir joy nomi bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik fransuz tilida "tartibsizlik, qalloblik va qashshoqlik uyasi" ma’nosidagi frazeologizmga aylandi. Nomi "mo‘jiza" bo‘lsa-da, mazmuni tilanchilarning soxta kasalliklaridan (mo‘jizaviy tuzalishlaridan) kelib chiqqan. Bu fransuz madaniyatidagi "ironiya" (kesatiq) va ijtimoiy tabaqalanishning (aristokratiya va qashshoqlar) tilga ko‘chgan ko‘rinishidir.

« Être au gibet » (Dor ostida bo‘lmoq): O‘rta asrlar Pariji markazidagi dor (gibet) - fojiaviy ramz. Bu ibora fransuz tilida shunchaki o‘limni emas, balki "sharmandali jazo" va "jamiyatdan haydalish"ni anglatadi. Kvazimodo yoki Esmeralda taqdiri misolida bu ibora huquqiy tizimning (Klod Frollo timsolida) naqadar shafqatsiz bo‘lganini anglatuvchi madaniy belgidir.

A. Qodiriy va V. Gyugo asarlaridagi ijtimoiy frazeologizmlar har ikki xalqning o‘tmishdagi adolatsizliklarga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. O‘zbek tilida «salla desa kalla keltirish» orqali hokimiyatning insoniylikdan uzoqlashgani satira ostiga olinsa, fransuz tilidagi « Cour des Miracles » orqali jamiyatning tubanlashgan qatlamlariga lingvistik tashxis qo‘yiladi. Bu tahlillar shuni isbotlaydiki, shakllanish manbalari (maishiy hayot vs shahar tarixi) turlicha bo‘lsa-da, har ikki tildagi

iboralar o‘z xalqining ijtimoiy og‘riqlarini muhrlab qolgan.

III. Muhabbat va his-tuyg‘ular metaforasi

**Tahlillar va natijalar.** O‘zbek madaniyatida sevgi ko‘pincha ichki dard, sadoqat va sabr orqali ifodalanadi. Qodiriy qahramonlari o‘z tuyg‘ularini jismoniy harakat bilan emas, ko‘proq yurak holati orqali namoyon etadi.

“Yuragi qon bo‘lmoq” (Dard metaforasi): O‘zbek frazeologiyasida “qon” obrazi azob va uqubatning eng oliy darajasini bildiradi. Kumushning Zaynab bilan bir hovlida yashashi va Otabekdan ayro tushishi uning qalbi "jarohatlanganini" ko‘rsatadi. Bu ibora Sh. Rahmatullayev ta’kidlaganidek, milliy mentalitetdagi "ichki dardni tashqariga chiqarmaslik" (introvertlik) xususiyatini aks ettiradi.

“L'amour est aveugle” (Muhabbatning ko‘r):Bu ibora qadimiy antik manbalarga (Amur/Kupidon ko‘zi bog‘liq tasvirlanishiga) borib taqaladi. Klod Frolloning Esmeraldaga bo‘lgan kasallik darajasidagi ehtirosi aynan "ko‘r muhabbat"dir. Lingvokulturologik jihatdan, bu Yevropa madaniyatidagi "muhabbat — mantiqni o‘ldiradi" degan tushunchaning frazeologik in’ikosidir.

O‘zbek frazeologizmlarining lisoniy tabiatini tahlil qilishda Sh. Rahmatullayevning tadqiqotlariga tayanish maqsadga muvofiqdir [3.408]. Olim o‘zbek iboralarining shakllanishida xalq og‘zaki ijodi va kundalik turmush tarzi yetakchi ekanligini ta’kidlaydi. Masalan, “O‘tkan kunlar” asaridagi “kavushini to‘g‘rilab qo‘ymoq” yoki “salla desa kalla keltirmoq” kabi iboralar aynan milliy o‘ziga xoslikning yorqin namunalaridir.

Frazeologizmlarni xalqning “madaniy kodi” sifatida o‘rganishda V.A. Maslova va V.N. Teliya kabi olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Xususan, V.A. Maslova ta’riflaganidek, frazeologizmlar tilning 'ruhi' bo‘lib, ularda millatning dunyoqarashi va stereotiplari mujassamlashgan. [4.208] Bu nazariya «O‘tkan kunlar»dagi milliy-etik obrazlarni hamda «Notre-Dame de Paris» dagi o‘rta asrlar Parij ruhiyatini tushunishga yordam beradi.

**Xulosa** o’rnida aytish mumkinki o‘zbek va fransuz tillari frazeologiyasining "O‘tkan kunlar" hamda "Notre-Dame de Paris" asarlari misolidagi qiyosiy-etimologik tahlili quyidagi natijalarga kelish imkonini berdi:

1. Shakllanish manbalari: O‘zbek frazeologizmlari asosan xalqning kundalik turmush tarzi, islomiy-axloqiy qadriyatlari va dehqonchilik madaniyati (osh, non, salla) negizida shakllangan bo‘lsa, fransuz frazeologiyasida antik mifologiya, xristianlik liturgiyasi va Parij shahar madaniyati (gibet, index, chœur) yetakchi o‘rin tutadi. [5]
2. Lingvokulturologik xususiyat: A. Qodiriy asaridagi iboralar o‘zbek xalqining "andisha", "sadoqat" va "sabr" kabi milliy stereotiplarini saqlab keladi. V.Gyugo asaridagi birliklar esa "ijtimoiy fojia", "erkin ehtiros" va "shahar hayotini"ni ifodalashga xizmat qiladi.
3. Kognitiv o‘xshashlik: Har ikki tilda ham insonning fundamental tuyg‘ulari (muhabbat, nafrat, intizorlik) somatik obrazlar (yurak, ko‘z) orqali berilsa-da, ularning madaniy konnotatsiyasi xalqning tarixiy tajribasidan kelib chiqqan holda farqlanadi. [6]

Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklar shunchaki lisoniy bezak emas, balki asar qahramonlarining milliy-madaniy qiyofasini yaratuvchi asosiy vositadir. Ushbu natijalar lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik va badiiy tarjima nazariyasi uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
2. Йўлдошев Б. Фразеологик бирликларнинг услубий хусусиятлари. – Самарқанд, 1998. – 125 б.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.– Т.:Ўқитувчи, 1978. – 408 б.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. – М.:Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.
5. Mahmoudian M. Modern French Linguistics. – Ithaca: Cornell University Press, 1990.
6. Добровольский Д.О. Когнитивные аспекты национальной специфики фразеологии // Вопросы филологии. – М., 1997. – № 2.
7. https://www.cnrtl.fr/
8. https://www.expressio.fr/
9. https://ziyouz.uz/
10. https://www.larousse.fr/dictionnaires/francais

Qabul qilindi: 18.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 343.13:343.98

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ҲУҚУҚИЙ ОНГИ ВА МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШ ҲОЛАТИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

***Замонбеков Умидбек Авазбек ўғли, Ўзбекистон ИИВ Тошкент минтақавий ўқув маркази, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси***



***https://orcid.org/0009-0007-2356-5565***
***e-mail: umidbek.zamonbekov94@mail.ru***

# THE STATE OF ENHANCING THE LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE OF YOUTH IN NEW UZBEKISTAN AND ITS DEVELOPMENT

***Zamonbekov Umidbek Avazbek ugli, Tashkent Regional Training Center of the Ministry of nternal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Independent researcher of the University of Public Security of the Republic of zbekistan***

# СОСТОЯНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО РАЗВИТИЕ

***Замонбеков Умидбек Авазбек оглы, Ташкентский региональный учебный центр Министерства внутренних дел Республики Узбекистан, независимый исследователь Университета общественной безопасности Республики Узбекистан***

***Аннотация:*** *Мазкур мақолада ривожланиб бораётган Янги Ўзбекистонимизда ёшлар ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш юзасидан амалга оширилаётган ишлар ҳолати ҳар тарафлама таҳлил этилган ва уни ривожлантириш юзасидан амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.*

***Калит сўзлар:*** *ҳуқуқий онг, ҳуқуқий маданият, ёшлар тарбияси, профилактик тадбирлар, хориж тажрибаси, ҳуқуқий билим.*

***Abstract:*** *This article provides a comprehensive analysis of the current state of efforts aimed at enhancing the legal awareness and legal culture of youth in the developing New Uzbekistan, and also puts forward practical proposals and recommendations for their further development.*

***Key words:*** *legal awareness, legal culture, youth education, preventive measures, foreign experience, legal knowledge.*

***Аннотация:*** *В данной статье всесторонне проанализировано состояние проводимой работы по повышению правового сознания и правовой культуры молодежи в развивающемся Новом Узбекистане, а также разработаны практические предложения и рекомендации по их дальнейшему развитию.*

***Ключевые слова:*** *правовое сознание, правовая культура, воспитание молодежи, профилактические мероприятия, зарубежный опыт, правовые знания.*

**Кириш.** Бугунги кунда ёшларимиз эришаётган ютуқлар Янги Ўзбекистонни дунёга танитмоқда. Ёшлар билан ишлаш жараёнида уларнинг ҳуқуқий онги маданиятини ошириш жамиятдаги ўрнини топишига туртки бўлиб хизмат қилади. Кўпинча болаликдан катталикка ўтиш икки босқичга бўлинади: болалик ва ўсмирлик (эрта ва кеч). Бироқ, бу даврларнинг хронологик чегаралари кўпинча турлича белгиланади. Масалан, психиатрияда 14 ёшдан

18 ёшгача бўлган ёш ўсмирлик деб аталади, психологияда эса 16-18 ёшлилар кўпинча ёшлар деб ҳисобланади[1]. В.Далнинг изоҳли луғатида ёшлик “15 ёшдан 20 ёшгача ва ундан кўп ёш, кичик, йигит”[2], ўсмир эса “ўсмирлик давридаги бола”, тахминан 14-15 ёшда деб таърифланган[3]. ЮНЕСКО ҳужжатларида яна бир ёш градациясини топиш мумкин: болалар (12-15 ёш), ўсмирлар (15-17 ёш) ва ёшлар (18-24 ёш) га бўлинган[4].

**Мавзунинг ўрганилганлик даражаси.** Ёшларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятни юксалтириш аввалдан долзарб аҳамият касаб этган, чунки шу орқали фуқароларда ҳуқуқбузарликка нисбатан ўзига хос бўлган “иммунитет” шаклланади. Ушбу мақолада шу “иммунитет”ни шакллантириш аҳволи ва уни ривожлантириш бўйича тавсиялар берилган.

**Тадқиқот методологияси:** Мақолада мавзуни ёритишда умум илмий ва махсус тадқиқот тизимларидан фойдаланилган, қиёсий-ҳуқуқий таҳлил, мантиқий умумлаштириш, тарихийлик ва статистик маълумотларни ўрганиш усуллари қўланилди. Хусусан Ўзбекистон Республикасининг ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш, бунда асосан ёшлар ўртасидаги ҳуқуқбузарликка нисбатан тоқатсиз муносабатда бўлиш ва уни такомиллаштиришга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари ҳалқаро стандартлар ва илғор хорижий давлатлар тажрибаси билан қиёсий ўрганилди.

**АСОСИЙ ҚИСМ.** Ҳозирги вақтда ёш авлод тобора кўпроқ ҳуқуқий нигилизмда айбланмоқда. Шу билан бирга, Ўзбекистонда фуқаролик жамияти ва қонун устуворлигини самарали шакллантиришга халақит берадиган номақбул ижтимоий ҳодиса сифатида ёшларнинг ҳуқуқий инфантилизми муаммоси ҳам юзага келган.

Бу тобора кўпроқ жамиятда мавжуд бўлган хатти-ҳаракатлар қоидалари ва меъёрларини менсимаслик ёки уларни инкор этишда намоён бўлади. Янги авлод дунё ҳақидаги тасаввурини қайта шакллантирмоқда ва бу ёшларнинг асосий қадриятларига айланмоқда. Ҳуқуқий дунёқарашни шакллантириш жараёнида ёшларнинг ҳуқуқий тарбияси самарадорлиги ёшларнинг ҳаётнинг барча жабҳаларида қонунларга риоя қилиш зарурлигига боғлиқ. Ёшларга ҳуқуқий тарбиявий таъсир кўрсатилмаганлиги бугунги жамиятда ёшлар ҳуқуқий нигилизмининг салбий кўринишлари кенг тарқалиб, ёшлар хулқ-атворининг турли кўринишлари девиант, кўпинча ҳуқуқбузарлик хусусиятига эга бўлиб, “ёшларнинг онги ва хулқ-атворида, асоциал ва антисоциал ғоялар ва моделлар бирлашишга ҳисса қўшаётган асосий омиллардан бирига айланмоқда”[5]. Бу вазифаларни амалга оширишда таълим сиёсатида муносиб ўрин эгаллаган ҳуқуқий таълим муҳим ўрин тутади. Ҳуқуқий онгни тарбиялашнинг асосий йўналишлари бўлиб ўқув ва тарбиявий ишлар жараёнида амалга ошириладиган ҳуқуқий ўқитиш, оммавий ахборот воситалари, деворий газеталар, маърузалар, давра суҳбатлари, йиғилишлар, оғзаки ташвиқот, тематик кечалар орқали ҳуқуқий билимларни тарғибот қилиш, ҳуқуқий талабларни бажаришга мажбур қилиш кабилар ҳисобланади. Ўз ҳуқуқини биладиган, ўз кучи ва имкониятларига таянадиган, атрофида содир бўлаётган воқеа-ҳодисаларга мустақил ва онгли муносабат билан ёндошадиган, шахсий манфаатини мамлакат ва ҳалқ манфаати билан уйғун ҳолда кўрадиган эркин, билимли ва баркамол профессионал кадрларни тарбиялаш вазифаси янги Ўзбекистонни барпо этишдаги энг долзарб масалалалардан бири ҳисобланади. Ҳар бир мутахассис ўз соҳаси ва касбига доир ҳуқуқий ҳужжатларни яхши билиши ва уни ҳимоя қила олиши зарур. Шунинг учун профессионал кадрларни ҳуқуқий онг, ҳуқуқий маданият ва ҳуқуқий билимлар билан қуроллантириш демократик ҳуқуқий давлат барпо этаётган мамлакатнинг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади. Аҳолининг ҳуқуқий онги ва

[1] Гамезо М.В., Герасимова В.С., Горелова Г.Г., Орлова Л.М. Возрастная психология: личность от молодости до старости. -М., 1999. 272 с.; Ремшмидт Х.Х. Подростковый и юношеский возраст: проблемы становления личности. –М., 1994. 320 с.; Толстых А. Возрасты жизни. –М., 1988. 223 с.

[2] Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка / В. Даль – Т. IV. – М., 1982. С. 668.

[3] Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка / В. Даль – Т. III. – М., 1982. С. 199

[4] The global situation of youth in the 1990s: Trends & prospects / UN Office at Vienna. Center for social develop a humanitarian affairs. – N. Y. Un, 1993. – VI. – 65 p.

[5] Самыгин П. С., Исакова Ю. И., Печкуров И. В. Правовая социализация современной российской молодежи: моногр. / под ред. С. И. Самыгина. -М., 2016. С.7

маданиятини шакллантиришни ривожлантиришда умумтаълим мактаблари ва академик лицейларда ҳуқуқий билимларга доир ўқув машғулотлари кўламини янада кенгайтириш, аҳолининг кундалик ҳаётида кўп учрайдиган ҳуқуқий масалалар юзасидан савол-жавоб тарзидаги қўлланмаларни тайёрлаш ва хонадонларга бепул тарқатиш муҳим ҳисобланади. Аҳолининг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтиришда кундалик турмушда кўп учрайдиган масалаларнинг ҳуқуқий ечимлари ва янги қабул қилинган қонун ҳужжатларининг моҳиятини уйма-уй юриб тарғиб қилиш, шунингдек, ҳуқуқий маълумотларни етказишга қаратилган флаер, буклет ва бошқа тарқатма материалларни оилаларга бепул тарқатиш, ёшлар ва ота-оналар ўртасида никоҳ ёши, алимент тўлаш шартлари тўғрисида мунтазам равишда ҳуқуқий тарғибот тадбирларини ўтказиш, маҳаллаларда аҳоли орасидаги турли муаммоли масалалар, хусусан, миграция, моддий ёрдам, ер олиш, уй-жой олиш, коммунал масалалар, имтиёзлар, алимент, ишга жойлашиш, таълим олиш ва бошқалар бўйича ҳуқуқий ахборотни буклет, флаер, лифлет ва плакатлар шаклида аҳолига етказиш, жиноятчилик ва бошқа ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, фуқаролик низоларини кескин камайтириш муҳим аҳамият касб этади. К.В.Науменкова таъкидлашича: “ҳуқуқий таълим жаҳон ва миллий маданият қадриятларини ифодаловчи ҳуқуқий ғоялар, нормалар, тамойилларни шакллантиришга қаратилган чора-тадбирлар тизими сифатида белгиланиши мумкин” [6] . Ҳуқуқшунос олим И.Тултеев ҳуқуқий тарбиянинг қуйидаги умумлаштирилган икки вазифасини ифодалайди: “Биринчиси тарбияланувчиларга маълум миқдордаги ҳуқуқий билимлар, кўникма ва малаканинг берилиши. Иккинчиси – тарбияланувчиларда ҳуқуқий ғоялар, ҳиссиётлар, эътиқодни шакллантириш”[7]. О.Ф.Скакун ҳуқуқий таълим механизмининг асосий элементлари, биринчи навбатда, шакллар, яъни таълим жараёнини ташкил этишнинг ўзига хос усуллари. Буларга қуйидагилар киради:

Ҳуқуқий тарғибот - муайян ҳуқуқий ғоялар ва қадриятларни тарқатишдир. Юридик таълим - бу шакл жуда кенг тарқалган, аммо мустақил сабабларга кўра у ҳар доим ҳам ҳаммага этиб боравермайди ва бу борада қуйидаги шакл самаралироқ. Ўз-ўзини тарбиялаш - бу таълимнинг энг самарали шакли, у шахснинг қонуннинг асосий қоидаларини онгли ва ихтиёрий равишда ўзлаштиришига асосланади [8] . 1978 йилдан бери Австрияда “Мактабларда фуқаролик таълими” қонуни мавжуд бўлиб, унга кўра “ҳуқуқий таълим жамият ва давлатнинг, хусусан, фуқароларнинг шахс сифатида ривожланишининг асосига айланади ва унинг мақсади фуқароларнинг ҳуқуқий онгини умумйевропа миқёсида шакллантириш ва глобал жаҳон муаммоларини тушунишдир”[9]; Англия ва Ирландияда ихтиёрий ҳуқуқшунослик дастурлари мавжуд. Ушбу дастурлар турли даражадаги ўқитишга қаратилган эди — бошланғич ва асосий. Аммо 2000-йилларнинг бошидан бошлаб Англияда юридик таълим ихтиёрий тоифадан мажбурий тоифага ўтган[10].

Ҳуқуқий таълимнинг Франция тажрибаси ҳам эътиборга лойиқ, “француз мактабларида ўқувчилар бирламчи манбалар (“Инсон ва фуқаро ҳуқуқлари декларацияси», «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси” ва бошқалар) асосида кундалик ҳаётда учрайдиган ҳуқуқий вазиятларни таҳлил қила олишлари керак; танқидий фикрлаш қобилиятига эга бўлиб, ижтимоий-сиёсий ҳаёт масалалари бўйича ўз нуқтаи назарига эга бўлиши, олинган билимларни амалиётда қўллай олиши керак”[11],

[6] Науменкова К.В. Проблема правового воспитания граждан России на рубеже веков //Проблемы государства, права, культуры и образования в современном мире. 2004. № 2. С.41-42

[7] Одилқориев Х.Т., И.Т.Тультеев ва бошқалар. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. –Т.: «Шарқ». 2009. – Б.292

[8] Скакун О.Ф. Теория государства и права: Учебник.-Харьков: Консум; Ун-т внутр. дел, 2000. С.74

[9] Аксенова Э.А. Гражданское образование зарубежных школьников: современные тенденции развития /Школьные технологии. 2015. № 4. С.40.

[10] Гаджиева П.А., Раджабова Р.В. Правовое образование подрастающего поколения: отечественный и зарубежный опыт // Мир науки, культуры, образования. 2019. № 5(78). С. 122

[11] Протасова И.А. Гражданско-правовое образование как фактор формирования правовой культуры личности (на примере стран западной Европы и США) //Культура. Образование. Право. Вып. 2: Материалы Междунар. науч.-практ. конф., 28–29 апр. 2009 г. Екатеринбург, 2009. С. 83

бунга эришиш учун махсус дастурлар ишлаб чиқилган.

**ХУЛОСА.** Хулоса қилиб айтганда хорижий тажриба ва олимларнинг фикрини инобатга олиб қуйидаги назарий хулоса, таклиф ва тавсияларни келтириб ўтишимиз мумкин:

Биринчи навбатда, ҳуқуқий маданият ва ҳуқуқий онг жамиятда қонунийликни таъминлаш ва инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилишда муҳим аҳамиятга эга. Қонунларни мукаммал билиш, ҳуқуқий нормаларга ҳурмат билан муносабатда бўлиш ва қонунларга сўзсиз риоя қилиш уларнинг кундалик хизмат фаолиятининг асосий қисмига айланиши шарт;

Иккинчидан, миллий хавфсизлик ва жамоат тартибини сақлашда ҳуқуқий маданият муҳим омил сифатида аҳамият касб этади. Ҳуқуқий маданияти юксак бўлган ходимлар инсон ҳуқуқларини ҳурмат қилади, уларнинг қонуний манфаатларини самарали ҳимоя қилади.

Учинчидан, ҳуқуқий маданиятнинг шаклланиши ва уни юксалтириш, ёшлар ўртасида қонунчилик янгиликларини ўзлаштириш, ҳуқуқий амалиётни ўрганиш ва малака оширишни талаб қилади. Шунга мувофиқ, етакчи мутахассисларни жалб қилган ҳолда махсус ҳуқуқий ўқув машғулотлари ташкил этилиши мақсадга мувофиқдир.

Бешинчидан, Президент қарорлари ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳуқуқий маданият ва қонунийликни таъминлашга қаратилган. Бу ҳужжатлар қонун устуворлигини мустаҳкамлаш, жамоатчилик назоратини кучайтириш ҳамда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимларининг касбий этика ва ҳуқуқий маданиятини юксалтиришни мақсад қилади.

Хулоса қилиб айтганда, юксак ҳуқуқий маданият жамиятда қонунийликни, ҳуқуқий тартиботни ҳамда инсон ҳуқуқлари ва эркинликларининг самарали амалга оширилишини кафолатлайди. Ёшлар ўртасида бу тамойиллар доимий риоя қилиниши лозим бўлган қонунчилик ва ахлоқий меъёрлар билан уйғун ҳолда амалга оширилиши зарур.

**АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**


1. Гамезо М.В., Герасимова В.С., Горелова Г.Г., Орлова Л.М. Возрастная психология: личность от молодости до старости. -М., 1999. 272 с.; Ремшмидт Х.Х. Подростковый и юношеский возраст: проблемы становления личности. –М., 1994. 320 с.; Толстых А. Возрасты жизни. –М., 1988. 223 с.
2. Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка / В. Даль – Т. IV. – М., 1982. С. 668.
3. Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка / В. Даль – Т. III. – М., 1982. С. 199
4. The global situation of youth in the 1990s: Trends & prospects / UN Office at Vienna. Center for social develop a humanitarian affairs. – N. Y. Un, 1993. – VI. – 65 p.
5. Самыгин П. С., Исакова Ю. И., Печкуров И. В. Правовая социализация современной российской молодежи: моногр. / под ред. С. И. Самыгина. -М., 2016. С.7
6. Науменкова К.В. Проблема правового воспитания граждан России на рубеже веков //Проблемы государства, права, культуры и образования в современном мире. 2004. № 2. С.41-42
7. Одилқориев Х.Т., И.Т.Тультеев ва бошқалар. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. –Т.: «Шарқ». 2009. – Б.292
8. Скакун О.Ф. Теория государства и права: Учебник. -Харьков: Консум; Ун-т внутр. дел, 2000. С.74
9. Аксенова Э.А. Гражданское образование зарубежных школьников: современные тенденции развития /Школьные технологии. 2015. № 4. С.40.
10. Гаджиева П.А., Раджабова Р.В. Правовое образование подрастающего поколения: отечественный и зарубежный опыт // Мир науки, культуры, образования. 2019. № 5(78). С. 122
11. Протасова И.А. Гражданско-правовое образование как фактор формирования правовой культуры личности (на примере стран западной Европы и США) //Культура. Образование. Право. Вып. 2: Материалы Междунар. науч.-практ. конф., 28–29 апр. 2009 г. Екатеринбург, 2009. С. 83


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 25.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 373.091.3:821.512.133

# O‘QUV TAHLILI MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH VOSITASI

*To‘ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

# DIDACTIC ANALYSIS AS A TOOL FOR DEVELOPING LOGICAL THINKING



*Tuychiyeva Mahfuza Umarkulovna,*
*Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature*
*mahfuzatuychiyeva3@gmail.com*
*https://orcid.org/0000-0002-8965-2325*

# ДИДАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

*Туйчиева Махфуза Умаркуловна,*
*доцент Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам*

***Annotatsiya:*** *Maqolada 5-sinfda Abusaid Ko‘chimovning “Boychechak” hikoyasining o‘quv tahlili qilish bilan birga o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo‘naltirish masalasi yoritilgan. Dunyo ta’limida va milliy metodikamizda bu yo‘nalishga e’tiborning sabablariga izoh berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *hikoya, mantiqiy fikrlash, o‘quvchi, tahlil, ta’lim, adabiyot, maktab, darslik, savol.*

***Abstract:*** *The article discusses the matter of guiding 5th-grade students toward logical thinking through a literary analysis of Abusaid Kuchimov’s story “Boychechak”. Reasons for the emphasis on this approach in both global education and our national methodology are also explained.*

***Key words:*** *story, logical thinking, student, analysis, education, literature, school, textbook, question*

***Аннотация:*** *В статье освещается вопрос развития у учащихся 5-го класса логического мышления наряду с учебным анализом рассказа Абусаида Кучимова “Boychechak”. Также разъясняются причины внимания к данному направлению в мировом образовании и нашей национальной методике.*

***Ключевые слова:*** *рассказ, логическое мышление, ученик, анализ, образование, литература, школа, учебник, вопрос.*

**Kirish.** Adabiyot milliy o‘quv dasturida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishdan bosh maqsad sog‘lom e’tiqodli, keng dunyoqarashli, nozik didli, o‘zga inson tuyg‘ularini his qiladigan, o‘z xatti-harakatlarini asoslay oladigan, mustaqil fikrga va keng dunyoqarashga ega shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirishdan iboratligi belgilab qo‘yilgan. Chunki bu davlat va jamiyat rivojini belgilaydigan, bosh maqsad amalga oshirishdagi eng muhim bosqichdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ayniqsa, hozirgi notinch va tahlikali zamonda butun bashariyat oldida paydo bo‘layotgan, biz ilgari duch kelmagan g‘oyat murakkab muammolar, global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, shu yo‘lda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g‘oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so‘z

san’atining o‘rni va mas’uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda”

Maktab adabiy ta’limida bosh maqsadga erishish uchun o‘quvchilarda badiiy adabiyot olamiga chuqurroq olib kirish va adabiyotga mehr uyg‘otish orqali kitobxonni tarbiyalash, ularni badiiy asar o‘qiydigan, adabiy-nazariy tushunchalarga, o‘z bilim va hayotiy tajribasiga tayangan holda asarlarni tahlil qiladigan va baho beradigan darajaga yetkazish; badiiy asar va unda aks etgan hayotiy holat hamda adabiy qahramonlar haqidagi fikrlarini ham og‘zaki, ham yozma shaklda to‘g‘ri ifodalay oladigan qilib tarbiyalashdan iborat vazifalarni bajarish belgilangan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya**. O‘quvchini “o‘z xatti-harakatlarini asoslay oladigan” darajasiga yetkazish adabiy ta’limda badiiy asar qahramonlarining tabiatini matn asosida ochib berish, izohlay olish bilan kechadi. Bu jarayonda deduktiv va induktiv xulosa chiqarish ko‘nikmasi rivojlanadi. Mantiqiy fikrlash ijodiy fikrlash bilan uyg‘unlashadi. Bir qarashda murakkab ko‘rinadigan jarayon aslida adabiy ta’limda “kundalik”, asosiy mashg‘ulot - asar tahlili bilan amalga oshadi. Faqat “oq va qora ranglarni” farqlaydigan kitobxonni emas, sabab – oqibat munosabatlarini aniqlash va izohlash ko‘nikmasiga ega, dalillangan fikr bildirish va mantiqiy asoslaydigan kitobxonni tarbiyalashda o‘quv tahlilida sinchkovlik talab qilinadi.

O‘quv tahlili masalasi metodikaning jon tomiri sifatida har bir tadqiqotchining ilmiy ishida u yoki bu saviyada, ko‘lamda o‘rganiladi [3]. O‘zbek adabiyoti metodikasida aynan tahlil masalasida deyarli har bir tadqiqotchi Q.Yo‘ldoshovning tahlilga bag‘ishlangan darslik va maqolalariga murojaat qiladi.

**Muhokama**. Badiiy matn tahlil qilish bilan birgalikda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni o‘rgatishda mulohaza yuritish, hukm chiqarish va farqlash ko‘nikmalari mustahkamlanadi va takomillashtiriladi. Bu o‘quvchilarga individual ravishda fikrlash va o‘z muammolarini hal qilishga yordam beradi[6]. Dunyo mamlakatlarining aksariyatida ta’lim tizimida adabiyot ona tili bilan birgalikda o‘tiladi, ya’ni alohida o‘quv predmeti hisoblanmaydi. Darsda asosan nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Bo‘shliqni to‘ldirish uchun falsafiy fikrlashni shakllantiradigan turli loyihalardan foydalanishadi. Bunday loyihalar maqsadi bizda adabiy ta’lim maqsadi bilan uyg‘unligini ko‘rish mumkin. Ularda matn asosida mulohaza yuritish, bahslashish, dunyoqarashni kengaytirish vazifasi qo‘yiladi. Loyiha tarafdorlarining fikricha, bunday mashg‘ulotlar bolalar dunyoni va o‘zlarini yangi nuqtayi nazardan ko‘ra oladilar[2], Gavayidagi 1000 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ustida olib borgan tadqiqotlarida tafakkur ko‘nikmalari testining yuqori ko‘rsatkichlari aynan shunday mashg‘ulotlarda qatnashgan bolalarga tegishli bo‘lgan[4]. Bolalarga falsafani o‘qitish dasturida o‘qituvchining roli juda katta ahamiyatli ekanligi ta’kidlanadi. O‘qituvchi mantiqiy dalillar bilan munozarani yo‘naltira olishi kerak. Shuning uchun bu dastur o‘qituvchi uchun qiyinchilik tug‘diradi. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi to‘g‘ri javobni biladigan va xatolarni tuzatishi kerak bo‘lgan shaxsdir. Boshqacha aytganda, o‘qituvchi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Dastlab P4C tizimida suhbatga urg‘u beriladi. Ikkinchidan, savollarga javoblar faqat o‘qituvchilar biladigan aniq va oldindan belgilangan javob emas, balki muhokamaga urg‘u beriladi. Bu qiyinchilikni yengish uchun o‘qituvchi falsafiy munozara olib borishni o‘rganishi kerak.

**Natijalar.** 2024-yilda 5-sinf “Adabiyot” darsligida ilk marta Abusaid Ko‘chimov ijodi berildi[1]. “Boychechak” hikoyasi orqali maktabga “kirib kelgan” yozuvchi bolaligini hayotini eslaganda ota-onasining mehnatkashligiga, tarbiyada qattiqqo‘l bo‘lganlariga urg‘u beradi. Yozuvchi ham uy ishlarida ularga qarashgan. Kitob o‘qishni yaxshi ko‘rgan”.

Abusaid Ko‘chimovning “Boychechak” hikoyasining badiiy qiymati o‘quv tahlilida sinfni o‘zlashtirishi, adabiyotga munosabatiga qarab yana boshqa yondashuvlar uchun ham yaxshi manba bo‘la oladi.

Bosh qahramon Qo‘zivoy xuddi yozuvchining bolaligiday uy ishlariga qarashayotgan “molxona devoriga tappi yopayotgan” mahal tog‘asining telpagiga boychechak qadab kelishi bilan boshlanadi. Tappi nimaligini qishloqdagilar yaxshi biladi. Lekin shahardagi bolalar uchun izoh berib ketish lozim bo‘ladi. Molni tezagini qishda

yoqish uchun odatda ko‘mir kukuniga belab, quritishadi va uni tappi deyishadi. Bola “birovga zarda qilganday” ishlaydi. Buning sababi “Ilontepada qizg‘in “jang” ketayotgan” ketayotganligi. “Onasi shunda ham pinagini buzmasdi” jumlasi aslida ko‘p narsani bildiradi. Qo‘zivoy o‘yinqaroq, sho‘x, chunki bir o‘yinga bormasa hech narsa qilmaydi. Katta farzand, yordam berishi kerak. Ehtimol onaning yana farzandlari bor. Chunki ko‘p farzandli onalar odatda bolalarning xarxashalariga “aldanmaydilar”. Tog‘asiga “har qancha iymansa” ham boychechakni qayerdan olganini so‘rashga o‘zini tiyib tura olmaydi. Iymanish Qo‘zivoyning tarbiyasini ochib beradi. Kattalardan, u sevimli tog‘a bo‘lsa ham oddiy narsani so‘rashda iymanish andisha bilan o‘sayotgan bola obrazini ko‘rsatadi.

Xuddi shu joyda hikoyada voqelarni rivojlantirgan, keskinlik qo‘shgan qahramon kirib keladi: Murod chilim. Aslida Qo‘zivoyni harakatga keltirgan boychechak emas, balki bolalarni hayratda qoldirish. Axir “Murod chilimdek odam topolmay, shalvirab qaytgan boychechakni u Qo‘zi liliput ko‘tarib borsa, qoyil bo‘lardi-da!” Bu gapdan Qo‘zivoyning bo‘yi pastligi-yu, ular uchun Murod avtoritetligini ham bilib oldik. Agar kechagina Murod boychechak topgani bormaganda yo borganda topib kelganda bola uchun tog‘asi telpagidagi gul bu qadar hayajonga sabab bo‘lmagan bo‘lar edi. Boychechak bahor elchisi, uning ochilishi qishda qiynalib chiqqanlar uchun qanchalar yoqimli xabar bo‘lishi asosiy voqelarni harakatga keltiradigan kuch emas. Balki o‘sha jarayonda boychechak topganga, yaxshi xabar berganda eshitiladigan e’tirof, odamlar nazariga tushish kabi istakdir. Yana hikoyada do‘stlarining “liliputning qo‘lidan nima kelardi” deb oniy quvonchlarining so‘nishi qahramonimizning guzardagi “obro‘yi” qanchaligini, uni ko‘tarish Qo‘zivoy uchun muhimligidir. “Ikki guzar bolalari “Boychechak” aytishda ham o‘zaro bellashib kelishardi. Birinchi bo‘lib “Boychechak” aytganlar anchagacha narigi guzarliklarga gap bermay yurishardi” [1.42]

Bolalar guruhi o‘ziga xos ijtimoiy jamoa, uning qonun qoidasi juda sodda, lekin katta siyosiy o‘yinlarning kichik “maketi”. Ikki guzar bolalari boychechak masalasida tortishayotganda bir chekada qolib ketgan Qo‘zivoyni eslab qolishgani va ezilib turgan bolaga “mayin jilmayib” ular uchun umuman ahamiyatga ega bo‘lmay kelgan munosabatidan o‘z gapini o‘tkazish uchun hal qiluvchi qaror sifatida foydalanishi aslida Murod chilimni faqat mushti zo‘rligidan emas, ayyorligi ham borligini ko‘rsatadi. Yana birga qo‘shilishini “kuchuklar ham yaqinlasha olmaydi” deb xavfsizlik bilan bog‘lashi undagi liderlik qobiliyatini ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Hikoyani sinfda o‘quvchilarning qiziqishi, o‘zlashtirishiga qarab ikki xil yondashish mumkin. Birinchisi yuqoridagi kabi didaktik tahlilni matn asosida, jumla-ma jumla, savollar berib, induktiv metodni qo‘llab, ikkinchisi, ko‘lamni kattaroq olib, deduktiv savollar berib, asar matniga olib kirish mumkin bo‘ladi. Masalan: Murod nima uchun boychechakni tortib oldi? U qanday bola? Javoblarni matndan misol keltirib izohlash so‘raladi. O‘quvchi asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotdan olingan misollar yordamida asoslab beradi. Asar shu tarzda tahlil qilinadi. Hikoya juda ta’sirchan. 5-sinf o‘quvchisi voqealar nima bilan tugashiga qiziqadi. Qiziqish tahlilda faollikni ta’minlaydi. Shu bilan birga o‘quvchida mantiqiy fikrlash ham shakllana boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Adabiyot. 5-sinf (1- qism): darslik / Q. B. Yo‘ldoshev, O.O. Olimjonov. – T.: Novda Edutainment,2024. – 100 b.
2. Fisher. R. Teaching Children to Learn, London: Blackwell/Simon & Schuster/Stanley Thornes. Also published in Arabic, Hebrew, Czech, Polish, Hungarian, Estonian, Latvian and Persian. 1995.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020. – 354 b.
4. Jackson.T.E. and Deutsch. E. “Where we are now”. Journal of Thinking, 1978. 6(2), 12-1.
5. Lipman M. “Thinking in Education”, Cambridge, the university press of Cambridge. 2003.
6. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. O‘zbek adabiyoti metodikasi. – T.: G‘afur G‘ulom. 2022. – 408 b.

Qabul qilindi: 25.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 801.82.81.302

# YOSHLAR HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA AXLOQIY VA HUQUQIY MADANIYAT UYG‘UNLIGINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

***Barakayev Shoxzod Qudrat o‘g‘li,***
***Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti***



***shaxzodbarakayev00008@gmail.com***

# SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE HARMONY BETWEEN MORAL AND LEGAL CULTURE IN ENHANCING YOUTH LEGAL LITERACY

***Barakayev Shokhzod Qudrat ogli,***
***Master’s student, Samarkand State Pedagogical Institute***

# СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ГАРМОНИИ НРАВСТВЕННОЙ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В ПОВЫШЕНИИ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ МОЛОДЕЖИ

***Баракаев Шохзод Кудрат оглы,***
***магистрант Самаркандского государственного педагогического института***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada globallashuv sharoitida yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Unda huquqiy ong, huquqiy madaniyat va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni yoritilgan. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining huquq, adolat va uyg‘unlik haqidagi qarashlari asosida yoshlar tarbiyasida huquqiy bilimlarning ahamiyati ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *huquqiy savodxonlik, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, yoshlar tarbiyasi, fuqarolik jamiyati, axloqiy qadriyatlar, uyg‘unlik, qonun ustuvorligi, ta’lim tizimi, ijtimoiy taraqqiyot.*

***Abstract:*** *This article analyzes the socio-philosophical foundations of improving youth legal literacy in the context of globalization. It highlights the role of legal consciousness, legal culture, and the harmony of moral values in societal development. Based on the views of Eastern and Western thinkers on law, justice, and harmony, the importance of legal knowledge in youth education is revealed.*

***Key words:*** *legal literacy, legal consciousness, legal culture, youth education, civil society, moral values, harmony, rule of law, education system, social development.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются социально-философские основы повышения правовой грамотности молодежи в условиях глобализации. Рассматривается роль правового сознания, правовой культуры и гармонии нравственных ценностей в развитии общества.*

***Ключевые слова:*** *правовая грамотность, правовое сознание, правовая культура, воспитание молодежи, гражданское общество, нравственные ценности, гармония, верховенство закона, система образования, социальное развитие*

**Kirish.** Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida jamiyat taraqqiyoti tobora fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va savodxonlik darajasiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, jamiyatning eng faol qatlami bo‘lgan yoshlarning huquqiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi barqaror rivojlanishning muhim omilidir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, inson huquqlarini ta’minlash va qonun ustuvorligini qaror toptirish jarayonida yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy savodxon yoshlar o‘z huquq va majburiyatlarini anglaydi, qonunlarga hurmat bilan qaraydi hamda huquqbuzarlik va zararli g‘oyalarga qarshi barqaror pozitsiyaga ega bo‘ladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosida ham yoshlar tarbiyasi va salohiyati muhim o‘rin tutadi. “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyili, shuningdek, Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Alisher Navoiy, Avloniy va Behbudiy kabi allomalar qarashlari yoshlarning bilimli va salohiyatli bo‘lishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omili ekanini ko‘rsatadi[8]. Shu asosda bugungi kunda ham yoshlarning intellektual va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi: tahlil va sintez metodi, tarixiylik va mantiqiylik metodi, qiyosiy-tahliliy metod, sistemali yondashuv metodi, falsafiy tafakkur metodlari, induksiya va deduksiya metodlari, interdisiplinar yondashuvlardan foydalanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, inson huquqlarini himoya qilish va huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy savodxonlik muhim o‘rin tutadi. U fuqarolarning qonunlar haqidagi bilimlari, huquq va majburiyatlarini anglash hamda ularga amal qilishi bilan belgilanadi. Ayniqsa, yoshlarning huquqiy savodxonligini shakllantirish ta’lim tizimining muhim vazifasi bo‘lib, bu orqali huquqiy madaniyatli va mas’uliyatli fuqarolar tarbiyalanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda huquqiy ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda, shu bois mazkur masalani ilmiy tahlil qilish dolzarbdir.

Falsafiy va huquqiy adabiyotlarda ko‘plab G‘arb mutafakkirlari — Aflotun, Arastu, Siseron, Gegel, Lokk, Russo, Kant, Gobbs va Monteskye jamiyatda adolat, qonun ustuvorligi hamda inson huquqlari masalalarini chuqur yoritganlar. Sharq allomalari — Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Rushd, Amir Temur, Alisher Navoiy va Bobur esa adolatli jamiyat, axloqiy kamolot va qonuniylik uyg‘unligi haqidagi g‘oyalarni ilgari surganlar.

**Tahlillar va natijalar.** Bugungi kunda fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari yuzasidan qator olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, A.A.Azizxo‘jayev, M.A.Rajabova, A.H.Saidov, H.T.Odilqoriev, Sh.Z.O‘razaev, M.Rustamboyev kabi olimlarning ishlari fuqarolik jamiyatining huquqiy va ijtimoiy asoslarini yoritishga qaratilgan. Shuningdek, N. Komilov, A. Sher, L. Karimov, M. Ollayorov, Sh. Qahhorova, U. Mahkamov, E. Yusupov[6] va boshqalar jamiyat rivojlanishining ma’naviy-axloqiy jihatlarini tahlil qilganlar. Biroq axloqiy va huquqiy madaniyat uyg‘unligi masalasi hali yetarlicha tizimli o‘rganilmagan.

Uyg‘unlik (harmonia) falsafiy kategoriya sifatida muvozanat, ichki moslik va yaxlitlikni ifodalaydi hamda ijtimoiy tizimlarda barqarorlikni ta’minlaydi[5]. U me’yoriylik, mutanosiblik va tizimlilik orqali namoyon bo‘lib, jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, axloq, din, fan va san’atda Haqiqat, Ezgulik va Go‘zallik kabi qadriyatlar uyg‘unligini aks ettiradi.

Ibtidoiy jamiyatda inson tasavvurlari mifologik va sinkretik xarakterga ega bo‘lib, dastlabki ijtimoiy me’yorlar shakllangan. Keyinchalik qadimgi Yunon falsafasida “logos” tushunchasi orqali tartib va qonuniyat g‘oyalari asoslab berildi. Pifagor, Geraklit, Demokrit, Suqrot, Platon va Aristotel kabi mutafakkirlar adolat, qonun ustuvorligi va ijtimoiy tartib masalalarini rivojlantirdilar [9][1][3].

Yevropa Uyg‘onish va Yangi davr faylasuflari — J. Lokk, Sh. Monteskye, J.J. Russo tabiiy huquqlar, hokimiyatlar bo‘linishi va xalq suvereniteti g‘oyalarini ilgari surdilar[2]. Sharq mutafakkirlari — Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy esa adolatli jamiyat, axloqiy kamolot va qonuniylik uyg‘unligini asoslab berdilar[7].

Sxolastik tafakkur vakillarining uyg‘unlik haqidagi qat’iy va o‘zgarmas qarashlari Uyg‘onish davriga kelib tanqidiy qayta ko‘rib chiqila boshlandi. Bu jarayonda Nikolay Kuzanskiy muhim o‘rin egallaydi. U o‘zining “Bilmaslik ta’limoti haqida”[10] asarida o‘rta asr falsafasidagi mavhum tasavvurlarni tanqid qilib, erkin fikrlash zarurligini ilgari surdi. Mazkur yondashuv huquqiy ong rivojiga ta’sir ko‘rsatib, shaxsning mustaqil

fikrlashi va adolatni anglash tamoyillarini kuchaytirdi.

Uyg‘onish davrida musiqa nazariyasi rivojlanib, Ioani Pinktoris va Jozeffo Sarlino asarlarida uyg‘unlik inson tarbiyasi hamda jamiyat hayotini tartibga soluvchi mezon sifatida talqin qilindi. Musiqa orqali muvozanat, intizom va go‘zallik hissining shakllanishi huquqiy ong rivoji uchun muhim omil sifatida baholandi.

Yevropa ilm-fanida Abu Nasr Forobiy va Ibn Sinoning musiqaga oid qarashlari ham alohida ahamiyat kasb etib, uyg‘unlikni inson kamoloti va jamiyat barqarorligining asosi sifatida izohladi. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham huquqiy madaniyatni yuksaltirishda dolzarb hisoblanadi.

Yangi davrda ilm-fan taraqqiyoti, xususan astronomiya va kosmologiya sohasidagi kashfiyotlar insonning olam haqidagi qarashlarini o‘zgartirdi. Johannes Kepler va Galileo Galiley ilmiy ishlari tabiat qonuniyatlarini anglashga imkon berdi hamda uyg‘unlikni ijtimoiy tartib va qonuniylik bilan bog‘lashga zamin yaratdi.

Kepler o‘zining “Dunyo uyg‘unligi” asarida tabiatdagi tartib jamiyatda ham aks etishi lozimligini ta’kidlaydi[4]. Bu g‘oya qonun ustuvorligi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim nazariy asosidir. Gottfried Wilhelm Leibniz esa borliqni monadalar uyg‘unligi orqali tushuntirib, barcha unsurlar yagona tizim asosida harakat qilishini asoslaydi.

**Xulosa.** Shunday qilib, Uyg‘onish va Yangi davr mutafakkirlarining uyg‘unlik haqidagi qarashlari bugungi huquqiy ong mazmuni bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki uyg‘unlik g‘oyasi jamiyatda qonuniylik, inson huquqlariga hurmat, o‘zaro mas’uliyat va ijtimoiy muvozanatni ta’minlashning muhim ma’naviy-falsafiy poydevorini tashkil etadi. Yuqoridagi mulohazalardan quyidagi xulosaga kelindi:

1. Globallashuv va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar murakkablashib borayotgan hozirgi davrda yoshlarning huquqiy savodxonligi jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Huquqiy bilimga ega, huquq va majburiyatlarini anglaydigan yoshlar fuqarolik jamiyatining faol subyekti sifatida shakllanadi hamda qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

2. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining falsafiy merosida adolat, qonuniylik va uyg‘unlik g‘oyalari markaziy o‘rin egallab, ular yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tarixiy-falsafiy qarashlar zamonaviy huquqiy tarbiya tizimini boyituvchi konseptual manba hisoblanadi.

3. Huquqiy madaniyat va axloqiy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi jamiyatda barqarorlik, ijtimoiy muvozanat va qonuniylikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Uyg‘unlik tamoyili shaxsning ichki dunyosi, ijtimoiy xulqi va huquqiy ongini bir butun tizim sifatida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

4. Ta’lim tizimi yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Huquqiy bilimlarni tizimli va maqsadli o‘qitish orqali huquqiy ongli, mas’uliyatli va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash mumkin bo‘lib, bu esa Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Aflotun. Davlat. Tarjimon: Urfon Otajon. – T.: Yangi asr avlodi. 2024-yil. 512-b
2. Jan Jak Russo. Ijtimoiy shartnoma. –T.: Trust and support. 2025-yil.192-b. Sharl Lui Monteski. Qonunlar ruhi haqida.. –T.: Trust and support. 2024-yil.288-b.
3. Kleyton M. Kristenson, Efosa Ojomo, Karen Dillon. Farovonlik paradoksi. –T.: Asaxiy books. 2024-yil. 376-b.
4. Narskiy I.S.. Gotfrid Lyeybnits.M.,Мысль 1972, 135b.
5. Olloyorov M..Uyg’unlik (гармония) borliq-ni estetik o’zlashtirishning qonuni sifatida. (рисола)- Samarqand: SamDU nashri, 2011, 5 b.
6. Rajabova M. Xuquq va adolat: o’tmish, bugun, istiqbol. T., “Yurist-media markazi” 2009. Odilqoriev X.. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T., Sharq.2002.,Sh.Z.Urazayev.Власть и закон. T.Академия.1991., Saidov A.X., S.Sultonov. O’z.R.Konstitutsiyasi va inson huquqlari.T.,1998
7. Talapov B.A. Demokratiya va milliy demokratik taraqqiyot. –Namangan.: 2022. 196-b.
8. “Авесто”. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Махкам таржимаси. – Toshkent: “Шарқ”, 2001. – 8.б.

Qabul qilindi: 25.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 94(575.1):614.

# O‘ZBEKISTONNING URUSHDAN KEYINGI YILLARDA MARKAZLASHGAN REJA ASOSIDA IQTISODIY RIVOJLANISHI VA QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI TIZIMLI O‘ZGARISHLAR

*(Buxoro viloyati misolida)*

***Rivojov Sherzod Shoyimovich,***
***Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi***



***sherzodrivojov@gmail.com***
***0009-0008-0115-6871***

# ECONOMIC DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN IN THE POST-WAR YEARS BASED ON A CENTRALIZED PLANNING SYSTEM AND SYSTEMIC CHANGES IN AGRICULTURE

*(On the Example of the Bukhara Region)*

***Rivojov Sherzod Shoyimovich,***
***Researcher, Bukhara State University***

# ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ УЗБЕКИСТАНА В ПОСЛЕВОЕННЫЕ ГОДЫ НА ОСНОВЕ ЦЕНТРАЛИЗОВАННОЙ ПЛАНОВОЙ СИСТЕМЫ И СИСТЕМНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

*(на примере Бухарской области)*

***Ривожов Шерзод Шойимович,***
***исследователь Бухарского государственного университета***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O‘zbekistonning urushdan keyingi yillarda markazlashgan reja asosida iqtisodiy rivojlanish jarayoni yoritilgan. Matnda Buxoro viloyati misolida davlatga majburiy go‘sht topshirish rejalarining taqsimlanishi, tumanlar kesimidagi farqlar va ishlab chiqarish yuklamalarining notekisligi statistik ma’lumotlar asosida ochib berilgan. Bundan tashqari, Umuman olganda, tadqiqot sovet davridagi markazlashgan iqtisodiy siyosatning hududiy rivojlanishga ta’siri, ishlab chiqarishning reja asosida boshqarilishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ochib beradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *O‘zbekiston, markazlashgan reja, buyruqbozlik tizimi, oziq-ovqat tanqisligi, chorvachilik, yem-xashak bazasi, go‘sht ishlab chiqarish, Buxoro viloyati, markaziy boshqaruv, ishlab chiqarish rejasi.*

***Abstract:*** *This article highlights the process of economic development of Uzbekistan in the post-war years based on a centralized planning system. In the text, using the example of the Bukhara region, the distribution of compulsory meat delivery plans to the state, differences between districts, and the unevenness of production workloads are revealed based on statistical data. In addition, in general, the study reveals the impact of the centralized economic policy of the Soviet era on regional development, the planned management of production, and its socio-economic consequences.*

***Keywords:*** *Uzbekistan, centralized planning, command-administrative system, food shortage, livestock farming, fodder base, meat production, Bukhara region, central administration, production plan.*

***Аннотация:*** *В данной статье освещается процесс экономического развития Узбекистана в послевоенные годы на основе централизованной плановой системы. В тексте на примере*

*Бухарской области раскрываются распределение планов обязательной сдачи мяса государству, различия между районами и неравномерность производственных нагрузок на основе статистических данных. Кроме того, в целом исследование раскрывает влияние централизованной экономической политики советской эпохи на региональное развитие, плановое управление производством и его социально-экономические последствия.*

***Ключевые слова:*** *Узбекистан, централизованное планирование, командно-административная система, дефицит продовольствия, животноводство, кормовая база, производство мяса, Бухарская область, центральное управление, производственный план.*

**Kirish.** Urushdan keyingi tiklanish jarayonida O‘zbekiston zimmasiga sanoat va qishloq xo‘jaligini qisqa muddat ichida urushdan oldingi darajaga yetkazish hamda ayrim tarmoqlarni yanada kengaytirish vazifasi yuklatildi. Ayniqsa, paxtachilikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, bu tarmoq ittifoq iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi. Natijada respublika iqtisodiyoti bir yoqlama rivojlanib, boshqa tarmoqlar, xususan oziq-ovqat ishlab chiqarish va mahalliy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi sohalar yetarli darajada e’tibordan chetda qoldi [1].

Mazkur vazifalarni bajarishda o‘zbek xalqining mehnatsevarligi, sabr-toqati va tinchliksevarligi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga qaramasdan, aholi yuqori darajadagi fidoyilik bilan mehnat qildi. Qishloq joylarda, ayniqsa, qo‘l mehnati ustun bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, mavjud resurslar imkon qadar safarbar etildi. Ko‘plab ishlar murakkab sharoitlarda, yetarli texnika va mexanizatsiya vositalarisiz amalga oshirildi.

Sovet Ittifoqi davrida qishloq xo‘jaligi to‘liq markazlashgan reja asosida boshqarilgan bo‘lib, bu tizim davlat tomonidan qat’iy nazorat qilinar edi. Har bir viloyat, tuman va hatto alohida xo‘jalik darajasigacha ishlab chiqarish jarayonlari oldindan belgilangan rejalar asosida tashkil etilgan. Ushbu rejalarda qaysi ekin qanchadan ekilishi, qancha hosil olinishi, qachon ekish va yig‘im-terim ishlari amalga oshirilishi aniq ko‘rsatib berilgan [2]. Bunday tizimda qishloq xo‘jaligi ishlarini tashkil etish yuqoridan pastga qarab buyruqbozlik asosida olib borilgan. Viloyat va tuman rahbarlari, kolxoz va sovxoz raislari zimmasiga ishlab chiqarish rejalarini bajarish bo‘yicha qat’iy majburiyatlar yuklatilgan. Rejalar bajarilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilib, natijalar bo‘yicha hisobotlar talab qilingan.

Shuningdek, texnik vositalar — traktorlar, kombaynlar va boshqa qishloq xo‘jaligi mashinalari bilan ta’minlash ham markazlashgan holda amalga oshirilgan. Bu vazifa ko‘pincha mashina-traktor stansiyalari (MTS) orqali bajarilgan bo‘lib, ular xo‘jaliklarni texnika va mutaxassislar bilan ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. Hosil yig‘im-terimini o‘z vaqtida va yo‘qotishlarsiz amalga oshirish ham rejaning muhim qismi sifatida qaralgan. Rasmiy-buyruqbozlik tizimida har bir vazifa uchun mas’ul shaxslar va tashkilotlar aniq belgilab qo‘yilgan, ularning ismlari va lavozimlari hujjatlarda nomma-nom ko‘rsatilgan.

Statistik ma’lumotlar bu holatni yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan, g‘alla yetishtirish hajmi 1940-yildagi 615,5 ming tonnadan 443 ming tonnaga tushib ketdi. Sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish 315,2 ming tonnadan 164,3 ming tonnaga kamaydi. Uzum yetishtirish 130,2 ming tonnadan 84,2 ming tonnaga, poliz mahsulotlari esa 331,9 ming tonnadan 153,4 ming tonnaga qisqardi. Bu ko‘rsatkichlar qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida chuqur tanazzul yuz berganini ko‘rsatadi [3].

Yaylovlarning qisqarishi va ozuqa tanqisligi chorva mollari sonining kamayishiga, mavjud chorvaning esa mahsuldorligining pasayishiga olib keldi. Natijada chorvachilik mahsulotlari hajmi ham keskin kamaydi. Xususan, agar 1945-yilda yalpi go‘sht yetishtirish 73,5 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 1950-yillar boshlariga kelib bu ko‘rsatkich atigi 57 ming tonnaga tushib qoldi [4]. Bu esa aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash darajasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

1950-yillarga kelib shahardagi ko‘plab sanoat korxonalari yetti yillik reja doirasida kengaytirildi va rekonstruksiya qilindi. Bu jarayon ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hamda mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilishga

qaratilgan edi. Jumladan, go‘sht muzxonasi qurilishi qisqa muddat ichida yakunlanib, foydalanishga topshirildi. Mazkur korxona bir sutkada 10–12 tonna go‘sht, 3 tonna kolbasa hamda 10 tonna muzlatilgan go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarishga mo‘ljallangan bo‘lib, u aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi [5].

SSSR Vazirlar Sovetining 1950-yil 15-yanvardagi qaroriga asoslangan holda 1950-yil 19-yanvarda Buxoro viloyati ijroiya qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan hujjatga muvofiq, 1950-yilning birinchi kvartalida davlatga majburiy go‘sht topshirish rejasi ijrosini ta’minlash masalasi qo‘yildi. Ushbu qaror markazlashgan boshqaruv tizimining hududiy darajadagi amaliy ko‘rinishini aks ettiradi [6].. Unda har bir tuman bo‘yicha majburiy reja hamda uning kolxozlar, yakka xo‘jaliklar va yordamchi xo‘jaliklar o‘rtasida taqsimoti ko‘rsatilgan. Buni quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkin [7].

| № | Tuman nomi | Jami | Kolxozlar | Yakka xo‘jalik | Yordamchi xo‘jalik |
|---|---|---|---|---|---|
| **1** | **Olot** | 315 | 215 | 100 | - |
| 2 | Buxoro | 575 | 380 | 145 | 50 |
| 3 | Vobkent | 760 | 492 | 268 | - |
| 4 | G‘jduvon | 1080 | 650 | 420 | - |
| 5 | Kogon | 475 | 207 | 128 | 40 |
| 6 | Qorako‘l | 600 | 392 | 198 | 10 |
| 7 | Konimex | 640 | 537 | 103 | - |
| 8 | Karman | 675 | 484 | 181 | 10 |
| 9 | Qiziltepa | 450 | 284 | 166 | - |
| 10 | Romitan | 505 | 328 | 177 | - |
| 11 | Sverdlov | 472 | 327 | 145 | - |
| 12 | Tomdi | 813 | 698 | 115 | - |
| 13 | Shofirkon | 750 | 526 | 224 | - |
| 14 | **Jami** | **8110** | **5630** | **2370** | **110** |

Umumiy hisobda viloyat bo‘yicha 8110 sentner go‘sht topshirish rejalashtirilgan. Ushbu ko‘rsatkichning asosiy qismi — 5630 sentner — kolxozlar zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, bu ularning qishloq xo‘jaligidagi yetakchi rolini yaqqol ifodalaydi. Yakka xo‘jaliklar zimmasiga 2370 sentner topshiriq berilgan, bu esa ularning ham tizimda muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Yordamchi xo‘jaliklar hissasi esa nisbatan kichik bo‘lib, atigi 110 sentner tashkil etadi. Tumanlar kesimida tahlil qilinganda, rejaning notekis taqsimlanganini ko‘rish mumkin. Eng yuqori ko‘rsatkich G‘ijduvon tumaniga to‘g‘ri keladi — 1080 sentner. Bu hududda kolxozlar 650 sentner, yakka xo‘jaliklar esa 430 sentner go‘sht topshirishi belgilangan. G‘ijduvonning bunday yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishi uning qishloq xo‘jaligi salohiyati, chorvachilik rivoji yoki aholi sonining ko‘pligi bilan izohlanishi mumkin.

Keyingi yuqori ko‘rsatkich Tomdi tumanida kuzatiladi — 813 sentner. Bu yerda kolxozlar hissasi ayniqsa katta bo‘lib, 698 sentner tashkil etadi, yakka xo‘jaliklar esa 115 sentner bilan cheklanadi. Bu holat Tomdida kolxoz tizimi ustun bo‘lganini anglatadi. Shuningdek, Vobkent (760), Shofirkon (750) ham yuqori reja yuklatilgan hududlar sirasiga kiradi. Bu tumanlarda ham kolxozlar asosiy ishlab chiqaruvchi kuch hisoblangan.

O‘rta darajadagi reja ko‘rsatkichlari Karmana (675), Konimex (640), Qorako‘l (600) va Buxoro (575) tumanlarida qayd etilgan. Bu hududlarda reja nisbatan muvozanatli taqsimlangan bo‘lib, kolxozlar bilan bir qatorda yakka xo‘jaliklar ham sezilarli ulushga ega. Ayrim tumanlarda, masalan Buxoro, Kogon va Peshkuda yordamchi xo‘jaliklar ham alohida ustun sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, ular kichik bo‘lsa-da, umumiy reja bajarilishida ishtirok etgan.

TAMADDUN NURI

Pastroq ko‘rsatkichlar Qiziltepa (450), Romitan (505), Sverdlov (472) va Kogon (475) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Eng past reja esa Olot tumanida kuzatiladi — 315 sentner. Bu hududlarda rejaning nisbatan kam belgilanishi ularning iqtisodiy imkoniyatlari, chorva soni yoki boshqa ishlab chiqarish omillari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Buxoro viloyati kesimida 1960–1969 yillarda go‘sht ishlab chiqarish dinamikasi tahlili viloyatda chorvachilik sohasining nisbatan beqaror, ammo muayyan davrlarda sezilarli o‘sish imkoniyatlariga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. 1960 yilda ishlab chiqarish hajmi 20,3 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 1965 yilga kelib bu ko‘rsatkich deyarli o‘zgarmagan holda 20,2 ming tonna darajasida saqlanib qoladi. Bu holat viloyatda dastlabki besh yillik davrda o‘sish sur’atlarining past bo‘lganini, ishlab chiqarish asosan mavjud darajada ushlab turilganini anglatadi.

1966 yilda esa keskin pasayish kuzatilib, ko‘rsatkich 17,6 ming tonnagacha tushib ketadi. Bunday pasayish, ehtimol, yem-xashak bazasidagi muammolar, qurg‘oqchilik yoki rejalashtirish tizimidagi uzilishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Sovet davri iqtisodiyotida chorvachilik ishlab chiqarishi ko‘p jihatdan tabiiy sharoit va markazlashgan ta’minot tizimiga bog‘liq bo‘lganligi sababli, bunday tebranishlar odatiy hol hisoblangan.1967 yildan boshlab esa tiklanish bosqichi kuzatiladi. Ishlab chiqarish hajmi 20,9 ming tonnaga yetib, avvalgi darajaga qaytadi. 1968 yil Buxoro viloyati uchun eng muvaffaqiyatli yil bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish 24,2 ming tonnaga chiqadi [7].

Biroq 1969 yilda yana pasayish kuzatilib, ko‘rsatkich 20,6 ming tonnaga tushadi. Shunga qaramay, bu natija 1960 yil darajasidan biroz yuqori bo‘lib, umumiy davr kesimida viloyatda keskin inqiroz emas, balki tebranishli, siklik rivojlanish mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Buxoro viloyatida 1960-yillar davomida go‘sht ishlab chiqarish barqaror o‘sish trayektoriyasida emas, balki o‘zgaruvchan dinamikada rivojlangan. Ayrim yillardagi keskin pasayishlar va keyingi tiklanishlar chorvachilik tarmog‘ining tashqi omillarga yuqori darajada bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 1968 yildagi yuqori natija viloyatning ichki resurslari va ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti markazlashgan reja asosida tiklanish va rivojlanish jarayoniga jalb etildi. Bu davrda ishlab chiqarishning asosiy yo‘nalishlari Kommunistik partiya va ittifoq miqyosidagi rejalar orqali belgilab berilib, respublika iqtisodiyoti asosan Markaz manfaatlariga bo‘ysundirilgan holda shakllandi.

Buxoro viloyati misolida tahlil qilinganda, majburiy davlat rejalari tumanlar o‘rtasida notekis taqsimlanganini, ishlab chiqarish yuklamalari esa iqtisodiy imkoniyatlarga har doim ham mos kelmaganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, 1960–1969 yillar davomida go‘sht ishlab chiqarish dinamikasi o‘zgaruvchan bo‘lib, bu tarmoqning tashqi omillarga yuqori darajada bog‘liqligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, mazkur davr O‘zbekiston iqtisodiyotida miqdoriy o‘sish bilan birga tizimli muammolar, markazga qaramlik va hududiy nomutanosibliklar kuchaygan davr sifatida tarixda qolgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar (References)**


1. Р.Х.Муртазаева, Х.Юнусов, Ў. Мавлонов Ўзбекистон тарихи. “Академия”. Тошкент, 2010. Б 382.
2. *Народное хозяйство Узбекской ССР*. Статистик сборник. – Москва, 1960-йиллар.
3. Д.А.Алимова. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865-1990 йиллар). –Т.: “Шарқ”, 2000. Б 278
4. Д.А.Алимова Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865-1990 йиллар). –Т.: “Шарқ”, 2000. Б 279
5. Я.Ашуров, Т.Гелах, У.Комолов, Д.Номозов, Бухоро ҳақида қисқача справочник. Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, - Тошкент, 1959. Б.81.
6. Бухоро вилояти давлат архиви 1023-фонд, 1-рўйхат 54-иш, 2 вақақ.
7. Бухоро вилояти давлат архиви 1023-фонд, 1-рўйхат 54-иш, 3 вақақ.
8. *Народное хозяйство Узбекской ССР* (йиллик статистик тўпламлар, 1960–1970-йиллар).

Qabul qilindi: 25.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 94.5(327)

# MO‘G‘ULLARNING HARBIY DOKTRINASI VA BOSHQARUV TIZIMI

***Ahmadjonova Inobat,***
***O‘zbekiston milliy universiteti talabasi***

# MONGOLS' MILITARY DOCTRINE AND GOVERNMENT SYSTEM

***Ahmadjonova Inobat,***
***Student of the National University of Uzbekistan***

# ВОЕННАЯ ДОКТРИНА И СИСТЕМА ПРАВЛЕНИЯ МОНГОЛОВ

***Ахмаджонова Инобат,***
***Студент Национального университета Узбекистана***



***https://orcid.org/0009-0001-5181-6291***
***e-mail: i.akhmadjonova@gmail.com***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada mo‘g‘ullarning harbiy doktrinasi va boshqaruv tizimi kengroq tahlil qilinadi. Tadqiqotda Chingizxon davrida shakllangan harbiy tuzilma, qo‘shinlarning o‘nlik tizim asosida tashkil etilishi, markazlashgan boshqaruv, qat’iy intizom va yuqori harakatchanlik kabi asosiy jihatlar yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *mo‘g‘ullar, Chingizxon, harbiy doktrina, harbiy boshqaruv, o‘nlik tizim, intizom, strategiya, taktikalar, razvedka, logistika, mo‘g‘ul armiyasi, harbiy tizim.*

***Abstract:*** *This article provides an in-depth analysis of the Mongols’ military doctrine and command system. The study highlights the military structure formed during the time of Genghis Khan, including the organization of the army based on a decimal system, centralized command, strict discipline, and high mobility.*

***Key words:*** *Mongols, Genghis Khan, military doctrine, military command, decimal system, discipline, strategy, tactics, reconnaissance, logistics, Mongol army, military system.*

***Аннотация:*** *В данной статье проводится углублённый анализ военной доктрины и системы управления монголов. В исследовании рассматривается военная структура, сформированная во времена Чингисхана, включая организацию войска на основе десятичной системы, централизованное управление, строгую дисциплину и высокую мобильность.*

***Ключевые слова:*** *монголы, Чингисхан, военная доктрина, военное управление, десятичная система, дисциплина, стратегия, тактика, разведка, логистика, монгольская армия, военная система.*

**Kirish.** XIII asrda Chingizxon va uning avlodlarining istilolari katta hududlarning bosib olinishiga, shaharlar va madaniy yodgorliklarning vayron bo‘lishiga olib keldi. Bosib olingan yerlarda Chig‘atoy ulusi, Oltin O‘rda, Xulogular davlatlari vujudga keldi. Imperiya tashkil topgan dastlabki yillarida qo‘shin nafaqat saltanat sarhadlarini kengayish quroli, balki davlatni boshqarishning eng muhim mexanizmi sifatida ham xizmat qilgan. Qo‘shinda qo‘llanilgan qat`iy tartib, temir intizom va puxta ishlangan strategik shart-sharoit XIII asrning o‘rtalaridayoq Dunaydan Yaponiya dengizigacha va Novgoroddan Kambodjagacha bo‘lgan ulkan hududlarni o‘z ichiga olgan eng yirik davlatga aylanish imkonini berdi.

**Muhokama.** Mo‘g‘ullarning harbiy sohadagi ustozlari xitanlar hisoblanadi. Xitoyda Liao imperiyasi tashkil topgan vaqtda uning tarkibiga kirgan xitanlar, turkutlar, uyg‘urlar, va xan xitoylari ta’sirida katta harbiy tajriba to‘plashga muvaffaq bo‘lganlar.

Mo‘g‘ullarning eng kuchli taktikalaridan biri psixologik qo‘rquv (ruhiy bosim) bo‘lgan. Ular dushmanlari o‘zlarining qishloq xo‘jaligi, savdosi va aholiga bog‘liqligini yaxshi tushunganlar, shuning uchun ko‘pincha ularga tinch yo‘l bilan taslim bo‘lish imkonini berganlar. Shuningdek, ular reydlar uyushtirib, talon-taroj qilgan va natijada aholini yirik shaharlarga qochishga majbur etgan. Mo‘g‘ullar dushman resurslarini asta-sekin yo‘q qilib borishgan, eng muhimi esa, dushmanlariga o‘z qo‘shinlari soni haqida noto‘g‘ri tasavvur berishgan. Buning uchun ular otlarga zirh va qurol bilan jihozlangan qo‘g‘irchoqlarni o‘rnatishgan.

Shunga qaramay, mo‘g‘ul qo‘shinlarining tanazzuli oddiy, ammo muhim sababga ega edi. Ular dushman hududlariga kirib borishgan, biroq o‘sha yerlar ularning otlari va ularga ergashgan podalarini uzoq muddat boqib turishga qodir bo‘lmagan. Shu sababli ular yoki chekinishga majbur bo‘lgan, yoki o‘z ta’minot yo‘llarini haddan tashqari cho‘zib yuborishgan. Xonlar esa ko‘pincha hokimiyat uchun o‘zaro tortishuvlarga kirishgan. Ularning qo‘shinlari son jihatdan kam bo‘lgani va garnizonlar tashkil etish hamda tartibni saqlash uchun yetarli emasligi sababli, qo‘zg‘olonlar tez-tez yuz berib turgan va bu oxir-oqibat mo‘g‘ullar kuchining pasayishiga olib kelgan.

Boshqaruv tizimida harbiy tizimdan tashqari Chingizxon o‘zi joriy qilgan qonun qoidalar nafaqat xo‘jalik holatiga balki harbiy boshqaruvga ham ta’sir ko‘rsatgan.Chingizxonning aytishicha, ungacha o‘g‘rilik, vahshiylik, talon-taroj, tartibsizlik, xiyonat va jirkanch illatlar oddiy hol edi. Farzandlar ota-onalariga itoat etmas, yoshlar kattalarga quloq solmas, erlar o‘z xotinlariga ishonmas, xotinlar erlariga bo‘ysunmas, boylar kambag‘allarga yordam bermas edilar. Chingizxon bunday holatga nafrat bilan qarar, bo‘ysundirilgan xalqlar orasida birinchi navbatda tartib va adolat o‘rnatish, odamlar va ularning mulklari xavfsizligini ta’minlash haqida qayg‘urar edi.

U kuchli chora-tadbirlar ko‘rib, o‘ziga qarashli shaharlar, yerlar va yo‘llarni talonchiliklardan, sayohatchilar, savdogarlar va ularning mol-mulkini talon-taroj qilinishidan xalos etdi. Uning maqsadi savdo-sotiqqa qulaylik yaratish, o‘z so‘zi bilan aytganda, ulkan saltanatida hatto oltinni ham hech qanday bosqin va xavf-xatarsiz, oddiy buyum kabi olib yurish darajasidagi xavfsizlikni ta’minlash edi.

Chingizxon jangchilarning doimo yaxshi holatda bo‘lishini va birinchi chaqiriqdayoq yurishga tayyor turishlarini talab qilardi. Yurish oldidan yoki jangga tayyorgarlik paytida qo‘shin ko‘rigi o‘tkazilib, unda qurol-yarog‘ va safar uchun zarur jihozlar tekshirilardi. Kimning qurol-yarog‘i tayyor bo‘lmasa, jazolanardi. Yaxshi jangchilar yetarli darajada ta’minlanmagan bo‘lsa, ularga nafaqa berilardi. Boshliqlar ehtiyoj tug‘ilganda faqat hukmdorga murojaat qilishlari lozim bo‘lib, aks holda o‘lim jazosiga hukm qilinardilar.

Ularning qurollari o‘q, kamon (qo‘shimcha ravishda bir necha kamon va o‘qlar to‘la sadoq ham olib yurishar, o‘qlari nihoyatda o‘tkir bo‘lardi), oybolta va nayzadan iborat edi. Nayza uchiga maxsus ilgak (changalak) o‘rnatilib, u dushman otliqlarini egardan tortib tushirish uchun xizmat qilardi. Ba’zi jangchilar temir cho‘qmor ham olib yurishardi. Bundan tashqari, har bir jangchi o‘q uchini o‘tkirlash uchun egov, bigiz, igna, ip va elak olib yurishi shart edi. Yaxshi qurollangan jangchilar biroz egik qilich taqishar, temir tasmalari bor charm dubulg‘a kiyishar, saralangan jangchilar esa temir dubulg‘a kiyishar edi.

Otliq askarlar qo‘shimcha otlarga ega bo‘lib, ular yengil va og‘ir otliq qo‘shinlarga bo‘linardi. Yengil otliqlar qoroqovul (qo‘shindan oldinga qo‘yiladigan soqchi post) vazifasini bajarib, jangni boshlab berar, dushman otliqlariga va otlariga kamondan o‘q uzib, ularning saflarini buzishar edi. Bu esa og‘ir otliqlar harakatini osonlashtirardi. Yengil otliqlar chekinayotgan dushman qo‘shinlarini ta’qib qilish uchun ham qo‘llanilar edi.

Mo‘g‘ullar uch yoshdan boshlab kamondan o‘q otishni o‘rganar edilar, shu sababli mohir mergan bo‘lib yetishardilar. Kichik bolalarga kichik kamon va o‘qlar berilib, ular ulg‘aygani sayin kamon va o‘qlar hajmi kattalashtirib borilardi. Mudofaa vositalari mustahkam va qalin charmdan tayyorlanib, buqa va boshqa terisi qalin hayvonlar terisidan foydalanilardi. Ular yoshligidan ot minishni ham o‘rganib borardilar. Yurishga ketayotgan mo‘g‘ullar o‘zlari bilan zarur bo‘lgan barcha qurollarni olib yurishardi.

Mo‘g‘ullar qal’alarni yunonlar va rimliklar qo‘llagan qoidalarga amal qilib qamal qilardilar. Maxsus buyruqsiz dushmanni talon-taroj qilish o‘lim jazosi bilan jazolanardi. Biroq har bir jangchi teng ulush olishga haqli bo‘lib, xonga o‘z ulushidan ma’lum qismini soliq (boj) sifatida berishi lozim edi. Mo‘g‘ullar va ularga tobe ko‘chmanchi qabilalar harbiy tabaqalarni tashkil etar edilar. Qurol ko‘tarishga qodir har bir kishi jangchi bo‘la olardi. Shu sababli xonning har bir fuqarosiga xizmatkor sifatida mo‘g‘ullardan foydalanish taqiqlangan edi.

Chingizxon uchun qo‘shinlarni ta’minlash hech qanday qiyinchilik tug‘dirmas edi. Uning qo‘shinlari nafaqat maosh olmas, balki yiliga ot, qoramol yoki qo‘y (har 100 tadan bittasi), namat va hokazolar ko‘rinishida soliq to‘lar edilar. Urushda yoki ovda bo‘lgan jangchi soliqdan ozod qilinmas, uning o‘rniga xotini yoki boshqa yaqin kishisi soliq to‘lab turishga majbur edi. Agar erkak qonunni bajarishdan qochib yurgan bo‘lsa, uning xotinini soqchilar olib ketib, o‘sha to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqni to‘lashga majbur qilardilar. Qo‘shinning ortidan boradigan ayollar erkaklar jangga ketganida eng og‘ir ishlarni bajarishga majbur edilar. Tinchlik paytlarida jangchilar bekor yurmasligi uchun jamoat ishlariga jalb qilinar va haftasiga bir marta xon topshiriqlarini bajarish uchun yuborilardilar.

Chingizxonning talabi bo‘yicha, jangchilar tinchlik davrida aholiga nisbatan beozor va muloyim munosabatda bo‘lishlari, hech kimni xafa qilmasliklari kerak edi. Boshliqlar o‘zlariga tobe kishilar ehtiyojlariga diqqat bilan e’tibor berishlari, ko‘chishlar tartibli bo‘lishi, odamlar va otlar kuchi saqlanishi zarur edi.

Mo‘g‘ul qo‘shinining strategik san'ati yaxshi tashkil etilgan josuslik, diplomatik sa’y-harakatlar va harakat tezligiga asoslangan edi, bu mo‘g‘ullarga dushman qo‘shinlarini bo‘lib tashlash va ularga barcha kuchlarini izchil ravishda jangga kirish imkoniyatini berdi. Asosiy hujum oldidan kerakli ma’lumotlarni to‘plash uchun mo‘g‘ullar 2-3 tumanli josusli bo‘linmalarini yuboradilar. Masalan qo‘mondonlar Jebe no‘yon va Subutoy bahodir 1221-1224-yillardagi yurishga josuslik bo‘linmalari rahbari sifatida ishtirok etganlar. Urushlar boshlanishidan oldin barcha yuqori unvonli qo‘shin qo‘mondonlari ishtirok etadigan qurultoy chaqirilgan. U yerda ular harbiy harakatlar paytida qo‘shinni rasmiy ravishda boshqarish uchun xondan aniq ko‘rsatmalar olganlar, ammo yurish paytida ular sharoit taqozosiga ko‘ra mustaqil harakat qilishlari mumkin bo‘lgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, vaqt o‘tishi bilan Mo‘g‘ul davlatlarining harbiy ishlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Ular mo‘g‘ul uluslari jangchilarining harbiy san'atiga ham, qurol-yarog‘lariga ham ta’sir o‘tkazgan. Mo‘g‘ul uluslarida o‘nlik sanoq tizimi asta-sekin yo‘qolib, mo‘g‘ul nomlari turkiy nomlar bilan almashtirilgan. Mo‘g‘ul davlatlari qo‘shinlarida ham piyodalar paydo bo‘ldi. Bular yengil qurollangan kamonchilar va og‘ir piyoda askarlar edi, ular zirh va dubulg‘a kiygan va qalqon bilan himoyalangan. Ular qilich, bolta, xanjar va to‘qmoqlar bilan qurollangan edi. Mo‘g‘ul harbiy maktabining an'analari ko‘plab xalqlarning harbiy san'atining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Masalan Mo‘g‘ul qurollari rus askarlari tomonidan G‘arb muxoliflariga qarshi kurashda muvaffaqiyatli ishlatilgan. Mo‘g‘ul qurollari Xitoy, Eron, O‘rta Osiyo, shuningdek, Rossiya hududida yashovchi ko‘plab ko‘chmanchi qabilalarning qurol-yarog‘ va zirhlariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Mo‘g‘ullar qo‘llagan samarali jang usullarini boshqa ko‘chmanchi xalqlar ham o‘zlashtirishgan. Mo‘g‘ullar tobe bo‘lgan turkiy va mo‘g‘ul tilli xalqlarning qurollanishi va harbiy tizimiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatgan xalqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.M. Ivanin. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. Toshkent:. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining «Fan» nashriyoti. 1994.

4. Вернадский Г.В. 1997. Монголы и Русь (пер. с англ. Е.П. Беренштейна, Б.Л. Губмана, О.В. Строгановой). – Тверь; М.: Леан, Аграф. 480 с.

5. Далай Ч. 1983. Монголия в XIII–XIV вв. – М.: Наука. Главная редакция восточной литературы. 232 с

6. Балданжапов П.Б. 1970. Altan todci. Монгольская летопись XVIII в. Исследование, перевод и примечания, монгольский текст. – Улан-Удэ: БИОН СО АН СССР. 415 с

7. George Lane. *Genghis Khan and Mongol Rule.* Westport, CT: Greenwood, 2004. Print. p.31

13. Jacob Abbott The History of Genghis Khan- A Project Gutenberg of Australia eBook :.2014 Apr

Qabul qilindi: 25.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 801.82.81.302

# SA'DIDDIN HAMAVIY SHAXSIYATI VA MA'NAVIY MEROSINING O'RGANILISHIGA AYRIM MULOHAZALAR

***Rajabov Alisher Shavkatovich,***
***Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi***

# SOME CONSIDERATIONS ON THE STUDY OF THE PERSONALITY AND SPIRITUAL HERITAGE OF SA'DIDDIN KHAMAVI

***Rajabov Alisher Shavkatovich,***
***Independent researcher of the Bukhara State Pedagogical Institute***

# НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ИЗУЧЕНИЮ ЛИЧНОСТИ И ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ САДДИНА ХАМАВИ

***Раджабов Алишер Шавкатович,***
***независимый исследователь Бухарского государственного педагогического института***



***https://orcid.org/0009-0002-3537-8313***
***rajabovalisher096@gmail.com***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada o'rta asrlarda yashagan tasavvuf falsafasining yirik nazariyotchi vakillaridan biri bo'lgan, "Vahdat ul-vujud" ta'limotining rivojiga munosib hissa qo'shgan Sa'diddin Hamaviyning shaxsiyati va uning ma'naviy merosining o'rganilishiga oid ma'lumotlar tahlil etilgan. Shuningdek, mutasavvif ma'naviy merosiga Sharq va G'arb tadqiqotchilari tomonidan berilgan izohlar hamda uning muhim tasavvufiy-falsafiy xususiyatlariga e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Sa'diddin Hamaviy, Aziziddin Nasafiy, Vahdat ul-vujud, Kubraviya Al-Misboh fit-tasavvuf, Sajanjul al-arvoh, Herman Landolt, Anri Korben, Najib Moyil Hiraviy, Olam al-misol, ilmi xurufiю*

***Abstract:*** *This article analyzes information related to the study of the personality and spiritual heritage of Sa'diddin Hamaviy, one of the prominent theorists of medieval Sufi philosophy who made a worthy contribution to the development of the "Vahdat ul-vujud" doctrine. Furthermore, it focuses on the interpretations of the mystic's spiritual heritage provided by Eastern and Western researchers, as well as its important Sufi-philosophical characteristics.*

***Key words:*** *Sa'diddin Hamaviy, Aziziddin Nasafiy, Vahdat ul-vujud, Kubraviya, Al-Misboh fit-tasavvuf, Sajanjul al-arvoh, Herman Landolt, Henri Corbin, Najib Moyil Hiraviy, Olam al-misol, ilmi xuruf*

***Аннотация:*** *В данной стате анализируются сведения, касающиеся изучения личности и духовного наследия Садиддина Хамави - одного из крупнейших теоретиков суфийской философии Средневековя, внёсшего достойный вклад в развитие учения "Вахдат ул-вуджуд" Также уделяется внимание комментариям восточных и западных исследователей к духовному наследию мыслителя и его важным суфийско-философским особенностям.*

***Ключевые слова:*** *Садиддин Хамави, Азизиддин Насафи, Вахдат ул-вуджуд, Кубравия, Ал-Мисбах фит-тасаввуф, Саджанджал ал-арвах, Герман Ландолт, Анри Корбен, Наджиб Мойил Хирави, Алам ал-мисал, илм ал-хуруф.*

**Kirish.** Sa'diddin Hamaviy (1187–1252) - Kubraviya tariqatining eng nufuzli shayxlaridan biri, Najmiddin Kubroning shogirdi va Aziziddin Nasafiyning ustozi sifatida tarixda qolgan. Uning shaxsiyati nafaqat tasavvuf, balki falsafa va ilm-fan kesishgan nuqtada shakllangan. Hamaviy shaxsiyatining eng ajralib turadigan jihati - uning tasavvufni qat'iy mantiqiy va falsafiy tizimga solganidir. U Najmiddin Kubro asos solgan Xorazm tasavvuf maktabini mo'g'ullar istilosi davrida

saqlab qolgan va uni yangi bosqichga olib chiqqan. Hamaviy shaxsiyati Sharq va G‘arb (Xorazm, Xuroson va Shom) o‘rtasida ma’naviy ko‘prik vazifasini o‘tagan. U Ibn Arabiy bilan uchrashib, “Vahdatul vujud” g‘oyalarini Kubraviya an’analari bilan uyg‘unlashtirgan. Hamaviy shaxsiyatida sirlilik (ezoterizm) kuchli bo‘lgan. U olamning yaratilishini va ilohiy mohiyatni harflar va raqamlar orqali tushuntirgan. Uning qo‘li bilan chizilgan murakkab doiralar (*zairjalar*) uning nafaqat ruhiy rahnamo, balki kuchli analitik tafakkurga ega bo‘lgan olim ekanini ko‘rsatadi. Anri Korben uni “ma’naviy kosmograf” deb atagan. U o‘z davrida mo‘g‘ul hukmdorlari va keng xalq ommasi o‘rtasida katta obro‘ga ega bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, uning shaxsiy jasorati va ma’naviy ta’siri tufayli ko‘plab insonlar omon qolgan, hatto mo‘g‘ul shahzodalarining islomga kirishida uning bashoratlari va tarbiyasi muhim rol o‘ynagan.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI. (RESEARCH METHODOLOGY).**

Tadqiqotda analiz, sintez, tarixiylik, sinergetika va germenevtika, vorisiylik, qiyosiy tahlil, usullaridan foydalanilgan.

**TAHLIL VA NATIJALAR. (ANALYSIS AND RESULTS).**

Sa’diddin Hamaviyning asarlarini ilmiy muomalaga kiritishda eronlik olimlarning xizmati katta. Najib Moyil Hiraviy Hamaviyning eng mashhur asari - “Al-Misboh fit-tasavvuf”ni nashrga tayyorlagan va unga keng ko‘lamli kirish so‘zi yozgan. Hiraviy o‘z tadqiqotlarida Hamaviyning ramziy tili va Najmiddin Kubro maktabi an’analarini qanday davom ettirganini tahlil qilgan[1]. Uning “Sajanjul al-arvoh” (Ruhlar ko‘zgusi) asari ham tasavvufiy kosmologiya va inson ruhiyatiga oid muhim manba sifatida o‘rganilgan.

Yevropa va Amerika olimlari Hamaviy falsafasini asosan “Kubraviya” maktabi va Ibn Arabiy ta’limoti bilan qiyosiy o‘rganishgan. Herman Landolt Hamaviy ijodi bo‘yicha eng nufuzli mutaxassislardan biri bo‘lib, u Hamaviyning valiylik (valoyat) haqidagi qarashlarini, uning shialik va sunniylik tasavvufi o‘rtasidagi ko‘prik rolini tadqiq qilgan. Landolt Hamaviyning Nasafiy dunyoqarashiga ta’sirini alohida ko‘rsatib o‘tgan[2].

Sa’diddin Hamaviy merosi juda katta va murakkab bo‘lgani uchun u haqdagi tadqiqotlar faqatgina Nasafiy yoki Kubro doirasi bilan cheklanib qolmaydi. Jahon sharqshunosligida uning “Ilmi huruf” (harflar simvolikasi), “Valoyat” (valiylik) va kosmologik qarashlari bo‘yicha alohida fundamental ishlar mavjud.

Fransuz sharqshunosi M. Mole esa Kubraviya tariqati va Hamaviy ijodini tizimli o‘rgangan eng yirik olimlardan biri hisoblanadi. U Hamaviyni sunniylik va shiiylik tasavvufi o‘rtasidagi sintezni yaratgan asosiy figura deb biladi[3]. Mole Hamaviyning ijodida “Imomlik” va “Valiylik” tushunchalari qanday uyg‘unlashganini qo‘lyozmalar asosida tahlil qilgan. M. Mole Sa’diddin Hamaviy merosini tahlil qilar ekan, uning Kubraviya tariqatini falsafiy jihatdan boyitishdagi rolini alohida ta’kidlaydi. Mole ko‘pgina maqolalarida Kubraviya tariqatining ijtimoiy va falsafiy transformatsiyasini tahlil qiladi. Uning fikricha, Sa’diddin Hamaviy Kubraviyani shunchaki tariqatdan intellektual-falsafiy maktab darajasiga ko‘targan.

Olimning fikricha, Hamaviy ijodida sunniylik va shiiylikning ma’naviy elementlari o‘zaro sintezlashgan bo‘lib, bu holat ayniqsa “valoyat” (valiylik) va “insoni komil” konsepsiyalarida yaqqol namoyon bo‘ladi[4]. M.Merijon Molening “Les Kubrawiya entre sunnisme et shiisme aux huitième et neuvième siècles de l'hégire” (“Hijriy sakkizinchi va to‘qqizinchi asrlarda Kubraviya: sunniylik va shiiylik oralig‘ida”) nomli maqolasi Hamaviy va uning maktabini tizimli o‘rganishda hamon “oltin standart” bo‘lib qolmoqda.

Merijan Mole ushbu sarlavha orqali Kubraviya tariqatining (xususan, Sa’diddin Hamaviydan boshlangan tarmog‘ining) tarixiy evolyutsiyasini ifodalagan. U maqolada mazkur tariqat qanday qilib sunniylik zaminida turib, shiiylikka xos bo‘lgan ezoterik (botiniy) tushunchalarni, masalan, **“valoyat”** va **“o‘n ikki imom”** maqomini tasavvuf falsafasiga olib kirganini yoritadi. Mole o‘z maqolasida Hamaviy o‘z asarlarida ko‘proq ramziy, murakkab va “yopiq” tildan foydalangan bo‘lsa, Nasafiy ushbu g‘oyalarni xalqchil va mantiqiy izchillikda bayon etgan.

Mashhur faylasuf va sharqshunos Anri Korben Hamaviyni “Ishroqiylik” (nur falsafasi) va Kubraviya an’analarini birlashtirgan mutafakkir sifatida tadqiq etgan. Anri Korbenning Sa’diddin Hamaviy ijodiga yondashuvi tasavvuf falsafasini yangi pog‘onaga olib chiqqan. Korben Hamaviyni

shunchaki bir tariqat shayxi emas, balki **Suhravardiy** asos solgan Ishroqiylik (nur falsafasi) va **Najmiddin Kubro**ning “rangli nurlar” (*latoif*) haqidagi ta’limotini sintez qilgan yirik nazariyotchi sifatida taqdim etadi. Korbenning ushbu mavzudagi qarashlarini quyidagi uchta asosiy nuqta orqali batafsilroq tahlil qilish mumkin.

1. **“Nur insoni” (L'Homme de lumière) va Ranglar simvolikasi.** Korben Hamaviy merosidagi eng muhim jihat sifatida - ruhiy kamolot jarayonida solik (yo‘lovchi) ko‘radigan rangli nurlarning falsafiy maqomini ko‘rsatadi. Kubraviya maktabida har bir ma’naviy daraja muayyan rang (yashil, sariq, qora, qizil va h.k.) bilan bog‘lanadi. Korbenning fikricha, Hamaviy bu nurlarni shunchaki ruhiy holat emas, balki borliqning ichki qavatlarini yorituvchi "ilohiy ziyo" (Ishroq) deb biladi[5].

2. **“Olami misol” (Timsollar olami) konsepsiyasi.** Korben ta’kidlashicha, Hamaviy Ibn Arabiy va Suhravardiy g‘oyalarini rivojlantirib, “Olami misol”ni moddiy olam (*mulk*) va mutlaq ruhiy olam *(jabarut*) o‘rtasidagi vositachi deb belgilaydi. U yerda jismlar ruhiylashadi, ruhlar esa shakl (timsol) kasb etadi[6]. Korben ta’kidlashicha, Sa’diddin Hamaviy uchun timsollar olami nafaqat falsafiy kategoriya, balki ruhiy tajribaning bevosita makonidir[7].

3. **“Xayoli faol”.** Korben Hamaviy falsafasini tahlil qilar ekan, “Olam al-misol”ga faqatgina “faol xayol” orqali kirish mumkinligini aytadi. Bu yerda “xayol” kundalik ma’nodagi “xohish” emas, balki haqiqatni timsollarda ko‘rish qobiliyatidir.

Anri Korben talqinida “Olami misol” konsepsiyasi Sa’diddin Hamaviy falsafasining markaziy o‘zagini tashkil etadi. Korben uchun Hamaviy shunchaki nazariyotchi emas, balki ushbu “oraliq olam”ning topografik xaritasini chizgan “ma’naviy geometr”dir.

Jorj Drishxolsning tadqiqotlari Sa’diddin Hamaviy merosini nemis sharqshunosligi an’analari asosida, ayniqsa, filologik aniqlik va falsafiy tizimlashtirish nuqtai nazaridan yoritib beradi. Uning “*Sa'duddin Hammuya: Ein Beitrag zur Geschichte der Kubrawiyya”* (Sa’diddin Hamaviy: Kubraviya tarixiga hissa) asari Hamaviyni shunchaki tariqat shayxi emas, balki tasavvufni “intellektuallashtirgan” mutafakkir sifatida taqdim etadi[8]. Drishxols Hamaviyni Kubraviya ichidagi boshqa shayxlardan (masalan, Najmiddin Roziy yoki Majiduddin Bag‘dodiydan) farqli ravishda “isyonchi” deb ataydi. Isyonchi deb atashining asosiy sababi Hamaviy mumtoz tasavvufdagi “zuhd” (dunyodan voz kechish) bosqichidan o‘tib, ilohiy mohiyatni matematik ramzlar va geometrik shakllar orqali tushuntirishga jazm qilgan islomdagi an’anaviy kalom (ilohiyot) qoliplarini buzib, tasavvufga “ishroqiy” va “hurufiy” elementlarni olib kirgan. Drishxols Hamaviyning “Kitob al-Mahbub” (Mahbub kitobi) asarini Aziziddin Nasafiyning “Maqsad ul-aqso” (Eng oliy maqsad) asari bilan qiyoslab, vorislik zanjirini quyidagicha ko‘rsatadi:

1. Hamaviyda ishq - koinotni harakatga keltiruvchi kuch sifatida murakkab metaforalarda beriladi. Nasafiy esa buni inson ma’naviyatini isloh qiluvchi amaliy vositaga aylantiradi.

2. Drishxols ta’kidlashicha, Hamaviy “Valiy” maqomini koinotning “diqqat markazi” deb biladi. Nasafiy esa ushbu “Valiy”ni “Insoni komil” sifatida ijtimoiylashtiradi.

**Sulaymon Uludog‘ esa “**Tasavvuf ensiklopediyasi” va Kubraviya tariqatiga oid ishlarida Hamaviyning maqomoti va uning "sohibqiron" sifatidagi obraziga to‘xtalib o‘tgan. S. Uludog‘ Hamaviyning nafaqat tasavvufiy, balki ijtimoiy-siyosiy ta’siri (mo‘g‘ul xonlari bilan aloqasi) haqida muhim ma’lumotlarni keltiradi[9].

O‘zbekistonda Hamaviy haqidagi ma’lumotlar asosan Najmiddin Kubro yoki Aziziddin Nasafiyga bag‘ishlangan tadqiqotlar doirasida uchraydi. Masalan, I.Haqqulov, N. Komilov kabi olimlarning asarlarida Hamaviyning Nasafiy manaviy kamolotidagi o‘rni qayd etilgan. O‘zbekiston tasavvufshunosligida Sa’diddin Hamaviy shaxsiyati ko‘pincha Najmiddin Kubro asos solgan maktabning davomchisi va Aziziddin Nasafiyning dunyoqarashini shakllantirgan ustoz sifatida talqin etiladi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar Hamaviyni Kubraviya tariqatini falsafiy-nazariy jihatdan boyitgan siymo sifatida baholashadi. Professor N. Komilov o‘z ishlarida Hamaviyni “Insoni komil” konsepsiyasining evolyusiyasidagi muhim bo‘g‘in sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, Najmiddin Kubrodagi “amaliy tasavvuf” Hamaviy va Nasafiy ijodida “nazariy-falsafiy tasavvuf”ga aylangan[10]. Komilov Hamaviyning Nasafiy kamolotidagi rolini ta’kidlar ekan, Nasafiyning “Zubdat ul-haqoyiq” va “Insoni komil” asarlaridagi ko‘pgina murakkab istilohlar aynan Hamaviy

maktabining natijasi ekanini asoslaydi. I. Haqqulov tasavvuf adabiyoti va "ilohiy ishq" talqinlarida Hamaviyning shoirona va ramziy merosiga e'tibor qaratadi. I. Haqqulov Hamaviyning "vahdatul vujud"ga yaqin qarashlarini Nasafiy qanday qilib xalqchil tilga ko'chirganini tahlil qiladi. Haqqulovning fikricha, Hamaviyning ramzlarga boy uslubi Nasafiy ijodida mantiqiy tizimga tushgan[11]. Zamonaviy tadqiqotchi K. Rahimov Kubraviya tariqati tarixini eng keng va tizimli o'rgangan olimlardan biridir. U Hamaviyning Xorazmdan Shomgacha bo'lgan faoliyatini tarixiy manbalar asosida yoritgan. Muallif Hamaviyni Kubraviyaning "Suriya va Iroq" tarmog'ining asoschisi sifatida tavsiflaydi. U Hamaviyning Najmiddin Kubrodan olgan ta'limotini Ibn Arabiyning "fususul hikam" g'oyalari bilan sintez qilganini ilmiy isbotlab beradi[12].

**Xulosa.** Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar asosida quyidagicha ilmiy xulosalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

- Sa'diddin Hamaviy Kubraviya tariqatini an'anaviy amaliy tasavvuf (zuhd va riyozat) bosqichidan nazariy-intellektual tizim darajasiga ko'targan. U sunniy tasavvuf doirasida turib, shiiylikning ezoterik elementlarini (valoyat, imomlik maqomi) Ishroqiylik va "Vahdatul vujud" falsafasi bilan mantiqiy sintez qilgan. Bu sintez tasavvufga nafaqat axloqiy, balki mustahkam ontologik va kosmologik maqom bergan.

- Sa'diddin Hamaviy Kubraviya tariqatini an'anaviy amaliy tasavvuf (zuhd va riyozat) bosqichidan intellektual-falsafiy tizim darajasiga ko'targan. M. Mole va J. Drishxols tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Hamaviy ta'limotida tasavvuf ilk bor murakkab metafizik sxemalar va mantiqiy modellar bilan boyitilgan. Bu esa keyinchalik Aziziddin Nasafiy ijodida tasavvufning falsafiy til sifatida shakllanishiga zamin yaratgan;

- Hamaviy ta'limotida "Insoni komil" shunchaki axloqiy namuna emas, balki borliqning markaziy o'zagi va koinot tirgagi (Qutb) sifatida talqin etiladi. Anri Korben tahlillariga ko'ra, Hamaviy "Insoni komil"ni Ishroqiylik va Kubraviya an'analari sintezi asosida "Nur insoni" sifatida tasvirlaydi. Nasafiy esa ustozining ushbu metafizik konsepsiyasini ijtimoiy va ma'naviy kamolot mexanizmiga aylantirgan;

- Hamaviy ijodida "Olami misol" (Timsollar olami) tushunchasi ilmiy jihatdan mukammallashtirilgan. Uning asarlaridagi murakkab geometrik doiralar va sxemalar ushbu oraliq olamning falsafiy xaritasi bo'lib xizmat qilgan;

- Hamaviyning harflar va raqamlar simvolikasiga oid qarashlari (masalan, "Nuqta" falsafasi) borliqni kodlangan axborot tizimi sifatida tushunish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. حمویی، سعدالدین. المصباح فی التصوف (Hamaviy, Sa'diddin. Al-Misboh fit-tasavvuf). Najib Moyil Hiraviy tahriri ostida. – Tehron: Intishoroti Mavlo, 1362 (1983).
2. Landolt, Hermann. "Sa'd al-Din al-Hammu'i" // Encyclopaedia of Islam, Second Edition. – Brill, 2012. – Vol. VIII. – P. 703.
3. Molé, Marijan. "Les Kubrawiya entre sunnisme et shiisme aux huitième et neuvième siècles de l'hégire" // Revue des études islamiques. – Paris, 1961. – Vol. 29. – P. 61–142.
4. Molé, M. "Les Kubrawiya entre sunnisme et shiisme aux huitième et neuvième siècles de l'hégire" // Revue des études islamiques. – 1961. – Vol. 29. – P. 61-142.
5. Corbin, Henry. "The Man of Light in Iranian Sufism". – Boulder: Shambhala Publications, 1978. – P. 61–97.
6. Corbin, Henry. "Spiritual Body and Celestial Earth: From Mazdean Iran to Shi'ite Iran". – Princeton University Press, 1977. – P. 144–160.
7. Corbin,Henry. "Spiritual Body and Celestial Earth: From Mazdean Iran to Shi'ite Iran". – Princeton University Press, 1977. – P. 145.
8. Drischholz G. Sa'duddin Hammuya: Ein Beitrag zur Geschichte der Kubrawiyya. – Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 1980. – S. 112-115.
9. Uludağ, Süleyman. "Sa'deddîn-i Hammûye" // TDV İslâm Ansiklopedisi. – İstanbul, 2008. – Cilt 35. – S. 391-393.
10. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Mo'jiza, 2009. – B. 124-128.
11. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1991. – B. 67-70.
12. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – "Sa'diddin Hamaviy" maqolasi.

Qabul qilindi: 25.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK:37.018.43:316.344.3:1

# RAQAMLI TA'LIM JARAYONING IJTIMOIY-FALSAFIY TRANSFORMATSIYASI

*Qayumova Umida Muhammadjon qizi,*
*Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti*

# SOCIAL-PHILOSOPHICAL TRANSFORMATION OF THE DIGITAL EDUCATION PROCESS

*Kayumova Umida, Muhammadjon qizi,*
*Doctoral student at Namangan State University*

# СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССА ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Каюмова Умида Мухаммаджоновна,*
*докторант Наманганского государственного университета*

*qayumovaumida2404@gmail.com*

*https://orcid.org/0009-0004-7511-4376*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada ta'lim jarayonining raqamli transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqotda Coursera, Duolingo, Khan academy kabi platformalar analitik, taqqoslash va falsafiy tahlil qilgan holda, Yurgen Habermas va Pier Bourdieu nazariyalar asosida raqamli ta'limning kommunikativ va ijtimoiy jihatlari o'rganiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *raqamli ta'lim, raqamli texnologiya, integratsiya, ijtimoiy tengsizlik, raqamli jamiyat, kommunikativ harakat, qadriyat, hayot dunyosi, madaniy o'ziga xoslik.*

***Abstract:*** *This article analyzes the digital transformation of the educational process from a socio-philosophical perspective. The study analyzes platforms such as Coursera, Duolingo, Khan Academy analytically, comparatively and philosophically, and studies the communicative and social aspects of digital education based on the theories of Jurgen Habermas and Pierre Bourdieu.*

***Key words:*** *digital education, digital technology, integration, social inequality, digital society, communicative action, value, lifeworld, cultural identity.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется цифровая трансформация образовательного процесса с социально-философской точки зрения. В исследовании аналитически, сравнительно и философски рассматриваются такие платформы, как Coursera, Duolingo, Khan Academy, а также изучаются коммуникативные и социальные аспекты цифрового образования на основе теорий Юргена Хабермаса и Пьера Бурдье.*

***Ключевые слова****: цифровое образование, цифровые технологии, интеграция, социальное неравенство, цифровое общество, коммуникативное действие, ценности, жизненный мир, культурная идентичность.*

## Kirish (Introduction/Введение)

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga, xususan, ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli ta'limni nafaqat texnologik yangilanish sifatida, balki ijtimoiy va madaniy transformatsiya jarayoni sifatida qabul qilish lozim. Bu jarayon jamiyatning bilimga bo'lgan munosabatini o'zgartirib, ta'limni global va ochiq tizimga aylantirmoqda. Shu boisdan, ta'lim tizimi va undagi raqamli transformatsiya jarayonini shaxsning rivojlanishi va jamiyat o'rtasidagi munosabatlari tizimi doirasida o'rganish ahamiyati oshib bormoqda. Raqamli ta'lim asta rivojlanib borishi tufayli ayrim kamchiliklar ko'zga yaqqol ko'rinmasa-da jamiyatda ijtimoiy tengsizlik, kommunikatsiya

sifatining o‘zgarishi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Shu boisdan, ta’lim jarayonining raqamli jarayonini nafaqat texnologik jihatdan, balki ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish hamda uning jamiyat va shaxs rivojiga ta’sirni ochib berish muhim ilmiy muammo hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili (Materials/Литература)**

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va ularning samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ham mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini raqamlashtirish orqali yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ta’limning axborotlashgan jamiyatdagi ahamiyati va rivojlanishi haqida F.Maxlup[1], raqamli o‘zgarishlar ahamiyati haqida esa M.Kastells[2] tarmoq jamiyati sharoitida bilim ishlab chiqarish, uzatish va o‘zlashtirish jarayonlari global raqamli tarmoqlar orqali amalga oshishini tadqiq etgan.

Olimlardan Kramarenko N.S. va Kvashin A.Yu.[3] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra resurslarning cheklanganligi, raqamli savodxonlik masalalari va shu bilan birga ta’lim mohiyatining o‘zgarishini tadqiq qilganlar. Boris V. Marko va Svetlana V. Volkova[4] ta’lim jarayonidagi raqamlashtirishni madaniy, iqtisodiy va falsafiy jarayon sifatida tadqiq etganlar.

Mamlakatimizda axborotlashgan jamiyat davrida ta’limnng funksional rivojlanishidagi o‘rni haqida G.Maxammatovna, O.T. Murodov ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalaridan foydalanish ahamiyatini o‘rganishgan.[5,6].

**Tadqiqot metadologiyasi (Methods/Методология)**

Mazkur tadqiqotda ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasi sifat jihatdan kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil orqali raqamli ta’limning mazmuni, rivojlanish tendensiyalari va asosiy xususiyatlari o‘rganildi va sotsiologik yondashuv asosida kichik tanlanma so‘rovdan foydalanildi. Shu bilan birgalikda, taqqoslash metodi yordamida Coursera, Duolingo va Khan academy kabi raqamli platformalar o‘zaro solishtirildi hamda ularning ta’lim jarayoniga ta’siri tahlil va tadqiqotda Pier Bourduiening ijtimoiy takror ishlab chiqarish nazariyasi metodologik asos sifatida ta’limning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilishda qo‘llanildi.

**Natija va ularning tahlili(Results and discussion/ Результаты и обсуждение)**

Ta’limning raqamli transformatsiyasi jamiyatda nafaqat texnologik yangilikni, balki ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda ta’lim institutlarining faoliyatini raqamli o‘zgarishlarsiz tasavvur qilish imkonsiz. Ayniqsa, O‘zbekiston tajribasida ham bu faoliyatni joriy qilish zaruratini Covid-19 pandemiyasi kirib kelgandan so‘ng yaqqol ko‘zga tashlanganini ko‘rish mumkin. Oliy ta’lim muassasasi va maktablarda Hemis va Elektron kundalik dasturlari yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birgalikda, dars jarayonlari Moodle, Zoom va Google classroom dasturlarida amalga oshirila boshlandi.

Raqamli texnologiyalar - bu axborotni raqamli shaklda yaratish, qayta ishlash, uzatish va saqlashni ta’minlaydigan texnik va dasturiy vositalar majmuasidir. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar bu- kompyuter, internet, sun’iy intelekt va mobil qurilmalar orqali ta’limni boshqarish va tashkil etish hisoblanadi.

“Raqamli transformatsiya bugungi global ta’lim makonining eng dolzarb fenomenlaridan biri bo‘lib, u faqat texnologik o‘zgarishlar tizimi emas, balki ijtimoiy, madaniy, tashkiliy va kognitiv jarayonlarning kompleks uyg‘unlashuvini anglatadi”[7]. Ta’lim jarayoniga ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, u faqat bilim berish vositasi emas, balki jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab ijtimoiy muloqot, qadriyatlar uzatilishi va madaniy hodisadir. Raqamli transformatsiya ta’lim jarayonini dinamik jihatga olib chiqmoqda.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoni bilimni saqlash, ulashish, ta’lim institutlarining ijtimoiy integratsiyasini mustahkamlash hamda shaxsiy rivojlanishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va raqamli madaniyatga ega bo‘lishiga yordam beradi. Shu bilan birga, u ularning kreativ fikrlashini va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi.

Ushbu jarayonning yorqin misoli sifatida raqamli ta’limni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan dasturlardan, Coursera, Duolingo, va Khan academy singari platformalar ta’limni raqamli ko‘rinishiga yaqqol misol bo‘la oladi. Bu dasturlar orqali minglab yoshlar ta’limni bu ko‘rinishidan foydalanib kelmoqdalar. Bugungi kunga qadar Coursera ta’lim platformasidan 100 millionga [8] yaqin yoshlar ro‘yxatdan o‘tib ma’lum bilimlarni egallab kelmoqda.

Taqqoslash natijalariga ko‘ra, Coursera akademik va professional kurslarga global kirish imkonini yaratishi bilan ajralib turadi. U yerda nafaqat ma’lum soha bo‘yicha kurslar, balki universitet darajalarini ham olish mumkin. Duolingo esa o‘yinga asoslangan dastur bo‘lb, til o‘rganishni sodda va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini rivojlantirmoqda.

Shuningdek, Khan academy platformasi bepul va ochiq ta’lim platformasi ta’limdagi tengsizlikni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi taqqoslash natijasi shuni ko‘rsatadiki, ushbu platformalar ta’limning an’anaviy shakllaridan farqli ravishda:

- Moslashuvchanlikni oshiradi;
- Individual o‘rganish tezligini ta’minlaydi;
- Ta’lim resurslariga keng kirish imkonini yaratadi;
- Mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikmasini shakllantiradi;
- Tanqidiy fikrlashni rivojlantiridi;

Biroq, tadqiqot davomida raqamli ta’limning ayrim kamchiliklari ham aniqlandi, jumladan, bu jarayonda raqamli tafovut, ijtimoiy integratsiyaning kamligi va muloqotchanlikka ta’siri ham mavjuddir.

O‘zbekiton tajribasi esa O‘zbekistonda raqamli ta’lim platformalarining joriy etilishi pandemiya davrida jadallashgan bo‘lib, bu ta’lim tizimining raqamli infrtuzilmasiga tez moslashganligini ko‘rish mumkin. Biroq, raqamli ta’limga kirish, undan foydalana olish ko‘nikmasi bugungi kunda teng emas.

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan kichik tanlanma so‘rov (s=50) natijasiga ko‘ra, respondentlarning aksariyati raqamli ta’limdan foydalanishda yetarli texnika va texnologiyalarni yetarli deb baholamagan. Xususan, 50 nafar ishtirokchidan 31 nafari kamchiliklar mavjudligini qayd etgan. 14 nafari respondent esa to‘liq yetarli deya javob bergan. 5 nafar respondent esa yetarli emas deb javob bergan. Bu esa mavjud texnik ta’minot qisman mavjud bo‘lsa-da, u to‘liq va samarali ravishda ta’limni raqamli shakliga kirish imkoniyatiga ega emasligni ko‘rstadi. Shuningdek, jadvalda berilganidek, respondentlardan ta’lim olishda yetarli ko‘nikmaga ega ekanliklari so‘raldi. Ularning 35 nafari texnik ko‘nikmalari o‘rta darajda ekanliklarini qayd etishgan.

Bu holat raqamli ta’lim samaradorligi faqat texnologiya mavjudligiga emas, balki foydalanuvchilarning raqamli kompetensiyasiga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

***Jadval 1.*** **Raqamli ta’limga kirish imkoniyati**

| **So‘rovnoma bayonoti** | **Ha (100%)** | **Qisman (50%)** | **Yo‘q(0%)** |
|---|---|---|---|
| *Raqamli (onlayn) ta’lim olish uchun barcha shart-sharoitlarga(internet, WiFi, kompyuter, planshet) egaman.* | 14 | 31 | 5 |
| *Raqamli ta’lim(onlayn) olish uchun yetarli(texnik)ko‘nikmalarga egaman)* | 10 | 35 | 5 |

Bundan ko‘rinib turibdiki, raqamli ta’lim tizimi teng imkoniyat yaratgandek ko‘rinsa-da, amalda u ijtimoiy takror ishlab chiqarishni yangi shaklini yuzaga keltirishi mumkin.

Raqamli ta’limning ijtimoiy tengsizlik va imkoniyatlar nuqtai nazaridan tushuntirishda esa sotsiolog P. Bourdieuning[9] madaniy kapital va ijtimoiy takror ishlab chiqarish nazariyasi muhimdir. Bourdieu ta’lim tizimini jamiyatdagi madaniy kapitalni uzatish mexanizmlaridan biri sifatida ko‘radi. Sababi ta’lim jarayonida nafaqat bilimlarni egallash, balki ta’lim orqali axloqiy qadriyatlar, madaniy me’yorlar va ijtimoiy muhitga moslashuvchanlikni kuchaytiradi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish keng tarqalgan bo‘lsa-da, ulardan foydalanish darajasi va sifati barcha uchun bir xil emas. Natijada, texnologiyaga ega guruhlar va ega bo‘lmagan guruhlar o‘rtasida “raqamli tafovut” shakllanadi. Buning natijasida madaniy kapital uzatilishi notekis bo‘lishi mumkin.

Madaniy kapital- bu shaxsning jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida muhim bo‘lgan bilimlari, ko‘nikmalari, til madaniyati va ijtimoiy tajriba to‘plami bo‘lib, u asosan oilaviy muhit va ta’lim jarayoni orqali shakllanadi. Olimning nazariyasiga ko‘ra, madaniy kapital guruhlar o‘rtasida teng taqsimlanmagan va shu sababli ham ijtimoiy tengsizliklarning takror ishlab chiqishiga sabab bo‘ladi. Bourdie nazariyasiga ko‘ra ta’lim olish jarayoni nafaqat bilim berish institut, balki ijtimoiy tuzilma va qadriyatlarni saqlab qoluvchi tizim ekanligidadir.

Raqamli ta’lim samaradorligi uning ijtimoiy va madaniy muhit bilan uyg‘unligiga bog‘liq ekanligi faylasuf Yurgen Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi bilan tahlil qilish imkoni ham beradi. Unga ko‘ra, bilim olish jarayoni madaniyat, jamiyat hamda shaxs o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va muloqot orqali rivojlanadi[10]. Demak, bugungi kunda ta’lim jarayoni faqat texnologiya emas, balki muloqot sifatiga ham bog‘liq. Ta’lim jarayonida bilim olish, saqlash va uni yo‘naltirishda muloqotning ahamiyatini unutmaslik kerak.

Ted Fleming Habermasning hayot dunyosi tushunchasi haqida, “hayot dunyosi bu bilvosita barchaga ma’lum bo‘lgan an’analar, til va madaniyatga singib ketgan hamda kundalik hayotda individlar tomonidan foydalanailadigan asosiy bilimlar zahirasidir”[11],-deya yozadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ta’lim jarayoni orqali ro‘y beradigan madaniyat, qadriyatlar, an’analar va kundalik tajribalar almashinuvida ham bu muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar ta’limning raqamli shaklida o‘zining shaklini yo‘qotishi mumkin. Natijada, jamiyatda qadriyatlar tizimi va tafakkur shakllarida transformatsion yuzaga kelishi ehtimoldan xoli emas. Sababi, Zoom, Moodle yoki Google Classroom platformalarida bilim almashinuvi tezlashishi mumkin, lekin jonli ijtimoiy hissiyot kamayishi sodir bo‘ladi.

Bundan chiqdiki, raqamli ta’lim inson tafakkuri va qadriyatlar tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Bugungi kunda axborotga tez kira olish imkoniyati bilish, o‘rganish jarayonini soddalashtirgan bo‘lsa-da, chuqur tahlil va tanqidiy fikrlashning susayishiga olib kelishi mumkin. O‘tkazilgan kichik tanlanma so‘rov (s=50) natijasida ma’lum bo‘ldiki, talabalar ilmiy manbalarni chuqur o‘rganish o‘rniga tayyor video darslar, yozma ishlar va sun’iy intellekt yordamida tezkor javob olishga ko‘proq tayanmoqda. Bu esa egallanayotgan bilimning yuzaki o‘zlashtirilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada, bugungi raqamli makonda bilim olish jarayoni mazmunan o‘zgarib, tezkorlik va sayozlik muhim qadriyatga aylanmoqda.

**Xulosa (Conclusion/Заключение)**

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim doirasida global bilimga kirish imkoniyati o‘sishi, bilim olish mustaqillashganini ko‘rish mumkin va bilimni o‘zlashtiruvchining o‘zi nazorat qilishi, o‘rganish, mustaqil fikrlash va topshiriqlarni vaqtini belgilashini taqozo qiladi. Bu tashabbus yoshlarning zamonaviy raqamli ko‘nikmalarni egallashi, global texnologik tendensiyalarga moslashishini tezlashtiradi. Biroq, raqamli ta’lim ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish bilan birga, yangi raqamli tafovutlarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida texnik imkoniyatlarni kengaytirish bilan br qatorda, foydalanuvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, muloqot madaniyatini saqlash, tanqidiy fikrlash, tafakkur shakllanishi hamda axloqiy mulohaza qilish ko‘nikmalarini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini, etikasini shakllantirish va bugungi kunda yoshlarning tafakkur va fikrlash tarziga ta’sirini inobatga olish zarur.

**Adabiyotlar ro‘yxati**
**(References/Использованная литература):**


1. Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США/ Пер. С. Анг. И.И.Дюмулена [и др]. –М.: Прогресс, 1966. – 462 с
2. Castells, M. (1996). The rise of the network society. Oxford: Blackwell Publishers Ltd.
3. Крамаренко Н.С., Квашнин А.Ю., Психологиеские и организационные аспекты введения цифрового образования, или как внедрение инноваций не превратить в «цифровой колхоз». Вестник Московского государственного областного университета (электронный журнал). 2017. № 4
4. Boris V. Marko, Svetlana V. Volkova, Philosophy of Education in the Digital Era, Open Journal for Studies in Philosophy,2020,4(2),57-66.
5. Ravshanova Gulchehra Maxammatovna. “Ta’limning axborotlashgan jamiyat funksional rivojlanishidagi o‘rni (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Buxoro-2023.
6. To‘raqulovich, M. O. (2024). Innovatsion axborot texnologiyalari va ularni ta’limda qo‘llash istiqbollari. Международный журнал научных исследователей, 9(1), 190-193
7. Oliy ta’limda raqamli transformatsiya jarayonining nazariy yondashuvlari va konseptual modellari. Xurramov Orifjon Shavkatjonovich, “Fan, Innovatsiya va texnologiyalar rivojlanishining dolzarb muammolari va yechimlar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy online Konferensiyasi. 20-oktyabr, 2025-yil.
8. https://www.skillademia.com/ statistics/ coursera-statistics/
9. Bourdieu, P. (1986). The Forms of Capital. In J. Richardson (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education (pp. 241-258). New York: Greenwood.
10. Habermas, J. (1987). The theory of communicative action. Vol. 2: Lifeworld and system: A critique of functionalist reason. Boston, MA: Bacon Press.
11. Ted Fleming, Habermas on Civil Society, Lifeworld and System: Unearthing the Social in Transformation Theory, Teachers College Record Volume Number, 2002.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 25.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 94.5(327)

# O‘ZBEK XALQI ZIYORAT MAROSIMLARIDA TABIAT KULTI BILAN BOG‘LIQ TASAVVURLAR

*Jumayeva Shoira Berdiyarovna,CHDPU “Tarix” kafedrasi mudiri, t.f.f.d. (PhD), dotsent*



# CONCEPTS RELATED TO THE CULT OF NATURE IN THE PILGRIMAGE RITUALS OF THE UZBEK PEOPLE

*Jumaeva Shoira Berdiyarovna, Head of the Department of History at CHSPU, Associate Professor*

# ПРЕДСТАВЛЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С КУЛЬТОМ ПРИРОДЫ В ПАЛОМНИЧЕСКИХ ОБРЯДАХ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

*Жумаева Шоира Бердияровна, заведующая кафедрой “История” ЧГПУ, доцент*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqola o‘zbek xalqi ziyorat marosimlarida tabiat kulti bilan bog‘liq tasavvurlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Unda ziyoratgohlarning tarixiy shakllanishi, diniy e’tiqodlar sintezi va tabiat bilan bog‘liq muqaddas joylarning ahamiyati keng yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ziyoratgoh, tabiat kulti, an’analar, e’tiqod, animizm, totemizm, islom, muqaddas joy, marosim, etnologiya, madaniyat, meros.*

***Abstract:*** *This article provides information about the visions related to the cult of nature during the pilgrimage of the Uzbek people. It extensively covers the historical formation of holy sites, the synthesis of religious beliefs, and the significance of sacred places associated with nature.*

***Key words:*** *shrine, nature cult, traditions, faith, animism, totemism, Islam, sanctuary, ritual, ethnology, culture, heritage.*

***Аннотация:*** *В данной статье представлена информация о представления, связанные с культом природы в обрядах паломничества узбекского народа. В ней подробно освещаются историческое формирование святынь, синтез религиозных верований, а также значение священных мест, связанных с природой.*

***Ключевые слова:*** *святыня, культ природы, традиции, Вера, анимизм, тотемизм, ислам, святилище, ритуал, этнология, культура, наследие.*

## KIRISH

O‘zbek xalqi jahon xalqlari orasida o‘zining buyuk tarixi, boy madaniy merosi, betakror urf-odat va an'analari bilan ajralib turadi. Asrlar davomida xalqimizning shakllanib, sayqal topgan moddiy va ma'naviy boyliklari inson aql-idroki va tafakkurining buyuk yutug‘idir. Ana shunday qadriyatlar biri ziyorat marosimlari hisoblanadi. O‘zbekiston o‘zining qulay geografik joylashuvi, iqlimi va boy resurslarga ega bo‘lganligi bois tosh davridayoq insonlar tomonidan o‘zlashtirilgan. Savdo yo‘llari, ayniqsa Buyuk Ipak yo‘lining yurtimiz hududidan o‘tishi nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki turli madaniyatlar, diniy qarashlar va e'tiqodlarning tarqalishiga zamin yaratgan. Shu sababli, o‘zbek xalqining ziyorat marosimlarida qadimiy animistik, totemistik, fetishistik, shamonlik qarashlar bilan birga Ko‘k Tangri e'tiqodi, zardushtiylik, moniylik, xristian hamda islom dinlari bilan bog‘liq qarashlar

simbiozi vujudga kelgan. Asrlar davomida shakllangan ziyorat marosimlari va urf-odatlari o‘zbek mentalitetining shakllanishiga ta'sir ko‘rsatish bilan bir qatorda uning tarkibiy qismiga aylangan desak xato bo‘lmaydi. Ziyoratgohlar-muqaddas joylar sifatida, uzoq tarixiy jarayonlarda ma'naviy ozuqa beruvchi omillar bo‘lib aholining turmush tarzida o‘ziga xos vazifalarni o‘tab kelmoqda. Ziyoratgohlar uzoq-yaqindan ziyorat qilish uchun kelgan insonlar uzoq o‘ziga xos ruhiy ozuqa olish maskani bo‘lishi bilan birga turli insonlar va madaniyatlarning o‘zaro uchrashuv joyi sifatida va yosh avlod tarbiyasida oliy tuyg‘ularni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbek xalqi ziyoratgohlari, muqaddas qadamjolari va ziyorat marosimlari tarixiy-etnologik jihatdan XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi va Yevropa mamlakatlari tadqiqotchilari L. Kostenko, sharqshunoslar A. Kalmikov, M. Ivanin, A. Kun, bibliograf V. Mejov, akademik V. Bartold va K. Zalemanlar tadqiqotlari, sovet davri tarixshunosligida ziyoratgohlar muammosi S.Tolstov, Yu.V.Knozorov, V.V.Bartold, Ya. G‘ulomov, N.Basilov, G.Snesarev, O.Suxareva, L.Mankovskaya, V.Bulatova, G.Pugachenkova, L. Rempel va I. Jabborovlar tomonidan o‘rganilgan[1]. Olimlardan V.N.Basilov ilmiy faoliyatini asosan din va uning dastlabki shakllari, shomonlik, islom kabi mavzularni Markaziy Osiyo xalqlari misolida o‘rganishga qaratdi. Olim tomonidan ushbu mavzu bo‘yicha bir qancha ilmiy maqolalar chop etilgan bo‘lsa, uning birinchi kitobi – “Islomda avliyolar kulti” deb nomlangan[2].

O‘zbekistonning etnografik hududlari miqyosida ziyoratgohlarni tadqiq etish yuzasidan N. U. Abdulahatovning Farg‘ona viloyati, S.N.Jo‘rayeva Surxondaryo viloyati, Z. Q. Abidovaning Xorazm vohasi va F. Sh. Aqchayevning Jizzax viloyati, Sh.U. Bobojonov Buxoro viloyati ziyoratgohlari bo‘yicha dissertatsion tadqiqotlarni bajargan[3]. Jumladan, N. U. Abdulahatovning ilmiy izlanishlarida Farg‘ona viloyati hududida joylashgan qadamjo va ziyoratgohlar, ularning tarixi, muqaddas joylar bilan bog‘liq xalqona qarashlar, afsonalar, rivoyatlar hamda ziyoratgohlarda o‘tkaziladigan turfa xil rasm-rusmlar, urf-odatlar va o‘zbek milliy mentalitetida ziyoratgohlarning tutgan o‘rni hamda ahamiyati tadqiq qilingan. Elshunos olimning ta’kidlashicha, mintaqada ziyoratgohlarning umumiy soni o‘n mingdan ortadi. Birgina Farg‘ona vodiysida olib borilgan

---

[1] Толстов С. П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – 315 с.; Кнозоров Ю. В. Мазар Шамун-наби (Некоторые пережитки домусульманских верований у народов Хорезмского оазиса) // СЭ. – 1949. – №2. – С. 86–98; Гулямов Я. Г. О надгробия Зангиота / История мемориальной культуры Узбекистана. Вып. 2. – Ташкент, 1961; Бартольд В. В. Работа по отдельным проблемам истории Средней Азии. – М.: Наука, 1964; Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – 336 с.; Ўша муаллиф: Под небом Хорезма. – М.: Мысль, 1973. – 160 с.; Ўша муаллиф: Хорезмские легенды – как источник по истории религиозных культов Средней Азии. – М.: Наука, 1983. – 212 с.; Сухарева О. А. О культе мусульманских святых в Средней Азии / Труды Института истории и археологии АН УзССР. В. 2-х томах. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1951. Т.2; Ўша мауллиф: Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков / Домусульманские верования и обряди в Средней Азии. – М., 1975. – С. 5–93; Басилов В. Культ святых в исламе. – М.: Мысль, 1970. – 144 с.; Жабборов И. М. Эътиқод, одат, одоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1967. – 39 б.; Ўша муаллиф: Худолар, авлиёлар ва одамлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – 144 б; Ремпель Л. И. Архитектурный орнамент Узбекистана. – Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1961. – 602 с.; Ўша муаллиф: Исскуство среднего Востока, – М., 1978. – 404 с.; Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. История искусств Узбекистана. – М.: Искусство, 1965; Булатова В. А., Маньковская Л. Ю. Памятники зодчества Ташкента XIV-XIX века. – Т.: Изд-волит, и искусство, 1983.

[2] Басилов В. Н.Культ святых в исламе. М.: Мысль, 1970в. – 144 с.

[3] Абдулаҳатов Н. Фарғона зиёратгоҳлари. / ”Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси” мавзусидаги илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2004. – Б. 53–57 б.; Ўша муаллиф: Этник номлар билан боғлиқ зиёратгоҳлар / Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. 1-қисм. – Тошкент, 2005. – Б, 156–161.; Жўраева С.Н. Сурхондарёдаги муқаддас зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг аҳоли диний-маънавий ҳаётидаги ўрни: Тар.фан.номз....дисс.-Т. 2009. Б.123.; Абидова З.К. Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари (тарихий-этнологик тадқиқот) дисс... – Т. 2018. – 174 б; Абидова З.К. Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари (тарихий-этнологик тадқиқот) дисс... – Т. 2018. – 174 б; Ақчаев Ф.Ш. Жиззах воҳаси муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари: Дисс. Тарих фан.док. – Т. 2020.;

dala tadqiqotlari natijasida mingdan ortiq ziyoratgohlar aniqlangan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Ziyorat” atamasi arabcha so‘z bo‘lib, “biror yerga yoki shaxs huzuriga borish” ma'nosini bildiradi. Ziyorat – islom dinida muqaddaslashtirilgan mozorlar, qadamjolar va mozorlarga borib, muayyan rasm-rusmlarni bajarish demakdir. Ziyorat marosimi odatda qabr tepasida Qur'onning ayrim suralari o‘qib, marhum haqiga duo qilish, shuningdek xayr-ehson, sadaqa berish kabilardan iboratdir. Islom dini aqidasiga ko‘ra, aziz-avliyolarning maqbaralariga ziyorat uchun borilganda ularning ruhlaridan madad so‘rashlik, hojatlari ravo qilinishi, dardlarga shifo berilishi, farzand ato etilishi kabi iltijolar nojoizdir. Chunki, bu kabi amallarni ro‘yobga chiqishi faqat Allohning ixtiyoridadir. Ziyorat qilinuvchilar payg‘ambar bo‘ladimi, avliyo yoki tariqat shayxi bo‘ladimi, ulardan najot so‘rash o‘rniga haqlariga duoi xayr qilish, sadaqa-ehson savoblarini ularning ruhlariga hadya etish o‘rinlidir. Islom dinida shaxsga sig‘inish shirk amallaridan hisoblanadi[4].

Islom dinida qabrlarni ziyoratga borish rag‘batlantirilib, savob tarzida izohlanadi. Hadislarda yozilishicha, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) “Qabristonlarni ziyorat qiling, zero u oxiratni eslatadi” deb aytganlar[5]. Oxiratni eslash esa, kishini yovuzlikdan uzoqlashtirib, ezgulikka yaqinlashtiradi. Ziyoratga borish o‘zbek xalqining kundalik turmishi va mentalitetining ajralmas qismi bo‘lib, asrlar davomida o‘ziga xos ziyorat odobi shakllangan.

O‘zbekiston Respublikasining qaysi hududiga tashrif buyurmang, o‘ziga xos ziyoratgoh va muqaddas qadamjolarni ko‘rish mumkin. Qadamjo va ziyoratgohlarning har biri ma'lum bir tuman, qishloq va mahallalarda yashovchi mahalliy aholi turmushida hamda ularning diniy qarashlarini ifodalovchi maskan sifatida muhim o‘rin tutadi.

Movarounnahrda VIII asrga kelib Islom dinining qaror topishi muhim siyosiy, ijtimoiy o‘zgarishlarni vujudga keltirdi. Chunki islom dinining kirib kelishi o‘zi bilan yangi mafkurani ham olib kelgan. Natijada aholi o‘rtasida mavjud bo‘lgan diniy qarashlar, urf-odatlar islomiy udumlar bilan qorishib ketgan. O‘zbekistonda joylashgan ziyoratgohlarni, islom dinida “muqaddas” joylar va ularning mozorlariga sig‘inishni tarixiy, ijtimoiy jihatidan quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Islomgacha bo‘lgan otashparastlik va majusiylik davridan qolgan, islom dini ayrim ruhoniylar tomonidan o‘z manfaatlariga moslashtirilgan qadamjo, avliyo va ularning mozorlari;

2. So‘fizm – tasavvuf diniy oqim nomoyandalarini ayrimlarini muqaddaslashtirish va ularni qabrlari;

3. Ayrim hukmdorlar va ularning amaldorlarini avliyo darajasiga ko‘tarib, ularning mozorlarida bunyod etilgan maqbaralari;

4. Hunarmandchilik bilan shug‘ullangan, keyin “avliyo”darajasiga ko‘tarilgan kishilarning qabrlari;

5. Hukmronlarning siyosiy-diniy hokimiyatiga qarshi kurash olib borgan kishilarni mehnatkash xalq tomonidan avliyo darajasiga ko‘tarilish tarixi va ularning mozorlari[6].

Ilmiy tadqiqotlarda ziyoratgohlar shakllanishiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

1. Tabiiy ravishda mavjud bo‘lgan ziyoratgohlar.
2. Antropogen, ya'ni inson qo‘li bilan yaratilgan, mehnati orqali vujudga kelgan muqaddas joylar[7].

Tabiiy ravishda mavjud bo‘lgan ziyoratgohlar – tabiat kulti bilan bog‘liq qadamjo va ziyoratgohlar bo‘lib, insonning aralashuvisiz tabiiy sharoitda paydo bo‘lgan ziyoratgohlar (buloq-chashmalar, g‘orlar, shifobaxsh tuproqlar, noyob daraxtzorlar) insonlarni tabiatni sevishga, uning go‘zalliklaridan bahra olishga, estetik zavqini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Jumladan, muqaddas buloqlar bilan bog‘liq qadamjo va ziyoratgohlarni yurtimizning barcha viloyatlarida mavjud. Tibbiyot rivojlanganligi sababli bugungi kunda bunday qadamjo va ziyoratgohlar asosan dam olish maskanlari sifatida

[4] Ислом ва ҳозирги замон. Ўқув қўлланма. “Тошкент ислом университети”– Т.2010.32-б.

[5] Абдулаҳатов Н., Азимов В. Олтиариқ зиёратгоҳлари. – Т., “Шарқ”, 2005. 12-б.

[6] Йўлдошев Н.Бухородаги айрим авлиёлар тарихи. - Бухоро,1993.10б.

[7] Огудин В. Природные места поклонения в религиозных представлениях современного населения Ферганы: Автореф. дис... докт. истор. наук. – М., 2003.– С.6.

faoliyat olib bormoqda. Jumladan, Toshkent viloyatidagi Qirqqiz buloq, Obishukur chashmasi, Namangandagi Baliqliko‘l, Jizzax viloyatidagi Avliyoota misolida ko‘rishimiz mumkin. Tabiat kulti bilan bog‘liq ziyoratgohlar tabiat bilan inson o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan maskan bo‘lib, ekologik muammolar avj olgan muhim ahamiyat kasb etadi. Ziyorat odobiga ko‘ra ziyoratgohlardagi o‘simliklar va jonzotlarga ozor berish mumkin emasligi sababli bu joylarda ekotizim saqlanib qolgan. Masalan, Toshkent viloyatidagi Chinorbuva ziyoratgohida 800-1000 yillik chinorlarni, Ervalibuva ziyoratgohida 200 yillik yong‘oq daraxtini ko‘rish mumkin.

Ziyoratgohlar tabiatga muhabbat va uni e'zozlash ruhini tarbiyalashda muhim rol tutadi. Bundan tashqari yurtimizdagi qaysi ziyoratgohga bormang, xotirjamlikni, o‘zgacha sukunatni his etasiz, bu inson asab sistemasiga ijobiy ta'sir qilib, ko‘ngil xotirjamlikni, shukronalik hissini uyg‘otadi. Ko‘pgina ruhshunoslar ham ziyoratgohlarga tet-tez tashrif buyurishni tavsiya etishlari bejiz emas.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqi turmush tarzi va milliy mentalitetining muhim belgilaridan biri bo‘lgan muqaddas joylarni ziyorat qilish aslida islomdan oldingi diniy e'tiqodlar – animizm, totemizm va fetishizm bilan bog‘liqdir. Jumladan, Islomiyat davrida bu qadimgi udum transformasiyaga uchrab, ziyoratgohlar islom dini arboblarining nomi bilan bog‘landi. Shu yo‘l bilan islom targ‘ibochilari oldingi diniy e'tiqodlarni bartaraf etish va yangi islom dinini qaror toptirishga uringanlar. Hozirgi kunda esa bu ziyoratgohlarni tavof qilish xalqimiz uchun o‘tganlar ruhini shod etish, o‘z ezgu niyatlarini ro‘yobga chiqishiga umid bog‘lash kabi optimistik xislatlarini o‘zida namoyon etmoqda.

Qadimda “Movarounnahr” deb ulug‘langan, o‘tmishda “Turkiston” deb qadrlangan va hozirda “O‘zbekiston” nomi bilan sharaf topayotgan mamlakatimiz ko‘plab tabarruk zotlarning qabrlari, qadamjo va ziyoratgohlarini o‘z ko‘ksiga jo etgan. Xalqimizning hurmat va e'tibori bilan bu maskanlar muqaddas ziyoratgoh darajasida e'zozlangan. Asrlar davomida bu ixlos avloddan avlodga yetkazilganligi bois davrlar, zamonlar va siyosiy tazyiq hamda qatag‘onlari qanchalik rahna solmasin, ularning ziyorati hanuzgacha davom etmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Islom va hozirgi zamon. O‘quv qo‘llanma. – T.: Toshkent islom universiteti. 2010. 32-b.
2. Abdulahatov N.,Azimov V. Oltiariq ziyoratgohlari. – T.: Sharq, 2005.12-b.
3. Usmonov M.A.Islom. – T.: Sharq, 1986. 85-bet
4. Yo‘ldoshev N. Buxorodagi ayrim avliyolar tarixi. – Buxoro, 1993.10-b.
5. Огудин В. Природные места поклонения в религиозных представлениях современного населения Ферганы: Автореф. дис... докт. истор. наук. – М., 2003.– С.6.
6. Немцева Н.Б. Многофункциональный меъмориально-культовый комплекс Ходжа Машад на юге Таджикистана //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1995, №5-6-7-8. 130-б
7. Abdulahatov N., Abrorov S., Toshqulov A. Sarmazor ziyoratgohi. – Toshkent. 2014. 15-b.
8. Dala tatqiqotlari. Toshkent viloyati, 2025-yil.
9. Eraliev B., Ostonaqulov I., Abdulahatov N. O‘zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. 3-jild. – Toshkent. 2015-y. 330-b.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 25.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 343.13:343.98

# ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ҲУҚУҚИЙ ОНГ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ОШИРИШ

## (Миллий гвардия ҳарбий хизматчи (ходимлари) мисолида)

***Замонбеков Умидбек Авазбек ўғли, Ўзбекистон ИИВ Тошкент минтақавий ўқув маркази, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси***



***https://orcid.org/0009-0007-2356-5565***
***umidbek.zamonbekov94@mail.ru***

# ENSURING PUBLIC SAFETY THROUGH THE ENHANCEMENT OF LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE

## (on the example of servicemen (employees) of the National Guard)

***Zamonbekov Umidbek Avazbek ugli, Tashkent Regional Training Center of the Ministry of Internal ffairs of the Republic of Uzbekistan, Independent researcher of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan***

# ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ

## (на примере военнослужащих (сотрудников) Национальной гвардии)

***Замонбеков Умидбек Авазбек оглы, Ташкентский региональный учебный центр Министерства внутренних дел Республики Узбекистан, независимый исследователь Университета общественной безопасности Республики Узбекистан***

***Аннотация:*** *Мазкур мақолада жамоат хавфсизлиги ва тартибини таъминлаш учун хизматга жалб этилаётган Миллий гвардия ҳарбий хизматчи (ходимлар)нинг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш, уларни фуқаролар ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини химоя қилишда етарли ҳуқуқий билимга эга бўлишлиги, уларни доимий равишда ҳуқуқий онги ва маданиятини ошириб бориш зарурати ва Ўзбекистонда ушбу илғор тажрибаларни татбиқ қилиш бўйича илмий таклифлар ишлаб чиқилган.*

***Калит сўзлар:*** *ҳуқуқий онг, ҳуқуқий маданият, профилактик тадбирлар, ижтимоий профилактика, жамоат хавфсизлиги, юридик маданият, хориж тажрибаси, ҳуқуқий билим.*

***Abstract:*** *This article develops scientific proposals aimed at enhancing the legal awareness and legal culture of servicemen (employees) of the National Guard involved in ensuring public safety and order, equipping them with sufficient legal knowledge to protect the rights and legitimate interests of citizens, as*

*well as emphasizing the need for the continuous improvement of their legal awareness and legal culture and the implementation of advanced practices in Uzbekistan.*

***Key words:*** *legal awareness, legal culture, preventive measures, social prevention, public safety, legal culture, foreign experience, legal knowledge.*

***Аннотация:*** *В данной статье разработаны научные предложения по повышению правового сознания и правовой культуры военнослужащих (сотрудников) Национальной гвардии, привлекаемых к обеспечению общественной безопасности и порядка, формированию у них достаточных правовых знаний для защиты прав и законных интересов граждан, а также по необходимости постоянного повышения их правового сознания и правовой культуры и внедрению передового опыта в Узбекистане.*

***Ключевые слова:*** *правовое сознание, правовая культура, профилактические мероприятия, социальная профилактика, общественная безопасность, юридическая культура, зарубежный опыт, правовые знания.*

**КИРИШ.** Бугунги кунда жаҳон миқёсида турли хил аксилижтимоий бузғунчи хатти-ҳаракатларнинг кенг тарқалиши, “оммавийлашуви”, жамиятда маънавиятнинг пасайиши, ахлоқнинг таназзулга учраши қонунларнинг бузилишини ижтимоий норма сифатида эътироф этиш, барча ижтимоий муаммолар ичидан фақат тирикчилик масалаларига урғу бериш оқибатида, шахс салбий ривожига таъсир қилиб, гиёҳвандлик, алкоголизмга берилишига етаклайди. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси 27-моддасида: “Ҳар бир инсон жамиятнинг маданий ҳаётида эркин иштирок этиш, санъатдан баҳраманд бўлиш, илмий тараққиётда иштирок этиш ва унинг самарасидан фойдаланиш ҳуқуқига эга...; Ҳар бир инсон, у муаллифи бўлган илмий, адабий ёки санъат асарларининг натижасида ўзининг маънавий ва моддий манфаатларининг ҳимоя қилиниши ҳуқуқига эга” дейилади[1]. [1].

**Мавзунинг ўрганилганлик даражаси:** Ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришнинг ўрни жахон илм-фанида кенг ўрганилган мавзулардан бири хисобланади. “Давлат хавфсизлиги” тушунчасини тор маънода талқин қилмаслик ва унга кенг кўламли жиҳатларни киритишга чақираётган олимларнинг фикрига қўшилишимиз керак. А.В.Володин таъкидлашича: “Совет даврида “давлат хавфсизлиги” ибораси, асосан секкуритологик йўналишда, Совет ҳокимиятига ташқи ва ички таҳдидларга қарши туриш нуқтаи назаридан, “миллий хавфсизлик ва мудофаа” замирида ишлатилган”. Айнан шу маънода 1934-йил июлъ ойида “давлат хавфсизлиги” атамаси қонунчилик томонидан тан олинган. Ўшандан бери мамлакатимизда узоқ вақт давомида хавфсизлик ташқи ҳарбий хавф ва таҳдидларга қарши туриш (ҳарбий хавфсизлик), шунингдек, хорижий давлатларнинг разведка ва қўпорувчилик фаолиятига қарши туриш (давлат хавфсизлиги) ҳақида гапириб келинмоқда”. Бироқ, бугунги кунда “давлат хавфсизлиги” тушунчасининг кўлами, жумладан, маданий ва ҳуқуқий жиҳатлари туфайли кенгайиб бормоқда[2].

**Тадқиқот методологияси:** Мақолада мавзуни ёритишда умум илмий ва махсус тадқиқот тизимларидан фойдаланилган, қиёсий-ҳуқуқий тахлил, мантиқий умумлаштириш, тарихийлик ва статистик маълумотарни ўрганиш усуллари қўланилди. Хусусан Ўзбекистон Республикасининг ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш, бунда асосан Миллий гвардия ҳарбий хизматчи (ходимлари) ўртасида кенг тарғиб қилишга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари ҳалқаро стандартлар ва илғор

[1] 10.12.1948. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. https://lex.uz/docs/-7338189

[2] Лучин В.О., Эбзеев Б.С., Хазов Е.Н., Белоновский В.Н., Эриашвили Н.Д., Чихладзе Л.Т., Пряхина Т.М., Зинченко Е.Ю., Опалева А.А., Осавелюк А.М., Чепурнова Н.М., Зиборов О.В., Прудников А.С., Харламов С.О., Егоров С.А., Кикоть-Глуходедова Т.В., Миронов А.Л., Саудаханов М.В., Чертова Н.А., Булавин С.П. и др. Конституционное право России. Москва, 2019. (10-е издание, переработанное и дополненное)

хорижий давлатлар тажрибаси билан қиёсий ўрганилди.

**АСОСИЙ ҚИСМ.** Сўнгги йилларда жамиятимизда рўй бераётган объектив ўзгаришлар, янги *(ижтимоий, иқтисодий, техник, ахборот ва ҳоказо)* воқеликнинг пайдо бўлиши касбий фаолият ва касбий маҳорат ҳақидаги қарашларга таъсир этмай қола олмади.

2007-йилда АҚШнинг Ички хавфсизлик бўйича Миллий стратегиясида "Америка Қўшма Штатларида Ҳукумат ва хусусий секторни Интернетда ҳимоя қилиш" бўйича алоҳида бўлим киритилган бўлиб, унда Интернетни террористлардан ҳимоя қилиш ҳамда Интернетда "ушбу бутунжаҳон ёвузлигига қарши кураш" зарурлиги қайд этилган[3].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 29-ноябрдаги ПФ-27-сон Фармони [4] билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги консепсиясида "Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги консепсияси миллий хавфсизликнинг асосий йўналишларидан бири ҳисобланган жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги давлат сиёсатини белгиловчи муҳим ҳужжат"-деб, белгиланган[5].

Ҳар қандай жамиятда ҳуқуқ-тартибот идоралари ҳар доим ҳокимият мафкурасининг муҳим қисми бўлиб қолади ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларидан ҳуқуқни муҳофаза қилишнинг муайян ҳолатларида юқори даражадаги ҳуқуқий билимга эга бўлишлари керак.

Ўзбекистон Республикасининг Миллий гвардияси тўғрисидаги Қонуни 28-моддасига мувофиқ, Миллий гвардиянинг ҳарбий хизматчилари (ходимлари) ўзига бириктирилган ўқ-отар қурол ва махсус воситаларни хизмат мажбуриятларини бажариш чоғида олиб юриш, сақлаш, жисмоний куч ишлатиш, махсус воситаларни ҳамда ўқотар қуролни қўллаш ҳуқуқига фақат қонунда назарда тутилган ҳолларда ва тартибда эга бўлади [6] . Шунингдек, ҳуқуқ-тартибот органи бир қатор иш усулларини умумэътироф этилган ахлоқ нуқтаи назаридан баҳолаганда, улар жиноятчига хос бўлган усулларга ўхшаш деб тан олиниши мумкин. Мисол учун, жиноятларни очиш бўйича тезкор иш усулларини санаб ўтиш кифоя, хусусан: яширин кузатув ва разведка *("жосус" орқали керакли маълумотларни олиш)*, тезкор тадбир (ёлғон, дезинформация), никобланиш ва бошқалар.

Бу борада М.Строгович шундай ёзади: "Одил судловни амалга оширишда, суд процессида, суд, прокуратура ва тергов органлари фаолиятида ахлоқий меъёрларга энг қатъий риоя қилиш ва уларни тўғри қўллаш жуда катта аҳамиятга эга. ...суд томонидан жиноят ишларини тергов қилиш ва ҳал қилишда кўриладиган чора-тадбирлар нафақат қонунийлик талабларига, балки маънавият талабларига ҳам мос келиши керак. Суд, прокуратура ва тергов олдида турган ҳуқуқий ва маънавий мақсадга ҳуқуқий ва маънавий воситалар билан эришиш мумкин ва керак"[7].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 13-декабрдаги ПҚ–4551-сон "Конституция ва қонун устуворлигини таъминлаш, бу борада жамоатчилик назоратини кучайтириш ҳамда жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорнинг айрим қоидалари алоҳида эътиборга лойиқ[8].

---

[3] Гусев А.В. Зарубежный опыт борьбы с преступлениями в сфере Интернета // www.pavo.by – Национальный центр правовой информации Республики Беларусь.

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.11.2021 yildagi PF-27-son. https://lex.uz/docs/-5749291

[5] O'sha joyda.

[6] O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to'g'risidagi Qonuni // https://lex.uz/uz/docs/5128310#5128719

[7] Строгович М.С. Избранные труды: В 3 т. Т. 2. Гарантии прав личности в уголовном судопроизводстве. М., 1992. – С.217.

[8] Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi PQ–4551-son "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda

Хусусан, мазкур Қарор муқаддимасида алоҳида қайд этиладики, “Конституция ва қонун устуворлигини таъминлаш қонун бузилиши билан боғлиқ салбий оқибатларга қарши самарали курашишни ҳамда бундай ҳолатнинг барвақт олдини олишга қаратилган таъсирчан тизимни шакллантиришни талаб этмоқда” [9] . Бизнинг илмий тадқиқот учун ушбу норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг деярли барча қоидалари, шу жумладан Конституция ва қонун устуворлигини таъминлаш, бу борада жамоатчилик назоратини кучайтириш ҳамда жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш бўйича чора-тадбирлар дастури алоҳида қизиқиш уйғотади.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ) Бош Ассамблеясининг 2017-йил 7-декабрдаги 72-сессиясида қабул қилинган “Миллий ва халқаро миқёсда ҳуқуқ устуворлиги” номли резолюсиясида миллий миқёсда давлатлар ўзларининг стратегия ва устуворликларини ҳисобга олган ҳолда, ҳуқуқ устуворлигини таъминлайдиган ва фаол равишда тарғиб этадиган идоралар фаолиятини қўллаб-қувватлаш зарурати қайд этилган.[10] Шу билан бирга, БМТнинг “Юристлар ролига доир асосий принциплар”да ҳуқуқ устуворлигини таъминлашда юристларнинг муҳим ўрни ва аҳамияти алоҳида эътироф этилган.[11]

Жамоат хавфсизлигини таъминлашда аҳолининг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтиришдаги энг муҳим механизмлардан бири — бу ижтимоий профилактика тизимининг самарали йўлга қўйилиши ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2016-йилда қонун ижодкорлиги ва ҳуқуқни қўллашни такомиллаштиришнинг замонавий устувор йўналишларини белгилар экан “...Асосий масала – қонунларнинг мазмун-моҳиятини халқимизга ва масъул ижрочиларга ўз вақтида етказиш, уларнинг ижросини тўғри ташкил этиш ҳамда қонун талабларига қатъий амал қилишни таъминлашдан иборатдир”, деб қатъий таъкидлади [12] . Шунингдек, давлат раҳбари жорий йилнинг январида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси ва Сенати қўшма мажлисидаги қилган нутқида, “...Ҳукумат қонун, фармон ва қарорлар ижросини тўғри ташкил этиб, амалга оширилаётган ислоҳотларнинг ҳар бир туман ва қишлоққа, ҳатто олис ва чекка ҳудудларгача етиб боришини таъминлаши зарур” [13] деб алоҳида қайд этди.

Миллий гвардия тузилмалари ходимларининг юксак ҳуқуқий маданият инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини амалга оширишнинг тўлиқ ва барқарор равишда амалга оширилишини таъминлайди, шу билан бир қаторда демократик жамиятда қонунийликни даражаси ва ҳолати ҳамда ҳуқуқий маданиятнинг ижобий кўрсаткичини намоён қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 22-апрелдаги ПҚ-5089-сон қарори билан “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси ходимларининг Интизом устави тасдиқланди[14],

---

huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, https://lex.uz/ru/docs/4647329.

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi PQ–4551-son qarori muqaddimasi.

[10] БМТнинг “Миллий ва халқаро миқёсда ҳуқуқ устуворлиги” номли A/RES/72/119-сонли резолюциясининг 16-банди, https://undocs.org/ru/A/RES/72/119

[11] Восьмой Конгресс Организации Объединенных Наций по предупреждению преступности и обращению с правонарушителями, Гавана, 27 августа – 7 сентября 1990 года: Қаранг.: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/role_lawyers.shtml.

[12] Qarang: Sh.M.Mirziyoyev, Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, http://uza.uz.

[13] Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutqi, https://president.uz/uz/lists/view/3310.

[14] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 22.04.2021 yildagi PQ-5089-son // Qonun hujjatlari

TAMADDUN NURI

бу Гвардия ходимининг онги ва виждонига қаратилган касбий ва маънавий қўлланма.

**ХУЛОСА.** Хулоса қилиб айтганда хорижий тажриба ва олимларнинг фикрини инобатга олиб қуйидаги назарий хулоса, таклиф ва тавсияларни келтириб ўтишимиз мумкин:

*Биринчи,* ҳуқуқий маданиятнинг шаклланиши ва уни юксалтириш Миллий гвардия органларининг хизмат тайёргарлигида доимий равишда қонунчилик янгиликларини ўзлаштириш, ҳуқуқий амалиётни ўрганиш ва малака оширишни талаб қилади. Шунга мувофиқ, етакчи мутахассисларни жалб қилган ҳолда махсус ҳуқуқий ўқув машғулотлари ташкил этилиши мақсадга мувофиқдир. Бунинг натижасида қонунийликка риоя қилиш ва инсон ҳуқуқларини таъминлашда юксак ҳуқуқий маданият асосида фаолият юритилади.

*Иккинчи*, Миллий гвардия ходимларининг интизом ва одоб-ахлоқ қоидалари уларнинг хизмат жамоаси, жамият ва шахсий виждони олдидаги маънавий жавобгарлигини белгилайди. Ҳуқуқбузарликка йўл қўйган ходимлар нафақат интизомий, балки маънавий жавобгарликка ҳам тортилади. Бу тамойиллар ходимларнинг инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш борасида масъулиятини янада кучайтиради.

**АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**


1. 10.12.1948. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. https://lex.uz/docs/-7338189

2. Лучин В.О., Эбзеев Б.С., Хазов Е.Н., Белоновский В.Н., Эриашвили Н.Д., Чихладзе Л.Т., Пряхина Т.М., Зинченко Е.Ю., Опалева А.А., Осавелюк А.М., Чепурнова Н.М., Зиборов О.В., Прудников А.С., Харламов С.О., Егоров С.А., Кикоть-Глуходедова Т.В., Миронов А.Л., Саудаханов М.В., Чертова Н.А., Булавин С.П. и др. Конституционное право России. Москва, 2019. (10-е издание, переработанное и дополненное)

3. Гусев А.В. Зарубежный опыт борьбы с преступлениями в сфере Интернета // www.pavo.by – Национальный центр правовой информации Республики Беларусь.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.11.2021 yildagi PF-27-son. https://lex.uz/docs/-5749291

5. O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi Qonuni // https://lex.uz/uz/docs/ 5128310#5128719

6. Строгович М.С. Избранные труды: В 3 т. Т. 2. Гарантии прав личности в уголовном судопроизводстве. М., 1992. – С.217.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi PQ–4551-son “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, https://lex.uz/ru/docs/4647329.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi PQ–4551-son qarori muqaddimasi.

9. БМТнинг “Миллий ва халқаро миқёсда ҳуқуқ устуворлиги” номли A/RES/72/119-сонли резолюциясининг 16-банди, https://undocs.org/ru/A/ RES/72/119

10. Восьмой Конгресс Организации Объединенных Наций по предупреждению преступности и обращению с правонарушителями, Гавана, 27 августа – 7 сентября 1990 года: http://www.un.org/ru/documents/ decl_conv/conventions/role_lawyers.shtml.

11. Sh.M.Mirziyoyev, Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, http://uza.uz.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutqi, https://president.uz/uz/lists/view/3310.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 22.04.2021 yildagi PQ-5089-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.04.2021 y., 07/21/5089/0372-son.


ma’lumotlari milliy bazasi, 23.04.2021 y., 07/21/5089/0372-son.

Qabul qilindi: 25.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK:37.018.43:316.344.3:1

# THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON THE TRANSFORMATION OF MORAL AND SPIRITUAL VALUES IN CONTEMPORARY SOCIETY

***Urazov Abubakir Kulturaevich,***
***Independent Researcher at the Institute for Social and Spiritual Research***



***https://orcid.org/0009-0002-9423-4600***
***e-mail: abubakirurazov24@gmail.com***

# ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ НА ТРАНСФОРМАЦИЮ НРАВСТВЕННЫХ И ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

***Уразов Абубакир Культураевич,***
***независимый исследователь Института социально-духовных исследований***

# ZAMONAVIY JAMIYATDA AXLOQIY VA MA’NAVIY QADRIYATLARNI O‘ZGARTIRISHGA RAQAMLASHTIRISHNING TA’SIRI

***Urazov Abubakir Kulturaevich,***
***Ijtimoiy va ma’naviy tadqiqotlar institutining mustaqil tadqiqotchisi***

***Abstract:*** *Digitalization has fundamentally reshaped the structure of contemporary societies, influencing not only economic and political systems but also moral and spiritual value frameworks. This study examines how digital technologies, particularly social media and algorithm-driven platforms, contribute to the transformation of moral and spiritual values. Using a qualitative conceptual analysis supported by secondary empirical data, the research explores both the constructive and disruptive effects of digitalization on value systems.[6] The findings suggest that while digitalization enhances access to knowledge and intercultural dialogue, it also contributes to value fragmentation, moral relativism, and the weakening of traditional spiritual authority.*

***Key words:*** *digitalization, digital technologies, social networks, algorithm-driven platforms, spiritual values, moral values, value transformation, digital society, moral relativism, intercultural dialogue, digital communication, spiritual authority.*

***Аннотация:*** *Цифровизация коренным образом изменила структуру современных обществ, повлияв не только на экономические и политические системы, но и на моральные и духовные ценностные рамки. В данном исследовании рассматривается, как цифровые технологии, в частности социальные сети и платформы, управляемые алгоритмами, способствуют трансформации моральных и духовных ценностей. Используя качественный концептуальный анализ, подкрепленный вторичными эмпирическими данными, исследование изучает как конструктивные, так и деструктивные эффекты цифровизации на системы ценностей.[6] Результаты показывают, что, хотя цифровизация расширяет доступ к знаниям и*

*межкультурному диалогу, она также способствует фрагментации ценностей, моральному релятивизму и ослаблению традиционного духовного авторитета.*

***Ключевые слова:*** *цифровизация, цифровые технологии, социальные сети, алгоритмические платформы, духовные ценности, моральные ценности, трансформация ценностей, цифровое общество, моральный релятивизм, межкультурный диалог, цифровая коммуникация, духовный авторитет.*

***Annotatsiya:*** *Raqamlashtirish zamonaviy jamiyatlar tuzilishini tubdan o'zgartirib, nafaqat iqtisodiy va siyosiy tizimlarga, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlar doirasiga ham ta'sir ko'rsatdi. Ushbu tadqiqotda raqamli texnologiyalar, xususan, ijtimoiy media va algoritmga asoslangan platformalar axloqiy va ma'naviy qadriyatlarning o'zgarishiga qanday hissa qo'shishi o'rganiladi. Ikkilamchi empirik ma'lumotlar bilan qo'llab-quvvatlanadigan sifatli kontseptual tahlildan foydalangan holda, tadqiqot raqamlashtirishning qadriyat tizimlariga ham konstruktiv, ham buzuvchi ta'sirini o'rganadi.[6] Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish bilim va madaniyatlararo muloqotga kirishni kuchaytirsa-da, u qadriyatlarning parchalanishiga, axloqiy nisbiylikka va an'anaviy ma'naviy hokimiyatning zaiflashishiga ham hissa qo'shadi.*

***Калит сўзлар:*** *рақамлаштириш, рақамли технологиялар, ижтимоий тармоқлар, алгоритмли платформалар, маънавий қадриятлар, ахлоқий қадриятлар, қадриятлар трансформацияси, рақамли жамият, ахлоқий релятивизм, маданиятлараро мулоқот, рақамли коммуникация, маънавий авторитет.*

**Introduction** The emergence of the information society has profoundly transformed the foundations of human existence, reshaping patterns of interaction, cognition, and cultural transmission. In contemporary conditions, social reality is increasingly structured through digital infrastructures that mediate communication, knowledge production, and value formation.[5] Digitalization—understood as the systematic integration of digital technologies into all spheres of life—has become a defining characteristic of modern civilization and a central force in the reconfiguration of socio-cultural systems.

In this context, Manuel Castells argues that the rise of the network society represents a fundamental shift in the organization of social structures, where informational flows rather than traditional hierarchical institutions become the primary mechanisms of power, communication, and meaning production [1]. This transformation implies that values are no longer transmitted exclusively through stable institutional frameworks such as family, religion, and formal education, but are increasingly shaped, negotiated, and redefined within decentralized digital environments.

Moral and spiritual values—traditionally regarded as relatively stable and culturally grounded systems of meaning—are now subject to continuous exposure to global information flows, algorithmic selection processes, and socially networked discourses. Platforms of digital communication, including social media ecosystems, online communities, and artificial intelligence-driven content systems, play an increasingly significant role in shaping individuals' perceptions of morality, identity, and spirituality [2].

This shift raises several critical philosophical and sociological questions. To what extent does digitalization contribute to the transformation of moral consciousness in contemporary society? [3] Does the expansion of digital environments lead to the enrichment and diversification of spiritual identity, or does it instead result in fragmentation, relativization, and the erosion of shared ethical foundations? Furthermore, how do algorithmically mediated information systems influence the formation of value orientations among individuals and social groups?

From a theoretical perspective, this study situates itself at the intersection of information society theory, digital sociology, and moral philosophy. It engages with the broader debate on whether technological modernization leads to moral progress or moral disintegration, particularly in the context of rapidly evolving digital cultures [4]. Accordingly, the aim of this article is to analyze the impact of digitalization on the transformation of moral and spiritual values in

contemporary society, with particular attention to the mechanisms through which digital environments reshape value perception, transmission, and internalization.

**Methods.** This study adopts a *qualitative conceptual research design* grounded in interpretive and analytical approaches to social theory. The primary objective of this methodological framework is to examine the transformation of moral and spiritual values in the context of digitalization through systematic synthesis and critical interpretation of existing knowledge rather than direct empirical measurement.

The research is based on *secondary data sources*, including peer-reviewed academic literature, theoretical monographs, international institutional reports, and established sociological and philosophical studies on digital society, cultural transformation, and value change. These sources provide a comprehensive foundation for identifying dominant scholarly perspectives and analytical trends regarding the influence of digital environments on moral and spiritual systems.
Methodologically, the study integrates three complementary analytical strategies:

1. Theoretical analysis of information society paradigms, with particular emphasis on the works of Manuel Castells and Zygmunt Bauman, to conceptualize the structural and cultural dynamics of the network society and liquid modernity. This approach allows for a macro-level understanding of how digitalization restructures social relations and value formation processes.[1]
2. Comparative analysis of traditional and digital modes of value transmission, focusing on the shift from institutionally grounded mechanisms of moral socialization (such as family, religion, and education) toward decentralized, algorithmically mediated digital platforms. This comparison highlights the changing nature of authority, legitimacy, and continuity in value systems.
3. Content analysis of existing scholarly studies on digital culture and morality, aimed at identifying recurring themes such as moral relativism, identity fragmentation, digital spirituality, and the reconfiguration of ethical norms in online environments. This analytical layer enables the synthesis of fragmented empirical findings into a coherent interpretive framework.

It is important to emphasize that this research does not involve the collection of *primary quantitative or survey-based data*. Instead, it relies on a *meta-analytical synthesis of existing empirical studies and theoretical arguments*, allowing for the construction of an integrated conceptual model of value transformation in the information society.

Through this methodological approach, the study seeks to bridge philosophical interpretation and sociological insight, providing a multidimensional understanding of how digitalization reshapes the structure, transmission, and internal logic of moral and spiritual values in contemporary society.

**Results.** The analysis of existing theoretical and empirical literature reveals a set of interrelated patterns that characterize the ongoing transformation of moral and spiritual values in the context of digitalization. These patterns indicate not only a structural shift in value transmission mechanisms but also a deeper reconfiguration of moral cognition and spiritual orientation in contemporary society.

**Fragmentation of Moral Authority**

One of the most significant transformations observed is the fragmentation of moral authority. In traditional societies, moral norms were largely stabilized through centralized and institutionally legitimized structures such as religious organizations, family systems, and formal educational institutions. These institutions functioned as primary sources of ethical guidance, ensuring continuity and coherence in moral socialization.

However, in the digital environment, moral authority has become increasingly decentralized and dispersed across a wide range of actors, including social media influencers, online communities, algorithmically curated content creators, and virtual opinion leaders. This shift results in a pluralization of moral voices, where no single authority dominates the ethical discourse. While this diversification expands interpretive freedom and encourages participatory moral dialogue, it simultaneously generates normative inconsistency, value ambiguity, and the weakening of shared ethical frameworks.

**Acceleration of Value Change**

A second key pattern is the *acceleration of value transformation* driven by digital platforms. Unlike traditional communication systems, which evolved gradually and regionally, digital environments operate through real-time information flows that enable instantaneous dissemination of cultural meanings across global networks. This acceleration significantly reduces the temporal stability of moral norms, leading to rapid cycles of value emergence, adaptation, and replacement. As a result, moral and cultural standards become increasingly fluid, context-dependent, and subject to continuous revision. This dynamic contributes to what sociologists describe as a condition of *temporal compression of cultural change***,** where long-standing ethical traditions struggle to maintain durability in the face of rapidly evolving digital norms.

**Individualization of Spirituality**

The third pattern concerns the *individualization of spiritual life and practice***.** Digitalization has facilitated the emergence of highly personalized forms of spirituality, in which individuals construct their own spiritual frameworks by selectively engaging with online resources, including religious content, meditation applications, virtual rituals, and digital faith communities.This trend reflects a broader shift from collective and institutionally regulated religiosity toward *subjective and customized spiritual experiences***.** Spiritual identity is increasingly shaped by personal preference, algorithmic recommendation systems, and digital accessibility rather than inherited tradition. While this individualization enhances autonomy and spiritual exploration, it also contributes to the weakening of shared spiritual narratives and collective religious cohesion.

**Rise of Moral Relativism**

A further important finding is the *rise of moral relativism* as a consequence of increased exposure to diverse global perspectives through digital networks. The internet enables individuals to encounter multiple, often conflicting, moral systems simultaneously, thereby expanding cognitive and ethical awareness. This plurality of perspectives fosters tolerance, intercultural sensitivity, and openness to difference. However, it also challenges the possibility of universal moral consensus by destabilizing the notion of fixed ethical truths. In such conditions, moral judgments increasingly become context-dependent and subjective, contributing to the normalization of relativistic ethical frameworks. This development reflects a broader epistemological shift in which moral certainty is replaced by interpretive plurality and situational ethics.

Collectively, these four patterns demonstrate that digitalization does not simply alter the transmission of moral and spiritual values, but fundamentally restructures their *authority, temporality, embodiment, and universality***.** The digital environment transforms moral systems into dynamic, decentralized, and continuously evolving constructs, reshaping the very conditions under which ethical meaning is produced and sustained.

**Discussion** The findings of this study indicate that digitalization exerts a fundamentally *dual and ambivalent influence* on moral and spiritual value systems in contemporary society. Rather than producing a linear process of moral decline or moral progress, digital transformation generates a complex dialectic in which both constructive and destabilizing tendencies coexist and interact dynamically.

On the one hand, digitalization significantly contributes to the *democratization of knowledge and moral discourse*. By reducing barriers to information access and enabling global connectivity, digital platforms facilitate intercultural communication, cross-civilizational dialogue, and exposure to diverse ethical frameworks. This expanded communicative space fosters a broader sense of global ethical awareness, encouraging tolerance, pluralism, and recognition of cultural difference. In this sense, digitalization can be interpreted as a potential driver of cosmopolitan moral consciousness, where individuals are increasingly aware of global interdependence and shared human responsibility.

On the other hand, the same processes that enable openness and pluralism simultaneously generate conditions of *normative instability and value fragmentation*. The weakening of traditional moral institutions, combined with the rapid circulation of conflicting value systems, contributes to the erosion of coherent and universally accepted ethical frameworks. As a result, moral judgments become increasingly

situational, context-dependent, and fragmented, reinforcing tendencies toward value relativism and ethical uncertainty.

This ambivalent transformation can be more deeply understood through Zygmunt Bauman's concept of *"liquid modernity,"* which describes contemporary society as a condition in which previously stable social structures—such as institutions, identities, and moral codes—gradually dissolve into fluid, flexible, and continuously reconfiguring forms.[2] Within this framework, moral and spiritual identities are no longer fixed or permanently anchored in enduring traditions; instead, they become adaptive, negotiable, and subject to constant redefinition in response to rapidly changing digital environments.

Furthermore, an additional structural dimension of this transformation lies in the role of *algorithmic governance of information*, which has become a central mechanism shaping contemporary moral perception. Social media platforms, search engines, and recommendation systems do not merely transmit information neutrally; rather, they actively structure visibility, attention, and engagement. By prioritizing emotionally charged, sensational, or highly interactive content, algorithmic systems subtly influence users' cognitive and moral orientation, often privileging immediacy and affective response over reflective and ethically grounded reasoning.

In this context, moral and spiritual values are increasingly mediated through technologically curated informational environments, where ethical frameworks are not only socially constructed but also algorithmically shaped. This introduces a new layer of influence that operates beyond traditional institutional control, embedding value formation within the architecture of digital platforms themselves.

Consequently, the study concludes that digitalization does not lead to the disappearance of moral and spiritual values. Rather, it produces a *systemic reconfiguration of their structure, modes of transmission, and sources of authority*. Moral and spiritual values persist, but they are increasingly decentralized, personalized, and dynamically reconstructed within fluid digital ecosystems that continuously reshape the conditions of ethical meaning-making.

**Conclusion** Digitalization represents a profound and multidimensional transformative force that is reshaping the foundations of moral and spiritual value systems in contemporary society. Its influence extends beyond technological change, reaching into the deeper layers of cultural meaning, ethical orientation, and spiritual identity formation. Rather than functioning as a neutral tool, digitalization operates as a structural condition that actively reconfigures how values are created, transmitted, and internalized within social life.

On the positive side, digitalization significantly expands access to information, facilitates global communication, and promotes intercultural understanding. These processes contribute to the emergence of broader moral awareness, enabling individuals to engage with diverse ethical perspectives and participate in global value dialogues. In this sense, digital environments can be seen as platforms that support the development of a more interconnected and cosmopolitan moral consciousness.

However, these benefits are accompanied by substantial challenges. The same digital processes that foster openness and connectivity also disrupt traditional moral and spiritual frameworks that were historically grounded in stable institutions such as religion, family, and education. The increasing decentralization of moral authority, combined with the rapid circulation of competing value systems, contributes to normative fragmentation, ethical uncertainty, and the weakening of long-standing moral consensus. As a result, value systems become more fluid, situational, and susceptible to continuous reinterpretation.

From a broader theoretical perspective, these developments suggest that contemporary society is undergoing not a disappearance of moral and spiritual values, but rather their *structural transformation and reconfiguration within digital ecosystems*. Moral authority is no longer exclusively institutional; instead, it is distributed across digital networks, algorithmic systems, and individualized forms of meaning-making. This shift necessitates a reconsideration of how ethical stability and spiritual continuity can be maintained in conditions of constant informational change.

Future research should therefore move beyond purely theoretical analysis and place

greater emphasis on *empirical investigations of value formation processes, particularly among younger generations who are most deeply immersed in digital environments*. Such studies should explore how digital platforms influence moral reasoning, identity construction, and spiritual orientation in everyday life.

Additionally, further scholarly attention should be directed toward the emerging field of *digital ethics*, especially its potential role in stabilizing moral frameworks within algorithmically mediated societies. This includes examining how ethical design of digital platforms, regulation of information flows, and development of responsible technologies may contribute to restoring balance between innovation and moral sustainability.

In conclusion, while digitalization introduces significant complexities and tensions into moral and spiritual life, it also opens new possibilities for ethical reflection and value reconstruction. Understanding and guiding this transformation remains a crucial intellectual and practical task for contemporary philosophy, sociology, and interdisciplinary social science.

**REFERENCES:**


1. Castells, M. (2010). *The rise of the network society* (2nd ed.). Wiley-Blackwell.
2. Bauman, Z. (2000). *Liquid modernity*. Polity Press.
3. Inglehart, R., & Welzel, C. (2005). *Modernization, cultural change, and democracy*. Cambridge University Press.
4. Turkle, S. (2011). *Alone together: Why we expect more from technology and less from each other*. Basic Books.
5. Floridi, L. (2014). *The fourth revolution: How the infosphere is reshaping human reality*. Oxford University Press.
6. Shirky, C. (2008). *Here comes everybody: The power of organizing without organizations*. Penguin Press.


TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 25.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 821.512.133-71

# O‘TKIR HOSHIMOV IJODIDA RAHBAR OBRAZLAR

***(“Ikki karra ikki – besh” hajviy qissasi va “Ikki eshik orasi” romani misolida)***

***Isomiddinova Go‘zalxon Oqilbek qizi, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi , 1-bosqich magistranti***

# LEADER IMAGES IN THE WORKS OF O‘TKIR HOSHIMOV

***(On the Example of the Satirical Story “Ikki karra ikki – besh” and the Novel “Ikki eshik orasi”)***

***Исомиддинова Гузалхан Окилбек кызы, магистрант 1-курса направления узбекского языка и литературы Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана***

# ОБРАЗЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ В ТВОРЧЕСТВЕ УТКИРА ХАШИМОВА

***(На примере сатирической повести “Икки карра икки – беш” и романа “Икки эшик ораси”)***

***Isomiddinova Go‘zalkhon Oqilbek qizi, First-year Master’s Student Uzbek Language and Literature Program University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan***



***https://orcid.org/0009-0008-4065-9930***
***e-mail: guzalravshanova59@gmail.com***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning “Ikki karra ikki – besh” hajviy qissasi va “Ikki eshik orasi” romanidagi rahbar obrazlari — rais va Umar zakunchi qiyosiy-psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi O‘tkir Hoshimovning “Ikki karra ikki – besh” va “Ikki eshik orasi” asarlaridagi rahbar obrazlarini qiyosiy tahlil qilish orqali ijtimoiy-axloqiy mazmunni aniqlashdan iboratdir. Olib borilgan tadqiqot natijasi Rais obrazi hajviy-satirik uslubda, Umar zakunchi esa tragik-realistik yo‘sinda tasvirlangani, har ikki obrazda hokimiyatning shaxsiy manfaatga xizmat qilishi umumiy xususiyat sifatida aniqlangani asoslandi.*

***Kalit so‘zlar****: obraz, qiyosiy tahlil, obrazlar tipologiyasi, ironika, satirik poetika.*

***Abstract:*** *This study examines the leadership figures in O‘tkir Hoshimov’s works “Ikki karra ikki – besh” and the novel “Ikki eshik orasi”, through a comparative and psychological approach. The purpose of the research is to identify the socio-ethical content of these characters by analyzing their similarities and differences. The methodology is based on comparative analysis and elements of psychological interpretation. The results demonstrate that the chairman is portrayed in a satirical mode, reflecting social criticism through irony and humor, while Umar Zakunchi is depicted in a tragic-realistic manner, emphasizing the psychological depth of the character. It is concluded that both figures share a common feature — the use of authority for personal gain, which reveals the author’s critical attitude toward abuse of power.*

***Key words:*** *image, comparative analysis, typology of images, irony, satirical poetics.*

***Аннотация:*** *В данной работе рассматриваются образы руководителей в произведениях Откыра Хошимова «Икки карра икки — беш» и «Икки эшик ораси» на основе сравнительно-*

*психологического анализа. Цель исследования — выявление социально-нравственного содержания данных образов через анализ их сходств и различий. Методология исследования основана на сравнительном анализе и элементах психологической интерпретации. Результаты показывают, что образ председателя представлен в сатирическом ключе, отражающем социальную критику через иронию и юмор, тогда как Умар Закунчи изображён в трагико-реалистическом плане с акцентом на психологическую глубину. Сделан вывод, что общей чертой обоих персонажей является использование власти в личных интересах, что выражает критическое отношение автора к злоупотреблению властью.*

***Ключевые слова:*** *образ, сравнительный анализ, типология образов, ирония, сатирическая поэтика.*

**Kirish.** O‘zbek adabiyotida O‘tkir Hoshimov mustaqillik davri yetakchi namoyandalaridan biri sifatida tan olingan bo‘lib, adib sovet davri ijtimoiy illatlarini ochiq va mohirona tanqid qilgan. Uning asarlarida inson psixologiyasi va ichki ziddiyatlar chuqur ochilgan. “Ikki karra ikki – besh” va “Ikki eshik orasi” asarlari turli janrda yozilgan bo‘lsa-da, rahbar tipining turli qirralarini ko‘rsatadi. Mazkur asarlarni psixologik jihatdan qiyosiy tahlil qilish adib ijodini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Adabiyotshunos N. Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, “totalitar tizim sharoitida badiiy matn haqiqatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas ramz va o‘zgartirilgan mantiq orqali ifodalaydi”. Ushbu qarash O‘tkir Hoshimov asarlarida, ayniqsa “ikki karra ikki – besh” timsoli orqali yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning maqsadi — “Ikki karra ikki – besh” va “Ikki eshik orasi” asarlaridagi rahbar obrazlarini qiyosiy tahlil qilish orqali hokimiyatning badiiy ifodalanish xususiyatlarini ochib berish, ularning ijtimoiy va axloqiy mazmunini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda rais va Umar zakunchi obrazlari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinib, hokimiyatning ikki xil badiiy ifodasi — hajviy va jiddiy-psixologik yo‘sini yagona tizimda yoritildi hamda ikki asar o‘rtasidagi mazmuniy yaqinlik ilmiy asosda ko‘rsatib berildi.

**Adabiyotlar sharhi.** O‘tkir Hoshimov ijodini o‘rganishda bir qancha tadqiqotlar mavjud. Ular asosan hajviy uslub, ijtimoiy tanqid, qahramonlar xususiyati va oilaviy munosabatlarga qaratilgan. Professor S. Mirzayev “Hozirgi o‘zbek adabiyoti” darsligida XX asrning 60–80-yillar romanchiligi rivojini tahlil qilar ekan, O‘tkir Hoshimov romanlariga ham alohida to‘xtalib, ulardagi mavzu ko‘lami, g‘oyaviy yo‘nalishi hamda personajlar qiyofasining badiiy talqiniga e’tibor qaratadi.

Tojimamatov Sherzodjon (2024) “O‘tkir Hoshimovning “Ikki karra ikki – besh” qissasida qahramonlar xususiyati” maqolasida asarni jamiyatdagi kamchiliklar, poraxo‘rlik va oddiy odamlarning og‘ir ahvolini tasvirlash nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Muallif rais obrazi orqali kolxoz rahbarlarining ijtimoiy tipini ochishga e’tibor qaratadi.

“Ikki eshik orasi” romani bo‘yicha tadqiqotlarda asar oilaviy munosabatlar, urush fojiasi va inson taqdiri nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan.

Qosimboyeva Sayyora Nig‘matilla qizi (2022) “Ikki eshik orasi” romanida milliy ruhning poetik takomili” maqolasida Umar zakunchi bag‘ritoshligi, nopokligi va keyinchalik butunlay baxtsiz bo‘lishi haqida fikr yuritadi.

Mavjud tadqiqotlarda “Ikki karra ikki – besh” qissasi hajviyot va ijtimoiy tanqid, “Ikki eshik orasi” romani esa psixologik va oilaviy masalalar jihatidan alohida o‘rganilgan. Biroq rais va Umar zakunchi obrazlarini birgalikda psixologik nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilingan maxsus tadqiqotlar yetarli emas. Ushbu maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada sifatli va qiyosiy tadqiqot yondashuvi qo‘llanildi. Tadqiqot materiali sifatida O‘tkir Hoshimovning “Ikki karra ikki – besh” hajviy qissasi va “Ikki eshik orasi” romani tanlandi. Ma’lumotlar o‘zbek badiiy adabiyoti kontekstida matnni kuzatish, saralash va interpretatsion tahlil usuli orqali yig‘ildi. Tahlil jarayonida qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanildi. Ushbu metod majmui asarlarning badiiy-strukturaviy va ma’no qatlamlarini kompleks o‘rganishga xizmat qildi.

**Natija.** Tadqiqot natijasida O‘tkir Hoshimovning “Ikki karra ikki – besh” va “Ikki eshik orasi” asarlarida yaratilgan rais hamda Umar zakunchi obrazlari hokimiyatning ikki turli badiiy talqini sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Rais obrazi hajviy-satirik uslubda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning tashqi ko‘rinish va manfaat asosida boshqarilishini ifodalasa, Umar zakunchi obrazi esa realistik va dramatik yo‘sinda insoniy qadriyatlar bilan ziddiyatga kirishgan hokimiyat vakili sifatida gavdalandi.

**Muhokamalar.** O‘tkir Hoshimovning “Ikki karra ikki – besh” hajviy qissasida rais obrazi markaziy timsol sifatida tasvirlanadi. U kolxoz raisi bo‘lib, yozuvchi bu obraz orqali sovet davri qishloq rahbarlarining manfaatparastlik, ikkiyuzlamachilik, hokimiyatni shaxsiy manfaat uchun ishlatish va oddiy mehnatkashlarni aldashni hajviy-satirik uslubda fosh etganligi aniqlandi.

Raisning ijtimoiy-siyosiy tipikligi davr konteksti bilan bog‘liqdir. 1980-yillar oxiridagi sovet jamiyatida kolxoz raislari ko‘pincha mutlaq hokimiyatga ega bo‘lgan shaxslar edi. Ular reja ko‘rsatkichlarini bajarish uchun har qanday vositadan foydalanishgan. Yozuvchi raisning ma’naviy tubanligini hajviy vosita (ironiya) orqali ochib bergan.

“O‘rtoqlar! – dedi Rais buva. – O‘rtoq jamoa a’zolari! Bilamiz, hozir dalada ish ko‘p. Sizlarning qimmatli vaqtlaringizni olib, bu yerga yig‘ishdan murod shuki, keyingi paytlarda rayonimizda Ergashev degan bir “yozuvchi” paydo bo‘lgan edi. O‘sha ig‘vogar ishimizga ko‘p halal berdi. Elni buzishga urindi. Qani, qayoqqacha borarkin, deb qo‘yib berdik. O‘sha ablah... Rais buvaning ovozi qahrli tus oldi. Siz hurmatli jamoa a’zolarining yutuqlarini kamsitmoqchi bo‘ldi. Hammamizga mag‘zava sepmoqchi bo‘ldi. Ammo haq joyida qaror topmay qo‘ymaydi ”. [270]

Bu parchadagi kolxoz raisining nutqi orqali sovet davri ijtimoiy-siyosiy tuzumidagi rahbarlarning chuqur ikkiyuzlamachiligi va ma’naviy tubanligi ustalik bilan fosh etiladi, chunki rais o‘zini el manfaatini himoya qiluvchi va haqiqatni qaror toptiruvchi rahbar sifatida ko‘rsatishga urinayotgan bo‘lsa-da, aslida tanqidiy yozuvchi Ergashevni ochiqdan - ochiq haqoratlab, uni “ig‘vogar” va “ablah” deb atab, oddiy mehnatkashlarni o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida qo‘zg‘atishga harakat qilmoqda.

Ironik ziddiyat aynan shunda yaqqol namoyon bo‘ladiki, kolxoz raisi o‘z nutqida “haq joyida qaror topmay qo‘ymaydi” degan balandparvoz va rasmiyatchilik bilan sug‘orilgan iborani ishlatgan holda, aslida haqiqatni bostirishga va o‘z mavqeini har qanday yo‘l bilan saqlab qolishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirayotgan bo‘lib, uning ichki qo‘rquvini, haqiqatni qabul qila olmasligini va o‘zining ma’naviy zaifligini yanada chuqurroq tarzda ochib beradi.

Ironiya adabiyotshunoslikda ifodaning zohiriy ma’nosi bilan botiniy mazmuni o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keltiruvchi va aynan shu ziddiyat orqali kinoyaviy yoki tanqidiy ma’no hosil qiluvchi sifatida talqin qilinadi.

Mazkur hodisaning mohiyati shundan iboratki, muallif tomonidan qo‘llanilgan ifoda tashqi jihatdan ijobiy yoki neytral tusda ko‘rinsa-da, uning ichki qatlamida salbiy baho, masxara yoki piching yashiringan bo‘ladi, shu bois ironiyani bilvosita anglash talab etiladi.

O‘zbek tilida ironik mazmunni ifodalash usullari rang-barang bo‘lib, ular struktura va ifoda imkoniyatlariga ko‘ra bir – biridan farqlanadi. E. Ibragimova o‘z tadqiqotida mazkur ifoda vositalarining darajalanish xususiyatiga ega ekanligini ilmiy asosda qayd etadi.

1985-yilda yozilgan “Ikki eshik orasi” romanida rahbar tipi sifatida Umar zakunchi obrazi muhim o‘rin tutadi. U urush yillaridagi og‘ir sharoitdan foydalanib, xalqqa zulm o‘tkazuvchi, nopok va bag‘ritosh mansabdor sifatida tasvirlanadi. Roman oxirida uning nopokligi uchun jazo sifatida baxtsiz hayot kechirishi ko‘rsatiladi. Umar zakunchining qora ichki dunyosi, ayniqsa, romanning “Tagingda oting bormi, uzangi uzilguncha surib qol” bobidagi ichki monologida yaqqol ochiladi.

“Amal kursisiga mindingmi, boshingga temir qalpoq, oyog'ingga temir paypoq kiyib olishing kerak. Ana shundagina o'zingdan yuqoriroqda o'tirganlar boshingga tepsa, joning huzur qilganday iljayasan. Yo'q, faqat, iljayishning o'zi kamlik qiladi. Oyog'ini yalaysan. Qancha qattiq tepsa, shuncha ishtaha bilan yalaysan. O'zingdan pastroq turganlarni temir paypoq kiygan oyog'ing bilan tepasan. O'shanda joning haqiqatdanam rohat qiladi”. [157]

Umar zakunchining ushbu ichki monologi uning hokimiyat haqidagi qarashlarini juda aniq ochib beradi. U mansabni buyruq berish va bo‘ysundirish vositasi sifatida tushunadi. Yuqoridagilarga nisbatan u o‘zini mutlaqo past tutadi, hatto xo‘rlanishni ham tabiiy hol deb qabul qiladi. Shu bilan birga, o‘zidan quyi turganlarga kelganda mutlaqo teskarisiga aylanadi: ularni ayamasdan bosadi, ustunligini ko‘rsatishdan huzur oladi. Bu yerda “temir qalpoq” va “temir paypoq” obrazlari uning rahm-shafqatsiz, sovuqqon boshqaruv uslubini anglatadi.

Monologning mazmuni shuni ko‘rsatadiki, Umar uchun hokimiyat — bu o‘z mavqeini saqlash va boshqalardan ustun turish yo‘li. Uning ichki dunyosi insoniylikdan uzoqlashgan, mansab esa uni yanada qabihroq qilib yuborganini ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur ikki badiiy obraz — “Ikki karra ikki – besh” qissasidagi rais va “Ikki eshik orasi” romanidagi Umar zakunchi o‘rtasidagi tipologik o‘xshashlik “Ikki karra ikki – besh”dagi rais ijtimoiy ishonch va yaqin munosabatlarni mafkuraviy niqob sifatida qo‘llab, boshqaruv qarorlarini subyektiv manfaatlarga bo‘ysundirsa, Umar zakunchi obrazida bu jarayon urush fojiasi va insoniy zaiflikdan foydalanish orqali yanada murakkab, psixologik bosim shaklida yuzaga chiqdi.

Janr poetikasi nuqtai nazaridan rais obrazi hajviy-satirik diskurs doirasida shakllanib, ironiya va kulgi orqali ijtimoiy illatlarni fosh etsa, Umar zakunchi obrazida psixologik realizm va tragik konflikt ustunlik qiladi. Natijada, birinchi matnda tanqidiy distansiya kulgi vositasida qurilsa, ikkinchisida axloqiy og‘irlik dramatik kechinma orqali ifodalanadi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijasida O‘tkir Hoshimovning “Ikki karra ikki – besh” qissasi va “Ikki eshik orasi” romanida yaratilgan rais hamda Umar zakunchi obrazlari hokimiyatni badiiy ifodalashning ikki xil poetik modeli ekanligi aniqlandi. Saydulla Mirzaev ta’kidlaganidek, O‘tkir Hoshimov sotsrealizm talablaridan chekinib, hayotni pardozsiz tasvirlash orqali yutuqqa erishgan; bu yondashuv uning “Ikki karra ikki — besh” asarida hajviy-ironik shaklda, “Ikki eshik orasi”da esa fojiaviy-realistik yo‘sinda namoyon bo‘lib, yozuvchining haqiqatni turli badiiy qatlamlarda ochib berish mahoratini ko‘rsatadi.

Adabiyotshunoslik tadqiqotlarida O‘tkir Hoshimov ijodini intertekstual va qiyosiy yondashuv asosida o‘rganishni kengaytirish taklif etiladi.

Talaba va tadqiqotchilarga badiiy obrazlarni tahlil qilishda germenevtik va qiyosiy metodlardan kompleks foydalanish, ayniqsa hokimiyat, axloq va inson taqdiri kabi konseptlarni turli janrlar kesimida o‘rganish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2013.
2. Hoshimov O‘. Ikki karra ikki — besh. Toshkent: Global Books, 2023.
3. Ibragimova E. O‘zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari: filol. fan. nomz. diss. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, 2001.
4. Mirzayev S. Hozirgi o‘zbek adabiyoti. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
5. Qosimboyeva S. N. “Ikki eshik orasi” romanida milliy ruhning poetik takomili // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. 2022. № 2 (1). B. 112–116.
6. Tojimamatov Sh. O‘tkir Hoshimovning “Ikki karra ikki – besh” qissasida qahramonlar xususiyati // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024.

Qabul qilindi: 25.02.2026 Chop etildi: 30.04.2026 UDK: 930.2:94(575.171)(043.3)

# XIVA XONLIGIDA DINIY MUNOSABATLAR TARIXINI O‘RGANISHDA KONFESSIYALARARO MUHIT MASALASINING ILMIY AHAMIYATI

***Tadjiyeva Feruza Jumabayevna, Ma’mun universiteti, “Tarix” kafedrasi dotsenti, (PhD)***



***https://orcid.org/0000-0002-9320-471X***
***e-mail: ftj85@mail.ru***

# SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF STUDYING THE HISTORY OF RELIGIOUS RELATIONS IN THE KHIVA KHANATE: THE ISSUE OF INTERCONFESSIONAL ENVIRONMENT

***Tadjiyeva Feruza Jumabayevna, Ma’mun University, Associate Professor of the Department of History, (PhD)***

# НАУЧНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ РЕЛИГИОЗНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ: ПРОБЛЕМА МЕЖКОНФЕС-СИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ

***Таджиева Феруза Жумабаевна, Университет Мамун, доцент кафедры “История”, (PhD)***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Xiva xonligida diniy munosabatlar tarixini o‘rganishda konfessiyalararo muhit masalasining ilmiy ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif Xiva xonligi diniy hayotini faqat islomiy institutlar doirasida emas, balki xonlik hududida mavjud bo‘lgan yoki u bilan aloqada bo‘lgan boshqa diniy guruhlar ishtirokida o‘rganish zarurligini asoslaydi. Tadqiqotda tarixshunoslik, qiyosiy-tarixiy, manbashunoslik hamda tahliliy-sintetik usullardan foydalanilgan. Natijada konfessiyalararo munosabatlarni o‘rganish Xiva xonligidagi diniy bag‘rikenglik, huquqiy tafovutlar, din–davlat aloqalari va siyosiy boshqaruvning mohiyatini chuqurroq yoritishi ko‘rsatib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Xiva xonligi, diniy munosabatlar, konfessiyalararo muhit, din–davlat aloqalari, Xorazm, diniy bag‘rikenglik, huquqiy maqom, tarixshunoslik.*

***Annotation:*** *This article examines the scholarly significance of the interconfessional environment in studying the history of religious relations in the Khiva Khanate. The author argues that the religious life of the khanate should be analyzed not only through Islamic institutions, but also through the presence of other religious groups living within the khanate or connected with it through political, commercial, and diplomatic relations. The study employs historiographical, comparative-historical, source-based, and analytical-synthetic methods. The findings demonstrate that the study of interconfessional relations makes it possible to more deeply reveal the nature of religious tolerance, legal distinctions, religion–state relations, and mechanisms of political governance in the Khiva Khanate.*

***Keywords:*** *Khiva Khanate, religious relations, interconfessional environment, religion–state relations, Khorezm, religious tolerance, legal status, historiography.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется научное значение изучения межконфессиональной среды в исследовании истории религиозных отношений в Хивинском ханстве. Автор обосновывает необходимость рассматривать религиозную жизнь ханства не только в рамках исламских институтов, но и с учетом иных религиозных групп, существовавших на территории ханства или связанных с ним политическими, торговыми и дипломатическими контактами. В исследовании использованы историографический, сравнительно-исторический, источниковедческий, а также аналитико-синтетический методы. В результате показано, что изучение межконфессиональных отношений позволяет глубже раскрыть особенности религиозной толерантности, правовых различий,*

*взаимоотношений религии и государства, а также механизмов политического управления в Хивинском ханстве.*

***Ключевые слова:*** *Хивинское ханство, религиозные отношения, межконфессиональная среда, отношения религии и государства, Хорезм, религиозная толерантность, правовой статус, историография.*

**Kirish**. Xiva xonligidagi diniy munosabatlar tarixi so‘nggi yillarda tobora dolzarb ilmiy mavzuga aylanmoqda. Biroq ko‘plab tadqiqotlarda xonlik diniy hayoti asosan islom, ulamolar, qozilik tizimi, vaqf va shariat amaliyoti doirasida talqin qilinadi. Holbuki, diniy munosabatlar tarixini chuqur anglash uchun faqat hukmron konfessiyani emas, balki xonlik hududida yashagan yoki xonlik bilan siyosiy, savdo va diplomatik aloqalarda bo‘lgan boshqa diniy guruhlar masalasini ham o‘rganish zarur. Ana shu nuqtayi nazar Xiva xonligidagi diniy muhitni statik emas, balki ko‘p qatlamli va o‘zgaruvchan ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Markaziy Osiyo tarixiga oid ayrim tadqiqotlar mintaqani uzoq vaqt davomida islomning mutlaq hukmron makoni sifatida ko‘rsatish biryoqlama ekanini ta’kidlaydi. Xususan, mintaqa tarixida xristian, yahudiy, buddaviy va boshqa diniy qatlamlar mavjud bo‘lgani, keyinchalik esa islomning siyosiy hamda ijtimoiy ustunligi kuchaygani qayd etiladi [2. 3–4-betlar]. Bu yondashuv Xiva xonligiga ham tatbiq etilishi mumkin, chunki Xorazm tarixi ham umumiy Markaziy Osiyo jarayonlaridan tashqarida kechmagan.

Shuningdek, Markaziy Osiyodagi din va davlat munosabatlari bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar diniy hayotni faqat e’tiqod emas, balki boshqaruv, nazorat, legitimatsiya va ijtimoiy tartib omili sifatida ko‘radi [1.5–7-betlar]. Mazkur metodologik qarash Xiva xonligidagi diniy munosabatlarni tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki xonlikda din nafaqat ma’naviy hayotning, balki siyosiy hokimiyat va ijtimoiy tabaqalanishning ham muhim tayanchiga aylangan.

Maqolaning maqsadi – Xiva xonligidagi diniy munosabatlar tarixini o‘rganishda noislomiy konfessiyalar va konfessiyalararo muhit masalasining ilmiy ahamiyatini ochib berish, shu orqali xonlik tarixini yanada mukammalroq tahlil qilish uchun zarur metodologik asoslarni ko‘rsatishdan iborat.

**Metodologiya**. Tadqiqotda avvalo tarixshunoslik tahlili usulidan foydalanildi. Bu usul yordamida Markaziy Osiyoda din, davlat va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni yorituvchi ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Xususan, dinning siyosiy tizim bilan aloqasi, diniy erkinlik va nazorat masalalari, boshqa diniy guruhlarning maqomi haqidagi fikrlar umumlashtirildi [1. 9–13-betlar].

